

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI

IBRAGIMOV X.I., YO'LDOSHEV U.A., BOBOMIRZAYEV X.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

*Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma*

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT
2009

Ibragimov X.I.

Pedagogik psixologiya: pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma/X.I. Ibragimov, U.A. Yo'ldoshev, X. Bobomirzayev; mas'ul muharrir M. Mahmudov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 400 b.

I. Yo'ldoshev U.A.

II. Bobomirzayev X.

Tuzuvchi-to'plovchilar:

Ibragimov X. I. – Navoiy DPI rektori, pedagogika fanlari doktori, professor;

Yo'ldoshev U. A. – Navoiy viloyati PKQTMOI huzuridagi MO'HMM boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

Bobomirzayev X. – Navoiy DPI o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Baratov Sh. – Psixologiya fanlari doktori, professor

Abdullayeva Sh. – Pedagogika fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

Mahmudov M. – Pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978–9943–319–74–5

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro‘y beradigan “portlash effekti” natijalari ro‘yirost ko‘rsatib berildi, ya’ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit bilan o‘zgartiradi;

- insonning hayotdan o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi;

- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

- jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyati qurilishini ta’minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o‘rin olishga, o‘zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

“Portlash effekti” sari shijoat bilan qadam tashlash, yo‘llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni junbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to‘liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi.

Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik “qurol” va vositalar bilan ta’minlash davr taqozosidir.

Ushbu aytilgan fikr va tamoyillardan kelib chiqqan holda biz pedagoglar oldida ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, diagnostikalash, korreksiyalash va shular asosida uzluksiz metodik xizmatni joriy etishni taqozo etadi. Ushbu o‘quv qo‘llanma yuqoridagi ishlarni bajarishga xizmat qiladi, degan umidda tuzildi. Fikr va mulohazalaringizni kutamiz.

I BOB. PEDAGOGIKA TARIXI VA NAZARIYASI

1.1. Ta'limning didaktik tamoyillari va qoidalari

Ushbu risolada biz siz bilgan ayrim pedagogik tushunchalarni xotirangizda jonlantirishga shu bilan yana bir karra ta'lim samaradorligiga tomon qadam tashlashingizga harakat qildik. O'ylaymizki bu sizga ozgina bo'lsada foyda keltiradi.

Ta'limning didaktik tamoyili – bu ta'limning umumiy maqsadi va qonuniyatlari, asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda ushbu jara-yonni tashkil etish va olib borishdir.

Ta'lim qoidalari – bu pedagogik faoliyatning didaktik tamoyillardan kelib chiqqan holda ma'lum maqsadga erishish jarayonidir.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki ta'lim qoidalari u yoki bu tamoyildan kelib chiqadi. Shuning uchun ta'lim qoidalarini o'qituvchiga shablon qilib berib bo'lmaydi. Zero, o'qituvchi ijodkor bo'la olmaydi va natijada ta'limning samarasi bo'lmaydi. Biz ko'pincha qoidalarga, pedagogik vaziyatlarga shablonga solingan tayyor javoblarni berishga harakat qilamiz. K.D. Ushinskiy aytganidek, qoidani bir varaq qog'ozga ham yozish mumkin bir necha yuzlab tomga ham. Ammo biz uning nazariy, ilmiy metodik tomonini o'rganishimiz lozimki, shunda har qanday pedagogik vaziyatga to'g'ri baho berishimiz mumkin. Demakki, biz ta'lim tamoyillarini o'rganib uning talabini bajarib ta'lim samaradorligiga erishishimiz mumkin.

Didaktik tamoyillar tizimining uzoq izlanishlari natijasida quyida-gilar asosiy deb qabul qilingan:

1. Faollik va ongliklik.
2. Ko'rgazmalilik.
3. Tizimlilik va ketma-ketlik.
4. Ilmiylik.
5. Tushunarlilik.
6. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash.
7. Mustahkamlik.

Siz bilgan, ammo oxirgi paytlarda unchalik katta e'tibor berma-yotgan ushbu tamoyillarga tasnif berib, mezonlari haqida so'z yuri-taylik.

Onglilik va faollik tamoyili

Ushbu tamoyil quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

1. Ishning maqsad va vazifasini aniq bilish, tushunish va tushuntirish.

2. Shunday o'qish, o'qitish, ta'lim olish kerakki, mexanik yodlamadan ma'nosini tushunib yetib ishlasin.

3. Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko'rinish va shakllarini qo'llab o'qitish.

4. Har bir so'z, gap, tushunchani to'liq ochib bera olish.

5. Jamoa bo'lib, guruh bo'lib, bir-birini o'qitishga erishish.

6. Faollikni oshirishga vaqtni qizg'anmang va ayamang.

7. Ma'lum va noma'lum narsalarni mantiqan bog'lang, mantiqsiz ta'lim ongli ta'lim bo'la olmaydi.

8. Siz o'qitayotgan fan asosiy emas, o'quvchi asosiy ekanligini unutmang.

9. O'quvchilarni olgan bilimlarini amalda qo'llash holatiga tushiring.

10. Ta'lim samarali bo'ladi, qachonki siz ishlatilishiga oid misollar ko'proq keltirsangiz.

11. Har bir narsadan asosiysini topishga o'rgating.

12. "Nimaga?", "Nima uchun?" savoliga javob topishga o'rgating.

13. Diqqatni bo'luvchi narsalarni ishlatmaslikka, qo'llamaslikka, oldini olishga harakat qiling.

14. Bilim olishning optimal — qulay yo'llarini o'rgating.

15. Bilimni bilish oson, lekin uni qo'llash qiyin. Amalda qo'llashga o'rgating.

16. Har bir shaxsning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o'qiting, muomalada bo'ling.

17. O'ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgating. Yordamchi narsalar ko'chirish, aytib turish, nusxa olishga o'rgatmang.

18. Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llang.

19. Savol berish, javob aytish qoidalari, psixologiyasini biling, faollikni oshiring.

20. Motivni qo'ya bilishga o'rgating.

Ko'rgazmalilik tamoyili

Bu tamoyil qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinayotgan eng

qulay, samarali va tushunarli tamoyil hisoblanadi. Zero, ko‘rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko‘proq va 13 marta ko‘proq taktik organlarga nisbatan ko‘proq ma‘lumotni miyaga yetkazadi. Bu ma‘lumotlar tez, oson va mustahkam o‘rnashib qoladi.

Ko‘rgazmalilik tamoyilining qoidalari juda ko‘p bo‘lib, ayrimlarini eslatib o‘tmoqchimiz:

1. So‘z bilan emas, namoyish bilan ko‘proq, tez va oson tushunib olish mumkin.

2. Shuni unutmangki bola rang, shakl, tovush (ohane) orqali tez-roq tushunadi.

3. Ko‘rgazmalilik maqsad emas, vosita ekanligini unutmang.

4. Tushuncha, bilim aniq dalil va ko‘rgazma bilan samarali ekanligini unutmang.

5. Ko‘rgazmalilik faqat tomosha emas, balki bilim olishning manbayi, izlanuvchanlik, ijodkorlikka o‘rgatuvchi omildir.

6. Ko‘rgazmali materiallardan foydalaning, ammo juda ko‘p emas, chunki bu o‘quvchi diqqatini bo‘lib, charchatib, asosiysidan chalg‘itadi.

7. Ko‘rgazma qurollarni o‘quvchilar bilan birga tayyorlash samarali natija beradi.

8. O‘zingiz bilmagan ko‘rgazmali qurolni ishlataman deb ovora bo‘lmang, uyaliq qolasiz. Oldin o‘zingiz yaxshilab o‘rganing.

9. Axborot texnologiyalari va ta‘limning texnik vositalaridan foydalanishni biling.

10. Ko‘rgazmali qurol ishlatatilib turib diqqat, kuzatuvchanlik, tafakkur madaniyati, loyihalash, ijodkorlik va o‘qishga qiziqishga o‘rgating.

11. Ko‘rgazmalilikning yoshga, nafosatlilikka, ilmiylikka mosligiga e‘tibor bering.

12. Ko‘rgazmalilikning hayot bilan bog‘liqligiga e‘tiborni qarating.

13. Ularni kerak bo‘lganda, navbat kelganda ishlatating. Oldindan hammasini ochiq qo‘yib diqqatni bo‘lmang.

14. Ko‘rgazmalilik harakatli, animatsion bo‘lishiga e‘tibor bering.

15. Elektron darslik, multimedia, videotasma, kodoslayd va hokazolardan foydalanishga harakat qiling.

Tizimlilik va ketma-ketlik tamoyili

Tashqi olamni bilish, o‘zaro bog‘liqlik tushunchalarni oddiydan murakkabga qarab borishda mantiq, mantiqiy tafakkur, qadam-baqa-

dam, uzluksiz, uzilishlarsiz, takrorlab turish bo'lmasa tizimlilik va ketma-ketlik bo'lmaydi. Bu tamoyil bir qancha qoidalar asosida amalga oshiriladi:

1. Bilimlar tizimi shakllanishining oson bo'lishi uchun shakl, jadval, reja asosida ish olib boring.

2. Tushuntirish qiyin bo'lgan yoki isbotlanmagan savolni darsga kiritmang.

3. Tizimning buzilishiga yo'l qo'ymang. Agar shunday bo'lsa yana orqaga qayting va tezda uzilishini to'ldiring.

4. O'quv fani – bu katta ilmning kichik nusxasi, o'quvchiga uning tizimini ko'rsating va bu katta fanning bir bo'laki ekanligini tushuntiring, fanlararo aloqani yo'lga qo'ying.

5. Nazariy bilimlarni shakllantirishning sinalgan shaklidan foydalaning:

a) obyekt va fanni aniqlang;

b) qoidaning asosini tushuntiring;

d) qoidani isbotlang;

e) qoidaga xulosa yasang;

f) uni qo'llash sohasini ko'rsatib bering.

6. Ayrim vaqt oddiy narsani tushuntirish, o'zlashtirish qiyin bo'ladi, shuning uchun ilmiy fanni mantiqan va tarixiy o'zlashtirishga erishing.

7. Boshlang'ich, o'rta, yuqori sinflarda jarayonning ketma-ketligiga e'tibor bering.

8. Ilg'or pedagogik texnologiyani qo'llang. O'quvchilar bilan didaktik materiallar tayyorlang.

9. Oldin o'rganganlarini takrorlab turing, bir-biriga bog'lang.

10. Yangi materialni oson (engim), sodda, tabiiy tarzda tushuntiring. Uni ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va boshqa maqsadlarni qo'llayman deb murakkablashtirib yubormang. Bu maqsadlarni o'quv yili davomida shakllantirishga harakat qiling.

11. Olingan tushunchalarni tez-tez sinab ko'rishga harakat qiling. Faqatgina takrorlash va sinash darslari va jarayonlarida emas.

12. Darsda o'quvchilarning nutqi, savodxonligiga e'tibor bering. Buni faqat tilchilarga tashlab qo'ymang.

13. O'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlashga o'rgating. Sodda, oson, yengildan qiyinroq mustaqil ish berishga harakat qiling. Yecholmasa yordam bering.

14. Tushunchalar tizimi mantiqni talab qiladi, unga erishish esa sezgi va hissiyot bilan hosil bo'ladi. Aniq, ravon, qiziqarli dalillar keltirishga harakat qiling. Har bir bo'lim oxirida albatta umumlashtirish va tizimga solish darsini o'tkazing.

15. O'quvchilarning xatolarini doimo tuzatib boring va o'z xatolarini bilib uni tuzatishga muloyimlik bilan yordam bering.

16. O'quvchilar faolligini oshiraman deb ularni jismonan qiynab qo'ymang. Sharoitga qarab ish ko'rishga o'rganing. Sun'iy faollikni oshirish bu katta pedagogik xatodir.

17. Tezkor usullar bilan o'quvchilar bir necha soatda o'rganish kerak bo'lgan narsani bir soatda o'rgatishga harakat qilmang. Hamma narsa tabiiy bo'lsin.

18. O'quvchilardan har bir mavzu, bob, bo'lim va umuman dastur bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani talab qiling. Ular o'z bilimlarini tizimga solishiga yordam bering.

19. Kuzatuvchan bo'ling va buni o'quvchilardan ham talab qiling, o'stiring, shakllantiring.

Ilmiylik tamoyili

Ilmiylik tamoyili o'quvchilarga ilmiy asoslangan bilimlarni hosil bo'lishi uchun xizmat qilib har bir fanni o'rganish metodlaridan kelib chiqib o'qitish metodlarini qo'llagan holda olib borish lozim. Dunyoni bilish, uning rivojlanish tarixini bilish, insoniyat yaratgan bilimlarni bilish, ilmiy-texnik taraqqiyot haqida tushuncha hosil qilish va uni boshqa tamoyillar bilan bog'liqligiga e'tibor berish lozim. Bunda davlatimiz tomonidan qabul qilingan DTS talablarini bajarishga erishmog'imiz lozim. Amaliyotda bu tamoyil uchun ancha qoidalar ishlab chiqilgan:

1. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun pedagogika, psixologiya, metodika, ilg'or pedagogik tajribaga tayaning.

2. Didaktik va psixologik yangi qonuniyatlar asosida induktiv va deduktiv qonuniyatlar, abstraksiyani qo'llang.

3. Aniqlik, dalillik, chuqurlik kabi tushunchalarga e'tibor bering.

4. Fanni o'qitishda mantiqqa, uni rivojlantirish bosqichlari, ketma-ketlik va o'zaro bog'liqligiga e'tibor bering. Ilmiy taraqqiyotdagi o'rnini aniqlang.

5. O'rganilayotgan fanning didaktik qonuniyatlarini o'quvchilarda tarbiyalashga harakat qiling. Didaktik tafakkurni shakllantiring.

6. Har bir yangi tushunchani bilishga, qo'llashga, mashq qilishga o'rgating, unutishga yo'l qo'ymang.

7. Fan qonunlarining o'rni, holati, rivojlanishi, qo'llanilishi, ahamiyati haqida to'liq tushuncha hosil qiling.

8. O'quvchilarga fanni o'rgatishda ilmiy bilish tafakkur, ijodkorlik, izlanuvchanlik asosida hosil bo'lishini tushuntirib bering.

9. Doimiy ravishda fan yutuqlari fan, texnika, madaniyat va jamiyatning rivojlanishida tutgan o'rnini bilishga o'rgating.

10. Olimlar, donishmandlarning fan rivojidagi o'rini bildiring.

11. Axborotlarning ko'pligini e'tiborga olgan holda fanning dolzarb muammolariga, asosiy qonuniyatlariga e'tiborni qarating.

12. Muammolar, ularning yechimi, ilmiy izlanuvchanlik, bahs, munozara, guruhli, jamoaviy tarzda ishlashni joriy eting va qadrlang.

13. O'quvchilarda muammoli holatni hosil qilib, yechimini topishdan zavq olish hissini shakllantiring.

14. Bilim olish, uni xotirada saqlash, amaliyotda qo'llashni bir-biriga bog'lagan holda yaxlitlik tushunchalarini shakllantiring.

15. O'zini, o'z psixologiyasini bilishga, bilim olish psixologiyasi va metodikasini o'rgating va h.k.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili

Bilishning asosini amaliyot tashkil etadi. Amaliyotda qo'llanilmagan bilim hosilsiz daraxt kabidir. Shuning uchun nazariya bilan amaliyot bog'lanmas ekan, hech qanday bilim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun bu tamoyilga ko'proq e'tiborni qarating va quyidagilarga rioya qiling:

1. O'quvchilarga nima uchun o'qiyotganligi va uning hayotda qanday asqotishini tushuntiring.

2. "Bilim va hayot" tushunchasini shakllantiring.

3. Nazariya va amaliyotning didaktik qonuniyatlarini ochib bering.

4. Ilmiy texnik taraqqiyotda nazariya va amaliyotning bog'liqligi haqidagi tushunchani shakllantiring.

5. Olingan bilimlarni hayotda, amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini o'zlari bilan bajarib ko'ring.

6. Har bir dars, mashg'ulot amaliyotsiz o'tmasligi lozim.

7. Maktab – ishlab chiqarish, o'quv fani – ishlab chiqarish bog'liqligiga katta e'tibor qarating.

8. Ishlab chiqarishga oid misol va masalalar, holatlar, tushunchalarga ko‘proq o‘rin bering.

9. Xalq xo‘jaligini rivojlantirishda o‘quv fanining roli, shu fanning ilg‘or ishlab chiqarish kasblari bilan bog‘lab o‘ting.

10. Muammoli ta‘lim izlanuvchanlikka, ilmiy-tadqiqot ishlari nazariya va amaliyotning bog‘liqligi, asosiy mezonni ekanligini unut-mang.

11. Mehnatga, mehnat kishilariga munosabat, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish nazariyaning amaliyot bilan bog‘lash ga-rovidir.

12. Mustaqil bilim olish, ijodkorlik, mehnatni ilmiy tashkil etish, musobaqalar ham nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi.

13. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar orqali nazariya bilan amaliyot birligiga e‘tibor bering.

14. Har bir darsda qanday ishlash kerakligi, ish unumdorligi, kimning qanday qatnashganligini baholang va umumiy ish unumdorligi qanday bo‘lganligini ta‘kidlab turing.

15. Darsda, to‘garakda, uyda olgan bilimlarini amaliyotda qanday qo‘llash mumkinligi haqida so‘z yuriting hamda sinab ko‘ring va h.k.

Tushunarlilik tamoyili

Bu tamoyil hamisha eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgani holda u o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, yosh xususiyatlari, didaktik jarayonni tashkil etish metodikasi, individual xususiyatlar (o‘quvchi va o‘qituvchining)ga bog‘liqdir. Ya.A. Kamenskiyning fikricha bu tamoyil oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma‘lumdan noma‘lumga asoslangan bo‘lishi lozim:

1. Ya.A. Kamenskiyning fikricha yosh xususiyatlari asosida ulargagina tushunarli bo‘lgan narsani o‘rgating.

2. Nimani, qanday, kimni o‘qitishni biling va shunga tayyorlaning.

3. O‘quvchi imkoniyatlarini e‘tiborga olib o‘qiting. Ularning hayot tajribasi, qiziqishini e‘tiborga oling.

4. Yosh xususiyatini e‘tiborga oling-u, ammo unga moslab emas, rivojlanish darajasidan yuqoriroq ta‘limni joriy eting va talab qiling.

5. Tabaqalashtirilgan ta‘limni joriy eting va bu ta‘limning pedagogik-psixologik, metodik qonuniyatlarini biling.

6. Ta‘lim jarayonini tashkil etishda optimal tezlikka e‘tiborni qarating. O‘quvchilarning yalqov bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang.

7. Yangi bilim tushunchalarni shakllantirishda “mayda qadam”, mustahkamlashda esa “katta qadam” tashlashni o‘rgating.

8. Ta’limda o‘xshashlik, taqqoslash, qiyoslash, qarshi qo‘yish degan tushunchalarga e’tibor bering va eng qiyin narsani ham o‘rganish mumkin degan tushunchani o‘quvchilarda shakllantiring.

9. Yangi, qiyin mavzuni o‘tishda kuchli o‘quvchilarni, mustahkamlashda esa o‘rta va kuchsiz o‘quvchilarni jalb eting.

10. Qonuniyatlarni o‘rganayotganda misollar bilan, hayot bilan bog‘lab tushuntiring.

11. Dars o‘tishda “oltin qoida”larga e’tibor bering (pedagogik, psixologik, metodik).

12. Sekin shoshilmang! Shoshilib samaraga erishaman deb o‘ylamang.

13. O‘quvchilarning bir martalik yutug‘idan xulosa chiqarmang. Buni uni bilishning boshlang‘ich bosqichi deb tushuning.

14. Tushunarlilik tamoyili o‘qituvchining nutqi, tushuntirish holatiga, aniqligiga, hissiyotiga, ritmiga, ohangiga, keltirayotgan misoliga bog‘liqligini unutmang.

15. Oson tushunish mumkin bo‘lgan narsani o‘quvchilar ixtiyoriga qo‘ying.

16. Materialni bo‘laklab, so‘ngra yaxlitlab, so‘ngra xulosalab, keyin esa amaliyot bilan bog‘lab tushuntiring.

17. O‘quvchilarning bilish jarayonida o‘qituvchining roli ular faoliyatini yengillashtirish emas, boshqarish ekanligini unutmang va h.k.

Mustahkamlik tamoyili

Bu tamoyil olimlarning ko‘p yillik izlanishlari natijasi va o‘qituvchilarning tajribalari asosidagi qoidalardan iborat bo‘lib, u nazariy va amaliy qoidalar, o‘quvchilarning bilish jarayoni kuchi va ta’limni tashkil etish qoidalari, o‘quvchilarning shu fanga munosabati, qiziqishi, tashkil etish metodikasi, olib borish usuli va uslublariga bog‘liq. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonning mustahkamligi juda murakkab bo‘lib, olimlarning oxirgi ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko‘rsatadiki, ixtiyoriy yodda saqlashdan ko‘ra ixtiyorsiz yodda saqlash mustahkamroq bo‘larkan. Bu esa o‘z navbatida yangi qoidalarni keltirib chiqaradi, chunki ixtiyoriy yodda saqlash lozimligi asosidagi qoidalar o‘z kuchini yo‘qotadi va quyidagilarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

1. Zamonaviy ta’limda xotira asosiy rol o‘ynab, kerak bo‘lmagan

bilimlarni yodda saqlab turish va xotirani charchatib, tafakkurni pasaytirmaslik lozim.

2. O'quvchilar xotirasida yaxshi tushunmagan narsalarni qoldirmaslikka, faqat tushungan, yaxshi bilgan narsani qoldirishga harakat qiling.

3. Qoriday yodlash emas, kerak bo'lganda manbalardan foydalanishga o'rgating.

4. O'rganganini yodda saqlashning psixologik qonuniyatlarini yana bir bor o'rganib chiqing.

5. Esda saqlashi lozim bo'lgan material juda katta bo'lmay, qisqa qatorlardan iborat bo'lsin. (Hozirgi adabiyotlarda "Yodda saqlang" degan ogohlantirish bor.)

6. O'quvchilarga ixtiyorsiz yodda saqlash haqida ko'rsatma bermang. Buning o'rniga qiziqitiring yoki "qizdiring".

7. "Takrorlash — bilimning onasi", ammo tez-tez takrorlash esa zerikarli va tez unutish garovi ekanligini unutmang.

8. O'quvchilar diqqatini bo'luvchi narsalar — kechikish, boshqa ish bilan mashg'ullik, ular fikrini chalg'itib kimningdir sinf xonasiga kirishi kabilarga yo'l qo'ymang.

9. Har bir o'quvchining imkoniyat darajasida, ammo to'liq kuch bilan ishlashini yo'lga qo'ying.

10. Qiziqishni va darsga ijobiy munosabatni shakllantirmay (psixologik iqlim yaratmay) turib darsni boshlamang.

11. Ma'lumotlarni mantiqiy bog'lanish orqali uzating (ketma-ketlik va qiziqarli qilib).

12. Ta'lim jarayonining samaradorligi pasayishini sezishingiz bilan darhol sababini aniqlang va tuzatishga harakat qiling (charchoq, qiziqishning susayishi, motivning yo'qligi, kayfiyat, munosabat va h.k.).

13. O'quvchilarning ixtiyoriy diqqatidan foydalanib "tarbiyalamang". Undan ko'ra hazil, qiziqarli voqea, holat bilan darsni qiziqarli o'ting.

14. Bilimning mustahkamligi mustaqil takrorlash, bir-biriga o'rgatish va bir-biridan o'rganishga bog'liqligini unutmang.

15. O'quvchilarning xotirasini o'stiring, yodda saqlashning psixologik va mnemotexnik yo'llarini o'rgating.

16. O'z materialini tabaqalashtirishga harakat qiling, hammasini emas, asosiyini topib ko'rsata biling.

17. Motivni qo‘ymasdan, bilim olishga intilishni shakllantirmasdan turib yangi bilimni berishni boshlamang. Majbur bo‘lib o‘rganagan narsa mustahkam bo‘lmaydi.

18. Takrorlash va mustahkamlashda xotira va tafakkurni faollashtirishga harakat qiling. Hissiyot va sezgini rivojlantiring, ko‘rgazmalilikka e‘tibor bering.

19. Takrorlashni yangi bilim berish darsiday o‘tmang. O‘quvchilarga erkinlik bering.

20. Bilimni mustahkamlash hissiyotga, ko‘rgazmalilikka, texnik vositalarga, didaktik o‘yinlarga, o‘quv munozaralarga, muammoli va izlanuvchanlik ta‘limiga bog‘liqligini unutmang.

21. Yangi bilim berishni oldingilari bilan bog‘lab, yanada yangilashga harakat qiling.

22. Oson topshiriq berib zeriktirmang, qiyin topshiriq berib zo‘riqtirmang.

23. O‘quvchilarga darsni qoldirish, kechikib kelish, yalqovlik qilish, boshqa ish bilan mashg‘ul bo‘lishiga yo‘l qo‘ymang va yo‘l qo‘ydirmang. Bilimlarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib turing va h.k.

1.2. Motiv – bilish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi

Didaktik jarayonning, qolaversa, ta‘lim-tarbiya jarayonining ham harakatlantiruvchi kuchi, samarasi ham motivga bog‘liq bo‘lib, u birinchi o‘rinda turadi (bilish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar orasida). Ikkinchi o‘rinda o‘qishga munosabat, uchinchi o‘rinda o‘qishga ehtiyoj va h.k. Shuning uchun biz motiv, motivlash haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Motivni o‘rganish va to‘g‘ri foydalanish, keraklisini shakllantirish, shaxsni to‘g‘ri kerakli yo‘nalishda rivojlantirishga qaratilgan didaktik jarayonning, o‘qituvchi mehnatining yuragi, o‘zagi hisoblanadi. Motiv bu o‘quvchining fanga, o‘qishga faoliyatga, munosabatining ko‘rinishi bo‘lib, aniq sabab, oqibat, ishonch shaxsni harakatga, ishlashga undovchi omildir.

Motiv roliga va unga hamkor sifatida ehtiyoj va qiziqish, intilish va hissiyot, ideallar va maqsadlar ham o‘zaro bog‘liq. Shuning uchun motiv murakkab hosila bo‘lib, dinamik tizim hisoblanadi. Bunda muqobil fikrni tahlil qilish va baho berish, tanlash va qaror qabul qilish lozim bo‘ladi va bajariladi. Yana shunisi bilan qiyinki motiv

kompleks (mujassam) bo‘lib, hech qachon bitta motiv bilan ish ko‘rmaymiz va motiv o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan doim ham qabul qilinavermaydi, tushunilmaydi. Motivni o‘rganish hozirda pedagogika va psixologiyaning asosiy, markaziy muammolaridan biri hisoblanadi.

Motivni o‘rganish bo‘yicha olimlarimiz anchagina yutuqqa erishgan bo‘lsalarda, uni tizimga solish va aniq yo‘nalishlar ishlab chiqilmagan. Motivni tizimga solish, uning mezonlarini ko‘rsatib berish bo‘yicha ijtimoiy va bilishga oid ayrim turlari ishlab chiqilgan:

– **keng doiradagi ijtimoiy motivlar** (burch, javobgarlik, o‘qishning ijtimoiy o‘rnini bilish) shaxsning jamiyatdagi o‘rni va moslashishini belgilab beradi;

– **tor doiradagi ijtimoiy motivlar** (kelajakda birorta mansabga erishish, atrofdagilar e‘tiborida bo‘lish, o‘z mehnatiga yarasha taqdirlanish kabi);

– **ijtimoiy hamkorlik motivlari** (sinfda o‘z o‘rnini va holatiga ega bo‘lish, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabat turlariga yo‘nalganlik va h.k.);

– **keng bilish motivlari** (eruditsiya o‘qish jarayoni va natijasidan qoniqish va h.k.);

– **o‘quv – bilish motivlari** (bilim egallashning yo‘llarini bilish, aniq bir o‘quv fanini o‘rganish va h.k.);

– **o‘z ustida ishlash motivlari** (qo‘shimcha bilim olishga yo‘nalganlik)..

Amaliy pedagogikada bu motivlar quyidagi guruhlariga bo‘linadi (yo‘nalishi va mazmun jihatidan):

1. Ijtimoiy – 40 %
2. Bilish – 50 %
3. Kasbiy – 40 %
4. Estetik – 45 %
5. Kommunikatsion – 70 %
6. Status – o‘rinli – 55 %
7. Tarixiy – an‘anali – 30 %
8. Amaliy – utilitar – 50 %

Pedagoglar 80-yillarda ta‘limning ijtimoiy o‘rnini o‘quvchilarda shakllantirmoqchi bo‘ldilar, bugunda esa bu to‘g‘ri kelmay qo‘ydi. Uning o‘rnini kommunikatsion va status-o‘rinli motivlar egallay bosh-

ladi. Zero, shaxsiy qiziqishlar kuchaya boshladi, faqat uni yo'naltirish kerak bo'ladi.

O'qish-bilish motivlarini ichki va tashqiga ham bo'ladilar.

Tashqi bu pedagoglar, ota-onalar, jamoa, jamiyat tomonidan buyruq, ko'rsatma, talab, hattoki majburlash bilan motivni singdirmoqchi bo'ladilar. Bu shaxsning ichki qarshiligiga uchrab, insoniylik xususiyatini yo'qotishi mumkin.

Haqiqiy motiv har bir shaxsning ichki dunyosidan, o'zidan kelib chiqishi lozim. Bu o'qish motivi bo'la oladi va buni biz tarbiyalashimiz shart.

Motiv **tushunarli** va **tushunarsiz**, ya'ni anglangan va anglanmagan – (yanglish) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari motiv real bo'lishi mumkin. Buni biz o'qituvchi va o'quvchilarning o'z yutuqlarini bilishlarida, ish natijasining samarasida ko'ramiz.

Motiv avvalambor o'qishga munosabatda ko'rinadi. O'qishga munosabat esa:

1. Salbiy – motiv yo'q yoki kam.
2. Befarqlik – motiv yo'q yoki kam, lekin o'zgartirsa bo'ladi.
3. Ijobiy (amorf) – motiv bor, ammo kuchsiz.
4. Ijobiy (bilish, faol motiv bor, tushunish) – kuchli.
5. Ijobiy (shaxsiy, javobgarlik motivi bor, harakatchan) – chuqur anglangan.

O'qishga munosabatni o'qituvchilar ko'pincha faollik bilan o'lchaydilar va uni quyidagilarda ko'radilar:

- o'quv topshiriqlarini bajaradi;
- doimiy ravishda ishlaydi;
- o'z bilimini oshirishga harakat qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda faollashtirishni quyidagi mezonlar bilan o'lchaydilar:

- fikrni himoya qilish;
- munozara va bahsda ishtirok etish;
- savollar bera olish;
- javoblarni taqriz qila bilish;
- o'rtoqlarining javoblari va yozma ishlarini baholay olish;
- o'zlashtirmovchilarga yordam berish;
- tushunarsiz joylarini tushuntira olish;
- bir necha variantda ishlay olish yoki ayta olish;

– har qanday holatga baho bera olish va h.k.

Shuni ham ta’kidlash joizki mustaqil bilim olish, mustaqillik – yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillaridir. Bu yo’lda qilinayotgan ishlar interfaol o’quv qo’llanmalar ishini samarali tomonga siljitib, motivni o’stirishga qo’ya bilishga o’rgatadi. Bunga esa komputer, komputerlashgan dasturlar, multimedia, elektron darsliklar, test, reytinglar kiradi. Ayrim xulosalarga ko’ra o’ta faollik o’quvchini charchatib qo’yishi ham mumkinki, buni me’yorga solish darkor. Insonga ta’sir etuvchi asosiy motivlardan biri bu qiziqishdir. Qiziqish (ahamiyatga molik, zarur degan ma’noni bildiradi) harakatning asosiy real sababchisidir. Qiziqish birinchidan bilimlarning sifati va darajasi bilan o’lchanadi, ikkinchidan esa o’qituvchiga munosabati bilan qaysi o’qituvchini sevsalar va hurmat qilsalar o’sha o’qituvchining faniga qiziqadilar va yaxshi o’qiydilar. Quyidagi jadvaldan o’zingiz xulosa chiqarib olishingiz mumkin.

Munosabat

Sinf	O’qituvchiga	Fanga (%)		
		Sevimli	Befarq	Sevimli emas
6	Sevimli	87	11,5	1,5
	Befarq	33	50	17
	Sevimli emas	14	14	72
7	Sevimli	84	15	1
	Befarq	14	65	21
	Sevimli emas	21	21	58

Qiziqishni oshirish uchun quyidagi vosita va yo’llarni qo’llash mumkin:

- qiziqib berilib o’qitish;
- o’quv materialini qiziqarli qilib tushuntirish;
- tarix bilan bog’lash;
- odamlar hayoti bilan bog’liqligi;
- amaliy ahamiyatini ko’rsata bilish;

- ilg'or, interfaol usullarni qo'llash;
- muammoli ta'lim;
- evrestik suhbatlar;
- didaktik o'yinlar;
- komputerli ta'lim;
- multimedia;
- dialogli, guruhli, jamoaviy o'qish;
- test, reyting bilan bilim ko'nikmalarni sinash;
- natijalarni ko'rsata bilish, namoyish etish;
- musobaqa (o'zi bilan, o'rtoqlari bilan);
- sinfda psixologik ijobiy iqlim yaratish;
- ishonch;
- pedagogik mahorat va takt orqali;
- o'qituvchining o'z faniga va o'quvchilarga munosabati;
- ta'lim jarayoni va munosabatni insoniyashtirish orqali va h.k.

Motivni o'rganish va shakllantirish

Motivni o'rganish va shakllantirish quyidagi algoritm asosida olib boriladi.

1. Ta'limning maqsadini aniqlash va belgilash.
2. Motivatsiyani yosh xususiyatlarga moslashni aniqlash.
3. Motivatsiyaning boshlang'ich o'rnini aniqlash, o'rganish.
4. Motivlarning valiratsiyasi (kerakli, asosiylarni) aniqlash, o'rganish.
5. Motivning individual xususiyatlarini o'rganish, aniqlash.
6. O'zgarish (kamayish, ko'payish, doimiy) sabablarini o'rganish aniqlash.
7. Kerakli motivlarni shakllantirish.
8. Yutuqlarni baholash va keyingi ishlarni rejalashtirish.

Buni (natijani) aniqlash uchun:

1. O'qishga munosabat.
2. O'qishdan maqsad.
3. Motiv (nima uchun o'qiydi).
4. Hissiyot.
5. O'qishni bilish.
6. O'qish darajasi.
7. O'qishga layoqati.

Bularni aniqlash uchun doimiy o'rganish usullari – suhbat, so'rov

varaqasi, kuzatish kabilardan foydalanamiz.

Bundan tashqari ekspertlar ishtirokida baholash usulidan foydalanishimiz mumkin.

Motivni qo‘yish strategiyasi

1. **Strategiya:** ishni uzoq vaqtga rejalashtiring.
2. **Hamkorlik:** o‘zingizga o‘qish uchun hamkor toping: siz unga, u sizga o‘rgatsin.
3. **Tarkibiy tuzilishi:** mashg‘ulot uchun aniq vaqtni belgilang (soat, kun, hafta kunlari).
4. **Aniq reja:** o‘qishning maqsad va vazifasini belgilab oling.
5. **Motiv:** o‘qish mazmunini qachon, qayerga ishlatishingizni, qachon kerakligini belgilab oling.
6. **Doimiylik, ketma-ketlik:** oson – qiyin – o‘ta qiyin sxemasi asosida ishlang.
7. **Qo‘shimcha:** o‘rganilayotgan materialga qo‘shimcha rasm, jadval, izohlar tuzing.
8. **Mukofot:** ishni bajargandan so‘ng o‘zingizga yoqimli so‘z aytib (o‘zingizni maqtang).
9. **Kengaytirish:** qo‘shimcha adabiyotlar o‘qing, o‘rtoqlaringiz, o‘qituvchingiz bilan munozara qiling.
10. **Omonat:** mashq bajarib, takrorlab turing. Unutmaslikka harakat qiling.

Buni unutmang:

1. Kim o‘zini hurmat qilsa o‘qish samarasi kuchli bo‘ladi.
2. O‘qishdagi muvaffaqiyat ta‘lim jarayoni katalizatori.
3. O‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndiradi.
4. Xursandchilik va qiziqish o‘qishni osonlashtiradi.

Buni yodingizdan chiqaring:

1. Ish bunday bo‘lmaydi.
2. Bunaqasi bo‘lmagan.
3. Menga ishonishing mumkin.
4. Bunga qanday aqling yetdi.
5. Bunisi endi sening ishing emas.
6. Bunga bizning vaqtimiz yo‘q.

7. Odam bo'lmaysan.
8. Sendan bir narsa kutish qiyin.
9. Bu haqiqatmi? O'zingmisan?
10. Kesakdan ham olov chiqdi va h.k.

Qanday motivlaysiz?

1. Kasbiy kelajak va o'tmish:

- a) o'qituvchi bo'lishga qanday motiv sababchi?
- b) kasbiy yuksalishingizda pedagogik faoliyatning o'rni.

2. Aktual holat:

- a) mashg'ulotda o'zingizni qanday his qilasisz?
- b) o'qituvchilik faoliyatingizdagi xursandlik holatlari;
- d) o'qituvchilik faoliyatingizdagi xafachilik holatlari, qiyinchiliklar.

3. Mashg'ulotlarni rejalashtirish:

- a) rejalashtirish yaxshi natija beradimi?
- b) metodik jihatdan mashg'ulotni qanday tuzasisz?
- d) maqsad (o'quv)larni qanday qo'yasisz?

4. Mashg'ulot paytida sizning xulqingiz, holatingiz:

a) qanday holatlarda (mashg'ulotda) o'zingizni haqiqiy pedagog deb hisoblaysiz?

b) o'qituvchilik faoliyatingizda qanday holatlardan voz kechishni istar edingiz?

d) o'qituvchilik faoliyatingizning qaysi jihatlarini o'zgartirgan bo'lar edingiz?

5. Ta'lim motivlari:

- a) dars Siz uchun qiziqmi?
- b) o'z faningizni sevasizmi?
- d) o'z ishingizni sevasizmi?
- e) o'z sinfingizni yaxshi ko'rasizmi?
- f) qanday holatlar Sizga ishlash uchun noqulay?
- g) o'z yutuq va kamchiliklaringizni tahlil qilganmisiz?
- i) motiv nimaligini bilasizmi? O'quvchilaringizning motivlarini o'rganganmisiz?

l) o'quvchilar Sizga ishonadimi? Sevadimi?

Ushbu savollar orqali Siz o'zingizni nazorat qilishingiz, refleksi-yangizni aniqlashingiz va motivlarni yana bir bor sinab, pedagogik mahorat sari qadam tashlashingiz mumkin.

Kim, nima uchun o‘qiydi? Nega maktabga keladi? (Motivni aniqlash uchun)

1–2-sinf o‘quvchilari:

- dadam va onam aytgani uchun;
- “5” baho olish uchun;
- hamma o‘qiydi-ku;
- o‘qimasam shofyor bo‘larkanman;
- yaxshi o‘qisam o‘qituvchim taqdirlaydi (erkalaydi);
- ota-onam narsa olib beradi va h.k.

3–4-sinf o‘quvchilari

- muhandis bo‘laman, otamdek;
- menga maktab va do‘stlarim yoqadi;
- o‘qituvchim yoqadi, bizni ekskursiyaga olib boradi;
- savodli bo‘lish uchun;
- uyda bir o‘zim qolmaslik uchun;
- dengizchi bo‘laman;
- prokuror bo‘lish uchun.

5-sinf dan boshlab motivlar o‘zgarib, u ijtimoiy, kommunikatsiyali o‘rinlarga chiqib boshlaydi va o‘rta sinflarda (7–8–9) muloqot, o‘zaro hamkorlikda o‘qish, hayotda o‘z o‘rnini topish, kimgadir o‘xshash uchun kabi motivlar paydo bo‘la boshlaydi. Bundan tashqari sevimli fanlar, yoqmaydigan o‘qituvchilar, yoqadigan o‘qituvchilar paydo bo‘la boshlaydi. Nega yoqmaydi deb savol berib o‘sha fanga oid baholarini, darsini tekshirib turing-chi nima bo‘ladi. Motiv qanday o‘zgarishini ko‘rasiz. Tanlagan kasbi ham o‘zgaradi. O‘qituvchi ham yoqa boshlaydi, fan ham. Chunki u shu fanni yaxshi o‘zlashtirmoqda va qiziqmoqda. Yuqori sinf o‘quvchilarida endi motiv ijtimoiy o‘rin olib, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, hayot yo‘lini tanlay boshlaydi, ancha kech buni tushunadiganlar (faqat 11-sinfda) ham bo‘ladi.

Yuqori sinflarda motivlar qisqara boradi va aniq maqsadli motivlar paydo bo‘la boshlaydi. Jamiyatda o‘z o‘rnini topish, kasb egasi bo‘lish, ma‘lumot olish birinchi o‘ringa chiqadi.

Biz qisqacha motiv, uning kelib chiqishi, o‘rganish, shakllantirish haqida so‘z yuritdik, xolos.

O‘ylaymizki bu sohada o‘z bilimlaringizni oshirib, ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga erishasiz.

1.3. Pedagogik mahorat – ta’lim jarayonining bosh mezon

O’qituvchining kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahoratning o’zi nima? – deb savol bersangiz nechta kishi bo’lsa o’shancha xil javob beradi. Har birini diqqat bilan tinglasangiz, har qaysi javobda ham albatta biror-bir yangilik, o’zak so’z bo’ladi.

“Pedagogik mahorat” tushunchasini ensiklopedik lug’atdan qaraydigan bo’lsak, bu – ta’lim va tarbiya jarayonini doimo rivojlantirib yuksak darajaga olib chiqish san’ati bo’lib, bu har bir pedagog uchun xos, qachonki u bolalarni va ishini sevsa.

Pedagog bu – yuksak madaniyatli mutaxassis, o’z fanini chuqur biluvchi, umumiy va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta’lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir.

Pedagogika tarixida ikkita ta’rif bo’lib, birinchisi pedagogik mahoratni ta’lim-tarbiya metodlari bilan bog’lasa, ikkinchi guruh olimlar esa pedagog shaxsini asosiy omil deb hisoblaydi. Bunday tushunchani ajratib bo’lmaydi, zero metod ham, shaxs ham bir-birizsiz bir-birini to’ldirolmaydi va metodni olib borish uchun ko’p narsani bilish va bajara olish lozimki, bular ta’lim-tarbiya qonunlari, tamoyillari, texnologiya, diagnostika, loyihalash, korreksiyalash (tuzatish) va hokazolardan iborat.

Buni mahorat bilan bajarish uchun ko’p yil va uzoq mehnat talab qilinadi (ko’plarda). Yana shunday fikr borki, bunday mahoratga ega bo’lish uchun talant (irsiy belgi) kerak. Hayotda hamma tarbiyachi bo’lib tug’iladi (ayrimlardan tashqari), demakki, faqat pedagogik mahoratni o’rganish, o’rgatish kerak.

A.S. Makerenko fikricha “...nima biz faqat talantlarni izlashimiz kerakmi? Ular nechta? Talantli bo’lmagan bola nega jabr tortishi kerak? Demak, biz talantgagina e’tibor berib tarbiyani qura olmaymiz. Biz faqatgina pedagogik mahoratga tayana olamiz, demak, o’qituvchi tarbiya jarayonini to’liq, aniq bilishi shart”.

Ayrim olimlarimizning fikricha (N.D. Kuzmina) bor-yo’g’i 12% o’qituvchi talantli bo’lib, qolganlari pedagogik mahorat qirralarini egallagan o’qituvchilardir.

Pedagogik mahorat shunisi bilan ajralib turadiki, bunday o’qituvchilar har qanday vaziyatdan chiqa oladi, javob topa oladi va o’quvchilarning tarbiyalanganlik va bilimdonlik darajasining samara-

dorligiga erisha oladi. Bunday o'qituvchi o'z fanini chuqur biladi, uning yutuqlarini, istiqbollari haqida bilimga mukammal ega, ijtimoiy faol, intellektual shaxs.

Birgina bilimlarning o'zi yetarli mi? Uni o'quvchilarga yetkaza bilish ham kerak. Bu esa metodika. Bunga o'rgatish mumkin mi? – degan savol tug'iladi. Ha, agar uzluksiz malaka oshirib, o'z ustida ishlasa va pedagogik tajribani kuzatib, o'rganib borsa. Xo'sh, bu mahorat nimalarda namoyon bo'ladi:

1. Albatta birinchi o'rinda dars turadi, ya'ni o'qita bilish. O'qituvchilar faoliyatini boshqara bilish. Darsda o'rganish. Uyg'a vazifa bu chuqurlashtirish, to'ldirish, xolos. Darsda o'qituvchi – rejissor.

2. Pedagogik mahoratning yana bir tomoni bu – o'qituvchilarni faollashtirish, qobiliyatini rivojlantirish, mustaqillikka o'rgatish. Bunday o'qituvchi o'quvchilarni fikrlashga, ijodkorlikka, mustaqil ishlashga, bir-biridan o'rganishga o'rgatadi.

3. Pedagogik mahoratning yana bir jihati ta'lim jarayonida tarbiyalashdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida axloqiy xislatlarni, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mustaqillik kabi xislatlarni shakllantiradi.

4. Ijobiy hissiyotni shakllantirish esa oddiy usullar, hissiyot, faollik, hazil-mutoyiba, qiziqarli misollar, ijobiy tanqid, takroriy bo'lmagan metodlar, original variantlar kabi ishlar bilan olib boruvchi o'qituvchi mahoratidir. O'quvchilar bunday o'qituvchini, uning fanini sevadilar.

5. Pedagogik mahorat – pedagogik texnika, takt, temp (gapirish me'yori) shaxsiy xususiyat, bilim, dunyoqarash, umumiy bilimdonlik, ilg'or tajribani bilish, ta'lim-tarbiyaning qonunlari, tamoyillari, vazifasi, maqsadini, vositasini bilishdir.

6. Pedagogik mahoratning asosiyilaridan yana biri bu muloqotni, muloqot psixologiyasini bilishdir. O'z shaxsiy xususiyatlari va o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini bilish orqali munosabatda bo'lish. O'z diqqati va o'quvchilar diqqatini boshqara olish, hissiyotni boshqarish va uni ko'rsata bilish, nutq, nutq madaniyatini bilish va h.k.

7. Nutqsiz muloqot ham pedagogik mahoratda asosiy rol o'ynab, unga mimika, pantomimika, tovush ohangi, harakat, sukut, masofa, teginish, intonatsiya, qanday holatda turish va h.k.lar kirib, uni mahorat bilan bajara olish ham lozim.

Shu o'rinda ikki mashhur pedagoglarning so'zini keltirmoqchimiz.

A.S. Makarenko shunday degan edi: "Men bir so'zni 15–20 xil

ohang bilan va yuz, tovush, gavdamni 20 xil holatga tushira olganimdan so'nggina o'zimni haqiqiy pedagog deb hisobladim".

Amerikalik pedagoglar D. Brofi va T. Gudlar esa "O'qituvchi va o'quvchi munosabati" kitobida shunday yozadi: "O'qituvchi uchun muloqot tabiiy va xursandchilik bo'lmasa — o'qituvchi maktabdan ketishga tayyor bo'laversin".

Ammo bu tushunchani shunday tushunmog'imiz lozimki, muloqot har qanday sun'iylikdan xoli bo'lib, tabiiy tarzda bo'lmog'i lozim. O'qituvchi xursandchiligini ham, xafaligini ham, taajjubda ekanligini ham, o'ta xursandligini ham ko'rsata bilsin. Shunda o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladi va ular ham o'qituvchisidan o'rnak oladi.

1.4. Pedagogik tajriba psixolog nigohida

Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxslarni, ya'ni Komil insonni yetkazish — shakllantirishdan iborat. Shunday ekan biz ta'lim-tarbiya samaradorligini o'quvchilarning qay darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanliklari, tarbiyalanganlik darajalari, mustaqil bilim olishga, hayotda o'z o'rinlarini topish uchun qanday tayyorgarligi bilan o'lchashimiz, baho berishimiz lozimligini bilishimiz shart.

Biz bu sohada pedagogik tajribani o'rganar ekanmiz, ko'pincha o'qituvchiga, uning faoliyatiga, usul-uslubiga, qo'llayotgan didaktik materiallariga, vositalariga baho bera olamiz. Ammo shular o'quvchiga nima berayapti, yuqoridagi tamoyillar qanday bajarilayapti — bu tahlilimizda ikkinchi darajali bo'lib soyada qolib ketadi.

Shuning uchun biz ushbu tavsiyada pedagogik tajribani psixologik nigoh bilan, ya'ni o'quvchi faoliyatiga shu tajriba nima beradi deb, nima berishi kerak degan fikr asosida, pedagogik tajribaning shaxs kamolotidagi o'rnini quyidagi mezonlar bilan o'lchamoqchimiz:

1. Ushbu pedagogik tajriba psixologik qonuniyatlar asosida tuzilganmi? U shaxs rivoji qonuniyatlariga bo'ysunadimi?
2. Agar shunday bo'lmasa ayrim olingan shaxs xususiyatlarini ochib bera oladimi?
3. Bunda (pedagogik tajriba) ta'lim va rivojlanish hamkorligining qaysi jihatlari maksimal darajaga (samaraga) ega.
4. Tafakkurning qaysi turi bu tajribada to'liq shakllantiriladi?
5. Qanday munosabat turi ko'proq qo'llaniladi va uning ta'limiy

va tarbiyaviy ahamiyati nimalarda o'z aksini topgan?

6. Shaxsiy pedagogik xususiyatlarning qaysilari ko'proq rivojlantiriladi va uning komil inson xususiyatlarida tutgan o'rni.

7. Pedagogik tajribada psixologik iqlim, tashkiliy qism, o'quvchi faoliyati, dars yakuni, motiv, maqsad, vazifaga moslikning darajasi qanday? kabilar asosida ko'rib chiqamiz va baho beramiz.

Ilg'or pedagogik tajriba bilan ilg'or pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, mezonlari va tamoyillarini bir-biriga aralashtirib yubormaslik kerak, ammo ular bir-birini to'ldirishini, uyqash ekanligini, bir xil maqsad va vazifani – komil insonni shakllantirishini unutmasligimiz lozim. Ilg'or pedagogik tajriba bir fanga, fanlarga oid bo'lsa, ilg'or pedagogik texnologiya esa barcha fanlarga oid bo'lib, interfaol usullar asosida ish ko'radi. Ilg'or pedagogik tajribada esa nostandart darslar, ayrim o'qituvchilarning o'z fanlarining o'rganish metodlariga xoslikda namoyon bo'ladi. Ammo o'qituvchilar nostandart darslar bilan interfaol usullarni chalkashtirishi natijasida ikki xillik tushunchasi paydo bo'ldi va bu ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish muammosini keltirib chiqardi. Natijada muammoli kurslar, ilg'or pedagogik texnologiyaga oid seminar-trening, qisqa muddatli kurslar, seminarlar o'tkazilib nostandart darslar, interfaol usullar haqida nazariy va amaliy bilimlar hosil qilindi, axborot texnologiyasidan foydalanish, axborot – ma'lumot to'plash, foydalanish o'rgatildi.

Yuqorida berilgan yaxshi xulqlar va ularning mezonlaridan foydalanib tarbiyalanuvchining tarbiyalaganlik darajasini aniqlash mumkin. Bunda o'n muddatli kurslar, seminarlar o'tkazilib nostandart darslar, interfaol usullar haqida nazariy va amaliy bilimlar hosil qilindi, axborot texnologiyasidan foydalanish, axborot – ma'lumot to'plash, foydalanish o'rgatildi. Natijada o'qituvchilar nostandart darslar:

1. Ish o'yin.
2. Press konferensiya.
3. Musobaqa.
4. Quvnoqlar, zukkolar, topqirlar.
5. Teatrlashtirilgan darslar.
6. Suhbat-maslahat darslar.
7. Komputerli darslar.
8. O'zaro ta'lim.

9. Ijodkorlik darslari.
10. Kimoshdi savdosi.
11. Ijodiy hisobot.
12. Ko'rik-tanlov.
13. Binar darslar.
14. Sud darslari.
15. Konsert darslari.
16. Kasbga yo'llash darslari.
17. Hosil bayrami.
18. Rolli o'yinlar.
19. Seminar.
20. Konferensiya.
21. Fanlararo aloqa.
22. Mo'jizalar maydoni.
23. Ekologiya darslari.
24. Formulalar darslari.
25. To'siq (blol) darslar.
26. Sinov darslar.
27. Test darslar.
28. Haqiqatni izlash kabilar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ldilar.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda, tahlil qilishda ta'limning didaktik tamoyillari va o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishning xususiy tamoyillari:

- mustaqillilik;
- rivojlantirish;
- kollektivlik, jamoaviy ish;
- o'z-o'zining faoliyatini tashkil etish;
- rolli ishtirok;
- javobgarlik;
- psixologik ta'lim kabilar nuqtayi nazaridan kelib chiqamiz.

Har bir pedagogik tajribada esa yuqoridagi xususiy tamoyillarni qay darajada hayotga – amalga tatbiq etilishining samaradorligi bilan o'lchaymiz. Yakuniy xulosa esa o'quvchilar bilim, ko'nikma va malaka darajasi, tarbiyalanganligining ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Bilim, ko'nikma va malakani aniqlashning juda ko'p usullari: test o'tkazish, reyting asosida, amaliy va yozma ishlar, kuzatish, suhbat,

tajriba, tarjimayi hol, faoliyat tahlili kabilar bo‘lib, uni o‘tkazish hech kimga unchalik qiyin bo‘lmaydi.

Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganishda maktab psixologining o‘rni ham (tashxis kartasi orqali), sinf rahbarining roli ham, sinf oynasi (jurnal) ham manba bo‘la oladi.

Pedagoglar o‘rtasida ta‘limda tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta‘limni shakllantiramiz degan tushuncha bor. Shuning uchun tarbiyaning ta‘limdagi, ta‘limning tarbiyadagi o‘rni beqiyos.

Demak, ilg‘or pedagogik tajribani ham tarbiyaviy, ham ta‘limiy, ham rivojlantirish, ham mafkuraviy, ham kasbga yo‘llash yo‘nalishi bo‘yicha tahlil etishimiz lozim, zero, bu ta‘limning beshta asosiy maqsadlari bor.

Tarbiya psixologiyasi – pedagogik psixologiyaning g‘oyat murakkab va kam ishlangan bo‘limi bo‘lib, keyingi vaqtlarda bunga ko‘proq e‘tibor berilmoqda. U shaxsning bir butun holda tarkib topishi va rivojlanishiga oid ichki (psixologik) mexanizmlarni, shuningdek, uning ayrim xususiyatlarini o‘rgatadi.

Shaxs faoliyati moddiy va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanib boradi. Faollik bo‘lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo‘lmaydi. Bunda ijtimoiy aloqalar jamiyat guruh hamda turli jamoalar hayotiga faol kirishib ketish shaxsni shakllantirishning muhim omillari sifatida maydonga chiqadi. Aniq maqsadni ko‘zlagan holda oldindan rejalashtirilgan hamda tashkil etilgan jarayon bo‘lishi tarbiya, shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta‘sir ko‘rsatuvchi yo‘nalishlari hisoblanadi. Shaxsning shakllanib borish sur‘ati unga xos ayrim xususiyatlarning to‘la va butun holda barqaror paydo bo‘lib borishi uning mehnatda, o‘qishda, o‘yinda, muloqotda va yurish-turish madaniyatida yaqqol ko‘rinadi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, faoliyat nima sababdan amalga oshirilishi zarur ekanligini tushuntira olish bilangina har bir ishning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasi amalga oshadi. Bu fikrni shunday tushunish kerakki, tarbiyalanuvchi ongiga anglab yetilgan barqaror va kuchli ichki ehtiros paydo bo‘lgandagina amalga oshirilayotgan faoliyat tarbiyalovchi kuchga aylanadi. Olimlarimiz va donishmandlarimiz tarbiyalanganlikni esa yaxshi va yomon xulqlarning qay darajada shakllanganligi bilan o‘lchaganlar. Keltiralayotgan testda yaxshi xulqlar turlari, ularning mezonini aniqlash va shular orqali tarbiyalanganlik darajasini belgi-

lashga harakat qildik. Buning uchun yaxshi xulqning turlari, ularning mezonlarini ishlab chiqdik. Keyingi ish esa har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlashdir.

Har bir tarbiyachi – o‘qituvchi uchun yaxshi xulq, uning mezonini bilish – keyingi faoliyatini tashkil etishda yordam beradi deb o‘ylaymiz. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash esa tarbiyalanuvchining kamchilik tomonlarini tuzatishga yordam beradi.

1.5. Tarbiya san’ati va texnologiyasi

Barchaga ma’lumki, hozirgi zamonda nazariyani amalda sinash texnologiya orqali amalga oshiriladi. Texnologiya so‘zi kirib bormagan biror soha yo‘q, shular qatori pedagogika ham. Texnologiya 1872-yildan boshlab (lotincha “*texne*” – san’at, hunar, “*logos*” – fan) ishlab chiqarishda ishlatila boshlandi va unga quyidagicha ta’rif berildi:

– bu fan taklif etgan algoritm, vosita va yo‘llar tizimi bo‘lib ishlatilganda oldindan belgilangan faoliyat natijalariga olib kelib, sifatli va miqdoriy mahsulot chiqishini ta’minlovchi jarayondir.

Hozirda barcha ishlab chiqarishlar texnologiyaga asoslangan bo‘lib, bu ilmiy yutuq, taraqqiyot natijalarini amalga tatbiq etish yo‘li va natijasidir. D.P. Bepalkoning ta’rifi bo‘yicha “har qanday faoliyat yoki san’at, yoki texnologiyadir. San’at intuitsiyaga, texnologiya esa fanga asoslanadi. Hamma narsa san’at bilan boshlanib, texnologiya bilan tugaydi va yana shunday boshlanadi”.

Tarbiyada texnologiya hali to‘liq shakllanmaganligi uchun ham individual mahoratga asoslanadi, ertami-kech baribir “jamoaviy mahoratga” – texnologiyaga asoslanib ish ko‘radi. Hozirda ko‘pgina mamlakatlarda bunga asos solinmoqda.

Xo‘sh, buni biz qanday tasavvur qilishimiz mumkin?

Hozirgi zamon texnologiyasining tarafdorlari ham, qarshilari ham bor bo‘lib, ko‘pincha texnologiya ijodkorlikni bo‘g‘uvchi, asosan intellektual sohada uni qo‘llab bo‘lmaydi degan tushuncha bor. Ammo ishlab chiqarish texnologiyasini shundayligicha pedagogikada (insonni tarbiyalash) qo‘llash kerak emas, uni moslashtirib qo‘llash kerak degan tushuncha ko‘proq to‘g‘ri keladi. Tarbiyaviy jarayon ham, ishlab chiqarish jarayoni ham bir-biriga o‘xshash bo‘lib, umumiy tuzilmaga ega ekanligini yaxshi bilamiz. U ham, bu ham ijtimoiy buyurtmani bajaradi. Ikkalasida ham material, baza, ma’lum maqsad, vosita, usul-uslublar bor. Tarbiya

T/r	Individual mahorat	T/r	Umumiy texnologiya
1.	Jarayon xodim tomonidan boshidan oxirigacha olib boriladi.	1.	Bo'laklarga bo'lib har kim o'ziga tegishlisini bajaradi
2.	Jarayonga taalluqli barcha bilimni bilish shart	2.	O'ziga tegishli qismi haqida to'liq biladi
3.	Hamma ishni o'zi bajaradi	3.	Tayyor ishlanmalar asosida ish olib boradi
4.	Jarayon uzoq vaqt davom etadi	4.	Jarayon tezlashadi
5.	Mahsulot sifatli	5.	Mahsulot sifatli
6.	Intuitsiya, tajriba, sezgiga asoslanib ish ko'radi	6.	Ilmiy hisob-kitob, bilimga asoslanadi
7.	Ishlab chiqarish ehtiyojga qarab mahsulot cheklangan	7.	Mahsulot cheklanmagan, om-maviy ishlab chiqarish mumkin

jarayoni bu vazifalarni, maqsadni bajaruvchi pedagog faoliyatiga tayyanadi. Pedagog esa ma'lumotlarga, atrof-muhitga, tajribaga, ilmiy asoslangan qoidalarga, sinovdan o'tgan usul-uslubga, xalq pedagogikasiga, donishmandlar bisotiga, davlat hujjatlariga tayanadi. Shu bilan bir qatorda pedagogik texnologiya (tarbiya texnologiyasi) ishlab chiqarish texnologiyasidan quyidagilar bilan farq qiladi:

1. Ishlab chiqarish jarayonidan farqli o'laroq tarbiya jarayoni bir butun, yaxlit, mujassam (kompleks) bo'lib, uni bo'laklarga bo'lish qiyin, ketma-ketlik, uzluksizlik asosida amalga oshirish lozim.

2. Tarbiyada shaxsni "bo'laklarga bo'lib" tarbiyalab bo'lmaydi, shuning uchun "texnologik operatsiyalar"ni (ayrim sifatlarni shakllantirish) ehtiyotkorlik bilan olib borish lozim. Tarbiya texnologiyasi umumiy bo'lgani holda individual mahoratga tayanishi lozim.

3. Tarbiya sohasidagi texnologiya baribir har tomonlama rivojlangan, komil insonni shakllantirishga qaratilishi lozim. Har tomonlaning "tomon"larini shakllantirish yo'llari topish, aniq natijani kafolatlash texnologiyaning maqsadi bo'lishi lozim.

Bu "tomon"larni nazorat qilish, korreksiyalash esa individual mahoratga bog'liq. Demak shunda umumiy yo'l va ijodkorlik ketma-ketligi bo'ladi.

4. O'tish davri (texnologiyaga) hisoblangan hozirgi davrda takomillashmagan texnologiya bo'lsada bu yo'ldagi ishlarni davom ettirib, takomillashgan tarbiya texnologiyasini yaratish kerak.

Bu yo'lda bajarilayotgan ishlar yaxlitlikdan mujassamlik sari qadam (maqsad, vazifa, mazmun, usul-uslub birligi), tarbiyaviy ta'sir va o'zaro hamkorlikdir. Zamonaviy tarbiya texnologiyasi mujassamlik asosida quyidagi shart bo'lgan yo'nalishda olib boriladi:

1. Tarbiyalanuvchiga uchta yo'nalish bo'yicha ta'sir o'tkaziladi – ongiga, sezgisiga va xulqiga.

2. Yaxshi natijaga pedagogik ta'sir ko'rsatish va o'z-o'zini tarbiyalash orqaligina erishiladi.

3. Belgilangan shaxsiy sifatlar aniq tarbiyaviy ishlar asosida shakllantiriladi. Bunda kompleks yondashuv bo'lishi lozim (aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnatning birligi orqali). Hozirgi xatomiz esa tarbiya turlarining bir-biriga to'liq bog'liq emasligidadir.

4. Hamkorlikdagi harakat va birlik (oila, maktab, bog'cha, mahalla, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, jamoalar va h.k.) asosidagi tarbiya texnologiyasining yaratilishiga zamin yaratilmoqda.

5. Tarbiya va uni boshqarish jarayoniga mujassam yondashuv tizimli ish olib borishni taqozo etadi.

6. Ichki, tashqi omillar e'tiborga olinishi va uning o'zaro bog'ligini o'rganib chiqish lozim. Asosiy ichki va tashqi omillarga esa quyidagilar kiradi:

– maktab o'quvchisining hayot tarzini e'tiborga olib ayrim olingan shaxsiy sifatlarni shakllantirish yoki yo'qotish;

– yashash sharoiti (mahalliy sharoit)ga mos tarzda ayrim sifatlarni shakllantirish yoki yo'qotish;

– ommaviy axborot va targ'ibot vositalari;


– jamoasining rivojlanishi va sharoit darajasi;

– o'zaro munosabat normalari (maktab, oila va h.k.);

– tarbiyalanuvchining individual va shaxsiy jihatlari va h.k.

Tarbiya texnologiyasida diagnostika hozirgi vaqtda komputer texnologiyasi bilan olib borilmoqda. Nafaqat diagnostika, tarbiyaning o'zi ham komputer orqali amalga oshirilmoqda. Bu tarbiyaning shaxsiy yo'nalganligi, tarbiyalanuvchining mustaqil faoliyati bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy yoshlarning fikriga ko'ra aniq foyda keltiruvchi, unga qulay tamoyili asosida sodir bo'ladi. Masalan, komputerdagi "Chekish va uning oqibatlari" haqidagi lavhani ko'rgan bilan shu haqdagi tarbiyaviy ishni taqqoslab ko'ring. Bundan tashqari testlar ham tarbiyaviy texnologiyaning bir bo'lagi bo'lib undan samarali foydalanish uchun

komputerda dasturlashtirilgan o'yinlarni o'tkazishni doimo, ketma-ketlik, uzluksizlik asosida olib borish mumkin. "Mijoz", "Diqqat", "Xotira", "Tafakkur", "Iroda", "Men kimman?", "Men odamlar orasida", "Kommunikativlik", "Qobiliyatim qanday?", "Iqtidorlimisiz?", "Ikki kishi qayiqda", "O'zingizni bilasizmi?" kabi testlar, ish-o'yinlar, rolli o'yinlar orqali har bir shaxs o'zining tarbiyalanganlik darajasini, o'zining kimligini aniqlab olishi mumkin. Shulardan bir nechta misol keltirmoqchimiz va bu testlarning natijasini quyidagi diagrammaga solish mumkin.



Tarbiyalanganlik darajasi o'rtacha 65% ga teng.

1.6. O'z-o'ziga ta'lim va tarbiya

Pedagog kadrlarning uzluksiz ta'limda "o'z-o'ziga ta'lim"ning o'rnini muntazam oshib bormoqda. Chunki pedagoglik kasbining xususiyati o'qituvchilar o'z bilimlari, salohiyati va ko'nikmalarini uzluksiz to'ldirib borishini taqozo etadi.

Olib borilgan kuzatish ishlari va malaka oshirish kurslari monitoringi shuni ko'rsatadiki, ko'pgina o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida doimo ta'limni davom ettirishga ehtiyoj sezadilar. Biroq maktab rahbariyati yoki o'qituvchining o'zi oliy o'quv yurtidan keyingi bo'ladigan uzluksiz ta'lim muhimligini anglamasligi, yetarli

Tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari

1.	Vatanparvarlik	11.	Jasurlik
2.	Do'stlik, insonparvarlik	12.	Chaqqonlik, chiniqqanlik, kuchlilik
3.	Halollik	13.	Baynalminallilik
4.	Mehnatsevarlik	14.	Mas'uliyatlilik
5.	Intizomlilik	15.	Qiziquvchanlik
6.	Saxiylik	16.	Prinsipiellik
7.	Faollik	17.	Nafosatlilik
8.	Kamtarlik	18.	Ishbilarmonlik, tadbirkorlik
9.	Ozodalik	19.	Iffat-hayolilik
10.	Tejamkorlik	20.	O'z-o'zini tarbiyalash, nazorat qilish

baholamasligi, o'qituvchi faoliyati, bilimining oqsab qolishiga, natijada o'qituvchi o'z kasbidan bezish hollari yuzaga keladi.

“O'z-o'ziga ta'lim” berish pedagoglarning haqiqiy ehtiyojiga aylanishi uchun to'rtta asosiy muammoni yechish lozim:

1. Yo'naltiruvchi qadriyatlarga egalik (kasbiy idealni shakllantirish, o'qituvchi qanday va kim bo'lishi kerak?).

2. Omilga egalik (o'qituvchi o'z kasbiga, o'z idealiga nomuvofiqligini anglagan holda muvofiqlikka intilishi).

3. Texnologik muammo (qanday yo'llar bilan kasbiy va insoniy xususiyatlarni shakllantirish mumkin).

4. Iqtisodiy rag'batlantirish (mehnatni baholash orqali yanada yaxshi ishlash, boshqalarga tenglashishga intilish).

“O'z-o'ziga ta'lim”ni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borish maqsadga muvofiq:

1. O'zining psixofiziologik tabiatini tarbiyalash.

2. Pedagogik mahoratni shakllantirish jarayoni ta'limi.

3. Shaxsiy-ijtimoiy sifatlarni shakllantirish ta'limi.

4. Nafosatlilikni tarbiyalash ta'limi.

5. “O'z-o'ziga ta'lim”ni rag'batlantirish orqali ta'lim.

Psixofiziologik tabiatni takomillashtirish uchun o'qituvchi o'zining jismoniy (organizm tuzilishi, ovqatlanish, dam olish, ish rejasi, gigiyena va h.k.), oliy nerv tizimi (mijoz, tafakkur, diqqat, iroda, idrok, xotira va h.k.), nerv tizimi jarayonlari (ishchanlik, faollik, irodalilik va h.k.) va ularning tiplari (badiiy, fikrlovchi, o'rtacha va h.k.)ni aniqlashi, o'stirishi,

rivojlantirishi lozim bo‘ladi. Psixik (ruhih) jarayonlar va ularni rivojlantirish (tafakkur-tahlil va umumlashtirish, mimika, pantomimika – hissiyot, o‘zini nazorat qilish va boshqalarni o‘rganish).

“O‘z-o‘ziga ta’lim”ning ikkinchi tomoni bu pedagogik mahoratni oshirish jarayoni uning tamoyillari orqali o‘zini tarbiyalash (loyihlash, kommunikativ, pertseptivlik, tashkilotchilik va h.k.)

Shaxsiy-ijtimoiy sifatlarini shakllantirish-takomillashtirish esa (fuqarolik, insoniylik, madaniyatlilik, intellektuallik, motivlilik, g‘oyaviylik, pedagogik takt va taktika va h.k.) biologik, psixologik, metodik talablar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Nafosatlilik esa o‘qituvchidan go‘zallikni his qilish hamma joyda nafosatli bo‘lishni (munosabatda, ishda, muloqotda, nutqda, va h.k.) talab etadi.

“O‘z-o‘ziga ta’lim” jarayoni “o‘z-o‘zini tarbiyalash” bilan uyg‘unlashib ketadi va u quyidagi tartibda olib boriladi. Oliygohta va undan keyingi ta’lim jarayonida:

1. Kasb ta’limini to‘liq egallash.
2. Pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini chuqur o‘rganish.
3. Darslik, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish.
4. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.
5. Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish (komputer, modem, internet va h.k.).
6. Ilg‘or pedagogik tajriba va texnologiyalardan foydalanish.
7. Diagnostika, korreksiya va rivojlantiruvchi mashqlarni o‘rganish, o‘zini tarbiyalashda keng foydalanish.
8. O‘z faoliyati natijalari monitoringini o‘tkazishni bilish va korreksiyalash va h.k.

II BOB. UZLUKSIZ METODIK XIZMAT HUJJATLARI, NIZOMLAR

2.1. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshida Metodika kabineti faoliyat ko'rsatadi va u tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limining tarkibiy qismi hisoblanadi.

1.2. Metodika kabineti Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi barcha ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tadbirlarni belgilaydi hamda ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

1.3. Metodika kabineti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, hukumatning ta'limga oid farmoyish va qarorlari, Xalq ta'limi boshqaruvi organlarining qaror va buyruqlari, Respublika Ta'lim markazi, joylardagi Pedagog xodimlar malakasini oshirish institutining (Qoraqalpog'iston Respublikasida Ta'lim markazining) yo'riqnomalari va ushbu Nizom asosida ish yuritadi.

2. Metodika kabinetining asosiy vazifalari

2.1. Hududdagi xalq ta'limi tizimidagi muassasalarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi va tahlil qiladi.

2.2. Tuman (shahar) hududidagi barcha an'anaviy va noan'anaviy maktabgacha ta'lim muassasalari, mahallalardagi maktabgacha ta'lim bo'yicha jamoat markazlari, xonadon bog'chalari, shanba-yakshanbalardagi maktablar va boshqa maktabgacha ta'limga taalluqli bo'lgan muassasa, markaz, guruhlariga metodik yordam ko'rsatadi.

2.3. Tuman (shahar) hududidagi maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi. Uni tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi kengashi tasdig'iga kiritadi hamda ushbu dastur asosida tadbirlar belgilaydi va ularning bajarilishini ta'minlaydi.

2.4. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv-metodik ishlarni tashkil etadi. Davlat ta'lim standartlarini ta'minlash uchun o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatadi.

2.5. Barcha turdagi ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari ijrosini amalga oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi, uni metodika kabineti kengashida muhokama etadi hamda bajarilishini ta'minlaydi.

2.6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari ijrosini amalga oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi, uni metodika kabineti kengashida muhokama etadi.

2.7. Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari muassasalarda Davlat ta'lim standartlari (Davlat talablari), ijrosi monitoringini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan test savollari va boshqa nazorat materiallarini tayyorlaydi.

2.8. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limining monitoring xizmati xodimlari bilan hamkorlikda monitoring natijalarini tahlil qiladi, bartaraf etish (to'ldirish) chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va uning amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi.

2.9. Tuman (shahar) miqyosida o'quv fanlari, ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha yangi pedagog texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarni o'rganishga o'qituvchi (tarbiyachi)larni jalb etadi va o'tkazadi.

2.10. Tuman (shahar) miqyosida barcha ta'lim yo'nalishlari (o'quv fanlari) bo'yicha metodika birlashmalarini tashkil etishda ishtirok etadi va faoliyatini nazorat qiladi.

2.11. Ta'lim muassasalarida yo'nalishlar (o'quv fanlari) bo'yicha metodika birlashmalarini tashkil etishga va faoliyat ko'rsatishga metodik yordam beradi.

2.12. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalar va ijodkor o'qituvchilar (tarbiyachilar) haqida axborotlar bankini tashkil etadi.

2.13. Tuman (shahar) miqyosida boshlang'ich ta'lim va o'quv fanlari bo'yicha ijodkor o'qituvchilar uyushmasini tashkil etadi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

2.14. O'qituvchi (tarbiyachi)larning malaka oshirish va qayta tayyorlash ishlarini rejalashtiradi hamda davriyligini ta'minlaydi.

2.15. Tuman (shahar) miqyosidagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganadi hamda ulardan talabga javob beradiganlarini metodika markazining kengash qarori bilan tuman (shahar) bo'yicha ommalashtiradi, viloyat bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etadi.

2.16. Ta'lim muassasalarida iqtidorli bolalar bilan ishlashda, ularni fan olimpiadalariga tayyorlashda metodik yordam ko'rsatadi.

2.17. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyalarini o'tkazishda uslubiy yordam ko'rsatadi.

2.18. Ta'lim muassasalarida turli yo'nalishdagi to'garaklar faoliyati va maktabdan tashqari ishlarni nazorat qiladi hamda ularga tegishli uslubiy yordam ko'rsatadi.

2.19. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganlik darajasini o'quv fanlari va sinflar kesimida o'rganadi, tahlil qiladi, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan xalq ta'limi bo'limi mudiriga takliflar kiritadi.

2.20. Ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armasini darslik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlashini tashkil etadi va nazorat qiladi.

2.21. Matbuot orqali ilg'or pedagogik tajribalarni, ta'lim sohasida yangiliklarni targ'ibot qiladi.

2.22. DTS ijrosini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan metodik yo'riqnomalar va tavsiyalar ishlab chiqadi.

2.23. Ta'lim muassasalarida «Yil o'qituvchisi», «Yil tarbiyachisi» ko'rik-tanlovlarining o'tkazilishini nazorat qiladi, tuman (shahar) bo'yicha «Yil maktabi» va boshqa tanlovlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

2.24. Metodika kabineti tuman (shahar) ta'lim muassasalari bazasida yangi pedagogik texnologiyalarni, ilg'or g'oyalarni sinovdan o'tkazish uchun tajriba sinov maydonchalarini tashkil etadi va ularga metodik yordam ko'rsatadi.

3. Metodika kabinetining boshqaruvi va xodimlari

3.1. Metodika kabinetini oliy ma'lumotli, kamida 5-yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan tajribali o'qituvchi, metodist yoki maktab rahbarlaridan tayinlanadigan mudir boshqaradi. Kabinet mudiri tuman (shahar) XTB mudirining birinchi o'rinbosari hisoblanadi.

3.2. Metodika kabinetining metodistlari maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, boshlang'ich sinf va fan o'qituvchilariga pedagogik mahorat bo'yicha metodik tomondan rahbarlik qiladilar.

3.3. Metodika kabineti shtatlari maktabda ishlayotgan o'qituvchilarning umumiy soni hisobidan belgilanadi. Xodimlarga shtat jadvalida belgilangan tartibda ish haqi to'lanadi.

3.4. Metodika kabinetining metodistlari uning mudiri tavsiyasi bilan XTB mudiri tomonidan ishga qabul qilinadi. Metodika kabineti metodistlari oliy ma'lumotli, kamida 5-yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lishlari kerak.

3.5. Tuman (shahar) bo'yicha ta'lim muassasalarida yo'nalishlar va o'quv fanlaridan Davlat ta'lim standartlari (Davlat talablari) asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda metodik yordam ko'rsatish, o'quv seminarlarga rahbarlik qilish maqsadida yo'nalishlar va o'quv fanlari bo'yicha metodika birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. Metodika birlashmasiga tegishli yo'nalish va o'quv fani bo'yicha tuman (shahar) ta'lim muassasalarida eng ijodkor va tajribali o'qituvchi (tarbiyachi) rahbarlik qiladi. Metodika birlashmaning rahbari, ijodkor o'qituvchi (tarbiyachi)lardan iborat bo'lgan uning a'zolari faoliyatlariga munosib ravishda ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

3.6. Metodika kabineti huzurida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni muhokama qilish va tegishli qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan metodika kengashi faoliyat ko'rsatadi. Kengash tarkibiga metodika kabineti boshlig'i (rais), metodistlar, o'quv fanlari va yo'nalishlar bo'yicha metodika kengashining tarkibi tuman (shahar) XTB kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Metodika kabinetining mablag'i va moddiy bazasi

4.1. Metodika kabineti Davlat mablag'i hisobiga faoliyat ko'rsatadi va XTB tomonidan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasi asosida mablag' bilan ta'minlanadi.

4.2. Metodika kabineti o'z faoliyatini yuritishi uchun tegishli bino (xonalar)ga, kutubxona fondiga, komputer va ko'paytirish texnikasiga ega bo'lishi kerak.

4.3. Metodika kabineti huzurida kutubxona faoliyat ko'rsatadi hamda uni amaldagi qonunchilik asosida maxsus ma'lumotli kutubxonachi boshqaradi.

2.2. Tuman (shahar) Metodika kabineti huzuridagi Metodika kengashi to'g'risidagi NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti huzurida Metodika kengashi faoliyat ko'rsatadi.

1.2. Metodika kengashining faoliyati Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish maqsadida tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tadbirlarni belgilashga, fan Metodika uyushmalari faoliyatini muvofiqlashtirib turishga, ilg'or pedagogik texnologiyalar, tajribalar va metodik ishlarni ommalashtirishga, ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va ularni ta'lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar berishga qaratiladi.

1.3. Metodika kengashi o'z faoliyatida O'zbekistan Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Metodika kengashining asosiy vazifalari

2.1. Ta'lim muassasalarining metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini tahlil qiladi, bu boradagi muammolarni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi.

2.2. Metodika kabineti tomonidan ishlab chiqilgan tuman (shahar) hududidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirilgan istiqbolli rivojlantirish dasturini muhokamadan o'tkazadi va tasdiqlaydi, uning asosida tadbirlar belgilaydi va bajarilishini tahlil qilib boradi.

2.3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari ijrosini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan istiqbolli rivojlantirish dasturini muhokamadan o'tkazadi. Xalq ta'limi bo'limi kengashi tasdig'iga kiritadi, istiqboldagi dasturning ijrosi yuzasidan tadbirlar belgilaydi va bajarilishini tahlil qilib boradi.

2.4. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limining metodik ishlarini rejalashtiradi va boshqaradi.

2.5. Joriy yilda belgilangan metodik vazifalarini amalga oshiradi.

2.6. Maktab Metodika kengashi va fan Metodika birlashmalari yo'nalishlarini belgilaydi va bajarilishini tahlil qiladi.

2.7. Praktikum, seminarlar va davra suhbatlari dasturlarini ishlab chiqadi va aniqlaydi.

2.8. Ilg'or pedagogik tajribalar va metodik ishlarni ommalashtirish uchun metodik byulletenlar chiqaradi.

2.9. Xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan yo'llangan me'yoriy hujjatlar va metodik ishlarni o'rganadi, ularni ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar beradi.

2.10. DTS (Davlat talablari) ijrosi monitoringi natijalariga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

2.11. Tuman (shahar) miqyosida ommalashtirilib yuqori samara bergan ilg'or tajribalarni va metodik ishlarni viloyat miqyosida ommalashtirishga tavsiya etadi.

2.12. Metodik qo'llanmalar, tavsiyalar va boshqa metodik ishlar tayyorlashda ishtirok etadi.

2.13. Tuman (shahar) miqyosida fan Metodika uyushmalarini tashkil etishga va faoliyat ko'rsatishiga metodik yordam beradi, ular faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

2.14. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalar va ijodkor o'qituvchi (tarbiyachi)larni ma'naviy rag'batlantirishga tavsiya etadi.

2.15. Metodika kabineti va ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armasini darslik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi hamda amalga oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar beradi.

3. Metodika kengashi ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

3.1. Tuman Metodika kengashi a'zolariga Metodika kabineti metodistlari, tuman fan Metodika uyushmalarining raislari, samarali faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning Metodika kengashi rahbarlari (maktablarning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlaridan vakillar) kiritiladi.

3.2. Metodika kabinetining mudiri Metodika kengashining raisi hisoblanadi.

3.3. Metodika kengashining tarkibi tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

3.4. Metodika kengashi raisi va uning a'zolari kengash faoliyatini jamoatchilik asosida yuritadilar. Imkoniyatdan kelib chiqqan holda kengash raisi va uning faol a'zolari Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ma'naviy va moddiy rag'batlantiriladi.

3.5. Metodika kengashi faoliyati viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi huzuridagi Muvofiqlashtirish kengashi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

3.6. Metodika kengashi faoliyati viloyatiga bog'liq barcha tashkiliy ishlar va hujjatlarni yuritish Metodika kabineti tomonidan amalga oshiriladi.

3.7. Metodika kengashi yig'ilishi uch oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

3.8. Metodika kengashi yig'ilishlarida belgilangan masalalar ko'rib chiqiladi va qarorlar qabul qilinadi. Yig'ilishlar bayoni alohida daftarga yozib boriladi.

3.9. Yig'ilish bayonlari daftari, uyushma ish rejasi va hisoboti Metodika kabinetida 5-yil muddatda saqlanadi.

4. Metodika kengashi hujjatlari

Metodika kengashi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:

4.1. Yillik ish rejasi.

4.2. Yig'ilish bayonnomalari.

4.3. Hisobotlar.

4.4. Metodika kengashi faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi.

4.5. Metodika kengashiga xalq ta'lim boshqaruv organlaridan kelib tushgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi.

2.3. Tuman (shahar) fan Metodika uyushmalari to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekistan Respublikasi hududidagi barcha tuman (shahar) xalq ta'limi tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi va har bir o'quv fani, maktabgacha ta'lim va maktabdan tash-

qari ta'lim yo'nalishlari, shuningdek, kutubxonachilar, bolalar yetakchilari bo'yicha Metodika uyushmalari faoliyat ko'rsatadi.

1.2. Metodika uyushmalarining maqsadi tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha maktab Metodika birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, tegishli fan va yo'nalishlar bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarni va ilg'or tajribalarni o'rganish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish, ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, ularni ta'lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etish, o'qituvchi (tarbiyachi)larga metodik yordam berish, ularning kasbiy mahoratlarini muntazam takomillashtirib borishda ko'maklashishdan iborat.

1.3. Metodika uyushmalari o'z faoliyatida O'zbekistan Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, xalq ta'limi boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Metodika uyushmalarining asosiy vazifalari

2.1. Xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan yo'llangan tegishli fan yoki yo'nalishga oid me'yoriy hujjatlar va metodik ishlarni o'rganadi, ularni ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish usullarini ko'rsatib beradi.

2.2. Tuman (shahar) miqyosidagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganadi hamda ulardan talabga javob beradiganlarini Metodika uyushma qarori bilan tuman (shahar) bo'yicha ommalashtiradi, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishda yuqori samara bergan ilg'or tajribalarni va metodik ishlarni viloyat bo'yicha ommalashtirishga tavsiya etadi.

2.3. Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchi (tarbiyachi)larning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talabi asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiyaga qo'yilgan talablarni bajarish, ijodiy fikrlarni to'g'ri yo'naltirish, birlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy talablarini ishlab chiqib, ta'lim jarayoniga tatbiq etish ishlarini tashkil etadi.

2.4. Tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha Davlat ta'lim standartlari (Davlat talablari), o'quv rejasi va dasturlarning bajarilishini ta'minlashga rahbarlik qiladi.

2.5. Ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari (Davlat talablari) ijrosini o'rganish uchun zarur bo'ladigan test topshiriqlari va

boshqa nazorat materiallarini tayyorlashga hamda monitoringni o'tkazishga yordam beradi.

2.6. Tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan DTS (Davlat talablari) ijrosi monitoringi natijalarini o'rganadi, tumanda tegishli o'quv fanining o'qitilishi ahvolini tahlil qiladi, tahlil natijalariga ko'ra ta'lim-tarbiya oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib beradi.

2.7. DTS (Davlat talablari) ijrosini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqadi, ularni ta'lim muassasalariga yetkazadi.

2.8. Tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha tuman (shahar) miqyosida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi.

2.9. Yangi o'quv dasturi, darslik, metodik qo'llanma va boshqa metodik ishlarning yangi nashrlarini, shuningdek, fanga doir maqolalarni o'rganadi va muhokama qiladi.

2.10. Xalq ta'lim boshqaruvi organlari ko'rsatmasi bilan o'quv dasturi va darsliklarni tahlil qiladi, asoslangan xulosalar tayyorlab beradi.

2.11. Maktablarda fan xonalarining maxsus talablar asosida jihozlanishiga metodik yordam beradi.

2.12. Tuman (shahar) miqyosida tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalar, ilg'or ish tajribalarini o'rganishga yo'naltirilgan o'quv-metodik seminarlarni tashkil etadi va o'tkazadi.

2.13. Tuman (shahar) miqyosida o'qituvchi (tarbiyachi)larning uzluksiz malaka va mahoratlarini oshirib borishni tashkil etadi.

2.14. Tuman (shahar) miqyosida o'qituvchi (tarbiyachi)larning uzluksiz malaka va mahoratlarini oshirib borishni tashkil etadi.

2.15. Ta'lim muassasalarida fan va yo'nalishlar bo'yicha Metodika birlashmalarini tashkil etishga va faoliyat ko'rsatishga metodik yordam beradi.

2.16. Ta'lim muassasalarida iqtidorli bolalar bilan ishlashda ularni fan olimpiadalariga tayyorlashda metodik yordam ko'rsatadi.

2.17. Fanlar bo'yicha tuman (shahar) miqyosida fan olimpiadalarining ikkinchi bosqichlarini, ko'rik-tanlovlarni o'tkazishga yordam beradi.

2.18. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyalarini o'tkazishda metodik yordam ko'rsatadi.

2.19. Ta'lim muassasalarida turli yo'nalishdagi to'garaklar faoliyati va maktabdan tashqari ishlarni nazorat qiladi hamda ularga tegishli uslubiy yordam ko'rsatadi.

2.20. Sinfdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlarni muvofiqlashtiradi.

2.21. Ta'lim muassasalarining kutubxona jamg'armasini darslik, o'quv qo'llanma va boshqa o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

3. Metodika uyushmalari ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

3.1. Tuman (shahar) miqyosida maktabgacha ta'lim bo'yicha bir necha yo'nalishda (maktabgacha ta'lim muassasalari rahbari, metodistlari, tarbiyachilari, psixologlari, musiqa rahbarlari va boshqa yo'nalishlarda), boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitta, 5—11-sinflar uchun esa o'quv rejasidagi har bir fan bo'yicha alohida, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishi, kutubxonachilar, bolalar yetakchilari bo'yicha bittadan Metodika uyushmasi tashkil etiladi.

3.2. Metodika uyushmasiga har bir ta'lim muassasidan kamida bittadan (odatda, maktab fan Metodika birlashmalari rahbarlari) muassasalaridagi Metodika birlashmalarining rahbarlari tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha uyushmaga a'zo bo'lishi shart.

3.3. Metodika uyushmasiga tegishli fan yoki yo'nalish bo'yicha tuman (shahar)dagi eng ijodkor va tajribali o'qituvchi (tarbiyachi) uyushma yig'ilishida saylangan rais rahbarlik qiladi.

3.4. Metodika uyushmasi raisi va uning a'zolari uyushma faoliyatini yuritishda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadi, imkoniyatdan kelib chiqqan holda uyushma raisi va uning faol a'zolari Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ma'naviy va moddiy rag'bantlantiriladi.

3.5. Metodik uyushma faoliyatiga bog'liq barcha tashkiliy ishlar va hujjatlarni yuritish Metodika kabinetining tegishli metodisti tomonidan amalga oshiriladi.

3.6. Metodika uyushmalari faoliyati Metodika kabineti huzuridagi Metodika kengashi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

3.7. Metodika uyushma yig'ilishi ikki oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Uyushma yig'ilishlari ma'lum bir masalani muhokama qilish

yoki o'quv seminari shaklida tashkil qilinishi mumkin. O'quv seminari shaklidagi uyushma yig'ilishiga unga a'zo bo'lmagan o'qituvchi (tarbiya)chilar ham taklif etilishi mumkin.

3.8. Metodika uyushmasi yig'ilishlarida belgilangan masalalar ko'rib chiqiladi va qarorlar qabul qiladilar. Yig'ilishlar bayoni alohida daf-targa yozib boriladi.

3.9. Yig'ilish bayonlari daftari, uyushma ish rejasi va hisoboti Metodika kabinetida 3-yil muddatda saqlanadi.

4. Metodika uyushmasi hujjatlari

Metodika uyushmasi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:

4.1. Yillik ish rejasi.

4.2. Yig'ilish bayonnomalari.

4.3. Hisobotlar.

4.4. Metodika uyushmasi faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-me-todik hujjatlar nusxasi.

4.5. Metodika uyushmasiga xalq ta'lim boshqaruvi organlaridan kelib tushgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi.

4.6. Fan o'qituvchilari ro'yxati va malaka oshirish rejasi.

2.4. Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodika kengashi to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Metodika kengashi fao-liyat ko'rsatadi.

1.2. Metodika kengashining faoliyati Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish maqsadida ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini metodik ta'minlash va muvofiqlashtirish hamda pedagogik kadrlarning metodik jihatdan bilimini oshirib borishga qaratiladi.

1.3. Metodika kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi-ning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, xalq ta'limi boshqaruvi organlari va ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga, Umumiy o'rta ta'lim muassasasi nizomiga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Metodika kengashning asosiy vazifalari

2.1. Ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, maktab metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi.

2.2. Maktabda olib borilayotgan metodik ishlarining istiqbolini aniqlaydi.

2.3. Yo'nalish va fanlar bo'yicha Metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

2.4. Ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi.

2.5. Maktab o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi.

2.6. O'qituvchilarni g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi.

2.7. O'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi.

2.8. Maktab o'quv rejasini amalga oshirishga doir takliflar beradi.

2.9. Maktab ta'lim jarayoniga qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi.

2.10. O'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi.

2.11. Davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasini dasturlarining bajarilishini tahlil qiladi va tadbirlar belgilaydi.

2.12. Tashqi va ichki nazorat natijalariga ko'ra DTS talablari bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

2.13. O'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarning metodik jihatdan bilimini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil etadi.

2.14. Ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongini shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib boradi.

2.15. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar beradi.

2.16. Yo'nalish va fanlar bo'yicha Metodika birlashmalari hisobotini eshitadi, muhokama qiladi, ular faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi.

2.17. O'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qiladi.

2.18. Pedagog xodimlarning attestatsiya o'tkazish bo'yicha materiallarini tayyorlaydi.

2.19. Maktab miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha sinfdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlar, fan olimpiadalarining birinchi bosqichlari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilishi va ular samarasini nazorat qilib boradi.

3. Metodika kengashi tarkibi va uning ishini tashkil etish

3.1. Metodika kengashi tarkibi maktab direktorining o'quv (metodika) ishlari bo'yicha hamda boshlang'ich sinflar bo'yicha o'rinbosarlari, yo'nalish va fanlar bo'yicha Metodika birlashmalarining rahbarlaridan iborat bo'ladi.

3.2. Kengashga maktab direktorining o'quv (metodika) ishlari bo'yicha o'rinbosari raislik qiladi.

3.3. Metodika kengashining yillik ish rejasi tuman XTB qoshidagi Metodika kabineti tavsiyasi hamda maktab Metodika birlashmalari tavsiya qilgan metodik mavzular asosida tuziladi. Ish reja tuzishda o'qituvchilarning mustaqil bilimlarini oshirish mavzulari ham e'tiborga olinadi.

3.4. Metodika kengashi yig'ilishi ikki oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

3.5. Kengash yig'ilishlarida belgilangan masalalar ko'rib chiqiladi va qarorlar qabul qilinadi. Yig'ilishlar bayoni alohida daftarga yozib boriladi.

4. Metodika kengashi hujjatlari

4.1. Metodika kengashi yig'ilishlari qarorlashtiriladi.

4.2. Kengash hujjatlari maktab ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

4.3. Kengash hujjatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv yili uchun ish rejasi;
- kengash yig'ilishi bayonnomasi;
- kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar;
- ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar.

– yillik hisobot.

4.4. Hujjatlar maktabda 3-yil muddatda saqlanadi.

2.5. Umumiy oʻrta taʼlim maktabi fan Metodika birlashmalari toʻgʻrisida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi hamda fanlar yoki bir-biriga yaqin boʻlgan fanlar turkumi boʻyicha metodika birlashmalari faoliyat koʻrsatadi.

1.2. Metodika birlashmalarining maqsadi oʻqituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berishga qoʻyilgan hozirgi zamon talablarini taʼminlash borasida oʻzaro yordamni tashkil qilish, ijodiy tashabbuslarni uygʻunlashtirish va taʼlim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

1.3. Metodika birlashmalari oʻz faoliyatida Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, xalq taʼlim boshqaruvi organlari va taʼlim muassasasi tomonidan tasdiqlangan meʼyoriy hujjatlar hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Metodika birlashmalarining asosiy vazifalari

2.1. Tegishli yoʻnalish yoki oʻquv fanini oʻqitishga doir meʼyoriy va metodik hujjatlarni oʻrganadi, ularni oʻquv jarayoniga tatbiq etish usullarini koʻrsatib beradi.

2.2. Oʻqituvchilarning gʻoyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy- ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi.

2.3. Fanlar boʻyicha taqvimiy-mavzuiy rejalarini tasdiqlashga tavsiya etadi.

2.4. Oraliq va yakuniy nazoratlar uchun oʻqituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlaydi.

2.5. Ilgʻor oʻqituvchilar ish tajribalarini oʻrganishni tashkil qiladi va ommalashtiradi.

2.6. Davlat taʼlim standartlari talablarini, oʻquv rejasi va dasturlari bajarilishining taʼminlanishiga metodik yordam koʻrsatadi.

2.7. Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan muqobil

darsliklarni muhokama qiladi va ulardan birini tanlab fan o'qituvchilariga amalda qo'llash uchun tavsiya etadi. Zarur bo'lgan hollarda muqobil darsliklardan biriga buyurtma beradi.

2.8. Tashqi va ichki nazorat natijalariga ko'ra DTS talablari bajarilishida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

2.9. Tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi.

2.10. O'quvchilarga chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam berish maqsadida o'qitishning ilg'or usullarini joriy etishni tashkil qiladi.

2.11. Darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qiladi, natijalarini tahlil qiladi va mutaxassislarga amaliy yordam beradi.

2.12. O'qitish metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil qiladi, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

2.13. O'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kiradi, o'quv fani bo'yicha yangiliklarni qo'llashga doir muntazam ravishda metodik ko'rsatmalar berib boradi.

2.14. Yosh mutaxassislarga metodik yordam beradi.

2.15. Ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar beradi.

2.16. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir yo'llanmalar beradi.

2.17. Yangi o'quv dasturi, darslik, metodik qo'llanma va boshqa metodik ishlarning yangi nashrlarini, shuningdek, fanga doir maqolalarni o'rganadi va muhokama qiladi.

2.18. Nazorat turlariga doir metodik ko'rsatmalar beradi va ular asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqishni tashkil etadi.

2.19. O'qituvchilarning o'z ustida ishlash, malaka oshirish va ijodiy xizmat safarlari bo'yicha hisobotlarini eshitadi.

2.20. Fan o'qituvchilarini samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qiladi, shuningdek, attestatsiya jarayonida o'z xulosasini beradi.

2.21. O'quvchilarning DTS va o'quv dasturi hajmi doirasida bilimlarini baholashda mavjud mezonlarga rioya etishni nazorat qiladi.

2.22. Fanlar bo'yicha maktab miqyosida haftaliklar tashkil qiladi, fan olimpiadalarining birinchi bosqichlarini, ko'rik-tanlovlarni o'tkazadi.

2.23. Fanlar bo'yicha sinfdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlarni muvofiqlashtiradi.

2.24. Fan xonalarining me'yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etadi.

2.25. O'quvchilarning dars jarayonida texnika xavfsizlik qoidalari-ga rioya qilish talablarini ishlab chiqadi va nazorat qiladi.

3. Metodika birlashmalari ishini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Metodika birlashmalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitta, 5–11-sinflarda esa o'quv rejasidagi alohida fanlar bo'yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch nafardan kam bo'lsa, u holda ushbu fan o'qituvchilari shu turkumdagi fan o'qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodika birlashmaga birlashadilar.

2.6. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti kutubxonasi to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabinetida tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalari kutubxonalariga metodik yordam ko'rsatish maqsadida kutubxona faoliyat ko'rsatadi va u Metodik kabinetning bo'linmasi hisoblanadi.

1.2. Kutubxona o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga, xalq ta'limi boshqaruvi organlarining me'yoriy hujjatlariga, «Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti to'g'risida»gi Nizom hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.3. Kutubxonaga Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi umumiy metodik rahbarlik qiladi.

2. Kutubxonaning asosiy vazifalari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan erishilgan yutuqlar aks ettirilgan, milliy g'oya singdirilgan, pedagogika fani va o'qitish metodikasidagi yangiliklar mujassamlashgan adabiyotlarni targ'ib qiladi.

2.2. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'lim muassasalari kutubxonalariga kutubxona xizmatini tashkil etishda, axborot, bibliografik xizmatning hamma usul va shakllari bo'yicha metodik yordamni amalga oshiradi.

2.3. Davlat ta'lim standartlari ijrosini ta'minlash hamda kutubxonalar ehtiyojini qondirish maqsadida kutubxona-axborot jamg'armasini shakllantiradi.

2.4. Tuman (shahar) xalq ta'limi tizimi xodimlariga axborotga bo'lgan ehtiyojlariga binoan kutubxona va axborot-bibliografik xizmatni tashkil etadi.

2.5. Pedagogika fani, xalq ta'limi, ilg'or pedagogik tajriba asosida kitobxonlarning kasbiy va umumiy ta'lim olishiga ko'maklashadi.

2.6. Kutubxona va axborot xizmatlari turlarini kengaytiradi, kutubxona-axborot jarayonlarini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish orqali ularning sifatini oshiradi.

2.7. Tuman (shahar) pedagogik kadrlariga kutubxona xizmatini tashkil etishda kitobxonlarning axborot ehtiyojlarini mumkin qadar to'la va tezkor qondirish uchun boshqa tizim va idoralar kutubxonalarini bilan faoliyatni muvofiqlashtiradi.

2.8. O'qituvchilarga kutubxona-bibliografik xizmat ko'rsatish, pedagogik adabiyotlarni o'rganishda samaradorlikka erishish masalalari bo'yicha tuman (shahar) maktablari kutubxona xodimlari malakasini oshirishni tashkil etishda metodik yordam ko'rsatadi.

3. Kutubxonaning ish faoliyati mazmuni

3.1. Zamonaviy mafkuraviy xarakterdagi Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilmiy-pedagogik, metodik, ma'lumotnoma, o'quv, davriy hamda nashrlarning boshqa turlari va hujjatlar kitob jamg'armasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Jamg'armani shakllantirish manbalari mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

3.2. Adabiyotlarning (alohida va umumiy), ularning ilmiy-texnik ishlovi hisob-kitobi amalga oshiriladi, jamg'armaning saqlanishi va saqlash tartibi ta'minlanadi.

3.3. Amaldagi me'yoriy hujjatlar bo'yicha jamg'armadagi mazmunan eskirgan va yaroqsiz hisoblangan adabiyotlarni chiqarish ishlari olib boriladi.

3.4. Alifboli va sistematik kataloglar, pedagogika va xalq ta'limiga doir maqolalardan iborat sistematik kartoteka, ma'lumotnomali jamg'armani o'z ichiga olgan ma'lumotnoma-bibliografik apparat tizimini tashkil etadi:

- kutubxona axborot va metodik nashrlar kartotekasini, o'lkashunoslik tematik kartotekalarni, jamg'arma (arxiv) ma'lumotnomani tayyorlaydi va ularga amal qiladi;

- pedagog va xalq ta'limi xodimlari uchun «Yangi olingan axborotli byulleten»ni tuzadi, yangi pedagogik adabiyotlar bo'yicha ko'rgazma-ko'riklar uyushtiradi, «Axborotlar kuni», «Mutaxassis kunlari»ni tashkil etadi.

3.5. Kitobxonlarga kutubxona-bibliografik xizmat amalga oshiriladi:

- kitobxonlarga kutubxona jamg'armasidagi kitoblar, davriy nashrlar abonement orqali beriladi va qiroatxonada bu xil adabiyotlardan foydalaniladi.

- kitobxonlarga bibliografik obzorlar o'tkaziladi, kitob-illustrativ ko'rgazmalar tashkil etiladi;

- metodika kabineti jamoalari bilan birgalikda ma'naviyat va ma'rifatga yo'naltirilgan ommaviy tadbirlarni o'tkazadi, ta'limning shakl, metod va vositalari takomillashtiriladi;

- kitobxonlar orasida kutubxona-bibliografik bilimlar asoslarini tarqatishni tashkil etadi, ma'lumotnoma-bibliografik apparatda axborotlardan foydalanish metodlari o'rgatiladi;

- o'z kutubxonasiga ega bo'lmagan maktablarda o'qituvchilarga pedagogik adabiyotlardan foydalanishda ko'maklashadi.

3.6. Maktablar, maktabdan tashqari muassasalar kutubxonalariga, xalq ta'limi xodimlariga kutubxona xizmatini tashkil etishda metodik yordamni amalga oshiradi.

3.7. Maktab kutubxonasi xodimlari malakasini oshirishda (seminarlar, «Ilg'or tajriba maktabi», «Maktab kutubxonalari Metodika birlashmasi» mashg'ulotlarida) qatnashadi.

3.8. O'qituvchilarga bibliografik xizmat bo'yicha maktab kutubxonalarini faoliyatini o'rganishda qatnashadi, kutubxona ilg'or tajribasini o'rganishda ko'maklashadi.

3.9. Maktab kutubxonasini pedagogik va metodik adabiyotlar bilan shakllantirish va ular bilan ishlashni tashkil etish muammosi bo'yicha maktab darsliklari kutubxona jamg'armasi xodimlariga yordam ko'rsatadi. O'z metodik ishini maktab darsliklari bo'yicha kutubxona jamg'armasi xodimlari bilan muvofiqlashtiradi.

4. Kutubxona faoliyatini boshqarish. Moddiy-texnika ta'minoti

4.1. Kutubxonachi bevosita Metodika kabinetini mudiriga bo'ysunadi, kutubxona ish tartibi Metodika kabinetini mudiri tomonidan mehnat qonunchiligiga muvofiq holda belgilanadi.

4.2. Kutubxona shtati Respublika Moliya vazirligi bilan kelishilgan va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Xalq ta'limi tizimi tuman (shahar) XTB qoshidagi Metodika kabinetlari xodimlarining namunaviy shtatlari»ga muvofiq belgilanadi.

4.3. Kutubxonachi lavozimiga kutubxonachilik yoki pedagogik ta'limga ega bo'lgan oliy ma'lumotli xodim qabul qilinadi.

4.4. Kutubxona jamg'armasi va mazmunini saqlashni ta'minlash hamda kutubxonalar bilan ishlashni tashkil etish uchun zarur sharoit yaratish maqsadida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi rahbariyati kutubxonaga me'yoriy ko'rsatkichlarga muvofiq hamda sanitariya-texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, zarur kutubxona jihozlari va inventarlariga ega bo'lgan muayyan xizmat xonasini ajratib beradi.

4.5. Kutubxonachi kitob jamg'armasini yaxshi saqlash uchun mas'uldir hamda belgilangan qonunchiliklar tartibi bo'yicha kutubxona faoliyatini yurg'uzishga javobgardir.

4.6. Kutubxona jamg'armasiga zarar keltirgan aybdor kutubxonachi amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda javobgardir.

4.7. Kutubxonani moliyalashtirish Metodika kabinetining muayyan smeta moddasi hisobidan amalga oshiriladi.

4.8. Kutubxona o'zining to'liq nomlanishiga muvofiq shtatga ega bo'ladi.

4.9. Kutubxonachi kutubxonaga oid hujjatlashtirish ishlarini olib boradi hamda o'z faoliyati bo'yicha hisobot va ish rejasini, boshqa

axborotlarni tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti mudiriga taqdim etadi.

4. 10. Kutubxona boshqa kutubxona, tashkilotlar bilan yozishmalarni yo'lga qo'yishga, kutubxona uyushmasiga kirish huquqiga ega-dirlar.

4. 11. Kutubxonachi o'z xizmat doirasidagi ishlarga to'la mas'uldir hamda Nizomda ko'rsatilgan vazifalarga muvofiq o'z faoliyati mazmunini va aniq shaklini belgilab olishi majburiydir.

2.7. Tuman (shahar) Metodika kabineti qoshidagi Tayanch maktablari to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ta'lim muassasalari uchun metodik ishlarning tayanchi sifatida O'zbekistan Respublikasi hududidagi barcha tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarining Metodika kabinetlari qoshida fan va yo'nalishlar bo'yicha Tayanch maktablari tashkil etiladi.

1.2. Tayanch maktabi tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tomonidan viloyat PKQTMOI va Metodika (Ta'lim) markazi bilan kelishgan holda belgilanadi.

1.3. Tayanch maktabining tegishli fan (yo'nalish) bo'yicha faoliyatiga tuman fan Metodika uyushmasining raisi rahbarlik qiladi. Tayanch maktabi o'z ishini maktab direktori raisligidagi kengash orqali tashkil etadi. Bitta maktabda bir nechta fan (yo'nalish) bo'yicha Tayanch maktabi bo'lishi mumkin.

2. Tayanch maktabining asosiy vazifalari

2.1. Tuman (shahar) umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagogik xodimlar uchun o'qishlar (o'quv seminari, seminar-treninglar va boshqalar) tashkil qiladi.

2.2. Tuman (shahar) maktablaridagi ilg'or tajribali pedagoglarning ish tajribasini o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil qilish uchun sharoit yaratadi.

2.3. Fan va yo'nalishlar bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil qiladi.

2.4. Fan va yo'nalishlar bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazadi.

2.5. Tayanch maktablarida tegishli fan (yo‘nalish) bo‘yicha tuman (shahar) miqyosida metodika xonasi tashkil etiladi.

2.6. Tuman fan Metodika uyushmalarining faoliyati Tayanch maktablarida tashkil etiladi.

2.7. Tayanch maktabining asosiy ish shakllaridan biri harakatdagi o‘quv seminaridir. Seminar mashg‘ulotlarida munozara, ishbilarmonlar o‘yini, yakka va guruh shaklida konsultatsiyalar berish, ilg‘or ish tajribani amalda ko‘rsatish kabilar rejalashtiriladi. Seminar davomida ko‘rik-tanlovlar, ko‘rgazmalar, olimpiadalar hamda Metodika uyushma ishlari ko‘rsatiladi.

3. Tayanch maktabi ishini tashkil etish

3.1. Tayanch maktablarida viloyat PKQTMOI tomonidan kurs qat-nashchilari uchun mashg‘ulot o‘tkaziladi.

3.2. Tayanch maktabi o‘z ish rejasini tuman fan Metodika uyushmasi ish faoliyati asosida rejalashtiradi.

3.3. Tayanch maktablari tuman Metodika kabinetining Metodika kengashi ishlari, o‘qituvchilarning muntazam malakalarini oshirib borish, metodika bo‘yicha tavsiyalar berish, Metodika markazlari bilan aloqani amalga oshirish uchun seminarlar tashkil qiladi.

4. Tayanch maktabining hujjatlari

Tayanch maktabi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo‘lishi shart:

4.1. Ish reja.

4.2. Yig‘ilish bayonnomalari va tayanch maktabi faoliyatiga doir hujjatlar.

4.3. Hisobotlar.

4.4. Yuqori tashkilotlardan kelib tushgan o‘quv-metodik hujjat va materiallar nusxasi.

2.8. Sirtqi olimpiada maktabi to‘g‘risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25 martdagi «O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini taqdirlash va rag‘bat-

lantirish to'g'risida»gi 157-son qarori asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining umumta'lim fanlari bo'yicha iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash, ulardagi noyob fazilatlarini yanada rivojlantirish, Respublika va xalqaro olimpiadalarga nomzodlar tanlash maqsadida sirtqi olimpiada maktabi tashkil etiladi.

2. Sirtqi olimpiadani tashkil etish, o'tkazish tartibi

Sirtqi olimpiada 7–10-sinf o'quvchilari bilan 5 ta fan (fizika, matematika, kimyo, biologiya, informatika) bo'yicha o'tkaziladi va har o'quv yili oxirida yakuniy tur o'tkaziladi. Sirtqi olimpiada to'rtta turdan iborat bo'lib, har bir turda masala va misollar, savol va topshiriqlar berilib, ular natijasiga ko'ra bir turdan ikkinchi turga o'tgan o'quvchilar ro'yxati e'lon qilinadi va har bir tur yakuniga ko'ra o'quvchilar turdan turga o'tib oxirgi yakunlovchi turgacha yetib kelgan o'quvchilar taqdirlovchi o'rinlarni egallaydi. Agar yakunlovchi turga 3 tadan ko'p o'quvchi chiqsa, ular o'rinlar uchun maxsus topshiriq bajaradilar va g'olib aniqlanadi.

Sirtqi olimpidaning birinchi, ikkinchi va biror turiga qatnasha olmay qolgan o'quvchilar (kasal yoki boshqa sabablar) maxsus topshiriqlar bilan turdan turga o'tkaziladi. Biror tur natijasi yomon bo'lib, lekin original yechimlar topgan o'quvchi ham hakamlar hay'atining qarori bilan turdan turga o'tkazilishi mumkin.

Sirtqi olimpiada uchun tuziladigan (beriladigan) topshiriqlar darslik bilan chegaralanib qolmaydi. Sirtqi olimpiadaga qatnashishni xohlovchi o'quvchilar o'zlari haqida to'liq ma'lumot va birinchi tur topshiriqlarini bajarib yuboradilar va shundan so'ng qabul qilinadilar. Sirtqi olimpidaning har bir turi uchun savollar va ularning natijalari «Istiqbol g'unchalari» o'quvchilar gazetasida chop etiladi va belgilangan muhlatda «Metodika markazi»ga yetkaziladi.

3. Sirtqi olimpiadaga qatnashuvchilarning huquqlari

Sirtqi olimpiada qatnashuvchilari orasidan taqdirlovchi o'rin olgan o'quvchilar tanlovsiz tuman (shahar), viloyat olimpiadasiga qatnashish va xalqaro olimpiadalarga tavsiya etilish huquqiga ega bo'ladi. Har bir fan kesimida mukofotli o'rinlarga ega bo'lib, qimmatbaho sovg'alar olish huquqini ham qo'lga kiritadilar.

4. Sirtqi olimpiada maktabining tarkibi

Sirtqi olimpiada maktabining tarkibi direktor, direktor o'rinbosari va barcha fanlar bo'yicha mutaxassislardan iborat bo'ladi. Mutaxassislar ijodkor o'qituvchilar, oliy o'quv yurtlarining ijodkor professor-o'qituvchilari orasidan tanlab olinadi.

5. Sirtqi olimpiada maktabining moliyaviy ta'minoti

Sirtqi olimpiada maktabi ishtirokchilari va hakamlar hay'atini taqdirlash «Istiqbol g'unchalari» gazetasining daromadi, «Pedagogik serviz» va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi «Budget tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish haqida»gi 414-sonli qaroriga asosan xo'jalik hisobidagi ishlab chiqarish ijara haqlari va homiyar tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

2.9. Olimpiada zaxira maktabi to'g'risida NIZOM

1. Umumiy qoidalar

O'zbekistan Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25 martdagi «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va rag'batlantirish to'g'risida»gi 157-sonli qarori asosida Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarining umumta'lim fanlari bo'yicha iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash, ulardagi noyob fazilatlarini yanada rivojlantirish, umumta'lim fanlaridan o'tkaziladigan fan olimpiadalariga ishtirok etuvchi viloyat jamoalari a'zolarini tanlash, xalqaro olimpiadalarga qatnashuvchi zaxira tayyorlash, mazkur Nizom olimpiada zaxira maktabini tashkil etish va mashg'ulotlarni olib borish, qabul qilish qoidalari va tartibini belgilaydi.

2. Olimpiada zaxira maktabining maqsad va vazifalari

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari orasidan umumta'lim fanlari bo'yicha iqtidorli bolalarni aniqlash, qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirish, ulardagi ijodiy qobiliyatning ro'yobga chiqishiga ko'maklashish va qo'llab-quvvatdash, kasb tanlashlariga ko'maklashish va ularni o'zlari sevgan kasb-hunarga yo'naltirish.

Iqtidorli bolalarni aniqlashda pedagoglarni ijodkorlikka, o‘z mahoratlarini rivojlantirishga, ota-onalar bilan hamkorlikka, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi olimpiada zaxira maktabining asosiy maqsadi qobiliyatli o‘quvchilarni aniqlash, tarbiyalash, rag‘batlantirish, kamolotga yetkazish jarayonida maktab, ota-onalar, jamoatchilikning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish.

3. Qabul qilish qoidalari va ta’lim jarayonini olib borish tartibi

Olimpiada zaxira maktabiga 5–10-sinf o‘quvchilari orasidan iqtidorli qobiliyatli, iste’dodli bolalar aniqlanib, qabul qilinadi va fanlar kesimida 6–8 o‘quvchidan iborat guruhlar tuziladi. Bunda o‘quvchilarning yoshini e’tiborga olgan holda 5–6, 7–8, 9–10-sinflar bo‘yicha guruhlar tuziladi.

Guruhlarga dars beruvchi o‘qituvchilar test va suhbat asosida ijodkor o‘qituvchilar orasidan tanlanadi. Mashg‘ulotlar jadval asosida haftada 2 kun olib boriladi. Har bir guruh rahbari tasdiqlangan reja va dastur asosida o‘quvchilarni olimpiadalarga tayyorlaydi, shaxsiy psixologik xususiyatlarini rivojlantiradi, tarbiyalaydi. Olimpiada zaxira maktabiga qabul qilingan o‘quvchilar mashg‘ulotlar davomida qayta aniqlanadi va mashg‘ulotlarga to‘liq qatnashmagan, topshiriqlarni bajara olmagan o‘quvchilar maktabdan chetlashtiriladi.

4. Olimpiada bo‘yicha «Zaxira maktabi»ga tinglovchilarni qabul qilish shartlari

O‘quvchilarni «Zaxira maktabi»ga qabul qilish 5–10-sinflar o‘rtasida olib borilib, quyidagi shartlar asosida hujjatlar taqdim etiladi:

1. Psixologning yo‘llanmasi.
2. Fan o‘qituvchisi va sinf rahbarining tavsiyasi.
3. Ota-ona bilan shartnoma.
4. Tanlagan fani bo‘yicha test va og‘zaki suhbat.
5. Rasm (4x9) 2 ta.
6. Ariza va tarjimayi hol.

1. Maktab psixologi testlar asosida o‘quvchining qobiliyati, xotirasi, intellektual, maxsus qobiliyatini aniqlaydi.

2. Shu fandan qanday o‘qishi, ijodkorligini va sinf rahbari esa o‘quvchi xulq-atvori, odobi, shaxsiy sifatlari, tartib-intizomini e’tiborga olgan holda tavsiya yozib beradi.

3. Ota-ona bilan o'quvchining sharoiti, kelib-ketish vaqti, tayyorlashga ketadigan sarf-xarajatlar (kitob, qo'llanma, ruchka, daftar va boshqa kerakli jihozlar) bo'yicha shartnoma tuziladi.

5. Olimpiada zaxira maktabining huquqlari

1. Olimpiada zaxira maktabi o'z istiqbol rejasini tuzish.
2. Olimpiada zaxira maktabi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarilishini amalga oshirish.
3. O'quv rejaga berilgan soatlarni taqsimlash, dars jadvalini tuzish.
4. O'qituvchilarga berilgan yuklamalarni muhokama etish.
5. O'quv jarayonini tashkil etishda turli shakl va usullardan foydalanish.
6. Ta'lim oluvchilarni attestatsiyadan o'tkazish.
7. Rag'batlantirish va jazolash.
8. Muammolarni o'rganish va hal etish.
9. Ish natijalarini o'rganish va ommalashtirish.
10. Budjetdan tashqari mablag' topish va xodimlarni taqdirlash.
11. Barcha tashkilotlar va muassasalar bilan doimiy aloqada bo'lish.
12. Qabul qilish va chiqarish.

6. Olimpiada zaxira maktabi tarkibiy tuzilishi

1. Olimpiada zaxira maktabini izlanuvchan ijodkor direktor boshqaradi va u Xalq ta'limi boshqarmasi vakolatida bo'ladi.
2. O'z tarkibida maqsad va vazifadan kelib chiqib faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilardan iborat bo'ladi.
3. Fanlar kesimida bo'limlar, filiallardan iborat bo'ladi.
4. Olimpiada zaxira maktabi Pedagogika kengashi, Metodika kengashi bo'lib Nizom asosida ish olib boradi.

7. Olimpiada zaxira maktabining moliyaviy ta'minoti

Olimpiada zaxira maktabining mablag'i viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan ajratilgan mablag', shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish haqida»gi 414-sonli qaroriga asosan xo'jalik hisobidagi ishlaridan kelib tushadigan «Pedagogik servis» faoliyati, tijorat, kitob savdosi va homiyilar ajratgan mablag'lar, otanalar mablag'i hisobidan bo'ladi.

2.10. Uzluksiz metodik xizmat bo'yicha namunaviy ish rejalar

«Tasdiqlayman»

Tuman xalq ta'limi bo'limi Metodika kengashi raisi mudiri

_____ tuman xalq ta'limi bo'limi Fizika-matematika metodika
uyushmasining 200_ – 200_o'quv yili uchun namunaviy
ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	200 –200_ o'quv yilida olingan yozma ish, imtihon yakunlari	200_ yil avgust	
2.	Uyushmaning yangi o'quv yili uchun ish rejasi muhokamasi		
3.	Maktab uslub birlashma vazifalari va ish yuritish qog'ozlari bo'yicha seminar-trening o'tkazish		
4.	Matematika va fizika fanlaridan tuman olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish guruhini tashkil etish, chora-tadbirlarini ishlab chiqish		
5.	Malaka oshirish kursida o'qib kelgan o'qituvchilar hisoboti		
II yig'ilish			
1.	Matematika va fizika bo'yicha o'tkazilgan ko'rik-tanlov yakuni. Tuman olimpiadalari natijalari va davlat test markazining tuman bitiruvchi o'quvchilarini oliy o'quv yurtlariga kirish haqidagi ma'lumotning tahlili	200_ yil dekabr	
2.	To'garaklarni tashkil etish, olib borish tajribasidan		
3.	Yosh o'qituvchilarga metodik xizmat ko'rsatish		
4.	Doimiy harakatdagi seminarda ishtirok etish		
5.	«Buyuk Ipak yo'li» olimpiadasi materiallarini o'rganish		

III yig'ilish		
1.	Matematika, fizika darslarida ilg'or pedagogik texnologiya usullarini qo'llash	200_ yil mart
2.	Davlat ta'lim standartlari bo'yicha o'quvchilar uchun testlar tuzish ish tajribasini o'rganish	
3.	Fizika, matematika fanlarini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish	
4.	Fizika fanini o'qitishda laboratoriya ishlarini o'tkazish metodikasi	
5.	Doimiy harakatdagi seminarda ishtirok etish	
IV yig'ilish		
1.	Bitiruvchi o'quvchilarning yakuniy attestsatsiyasi yakunlari	200_ yil iyun
2.	Fizikadan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzularni aniqlash va uni o'tish metodikasi bo'yicha tavsiya	
3.	Fizika-matematika fanlari bo'yicha buyuk siymolar hayotini va ijodini o'rganish hamda dars jarayonida qo'llash	
4.	Milliy istiqlol g'oyasini fizika, matematika darslarida qo'llash	
5.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik va uni o'tkazish	

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman »
Maktab «Metodika kengashi» raisi _____

_____ maktab fizika-matematika fani metod birlashmasining
200_–200_ o‘quv yili uchun taxminiy
ISH REJASI

T/ r	Ish mazmuni	Muddati	Mas’ul. O‘tkazish joyi
I yig‘ilish			
1.	O‘tgan o‘quv yili hisoboti. Yangi dars rejalari tasdiqlash	Avgust	
2.	Har xil masalalar		
II yig‘ilish			
1.	Fan o‘qituvchisining ish tajribasini ommlashtirish	Oktabr	
2.	Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni murabbiylikka tayinlash va metodik yordam ko‘rsatish		
3.	Sinf dan tashqari ishlar, to‘garak ishlarini tashkil etish		
4.	Har xil masalalar		
III yig‘ilish			
1.	Darslar jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish	Noyabr, dekabr	
2.	Malaka oshirish kursida o‘qib kelgan o‘qituvchilar hisoboti		
3.	Davlat ta‘lim standartlari talablariga mos ravishda ochiq darslar o‘tkazish		
4.	Har xil masalalar		
IV yig‘ilish			
1.	Metod birlashma a‘zolarining o‘z muam-moli mavzulari bo‘yicha olib borayotgan ishlari muhokamasi	Yanvar, fevral	
2.	Har xil masalalar		
V yig‘ilish			
1.	Fizika-matematikadan fan haftaligini o‘tkazish	Mart, aprel	
2.	O‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzular bo‘yicha dars ishlanmalarini tayyorlash		
3.	Sinf dan sinfga ko‘chirish imtihonlari yoki bitirish imtihonlari uchun qo‘shimcha topshiriqlar tayyorlash	May, iyun	

4.	Har xil masalalar		
VI yig'ilish			
1.	O'quv yili yakuni bo'yicha hisobot	May, iyun	
2.	Avgust kengashiga tayyorgarlik ko'rish		
3.	Har xil masalalar		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Metodika birlashmasi hujjatlari

Metodika birlashmasi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:

- metodika birlashmalari a'zolari haqida ma'lumot;
- ish rejasi;
- yig'ilish bayonnomalari;
- hisobotlar;
- metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi;
- metodika birlashmasiga yuqori tashkilotlardan kelib tushgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi.

«Tasdiqlayman»
«Metodika kengashi» raisi

_____ maktab Informatika fani metod birlashmasining
200_–200_ o'quv yili uchun taxminiy
ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	O'tgan o'quv yili hisoboti. Yangi dars rejalarini tasdiqlash	Avgust	
2.	Har xil masalalar		
II yig'ilish			
1.	Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni murabbiylikka tayinlash va metodik yordam ko'rsatish	Noyabr, dekabr	
2.	Davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda ochiq darslar o'tkazish		

3.	Har xil masalalar		
III yig'ilish			
1.	Metod birlashma a'zolarining o'z muammoli mavzulari bo'yicha olib borayotgan muhokamasi	Yanvar, fevral	
2.	Malaka oshirish kursida o'qib kelgan o'qituvchilar hisoboti		
3.	Maktabning informatika fani o'qituvchilarini dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanishlarining samadorligi haqida		
IV yig'ilish			
1.	Maktab fan o'qituvchisining ish tajribasini ommalashtirish	Oktabr	
2.	Darslar jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyadan foydalanish		
3.	Sinfdan tashqari ishlar, to'garak ishlarini tashkil etish		
V yig'ilish			
1.	Informatikadan fan haftaligini o'tkazish	Mart, aprel	
2.	O'zlashtirilishi qiyin bo'lgan mavzular bo'yicha dars ishlanmalarini tayyorlash		
3.	Har xil masalalar		
VI yig'ilish			
1.	O'quv yili yakuni bo'yicha hisobot		
2.	Avgust kengashiga tayyorgarlik ko'rish		
3.	Har xil masalalar		

Metodika birlashmasi hujjatlari

Metodika birlashmasi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:

- metodika birlashmalari a'zolari haqida ma'lumot;
- ish rejasi;
- yig'ilish bayonnomalari;
- hisobotlar;
- metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi;
- metodika birlashmasiga yuqori tashkilotlardan kelib tushgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi;

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, uning o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»
Tuman xalq ta'limi bo'limi
Metodik kengash raisi

_____ tuman xalq ta'limi bo'limi Informatika fanidan metod
uyushmaning 200_–200_ o'quv yili uchun namunaviy
ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	200_–200_ o'quv yilida olingan yozma ish, imtihon yakunlari	200_ yil avgust	
2.	Uyushmaning yangi o'quv yili uchun ish rejasi muhokamasi		
3.	Maktab uslub birlashma vazifalari va ish yuritish qog'ozlari bo'yicha seminar-trening o'tkazish		
4.	Informatika fanidan tuman olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish guruhini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlash		
II yig'ilish			
1.	Informatika fani xonalarini jihozlanishi. Barcha o'tkazilgan ko'rik-tanlovlar yakuni. Tuman olimpiadalari	200_ yil dekabr	
2.	Maktabning yosh o'qituvchilari bilan 7–9-sinf o'quvchilari uchun seminar-trening o'tkazish		
3.	«Buyuk Ipak yo'li» olimpiadasi haqida 2002-yil 3/5 sonli «Informatika» ilmiy uslubiy jurnaldagi maqolani ishlab chiqish		
III yig'ilish			
1.	Informatika darsida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda maktablarda olib borilayotgan ishlar	200_ yil mart	
2.	Davlat ta'lim standartlarini maktablarning 9-sinflarida joriy etilishi bo'yicha 3-chorak yakunlari tahlili		

3.	Maktabning informatika fani o'qituvchilari dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanishlarining samarasi haqida		
IV yig'ilish			
1.	Bitiruvchi o'quvchilarning yakuniy attestatsiya yakunlari	200_yil avgust	
2.	«Shogirdim – faxrim mening» 11-sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari ko'rigi		
3.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik ko'rish		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, uning o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»

Tuman xalq ta'limi bo'limi Metodika kengashi raisi _____

_____ tuman xalq ta'limi bo'limi Kimyo-biologiya fanidan metod uyushmaning 200_–200_ o'quv yili uchun namunaviy

ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_yil avgust	
2.	Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik. Uyushmaning yangi o'quv yiliga rejasini muhokama qilish		
3.	Fan kabinetlarining «Eng namunali fan kabineti» ko'rik-tanloviga tayyorgarlik ko'rish		
4.	Xalq ta'limi vazirligining yangi qabul qilingan me'yoriy hujjatlarini o'rganish		
II yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_yil oktabr	
2.	_№ maktabda 9-sinf o'quvchilari bilan interaktiv metod elementlaridan foydalanган holda o'qituvchilar bilan hamkorlikda seminar-trening o'tkazish		

3.	Malaka oshirish kursida o'qib kelgan o'qituvchilar hisoboti		
4.	Tuman olimpiadasiga tayyorgarlik masalalari		
III yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil dekabr	
2.	Kimyo-biologiya fanlari bo'yicha tuman olimpiadasi yakunlari haqida		
3.	_№ maktab o'qituvchilarining dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishlari haqidagi ishlari		
4.	«Eng namunali fan kabineti» ko'rik-tanlovining yakunlari haqida		
IV yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish 200_ yil fevral	200_ yil fevral	
2.	Yosh kimyo-biologiya o'qituvchilariga ko'rsatilayotgan metodik xizmat to'g'risida		
3.	Kimyo darslarida mahalliy materiallaridan foydalanib, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish		
4.	Viloyat miqyosida ekologiyaga doir o'tkaziladigan anjumanga tayyorgarlik		
5.	«Tomchi suvda hayot jilvasi» ko'rik-tanlovining yakunlarini ko'rib chiqish		
V yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil aprel	
2.	Yakuniy attestatsiyaga tayyorgarlik haqida		
3.	Iqtidorli bolalar bilan olib borilayotgan ishlar hisoboti		
4.	_№ maktab kimyo fani o'qituvchisining ochiq darsi		
VI yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil iyun	
2.	Bitiruvchilarning yakuniy attestatsiya natijalari tahlili		
3.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik		
4.	Har xil masalalar		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»
Maktab Metodika kengashi raisi _____

_____ maktab Kimyo-biologiya metod birlashmasining
200_–200_ o‘quv yili uchun taxminiy

ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas’ul. O‘tkazish joyi
I yig‘ilish			
1.	O‘tgan o‘quv yili hisoboti	Avgust	
2.	Yangi o‘quv yili uchun dars rejalarini taqsimlash		
3.	Yosh o‘qituvchilarga murabbiylar tayinlash va metodik yordam ko‘rsatish		
4.	Har xil masalalar		
II yig‘ilish			
1.	Maktab ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribalarini ommalashtirish	Oktabr	
2.	Darslar jarayonida innovatsion usullardan foydalanish		
3.	Har xil masalalar		
III yig‘ilish			
1.	Maktab olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish	Noyab, dek.	
2.	Darslar va unga qo‘yilgan talablar. Ochiq darslar o‘tkazish		
3.	Har xil masalalar		
IV yig‘ilish			
1.	Sinfдан tashqari ishlar, fan to‘garak ishlarini tashkil etish	Yanvar	
2.	Metod birlashma a‘zolarining o‘z ustida ishlashlarini tashkil etish		
3.	Har xil masalalar		
V yig‘ilish			
1.	Chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflar uchun alohida reja va dastur tayyorlash	Mart, aprel	
2.	O‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan mavzular bo‘yicha dars ishlanmalarini tayyorlash		
3.	Har xil masalalar		
VI yig‘ilish May, iyun			
1.	O‘quv yili yakuni bo‘yicha hisobot		
2.	Avgust kengashiga tayyorgarlik ko‘rish		
3.	Har xil masalalar		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Metodika birlashmasi hujjatlari

Metodika birlashmasi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:

- metodika birlashmalari a'zolari haqida ma'lumot;
- ish rejasi;
- yig'ilish bayonnomalari;
- hisobotlar;
- metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi;
- metod birlashmaga yuqori tashkilotlardan kelib tushgan o'quv-metodik hujjatlar nusxasi.

«Tasdiqlayman»

Tuman xalq ta'limi bo'limi Metod kengashi raisi _____

_____ tuman xalq ta'limi bo'limi Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fanidan metod uyushmaning 200_–200_ o'quv yili uchun namunaviy ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	O'tgan o'quv yilining yakuni. Yangi o'quv yilidagi vazifalarni belgilash	200_ yil avgust	Maktabda
2.	O'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish		
3.	«Eng yaxshi jihozlangan fan xonasi» ko'rik-tanlovini o'tkazish uchun tavsiyalar ishlab chiqish		
4.	Yosh o'qituvchilarga murabbiylik qilish, ularga metodik tavsiyalar berish		
5.	Seminarda ishtirok etish		
6.	Har xil masalalar		
II yig'ilish			
1.	Tumanda geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fanidan o'tkaziladigan olimpiadaga tayyorgarlik ko'rish, birlashma a'zolarini nizom bilan tanishtirish	200_ yil oktabr	

2.	«Eng namunali fan xonasi» ko'rik-tanlovinging buyrug'i va nizomi bilan tanishish		
3.	Dars o'tishning interfaol usullari bo'yicha _№ maktabda geografiya va iqtisod fanidan seminar tashkil etish		
4.	O'zlashtirilishi og'ir bo'lgan mavzular yuzasidan dars ishlanmalari tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish		
5.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish.		
6.	Har xil masalalar		
III yig'ilish			
1.	Ilg'or o'qituvchilar darslarini kuzatish	dekabr	
2.	Geografiya va iqtisod fani bo'yicha to'garaklar ish rejasini ko'rib chiqish va uni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berish		
3.	Tabaqalashtirib o'qitilayotgan sinflar ish rejalarini ko'rib chiqish		
4.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish		
5.	Har xil masalalar		
IV yig'ilish			
1.	Geografiya va iqtisod fanlari bo'yicha yakuniy attestatsiyaga tayyorgarlik	aprel	
2.	Ilg'or pedagogik texnologiya asosida iqtisod fani bo'yicha malaka oshirishdan o'tib kelgan o'qituvchilar hisoboti		
3.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish		
4.	Har xil masalalar		
V yig'ilish			
1.	O'quv yili yakuni	iyun	
2.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik		
3.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish		
4.	Har xil masalalar		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»
Maktab Metodika kengashi raisi _____
_____ maktab geografiya, iqtisodiy bilim asoslari metod
birlashmasining 200_–200_ o‘quv yili uchun taxminiy
ISH REJASI

T/ r	Ish mazmuni	Muddati	Mas‘ul. O‘tkazish joyi
I yig‘ilish			
1.	O‘tgan o‘quv yili hisoboti	Avgust	
2.	Yangi o‘quv yili uchun dars rejalarini taqsimlash		
3.	Har xil masalalar		
II yig‘ilish			
1.	Ilg‘or pedagogik texnologiya asosida ochiq darslar tashkil etish	Oktabr	
2.	Sinfdan tashqari ishlar, geografiya fani bo‘yicha «O‘lkashunoslik to‘garagi»ni tashkil etish		
3.	Har xil masalalar		
III yig‘ilish			
1.	Yosh o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish. Maktab olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish	Dekabr	
2.	Maktab olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘rish		
3.	Har xil masalalar		
IV yig‘ilish			
1.	Geografiya darslarida milliy istiqloq g‘oyasini singdirish bo‘yicha ochiq darslar tashkil etish	Fevral	
2.	Metod birlashma a‘zolarining o‘z ustida mustaqil ishlashlarini tashkil etish		
3.	Har xil masalalar		
V yig‘ilish			
1.	Fan haftaliklari o‘tkazish	Aprel	
2.	Murakkab mavzular bo‘yicha dars ishlanmalari tayyorlash		
3.	Har xil masalalar		
VI yig‘ilish			
1.	O‘quv yili yakuni bo‘yicha hisobot	Iyun	
2.	Avgust kengashiga tayyorgarlik ko‘rish		
3.	Har xil masalalar		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo‘lib, unga o‘qituvchilar talablari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Metodika birlashmasi hujjatlari

Metodika birlashmasi faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo‘lishi shart:

- metodika birlashmalari a‘zolari haqida ma‘lumot;
- ish rejasi;
- yig‘ilish bayonnomalari;
- hisobotlar
- metodika birlashmasi faoliyatiga aloqador bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlar nusxasi.

«Tasdiqlayman»

Tuman xalq ta‘limi bo‘limi

Metod kengashi raisi _____

_____ tuman xalq ta‘limi bo‘limi Ona tili va adabiyot fanlaridan metod uyushmaning 200_–200_ o‘quv yili uchun namunaviy
ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas‘ul. O‘tkazish joyi
I yig‘ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil avgust	
2.	Ona tili va adabiyot fani bo‘yicha metodik uyushmaning o‘tgan o‘quv yilida bajarilgan ish natijalari va yangi o‘quv yilidagi vazifalari		
3.	Uyushmaning yangi o‘quv yili ish rejasi muhokamasi		
4.	«Yosh qalamkashlar» ko‘rik-tanlovini o‘tkazish chora-tadbirlari haqida suhbat		
5.	O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 18-yilgini nishonlash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish		
6.	Har xil masalalar		

II yig'iliş			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil oktabr	
2.	Maktablarda o'tkaziladigan fan olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish. Olimpiada nizomlari bilan tanishtirish, metodik tavsiyalar berish, olimpiada materiallarini tayyorlash, hakamlar hay'atini tayyorlash		
3.	«Yosh qalamkashlar» ko'rik-tanlovi yakuni		
4.	Yosh o'qituvchilarga ko'rsatilayotgan metodik ishlar to'g'risida hisobot		
III yig'iliş			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil dekabr	
2.	Maktablarda o'tkazilgan fan olimpiadalari yakuni, tuman olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish		
3.	A. Navoiy tavalludining 567-yiliginii nishonlash yuzasidan chora-tadbirlar tuzish va ta'lim muassasalariga yetkazish		
4.	Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilari tomonidan yangi pedagogik texnologiya bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muhokama qilish va ommalashtirish uchun viloyatga tavsiya etish		
5.	Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda fan xonalarini jihozlashga qo'yilgan talablar va ko'rgazma, qo'llanmalardan foydalanish texnologiyasi uchun tavsiyalar tayyorlash		
IV yig'iliş			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil fevral	
2.	1-yarim yillikda ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi muhokamasi		
3.	Tumanda o'tkazilgan fan olimpiadasi yakuni		
4.	Navro'z bayramiga tayyorgarlik, chora-tadbirlar ishlab chiqish va ta'lim muassasalariga yetkazish		
5.	Mashg'ulotlarga o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish usullari		

V yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil aprel	
2.	Maktabda «Milliy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijodiy shaxsni rivojlantirish» mavzusida o'tkazilgan anjuman muhokamasi		
3.	Ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha ochiq darslar muhokamasi		
4.	Bitiruv imtihonlariga hujjatlar tayyorlash, imtihon yo'riqnomalari bilan o'qituvchilarni tanishtirish, uslubiy yordam berish		
VI yig'ilish			
1.	Doimiy harakatdagi seminarlarda ishtirok etish	200_ yil iyun	
2.	Maktabda «Ona tili va adabiyot darslarining sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish» mavzusida o'tkazilgan anjuman muhokamasi		
3.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik ishlari		
4.	200_ –200_ o'quv yili uchun metodik uyushmaning ish rejasini ko'rib chiqish		
5.	Bitiruv imtihonlari yakuni		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»

Tuman xalq ta'limi bo'limi Metod kengashi raisi _____
 _____ tuman xalq ta'limi bo'limi Xorijiy tillar fanidan metod
 uyushmaning 200_–200_ o'quv yili uchun namunaviy

ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	Xorijiy til o'qituvchilarining avgust anjumani	200_ yil avgust	
2.	Metod uyushmaning ish rejasini tasdiqlash		
II yig'ilish			
1.	Maktablarda xorijiy tillarni o'qitishda sinfdan tashqari ishlarning afzalligi	200_ yil oktabr	
2.	Maktab fan olimpiadalarining yakuni va tuman olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish		
III yig'ilish			
1.	Maktablarda DTS talablari asosida xorijiy tillarning o'qitilish ahvoli	200_ yil dekabr	
2.	1-chorak yakunlari monitoringi va DTS talablarining bajarilishi ahvoli		
3.	Fan olimpiadalarining 1-bosqich yakunlari va 2-bosqichga tayyorgarlik		
IV yig'ilish			
1.	Shahar fan olimpiadasi yakuni	200_ yil fevral	
2.	Xorijiy tilda «Navro'z» bayramini o'tkazish		
3.	«Xorijiy til darslarida noan'anaviy usullarning qo'llanishi» mavzusida anjuman		
V yig'ilish			
1.	Yosh mutaxassislar bilan olib borilayotgan ishlar monitoringi	200_ yil aprel	
2.	O'quvchilarning bilim darajalarini aniqlash uchun 3-chorak yakunlari bo'yicha o'tkazilgan test sinovlarining natijalari		

3.	O'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirishda xorijiy tillar to'garaklarining roli		
VI yig'ilish			
1.	O'quv yilining yakuni		
2.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik		

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

«Tasdiqlayman»
Tuman xalq ta'limi bo'limi
Metod kengashi raisi _____

_____ tuman xalq ta'limi bo'limining Maktab yetakchilari uchun
metod uyushmaning
200_–200_ o'quv yili uchun namunaviy
ISH REJASI

T/r	Ish mazmuni	Muddati	Mas'ul. O'tkazish joyi
I yig'ilish			
1.	Maktab yetakchilari bilan 200_–200_ o'quv yiliga yakun yasash. 200_–200_ o'quv yili ish rejasini tasdiqlash	200_ yil avgust	
2.	XTBning 2002-yil 8 iyuldagi 109-sonli buyrug'ini ishlab chiqish		
3.	Yetakchilar bilan o'tkaziladigan tuman va shahar anjumanlarini rejalashtirish		
II yig'ilish			
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar berish	200_ yil oktabr	
2.	«Maktab yetakchisi faoliyatining mazmuni va asosiy vazifasi» mavzusida amaliy seminar o'tkazish		

III yig'ilish		
1.	O'quvchilar bilan qishki ta'til davrida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar haqida uslubiy tavsiyalar berish	200_ yil dekabr
2.	Kamalak tashkiloti sardorlari bilan olib borilayotgan ishlar haqida tajriba almashuv	
3.	Bolalar jamoasi ishini takomillashtirishda maktab yetakchisining tutgan o'рни mavzusida ma'ruza	
IV yig'ilish		
1.	Bayram o'tkazish bo'yicha maktab yetakchilari bilan amaliy mashg'ulot o'tkazish	200_ yil fevral
2.	Eng yaxshi oynoma tayyorlash, turli musobaqalarga hamkorlik qilish yuzasidan uslubiy mashg'ulot o'tkazish	
3.	Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda bolalar yetakchisining roli	
V yig'ilish		
1.	Dumaloq stol atrofida yetakchilar bilan davra suhbati	200_ yil avgust
2.	Maktabda tashkil etiladigan oromgohlarda mavsumiy bolalar tashkilotini tuzish yuzasidan metodik yordam	
VI yig'ilish		
1.	O'quv yilining yakuni	200_ yil avgust
2.	Avgust anjumaniga tayyorgarlik	

Izoh: Ushbu reja taxminiy bo'lib, unga o'qituvchilar talablari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

III BOB. TA'LIM METODIKASI VA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

3.1. Ilg'or pedagogik texnologiya

Ilg'or pedagogik texnologiya «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida olib borilayotgan tub islohotlar asosiy yo'nalishlarining bosh harakatlantiruvchi kuchidir. Ilg'or pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, bunda 3-ming yillikda tub burilishlar, bilimga chanqoqlik, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma'naviy va ruhiy barkamollik tizimli ravishda shakllantiriladi.

Texnologiya so'zi (yunoncha) «*texnos*» – san'at, hunar, «*logos*» – fan, «pedagog» esa boshqaruvchi, yetaklovchi (ta'lim-tarbiyaga) ma'noni anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologiya jarayon (ishlab chiqarish jarayoni, ta'lim-tarbiya jarayoni va h.k.). Ishlab chiqarishda mehnat qurollari bilan mehnat obyektlariga ta'sir etish natijasida mahsulot ishlab chiqarishdir.

Ayrim pedagoglarning fikricha, pedagogik texnologiya bu – o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Uslub (metod) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuidir. Pedagogik texnologiya esa o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan yig'indidir.

O'quv jarayonini texnik vositalar va EHM yordamida amalga oshirish ilg'or pedagogik texnologiyaning bir qismigina, xolos. Pedagogik texnologiyada «Yangi so'z»ni ishlatish «Eski»ning samarali tomonini olib, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashda yangicha texnologiya asosida barkamol, yetuk shaxslarni yetkazib berish tushuniladi.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifasini to'raligicha yangilash zaruriyati tug'ildi. Bundan kelib chiqqan holda:

- ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyaning o'rni aniqlash;
- zamonaviy iqtisodiyot, sanoat, tibbiyot, ekologiya sohasi texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyani muntazam yangilab borish, tabaqalashtirilgan holda yondashuv asosida uning asosiy mezonlarini aniqlash;

– istiqbolli o‘qitish vositalarini yaratish va unga tayangan holda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish, samarasini aniqlash;

– ilg‘or pedagogik texnologiyalarni diagnostika qilish, korreksion va nazorat, baholash ishlarini joriy etish;

– malaka oshirish va qayta tayyorlashning uzluksizligini ta‘minlash;

– ilg‘or pedagogik texnologiya asoslarini oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘qitish;

– ijodkor o‘qituvchilar ishini o‘rganish va ommalashtirish;

– bu ishlarni amalga oshirish uchun pedagogik texnologiya Davlat markazlarini tuzish.

Pedagogik texnologiyani ta‘lim jarayoniga tezda kiritish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

– dars jarayonida ta‘lim-tarbiyaga o‘quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta‘lim jarayonining subyekti bo‘lishga erishish (ya‘ni o‘quvchi zimmasida o‘qish, o‘rganish, mutolaa qilish va h.k.).

– o‘qituvchi o‘quvchini ehtiyoj tug‘dirish, muhit yaratish va undan mas‘uliyatli foydalanishni sezishga o‘rgatish;

– darsning ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, kasbga yo‘llovchi maqsadlarini amalga oshirishda o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligi va harakati.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi uchun ham ichki motivni ehtiyojga aylantirish uchun pedagogik texnologiya monitoringi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak:

– o‘rganish, tushunib yetish, tahlil eta olish, sintez, baho olish. Qisqasi pedagogik texnologiya qanday qilib, qanday usullar bilan ta‘lim jarayonini tashkil etilsa, natija yaxshi bo‘ladi, degan savolga javob beradi va o‘quvchilarda quyidagilarni shakllantiradi:

– bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

– o‘quvchining o‘quv mehnatiga mas‘uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

– bilimlarni mustaqil egallash malakasi shakllanadi;

– shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Ilg‘or pedagogik tajriba sohibining kabineti, jihozlari, ko‘rgazmali

qurollari, ilmiy maqola va boshqa ishlari baholanib, darsni tashkil etish, o'quvchi faoliyatini joriy etish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, o'qitish emas, o'qishga o'rgatish kabi tamoyillar hisobga olinishi lozim.

Ushbu bo'limda biz ilg'or pedagogik tajribaning psixologik aspekti (yo'nalishi) haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ilg'or pedagogik tajribaning asosini tashkil etuvchi yuqoridagi aytilgan tamoyillar qanday darajada joriy etilganligi va uning natijasini aniqlashdan iborat. Chunki o'qituvchi ta'lim mazmunini, darslikni, Davlat ta'lim standartlarini (faqat maksimal ko'tarishda intilishi mumkin), dastur va boshqalarni o'zgartira olmaydi, lekin yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashib, uni boshqacha tashkil etishi mumkin. Tashkil etganda ham quyidagi qoidalarga javob berishi lozim:

- dars, (o'quv, ta'lim jarayoni) ta'lim qanday psixologik qonuniyatlar asosida tashkil etilgan;

- bu tajribada ta'lim va rivojlantirishning bog'liqligi (qaysi, qanday va h.k.);

- tafakkur (fikrlash) qay darajada, qanday turlari rivojlantiriladi;

- shaxsiy xususiyatlar qanday yo'llar bilan rivojlantirilgan;

- mustaqil bilim olish, munosabat va muloqot qay darajada, qanday yo'llar bilan amalga oshirilgan.

Darsni tashkil etish va tashkiliy qismi, darsning borishi deganda nimani tushunamiz? Bunda biz o'qituvchining o'zaro munosabat va muloqoti, darsning tuzilishi (o'quv ta'lim jarayonining), o'qituvchining boshqaruvchanlik, o'quvchining esa o'qish jarayonida faolligini tushunishimiz lozim.

3.2. Interaktiv dars ishlanmasiga qo'yilgan talablar

Ilg'or pedagogik tajribada ko'pincha o'qituvchilarning darsni qanday tashkil etishlari (usullari)ga bog'liq bo'lib, ana shu yerda ularning ijodkorligi namoyon bo'ladi. Ana shu ijodkorlik tajribada sinalib ilg'or nomini, ommalashib texnologiya nomini oladi. Ilg'or pedagogik texnologiyada darsning tuzilishiga quyidagi talablar qo'yilgan:

Fan:

Sinf:

Mavzu:

Maqsad:

- a) tarbiyaviy;
- b) ta'limiy;
- d) rivojlantiruvchi;
- e) kasbga yo'llovchi;
- f) milliy mafkura tamoyillarini bolalar ongi va qalbiga singdirish.

Dars tipi:

- 1. Yangi bilim, tushuncha hosil qiluvchi.
- 2. Ko'nikma, malaka hosil qiluvchi.
- 3. Mustahkamlovchi.
- 4. Sinovchi.
- 5. Aralash tipdagi.

Darsning uslubi (metod):

- a) og'zaki;
- b) ko'rgazmali-amaliy;
- d) yozma.

Darsning usuli: Shu uslub (metod)ni olib borish usuli (bu haqda to'xtalamiz).

Darsning didaktikasi (jihozi):

Darsning borishi:

- 1. Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish.
- 2. Dars rejasi:
 - a) b) d)
- 3. Darsning yakuni.
- 4. Uyga vazifa.

Dars tuzilishidagi rivojlantiruvchi maqsad bu o'quvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlarini rivojlantirish (nutq, diqqat, xotira, tafakkur va h.k.)dir. Ko'pincha o'qituvchilar bu maqsadga noto'g'ri izoh beradilar.

Dars uslubi bilan dars usuli ham ko'pincha bir xil ma'noda tushuniladi. Uslub (metod) yozma, og'zaki, amaliy – ko'rgazmali bo'lib, ish bajarishdagi harakatdir, usul esa shu uslubni (harakatni) qanday tashkil etish va olib borishdir.

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik tajriba asosidagi bir qancha usullar bo'lib, ularning ko'plari ilg'or (yangi) pedagogik texnologiyaning interfaol usullari sifatida qabul qilingan («Aqliy hujum», «Tayanch signallar», «Zigzag», «Kubik», «Muzyoror» va h.k.).

Dars didaktikasida esa o'qituvchining o'zi birinchi namuna (nutqi, mimikasi, pantomimikasi, muloqoti va h.k.), ko'rgazma qurollar, tarqatma materiallar, TTV (ta'limning texnik vositalari), testlar va h.k.

Darsning borishida psixologik iqlim yaratilgandan so'ng darsda o'qituvchi va o'quvchining bajaradigan ishlari (dars rejasi)ni qanday joriy etish, tashkil etishdagi bosqichlar bayon etiladi.

Demak ilg'or tajriba deganda: U nima berayapti? O'quvchilarni hayotga qanday tayyorlayapti? Ularning o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini qanday qondirayapti? Mustaqillikka, mustaqil bilim olishga qanday o'rgatayapti? – degan savollarga javob berishi lozim.

3.3. Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilatlarini;
- ta'lim oluvchining bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Ta'lim berish mahorati pedagogga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish shartlari bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bosh omillar bilan aniqlanadi:

- qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayoni muhiti;
- pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarligi;
- fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bilishi;
- komputer texnologiyalarini bilish;
- kasbiy axborot manbalari sifatida chet tillardan birortasini bilish;
- yangi uslubiy va bilim manbalari sifatida ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish;
- uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarini bilish.

Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma'-

naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqqa, vatanparvarlik va burchiga asoslanadi. Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va xayrixohlik, kirishimlilik va hazil-mutoyiba hissi. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholash va nazorat qilish mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta'lim berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'liq. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlarini obyektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo'llay olishi hamda standart testlarini ishlab chiqa olishi va qo'llay olish mahoratiga ega bo'lishi lozim.

«Ilg'or pedagogik texnologiyalar»da pedagog bilishi lozim:

- ilg'or pedagogik texnologiyalarning ilmiy-uslubiy asoslarini;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarning tarixini;
- o'quv jarayoniga yondashish tamoyillari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- pedagogik texnologiyalarni didaktik qonuniyatlarini;
- o'qitiladigan fanga taalluqli ilg'or pedagogik texnologiyalarni;
- didaktik jarayonni ma'lum vaqt chegarasida loyihalashni;
- o'quv jarayonining muvofiq vaziyatlarini o'rganishga doir tushuntiruv-ko'rgazmaviy, texnologik va izlanuvchan usullarini;
- o'qitishning aktiv usullarini bilishi va qo'llay olishi;
- o'qitishga texnologik va izlanuvchan yondashuv usulini ishlab chiqishni;
- uy vazifalarini maqsadli, diagnostik, kerakli hajmda berish loyihalarining mantiqiy tuzilmasi, korreksiyani;
- o'quv maqsadlari va vazifalarining kataloglarini ishlab chiqishni;
- o'quv maqsadlari va vazifalari asosida test topshiriqlarini tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Ideal (mukammal) o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar:

I. Mutaxassis sifatida:

- pedagogika nazariyasini bilishi;
- pedagogik mahoratga ega bo'lishi;
- psixologiyani teran bilishi;
- ta'lim-tarbiya texnologiyasini bilishi;
- mehnatni to'g'ri taqsimlay olishi;

- ishiga muhabbatli va sadoqatli bo‘lishi;
- pedagogik qobiliyatli bo‘lishi;
- umumiy bilimdonlik;
- sabr-toqatlilik;
- empatiya;
- hissiyotlarini boshqara olishi;
- bolalarni sevishi va tushunishi;
- nutq madaniyatiga ega bo‘lishi;
- muloqot madaniyatini egallagan;
- o‘ziga va o‘zgalarga talabchan;
- taktikali bo‘lishi;
- tashkilotchilik;
- kommunikativlik.

II. Ishchi sifatida:

- maqsadlilik;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- malakasini doimiy oshirish;
- ish unumdorligi uchun kurashish;
- ijodkorlikka intilish;
- har tomonlama bilimdonlik;
- optimist;
- jamoa bilan kelishish;
- javobgarlik, mas‘uliyat hissi;
- faollik;
- moslashish;
- ishni to‘g‘ri taqsimlay olish;
- texnikani bilishi;
- texnologiyani bilishi;
- intizomlilik.

III. Inson sifatida:

- yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi;
- shaxsiy xususiyat darajasi;
- o‘rnak bo‘la olish qobiliyati;
- jamiyat qonunlariga hurmat;
- milliy g‘urur;
- g‘oyaviylik;
- Vatanga, xalqqa muhabbat;

- sogʻlik;
- dinga toʻgʻri munosabat;
- muloqot madaniyati;
- ochiq koʻngillilik;
- oʻz-oʻzini tarbiyalay olish;
- talabchanlik;
- sabr-toqatlilik;
- kommunikativlilik;
- jamoatchilik;
- siyosiy faollik;
- intizomlilik;
- insonparvarlik, bolalarni sevish kabi xislatlarga ega boʻlishi lozim.

3.4. Axborotli texnologiyada pedagog kadrlarga qoʻyiladigan zamon talablari

Axborotli texnologiyada pedagog bilishi lozim:

- axborotdan jarayon sifatida bilim olish va ijod qilish;
- fan-texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlar;
- axborotda jamiyatni rivojlantirish muammolari;
- sunʼiy intellektning axborot tizimlari va bilim berish usullari;
- axborotlashning texnik vositalari va telekommunikatsiya vositalari;
- universal va muammoli-masofali axborot texnologiyalarini amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega texnologiyalarni;
- axborotni modellashtirish asoslarini;
- oʻqitish va nazorat qilishning avtomatlashgan tizimi;
- oʻquv materiallari haqida axborotli maʼlumot tizimini bilishi va qoʻllay olishi;
- oʻqitiladigan fan boʻyicha maʼlumotlar bazasini yaratish;
- global Internet komputer tarmogʻidan foydalanish;
- oʻquv jarayonida amaliy dastur paketlarini qoʻllash;
- oʻquv jarayonida elektron pochtdan foydalanish boʻyicha koʻnikmalarga ega boʻlishi shart.

3.5. Ilg'or pedagogik texnologiya talablari

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy trening markazining ma'lumotlariga ko'ra:

1. Interfaol usul o'quvchi ongiga, tuyg'usiga, irodasiga ta'sir ko'rsatib, tafakkurini oshiradi.

2. Dars usullarida o'zlashtirish quyidagacha:

O'qitish piramidasi:

1. Ma'ruza usulida 5%.
2. O'zicha o'qish 10%.
3. Audio-video orqali o'qish 20 %.
4. Ko'rgazma-namoyishlar orqali o'qish 30%.
5. Bahs-munozara orqali o'qish 50%.
6. Kichik guruhlarga bo'lib o'qish 60%.
7. O'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lash 75%.
8. Bir-birini, bola-bolani yakka tartibda o'qitish 90%.

Pedagogik texnologiyaning monitoringi (Pirovard natijasi)

I bosqich	O'rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushunib yetish	O'zlashtirganini isbot eta bilish
III bosqich	Tatbiq eta olish	Qonun-qoidani tanlash va qo'llash
IV bosqich	Tahlil eta olish	Qiyoslash, xulosalash, o'zaro bog'lash
V bosqich	Sintez	Axborotni ijodiy qayta ishlay olish
VI bosqich	Baho olish	Yangi bilimga o'tish

Interaktiv dars tuzilishi:

1. Fokusirovka. O'quvchilar diqqatini to'plash 5% (2 daqiqa).
 2. Maqsadni aytish 5% (2 daqiqa).
 3. O'quvchi oladigan ma'lumot 10% (4 daqiqa) (o'qituvchining qisqacha tushuntirishi).
 4. Interaktiv usul (o'zal) – 60% (24 daqiqa).
 5. Debrifing (darsga yakun yasash, uyga vazifa berish, taqdirlash) – 20% (8 daqiqa).
- Jami: 40 daqiqa.

Interaktiv usulda dars olib borilganda:

- o‘quvchilarga darsdan kutilayotgan natija e‘lon qilinadi;
- o‘quvchilar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashga o‘rganadi;
- savollarga javob topish va javob uchun yetarli vaqt beriladi;
- o‘quvchilarning ko‘pchiligi darsga faol qatnashadi;
- o‘quvchilar tahlil qilish va qiyoslashga o‘rganadi;
- o‘quvchilar muammolarni hal etish uchun o‘z ustida birgalikda ishlashadi;
- o‘quvchilar juftliklarda va kichik guruhlarda ishlashga o‘rganadi;

– mustaqil ishlash va fikrlashga o‘rganadi:

Interfaol usullarda strategiyalar 4 qismga bo‘linadi.

1. Da‘vat (aqliy hujum, yakka, guruhli, jamoa bo‘lib ishlash).
2. Anglash (yangi axborotni, fikr, bilimni tahlil (tanqidiy, qiyosiy), sintez, maqsadni anglash).
3. Fikrlash (nutq, motiv, o‘zaro muloqot, tafakkur).
4. Insert (tayyor matn, ong nazorati, muhokama, tushunish, tayanch signal, tafakkur).


Interfaol usulda o‘quvchi quyidagilarni o‘rganadi:

1. Bilganlarini tartibga solishni.
2. Bilmaganini so‘rab olishni.
3. Xotirasini ishga tushirishni.
4. Faolligini oshirishni.
5. Qiziqishni kuchaytirishni.
6. O‘z tushunchalarini nazorat qilishni.
7. Motivni qo‘ya bilishni.
8. Mustaqil o‘rganishni va mustaqillikni.
9. Manbalar bilan ishlashni.
10. Axborot almashinishni.

3.6. O‘qitish metodikasi. Ilg‘or pedagogik texnologiya

Pedagogik jarayon pedagogik tizim (sistema)ning asosiy rol o‘ynovchi qismidir. Pedagogik tizim esa bir nechta komponent (bo‘lak)larni o‘z tarkibiga mujassamlashtirgan o‘zgarishlarda ham barqaror bo‘lgan yangilik kiritilganda o‘z kuchini oldingi xususiyatini yo‘qotib yangi xususiyatlarni hosil qiluvchidir.

Pedagogik tizimdagi har bir komponentni bir nechta elementlarga



bo'lish mumkin. Modeldan ko'rinib turibdiki maqsad, natija va ularning moslik darajasi kichik halqani hosil qiladi va moslik darajasining ko'p yoki kamligi pedagogik jarayonning samarasini bildiradi. Boshqarish esa pedagogik tizimning hamma komponentlarini birlashtiradi va uning o'zi mustaqil komponent hisoblanadi, chunki o'zining maqsad va tuzilishiga ega. Pedagogik tizimning muhim komponentlari «natija», «ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish», «texnologiya» hisoblanadi. Pedagogik tizimning tizim hosil qiluvchi komponenti bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayoni texnologiyasi hisoblanadi va alohida ajratiladi (qarang). Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiya barqaror tashkiliy-texnologik kompleks bo'lib, belgilangan maqsadning amalga oshiruvchisidir. A. Kushnerning fikricha texnologiya bilan metodikaning farqi shundaki, metodika – ilg'or tajribani ommalashtirish yoki bilimlarni yetkazishning yangicha yo'lini ixtiro qilish bo'lib, natijasiga hamisha ham kafolat bera olmaydi. Texnologiya esa har qanday sharoitda qanday bo'lishidan qat'i nazar oldindan belgilangan natijani beruvchi jarayondir. Bunda sharoit didaktika, boshqaruvchanlik (texnolog singari), vaqt, qo'llanilganlik darajasi natijasi (oldindan ma'lum), yengil o'zlashtiruvchanlik, usullar va h.k.lar asosiy rol o'ynaydi. Bizning fikrimizcha, o'qitishda metodika ham, pedagogik texnologiya ham bir narsa – o'quvchining oladigan bilim, ko'nikma va malaka darajasi bilan o'lchanadi. Ammo insoniylik, inson tabiatini takomillashtirish asosiy rol o'ynab, bunda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyasining roli zamon talabiga ko'proq mos keladi.

Shundan kelib chiqqan holda ilg'or pedagogik texnologiya ham, axborot texnologiyasini qo'llash ham, interfaol usullar ham quyidagilarga e'tiborni kuchaytirishi lozim: insoniylik, inson tabiatini hisobga olish va uni takomillashtirish, individual yondashish, tabaqalashtirilgan

ta'lim, demokratik yondashuv, psixologik-pedagogik yondashuv va h.k.

D.P. Bezpalko, A. Kushner, K. Rodjers, L.A. Komenskiy, I.G. Pestalotssi, Saidahmedov, J.G'. Yo'ldoshev, U.A. Yo'ldoshevlarning ilg'or pedagogik texnologiya innovatsiya, axborot texnologiyasining va unda inson omili, munosabat, qo'yilgan talablar, usul va uslublari, pedagogik tizimning natijasini ozgina bo'lsa ham samarali tomonga siljishiga qaratilgan bo'lib, hozirgi 50–60% ni (pedagogik tizimning maksimal natijasi) hech bo'lmaganda 5–10% ga o'stirishga olib kelishdan iboratdir.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyasi olib kirish zaruriyati 70–80-yillardan boshlanib (o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishi pasayib ketgach) dars metodlarini shakl va tiplarini o'zgartirish, yangilik kiritishdan boshlandi. Nostandart darslar (ular 40–50 dan oshiq) darslarga axborot texnologiyasini (komputer, filmskop, kadoskop va h.k.) olib kirish innovatsion o'quv yurtlari (gimnaziya, litsey, kollej va h.k.) oliy o'quv yurtlarining bakalavriyat va magistratura bo'linishi boshlanib, to'liq axborot texnologiyasiga o'tish (internet, multimedia, elektron pochta va h.k.) pedagogik texnologiya (interfaol usullar)ni joriy etish bilan davom etmoqda.

Har bir fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ilg'or pedagogik texnologiyani ham shu fanga moslashtirish kerakmi yoki fanni ilg'or pedagogik texnologiyaga moslashtirish lozimmi degan savol paydo bo'ldi. Ammo o'qituvchilar nostandart darslar bilan interfaol usullarni chalkashtirish natijasida ularda ikki xillik tushunchasi paydo bo'ldi va bu ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish muammosini keltirib chiqardi. Natijada muammoli kurslar, ilg'or pedagogik texnologiyaga oid seminar-trening, qisqa muddatli kurslar, seminarlar o'tkazilib nostandart darslar interfaol usullar haqida nazariy va amaliy bilimlar hosil qilindi, axborot texnologiyasidan foydalanish, axborot– ma'lumot to'plash, foydalanish o'rgatildi.

Natijada o'qituvchilar nostandart darslar:

1. Ish o'yin
2. Press konferensiya
3. Musobaqa
4. Quvnoqlar, zukkolar, topqirlar (KVN)
5. Teatrlashtirilgan darslar

6. Suhbat-maslahat darslar
 7. Komputer darslar
 8. O'zaro ta'lim
 9. Ijodkorlik darslari
 10. Kimoshdi savdosi
 11. Ijodiy hisobot
 12. Ko'rik-tanlov
 13. Binar darslar
 14. Sud darslari
 15. Konsert darslari
 16. Kasbga yo'llash darslari
 17. Hosil bayrami
 18. Rolli o'yinlar
 19. Seminar
 20. Konferensiya
 21. Fanlararo aloqa
 22. Mo'jizalar maydoni
 23. Ekologiya darslari
 24. Formulalar darslari
 25. To'siq (blol) darslar
 26. Sinov darslar
 27. Test darslar
 28. Haqiqatni izlash
- Interfaol usullar asosidagi darslar: •
1. Aqliy hujum
 2. Tayanch signallar
 3. Muzyorar
 4. Guruhlarga bo'lib ishlash
 5. Zigzag
 6. Kubik
 7. Kimsasiz orolda
 8. Donishmandlar bisoti
 9. IMEN
 10. Yozma bahslar
 11. Ajurli arra
 12. 6x6x6
 13. Rolli o'yinlar

14. Bahs-munozara
15. Dibatlar
16. Sarguzasht sayohat va h.k.larni o'rganib boradilar.

Bulardan tashqari ilg'or pedagogik va axborot texnologiya to'g'risida nazariy-amaliy bilim, ko'nikma va malaka hosil qilindi:

- ilg'or pedagogik texnologiya ta'rifi, tarixi;
- axborot texnologiyasi va undan foydalanish;
- texnologiya tuzilmasi;
- ilg'or pedagogik texnologiya va o'qituvchi o'quvchilarga tashkil etishga qo'yilgan talablar;
- interfaol usullar va ular asosida dars ishlanmalari va h.k.

Ilg'or pedagogik texnologiya, interaktiv usullar, dars ishlanmalari va unga qo'yilgan talablar haqida to'liqroq to'xtalmoqchimiz.

3.7. Interaktiv dars usullari

1. «Muzyorar». Ko'pchilik odam yangi sharoitda (kurs boshida, yangi sinfda va h.k.) o'zlarini yo'qotib qo'yadilar yoki noqulay his qiladilar, bir-birlarini tanimaydilar. Shunday sharoitda o'qituvchi (trener) do'stona muhitni yaratishi lozim. Unda taqdim etish (ismi, sharifi, turar va ish joyi, xobbisi) o'yini yoki intervyu (juftlar) bo'lib tanishishi va ulardan biri uni tanishtirish, tanishish (o'qituvchi o'z ismini aytadi, tinglovchilar davom ettiradi, sharti esa hammani ya'ni o'zidan oldingilarni aytib keyin o'zini aytadi).

2. «Axborot uzatish». Biror mavzu bo'yicha har bir o'quvchi o'z bilganini aytadi (bunda 1-o'quvchi boshlaydi, 2–3–4 davom etadi). M: «Sayr» mavzusida o'qituvchi «Men sayrga borish uchun suv olaman» desa, 1-o'quvchi «Men esa suv, non olib boraman», deydi, 2-o'quvchi esa «Men suv, non va tuz olib boraman», deydi va o'yin shu tariqa davom etadi. Keyin xulosa yasaladi.

3. «Aqliy hujum». O'z nomidan ma'lumki, o'quvchilar aqliga hujum qilinib, ulardan axborot to'planadi. M: «Dorivor o'simliklarning ishlatilishi» mavzusida har bir o'quvchi dorivor o'simliklar qayerda ishlatilishini yozadi (5 daqiqa). Keyin ikkovlashib yozadi (10 daqiqa) va oxirida ikki guruh yozganlarini jamlaydi va yozuv taxtasiga yozadi yoki sardor o'qib beradi. Qolganlar esa o'zlarida bo'lmagani yozib oladi. Bunda 1-o'quvchi 5 tagacha, 2 kishi 7–8, kichik guruh 10–12

tagacha, katta guruh 15–20 ta, jamoaniki esa 20–30 ta dorivor o‘simliklarning ishlatish sohasini ayta oladi.

4. «Tayanch signallar». Darsning tayanch signallar usuli ko‘p vaqtlardan beri ishlatilib kelinayotgan usul bo‘lib, bunda mavzu bo‘yicha tayanch signallar yozib qo‘yiladi, o‘quvchilar esa shulardan foydalanib savollarga javob topadi va mavzuni to‘liq o‘rganib oladi. Eng oddiy misol, formula va jadval sxemalar bo‘lib, ulardan foydalanib xohlagan savolga javob berish mumkin yoki o‘qituvchi tomonidan savolni topish uchun tayanch signallar tuzib chiqilishi mumkin. Tayanch signalidan foydalanib, $(2+3)^2 = ?$ ni yecha oladi yoki oldida bahor fasliga mos rasm bo‘lsa, bahor haqida hikoya tuzish oson bo‘ladi. Murakkabroq qilib oladigan bo‘lsak kimyo fanini o‘qitish valentlik mavzusi o‘tilayotganda odamlar-qo‘llar-salomlashish, elementlar-elektronlar-valentlik tushunchasini taqqoslab berish mumkin.

5. «Kichik guruhlarda ishlash». Bu usulda har bir o‘quvchi darsda faol ishtirokchi, boshlovchi, bir-biridan o‘rganuvchi, turli nuqtayi nazarlarini qadrlashni o‘rganadi. Qo‘llash usuli:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi, muammodan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi, o‘quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

3. Guruhlar belgilanadi.

4. Aniq ko‘rsatma beriladi.

5. Qo‘llab-quvvatlab yo‘naltirib turiladi.

6. Muhokama qilinadi.

6. «Munozara usuli». Bunda mavzu tanlanadi va aqliy hujum orqali guruhlar javob beradi. Kotib yozib boradi, fikr va g‘oyalar aytilib, ular guruhlanadi, tahlil etiladi va yagona xulosaga kelinadi.

7. «Qo‘llanmalar bilan ishlash» usulida darslik, qo‘llanmalar berilib, mavzu e‘lon qilinadi va o‘quvchilar ma‘lum vaqtda mavzuni mustaqil o‘rganib olishadi hamda javob berishadi. Bunda «Aqliy hujum» usulidagidek individual, dialog, kichik guruh, jamoa bo‘lib ishlashadi.

8. «Kubik». Har tomonlama fikrlash, tasavvur qilish, tafakkur qilish, ko‘rsatish, faollikni oshirishga qulay bo‘lganligi bilan ham ajralib turuvchi usul. Bu usuldan foydalanishni 2 xil usulda qo‘llash mumkin:

1-usul. Qog‘ozdan kubik yasab olti tomoniga savollar yozib qo‘yiladi, tashlangan kubik qaysi tomonga tushsa, o‘sha savolga javob beradi.

Bu usulni o'tkazishdan oldin barcha savollar vatman qog'ozga yozib qo'yiladi. Bir nechta kubik (2–3 ta) ishlatish ham mumkin.

2-usul. Qog'ozdan kubik yasab tomonlariga: Buni tasvirlang! Buni taqqoslang! Buni o'zaro bog'lang! Buni tahlil qiling! Buni qo'llang! Buning salbiy va ijobiy tomonlarini dalillar bilan isbotlang! Savollari yozib qo'yiladi. Mavzu e'lon qilinadi va har bir o'quvchi savollarga javob yozadi. M: «Inson hayotida yaxshi va yomon xulqlarning oqibatlarini» mavzusi insert matn oldindan tayyorlab qo'yiladi.

9. «Zigzag». O'z nomidan ma'lumki, bu usulda bilim qirralari har xil bo'lgan bolalar aralashgan sinf 2–3 guruhga bo'linadi va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, o'quvchilar javob yozganlaridan so'ng guruhlari bir-birlari bilan yozganlarini almashadilar va qo'shimcha yozadilar, so'ngra har bir guruh yozganlarini himoya etadi.

10. «Seminar» usuli keng tarqalgan usullardan bo'lib, mavzu oldindan beriladi va har bir o'quvchi mustaqil tayyorlanib keladi va o'z fikrini, o'z bilimini namoyish etadi, axborot almashiniladi. Mavzu manbalari bilan berilsa, usulning samarasi yaxshiroq bo'ladi.

11. «Masofali ta'lim» usuli interaktiv usullarning zamonaviy ko'rinishi bo'lib, jonli muloqot, yozuv yozilishi, matbuot, telekommunikatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bunga sirtqi olimpiada, sirtidan o'qish, eksternat va h.k.lar kiradi.

12. «Ko'chma bozor». Nomidan ma'lumki bilimlar sotiladigan joy bo'lib, xaridor va sotuvchidan iborat muloqot, ko'chma esa bir nechta davlatlar qatnashib o'z bilimlarini namoyish etadigan yarmarkadir. Oluvchilar ham, sotuvchilar ham aktiv (faom) bo'lmasalar bozorlari kasod bo'ladi.

13. «Internet» usuli kompyuterlarning lokal tarmog'i bo'lib butun dunyo bilan bog'lanib ham bo'ladi. Bunda o'quvchi interaktiv usullar, o'qish, o'rganish, o'z intellekt va intellektual darajasini oshirish uchun axborot manbayi bo'lib hisoblanadi. Bu usulda bilimdon o'quvchi internet rolini o'ynashi ham mumkin.

14 «Kompyuterlashtirilgan dars» usulida kompyuterda dasturlashtirilgan mavzuni o'rganadilar va o'z bilimlari oshibgina qolmay kompyuterda ishlash malakasi ham o'zlashtiriladi.

15. «Davra suhbatini». Bu usulda ma'lum biror mavzu bo'yicha suhbat uyushtiriladi. Bu usul «bahs-munozara» usuliga o'xshash bo'lib fikrlar, g'oyalar tanqid qilinmaydi, demokratiya usulda har bir o'quvchi

o'zi uchun xulosa chiqarib, o'zi bilmagan narsalarni o'rganib oladi.

16. «Boshqotirmalar» usuli. Bu usulda krossvord, chaynvord, rebus va hokazo boshqotirmalardan foydalaniladi. Yangi mavzuni o'tishda o'quvchilar bilimni sinashda bu usul qiziqarliligi, tafakkur va xotirani o'stirishi bilan ajralib turadi. Bu usulni qo'llashda o'qituvchidan ko'p mehnat, ijodkorlik talab etsada, samara yuqori bo'lishi bilan va qiziqarliligi bilan boshqa usullardan farq qiladi.

17. «Muammoli dars» usuli. IMEN (ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi). Savollar: «Fikrni yoki xulosani davom ettir!», «Sen nima deb o'ylaysan?». O'quvchilar orasida muammoli vaziyatni yaratish hamda shu holatdan chiqib ketish usullarini izlash. O'quvchilarni mantiqiy, ijodiy fikrlashga chorlash. Ixtiroli muammolarni yechish nazariyasi – IMEN hozirgi paytda juda ko'p qo'llanadigan bozor iqtisodi davrining yetakchi usullaridan biridir.

18. «Rolli o'yinlar». Rolli o'yinlar usuli darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Bizning tajribamizda kasb-hunarga yo'llash maqsadida o'quvchilarni uch guruhga bo'lib «Laborant», «Agronom», «Biolog olim» kasblari haqida bahs yuritdik, kasbni himoya qildik yoki boshqa fanlarda spektakl, sahna ko'rinishi shaklida olib borish mumkin.

19. «Allomalar yig'ini» biologiya darslarida biolog olimlar, qishloq xo'jaligi faollari, biologiya sohasining donishmandlarining fanga qo'shgan hissalarini bilib olish mumkin.

20. «Buyuk siymolar» har bir fanning ilmiy taraqqiyoti ilmu fanning mutaxassis olimlari (buyuk siymolari)ga bog'liq. Shu maqsadda bu usulni qo'llab fanga buyuk siymolarning qo'shgan hissasini bilib olish mumkin. Masalan: biolog olimlar, «O'zbekiston iftixorlari» haqida ma'lumot to'plash va ular siymosini darsda teatrlashtirilgan holda namoyish etish.

21. «Tabaqalashtirilgan dars usuli». Bu usul xalq ta'lim tizimining o'zagi bo'lib, qadimdan ishlatilib kelinadi va u quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Yoshiga ko'ra. 2. Jinsiga ko'ra.3. Qiziqishiga ko'ra.4. Qobiliyatiga ko'ra.5. Intellektiga ko'ra.6. O'zlashtirish darajasiga ko'ra va h.k.

Bu usulni Yu. K. Babanskiy pedagogik-psixologik, metodik nuqtayi nazardan to'liq ochib bergan.

22. «Blok (to'siq) dars» usuli. Bu usul A. P. Guzik (Odessa) to-

monidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunda har bir bob, bo'lim tarkibiy qismlarga ajratilib, ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, ijodiy ish, amaliy mashg'ulot, sayohat, kecha, konferensiya va boshqalarga ajratib o'tiladi. Bu usul o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, izlanishga, axborot to'plashga, ulardan foydalanishga undaydi, hayotda o'z o'rinlarini topishga katta yordam beradi.

23. «Xazinalar sandig'i». Biz kelajak avlodga «Xazinalar sandig'i»-ni qoldirmoqchimiz. Qani, kim qanday xazina (bilim, maslahat va h.k.) qoldirmoqchi? Xazinalar sandig'ini to'ldira oldikmi? va h.k.

24. «Kimsasiz orolda». Kimsasiz orolga tushib qoldik. Barcha fanlar bo'yicha bilimlar asosida yangi hayot, davlat, jamiyat qurmoqchimiz. Xo'sh, qani biologlar, ximiklar, fiziklar, maorifchilar, iqtisodchilar, siyosatchilarning rolini bilib olaylik va shu asosida davlat quraylik.

25. «Integratsiyalashgan dars» usuli. Bunday dars usuli fanlararo aloqani bilish, qo'llash maqsadida o'tkazilib o'quvchilarning umumiy bilimdonlik darajasi aniqlanadi, rivojlantiriladi, hayot bilan bog'lanadi, komil inson bo'lishga yetaklaydi.

26. «Hamkorlik» dars usuli. Bu usulda o'quvchilar bir-biriga o'rgatadi, o'rganadi, jamoa bo'lib ishlaydi. Bunda o'zaro diktant, yozma ish, test, suhbat, o'zaro muloqot tarzida bir-biriga o'rgatib, sinfning o'zlashtirish darajasi yuqori, samarali bo'lishiga erishibgina qolmay, ahil jamoa bo'lib shakllanadi.

27. «Yozma bahslar». Yozma bahs usuli mavzusi hozirgi kunning dolzarb muammolari yoki o'tilgan mavzular asosida olib borilishi mumkin. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linib o'z fikrlarini himoya qiladi.


Bunda o'qituvchi qarama-qarshi fikrlarning isboti va dalili bo'lishi kerakligini tushuntirib berishi lozim. Bu usul asosan dialog va kichik guruhlar bilan ishlashni qulaylashtiradi.

28. «Anjurli arra» (bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan ikki tomoni ochiq ma'nosini beradi). Bu usulda topshiriq bo'lib-bo'lib beriladi, ekspertlar tayyorlanadi. Ular ishtirokchi guruhlarni o'qitadi va mavzuni qanday muhokama qilishni tushuntirib beradi (chunki ular oldindan o'qitiladi). O'quvchilar hamkorlikda ishlashga, qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni bilish va o'zlashtirishga erishiladi.

29. 6x6x6 usuli. Bu usulda 36 ta o'quvchi 6 ta guruhga bo'linib

biror masalani muhokama qilish va guruh azolarining aksariyatining qarashlarini bilib oladi (6 daqiqa). Shundan so‘ng 6 ta guruh qaytadan 6 ta guruhga bo‘linadi, lekin bu guruhda oldingi guruhdan 1 kishi bo‘lishi shart. Bunda o‘quvchilar faol bo‘lib ham qatnashuvchi, ham ma‘ruzachi rolini bajaradi.

30. «Qarorlar shajarasi» usuli. Qarorlar shajarasi qiyin va turlicha vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni oqillashtiruvchi texnikadir. Sinfda foydalanilgan qarorlar shajarasi o‘quvchilar bilimlarini jamlash, tizimga solish va baholash imkonini beradi. Uni quyidagi tasvirda ko‘rishimiz mumkin.



31. «O‘zing uchun qulay joy tanla» usuli. Ushbu usul sinfda o‘tkaziladigan mavzular yuzasidan muammoli savollarni muhokama qilishda va ularning yechimini bahs-munozara orqali topishda yaqindan yordam beradigan usuldur.

Buning uchun bir-birini inkor etadigan, ammo mavzusi bir xil bo‘lgan osma plakatlar qo‘yilib, biriga «qarshi emasman», «roziman», ikkinchisiga esa «qarshiman», «noroziman» degan so‘zlar yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar o‘zi tanlagan plakat yoniga borib o‘tiradi va bahs-munozara boshlanadi. Masalan: Inson tanasida narkotik moddalar borligi yoki unga ehtiyoj borligini aniqlash uchun hamma inson qon analiz topshirishi shart, ikkinchisiga esa shart emas deb yozib qo‘yiladi.

3.8. Interfaol usullar asosidagi dars ishlanmalari

Matematika fanidan bir soatlik dars ishlanmasi

Fan: Algebra.

Sinf: 7.

Mavzu: Algebraik kasr. Kasrlarni qisqartirish.

Dars tipi: Yangi bilim va tushunchalarni hosil qilish.

• Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy: O'zaro hamkorlik, hurmat, faollik, ishchanlik, tartibli-lik va madaniyatlilikka o'rganish.

Ta'limiy: Algebraik kasr, kasrlar ustida asosiy amallarni bajarish va ularni qisqartirishni o'rganish, algebraik ifodalarni ko'paytuvchilarga ajratishning har xil yo'llarini egallash va ularni qo'llay olish to'g'risida bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish (DTS).

Rivojlantruvchi: Tafakkur, xotira, idrok mashqi, qiziqishni rivojlantirish, muloqot madaniyatiga o'rgatish.

Kasbga yo'llovchi: Tadbirkor, vositachi, hisobchi kasblarining ayrim qirralari bilan tanishtirish.

Mafkuraviy: Milliy qadriyatlar, san'at, ulug' mutafakkirlarning matematika rivojiga qo'shgan hissalaridan o'quvchilarni xabardor qilish, vatanparvarlik, milliy g'ururini toptirish, rivojlantirish.

Dars uslubi: Aralash.

Dars usuli: «Aqliy hujum», «Tayanch signallar», «Kimoshdi savdosi» usullari yig'indisi.

Dars didaktikasi: Darslik, tayanch signallar, savollar, test topshirig'i, yangi axborot texnologiyalari, interaktiv usullariga oid osma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish:

a) Tashkiliy qism.

b) O'quvchilar diqqatini tortish uchun savol-javoblar.

II. Darsning rejasi:

a) «Aqliy hujum» (savollarga javoblar).

b) Yangi mavzu bo'yicha «Aqliy xujum» (savollarga javoblar).

d) «Baxtingizni sinab ko'ring» o'yini.

e) «Kimoshdi» auksioni.

III. Darsning yakuni, uyga vazifa xayrlashish taqdirlash

Darsning bayoni

Tashkiliy qism: Bunda dars shiori sizlab gapirish, madaniyatli bo'lishga intilish.

Salomlashish, matematik shior, dunyo voqealari haqida so'zlab diqqat to'planadi.

Darsning borishi: Mavzu va reja e'lon qilinadi.

Savollar yozuv taxtasiga ilib qo'yiladi, «Aqliy hujum» boshlanadi. Javoblar 1 tangadan 5 tangagacha sotib olinadi. Yangi mavzu bo'yicha «Tayanch signallar» osib qo'yiladi.

– O'quvchilar yurtboshimiz I. Karimov aytganidek, «O'zbekiston kelajagi bilimli yoshlar qo'lida». Shunday ekan, har birimiz yurtimizda sodir bo'layotgan yangiliklardan boxabar bo'lishimiz kerak. Kuni kecha «Davr» informatsion dasturida xabar berishicha, Toshkent shahrida Yaponiya madaniyati kunlari nishonlamoqda. Bunda yarmarka tashkil etilib, ikkala mamlakatning boy ma'naviy merosini aks ettiruvchi milliy kiyimlar, milliy taomlar, hunarmandchilik buyumlari ko'rgazmasi tashkil etildi.

– Siz qo'shimcha qilmoqchimisiz?

– O'quvchilarning yangilikni bilishiga moslab darsni davom ettiraman.

– Demak, o'quvchilar, yarmarka degani nima?

– Yarmarka – bu ko'chma bozor hisoblanib, u biror-bir bayramlarda, tadbirlarda uyushtiriladi.

– Bu ko'chma bozorlarda sotuvchi va xaridorlar oldi-sotdi jarayonini amalga oshiradilar.

– Qadimda mamlakatimiz hududidan o'tgan «Buyuk Ipak yo'li» haqida nimalarni bilasiz?

– «Buyuk Ipak yo'li» orqali savdogarlar turli xil matolar, qimmatbaho buyumlar va zeb-ziynatlarni tuyalarga yuklab savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar.

– Bu ko'chma bozorlarda savdo-sotiqdan tashqari turli xil musobaqalar, bellashuvlar o'tkazilgan.

– O'quvchilar, bugun biz ham darsimizda ko'chma bozorni tashkil etamiz. Lekin biz noyob, antiqa mahsulot – o'z bilimimizni sotamiz. Bozorga kelgan har bir odam o'z mahsuloti uyga vazifa topshirig'i,

bilimi, chaqqonligini namoyon etishi kerak. Bu ko'chma bozorni tashkil etish uchun xazinachi tayinlab olamiz. Keling, ko'chma bozorning qonun-qoidalari bilan tanishaylik:

1. Og'zaki savol-javobiga 2 tanga.
2. Sinf taxtasida misol yechimiga 3 tanga.
3. Test topshirig'iga 5 tanga.
4. Qiziqarli savol-javobga 3 tanga.
5. Ijodiy ishlarga 5 tanga.
6. Tarqatmalar bilan ishlashga 3 tanga hadya etamiz.

Ana, ko'chma bozorimizning birinchi xaridori Internet tarmog'iga ulanmoqda. Ular germaniyalik Eva Braun.

– Gapirsam, gap sotdi demangiz,
Sotuvchi erursiz hammangiz.

Maqsadim sinamoq sizning bilimingiz,
Quvnoq, zukko bolalar, tayyor bo'lingiz.

Salom, mening aziz o'zbekistonlik bilimdonlarim. Sizning mam-lakatingiz haqida juda ko'p eshitganman. O'zbekistonlik yoshlar bi-linga chanqoq, zukko, jismonan baquvvat. Men o'zim universitetda dars beraman.

Bizning universitetda ham o'zbekistonlik talabalar bor. Men ular bilan faxrlanaman. Sizga quyidagi savollarimni yuboraman:

1. Birhad deb nimaga aytiladi?

– Son va harfiy ko'paytuvchilar ko'paytmasidan iborat algebraik ifoda birhad deyiladi. Masalan:

16 as, (-5) b

2. Birhadning koeffitsienti deb nimaga aytiladi?

– Standart shaklida yozilgan birhadning son ko'paytmasini shu birhadning koeffitsienti deyiladi.

– O, juda yaxshi, men javobingizdan qoniqdim. Sizlarga omad, o'qishlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman.

– Endigi xaridorimiz amerikalik talaba.

Men talabaman, hozirda Oksford universitetida ta'lim olmoqda-man. Sizlarga quyidagi savollarimni yuboraman:

1. Ko'phad deb nimaga aytiladi?

– Bir nechta birhadlarning algebraik yig'indisi ko'phad deyiladi.

Masalan: $2a^3 + 3ab + b^2$; $2a^4 - ab$

– Ko'phadni ko'paytuvchilarga ajratish deb nimaga aytiladi?

– Ko‘phadni 2 ta yoki bir nechta ko‘phadlar ko‘paytmasi shaklida ifodalash ko‘paytuvchilariga ajratish deyiladi.

– O‘zbekistonlik yoshlar meni hayratga solmoqda. Doimo shunday zukko bo‘ling va vatanimizga munosib farzand bo‘lib yetishishingizga tilakdoshman.

Shirinso‘z sotilmas bebaho,

Yaxshilik bor bo‘lsin doimo.

Bu yerda bo‘lolsa kim mamnun,

Eng oliy mukofot o‘shalar uchun.

– Endigi xaridorimiz Mandori xonim.

– Salom, jaji do‘stlarim. Sizning ko‘chma bozoringizda men ham ishtirok etmoqchiman. Sizga ushbu savollarimni yuboraman:

– Yig‘indi va ayirmaning kvadrati nimaga teng?

– Ikki son kvadratlarining ayirmasi nimaga teng? Misollar keltiring.

– Juda yaxshi, men O‘zbekiston bolalari bilan faxrlanaman (xayr).

Bugungi darsimizning maqsadi algebraik kasr, kasrlarni qisqartirish haqida ma‘lumot berish.

1-masala. Katerning turg‘un suvdagi tezligi soatiga A km ga teng. Daryo oqimining tezligi soatiga V kmga teng. Katerning oqimi bo‘yicha harakat tezligi uning daryo oqimiga qarshi harakat tezligidan necha marta ortiq?

Katerning daryo oqimi bo‘yicha tezligi $(A+V)$ kmga teng, oqimga qarshi tezligi soatiga $(A-V)$ kmga teng. Shuning uchun daryo oqimi bo‘yicha harakat tezligi oqimga qarshi harakat tezligidan $(A+V) / (A-V)$ marta ortiq bo‘ladi.

$(A+V)/(A-V)$ ifoda algebraik kasr deyiladi. Bu kasrning surati $(A+V)$, maxraji $(A-V)$. Umuman, surat va maxraji algebraik ifodalar bo‘lgan kasr algebraik kasr deyiladi.

(A/V) ; $2/(X-U)$; $(A-V)/S$; $X(V+S)/U(A-S)$

Algebraik kasrning son qiymati quyidagicha topiladi:

Masalan: $A=10$, $V=8$ bo‘lganda $(A+V)/(A-V)$ algebraik kasrning son qiymati $(10+8)/(10-8)=18/2=9$.

Bundan keyin algebraik kasrdagi harf o‘miga son qo‘yilganda, ya‘ni shu kasrning maxraji nolga teng bo‘lmagan qiymatlarigina qabul qila oladi.

Masalan: $A\sqrt{A(A-1)}$ kasr uchun $A=0$ va $A=1$ dan boshqa barcha qiymatlarni qo‘yish mumkin. Kasrning asosiy xossasini bunday yozish mumkin:

$$A/V = mR/mV$$

Bu yerda $V=0$, $m=1$ xossadan foydalanib algebraik surat va maxrajga bir vaqtda kiruvchi umumiy ko'paytuvchiga qisqartirish mumkin.

$$\text{Masalan: } a(b+s)/a(b-s) = (b+s)/(b-s);$$

$$(a+b)s/(a+b) = s/d;$$

Kasrlarni soddalashtirish uchun avval ularning surat va maxrajini umumiy ko'paytuvchisini ajratib olish kerakligiga doir misollar keltiramiz:

2-masala. Kasrlarni qisqartirish.

$$1) 12a^2b/4ab^2; 2) m^2 + n^2 / m^2 + mn$$

1) $12a^2b$ va $4ab^2$ birhadlar $4ab$ umumiy ko'paytuvchiga ega. Kasrning surat va maxrajini $4ab$ ga bo'lamiz:

$$12a^2b/4ab^2 \text{ q } 4ab^3a/4abb$$

2) $m^2 - n^2$ va $m^2 + mn$ ko'phadlar $m+n$ umumiy ko'paytuvchiga ega, chunki $m^2 - n^2 = (m+n)(m-n)$, $m^2 + mn = m(m+n)$.

Kasrning surati va maxrajini $m+n$ ga bo'lamiz:

$$\frac{m^2 - n^2}{m^2 + mn} = \frac{(m - n)(m + n)}{m(m + n)} = \frac{(m - n)}{m}$$

Agar a/b kasrning surat yoki maxrajidagi ishorani qarama-qarshi o'zgartirilsa, u holda berilgan kasrga qarama-qarshi kasr hosil bo'lishini ta'kidlab o'tamiz:

$$\begin{aligned} -\frac{a}{b} &= -\left(\frac{a}{b}\right) & \frac{a}{-b} &= -\left(\frac{a}{b}\right) \\ -\frac{3}{7} &= -\left(\frac{3}{7}\right) & \frac{-a}{1-a} &= -\left(\frac{a}{1-a}\right) = \frac{a}{a-1} \end{aligned}$$

Endi darsimizni qay tarzda davom ettirishni aniqlash uchun «Baxtingizni sinab ko'ring» o'yinini o'tkazamiz. Bunda «To'g'ri so'z tuzing» o'yini, «Sinf taxtasida misol yechish», «Maktublarga javob berish», «Komputerda test topshirig'i», «Tarqatmalar bilan ishlash» bo'limlaridan biri tushishi mumkin.

«To'g'ri so'z tuzing» o'yini

O'quvchilar o'ng va chap tomonga bo'linadilar. Ularga tarqatmalar tarqatadilar. O'quvchilar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, mos javobni

topadilar va tartib raqamiga osadilar. O'qituvchi barcha javoblarning orqa tomonini osib chiqadi va natijada «Matematika» so'zi hosil bo'lishi kerak.

Chap tomon.

1) Algebraik kasrning son qiymatini toping:

1. $8a/7b$, bunda $a = -2$, $b = -3$
2. $5/d+3$, bunda $d=1/3$
3. $9u^2/4x^2$, bunda $x=1$, $u=-5$
4. $(2a-3x)/a^2$, bunda $a = 0, 5$, $x=-0, 2$
5. $-7ab/(3b^2-a^3)$, bunda $a=3$, $b=-4$

O'ng tomon.

1. $1/a$, bunda $a = 2, 3/5$
2. $(b+1)/(b-1)$, bunda $b = 1, 5$
3. $(a^2+1)/2a$, bunda $a=-3$
4. $(a-b)/(a+2ab)$, bunda $a=16$, $b=-3$
5. $(5a-b^2)/(a^2-5b)$, bunda $a=2$, $b=8$

«Sinf taxtasida misol yechish» o'yini

569. $(xu)/(x+u)$

570. $(r-e)/(re)$

571. $(a^2-b^2)/(a-b)^2$

572. $(c^3-d^3)/(2sf)$

573. (og'zaki) algebraik kasrning son qiymatini toping:

1. $x/4$, bunda $x=2$, $x=-8$, $x=1/2$, $x=4$, 24
2. $a/5$, bunda $a = 25$, $a = -125$, $a = 12, 5$, $a=0$
3. $18/(s-5)$, bunda $s=8$, $s=-13$, $s=5, 3$

«Maktublarga javob berish» bo'limi

- Al-Xorazmiy asos solgan fan (Algebra).
- Isboti talab qilinmaydigan jumla (Aksioma).
- Bir nuqtadan chiquvchi 2 nur hosil qilgan figura (burchak).
- Eng kichik tub son (ikki).
- Birning ikkiga bo'linmasi (yarim).
- Vaqt o'lchov birligi (soat).
- Aylanani teng ikkiga bo'luvchi kesma (diametr).
- Konstitutsiya qabul qilingan sana (1992-yil 8-dekabr).

«Komputerda test topshirig'i»

1. Ko'paytuvchilarga ajrating: $5x^2-5u^2$

- a) $5(x+u)(x-u)$ b) $(x-u)(x-u)$, s) 5
 2. Ko'paytma ko'rinishida yozing: $u^3 - u^5$
 a) $u^3(1-u)$ b) $u^3(1-u)(1+u)$; s) u^3
 3. Ko'paytuvchilarga ajrating: $2m^2 - 4m + 2$
 a) $2m^2 - 2m$ b) $2(m-1)$ s) $2(m-1)^2$ va hokazo (10 ta test).

«Kimoshdi» auksioni

1–5 tanga «3» baho, 6–12 tanga «4» baho, 13–20 tanga «5» baho

Darsni yakunlash: O'quvchilar bilan algebraik kasrlarning hayotda qo'llanilishi to'g'risida suhbat o'tkazish.

Taqdirlash, uyga vazifa, xayrlashish.

6-sinf uchun fizikadan dars ishlanmasi

Fan: Fizika.

Sinf: 6.

Mavzu: Fizika nimani o'rganadi? Fizik hodisalar, fizika taraqqiyoti tarixidan ma'lumotlar.

Darsning maqsadlari: O'quvchilarda fizika fanining maqsad va vazifalari, fizik hodisalar, fizika taraqqiyoti tarixidan ma'lumotlar, jamiyat rivojlanishida fizikaning ahamiyati nimadan iboratligi haqida tasavvur hosil qilish, fizik hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lish va ularni tahlil qila olish, buyuk allomalarimiz va ularning fizika rivojiga qo'shgan hissalarini haqida tasavvurga ega bo'lish, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Dars tipi: Yangi tushuncha va bilim hosil qilish.

Dars uslubi: Suhbat, munozara, «Muzyorar».

Dars usuli: Og'zaki-amaliy, ko'rgazma.

Dars jihozi: Aristotel, Forobiy, Ibn Sino, Lomonosov rasmlari, Yer globusi, 6-sinf uchun bitta plakat.

Foydalanish uchun adabiyotlar: «6-sinfda fizika o'qitish» (Metodik tavsiyalar). Yusupov A. Toshkent, 2001-yil, «O'qituvchi» nashriyoti.

Darsning borishi:

1. **Tashkiliy qism.** Psixologik iqlim yaratish.

2. **Darsning rejasi:**

a) O'qituvchining kirish suhbatini. Fizika fani uchun ish daftari, amaliy ish va yozma ish uchun daftar ochish.

b) Muzyorar. O'quvchilar bilan tanishish. Guruhlarni tashkil etish.

d) Jadvalni to'ldirish: Jadval:

B (bilaman), BX (bilishni xohlayman), BO (bilib oldim).

3. Uyga vazifani tushuntirish.

4. G'olib guruhlarni aniqlash va ularni rag'batlantirish.

Darsning bayoni: «Guruhlarda ishlash».

Doskada yangi mavzuni yozib, o'quvchilarni darslikdagi savollarga javob yozishga undash. O'quvchilar daftarlariga «Bilaman» deb yozib yangi mavzu bo'yicha bilganlarini yozadilar. O'quvchilar juftlikda ishlab yozganlarini muhokama qiladilar. So'ng guruhda muhokama qilib guruhlaridan barchaning fikrini aytadigan o'quvchini tayyorlaydilar. Bu o'quvchining nomi Spiker bo'ladi.

Taqdimot o'tkazish. Har bir guruhdan bir o'quvchi guruh nomidan so'zlaydi. Bunda o'quvchilar orasida bir-birini tinglash va bir-birining so'zini takrorlamaslik qoidasi hukm suradi.

O'quvchilarni yangi mavzu bo'yicha nimalarni bilishni xohlagani haqida yozishga taklif etish. Buning uchun o'quvchi darslikda ko'rsatilganidek, «Bilishni xohlayman» deb yozadi va savollar yozishi mumkin. Yozib bo'lgandan so'ng guruh bilan o'rtoqlashadi.

Taqdimot o'tkaziladi. Har qaysi guruhdan bir kishi barchaning yozgan fikrini aytib beradi. O'quvchilarga «Buni yodda tuting» bo'limini o'qib bilib olganlarini daftariga yozishga taklif etiladi. O'quvchi daftariga «Bilib oldim» deb yozib o'qish davomida bilib olganlarini yozadi (10 minut vaqt beriladi).

Taqdimot o'tkazish. Har bir guruhdan Spiker guruh nomidan gapiradi. Bunda ham bir-birini tinglash va bir-birining aytganlarini takrorlamaslik hukm suradi. Bolalardan bu qoidaga qat'iy amal qilishni talab qilish lozim. O'qituvchining yangi mavzu bo'yicha qo'shimchalari. O'qituvchining ixtiyori bilan turli xil qiziqarli tajribalar o'tkazish.

«O'yla, izla, top» bo'limida ko'rsatilgan topshiriqlarni bajarishga undash va o'quvchilar javoblarini eshitish.

Quyidagi savollarga javob yozishga harakat qiling. Javoblaringizni quyidagicha yozing. Bilardim.

1. Fizika fani nimani o'rganadi deb yozasiz?
2. Fizika so'zi qaysi so'zdan kelib chiqqan?
3. Fizika faniga asos solgan insonlar.
4. Tabiat nima?
5. Fizik hodisalarga misollar keltiring.

Asosiy tushunchalar:

– Fizika soʻzi yunoncha «fyuzis» soʻzidan olingan boʻlib, tabiat maʼnosini bildiradi.

– Fizika soʻzini birinchi boʻlib Aristotel fanga kiritgan.

– Abu Nasr Forobiy fizika faniga taʼrif berib, uni fanlardan ajratdi va alohida fan sifatida shakllanishiga zamin yaratib berdi. Abu Nasr Forobiy (873–950) Sirdaryo boʻyidagi qadimiy Oʻrtor (Forob) shahrida Vasidi qalʼasida dunyoga keldi. Forobiy fanlarning hamma sohalarida oʻchmas iz qoldirgan, jahon xalqlari uni «ikkinchi muallim» deb ataydilar. Forobiya qadar fizika tabiiy fanlar bilan birga oʻrganib kelingan. Forobiy fizika faniga taʼrif berib uni boshqa fanlardan ajratdi. Uning ishini Abu Ali ibn Sino davom ettirdi.

– Abu Ali Husayn ibn Sino «Fizika» kitobi bilan fizika fanining shakllanishiga katta hissa qoʻshdi. Abu Ali ibn Sino 980-yil avgust oyining oxirlarida Buxoroga yaqin Afshona qishlogʻida amaldor oilasida dunyoga keldi. Ibn Sinoning asl ismi Husayn Yevropada Avitsenna deb ataladi. Uning «Fizika» deb nomlangan asari fizika fanini boshqa fanlardan ajratib, alohida fan sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ibn Sino hayotining koʻp qismini darbadarlikda oʻtkazdi. Ismoil Subhoniy «Buxoroning yetti yulduzi» sheʼrida Ibn Sino haqida shunday yozadi:

Hali qurilmagan koʻprigida yosh,

Hali oʻn sakkizi uni etmay tark

Buxorodan olib ketdi bosh,

Oh, darbadar boʻldi oʻsha kuni Sharq.

Ibn Sino 1037-yilda oʻz vatanidan uzoqda – Hamadon shahrida vafot etgan.

– Mixail Vasilevich Lomonosov fizika soʻzini nemis tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Lomonosov Mixail Vasilevich (1711–1765) rus akademigi. Modda massasining saqlanish qonunini eksperimental aniqladi. Rus tilida birinchi boʻlib kitob yozgan. Lomonosov shamol tezligini aniqlaydigan asbob ixtiro qilgan. Venerada atmosfera borligini aytgan, Lomonosov 1754-yilda termometr va boshqa asboblarni katta balandliklarda koʻtarish mumkin boʻlgan «Aerodinamik mashina»ni oʻylab topdi va yaratdi. Vertikal havo vinti boʻlgan bu mashina dunyoda birinchi vertolyot edi.

– Rahmatov Muxtor Neʼmatovich birinchi boʻlib M.D. Lomono-

sov fizikasini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan buxorolik fizik olimdir. Rahmatov Muxtor Ne‘matovich – 1912-yil 4 aprel kuni Buxoro shahrining Bozorgul (hozirgi Halim Ashurov ko‘chasi) guzarida tug‘ildi. Otasi o‘z davrining ilm sohibi, madrasa mudiri bo‘lgan. Yosh Muxtor 1924-yili Turon nomli boshlang‘ich maktabda tahsil olib, Ko‘kaldosh madrasasida ochilgan birinchi yetti yillik maktabni tugatadi. 1927-yilda Buxoro pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Yashash qiyin bo‘lgan sharoitlarda u pedagogika institutini sirdan tugatadi.

– Fizika fanining maqsadi tabiat qonunlarini ochish, uni o‘rga-nish va undan inson ehtiyojlari uchun foydalanishdir.

Buni yodda tuting (darslikning 4–5-betlaridagi matnni o‘qing va yodda tuting) deb topshiriq beriladi.

<p>Test. Fizik hodisalar qaysinisida to‘g‘ri ko‘rsatilgan: 1. Tovush, qaynash, ho‘llash, yorug‘lik, kamalak. 2. Vaqt, masofa, real va ideal gaz. 3. Troektoriya, soat, termometr, menzurka. to‘g‘ri javob–1</p>	<p>Boshqotirma 1. Aristotelning «Metofizika» kitobiga sharh yozgan vatandoshimiz 2. Vaqtning birliklaridan biri. 3. Vatandosh fiziklarimizdan birining nomi. 4. Fizika so‘zini fanga kiritgan olim. 5. Eng kichik sayyora. 6. Vaqtni o‘lchovchi asbob.</p>
--	---

«O‘yla, izla, top» o‘yini

Topishmoq

Yog‘i yo‘q, yorug‘i bor,

Isi yo‘q, issig‘i bor

(lampochka)

Uyga vazifa:

1. Referat yozing. Mavzu: «O‘zbekistonda fizika fani taraqqiyoti».

2. Kuzating va savollarga javob yozib keling:

– choynakka suv solib uni biror yo‘l bilan qaynating. Bug‘lari choynak jo‘mragidan necha santimetr yuqorida paydo bo‘ladi? (1, 5–2 sm)

Biologiya fanidan bir soatlik dars ishlanmasi

Fan: Biologiya.

Sinf: 11-sinf.

Mavzu: Irsiyat va o'zgaruvchanlikning moddiy asoslari.

Dars tipi: Yangi bilim va tushunchalar hosil qilish.

Dars maqsadlari:

a) tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish.

b) ta'limiy maqsad: O'quvchilarga irsiyat va o'zgaruvchanlikning moddiy asoslariga doir bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda shaxsiy psixologik xususiyatlarni shakllantirish

e) kasbga yo'llovchi maqsad: Shu mavzu orqali o'quvchilarni biolog, laborant, tadqiqotchi, seleksioner kasblariga yo'llash.

Darsning uslubi: Yozma, og'zaki.

Darsning usuli: «Aqliy hujum», ish o'yin.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish

2. Darsning rejasi:

a) Savol-javob

b) Aqliy xujum

d) Ish o'yin

e) Xulosa

3. Darsning yakuni, uyga vazifa, taqdirlash, xayrlashish.

Darsning bayoni:

Molekulyar genetika va biotexnologiya sohasida ish olib borayotgan olimlarimiz to'g'risida ilmiy-tadqiqot institutlarida olib borilayotgan ishlar to'g'risida tushuncha berish orqali milliy istiqloq g'oyasini singdirish.

O'qituvchi so'zi: Irodalarning uyida 1 litrcha sut bor, lekin biroz eski, unga onasi shu sutni isrof qilmasdan, biron narsa tayyorladi, u sog'liq uchun foydali bo'lsin, deb qiziga topshiriq berdi. Aytinglarchi, Iroda sutdan nima tayyorladi?

O'quvchilar javobi: Pechenye, shirguruch, qatiq deb birma-bir fikr bildirishadi.

O'qituvchi: Ha, o'quvchilar, to'g'ri topdingiz. Iroda sutdan qatiq tayyorlagan edi. Insoniyat qadimdan ongsiz ravishda sutdan qatiq, bug'doydan bo'za va xamirturush, meva sharbatlaridan sharob tay-

yorlashni bilganlar, lekin bu mahsulotlar tirik organizm, ya'ni mikroblar va bakteriyalar ishtirokida hosil bo'lishini bilmaganlar.

Keling, bugun biz «Irsiyat va o'zgaruvchanlikning moddiy asoslari» mavzusi orqali ana shunday mikroorganizmlardan ilmiy asosda ma'lum maqsadlarda foydalanish, ularning maqsadga muvofiqlarini tanlash va ko'paytirish texnologiyalari bilan tanishib chiqamiz, deb o'qituvchi yangi mavzuni doskaga yozadi.

O'qituvchi so'zi:

Molekulyar genetika, mikrobiologiya, biokimyo fanlarining rivojlanishi biotexnologiya fanini vujudga keltirdi. Tirik mavjudotlarda kechayotgan hayotiy jarayonlar to'g'risidagi bilimlardan foydalanib, tirik mavjudotlar yoki ularning hujayralari ishtirokida sanoat miqyosida mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologiyalar majmuasi biotexnologiya deb ataladi. Siz maktabni tugatib har xil kasb egalari bo'lasiz, ehtimol biotexnologiya sohasida ish olib borarsiz, shu sohada laborant, tadqiqotchi, seleksioner, biolog bo'lishingiz mumkin. Bizning respublikamizda ham shu sohada bir qancha olimlar tadqiqotchilar, mikrobiologlar S. Bo'riev, G. Mustkimov kabi yetuk olimlar ish olib bormoqdalar. O'zbekistonda mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatayapti. Fransuz olimi Lui Paster pasterizatsiya usulini yaratgandan so'ng biotexnologiyada mikroorganizmlardan ongli ravishda foydalanishga asos solindi. Hozirgi paytda bakteriyalar klonlari va shtammlarini olish, ulardan maqsadga muvofiq xillarini tanlab ko'paytirish, foydalanish, ular irsiyati va genidagi nukleotidlarni o'zgartirishi texnologiyalari yaratildi.

Ularda kechadigan transformatsiya, transduksiya jarayonlari o'rganildi. Bu mavzuni o'rganish jarayonida siz biotexnologiya fani, bu fan rivojiga Lui Pasterning qo'shgan hissa, bakteriyalar klonlari va shtammlarini olish usullari, bakteriya klonlarini maqsadga muvofiqlarini ko'paytirish, ularda ham irsiyat mavjud ekanligini, ularda uchraydigan mutatsiyalar, transformatsiyalar hodisasi, transformatsiya hodisasi ga doir Griffit tajribalari, transduksiya jarayoni, faglarning litik reaksiyasi, lizogen bakteriyalar to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'lasiz.

Demak, irsiyat o'zgaruvchanlikning moddiy asoslari genlar va xromosomalar ekanligini bilib olasiz. Hozir sizning vazifangiz, bu yerda berilgan ranglarga asosan 3 ta guruhga bo'linasiz. Qizil rangni sevuvchilar alohida, yashil rangni sevuvchilar alohida, oq rangni

sevuvchilar alohida bo'lib 3 ta guruhga bo'linishadi. Partalar P shaklida joylashtirilib, har bir guruh joylashishadi.

O'qituvchi rangli kartochkalar orqasiga bir qancha savollar yozib kelgan bo'lib, ularni 3 ta guruhga tarqatadi.

Kartochkalarda quyidagi savollar beriladi:

I. Qizil rangni sevuvchilar guruhi. Bu o'quvchilarga mavzuning birinchi kichik mavzusidagi savollar berilgan.

1. Bakteriyalar kloni nima?
2. Klonlar qanday olinadi?
3. Bakteriyalar, shtammlar nima, ular qanday olinadi?
4. Lui Pasterning bu sohadagi ishlari to'g'risida tushuncha bering.
5. Bakteriyalar va zambunug'lar irsiyatidagi mutatsiyalar to'g'risida gapirib bering.
6. Yo'naltirilgan mutatsiyalar nima?

II. Yashil rangni sevuvchilar guruhi. Bu guruhga mavzuning ikkinchi mavzuchasidagi savollar berilgan.

1. Transformatsiya hodisasining mohiyatini tushuntiring.
2. Transformatsiyaga doir Griffit tajribasini tushuntirib bering.

III. Oq rangni sevuvchilar guruhiga uchinchi kichik mavzuchasidagi savollar berilgan.

1. Transduksiya nima? Uni kim kashf etgan?
2. Faglarning litik reaksiyasini tushuntiring?
3. Lizogen bakteriya va lizogen reaksiya deb nimaga aytiladi?
4. 104-rasmni izohlang.
5. 105-rasmni izohlang.

O'quvchilar guruhlarda ishlab, berilgan savollarga darsliklardan javob topadilar, ularni mustaqil o'rganadilar, qo'shimcha savollarga javob berish uchun tayyorgarlik ko'radilar.

Boshqa guruhlarga qo'shimcha savollar berish uchun izlanadilar, shunday qilib, ular mustaqil ishlashlari uchun vaqt belgilanadi.

O'quvchilar guruhlarda ishlayotgan vaqtda o'qituvchi hamma ishlayotganligini kuzatib boradi.

Demak, har bir guruh bittadan kichik mavzucha ustida ishlar ekan, boshqa guruhlarga savol berishi uchun qolgan mavzuchalar bilan ham tanishib boradi. Har bir guruh navbat bilan chiqib, o'z savollariga javob beradilar, qo'shimcha savollarga ham javob berishadi. Dars mazmuni shu tariqa yoritilgach, mavzu muhokama qilinadi, zarur bo'lsa, o'qituvchi qo'shimchalar kiritadi.

O'quvchilar baholanadi, g'olib guruhlarini taqdirlaydi, uyga vazifa beriladi.

Dars tugagach, o'qituvchi doskaga quyidagi sxemani osadi. Bu sxema bugungi mashg'ulot mazmunini baholab beradi.

O'quvchilar birma-bir chiqishib, 4 ga bo'lingan doiralar ichiga o'z baholarini nuqta qo'yib belgilashadi.

O'quvchilar baholanib bo'lishgach, o'qituvchi bugun olib borgan mashg'ulotni shu sxemaga qarab xulosalaydi.

Sinfni guruhlarga ajratishda ranglarga, geometrik figuralarga, yaxshi ko'rgan taomlariga qarab guruhlarga, psixologiyasi, qiziqishi, mijozlari bir xil bo'lgan o'quvchilar bitta guruhga birlashadi, ularning guruhlarda hamkorligi ta'minlanadi.

O'qituvchi o'z qobiliyati va ijodkorligidan kelib chiqib interfaol darslarini har xil usullarda tashkil etishi mumkin.

Genetika kursidan bir soatlik interfaol dars ishlanmasi

I. Fan: Biologiya.

II. Sinf: 9.

III. Dars mavzusi: Umumlashtirish darsi.

IV. Dars tipi: Olingan bilim, tushuncha va ko'nikma asosida malaka hosil qilish.

V. Dars maqsadi:

Tarbiyaviy: Mavzu orqali o'quvchilarni yetuk, mustaqil, komil insonlar tarzida tarbiyalash.

Ta'limiy: Genlarning o'zaro va ko'p tomonlama ta'sir etishi to'g'risida o'quvchilarda ilmiy tushunchalar hosil qilish. Olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda shaxsiy psixologik xususiyatlar: xotira, tafakkur, idrokni shakllantirish.

Kasbga yo'llovchi: Shu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilarni biologiya o'qituvchisi, seleksioner, shifokor, laborant, qishloq xo'jaligi mutaxassisi kasblariga yo'llash.

Mafkuraviy maqsad: Shu mavzu orqali mamlakatimiz fani istiqbollari to'g'risida tushuncha hosil qilish, vatanni sevish, o'z yurtidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish.

VI. Dars uslubi: Yozma, og'zaki, aralash.

VII. Dars usuli: «Mustaqil ishlash», «Aqliy hujum», «Musobaqa».

VIII. Dars didaktikasi: Darslik, tarqatma materiallar, jadvallar, rag'batlantirish kartochkalari.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish.

2. Darsning rejasi:

- a) Guruhlarga ajratish.
 - b) O'qituvchining kirish so'zi.
 - d) Mustaqil ishlar.
 - e) Xulosa, umumlashtirish, yakunlash, baholash.
- 3. Dars yakuni.** Uyga vazifa berish.

Dars bayoni

Sinf o'quvchilarini ranjitmaslik va ularni estetik did nuqtayi nazaridan, kelishmovchiliklarsiz guruhlarga bo'lish maqsadida, sinf o'quvchilari sonini hisobga olgan holda, oldindan kesma shakli kesib tayyorlab qo'yiladi. Kesim shakli uchburchak, dumaloq, to'rtburchak, beshburchak bo'ladi. Bunda har bir o'quvchi ixtiyoriy ravishda o'zi xohlagan rangdagi kesma shaklini tanlab oladi. Kesma shakllar rangli bo'lib, shu ranglar orqali o'quvchilar guruhlarga ajratiladi. O'quvchilarni guruhlarga bunday ajratish psixologik jihatdan xarakter xususiyatlari o'xshash bo'lgan o'quvchilarni bitta guruhda kelishmovchiliklarsiz hamkorlikda ishlashiga yordam beradi.

- 1-guruh – qizil, dumaloq shakl.
- 2-guruh – sariq, uchburchak shakl.
- 3-guruh – oq, to'rtburchak shakl.
- 4-guruh – yashil, beshburchak shakl.

O'qituvchi o'quvchilarni ana shunday guruhlarga bo'lib, stollarga joylashtirib olgach, mavzu bo'yicha qisqa hamda mazmunli yo'llanma, ko'rsatma beradi.

O'qituvchi so'zi: O'quvchilar biz o'tgan darslarda Mendel qonunlari, genlarning o'zaro ta'sir etish xillari bilan tanishgan edik. Mendel qonunlaridan farq qilib, genlarning o'zaro ta'sirida organizmlardagi aksariyat belgilarning irsiylanishi bitta genga emas, balki bir necha allel bo'lmagan genlar faoliyatiga bog'liq ekanini bilib oldik.

Genlarning o'zaro ta'sir etib irsiylanishini quyidagi xillarga bo'lamiz:

1. Genlarning komplementar ta'siri.
2. Genlarning epistaz ta'siri.
3. Genlarning polimer ta'siri.
4. Genlarning ko'p tomonlama ta'siri.

T/r	Genlarning o‘zaro ta’sir etib irsiylanish xillari	Mohiyati
1.		
2.		
3.		

O‘quvchilar birinchi topshiriqni quyidagicha bajarishlari kerak.

T/r	Genlarning o‘zaro ta’sir etib irsiylanish xillari	Mohiyati
1.	Genlarning komplimentar ta’siri	Komplimentar to‘ldiruvchi degan ma’noni bildiradi. Bir belgining vujudga kelishida AA genlar ta’sirini VV genlar to‘ldirib, yangi ota-onada uchramagan belgilarni vujudga keltiradi
2.	Genlarning epistaz ta’siri	Genlarning epistaz ta’sirida bir allel gen (A-a)ning allel bo‘lmagan ikkinchi gen (V-d)ga nisbatan dominantlik qilish hodisasidir
3.	Genlarning polimer ta’siri	Genlarning polimer ta’sirida bir belgining rivojlanishida ikki va undan ortiq genlar ishtirok etadi. Bunda yangi belgilar paydo bo‘lmaydi. Belgilarning paydo bo‘lishida genlar ta’siri bir xildir
4.	Genlarning pleytrop ta’siri	Ayrim genlar borki, bir paytda bir necha belgilarning rivojlanishiga ta’sir etadi

1-topshiriq. Hozir siz darsliklarning 137–145-betlarini o‘qib chiqing va quyidagilarni aniqlang, jadvalni to‘ldiring:

Genlarning komplimentar ta’siri	Genlarning epistaz ta’siri	Genlarning polimer ta’siri	Genlarning pleytron ta’siri

2-topshiriq. Genlarning o‘zaro ta’sir etib irsiylanish xillariga darslikdan foydalanib bittadan misol keltiring.

O‘quvchilar darslikdan foydalanib, bu jadvallarni to‘ldirishadi va natijalarni tahlil qilishadi. Har bir guruh boshliqlari chiqib, bittadan genlar ta’siri xillarini izohlab, 2-jadvaldagi misollarni tushuntirib

berishadi hamda keltirilgan misollarning natijasini genotipik va fenotipik jihatdan tahlil qilishadi. O'qituvchi har bir guruh bergan javobni baholab boradi. O'quvchilar olgan bilimlari aniqlangach, olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida quyidagi test savollari tarqatiladi va 4 minut davomida bu testlar bajarilishi topshiriladi.

3-topshiriq.

1. Genlarning o'zaro ta'sir etish xillari.

1. Komplementlar

2. Epistaz

3. Pleytropiya

4. Genlarning birikkan holda irsiylanishi

5. Polimeriya

A. 1, 2, 3. B. 2, 3, 5. D. 1, 2, 5. E. 2, 3, 4. F. 1, 3, 5.

2. Genlarning komplimentar ta'siri nima?

A. Bir allel genning ikkinchi noallel genga nisbatan dominantlik qilishi

B. Bir belgining rivojlanishida ikki yoki ko'proq genlarning bir xil ta'sir etishi

D. Bir genning bir necha belgining rivojlanishiga ko'rsatilgan ta'siri

E. Ikkita yoki ko'proq noallel genlar ta'sirida yangi belgining rivojlanishi

F. Allel genlarning birining ikkinchisi ustidan dominantlik qilishi

3. Genlarning o'zaro epistaz ta'siri.

A. Bir allel genning ikkinchi noallel genga nisbatan dominantlik qilishi

B. Bir belgining rivojlanishida ikki yoki ko'proq genlarning bir xil ta'sir etishi

D. Bir genning bir necha belgining rivojlanishiga ko'rsatilgan ta'siri

E. Ikkita yoki ko'proq noallel genlar ta'sirida yangi belgining rivojlanishi

F. Allel genlarning birining ikkinchisi ustidan dominantlik qilishi

4. Genlarning polimer ta'siri.

A. Bir allel genning ikkinchi noallel genga nisbatan dominantlik qilishi

B. Bir belgining rivojlanishida ikki yoki ko'proq genlarning bir xil ta'sir etishi

D. Bir genning bir necha belgining rivojlanishiga ko'rsatilgan ta'siri

E. Ikkita yoki ko'proq noallel genlar ta'sirida yangi belgining rivojlanishi

F. Allel genlarning birining ikkinchisi ustidan dominantlik qilishi

5. Genlarning ko'p tomonlama ta'siri.

A. Bir allel genning ikkinchi noallel genga nisbatan dominantlik qilishi

B. Bir belgining rivojlanishida ikki yoki ko'proq genlarning bir xil ta'sir etishi

D. Bir genning bir necha belgining rivojlanishiga ko'rsatilgan ta'siri

B. Ikkita yoki ko'proq noallel genlar ta'sirida yangi belgining rivojlanishi

F. Allel genlarning birining ikkinchisi ustidan dominantlik qilishi

6. Genlarning o'zaro ta'siri komplimentar xilida ikki noallel gen bo'yicha geterozigota organizmlar chatishtirishdan hosil bo'lgan duragaylar ikkinchi avlodida xilma-xillik.

A. 9.6. 1, 9.3.3. 1 B.9.6. 1, 12.3. 1 D. 12.3. 1, 13. 3

E. 15. 1, 1.4.6.4. 1 F. 13. 3, 9.3.3. 1

7. Genlarning o'zaro ta'siri komplimentar xilida ikki gen bo'yicha geterozigotali organizm chatishtirishdan hosil bo'lgan duragaylar avlodida xilma-xillik.

A.9.6. 1, 9.3.3. 1 B. 9. 6. 1, 12.3. 1 D. 12.3. 1, 13. 3

E. 15. 1, 1.4.6.4. 1 F. 13. 3, 9.3.3. 1

8. Genlarning o'zaro ta'sirining polimer xilida ikki noallel gen bo'yicha geterozigotali organizm chatishtirishdan bo'lgan avlodida xilma-xillik.

A.9.6. 1, 9.3.3.1 B.9.6. 1, 12.3. 1 D. 12.3. 1, 13.3

E. 15. 1, 1.4.6.4.1 F. 13. 3, 9.3.3. 1

S	1	2	3	4	5	6	7	8
J	D	E	A	B	D	B	D	E

Guruhlarda testlar javoblari topilgach har bir guruh javoblari o'qituvchi tomonidan tekshirilguniga qadar o'qituvchi o'quvchilarga genlar bilan belgilar o'rtasidagi munosabatni topishni topshiradi.

I munosabat	Belgi A gen
II munosabat	1-belgi 2-belgi / / / A B genlar S D E genlar
III munosabat	1 2 \ / A gen

O'quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajarishlari kerak:

I munosabat	Belgi A gen	Mendel qonunlari
II munosabat	1-belgi 2-belgi / / / A B genlar S D E genlar	Komplimentar Epistaz Polimer
III munosabat	1 2 \ / A gen	Preytoropiya

O'quvchilar bu munosabatlarni topgunga qadar, o'qituvchi o'quvchilar testlarini tekshirib, barcha ballarini aniqlaydi.

4 ta topshiriq bo'yicha guruhlar ishlari baholanadi. G'olib guruh aniqlanadi, faol qatnashgan o'quvchilar taqdirlanadilar, baholanadilar, darsga yakun yasalib, uyga topshiriq beriladi.

O'quvchilar bilan interfaol usullarda darslarni tashkil etish ularda mustaqil fikrlash, o'ziga ishonch, ijodiy ishlashga qiziqish kabi xususiyatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Ikkinchi topshiriqni o'quvchilar quyidagicha bajarishlari kerak:

1-jadval

Genlarning komplementar ta'siri				
Sharsimon AA va sharsimon BB oshqovoqlar chatishtirildi. F ₁ duragaylar olindi, lekin ota-onaga o'xshagan yangi belgilar paydo bo'ldi.				
$P \frac{\text{fen} \dots \text{shar}}{\text{gen} \dots AAbb} \times \frac{\text{shar}}{aaBB}$				
tam Av aV				
$F_1 \frac{\text{fen} \dots \text{gard}}{\text{gen} \dots AaBa} \times \frac{\text{gard}}{AaBa}$				
F ₁ ni o'ziga o'xshash organizm bilan chatishtirib F ₂ ni hosil qilamiz. F ₂				
	AB	Ab	aB	Ab
AB	Gard AABB	Gard AABB	Gard AaBB	Gard AaBb
Ab	Gard AABa	Shar AAbb	Gard AaBb	Shar Aabb
aB	Gard AaBB	Gard AaBa	Shar aaBB	Shar AaBb
ab	Gard AaBa	Shar Aabb	Shar aaBb	Uzunchoq Aabb
Finotipik tahlil qilamiz 9/16 gard. 6/16-shar 1/16 uzunchoq mevali oshqovoqlar hosil bo'ldi. Bunda ikkita (A-B) genlar bitta belgini vujudga keltiradi.				

Genlarning epistaz ta'siri				
Fenotipik jihatidan o'xshash genotiplari bilan farq qiluvchi oq patli tovuqlar chatishtirildi. F ₁ duragaylarda oq tovuqlar, F ₂ duragaylarda oq-qora tovuqlar olindi.				
Yechish:				
$p \frac{fen}{gen} \frac{oq}{SSI} \times \frac{oq}{ssii}$				
Tam SY si				
$F_1 \frac{fen}{gen} \frac{oq}{Seli} \times \frac{oq}{Seli}$				
F ₂				
	SY	Si	sY	si
SY	Oq SSYY	Oq SSYi	Oq SsYY	Oq SsYi
Si	Oq SSYi	Qora SSii	Oq SsYi	Qora Ssii
sY	Oq SsYi	Oq SsYi	Oq ssYY	Oq ssYi
si	Oq SsYi	Qora Ssii	Oq ssYi	Oq ssii
Fenotipik tahlil 13/16-oq, 3/16-qora bu yerda katta Y=Y genlar S=s genlar faoliyatini boshqaradi.				

Genlarning polimer ta'siri				
<p>Genlarning polimer ta'sirida bir belgining rivojlanishida 2 va undan ortiq genlar ishtirok etadi. Komplementlar va epistazdan farqi yangi belgilar paydo bo'lmaydi, har bir genning ta'sir kuchi bir xil bo'ladi. Qizil donli bug'doy $A_1 A_1 A_2 A_2$ oq donli bug'doy $a_1 a_1 a_2 a_2$ bilan chatishtirildi. F_1 duragaylarda pushti rangli bug'doylar olindi. F_1 da esa bu belgilar quyidagicha irsiylanadi:</p> $P \frac{\text{fen}}{\text{gen}} \frac{\text{qizil}}{A_1 A_1 A_2 A_2} \times \frac{\text{oq}}{a_1 a_1 a_2 a_2}$ $F_1 \frac{\text{fen}}{\text{gen}} \frac{\text{pushti}}{A_1 a_1 A_2 a_2} \times \frac{\text{pushti}}{A_1 a_1 A_2 a_2}$ <p style="text-align: center;">Tam F_2</p>				
	$A_1 A_2$	$A_1 a_2$	$a_1 A_2$	$a_1 a_2$
$A_1 A_2$	Qizil $A_1 A_1 A_2 A_2$	Ochqizil $A_1 A_2 A_2 a_2$	Ochqizil $A_1 A_1 a_2 A_2$	Pushti $A_1 a_1 A_2 a_2$
$A_1 a_2$	Ochqizil $A_1 a_1 A_2 A_2$	Pushti $A_1 A_1 a_2 a_2$	Pushti $A_1 a_1 a_2 a_2$	Ochpushti $A_1 a_1 a_2 a_2$
$a_1 A_2$	Ochqizil $A_1 a_1 A_2 A_2$	Pushti $A_1 a_1 A_2 a_2$	Pushti $a_1 a_1 A_2 A_2$	Ochpushti $a_1 a_1 A_2 a_2$
$a_1 a_2$	Pushti $A_1 a_1 A_2 a_2$	Ochpushti $A_1 a_1 a_2 a_2$	Ochpushti $a_1 a_1 A_2 a_2$	Oq $a_1 a_1 a_2 a_2$
<p>Fenotipik tahlil qilamiz: Qizil Ita, Ochqizil 4ta, Ochpushti 4ta, Pushti 6ta, Oq Ita</p>				

Genlarning pleytron ta'siri

Sichqonlarda A-a sariq rangli a-a qora rangni hosil qiladi. Getirozgota formadagi sariq sichqonlar o'zaro chatishtirildi. F_1 da xilma-xillik 3:1 nisbatda emas 2:1 nisbatda hosil bo'ldi. Sichqonlarda AA gomozegotali genlar dominant holatida 2ta belgi rivojlanishga ta'sir etadi, ya'ni sichqonlarga sariq rang berish va organizmni nobud bo'lishi. Shuning uchun nobud AA genga ega bo'lgan sichqonlar embrional rivojlanish davrida nobud bo'ladi.

r	$\frac{fen}{gen}$	$\frac{sariq}{Aa}$	x	$\frac{sariq}{Aa}$		
r	$\frac{fen}{gen}$	$\frac{sariq}{Aa}$	x	$\frac{sariq}{Aa}$	$\frac{sariq}{Aa}$	$\frac{qora}{aa}$
F_1	$\frac{fen}{gen}$	$\frac{sariq}{Aa}$	x	$\frac{sariq}{Aa}$		

Bu yerda AA gen 2ta belgining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayapti pleytron irsiylanishning ma'nosi ham ana shunda.

Kimyo fanidan bir soatlik dars ishlanmasi

Fan: Kimyo.

Sinf: 7.

Mavzu: Valentlik.

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy. O'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash va o'zaro hurmat, madaniyatlilik, insoniylik kabi xislatlarni shakllantirish.

Ta'limiy. Mavzu asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish.

Rivojlantiruvchi. Tafakkur, iroda, idrok va hissiyotni jilovlashni o'rgatish.

Kasbga yo'lovchi. Ximik, ximik-texnolog, laborant va muhandis kasblari bilan tanishtirish.

Mafkuraviy. Diniy bag'rikenglik, insonparvarlik, komil inson bo'lishga o'rgatish

Darsning uslubi. Og'zaki, yozma, amaliy ish.

Darsning usuli. «Tayanch signallar» asosida amaliy ish.

Darsning tipi. Yangi tushuncha hosil qilish va uni tahlil qilish.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism, psixologik iqlim yaratish.

2. Darsning rejasi. Soʻz boshi.

Tasavvur qiling, Siz «Oʻzbekiston havo yoʻllari»ning tezuchar samolyotida Amerika tomon uchayapsiz. Toʻsatdan ayrim texnik sabablarga koʻra samolyot oʻz trayektoriyasidan chiqib, oʻzga sayyoraga uchib borib qoʻndi. Oʻzga sayyoraliklar bizga oʻxshab qoʻl berib koʻrishar-salomlashar, lekin ular 1, 2, 3... qoʻlli boʻlib, ayrimlari qoʻllar sonini oʻzgartirish xususiyatiga ham ega ekan.

Koʻrishganda boʻsh qoʻl qolmasligi kerak boʻlib, agar boʻsh qolsa ular xafa boʻlishar ekan.

Keling, biz ular bilan koʻrishishni mashq qilaylik.

3. Tayanch signallarni koʻchirib mashq boshlash.

4. Individual, guruhli va jamoa boʻlib ishlash.

5. Elementlar asosidagi tayanch signallarni koʻchirib ishlash.

6. Tushunmovchilik savollarga oʻqituvchi va kitob asosida javob topish.

7. Xulosa. Uyga vazifa.

Tayanch signallar va soʻzlar.

1. Har xil qoʻlli odamlar:



2. Salomlashish:



3. Oʻzgarmas valentlikka ega boʻlgan elementlar:

I valentli elementlar – N, LGʻ, Na, K, F


II valentli elementlar – O, Ve, Mg, Sa, Va

III valentli elementlar – V, Al

4. Oʻzgaruvchan valentlikka ega boʻlgan elementlar:

I va II valentli – Su, Hg
 II va III valentli – Fe, So, NG'
 II va IV valentli – S, Sn, Pb
 III va V valentli – R
 II, III, VI valentli S
 II, IV, VI valentli – Cr
 I–V valentli – N

5. Elementlarni salomlashtirish:



6. Odamlar – elementlar, qo‘llar – valentelektronlar, salomlashtirish–? (Valentlik)

Bunday darslar o‘quvchilarga mustaqil ishlashni, mustaqil fikrlashni, xulosa chiqarishni o‘rgatibgina qolmay, bilimlarni mustaqil egallash malakalarini hosil qiladi.

8-sinf: Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari fanidan bir soatli dars ishlanmasi

Dars mavzusi: Inson hayotida yaxshi xulqning ahamiyati va yomon xulqning oqibatlari.

1. To‘g‘rilik va rostgo‘ylik. 2. Fahm-farosat va ziyraklik.

Dars maqsadlari:

Ta‘limiy: Inson hayotida to‘g‘rilik va rostgo‘ylik, fahm-farosat va ziyoraklikning ahamiyati.

Tarbiyaviy: To‘g‘ri va rostgo‘y, fahm-farosatli va ziyrak bo‘lish yo‘llarini o‘quvchi ongiga singdirish.

Rivojlantiruvchi: Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, tanqidiy fikrlash, to‘g‘rilik va rostgo‘ylik, fahm-farosat va ziyraklikdan o‘z hayoti tajribasida foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Kasbga yo‘llovchi: Tarbiyachi, pedagog kasbiy sifatлари haqida ma‘lumot.

Mafkuraviy: Insoniylik. Insoniy qadriyatlar, komil inson haqida ma‘lumot berish.

Dars turi: Nazariy va amaliy.

Dars tipi: Aralashgan andozalash.

Dars usuli: Interfaol.

Dars jihozi: Jadvallar: 1. B\BX\B0.2. Inset jadvali.

Tarqatma didaktik materiallar:

1. Inset matnlari.2. Boshqotirmalar.3. Magnit doskasi.4. Rag‘batlantirish va jarima kartochkalari.

Fanlararo bog‘liqligi: Adabiyot, ona tili, tarix, jismoniy tarbiya va boshqalar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (an‘anaviy ishlardan tashqari, o‘quvchilar 5–6 tadan guruh bo‘lib o‘tirishi ta‘minlanadi).

2. O‘tilgan mavzuni takrorlash. «Kubik» strategiyasidan foydalaniladi. Har bir o‘quvchi, guruh qisqa yozma javob tayyorlaydi.

1-tomon. Buni tasvirlang. Xalq farovonligi deganda xayolingizda nimalar tasvirlanmoqda?

2-tomon. Buni taqqoslang. Xalq farovonligi nimaga o‘xshaydi, nimadan farqlanadi?

3-tomon. O‘zaro bog‘lang. Xalq farovonligi nimalar haqida o‘ylashga majbur qiladi? Xayolingizga nimalar keladi? O‘quvchilar xayoliga erk beradi va xalq farovonligining nimalar bilan bog‘lanishi mumkinligini yozishadi.

4-tomon. Buni tahlil qiling. Xalq farovonligi qanday amalga oshiriladi? O‘quvchilar buni aniq bilishi, to‘liq bilishi shart emas, ular o‘z fikrlarini bayon etishadi.

5-tomon. Buni qo‘llang. Xalq farovonligi nima uchun kerak? Uning ahamiyati bayon etiladi.

6-tomon. Ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsating. O‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish borasida ijobiy narsa va tushunchalarning aynan salbiy, salbiy narsa va tushunchalarning aynan ijobiy tomonlarini izlab topish muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, xalq farovonligining salbiy tomonini izlab topish qiyin, ammo o‘ta foydali bo‘ladi. (Masalan, xalq farovonligini yaratishda ko‘plab qurbonlar bo‘lishi mumkinligi va hokazo.)

Yangi mavzuning bayoni

A. Andozali darsning da'vat bosqichi. B\BX\BO jadvalining B – «bilamiz» ustuni to'ldiriladi. Bunda to'g'rilik va rostgo'ylik, fahm-farosat va ziyraklik haqida har bir guruhdan 2 tadan fikr olinadi, barcha fikr va mulohazalar tugaguncha. So'ng, BX – «bilishni xohlaymiz» ustuni to'ldiriladi. Bunda o'quvchilar to'g'rilik va rostgo'ylik, fahm-farosat va ziyraklik haqida nimalarni bilishni xohlashlarini aytishadi.

B. Andozali darsning anglash bosqichi. Bu bosqichda har bir o'quvchiga to'g'rilik va rostgo'ylik, fahm-farosat va ziyraklik insert matni tarqatiladi. Bu matn bilan tanishish jarayonida har bir o'quvchi «V», «+», «-», «?» belgilarini qo'yib boradi. So'ng insert jadvali to'ldiriladi.

3. Yangi mavzuni mustahkamlash.

D. Andozali darsning fikrlash bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilar nimalarni bilib olishlarini gapirib berishadi va jadvalning BO ustuni to'ldiriladi va demak, dars mustahkamlanadi.

4. Darsga yakun yasash. Faol qatnashgan guruhlar, o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bunda baho berish asosli bo'lishi va ko'proq o'yin tarzida o'tishiga e'tibor qaratiladi.

Insert

To'g'rilik va rostgo'ylik. Fahm-farosat va ziyraklik.

Ma'naviyat avvalo insonning xulqi orqali namoyon bo'ladi. Uning ma'naviyati qanchalik boy bo'lsa, xulqi ham shunchalik go'zal bo'ladi. Aksincha, kishi ma'naviyati zaif, qashshoq bo'lsa, uning xulqi ham shunchalik xunuk bo'ladi.

Xulq deb insonning xatti-harakati, yurish-turishi va muomalasi orqali namoyon bo'ladigan xususiyatlariga aytiladi.

Yaxshi xulq o'z tarkibida bir qancha xususiyat va fazilatlarini mujassam etsa, yomon xulq, aksincha, illatlar va salbiy xatti-harakatlarni aks ettiradi. Dastlab yaxshi fe'l-atvorga asos bo'ladigan, inson xulqini bezaydigan to'g'rilik va rostgo'ylik, fahm-farosat va ziyraklik kabi fazilatlar xususida so'zlashaylik. To'g'rilik insonning amaldagi xatti-harakatlarining ko'nglidagi niyati va maqsad-muddaosiga mos, ko'nglida tuygan, xayolida o'ylagan narsasini tilida aynan takrorlab, shu asosda harakat etsa, bu haqiqiy to'g'rilikdir. Demak, to'g'rilikning ziddi, ya'ni teskarisi qing'irlik va egrilikdir.

Rostgo'ylik haqiqatni gapirishdir.

Inson fahm-farosati, to'g'ri so'zi, halol mehnati, haqqoniyligi bilan go'zal.

Ota-ona farzandga ibrat, namuna bo'lishi zarur.

Samimiylik, to'g'rilik va rostgo'ylik, haqiqatgo'ylik bilan uzviy bog'liq.

Odobli, to'g'ri, halol va samimiy kishilargina ana shu fazilatlariga ega bo'ladilar. Halollik esa ezgulik sari tashlangan qadam bo'lib, unday odamning umri xotirjamlikda o'tadi.

Sofdil, to'g'ri odamlarning so'zi bilan ishi bir bo'ladi.

Insonga yarashadigan fazilatlaridan yana biri rostgo'ylikdir.

Bir ona sovchilikka kelib, «Qizim, ishni aytsa qilish kerakmi yoki aytmasa ham qilinaveradimi?» debdi. Qiz zukko, ham farosatli ekan: «Xolajon, aytsa hamma ham qiladi, fahm-farosatni ishlatib, har qanday ishni odam o'zi bajarishi kerak», – debdi. Ona sevinib ketibdi va o'sha qizni kelin qilgan ekan.

Dunyoda uch narsadan saqlanmoq kerak, birinchisi – chaqimchilik, ikkinchisi – yolg'on gapirish, uchinchisi – g'iybatdir. Bu uch narsadan o'zini tiymagan kishining boshi tashvishdan chiqmaydi.

Yuzi kir bo'lsa, yuvsa ketar,

Ko'ngli kir bo'lsa, o'lsa ketar.

Qanoat – hayotda ozga ham, ko'pga ham ko'nikish, og'irliklarga chidash, nafsni tiyishdir. Qanoat kishini izzat-ikromga, shon-sharafga olib boradi.

Kimki qiyinchiliklarga chidab, maqsad sari sabr-bardosh va qanoat bilan intilsa, rohat va farog'atga erishadi. Qanoatning mevasi – baxt va tinchlik, osoyishtalik va farovon turmush, shodlik va xurramlik, sevinch va quvonchdir.

Qanoatsizlik kishini razillikka, johillikka, xor-u zorlikka yetaklaydi.

Qanoat bor joyda insof, insof bor joyda esa qanoat bor. Qanoatsiz odamda insof bo'lmaydi, qanoatsizlik kishini ochko'zlik balosiga yo'liqtiradi.

Qanoatlilik shukr qilishdan boshlanadi. O'tkinchi qiyinchiliklarga sabr qilish qanoatlilikning muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Ba'zan ish yoki o'qishda odamlar bilan muomalada ham qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bunday hollarda vaziyatga qarab qiyinchiliklarni vazminlik, sabr-toqat bilan bartaraf etish oqillik belgisi sanaladi.

Nima yomon, nima yaxshi, nima gunoh, nima savob ekanligini o'smirlik yoshidan ajratib olmoq va shunga amal qilmoq darkor.

IV BOB. PEDAGOGIKA DIAGNOSTIKASI VA DIDAKTIKASI

4.1. Shaxslarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash testi

Tarbiya psixologiyasi – pedagogik psixologiyaning g‘oyat murakkab va kam ishlangan bo‘limi bo‘lib, keyingi vaqtlarda bunga ko‘proq e‘tibor berilmoqda. U shaxsni bir butun holda tarkib topishi va rivojlanishiga oid ichki (psixologik) mexanizmlarni, shuningdek, uning ayrim xususiyatlarini o‘rgatadi.

Shaxs faoliyati jarayonida moddiy va ijtimoiy muhitning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanib boradi. Faollik bo‘lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo‘lmaydi. Bunda ijtimoiy aloqalar jamiyat, guruh hamda turli jamoalar hayotiga faol kirishib ketish shaxsni shakllantirishning muhim omillari sifatida maydonga chiqadi. Aniq maqsadni ko‘zlagan holda oldindan rejalashtirilgan hamda tashkil etilgan jarayon bo‘lishi tarbiya, shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi yo‘nalishlari hisoblanadi. Shaxsning shakllanib borish sur‘ati unga xos ayrim xususiyatlarning to‘la va butun holda barqaror paydo bo‘lib borish uning mehnatda, o‘qishda, o‘yinda, muloqotda va yurish-turish madaniyatida yaqqol ko‘rinadi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, faoliyat nima sababdan amalga oshirilishi zarur ekanligini tushuntira olish bilangina har bir ishning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifasi amalga oshadi. Bu fikrni shunday tushunish kerakki, tarbiyalanuvchi ongiga anglab yetilgan barqaror va kuchli ichki ehtiros paydo bo‘lgandagina amalga oshirilayotgan faoliyat tarbiyalovchi kuchga aylanadi. Xo‘sh, tarbiyaning o‘zi nima? A. Navoiy fikricha tarbiya, ya’ni «Pedagogika» bola tarbiyasining fanidir. Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmoq, tanini pok tutmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq, yomon xulqlardan asrab o‘stirmoqdir.

Shaxsni kamol toptirishda axloqiy tarbiyani asosiy hisoblagan sharq olimlari «Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi» deb ta’rif berganlar. Tarbiyalanganlikni esa yaxshi va yomon xulqlarning qay darajada shakllanganligi bilan o‘lchaganlar. Ushbu testda yaxshi xulqlar turlari, ularning mezonini aniqlash va shular orqali tarbiyalanganlik darajasini belgilashga harakat qildik. Buning uchun yaxshi xulqning turlari, ularning mezonlarini ishlab chiqdik.

Keyingi ish esa har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini aniqlashdir.

Har bir tarbiyachi – o‘qituvchi uchun yaxshi xulq, uning mezonini bilish – keyingi faoliyatini tashkil etishda yordam beradi deb o‘ylaymiz. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash esa tarbiyalanuvchining kamchilik tomonlarini tuzatishga yordam beradi.

Test ishlanmasi

Tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari va mezonlari

T/r	Tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari	Mezoni
1.	Vatanparvarlik	O‘lka o‘tmishi va hozirgi hayotiga qiziqish, tabiatga mehr qo‘yish va uni asrash, o‘z uyi, bog‘chasi, maktabini sevish, mehnatga muhabbat, vatanining buyuk kishilari bilan faxrlanish va h.k.
2.	Do‘stlik, insonparvarlik	Jamoaga qo‘shila olish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, muhtojlarga yordam berish, mehr-shafqatlilik, g‘amxo‘rlik, samimiylik, do‘stga sadoqatlilik va h.k.
3.	Halollik	Samimiylik, rostgo‘ylik, o‘z xatosini tan olish, so‘z bilan ish birligi, va‘daga vafo qilish, o‘zgalar mulkiga tegmaslik va h.k.
4.	Mehnatsevarlik	Mehnatsevarlik, vijdonan o‘qish, ishlash, uy-ro‘zg‘or ishlariga yordam, ijtimoiy mehnatda faollik, doimo foydali ish bilan shug‘ullanish va h.k.
5.	Intizomlilik	Maktabda, ko‘chada, uyda, jamoat joylarida belgilangan odob-axloq qoidalariga rioya qilish. Buyurilgan ishni tez va aniq bajarish, mas‘uliyatni his qilish va h.k.
6.	Saxiylik	Mehribonlik, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish, hamma narsani o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish, jonivorlarni avaylash va asrash, muruvvatli bo‘lish va h.k.
7.	Faollik	Ijtimoiy hayotda faol qatnashish, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, kamchilikka qarshi kurashish, hamma ishda o‘rnak bo‘lish va h.k.
8.	Kamtarlik	Kishilar orasida ajralib turishga harakat qilmaslik, axloqli bo‘lish, tashqi ko‘rinish bilan ajralib turmas-

		lik, maqtanchoq bo'lmaslik, bosiqlik, oddiylik, soddalik, sipolik va h.k.
9.	Ozodalik	Kiyim-kechak, a'zolar va tashqi ko'rinishni ozoda tutish. Ish, o'qish, uy, yurish, turish joylarini doimo ozoda saqlash, pok yurish va h.k.
10.	Tejamkorlik	Shaxsiy va davlat mulkini asrash, buyumlarni tartibda saqlash, ehtiyot qilish, har bir narsadan to'g'ri foydalanish va h.k.
11.	Jasurlik	Qo'rquvni yenga olish, o'zgalarga yordam berish, qat'iyatlilik, adolatsizlikka murosasizlik va h.k.
12.	Chaqqonlik, chiniqish, kuchlilik	Xushbichim bo'lishga intilish, sport bilan shug'ullanish, kun tartibiga va shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, gimnastika mashg'ulotlari bilan shug'ullanish va h.k.
13.	Baynalminallik	O'z xalqining madaniyati va san'atiga qiziqish, o'zga xalqlarning va o'z xalqining urf-odatlarini hurmat qilish, o'zaro yordam va h.k.
14.	Mas'uliyatlilik	O'z vazifasini sidqidildan bajarish, olingan majburiyatni o'z vaqtida aniq bajarish, boshlangan ishni oxiriga yetkazish va h.k.
15.	Qiziquvchanlik	O'qimishli bo'lish, bilim doirasini oshirish, berilayotgan saboqni yaxshi o'zlashtirish, adabiyotlarni o'qib borish, axborot vositalaridan unumli foydalanish, har bir mashg'ulotga to'liq qatnashish va h.k.
16.	Prinsipiallik	Qarashlar va e'tiqodlarning barqarorligi, o'z fikr va mulohazalarini ochiq aytish, o'z fikrini himoya etish, o'z-o'zini tanqid qila bilish, xatti-harakatlarga obyektiv baho berish va h.k.
17.	Nafosatlilik	Go'zallikni his qila bilish, chiroyli ishdan, buyumdan zavqlanish, ozoda ko'rinishga intilish, adabiyot, san'atga qiziqish, har bir ishni sifatli bajarish va h.k.
18.	Ishbilarmonlik, tadbirkorlik	Vaqtdan to'g'ri foydalanish, pul va mol qadrini bilish, xarajatda tejamkor bo'lish, savdoda ijodkor bo'lish va h.k.
19.	Iffat-hayolilik	Nafsnı gunoh va buzuq ishlardan tiyish, ishda, so'zda, yurish-turishda, kiyinishda, ovqatlanishda odob saqlash va h.k.
20.	O'z-o'zini tarbiyalash, nazorat qilish	Axloqiy sifatlarni tahlil qilish orqali o'zidagi kamchiliklarni qayta tarbiyalashga intilish, o'zini obyektiv baholash va h.k.

Yuqorida berilgan yaxshi xulqlar va ularning mezonlaridan foydalanib, tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mumkin. Bunda o'n balli tizimdan foydalanib, har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasi aniqlanadi. Ballar kuzatish, suhbat, testlar, ish o'yinlari natijasida va o'z-o'zini baholash orqali qo'yilishi mumkin. Tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari har biri alohida baholanib, umumiy (20 turi) ball aniqlanadi. Eng yuqori baho 200 ni tashkil etsa, past baho 0 dir. To'plagan ballar asosida tarbiyalanganlik darajasi «past» «o'rta» va «yuqori» aniqlanadi. Tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarining qaysi biri past yoki yuqoriligiga qarab qayta tarbiyalash rejasini tuzish mumkin.

Tarbiyalanganlik ko'rsatkichini baholash varaqasi

T/r	Tarbiyalanganlik ko'rsatkichi	Bali (0–10 gacha)
1.	Vatanparvarlik	
2.	Do'stlik, insonparvarlik	
3.	Halollik	
4.	Mehnatsevarlik	
5.	Intizomlilik	
6.	Saxiylik	
7.	Faollik	
8.	Kamtarlik	
9.	Ozodalik	
10.	Tejamkorlik	
11.	Jasurlik	
12.	Chaqqonlik, chiniqish, kuchlilik	
13.	Baynalminallik	
14.	Mas'uliyatlilik	
15.	Qiziquvchanlik	
16.	Prinsipiallik	
17.	Nafosatlilik	
18.	Ishbilarmonlik, tadbirkorlik	
19.	Iffat-hayolilik	
20.	O'z-o'zini tarbiyalash, nazorat qilish	

To'plangan ballar yig'indisi:

- 0–80 gacha bo'lsa tarbiyalanganlik darajasi «past»;
- 80–140 gacha bo'lsa tarbiyalanganlik darajasi «o'rta»;
- 140–200 gacha bo'lsa tarbiyalanganlik darajasi «yuqori».

O'z-o'zini tarbiyalash uchun quyidagi reja asosida ish olib borish mumkin:

Tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari	Kamchiliklar	O'z-o'zini tarbiyalash uchun bajariladigan ishlar
1	1	1
2	2	2
3	3	3
4	4	4
va h.k.	va h.k.	va h.k.

4.2. Pedagog xodimlar uchun tezkor savol-javoblar

Tezkor savollar:

1. Intellekt nima?
2. Diqqatning nechta turi bor?
3. Senzitivlik nima?
4. Milliy g'oya nima?
5. Dars tipi nechta?
6. Diagnostika nima?
7. Kommunikativlik nima?
8. Iqtidorli deb kimni tushunasiz?
9. Krizis yoshlarini ayting?
10. Dars maqsadi nechta?
11. Xotirani kuchaytirish necha yoshda qulay?
12. Tafakkur nima?
13. Interaktiv usul nima?
14. Uslub nima?
15. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi nima?
16. Hissiyot turlarini ayting?
17. Tafakkur turlarini ayting?
18. Tashxis markazlari qachon tuzilgan?
19. Amaliy psixologning ish turlari?
20. Korreksiya nima?
21. Profilaktika nima?
22. Pertseptiv qobiliyat nima?
23. Defektologiya nima?
24. Etnopsixologiya nima?
25. Milliy mafkuraning bosh g'oyasi nima?

26. Pedagogik texnologiya nima?
27. Affekt nima?
28. Kasb tiplarini ayting.
29. DDS nima?
30. Mijoz turlarini ayting.
31. Kettell testi nima?
32. Simpatiya nima?
33. Maktabning asosiy vazifasi nima?
34. Qiyofashunoslik ilmi sohibi kim?
35. 3 ta o'zbek psixologini ayting.
36. Klimov testi nima?
37. Ayzenk testi nimani o'rgatadi?
38. «Bumerang» nima?
39. Sistemaning o'zbekchasi nima?
40. O'quvchi nima uchun maktabga keladi?
41. Geometrik shakllar orqali nima aniqlanadi?
42. Munosabat turlariga misol ayting.
43. Ilg'or pedagogik texnologiyaning bosh tamoyili?
44. Tarbiyasi qiyin kim?
45. O'qHY va PPTM ni to'liq ayting?
46. Konsilium nima?
47. Mafkura nima?
48. Eksperiment nima?
49. Dars tahlilini sanab bering.
50. Test so'zining ma'nosini ayting.
51. Anketaning o'zbekchasi.
52. Empatiya nima?
53. «Aqliy hujum» dars usuli nima?
54. Suggestiv qobiliyat nima?
55. Plyuralizm nima?
56. «UDO» nima?
57. Masofali ta'lim nima?
58. Muhabbat (sevgi) nima?
59. Motiv nima?
60. Kollej nima?
61. Litsey nima?
62. Pedagogika nima?

63. Psixologiya bo'limlarini ayting.
64. Stress nima?
65. Prinsip nima?
66. Fenomen nima?
67. Didaktika nima?
68. Introvert nima?
69. Iste'dod nima?
70. Induksiya nima?
71. Eyforiya inma?
72. E'tiqod nima?
73. Egoist nima?
74. Deduksiya nima?
75. Diqqat nima?
76. Tarbiya turlarini ayting.
77. Mafkuraning diniy ildizlari?
78. Shaxs nima?
79. Idrok nima?
80. Ta'lim nima?
81. Iroda nima?
82. Avtoritet nima?
83. Nevroz nima?
84. Xolerik kim?
85. Monitoring nima?
86. DTS nima?
87. Professiogramma nima?
88. Reyting nima?
89. Marketing nima?
90. Aspirantura nima?
91. Magistratura nima?
92. Bakalavrlik nima?
93. Innovatsiya nima?
94. Darsning didaktik tahlili nima?
95. Qobiliyat turlarini ayting.
96. Xarakter nima?
97. Melanxolik kim?
98. O'qituvchilar uchun umumiy kasb tipi.
99. Pedagog so'zining ma'nosi.

100. Didaktikaning «Otasi» kim?
101. Texnologiya soʻzining maʼnosi?
102. Iqtidorlilar jamgʻarmasi?
103. Tafakkurni oshiruvchi dars usuli.
104. Dars nima?
105. Psixologiya soʻzining oʻzbekchasi.
106. Trening nima?
107. Tarbiya turlarini ayting.
108. Badan tarbiyasi nima?
109. Milliy modelning nechta boʻlimi bor?
110. Milliy mafkura qachon qabul qilingan?

Tezkor savollar (kasbga yoʻlovchilar uchun)

1. Monitoring nima?
2. Hisobchi qaysi kasb tipiga mos?
3. Mijoz turlarini ayting?
4. Necha xil kasb bor?
5. Shifokor (hakim) qaysi tipga mos?
6. Tafakkur nima?
7. Ferment nima?
8. Faktor nima?
9. Xarakter-chi?
10. Loringit bilan kasallangan odam oʻqituvchi boʻladimi?
11. Vunderkind nima?
12. Mafkura nima?
13. Professiogramma nima?
14. Aspirantura nima?
15. Dotsent ilmiy darajami yo unvon?
16. Ish ritmi nima?
17. Progress nima?
18. Kasb boʻlimlari nechta?
19. «Navoiyazot» kasblaridan 3 ta ayting?
20. Bakalavrlik nima?
21. Shovinizm nima?
22. Pluralizm-chi?
23. Iqtidorli kim?
24. Sistemaning oʻzbekchasi?

25. Filtr nima?
26. Klassifikatsiya-chi?
27. Kasb tipi nechta?
28. Kollej nima?
29. Tamoyil nima?
30. O'qituvchilarning umumiy tipi.
31. Matematikning kasb tipi?
32. Kasb tipi kimning testi bilan aniqlanadi?
33. G'oya nima?
34. Interaktiv usul nima?
35. Differensiya nima?
36. Kasb guruhlari nechta?
37. Yurist (huquqshunos)ning kasb tipi?
38. Anketa nima?
39. Texnologiya so'zining ma'nosi?
40. Injener so'zining o'zbekchasi?
41. Slesar-chi?
42. Mafkuraning diniy ildizlari?
43. Portning o'zbekchasi?
44. Konsilium nima?
45. Magistr kim?
46. Kasb adaptatsiyasi nima?
47. Korrektor kim?
48. Kasbning sinfi nechta?
49. Litsey nima?
50. Programma nima?
51. Ximiya-biologiya fanlari o'qituvchisining kasb tipi?
52. Milliy g'oya nima?
53. Iste'dod nima?
54. Motiv nima?
55. Ekologiya nima?
56. Tolerantlik nima?
57. Litsey nima?
58. Prinsip nima?
59. O'zbekiston qanday davlat?
60. Innovatsiya nima?
61. Iqtidorlar jamg'armasi qaysi?
62. Idealizm nima?

Tezkor savollarga javoblar

1. Shaxsning aql-idrok darajasi.
2. Ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ixtiyoriydan so'nggi.
3. Ayrim psixologik xususiyatni rivojlantirish uchun qulay davr.
4. Millat tafakkurining mahsuli.
5. Beshta (bilim hosil qiluvchi, ko'nikma va malaka hosil qiluvchi, mustahkamlovchi, sinovchi, aralash).
6. Tahlil, o'rganish (m: pedagogik jarayonni).
7. Jamoaga qo'shilib keta olish, muloqotga kirishish.
8. Maxsus qobiliyat egasini.
9. 2–3, 11–13 va h.k.
10. Beshta (tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi kasbga yo'llovchi, mafkuraviy).
 11. 2–5 yoshda.
 12. Bilish, anglash, xulosa chiqarish, bilim.
 13. Metod (biror ishni olib borishdagi harakat).
 14. O'zaro hamkorlik, birgalikda ishlash.
 15. Shaxsiy psixologik xususiyatlarni rivojlantirish.
 16. Ijobiy, salbiy (xursand, xafa, zavq va h.k.).
 17. Mantiqiy, ijobiy, empatik, analitik, fazoviy.
 18. 1998-yil may.
 19. Diagnostik, korreksion, profilaktik, rivojlantiruvchi va h.k.
 20. Tuzatish.
 21. Oldini olish.
 22. Birgalikda idrok qilish, oldindan sezish.
 23. Nuqsonlarni o'rganuvchi fan (odamda).
 24. Milliy xususiyatlarni o'rganuvchi fan (psixologiyaning bo'limi).
 25. Ozod va obod Vatan, tinch va farovon hayot.
 26. Kasb san'ati haqidagi fan.
 27. Nerv tizimining kuchli qo'zg'alishi va beqarorligi.
 28. Odam, texnika, tabiat, badiiy obraz, belgili tizim.
 29. Diagnostik-differensial so'rov varaqasi.
 30. Xolerik, sangvinik, flegmatik, melonxolik.
 31. Shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi test.
 32. Odamning g'ami va shodligiga sheriklik.
 33. Barkamol yetuk shaxslar yetkazish.
 34. Husain Voiz Koshifiy.

35. Davletshin, G'. Shoumarov, E. G'oziyev.
36. Kasb tiplarini aniqlovchi test.
37. Intellekt, muomala, mijoz va h.k.
38. Qayta aloqa (munosabatda).
39. Tizim, tizimlilik.
40. BKM hosil qilish va tarbiyalanish uchun.
41. Shaxs xususiyatlari va ular bilan muloqot.
42. Liberal, avtoritar, demokratik.
43. O'qitish emas, o'qishga o'rgatish.
44. Qonun va qoidabuzarlar.
45. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash va pedagogik-psixologik tashxis markazi.
46. O'quvchini o'qituvchi, psixolog, ota-ona, sinf rahbari (jamoab o'lib) muhokama qilish.
47. G'oyalar yig'indisi (Milliy istiqlol g'oyalari).
48. Tajriba, sinab ko'rish.
49. Ilmiy, pedagogik, psixologik, didaktik, metodik tahlillar.
50. Sinash, o'rganish.
51. So'rov varaqasi, so'rovnoma.
52. Odamning g'amiga, shodligiga sherik bo'lish.
53. O'quvchilarni aqliga hujum qilib mavzuni o'zi va birgalikda bilib olish.
54. Ma'qul variantini topish.
55. Har xillik (dunyoviy, diniy va h.k.).
56. Uy, daraxt, odam rasmini chizish orqali shaxsga xarakteristika berish.
57. Masofadan turib o'qitish, o'qishga o'rgatish.
58. Tanaga, aqlga, vujudga birdan ta'sir ko'rsatuvchi hissiyot, kasallik.
59. Ichki zarurat, istak, xohish.
60. Kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha ta'lim maskani.
61. Fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'rganish maskani.
62. Ta'lim, tarbiya, didaktika, metodika haqidagi fan.
63. Umumiy, yosh, ijtimoiy, etnik, pedagogik, psixologik va h.k.
64. Nerv tizimining kuchli qo'zg'alishi va barqarorligi.
65. Tamoyil, qonun-qoida.
66. Favqulodda, kam uchraydigan shaxs.
67. Ko'rgazmalilik, namoyish etish.
68. Muomala qilish qiyin shaxs.

69. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak cho‘qqisi.
70. Yakkadan umumiy xulosa chiqarish.
71. Ko‘tarinki kayfiyat.
72. Qarashlar, tamoyil, dunyoqarash, ishonch.
73. Xudbin, o‘zini sevuvchi.
74. Umumiydan yakka xulosa chiqarish.
75. Ongimizning biror narsaga yo‘nalishi.
76. Axloqiy, aqliy, nafosat va badan tarbiya.
77. Qur‘on, Zabur, Injil, Naqshbandiy, Konfutsiy.
78. Ongi rivojlanib dunyoni bilayotgan odam.
79. Ongimizning biror narsaga yo‘nalish va bir butun qabul qilishi.
80. Bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish, bilish faoliyati.
81. Zerikmay, zo‘riqmay biror ishni bajara olish.
82. Obro‘, nufuz.
83. Nerv tizimining kuchli qo‘zg‘alishi, kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi.
84. Harakatchan, chaqqon, tez tushunuvchi va tez unutuvchi.
85. Pirovard natija.
86. Davlat ta‘lim standartlari (minimum).
87. Kasbnoma, kasb tasnifi.
88. Ijobiy va salbiy xususiyatni o‘rganish usuli.
89. O‘rganish, tahlil qilish, mujassamlash.
90. Kasb bo‘yicha yuksak kvalifikatsiya beruvchi tashkilot.
91. Mutaxassislik bo‘yicha chuqur bilim beruvchi o‘quv yurti.
92. Kasb bo‘yicha oliy ta‘lim maskani.
93. Yangilikni isloh qilish.
94. Ta‘lim jarayonidagi ko‘rgazmalilik.
95. Matematik, san‘at, pedagogok, texnik va h.k.
96. Ijtimoiy muhitda olingan shaxsiy sifatlar.
97. Harakatsiz, sust, qiyin tushunuvchi.
98. Odam – odam, odam – badiiy obraz.
99. «Yetaklovchi», «Boshqaruvchi».
100. Yan Amos Komenskiy.
101. Kasbning san‘ati haqidagi fan.
102. «Umid».
103. Muammoli dars usuli.
104. O‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi ishi.
105. «Jon», «Ruh», «Ruhshunoslik», «Ruhiyatshunos».

106. Mashq, amaliy ish.
107. Axloqiy, aqliy, nafosat, badantarbiya.
108. Jismoniy va harakat orqali organizmni chiniqtirish.
109. 5 ga.

Tezkor savollarga javoblar (kasbga yo‘llovchilar uchun)

1. Ish natijasini o‘rganish.
2. Odam – belgili tizim, odam – odam.
3. Xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.
4. Uch mingga yaqin.
5. Odam – tabiat, odam – odam.
6. O‘ylash, fikrlash, xulosa chiqarish.
7. Achitqi.
8. Omil, sabab.
9. Ijtimoiy hayotdan olingan shaxsiy xislatlar.
10. Mumkin, lekin o‘ziga qiyin.
11. Hamma narsani biluvchi bola, o‘ta qobiliyatli.
12. G‘oyalar yig‘indisi.
13. Kasbnoma, kasb tasnifi.
14. Yuksak kasbiy kvalifikatsiya.
15. Dotsent – ilmiy unvon.
16. Davrlilik.
17. Taraqqiyot, yuksalish.
18. Kasb bo‘limi beshta.
20. Oliy kvalifikatsiya.
21. Shaxsga sig‘inish.
22. Har xillik (dunyoviy, diniy va h.k.).
23. Maxsus qobiliyatli.
24. Tizim. Tizimlilik.
25. Suzgich.
26. Yo‘nalishlarga ajratish.
27. Kasb tipi beshta.
28. Kasb-hunar o‘rgatish maskani.
29. Prinsip, qonun-qoida.
30. Odam – odam, odam – badiiy obraz.
31. Odam – odam, odam – belgili tizim.
32. Klimov testi bilan.
33. Inson tafakkurining mahsuli.

34. Hamkorlik usuli (o'qituvchi, o'quvchi).
35. Ta'limni tabaqalashtirish.
36. Kasb guruhlari beshta.
37. So'rov varaqasi, so'rovnoma.
38. Hunar san'ati haqidagi ta'limot.
39. Muhandis.
40. Chilangar, tuzuvchi.
41. Qur'on, Zabur, Injil, Naqshbandiy va h.k.
42. Hamkorlikdagi xulosa.
43. O'qituvchi, psixolog, ota-ona hamkorligida bola muhokamasi.
44. Mutaxassislik bo'yicha oliy kvalifikatsiya.
45. Kasbga moslashish.
46. Tuzatuvchi, xatolarni tekshiruvchi.
47. Kasb sinfi uchta.
48. Ayrim fanlarni chuqur o'rganish.
49. Dastur.
50. Odam – odam, odam – tabiat.
51. Millat tafakkuri mahsuli.
52. Qobiliyatning yuksak darajasi.
53. Ichki zarurat, xohish, istak.
54. Manzil, joy haqida bilim, ta'limot.
55. Diniy bag'rikenglik.
56. Ayrim fanlarni chuqur o'rganish.
57. Tamoyil.
58. Mustaqil, demokratik, huquqiy davlat.
59. Yangilikni isloh qilish.
60. Umid.
61. Yakkalik, bir narsaga ishonish.

4.3. Pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha testlar

1. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning maqsadi?

Maqsadi shuki, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganishda har kimning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

Asosiy prinsiplari: a) ta'limning ijodiy taraqqiyoti; b) ta'limning ustuvorligi; d) insonparvarligi; e) demokratik xarakterdaligi; f)

ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash; g) o'rta maxsus va kasb-hunarning majburiyligi; h) o'rta-maxsus va kasb-hunar tanlash ixtiyoriyligi; i) ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; j) ta'lim dasturini tanlashning yagonaligi va tavakkalligi; k) bilimni va iste'dodni rag'batlantirishni davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashtirishdan iborat.

3. Bilim olish huquqiga ega bo'lish uchun O'zR hududida qancha yashagan bo'lishi kerak?

Yashash vaqti belgilanmagan va hamma bilim olish huquqiga ega.

4. Bilim olish huquqi nima bilan kafolatlanadi?

Tili, yoshi, irqi, millati, e'tiqodi, kelib chiqishi, turar joyidan qat'i nazar ta'lim olishi kafolatlanadi.

5. Respublikada istiqomat qilayotgan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olish huquqiga egami?

Hamma qatori konstitutsiyaviy huquqga ega.

6. Qanday shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?

Tegishli kasb tayyorgarligi, ma'lumoti, axloqiy fazilatlarini bor bo'lgan kishilar.

7. Pedagogik xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish qanday amalga oshiriladi?

O'zRVMning tasdiqlangan ishga qabul qilish Nizomiga muvofiq.

8. Qanday shaxslarga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish man etiladi?

Sud hukmi bilan man etilgan shaxslarga.

9. Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash qanday tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi?

Akkreditatsiyalash, ya'ni ularga faoliyat huquqini berish O'zRVMning ta'lim bo'limi tomonidan beriladi.

10. Nodavlat ta'lim muassasasi qaysi vaqtdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi?

Belgilangan tartibda O'zRVMning akkreditatsiyasidan o'tgandan so'ng.

11. Ta'lim muassasasi qanday hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatadi?

Qonuniy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

12. Ta'lim muassasasi Davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkinmi?

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga ko'ra Davlat akkreditatsiya kommissiyasi tomonidan mahrum etilishi mumkin.

13. Ta'lim muassasasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egami?

Belgilangan tartibda Nizomga binoan pullik ta'lim tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli.

14. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni sifatiga talablar qanday hujjat bilan belgilanadi?

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bosh boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan Nizomda ko'rsatilgan hujjatlar bilan ta'minlangan holdagina ruxsat etiladi.

15. Davlat ta'lim standart (DTS)larini bajarish majburiymi, agar shunday bo'lsa, qanday muassasalarga?

DTSni barcha ta'lim muassasalari bajarishga majbur.

16. Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tili qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?

Ta'lim berish tili Davlat tili asosidagi hujjatlarga asosan olib boriladi.

17. O'zR ta'lim tizimi nimalardan iborat?

Ilmiy pedagogik muassasalar, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim boshqaruv organlari, ularga tegishli korxonalar, muassasalari va tashkilotlardan iborat.

18. O'zRda qanday ta'lim turlari mavjud?

Maktabgacha, Umumiy o'rta ta'lim (UO'T), O'rta-maxsus va kasb-hunar, Oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, malaka oshirish tizimi.

19. Maktabgacha ta'limning maqsadi nimalardan iborat?

Sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlash.

20. UO'T bosqichlari qanday?

A) boshlang'ich 1–4-sinf; B) o'rta ta'lim 1–9-sinf.

21. UO'Tning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Bilimlarning zarur hajmini berish, mustaqil fikrlash, tajriba ko'nikmalarini shakllantirish, kasbga yo'naltirish, ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam berish.

22. Ixtisoslashtirilgan maktablar nima uchun tashkil etiladi?

Talabalar qobiliyatini va iste'dodini rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.

23. O'рта-maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari?

Talabalarning kasb-hunarga moyilligi, nazorat va malakalarini chuqurlashtirish.

24. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limining asosiy vazifalari?

UO'T asosida o'qishni tashkil etish bilan kasb-hunar hamda maxsus ma'lumotlar berishdir.

25. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining farqi nimalardan iborat?

Farqi olingan hunar bo'yicha ishlash bilan birga ta'limni navbatdagi bosqichida davom ettirish huquqini berishida.

26. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qish necha yil?

3-yil

27. Oliy ta'limning maqsadi?

Xalq xo'jaligining hamma sohasida ishlash uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

28. Oliy ta'lim qaysi ta'lim asosida amalga oshiriladi?

O'рта-maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi

29. Oliy ta'lim necha bosqichdan iborat?

A) bakalavriat; B) magistratura.

30. Bakalavriatning maqsadi?

Puxta bilim beradigan va kamida 4-yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

31. Magistraturaning maqsadi?

Kamida 2-yil bo'lgan oliy ta'limning keyingi yo'nalishi bo'yicha bilim berishdir.

32. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning maqsadi nima?

Jamiyatning yuqori malakali ilmiy kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat.

33. Oliy ta'lim yurtidan keyingi ta'lim qaysi ta'lim ko'rinishida amalga oshiriladi?

Aspirantura, doktorantura ko'rinishida.

34. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi kim tomonidan belgilanadi?

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zRVM tomonidan amalga oshiriladi.

35. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini kimlar tashkil qilishi mumkin?

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar, sport va boshqa tashkilotlar.

36. O‘zbekistondagi ta’lim muassasalari bitiruvchilariga ta’lim to‘g‘risidagi qanday hujjatlar beriladi?

Shahodatnoma, sertifikat, guvohnoma, diplom kabi hujjatlar.

37. Oilada ta’lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan shaxslarga ta’lim to‘g‘risidagi qanday hujjatlar beriladi?

Hech qanday hujjat berilmaydi, ammo davlat organlari ularga har tomonlama moddiy va ma’naviy yordam berish vakolatini oladi.

38. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish nimalardan iborat?

Taqdim etilgan hujjatlarga asosan turli imtiyozlar, stipendiya, ust-bosh, oziq-ovqat, yotoqxon, qisman yoki to‘laligicha davlat ta’minoti bilan himoyalanaadi.

39. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish:

Belgilangan okladlardan tashqari mustaqil stavkalar, tabaqalashtirilgan ustama haqlar hamda rag‘batlantirishning turli shakllari bilan himoyalanaadi.

40. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolati?

Yagona ta’lim davlat siyosatini ishlab chiqish, dasturlar ishlab chiqish, tashkil etish, akkreditatsiyalash, attestatsiya tartibini belgilash, ta’lim bilan shug‘ullanish ruxsatnomasini berish, xorijiy ta’limlarga tenglashtirish, ta’lim standartlarini tasdiqlash, hujjatlarni tasdiqlash hamda ularni tarqatishni yo‘lga qo‘yish, rektorlarni tayinlash, qabul rejalarini belgilash va shu kabilar.

41. Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli Davlat organlarining huquq doirasiga nimalar kiradi?

Yagona davlat siyosatini ta’minlashni joriy etish, uslub masalalarida rahbarlik qilish, bilim saviyasi, kasb tayyorgarligiga javobgar bo‘lish, yangi uslubiy qo‘llanmalarni ta’limga joriy etish, o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash, nashr etish, ta’lim to‘g‘risidagi Nizomlarni ishlab chiqish va h.k.

42. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari?

Ta’limning ehtiyojlarini ta’minlash, ta’lim muassasalarini tashkil etish, turli imtiyozlar va moliyaviy ehtiyojlarni qondirish, kasb sifatlariga rioya etilishini ta’minlashdan iborat.

43. Ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi munosabatlar?

Ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyatlarini nazorat etib boradi.

44. Ta'lim muassasalarining chet el davlatlari o'quv yurtlari bilan xalqaro hamkorlik aloqalari?

Ta'lim muassasalari chet el davlatlari ta'lim yurtlari bilan belgilab qo'yilgan hujjatlar doirasida hamkorlik qiladilar hamda qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

45. O'zRning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni bilan eskisi o'rtasidagi farqi?

O'quv yurtlarining haq-huquqlari, vakolatlari kengaytirilgan, chet ellar bilan hamkorlik qilishga hamda chet el davlatlari bilan qo'shma o'quv yurtlari tashkil etish vakolatlari berilgan. Bu vakolatlar eskisida yo'q edi.

46. O'zR ta'lim tizimida erishgan darajasi?

Ta'lim tizimida tabaqalashtirilgan ta'lim va oliy ta'limning kengaytirilgan va takomillashtirilgan ixtiyoriy tizimi yo'lga qo'yilgan.

47. Ta'lim tizimidagi kamchiliklar va muammolar?

Malakali kadrlarning yetishmasligi, bilim darajasining pastligi, texnik o'quv bazasining nochorligi, o'quv adabiyotlarining kamligi, ba'zi darsliklarining talabga javob bermasligi, o'quv mashg'ulot binolarining talablarga javob bermasligi kabilar.

48. Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari?

Rivojlanishdagi erishilgan yutuqlar, kamchiliklar va shulardan kelib chiquvchi kadrlar tayyorlashni qayta tuzish quyidagi omillarga tayanadi: Respublikaning huquqiy demokratik yo'ldan borayotgani, iqtisodiyotda tub o'zgarishlarning amalga oshayotgani, mamlakat eksport salohiyatining ortib borayotgani, shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligining qaror topganligi, milliy o'zlikni anglab borilayotganligi, mamlakatning obro'-e'tibori o'sib borayotganligi kabilar.

49. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD)ning maqsad va vazifalari?

1. Kadrlar dunyoqarashini huquqiy jamiyatga moslash.
2. Pedagogik faoliyatning nufuzini ko'tarish.
3. Kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy holda qayta qurish.
4. Tarbiya va ma'rifiy ishlarning samarali usullarini ishlab chiqish.

5. Ta'lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiya qilish, sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy etish.

6. Moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish.

7. Uzlüksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga mablag' ajratishni to'g'ri yo'lga qo'yish.

8. Xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

50. KTMDning bosqichlari?

3 bosqichda: 1) 1997–2001 y. 2) 2001–2005 y. 3) 2005-yil va keyin.

51. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari?

Shaxs, davlat va jamiyat, uzlüksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.

52. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish va rivojlantirish prinsiplari nimalar?

a) ta'limning ustuvorligi;

b) demokratlashuvi;

d) insonparvarligi;

e) ijtimoiyligi;

f) yo'naltirilganligi;

g) ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi;

h) iqtidorli yoshlarning bilim olishlari uchun sharoitlar yaratish.

53. Uzlüksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari?

a) pedagogika bilan bog'liq bo'lgan xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

b) davlat va nodavlat ta'lim tizimini rivojlantirish;

d) ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish va qayta qurish;

e) majburiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga o'tish;

f) yangi tipdagi o'quv muassasalarini ochish;

g) kadrlar tizimining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash;

h) barcha bo'g'inlarda ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini mustahkamlash;

i) ta'limga xolis baho berish tizimini joriy qilish;

j) moliyaviy, moddiy texnika bazasini mustahkamlash;

k) ta'lim berishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish;

l) chet ellar bilan hamkorlikni kengaytirish;

m) iqtisodiy, huquqiy, ekologik, sanitariya va gigiyena ta'lim-tarbiyasini yaxshilash.

54. Uzlüksiz ta'lim tizimining turlari?

1. Maktabgacha.
2. Umumiy o'rta ta'lim.
3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.
4. Oliy ta'lim.
5. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.
6. Malaka oshirish.
7. Maktabdan tashqari ta'lim.

55. Kadrlar tayyorlash tizimida fanning o'rni?

Mamlakatimizda fanning jahon ilm-faniga tenglashuvi sodir bo'lmoqda, kadrlarning xalqaro miqyosda almashinuvi amalga oshirilmoqda.

56. Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari.

Turli kasb malakalariga bo'lgan talablarni raqobatbardosh jahon standarti talablariga tenglashtirish.

57. Miliy kadrlarni tayyorlashda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tutgan o'rni?

Talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda texnika va texnologiya muammolarini hal etish, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini oldinga yetaklovchi omildir.

58. Kadrlar tayyorlash tizimida oliy ta'limning o'rni va mohiyati?

Kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlarining hissasi beqiyos. Oliy o'quv yurtlarigina malakali ixtisosga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga moslashgan.

59. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarishning roli?

Davlatning fan va texnikani rivojlantirish borasidagi ehtiyojlarini faqat oliy ta'lim tayyorlagan kadrlar hisobidan to'ldiriladi.

60. Ta'lim tizimida yaxlit axborot makonini vujudga keltirish degani nima?

Ta'lim tizimida ommaviy axborot vositalarining ma'naviyat va ma'rifat bo'limi ta'lim tizimining erishgan yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida yoritib borish, kamchiliklarni bartaraf etish, yaxlit axborot makonini tashkil etishda komputerashtirish texnologiyasidan foydalanish ko'zda tutiladi.

61. KTMD qanday tashkiliy chora-tadbirlarga asosan ro'yobga chiqariladi?

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimini asosan O'zR ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining negizi, shaxs va jamiyat hamda davlatning

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hisoblanadi. Milliy dasturni ishlab chiqish uchun davlat va jamiyat institutlari jalb etilgan. Malakali chet el ekspertlari, xalqaro tashkilotlar, axborot vositalari, jamoat birlashmalari markazi va aholining keng tabaqalari jalb etiladi.

62. Davlat va nodavlat ta'lim muassasalri orasidagi umumiylik va farq?

Ta'lim-tarbiya berish umumiy belgilab qo'yilgan hujjatalarga asosan olib boriladi, nodavlat ta'lim muassasalari davlat tomonidan tuzilgan dasturdan tashqariga chiqishga haqqi yo'q. Davlat ta'lim muassasasi esa o'z ehtiyoj va imkoniyatlari darajasida ish olib borishga haqli hisoblanadi.

63. O'quv dasturlari va darsliklar necha yilda o'zgarib turishi mumkin?

5-yilda o'zgarib turishi maqsadga muvofiq deb topilgan.

64. Ilg'or pedagogik texnologiya bilan an'anaviy o'qitish texnologiyasi orasidagi farq nimadan iborat?

An'anaviy o'qitish texnologiyasi hozirgi o'qitish usulidan va talablarga qo'yilayotgan ma'naviy va ma'rifiy tomonlar bilan farq qiladi; endi o'qitilmaydi, o'qishni o'rgatiladi.

65. O'quvchilarning bilimini baholashda yangi usullar va ularning an'aviylaridan farqi?

O'quvchilarning an'anaviy usulda bilimini baholash 5 balli sistema bilan qilingan edi, yangi usul reyting tizimida ularning bilimi ko'p ballik sistemada hisoblanadi.

66. Pedagogik tahlilga nimalar kiradi?

Pedagoglarning yoshi, ish faoliyati, 1-yillik ish davri, 1 kunlik va 1 soatlik ish faoliyatini tahlil qilishga aytiladi.

67. Pedagogik jamoaga rahbarlik qilishda qaysi usul samarali hisoblanadi?

Jamoadagi har bir kishining hayoti, intellektual ehtiyojlari, dunyoqarashlarini hisobga olgan holda olib borilsa, samarali bo'ladi.

68. Ta'lim muassasasining Nizomi kim tomonidan tasdiqlanadi?

Nizom O'zRVM tomonidan tasdiqlanadi.

69. Pedagogik xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish qaysi organlarning vakolatiga kiradi?

Oliy va O'rta maxsus ta'limi vazirligining vakolatiga kiradi.

O'zbekiston uchun tinchlikni mustahkamlash borasida qilayotgan siyosatining eng muhim tomonlaridan biri. O'zbekiston davlati va uning xalqi yer yuzida tinchlikni barqaror qilish uchun kurashuvchi davlat sifatida maydonga keldi.

87. NATO bilan hamkorlik qilishiga qanday qaraysiz?

O'zbekiston rahbariyatining NATO bilan hamkorlik qilishdan ko'zlangan maqsadi, yer yuzida tinchlikni saqlash, harbiy bloklarning ishlaridan xabardor bo'lib turish, zarur bo'lganda NATO bilan hamkorlik qilish zarurligi ko'rib o'tiladi.

88. Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar nimalardan iborat?

O'zbekistonni dunyodagi 160 dan ortiq davlat tan oldi. 113 ta davlat bilan hamkorlik qila boshladi, dunyodagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 24-davlat bo'ldi, 60 dan ortiq davlat o'z elchixonasini ochdi, iqtisodiy, siyosiy va mavkuraviy jihatdan o'z yo'liga ega bo'ldi, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi kafolatlanadi, mehnat samaradorligi keskin ortdi, davlat mulkini xususiyashtirish amalga oshdi, har bir mehnatkashning yerga bo'lgan munosabati keskin o'zgardi, ta'lim sohasida hamda iqtisodiyotda islohotlar amalga oshirildi, avlod-ajdodlarning milliy qadriyatlarini qayta tiklandi, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirildi, bozor islohotlari yaxshi olib borilmoqda.

89. Xalqaro siyosiy munosabatlar tushunchasi?

Xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatdorlik va tenglik asosida hamkorlik qilish O'zbekiston siyosiy munosabatlarining asosini tashkil etadi.

90. Konflikt va konsevus tushunchasi?

Konflikt — ziddiyat, qarama-qarashilikni anglatadi, konsevus — ikki tomon uchun ham ma'qul bo'lgan yo'l, kompromis — kelishuv ma'nosini bildiradi.

91. «Siyosiy yetakchilik» nima?

Siyosiy yetakchi kishi yangicha iqtisodiy, siyosiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, yangiliklarga moyil, odamlarga e'tiborli, adolat qonunlariga og'ishmay amal qiluvchi bo'lishi kerak.

92. Milliy manfaatlar va davlat manfaatlari orasidagi munosabat?

Milliy manfaatlar va davlat manfaatlari orasidagi munosabat deganda bu ikki tushuncha orasidagi holat mushtarak bo'lsagina, ziddiyatlar xolis bo'lmaydi.

93. O'zR qaysi mintaqaviy davlatlararo siyosiy va iqtisodiy tashkilotlarga a'zo?

Umumyevropa ittifoqi, EKOSAN, OPEK, Yevropa xavfsizligi ittifoqi, Qo'shilmaslik harakati ittifoqiga a'zo.

94. O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosati asoslari?

Davlat suvereniteti va mustaqilligi g'oyalarga sodiqligi ichki va tashqi siyosatining asosini tashkil qiladi.

95. Mustaqillik tafakkuri nima?

Erkin fikrlash, milliy g'oya, o'zlikni anglash, tarixiy ruh va vatanga fidoyilik tushunchalaridan iborat.

96. Inson ongi va tafakkuridagi o'zgarishlarning sodir bo'lishi qanday omillarga bog'liq?

Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy fikrlash erkinligi davlat boshqarilishiga ishonch hosil qilishdan iborat.

97. Rahbar kadrlarning jamiyatdagi o'rnini qanday tushunasiz?

U qancha tadbirkor, ishbilarmon bo'lsa, boshqarayotgan jamoasi turli muammolarni yechishda nochorlikka yo'l qo'ymaydi.

98. Rahbar kadrlar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

Adolatli, o'z sohasini chuqur biladigan, xushmuomala, kerakli paytda talabchan bo'lishi lozim.

99. Prezident I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ko'tarilgan siyosiy muammolar?

Mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, davlatchilik shovenizmi va millatchilik, millatlararo ziddiyatlar, korruptsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari, ekologik muammolar.

100. Milliy rahbar kadrlar tayyorlash siyosatining maqsadi?

Milliy kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi har bir kadr mafkurasi o'z eli va yurti uchun yashashiga qaratilmog'i zarur.

101. Mafkura deganda nimani tushunasiz?

Bu xalqlarning ruhini, g'ururini, iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini ifodalovchi g'oyalar to'plamidan iborat.

102. Milliylik, millatchilik, o'zbekchilik tushunchalarining ma'nosi.

Milliylik deganida o'zlikni, o'z xalqi milliy qadriyatlari va ma'naviyati, tarixini anglash, ularga sodiqlik tushuniladi. Millatchilik deganda esa bir millatning ikkinchi millat vakili tomonidan tan olmaslik holati tushuniladi, ya'ni bir millat urf-odatlarini, an'analari, marosim,

70. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'limning ustuvorligi, demokratlashuvi, insonparvarligi ijtimoiylashuvi, milliy yo'naltirilganligi, ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yo'lga qo'yish bilan.

71. Pedagogik xodimlar toifasini aniqlashda asosan nimaga e'tibor berish kerak?

A) o'z fanini o'zlashtirgani; B) pedagogik mahorati; V) tajribalarini yaxshi bilishi.

72. Qanday fuqarolar rahbarlik lavozimiga tayinlanishi mumkin emas?

Davlat tilini bilmaydigan fuqarolar rahbarlik lavozimiga tayinlanishi mumkin emas.

73. Ishga tiklash nizomlari bo'yicha murojaat etish muddatlari qanday?

Ishga tiklash nizomlari bo'yicha xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi xaqidagi buyruq nusxasini unga berilganidan keyin.

74. Bajarilgan hujjatlar qancha muddatdan keyin arxivga topshiriladi?

Hujjatlarning amaliy kuchi tugagach.

75. Arizalarning ijro etish muddati qaysi kundan boshlab belgilanadi?

Ariza bergan kundan boshlab bir oy muddat ichida.

76. «Shaxsiy» belgisi bilan kanselyariyaga kelgan xatlarni kim ochishi mumkin?

Korxonahabari yoki rahbar vazifasini bajaruvchi shaxs.

77. O'zR siyosiy tizimi qanday xususiyatlarga ega?

Demokratik, oshkoralik hamda insonparvarlik xususiyatiga ega.

78. Totalitarizm nima, uning siyosiy jihatlari nimalarda ko'rinadi?

Davlat rahbarlarining barcha sohalariga aralashib, ularni siyosiy jihatdan o'z tomoniga bo'ysundirishga qilgan harakatiga totalitarizm deb aytiladi.

79. «Demokratiya» deganda nimani tushunasiz?

Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalq hokimiyati degan ma'no tushuniladi.

80. «Sharqona demokratiya»ning xususiyatlari, uning g'arb demokratiyasidan farqi?

Demokratiya erkinliklar, xalqlarning milliy, irqiy, diniy e'tiqodla-

rini hisobga olgan holda olib boriladigan siyosatga aytiladi. G'arb demokratiyasining bu siyosatdan farqi irqiy, milliy hamda diniy kamsitishlarning mavjudligidadir.

81. «O'tish davri» deganda nimani tushunasiz?

O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tishning asosiy xususiyatlari.

Fuqarolarni siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan demokratik tuzum sari olib kirishi.

82. «Mustaqillik», «Siyosiy mustaqillik», «Iqtisodiy Mustaqillik», «Suverenitet» tushunchalarining ma'nosi va farqi?

«Mustaqillik» har bir davlatning barcha sohalarda biron-bir davlatga qaram bo'lmasligini anglatadi. «Siyosiy mustaqillik» degani boshqa davlatlarga siyosiy yo'nalish bo'yicha qaram bo'lmaslikni bildiradi. «Iqtisodiy Mustaqillik» esa davlatlarning moddiy ehtiyojlarini o'z kuchlari bilan qondirishni anglatadi. «Suverenitet» tushunchasi u yoki bu davlatni to'laqonli tarzda boshqa davlatlar o'rtasida daxlsizligini bildiradi.

83. Siyosiy partiyalar va ularning jamiyatdagi o'rni?

Siyosiy partiyalar jamiyat boshqaruvi tizimida qancha ko'p bo'lsa, davlatni boshqarish shuncha samarador bo'ladi.

84. O'zRda qanday siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyat ko'rsatayapti?

XDP—1991 y. 15. 11. Vatan taraqqiyoti — 1992 y. 21. 05. va Fidokorlar birlashib 2004 y. 14 apreldan Fidokorlar, Milliy tiklanish 1995 y. 25. 05. va O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2004-yildan.

85. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat rivojlani-shining istiqbollari haqida qanday tasavvurga egasiz?

Kuchli milliy davlat, uninig hokimiyat organlari, demokratik institutlar, mehnatsevar xalq, yer osti va usti boyliklari, boy tarixiy va umuminsoniy qadriyatlar huquqiy davlat ravojlanishining asosini tashkil etadi.

86. Xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekiston tashqi siyosatining tutgan o'rni?

O'zbekiston davlati xalqaro munosabatlar tizimida o'zining tashqi siyosati orqali jahonning 160 dan ortiq davlati tomonidan tan olinib, qolaversa, eng nufuzli tashkilot — BMT a'zoligiga qabul etilishi

ekstremistik kayfiyatdagi shaxslarga nisbatan murossasiz bo'lishga chaqirdi. Diniy e'tiqod erkinligi berildi.

117. Oila va mahallaning jamiyatdagi o'rni.

Har bir shaxsning O'zbekiston fuqarosi bo'lib kamolotga yetishi uchun har bir oila va mahalla to'la javobgarligi e'tirof etiladi.

118. O'zbek tilining adabiy tilga aylanishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?

A. Navoiyning «Xamsa» asari birinchi o'zbek tilidagi asardir. Bu o'zbek tilida mukammal asar yaratish mumkinligining isbotidir.

119. Sho'ro davri tarixini o'rganishda qanday tamoyillarga asoslanish kerak?

Sobiq SSSR tarixini o'rganish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) turli millatlarning an'ana, marosim, urf-odatlarlari;

b) har bir millatning o'ziga xos qadriyatlarlari;

d) ma'naviy yutuqlari;

e) ularning qadimdan shakllangan e'tiqodlari va diniy konsepsiyalari;

f) har bir millatning qadimdan shakllangan iqtisodiy ishlab chiqarish usullarini hisobga olish;

g) ijtimoiy, siyosiy dunyoqarash pog'onalari o'rganilishi.

120. O'zbek adabiy tilining taraqqiyotida A. Navoiyning tutgan o'rni.

XIV asrning yarmi XV asrning birinchi yarmida ijod qilgan buyuk alloma A. Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi, chunki Navoiyga qadar o'zbek adabiy tili til sifatida shakllanmagan edi.

121. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qachon qabul qilindi?

1989-yil 21 oktabrda Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Bunga asosiy zaruriyat har bir davlatning mustaqillik shartlari asos qilingan. Izoh: har bir mustaqil davlat eng ko'pchiligini tashkil qilgan millat tilini davlat tili sifatida qabul qilishi shart.

122. O'zbek tilining davlat tili maqomi milliy mafkuramiz va ma'naviyatimiz ravnaqida qanday ahamiyati bor?

O'zbek tilining Davlat tili maqomi qilib olinishi – O'zbekiston xalqining mafkuraviy va ma'naviy jihatdan buyuk millatlar qatorida joy olishining asosiy omili hisoblanadi.

123. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organi qaysi va nimaga asoslanadi?

O‘z-o‘zini boshqarish organlari mahalliy va yoshlar ittifoqi hisoblanadi, chunki bu organlar o‘z-o‘zlarini fuqarolik kodeksiga asoslangan holda boshqaradilar.

124. Qonun ustuvorligini qanday tushunasiz?

Qonun ustuvorligi tushunchasi davlatda har bir fuqaroning millati, dini, e‘tiqodi, jinsi, egallab turgan mavqeidan qat’i nazar hamma uchun bajarilishi shartligini anglatadi.

125. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlari.

Gerb – 1992 y. 2 iyul, madhiya – 1992 y. 10 dekabr, bayroq – 1991 y. 18 noyabr, Konstitutsiya – 1992 y. 8 dekabr.

126. Davlat va hokimiyat organlarining jamiyat va fuqarolar oldidagi mas’uliyatini qanday tushunasiz?

Davlat odamlarining o‘z qobiliyat va boshqaruv salohiyatlarini to‘la namoyon qilishlari hamda barcha imkoniyatlarini ishga solib, huquqiy mexanizmlardan to‘laqonli tarzda foydalanish mas’ulligi tushuniladi.

127. O‘zbekistonda mulkning qanday shakllari bor?

a) davlat mulki, respublika, viloyat, okruglar, ma‘muriy, notarial tuzilmalar mulki;

b) jamoa mulki, xo‘jalik birlashmalari mulklari;

d) qo‘shma korxonalar mulki, xorijiy davlatlar mulki.

128. O‘zRning asosiy qonuni qaysi?

Asosiy qonun Konstitutsiya – 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan.

129. Aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini oshirish deganda nimani tushunasiz?

Fuqarolarning Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda huquq va erkinliklarini bilish va uni amalda qo‘llay olish qobiliyatiga o‘rgatish, huquqiy madaniyat va ongli faoliyatning rivoj topishiga turtki bo‘lishi.

130. O‘zbekistonda davlat hokimiyatining bo‘linishi va tizimi.

O‘zbekiston davlat hokimiyati 3 ga bo‘linadi:

a) Qonun chiqaruvchi – Oliy Majlis;

b) ijro hokimiyati;

d) sud hokimiyati, ichki ishlar, MXX, prokuratura, qurolli kuchlar.

131. O‘zbekiston fuqaroligiga o‘tish tartibi qanday?

16 yoshga to‘lgan, jismoniy sog‘lom, aqliy barkamol, kamida O‘zbe-

e'tiqodlari ikkinchi millat tomonidan tan olinmaydi va oyoqosti qilinadi. O'zbekchilik deganda o'zbek xalqining o'ziga xos noyob fazilatlari, bag'rikengligi, mehmondo'stligi, andishaliligi nazarda tutiladi.

103. O'zbekistonda siyosat va mafkura munosabatlari qanday?

Siyosat va mafkura bir-biridan farq qiluvchi tushunchalardir. Siyosat davlat faoliyatini boshqaruvchi kuch bo'lsa, mafkura xalqning orzu-istaklarini ifodalovchi tushunchadir. Siyosat sho'rolar davrida mafkura ustidan hukmron bo'lgan. O'zbekistonda siyosat bilan mafkura bir-biriga mushtarak holda olib boriladi.

104. Ijtimoiy adolat nima?

Davlatning har bir fuqarosi qaysi millat, qaysi din, irq, qaysi jinsga mansubligidan qat'i nazar hamma sohada teng bo'lishi kerakligi tushuniladi.

105. Milliy ma'naviyatning tayanch nuqtalari?

Ma'naviyatning tayanch nuqtalari — milliy g'urur, milliy an'analar, urf-odat, milliy qadriyatlar tushuniladi.

106. Umumbashariy muammolarga nimalar kiradi?

- a) aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash;
- b) xalqlar tinchligini ta'minlash;
- d) qurollanish poygasini to'xtatish;
- e) ommaviy qirg'in qurollarini yo'qotish;
- f) atrof-muhit musaffoligi muhofazasi;
- g) Orol dengizi muammosi;

h) xavfli kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish muammosi va h.k.

107. Bugungi kunda ma'naviyat sohasidagi eng muhim vazifa nima iborat?

Har bir xalqning madaniy, ma'rifiy boyliklarini kishilar ongiga yetkazish va ularni ma'naviy ong darajasini yuksaltirishdan iborat.

108. O'zR iqtisodiy-ijtimoiy tizimi.

Bozor iqtisodiga o'tish davlat fuqarolarining moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan harakatlar, erkin va demokratik iqtisodiy tizimni xususiy mulkchilikka o'tish yo'li bilan olib borish tamoyillariga asoslanadi.

109. O'tish davri 5 tamoyilini sanang.

1. Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi.
2. Davlat bosh islohotchi.

3. Qonunning ustuvorligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosatning joriy etilishi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

110. «Islohot» nima?

Islohot barcha sohalarda tubdan o'zgartirishlar qilish degani.

111. Bozor iqtisodiyotining belgilarini nimalarda ko'rasiz?

Bozor iqtisodiyotining belgilari odamlarning mehnatga bo'lgan munosabatining keskin ijobiy o'zgaruvida, mulklarning xususiylashuvida, davlat monopoliyasi bilan xususiy ishlab chiqarishning raqobati boshlanuvida, ishlab chiqarishning sifat ko'rinishlarini jahon standartlariga raqobat bera oladigan ko'rsatkichlarga ko'tarilganida va boshqa jihatlarda ko'rish mumkin.

112. Siz ishlayotgan joyda islohotlarni amalga oshirishda qanday qiyinchiliklar yuz bermoqda?

Pedagog kadrlarning mashg'ulotlarni olib borishlarida, yangi ta'limni joriy qilishlarida, davlat mulkiga bo'lgan munosabatlarida, eskicha an'anaviy usublardan voz kecha olmayotganliklarida, yangilikka tomon harakatlari o'ta sustlik bilan borayotganlikda kuzatilmoqda.

113. Tadbirkor va ishbilarmon odamning asosiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

Har bir tadbirkorning asosiy xususiyati — xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy tovar mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilmoqda.

114. Hozirgi zamon boshqaruv ilmida qaysi usullar ma'qul?

- a) iqtisodiy boshqaruv usuli;
- b) ijtimoiy ruhiy boshqaruv;
- d) tashqi-ma'muriy boshqaruv.

115. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlardagi o'rni.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy jihatdan hamkorlik qilishning tashabbuskori bo'lib chiqdi.

116. Mustaqil O'zbekistonning dinga bo'lgan siyosatida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Mustaqil O'zbekiston har bir fuqarosiga uning mansabi, e'tiqodi, irqi va millatidan qat'i nazar dinga bo'lgan munosabatida erkinlik xususiyatini berdi, qolaversa, diniy tashkilotlar mavqeini oshirish hamda

149. Qaysi toifadagi hujjatlar Adliya vazirligida xususiy ekspertizadan o'tkazilishi shart?

Xalqaro munosabatlarni olib borish xususidagi, milliy etnik munosabatlarni yo'lga qo'yish va huquq-tartibot to'g'risidagi hujjatlar Adliya vazirligining xususiy ekspertizasidan o'tkaziladi.

150. I. Karimovning «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» to'plamida qanday g'oya ilgari surilgan?

Oliy, O'rta maxsus va umumta'lim ishlarini isloh qilish hamda kadrlar tayyorlash milliy modelini yaratish masalasini hayotga tatbiq etish kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

151. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

1991-yil 8-dekabr.

152. O'zbekiston Respublikasi qachon BMTga a'zo bo'lgan?

1992-yil 2-mart kuni.

153. O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i kim?

Prezident.

154. O'zbekiston Respublikasida demokratiya qanday prinsiplarga asoslanadi?

Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati prinsiplariga asoslanadi.

155. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy vazifasi nima?

Chiqarilgan qonun va farmonlar ijrosini ta'minlash.

156. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi qachon e'lon qilingan?

1991-yil 31-avgust.

157. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi negiziga qaysi hujjatlar asos qilingan?

Taraqqiy etgan davlatlarning tajribalari, insonparvarlik g'oyalari hamda 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun asos qilib olingan.

158. Marketing tushunchasi nima?

Marketing — bozor holatini o'rganib, oldindan baholash, tovar ishlab chiqarish, sotishni tashkil etib foyda olishga qaratilgan.

159. Menejment tushunchasi nima?

Menejment-bozor talabiga ziyraklik bilan ahamiyat berib, raqobat, kurashuvchanlik xususiyatlarini oshirish, yangilik kirituvchi, erkin bo'lishi tushuniladi.

160. Emissiya tushunchasi nima?

Emissiya – lotincha chaqirmoq ma'nosini anglatadi.

161. Gipper inflyatsiya nima?

G'oyat katta tezlikda pul qadrining tushib ketishi, narx-navoning shiddatli ko'tarilishi tushuniladi.

162. Mehnatga oid munosabatlar qanday hujjatlar bilan tartibga solinadi?

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari, lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

163. Mehnat daftarchasi nima?

Xodimning mehnat faoliyati hamda muddatlarini belgilovchi hujjatlardir.

164. Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan korxonalarda qanday hujjatlar qo'llaniladi?

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli korxonalar va o'sha hududda asos qilib olingan qonunlar qo'llaniladi.

165. Xodimlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan qanday huquqlarga ega?

Mehnat qilish, dam olish, kasb tanlash, malaka oshirish, sog'liqni mustahkamlash, turli uyushmalarga a'zo bo'lish, nafaqa olish, yuridik yordam tanlash huquqlariga ham ega.

166. Mehnat huquqlarini himoya qilish qanday amalga oshiriladi?

Kasaba birlashmasi tashkilotlari hamda xo'jalik sudlari orqali amalga oshiriladi.

167. O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan shaxslar bilan mehnat munosabatlarida qanday hujjatlar qo'llaniladi?

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarda mehnat qonuniga muvofiq ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnoma bo'yicha qabul qilingan hujjatlar qo'llaniladi. Bular quyidagilar:

- a) jamoa shartnomalari;
- b) jamoa kelishuvlari;
- d) lokal normativ hujjatlar.

168. Qonun bo'yicha ish beruvchining asosiy huquqlari nimalardan iborat?

- a) korxonani boshqarish, mustaqil qonunlar qabul qilish;

kistonda 5-yil yashagan har bir shaxs O‘zbekiston fuqarosi bo‘lishi mumkin.

132. Fuqarolik deganda nimani tushunasiz?

Fuqarolik deganda muayyan yashab turgan, davlatning qonunlariga to‘la bo‘ysunadigan va o‘sha davlatning qonuni imtiyozlaridan to‘la foydalana olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

133. O‘zbekistonning davlat tuzilishi qanday?

Viloyatlar, shaharlar, shahar statusi berilgan tumanlar, qishloqlar, ovullar, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

134. O‘zbekistonning davlat boshqaruvi qanday asoslarga qurilgan?

Davlat boshqaruvi Respublika Prezidenti, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari asosida qurilgan.

135. Mahalliy organlar Prezident va Davlat hokimiyati qarorlari va Farmonlari amalga oshiradi.

Xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatlariga rahbarlik qiladilar.

136. Mahalliy vakillik organlari bilan hokimliklarning o‘zaro munosabati?

Mahalliy vakillik organlari va hokimliklar Davlat siyosatini amalga oshirishda bir-birlari bilan o‘zaro yaqinlikda bo‘ladilar va ularning faoliyati bir-birlariga mushtarakligi bilan keskin ajralib turadi.

137. Inson huquqlari bo‘yicha qanday hujjatlar mavjud?

BMTning 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari va erkinliklari Deklaratsiyasi».

138. O‘zRning inson huquqlari milliy markazi qanday faoliyat bilan shug‘ullanadi?

Fuqarolarning huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy nuqtayi nazardan ta‘minlanishi va himoya qilinishini nazorat qilib boradi.

139. Ombudsman nima va bizda qachon tuzilgan?

Ombudsman – inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz O‘zbekiston Prezidenti Farmoni bilan 1996-yil 31-oktabrda tashkil etilgan.

140. Sud hokimiyati nima?

Sud hokimiyati fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya etuvchi organ.

141. Oliy Majlis qanday hujjatlar qabul qiladi?

Qonunlar, qarorlar, ko‘rsatmalar va boshqa hujjatlar.

142. Prezident va uning vakolati nimalardan iborat?

Prezident davlatni iqtisodiy, siyosiy, harbiy, mafkuraviy jihatdan to'laqonli tarzda boshqarish huquqiga ega.

143. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari?

a) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida O'zRning davlat qonuni (1991-y. 19. 11.);

b) O'zR Prezidentining 1994-yil 15-martdagi O'zRda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning yo'nalishlari;

d) «O'zRda mulkchilik to'g'risida»gi Qonun (1990-y. 3-oktabr).

144. Prezident I. Karimovning Afg'oniston va Tojikistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish bo'yicha tashabbuskorligi va uning xalqaro aks sadosi.

Afg'oniston va Tojikistonda tinchlikni barqarorlashtirish borasida Prezident o'zining bir necha fikrlarini dunyo mamlakatlari vakillarining muhokamasiga qo'ydi. Afg'oniston va Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar halokatli oqibatlariga olib kelishini ogohlantirdi. Uning fikr-mulohazalari va takliflari o'ndan ortiq tillarga tarjima etildi. Birgina AQSHda 1998-yil 2-martda qayta nashr etilib, bu taklif va fikrlar Rossiyaning FA diplomi bilan taqdirlandi.

145. O'zbekiston Prezidenti va hukumatining tashqi va ichki siyosatdagi asosiy yo'nalishlari?

Tinchlik, hamkorlik, yadrosiz hududlarni tashkil etish, mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlarini himoya qilish.

146. Ilmiy ish olib boradigan ta'lim muassasalari soliqqa tortiladimi?

Yo'q.

147. Fanni rivojlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash nimaga asoslanadi?

Fanni rivojlantirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'yicha O'zR Prezidentining Farmonlari, VMning qarorlari va O'zR qonunlari.

148. Miliy manfaatlar va davlat manfaatlari orasidagi munosabatlar bir-birlarini qanday to'ldiradi?

Milliy ma'naviyat muayyan millatning ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Davlat manfaati ham muayyan shu talablarga mushtarakdir.

189. Polietnik davlatlarning asosiy belgilari?

Ko'p millatli davlatlarning milliy munosabatlarini olib borishda ishlatiladigan siyosiy strategik ko'rinishlari.

190. Korruptsiyani keltirib chiqaruvchi ijtimoiy ildiz?

Uyushgan jinoyatchilik, jinoiy tuzilmalar, ularga to'g'ridan to'g'ri yordam berishga intilish holatlari korruptsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

191. Korruptsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy strategik yo'nalishlari?

Korruptsiya, ya'ni qonunning jinoiy jihatdan buzilishiga qarshi kurashni murosasizlik bilan olib borishdir.

192. Maballiychilik va urug'-aymoqchilikning salbiy oqibatlari?

Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik jamiyat taraqqiyotiga qo'poruvchilik jihatidan salbiy ta'sirlar ko'rsatadi.

193. Demokratik jamiyat qurishning asosiy talabi?

Demokratik jamiyat qurishdagi asosiy talablar O'zR Konstitutsiyasi, Oliy Majlis, Prezident Farmonlari va VMsi tomonidan qabul qilingan 300 dan ortiq qonun va qarorlarga asoslanadi.

194. Prezident I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida Markaziy Osiyo xalqlarining islomdan oldingi davrlarda shakllangan an'alaridan qaysi birini alohida o'rganish va ommalashtirishni nazarda tutadi?

Islomdan oldingi davrlarda shakllangan diniy kitoblar: Zabur, Tavrot, Injil kitoblarida olg'a surilgan insoniylik, insonparvarlik xususidagi fikrlarni o'rganishni va ommalashtirishni nazarda tutadi.

195. Fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilari?

O'z-o'zini boshqarish, ma'naviy yetuklik va qonun ustuvorligini tan olish.

196. Prezident I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida kichik biznes tushunchasi qanday ta'riflanadi?

Iqtisodiy, siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan tadbirkorlar sinfini tarkib toptirish va ularning yordamida bozorni iste'mol mollari, xizmatlari bilan boyitish lozimligi uqtiriladi.

197. Prezident I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»

asarida siyosiy partiyalar mavjudligining eng asosiy va birdan-bir prinsipi qilib nimalar belgilab berilgan?

Siyosiy partiyalarning birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiviy me'yorlarini hurmatlash va ularga rioya qilishni ta'minlash.

198. O'zbekistonning haqiqiy boyligi nima? degan savolga I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida qanday javob berilgan?

O'zbekiston xalqining haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevarligi, mehmondo'st, saxiy xalqining mavjudligidir.

199. Demokratik islohotlarning huquqiy asoslari?

Konstitutsiya, Prezident farmonlari, Oliy Majlis, VM qabul qilgan qarorlar demokratik islohotlarning huquqiy asoslarini tashkil etadi.

200. O'zbekiston jahonda nechta mamlakatlar bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatgan?

120 dan ortiq.

201. OPEK tashkilotiga oid davlatlar qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?

Iqtisodiy qo'poruvchilikka qarshi faoliyat bilan shug'ullanadi.

202. Bozor munosabatlari qaror topishining xarakterli belgisi?

Xo'jalik yuritishning turlicha bo'lishi.

203. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatning tub mohiyati nimalarda ko'rinadi?

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatning tub mohiyati aholini ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy jihatdan muhofazalashda ko'rinadi.

204. Prezident "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari qilib nimalar belgilangan?

Ma'naviy qadriyatlarni va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, buyuk davlatchilikni shakllantirish va uning mudofaa qudratini mustahkamlash demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantiradi. Bozor munosabatlarini qaror toptirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, inson salohiyatini yanada yuqori darajaga ko'tarish, keng ko'lamdagi hamkorliklarni yo'lga qo'yish

205. Prezident I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"

b) qonun hujjatlariga binoan yakka tartibdagi mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

d) mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bajarilishini xodimdan talab qilish.

169. Xodimlarning manfaatlarini ifoda etish va himoyalash kim tomonidan amalga oshiriladi?

Kasaba tashkiloti vakillik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

170. Xodimlar vakillik organlarining huquqlari nimalardan iborat?

Rahbar bilan kelishuvlar, muzokaralar olib borish, jamoa shartnomalarini tuzish, ularning bajarilishini nazorat etish, mehnat nizolarini hal etish hamda mehnat to'g'risidagi qonun rahbar tomonidan buzilsa, sudga shikoyat qilish, sud orqali hal qilish

171. Xodimlar bilan mehnat shartnomasi necha yilga tuziladi?

1-yildan 3-yilga qadar.

172. Korxonaga qayta tashkil etilganda jamoa shartnomasi o'z kuchini saqlab qoladimi?

Ha

173. Korxonaga mulkning egasi o'zgarsa, jamoa shartnomasi o'z kuchida qoladimi?

Ha, 6 oygacha o'z kuchida qoladi.

174. Ish beruvchilarning huquqlarini qaysi organ himoya qiladi?

Ish beruvchilarning huquqlarini viloyat, shahar, qishloq yoki tuman kasaba tashkiloti va mehnat kodeksi himoya qiladi.

175. Jamoa shartnomasi va Jamoa kelishuvi tushunchalari nima?

Jamoa shartnomasi ishga yollovchi va yollanuvchi xodimlar o'rtasidagi kasbiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy hujjat. Jamoa kelishuvi esa mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy kafolatlash borasida tuziluvchi hujjatdir.

176. Jamoa shartnomasida qanday masalalar bo'yicha o'zaro majburiyatlar kiritilish mumkin?

Mehnatga haq to'lash, pul mukofotlari, nafaqalar, qo'shimcha to'lovlar, inflyatsiya darajasini hisobga olish, ish bilan ta'minlash, qayta o'qitish, mehnat ta'tillari, dam olishni joriy etish, ish vaqtini belgilash, mehnat muhofazasini ta'minlash, xodimlar manfaatlarini himoyalash.

117. Jamoa kelishuvlari qanday turlarda tuziladi?

Jamoa kelishuvlari o'z xususiyatlariga qarab tarmoq va hududiy kelishuvlar tarzida bo'lishi mumkin.

178. Fuqarolar necha yoshdan ishga qabul qilinishlari mumkin?

16 yoshdan.

179. Ishsiz deb e'tirof etilish necha yoshdan boshlanadi?

16 yoshdan to pensiya yoshiga qadar.

180. Qanday toifadagi xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozim?

Mehnat kodeksining 282-moddasiga binoan barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozim.

181. Davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan beriluvchi ta'minot turlari nimalardan iborat?

Davlat ijtimoiy sug'urtasiga asosan vaqtincha mehnat faoliyatini yo'qotganlar, nogironlar, urush qatnashchilari, nafaqaxo'rlar, homilador va tug'ish davri sug'urtaga olinadi.

182. O'zbekiston fuqarolarining pensiya ta'minoti qanday?

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida ta'kidlab o'tilganidek, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tashkil etadi.

183. XXI asr xalqaro kuchlar nisbatining tubdan o'zgarishi deganda asosan nimalarga e'tibor berish kerak?

Sotsialistik lagerning parchalanishi, ko'plab demokratik davlatlarning tashkil topishi tushuniladi.

184. Mamlakatimiz xavfsizligiga tahdid solib turuvchi tashqi xavf-xatarlar nimalardan iborat?

Mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm, narkobiznes, etnik murosasizlik kabilar.

185. Mamlakat barqarorligining asosiy shartlari?

6 ta sharti bor: milliy qadriyatlarni tiklash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish, aholini ijtimoiy himoyalash, mulkdor sinfni shakllantirish, jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.

186. Diniy ekstremizm nima?

Dindan buzg'unchilik yo'lida foydalanishga o'rganish.

187. Islom fundamentalizmi tushunchasi nima?

Sof islom shariati qonunlarini tatbiq etishga urinish.

188. Shovinizmning asosiy shakllari nimalardan iborat?

Ko'p sonli millatning ko'pmillatli davlat yoki imperiya doirasida mutlaq hukmdorlik qilishiga intilishi aytiladi.

asarida taraqqiyot kafolatlari qaysi omillarda alohida to'xtalgan edi?

Kuchli ijtimoiy siyosat, inson faolligini oshirish, boy resurslarni strategik jihatdan asrash kabilar.

206. Aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash respublikada qanday muhim vazifalarni hal etishga bog'liq deb bilasiz?

Ijtimoiy himoyalash respublikada eng muhim vazifalarni hal etishning omili bo'lib hisoblanadi.

207. Depozit nima?

Omonat, asrab qo'yilgan degan ma'noni bildiradi.

208. Jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasiga keng ko'lamda integratsiyalashuvi, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kirilishi uchun qanday huquqiy asoslar yaratilgan?

Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida xorijiy investitsiyalar va investrlar faoliyatini kafolatlash to'g'risidagi qonunlar huquqiy asos vazifasini bajaradi va Respublika iqtisodiyoti rivojiga ko'maklashadi.

209. Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiya o'zining qanday xususiyatlari bilan boshqa xalqaro inegratsiyalardan ajralib turadi?

Bu integratsiya o'z mohiyatiga ko'ra mintaqada yashovchi xalqlarni madaniyati, tili va ma'naviy birligi hamda uning huquqiy va siyosiy jihatidan ajralib turadi.

210. Islom dini O'rta Osiyoga qachon kirib kelgan?

XVII asr 1-yarmida kirib kelgan.

211. O'zbekistonda nechta diniy konfessiya vakillari bor?

Pravoslaviya, iudaizm, katolitsizm, vaptizm, adventizm kabi 10 tadan ortiq diniy konfessiya bor.

212. Dinda buzg'unchilik yo'lida foydalanmaslik fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

3-moddasida.

213. Dunyoda madaniy va ma'rifiy qadriyatlarga ega bo'lgan etnik guruhlar soni nechta?

2 mingdan ortiq.

214. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlari 1993-yilning martida Orol dengizi muammosini hal etish uchun qayerda bitim imzolashgan?

Qizil O'rda shahrida (Qozog'iston).

215. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlari 1994-yil yanvarda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun 3–5-yilga mo‘ljallangan dasturni qaysi shaharda tasdiqladilar?

Nukusda (Qaraqolpog‘istonda).

216. Orol masalasi bo‘yicha davlatlararo kengash dasturining bajarilishi hisoboti qayerda va qachon bo‘lgan?

1994-yil martda Toshhovuz shahrida (Turkmaniston).

217. Markaziy Osiyo davlatlari BMT, Jahon banki va boshqa tashkilotlar ishtirokida Orolni qutqarish ijroyi qo‘mitasi qachon tuzilgan?

1997-yil fevral.

218. O‘zbekiston qachon MDH mamlakatlari davlatlararo ekologiya kengashining a‘zosi bo‘lgan?

1992-yil 8 fevral.

219. Oliy Majlis qanday organ?

Qonun chiqaruvchi organ.

220. O‘zbekiston NATOning Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik dasturiga qachon qo‘shildi?

1992-yil fevral oyida.

221. Jamiyatda demokratiya qanday darajada rivojlanganligini belgilovchi mezonlar?

So‘z erkinligi, matbuot, diniy erkinliklar va e‘tiqod erkinligi.

222. Qaysi yilda va qayerda respublikamiz hududida neft koni ochilgan?

1993-yil Namangan viloyatining Mingbulog‘ida.

223. O‘zbekistonda nechta davlat elchixonasi bor?

55 ta.

224. O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishda qaysi mamlakatlarning modeliga amal qilmoqda?

O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy tamoyili bo‘yicha mustaqil davlatlarning tajribasiga tayanib o‘ziga xos o‘tish yo‘lini tanlab olgan. Bu borada biron mamlakatning xususiy jihatdan o‘tish yo‘li tanlab olinmagan.

225. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari (DTS)?

O‘quvchilar umumta‘lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

226. «Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi» tan-

lovini ta'sis etishda qaysi tashkilot ishtirok etmaydi?

«O'qituvchi» nashriyoti.

227. **“Ma’naviyat” so‘zining ma’nosi nima?**

Insoniylikka yo‘l.

228. **“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasi yaratilishi sabablarini ko‘rsating.**

Kelajakda buyuk davlat qurish maqsadida xalqni, jamiyatni bir-lashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi, bamisoli bir bayroqning kerakligi natijasida.

229. **XV asrning birinchi yarmida «Dorul ilm» akademiyasi qayerda tashkil topgan?**

Bag‘dodda.

230. **Jahon Tinchlik kengashinnng oliy organini ko‘rsating?**

Sammit.

231. **Milliy qadriyat nima?**

Millatning moddiy va ma’naviy yutuqlari, millatning o‘tmishi, hoziri va kelajagi.

232. **Siyosiy sohadagi asosiy vazifa?**

Davlat vazifalarini nodavlat va fuqarolarni o‘z-o‘zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish.

233. **Ezgulikka intiluvchi jamiyat mafkurasi nimaga asoslanadi?**

Ilmiy-texnikaviy kashfiyot va iqtisodiy imkoniyatlarga.

234. **Ta’lim muassasalarida ta’lim berish tilidan foydalanish qanday tartibga solinadi?**

«Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun asosida.

235. **Har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi qanday ta’minlanadi?**

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun asosida.

236. **Respublikada ta’lim to‘g‘risidagi xalqaro shartnoma qoidala-ri qachon qo‘llanadi?**

Xalqaro shartnomada “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlaridagi-dan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa.

237. **Ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kimning vakolat doirasiga kiradi?**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining.

238. **Ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash kimning vakolat doirasiga kiradi?**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining.

239. Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish kimning huquq doiralariga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirligining.

240. Ta'lim oluvchilarning yakuniy attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash kimning huquq doiralariga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirligining.

241. Pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish kimning huquq doiralariga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus va Xalq ta'limi vazirligining.

242. Ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish hamda ularning Nizomini ro'yxatdan o'tkazish kimning vakolat doirasiga kiradi?

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining.

243. Hududlardagi ta'lim muassasalarini moliyalash va imtiyozlarini belgilash kimning vakolat doirasiga kiradi?

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining.

244. Umumiy o'rta, maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari attestatsiyasi komissiyalari ishini muvofiqlashtirish va nazorat etish kimning zimmasiga yuklatilgan?

Davlat test markazi tarkibidagi attestatsiya boshqarmasining zimmasiga yuklatilgan.

245. Bolalar va o'smirlar sport maktablari respublika ta'lim turlarining qaysi biriga kiradi?

Maktabdan tashqari ta'lim.

246. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan musiqa maktablari qanday ta'lim turiga kiradi?

Maktabdan tashqari ta'lim.

247. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibini belgilash kimning vakolat doirasiga kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining.

248. Oila sharoitida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash qanday dastur asosida amalga oshiriladi?

Qisqartirilgan va ixchamlashtirilgan alohida, maxsus dastur asosida.
249. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qanday davlat hujjatiga muvofiq tayyorlangan?**

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq.

250. **Kadrlar tayyorlash tizimining asosi?**

Uzluksiz ta'lim.

251. **Ta'limning ustuvorligi, demokratlashuvi, insonparvarlashuvi, ijtimoiylashuvi?**

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari.

252. **Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?**

Mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etish.

253. **Dasturda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun birinchidan nimani amalga oshirish ko'zda tutilgan?**

Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash.

254. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturida umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun birinchi navbatda nimani bajarish zarur deb topilgan?**

Maktabning I–IX sinflari doirasida davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish hamda akademik litsey va kollejlardan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlikni hisobga olish.

255. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon va qayerda tasdiqlangan?**

1997-yil 29 avgustda O'zR Oliy Majlis qarori bilan tasdiqlangan.

256. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalarni necha bosqichda ro'yobga chiqariladi?**

Uch bosqichda.

257. **Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning omillari nimalardan iborat?**

Demokratik huquqiy davlat qurish, iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish, shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi, milliy o'zlikni anglash.

258. **Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?**

Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.

259. **Oliy ta'lim necha bosqichda amalga oshiriladi?**
2 bosqichda.
260. **Tegishli bosqichdagi ta'limni tugallamagan shaxslarga qanday hujjat beriladi?**
Ma'lumotnoma.
261. **Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi nima?**
O'qishga tayyorlash.
262. **Maktabgacha ta'lim qayerda amalga oshiriladi?**
Bolalar bog'chasida, oilada, mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida.
263. **Pedagog xodimlarga qanday imtiyozlar beriladi?**
Ish vaqtining qisqartirilgani, haqi to'lanadigan yillik uzaytirilgan ta'til, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar.
264. **Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish va-kolati kimga berilgan?**
Vazirlar Mahkamasiga.
265. **Ta'limni moliyalash qanday amalga oshiriladi?**
Respublika budjetidan va mahalliy budjetdan, budjetdan tashqari mablag'lardan.
266. **O'zbekiston Respublikasida qancha ta'lim turi mavjud?**
Yettita.
267. **Umumiy o'rta ta'lim necha bosqichdan iborat?**
Ikki bosqichdan.
268. **Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun nima qilish kerak?**
Ixtisoslashgan maktab tashkil qilish kerak.
269. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi qaysi yillarni o'z ichiga oladi?**
1997–2001-yillarni.
270. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichi qaysi yillarni o'z ichiga oladi?**
2001–2005-yillarni.
271. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning uchinchi bosqichi qaysi yillarni o'z ichiga oladi?**
2005 va undan keyingi yillar.
272. **Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?**

Mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini joriy etishdan iborat.

273. Umumiy o‘rta ta‘lim olish muddati necha yildan iborat?

9-yil.

274. Umumiy o‘rta ta‘lim tugallanganidan keyin qanday hujjat beriladi?

Shahodatnoma.

275. Davlat ta‘lim standartlari kim tomonidan tasdiqlanadi?

Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

276. Ta‘lim muassasasining rahbarlari davlat attestatsiyasini o‘tkazishdan qancha vaqt oldin ogohlantirilishi lozim?

Bir oy oldin.

277. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari davlat attestatsiyasini o‘tkazish ekspert guruhi kim tomonidan tashkil etiladi?

Tuman hokimiyati tomonidan.

278. Ta‘lim muassasalarining Davlat attestatsiyasi davriyligini ko‘rsating?

Besh yilda.

279. Ta‘lim muassasasi attestatsiyadan shartli o‘tgan taqdirda qancha vaqtdan keyin qayta attestatsiya o‘gkazilishi mumkin?

6 oydan so‘ng.

280. «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunda ko‘rsatilgan ta‘lim turlari nechta?

7 ta.

281. Milliy istiqlool mafkurasining bosh g‘oyasi?

Insonparvarlik.

282. Ta‘lim muassasasi attestatsiyasi tartibini kim belgilaydi?

Vazirlar Mahkamasi.

283. Ta‘lim boshqaruv organlarining vakolat doirasi qaysi hujjatga muvofiq belgilanadi?

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq.

284. Ta‘lim muassasalarida ta‘lim berish davlat tilidan foydalanish tartibi qanday hujjat bilan tartibga solinadi?

«Davlat tili haqida»gi Qonun asosida.

285. Davlat ta‘lim standartini qaysi ta‘lim muassasalari bajarishi lozim?

Oliy ta‘lim muassasalari, Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari.

286. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi?

Yagona va uzluksizdir.

287. Nodavlat ta'lim muassasalari qachon yuridik shaxs maqomida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi?

Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgandan boshlab.

288. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi kimlarga beriladi?

Tegishli ma'lumoti bor, yuksak axloqiy fazilatga ega shaxslarga.

289. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga qaysi holda yo'l qo'yilmaydi?

Sud hukmiga asosan.

290. Ta'lim muassasalari... faoliyat ko'rsatadi?

Nizom asosida.

291. Davlat ta'lim standartlari qanday talablarni belgilaydi?

Ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni belgilaydi.

292. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash nimalarni ta'minlaydi?

Bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtiradi va yangilaydi.

293. Oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga kim ko'maklashadi?

Davlat.

294. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning maqsadi nimadan iborat?

Fuqarolarning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan.

295. Bilim olish huquqi kimlarga berilgan?

O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar barchaga.

296. Boshqa davlat fuqarolari qanday holatda bilim olishi mumkin?

Xalqaro shartnomalarga muvofiq.

297. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

Davlat organi tomonidan o'tkazilgan attestatsiya xulosasiga asosan.

298. Ta'lim muassasasi qanday hujjat asosida faoliyat ko'rsatadi?

Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida.

299. Ta'lim muassasasi pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishi mumkinmi?

Nizomda ko'rsatilgan bo'lsa.

300. Oilada va mustaqil ravishda ta'lim olish nima asosida amalga oshiriladi?

Tegishli davlat ta'lim muassasalarining dasturlari asosida.

301. Qanday ta'lim muassasasi o'z bitiruvchilariga olgan ma'lumoti to'g'risidagi hujjat bera oladi?

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasasi.

302. Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati qaysi vaqtda to'xtatib qo'yiladi?

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni buzganda.

303. Nodavlat ta'lim muassasasining faoliyati kim tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin?

Akkreditatsiya qilgan organ tomonidan.

304. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash qanday amalga oshiriladi?

Respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan.

305. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

Vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilgan attestatsiya xulosasiga asosan.

306. Kimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor shaxslar, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar.

307. Davlat ta'lim standartlari... belgilaydi?

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talabni.

308. Boshlang'ich ta'lim?

Umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asosini shakllantirishga qaratilgan.

309. Maktabdan tashqari ta'lim muassasasini tashkil etishdan maqsad nima?

O'quvchi yoshlar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, o'quvchilar bo'sh vaqtini tashkil qilish.

310. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini aniqlang?

O'smirlar ijodiyot saroylari, klub, sport maktablari, musiqa maktablari.

311. Oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan shaxslarga kim tomonidan hujjat beriladi?

Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasasi tomonidan.

312. Oilada ta'lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan shaxslarga Davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat beriladimi?

Tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha eksternat tartibida imtihon topshirgan shaxslarga beriladi.

313. Ta'lim muassasasini kim boshqaradi?

Uning rahbari.

314. Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, uning tuzilmasini takomillashtirish vazifasini hal qilish uchun nima qilish kerak?

Ta'lim berish va kamol toptirish hamda xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish, jahondagi ilg'or tajribani egallash, dasturlar ishlab chiqish, o'quvchilar bo'sh vaqtini unumli tashkil qilish kerak.

315. Pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida nima qilinadi?

Mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

316. Ta'limning yangi, uzluksiz va izchil tizimini aniqlang?

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.

317. Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining tarkibiy jihatdan rivojlanishi kim tomonidan boshqariladi?

Davlat yo'li bilan boshqariladi.

318. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplariga nimalar kiradi?

Ta'limning ustuvorligi, ta'limning insonparvarlashuvi.

319. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan shaxsning roli?

Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

320. Milliy dasturning II bosqichi qaysi yillarga mo'ljallangan?

2001–2005-yillarga.

321. Milliy dasturning maqsadi?

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, mafkuraviy sarqitlardan to'la

xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish.

322. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning maqsadi?

Kasb bilimlarini va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, yangilash.

323. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari kimlar tomonidan tashkil etiladi?

Yuridik va jismoniy shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan.

324. Maktabdan tashqari ta'lim qanday yo'nalishda tashkil etiladi?

Texnikaviy, sport yo'nalishida.

325. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi kim tomonidan belgilanadi?

Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

326. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi necha yilga mo'ljallangan? 3-yilga.

327. Ta'lim muassasasi qanday hollarda akkreditatsiyadan mahrum etiladi?

Attestatsiya natijalariga binoan.

328. Ta'lim muassasasi qanday hujjat asosida faoliyat ko'rsatadi? Nizom asosida.

329. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining asosiy maqsadi?

Fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlaydi.

330. Milliy pedagogika asoschilaridan biri?

Avloniy.

331. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga nimalar kirmagan?

O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarini, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish.

332. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolati kimga berilgan?

Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasiga.

333. Milliy dasturning I bosqichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifa?

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

334. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari?

Boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim.

335. O'zbekiston Respublikasida ta'lim nechta turdan iborat?

7 turdan.

336. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi tarkibini aniqlang?

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, Ta'lim tizimi bilan bog'liq tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar.

337. Bolalar va o'quvchi yoshlar sog'lig'ini himoyalash dasturi qaysi yo'nalishga kiradi?

Ta'lim-tarbiyaviy yo'nalishga kiradi.

338. Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan ishlash dasturi qaysi yo'nalishga kiradi?

Ta'lim-tarbiya yo'nalishiga.

339. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiga kirmaydigan javobni toping?

Din.

340. "Ma'naviyat va ma'rifat" dasturini amalga oshirishda kimlar ishtirok etadi?

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari.

341. Kadrlar tayyorlash tizimida shaxsning o'rni va ahamiyati, huquq va burchlari qaysi hujjatda mustahkamlangan?

Oliy Majlis qarorida.

342. Milliy dasturning tatbiq etilishidan ko'zlangan asosiy natija?

Shaxsning yuqori malakali raqobatbardosh bo'lishi.

343. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish fondlari qanday shakllantiriladi?

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy (shu jumladan, chet ellik) shaxslar hisobiga.

344. "Fikr qaramligi, tafakkur qulligi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham dahshatliroqdir". Ushbu so'zlar kimning qalamiga mansub?

I. Karimovning.

345. **«Avesto» haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang?**

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.

346. **«Amaliy mehnat» mashg‘ulotlari 8-sinfda necha kunni tashkil etadi?**

16 kun.

347. **«Amaliy mehnat» mashg‘ulotlari 5-sinfda necha kunni tashkil etadi?**

6 kun.

348. **«Amaliy mehnat» mashg‘ulotlari 7-sinfda necha kunni tashkil etadi?**

10 kun.

349. **«Amaliy mehnat» mashg‘ulotlari 9-sinfda necha kunni tashkil etadi?**

10 kun.

350. **«Amaliy mehnat» mashg‘ulotlari 6-sinfda necha kunni tashkil etadi?**

6 kun.

351. **«Davlat va huquq asoslari» fani qaysi sinflarda o‘qitiladi?**

8–9-sinflarda.

352. **«Qobusnoma»ning muallifi kim?**

Kaykovus.

353. **«Kuch – adolatdadur» degan so‘zlar yozilgan tuzukni Sohib-qironga kim sovg‘a qilgan?**

Shayxul islom Zayniddin Toyobodiy.

354. **«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasining nazariy-amaliy yo‘nalishlari kim tomonidan asoslab berildi?**

Islom Karimov tomonidan.

355. **«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fani oldida turgan asosiy vazifalar?**

Imon-e‘tiqodi mustahkam, dunyoni chuqur anglaydigan, davr taraqqiyoti bilan hamqadam, erkin, ijodkor shaxsni shakllantirish.

356. **«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanining asosiy maqsadi nima?**

Yoshlarni eski mafkuraviy asoratlardan xalos qilish, yoshlar ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik.

357. **«Milliy istiqlol mafkurasi» tushunchasini izohlab bering?**

Umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazish, vatanga muhabbat va insonparvarlik hissi, halollik va adolat tuyg'usini har bir shaxs qalbiga singdirish, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilish.

358. «Milliy qiyofa» tushunchasining ichki mazmuni nima bilan belgilanadi?

Milliy ong, milliy ma'naviyat, milliy ruh, milliy mazmun.

359. «Oila kodeksi» qachon qabul qilingan?

1998-yilda.

360. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi ta'lim amaliyotida qanday ierarxik darajalarda ishlatiladi?

Umumpedagogik (umumdidaktik), xususiy metodik, lokal (modulli) darajalarda.

361. «Turkiston – umumiy uyimiz» g'oyasini Markaziy Osiyo davlatlaridan qaysi biri olg'a surgan?

O'zbekiston.

362. 2002–2003 o'quv yilida umumiy o'rta ta'limning DTS qaysi sinflarda joriy etildi?

9-sinflarda.

363. 9-sinf bitiruvchisi «Davlat va huquq asoslari»ga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarning qaysi biriga ega bo'lishi lozim?

Axloq va huquqning o'zaro bog'liqligi va tafovutlarini bilish.

364. II Chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida I. Karimov qanday mavzuda ma'ruza qildi?

«O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» mavzusida.

365. XV asrda O'rta Osiyoda madaniyat va san'at ahliga rahnamolik va homiylik qilgan mutafakkirni aniqlang?

A. Navoiy.

366. Avloddan avlodga o'gib kelayotgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlarning umumlashgan talablari nima?

Axloq.

367. Amaliy bilim deganda nima tushuniladi?

U yoki bu nazariy holatlarni tushuntiruvchi, aniqlashtiruvchi dalillarni, misollarni, illyustratsiyalarni bilish tushuniladi.

368. Amir Temur qurdirgan Oqsaroy binosi qaysi shaharda joylashgan?

Shahrisabzda.

369. Axborot texnologiyasida qanday o'quv asboblardan foydalaniladi?

Komputer texnikasidan.

370. Aholining ma'naviy rivojlanish tizimida mahalla qanday mavqe egallaydi?

Siyosiy boshqaruv vazifasini bajaradi.

371. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar qaysi allomalarning asarlarida teran ifoda topgan?

Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy.

372. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?

Mustaqil, huquqiy, demokratik.

373. Bizning bosh strategik maqsadimiz nima?

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

374. Bizning bosh strategik maqsadimiz qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etish.

375. Bir soatlik dars nima asosida ishlab chiqiladi?

O'quv reja va dastur asosida.

376. Bozor sharoitida sog'lom raqobat ruhining qaror topishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratish muhim?

Zarur va hammaga barobar bo'lgan shart-sharoitlar yaratish muhim.

377. Bozor iqtisodiyoti sharoitida halol raqobat asosida faoliyat olib borish uchun zarur shart-sharoit qaysi ijtimoiy institut tomonidan ta'minlanadi?

Davlat tomonidan.

378. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday?

Dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchliroq bo'layotgan davr.

379. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik xavfi nimadan iborat?

Yirik davlatlar va ko'p sonli millatlarning atrofda mamlakatlarga o'z hukmronligi, zo'ravonligi bilan tahdid solishidan.

380. Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlarini ko'rsating?

Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish.

381. Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi qarorining maqsadi nimadan iborat?

Uzluksiz ta'lim tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv-uslubiy adabiyotlar majmui bilan ta'minlashni takomillashtirish, mu-kammal darsliklar chiqarish maqsadida yetuk olimlarni, yuqori mala-kali mutaxassislarni jalb qilish.

382. Voyaga yetmaganlar necha yoshdan jinoiy javobgarlikka tor-tiladi?

13 yoshdan.

383. G'arazli shaxslar islom dinidan qanday siyosiy maqsadni amalga oshirishda foydalanmoqchilar?

Hokimiyatni qo'lga olish maqsadida.

384. Geopolitik maqsadlar nimalardan iborat?

Muayyan davlatning o'z mavqei va ta'sirini o'zga hudud va mintaqalarda kuchaytirishga qaratilgan siyosat.

385. G'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablar?

Davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohadagi qoniqarsiz faoliyati, ijtimoiy fanlarni o'qitishning davr talablaridan orqada qolganligi, jamiyat xayotida ro'y berayotgan murakkab o'zgarishlarning o'z vaqtida ilmiy yechimga ega bo'lmaganligi.

386. Davlat mafkurasi darajasiga qanday mafkura ko'tarilishi kerak?

Hech qanday mafkura davlat mafkurasiga aylanmasligi kerak.

387. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda qaysi hujjatlar asos qilib olinganligini aniqlang?

Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13 maydagi 203-sonli qarori.

388. DTS quyidagi prinsiplarning qaysilariga asoslangan holda ishlab chiqildi?

DTSning davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi, ta'lim mazmunining barcha hududlarda birligi va yaxlitligi.

389. Umumiy o'rta ta'lim qaysi bosqichlardan iborat?

Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlaridan.

390. DTSning ishlab chiqish prinsipi bo'lmagan javobni aniqlang?

O'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini belgilaydi.

391. Davlat ta'lim standartlari qaysi prinsipga asoslangan holda ishlab chiqilgan?

O'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi.

392. Milliy g'oya nima?

Muayyan xalq yoki millatning manfaatlarini ifoda etadigan, yagona maqsad sari undovchi ezgu fikrlar majmui.

393. Milliy mafkura nima?

Xalqni olg'a yetaklovchi ezgu fikrlar majmui.

394. Milliy mafkurani shakllantirish manbayi?

Ma'naviyat.

395. G'oya tushunchasi..?

Inson tafakkuri mahsuli.

396. Mafkuraviy g'oyalarning yaratilishida aholining qaysi qatlam alohida o'rin tutadi?

Buyuk mutafakkirlar.

397. Diniy mafkura sanalgan mafkuralar nomini aniqlang?

Iudaizm, sintoizm.

398. Bir millatni o'zga millatlardan ustun qo'yishga undovchi ta'limot?

Shovinizm.

399. «Mafkuraviy poligon» tushunchasi mohiyatini aniqlang?

Muayyan mafkura g'oyalaridan g'arazli maqsadlarda foydalanish, kishilar ongiga hukmronlik qilish, ularni qo'rquvda ushlab turish.

400. Davlat funksiyalari deganda nimani tushunasiz?

Davlatning mohiyatini va maqsadini ochib beruvchi ichki va tashqi siyosatdagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

401. Davlat ta'lim standartlari nima?

Ta'lim mazmunining o'zagi.

402. Darsliklarni tayyorlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik kimning zimmasiga yuklatilgan?

Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining zimmasiga.

403. Demokratik davlatning o'tish davridagi eng muhim vazifasini belgilang?

Jamoatchilik fikriga keng yo'l ochish.

404. Demokratiyaning muhim belgilarini ko'rsating?

Saylovlar, ko'p partiyaviylik, tenglik, so'z va matbuot erkinligi.

405. DTS umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari umum-ta'lim tayyorgarligi va saviyasiga qanday talablarni belgilaydi?

Minimal.

406. DTS qanday tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgan?

Davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi, o'quv dasturlari mazmunining jamiyat taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlani-shi bilan bog'liqligi, ta'lim uzluksizligi, ta'lim mazmunining insonparvarligi, hududiy birligi va yaxlitligi va h.k.

407. DTSni bajarish?

Mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

408. DTSning asosiy vazifasi nimadan iborat?

Ta'lim sifatini ta'minlash.

409. DTSning komponentlari qaysi juhlada to'g'ri keltirilgan?

DTS – o'quv reja – o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan minimal talablar – dastur – darslik – qo'llanma.

410. DTSning tayanch o'quv rejasiga ko'ra «Kimyo» fani qaysi sinflarda o'qitiladi?

7-, 8-, 9-sinflarda.

411. DTSning tayanch o'quv rejasiga ko'ra «Chet tili» fani qaysi sinfdan boshlab o'qitiladi?

5-sinfdan.

412. Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralar?

Buyuk davlatchilik gegeonizmi.

413. Yetim bolalarni va ota-onalarining qarovisiz qolgan bolalarni o'qitish qanday amalga oshiriladi?

Davlatning to'la ta'minoti asosida.

414. Yoshlarni tarbiyalashda «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanining o'rni va ahamiyati qanday?

Dunyoda globallashuv jarayoni borayotgan hozirgi sharoitda sog'lom dunyoqarashli yoshlarni tarbiyalashning o'rni beqiyosligi, milliy g'urur tuyg'usi va g'oyaviy immunitetga ega bo'lgan barkamol avlodni

voyaga yetkazish ahamiyatli ekanligi, o'quvchi yoshlarni jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi etib tarbiyalashning o'rni va ahamiyati beqiyosligi.

415. Jazolar mehnat daftarchasiga yoziladimi?

Yo'q.

416. Jamiyat taraqqiyotining o'zbek modeli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Jamiyat hayotini isloh qilishning besh tamoyili.

417. Zangiota (Otaxo'ja ibn Toshxo'ja, vafoti 1258-yil) kimning piri bo'lgan?

Xoja Ahmad Yassaviyning.

418. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba qanday ataladi?

Elektron o'quv adabiyoti.

419. I. Karimov Amir Temurning "Kuch – adolatda" degan mashhur ta'birini bugungi kunga nisbatan qo'llab aytgan ta'birini ko'rsating.

«Kuch – bilim va tafakkurda».

420. I.A. Karimov O'zbekistonning milliy siyosatini amalga oshirishda qanday qoidalarga amal qilish kerakligini aytgan?

Davlatning etnik siyosati shaxs huquqlarini himoya qilishda ustuvor bo'lishi, davlatning etnik siyosatidagi bosh yo'l millatlararo ziddiyatlarni amaliy hal qiladigan usullarga asoslanishi kerak, jamiyatimizning bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy taraqqiyoti respublikada yashayotgan barcha millatlarning manfaatlariga mos bo'lishi kerak.

421. I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asarining tarkibiy qismlarini aniqlang.

Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.

422. I. Karimovning O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi muxbiri savollariga bergan javoblarida ko'tarilgan dolzarb masala?

Respublikadagi siyosiy vaziyat, diniy ekstremizm, yoshlar tarbiyasi masalalari.

423. Ijtimoiy taraqqiyotimizning asosi va shartiga aylanuvchi demokratik asoslarga ega bo'lgan yaxlit bir tizimning markazida qan-

day tamoyillar turmog'i lozim?

Ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq.

424. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi "nemis" va "shved" andozalarida qaysi yo'nalish ustuvor ahamiyatga ega?

Ijtimoiy yo'nalish.

425. Prezident asarlarida uchraydigan «retrograd» atamasi qanday ma'noni anglatadi?

Jaholatparastlar.

426. Iqtisodiy Hamkorlikka a'zo mamlakatlar o'rtasidagi Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mintaqasida transport va kommunikatsion infratuzilma hamda transmilliy quvurlar tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan uchrashuv 1997-yil may oyida qayerda bo'lib o'tdi?

Ashxobodda.

427. Prezident o'zining «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz» nomli asarida qaysi viloyatni «Buyuk Vatan ichra yana bir aziz Vatanimdir» deb g'urur bilan tilga olganlar?

Qashqadaryoni.

428. I.A. Karimov rus yozuvchisi Dostoevskiyning "Dunyoni go'zallik qutqaradi" degan mashhur iborasini biroz o'zgartirib «Kirib kelatgan XXI asrda dunyoni» nima qutqaradi deb aytgan?

Madaniyat va ma'naviyat.

429. Prezidentimiz I. Karimov qaysi yili Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Istanbulda bo'lib o'tgan anjumanida nutq so'zlagan?

1999-yil.

430. Prezident I. Karimovga «Xalqaro miqyosdagi lider» deb atalgan yuksak mukofotni o'z qo'li bilan topshirgan davlat va jamoat arbobi?

Genri Kissenjer.

431. Prezidentning «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti to'kin hayot manbayi» ma'ruzasiga ko'ra qishloq xo'jaligini qayta isloh qilishda qanday shakllarga asoslanishi kerak?

A) Paychilik B) Oilaviy pudrat D) Qishloq xo'jaligi shirkati.

432. Prezident o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» kitobida «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch» deb nimaga ta'rif bergan?

Ma'rifatga.

433. **Prezidentimizning fikricha, o'zlikni anglash nimadan boshlanadi?**

Tarixni bilishdan.

434. **Prezidentimiz o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida inson uchun nimadan judo bo'lishni hatto hayotdan judo bo'lishga tenglashtiradi?**

O'z tarixidan.

435. **I.A. Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida olimlarimizga qaysi bitta talabni qo'yadi?**

Haqqoniy tariximizni respublika yoshlariga lo'nda, asosli qilib yetkazib berish.

436. **Yurtboshimiz o'zining «Tafakkur» jurnaliga bergan intervyu-sida bildirgan «Kuch – bilim va tafakkurda» g'oyasi qaysi fikrga asoslangan?**

«Ma'naviyat – kelajak poydevori».

437. **Prezident o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» kitobida «xalq ma'naviyatining asosi» sifatida nimani ko'rsatadi?**

Tarixni.

438. **«Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zarurati-dan paydo bo'ladi». Ushbu fikr kimga tegishli?**

Abu Rayhon Beruniyga.

439. **Prezident o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» kitobida dovyurak, zamonaviy fikrlaydigan olimlar to'g'risida so'zlaganda qaysi akademikni tilga olib o'tadi?**

Ya. G'ulomovni.

440. **Prezident I. Karimovning qaysi asarida «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» ko'rgazmasining ochilish marosimi haqidagi (Parijda) ma'ruza matni keltirilgan.**

«Bunyodkorlik yo'lidan» asarida.

441. **Prezident I. Karimovning qaysi asarida «1992–1993-yillarda milliy davlatchiligimiz demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanishi, unda milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqiy hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat, ijtimoiy ong...» fikrlari keltirilgan?**

O'zbekiston: milliy istiqlo'l, iqtisod, siyosat, mafkura.

442. **Innovatsion usul deganda nimani tushunasiz?**

Ta'limga yangiliklarni kiritish va uni qo'llash.

443. Istiqlol mafkurasi mazmunini ifodalovchi manbalarni belgilang?

Xalqning boy tarixi, xalq og‘zaki ijodi, mutafakkirlarning ijtimoiy-axloqiy, komil inson haqidagi falsafiy qarashlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maishiy davlatchilik va jamiyat taraqqiyoti mazmunini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi asarlari.

444. Istiqlol mafkurasi tamoyillarini aniqlang?

Milliy g‘urur va iftixor tushunchasi, ona tiliga hurmat, ota-onaga, mahalla-ko‘yga ehtirom, sabr-bardosh, mehnatsevarlik, halollik va mehr-oqibat.

445. Istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari sanang.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik.

446. Istiqlol tufayli ommaviy axborot vositalarining oldiga qanday yangi vazifalar qo‘yildi?

Milliy mustaqillikning Vatanimiz, xalqimiz taqdiridagi buyuk o‘rni va ahamiyatini xalqimizga yetkazish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyatini, davlat siyosatini odamlar ongiga yetkazish.

447. Qadriyat turiarini aniqlab bering?

Moddiy muhit bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar, an‘ana, urf-odatlarda namoyon bo‘ladigan qadriyatlar, insonning aql-idroki va iste‘dodida namoyon bo‘ladigan qadriyatlar, insonning ijtimoiy muhit va yoshi, kasbi, jinsi bilan bog‘liq qadriyatlar.

448. Qadriyat tusbunchasi nima?

Jamiyat taraqqiyotining moddiy va ma‘naviy boyliklari rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish.

449. Qaysi javobda DTSga xos bo‘lgan xarakteristika noto‘g‘ri berilgan?

DTS ta‘lim muassasasining moliyaviy va moddiy-texnik ta‘minotini belgilaydi.

450. Qanday rahbar haqiqiy obro‘ga ega bo‘ladi?

Ham demokrat, ham avtokrat, ham liberal bo‘la olgan rahbar.

451. Qanday rahbarni xodimlar yaxshi ko‘radi?

Talabchan, mehribon, adolatli, tadbirkor.

452. Qanday tashkilot va birlashmalarning professional xizmat-

chilari Oliy Majlis deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydilar?

Diniy.

453. Qanday holatlarda nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati to'xtatiladi?

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hujjatlarini buzgan taqdirda.

454. Kafedra kim tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi?

Oliy o'quv yurti ilmiy kengashining qarori va rektor buyrug'i bilan.

455. Kafedra kimga bo'ysunadi?

Fakultet dekani yoki bevosita rektorga.

456. Kafedra mudiri kim tomonidan saylanadi?

Ilmiy kengash tomonidan.

457. «Qilichim o'tkir bo'lsada, o'ylab qinidan chiqardim, shirin so'z aytib, g'animning iymon topmog'iga yo'l ochdim». Bu satrlar muallifi kim?

Amir Temur.

458. «Xumoyunnoma»ning muallifi kim?

Gulbadanbegim.

459. Fitratning adabiy taxallusini aniqlang?

Mijmar (Cho'g'don).

460. O'zbekiston madhiyasining matni kim tomonidan yozilgan?

Abdulla Oripov tomonidan.

461. Abdulla Qodiriyning adabiy taxallusi nima?

Julqunboy.

462. Demokratiya nima?

Xalq hokimiyati, inson haq-huquqlarini himoya etish, davlat va Konstitutsiya birligi, so'z va fikr erkinligi.

463. «Navoiy» romani muallifi kim?

Oybek.

464. Kuch-qudratimizga shubhangiz bo'lsa biz qurgan binolarga boqing», degan so'zlarning muallifi kim?

Amir Temur.

465. Komputer texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot qanday ataladi?

Elektron darslik.

466. Quyida O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining

besh tamoyillaridan biri ko'rsatilgan. Bu:

Iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish.

467. Ko'kaldosh madrasasi qaysi shaharda joylashgan?

Toshkentda.

468. Madaniy meros nima?

O'tmish avlodlardan yetib kelgan qadriyatlar yig'indisi.

469. Maktabda pedagogik kengash qanday organ hisoblanadi?

Pedagog xodimlar, ota-onalar, vasiylar va homiylarni birlashtiruvchi organ, o'quv jarayonining tashkil etilishi va uning takomillashuviga ko'maklashuvchi kollegial organ.

470. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibini kim belgilaydi?

Vazirlar Mahkamasi.

471. Mamlakatimizning ichki xavfsizlik muammolarini ko'rsating?

Korrupsiya, millatchilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik.

472. Mafkuralar qanday ta'limotlar asosida yaratiladi?

Falsafiy ta'limotlar, dunyoviy ta'limotlar, diniy ta'limotlar.

473. Mafkuramizning falsafiy asosini nimalar belgilaydi?

Dunyoviy bilimlar, olam va odamning yaratilishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar, poklik, halollik, mardlik, komillik g'oyalari.

474. Mafkuraning ildizlari haqidagi fikr qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Falsafiy, dunyoviy, diniy.

475. Mafkuraning shakllanishida kimning manfaatlari yuzaga chiqishi kerak?

O'zbekistonda yashayotgan o'z taqdiri timsolida ming-minglab kishilarning taqdirini mujassamlashtirgan vatandoshlarimizning hayoti.

476. Mahalla faoliyatini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?

Milliy tabiatimizga mos kelgan o'zini-o'zi boshqaruv usulini.

477. Mashhur «Zafarnoma» asari muallifi kim?

Sharafiddin Ali Yazdiy.

478. Ma'naviy jihatdan yetuk shaxs deganda kimni tushunasiz?

Har tomonlama shakllangan odamni.

479. Ma'naviy qadriyatlar qayd etilgan javobni ko'rsating?

Asrlar davomida to'plangan madaniy meros, milliy urf-odatlar, an'analar, mutafakkirlarning qarashlarini ifoda etuvchi adabiyotlar.

480. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash qanday jarayonlardan boshlanadi?

Milliy o'zlikni anglashdan.

481. Ma'naviy qadriyatlarning manbalari nimalardan iborat?

Tariximizga va jahon faniga bebaho hissa qo'shgan buyuk allomalarning boy ilmiy merosidan.

482. Ma'naviyat nima, uni qanday tushunasiz?

Insonda ilm, ma'rifat, axloq, odob, insof va diyonat, odamiylik kabi yuksak fazilatlarining mujassamligi.

483. Ma'naviyatimizning ilk sarchashmalaridan biri hisoblangan «Avesto» kitobida tasvirlangan insoniy fazilatlarini aniqlang?

Iymon-e'tiqodda sobitlik, ilm va kasb-hunar egallash, insonparvarlik va ma'rifat, vatanparvarlik, adolat va ona sayyorani e'zozlash.

484. Millatlararo totuvlik nima?

Yurt farovonligi.

486. Milliy g'oya deganda nimani tushunasiz?

Inson tafakkuri, tushunchasi, fikrlar majmui.

487. Milliy istiqlol g'oyasi bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish uzluksiz ta'lim tiziminiig qaysi turida amalga oshiriladi?

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida.

488. Milliy istiqlol mafkurasi qanday maqsadga xizmat qiladi?

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotni ta'minlashga.

489. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyati qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

Jamiyat va xalqimizning ezgu maqsadlarini ifodalaydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimi

490. Milliy istiqlol mafkurasini inson qalbi va ongiga singdirish qaysi davrdan boshlanadi?

Ona allasidan.

491. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi nimadan iborat?

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan.

492. Milliy istiqlol mafkurasining mohiyati qaysi javobda o'z ifodasini topgan?

Jamiyat va xalqimizning ezgu maqsadlarini ifodalaydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimi;

493. Milliy mentalitet nima?

Millatning bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkuri.

494. Milliylikni ijtimoiy makoni deganda nimani tushunasiz?

Millatni.

495. Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli, deydilar...». Bu so'zlar-ning muallifi kim?

Abdulla Qodiriy.

496. Mamlakatda qonun ustuvorligining asosiy tamoyillarini aniqlab bering?

Aholining huquqiy bilimlarini oshirish, ma'naviy va axloqiy barkamoqlikni yuksaltirish, har bir fuqaroning o'zini-o'zi boshqarish va o'zini-o'zi nazoratga olishi kabi ruhiy o'zgarishlarini boshidan kechirishiga intilishini nazarga olish, ijtimoiy adolat tamoyillarining hayotiyiligini tayinlash.

497. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari oliy bosh qo'mon-doni kim?

Prezident.

498. Tafakkur nima?

Fikr va mulohaza, tabiat va jamiyatni tushunish usuli, mushohada, muhokama.

499. Iroda nima?

Istak va maqsad, yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan ong, qat'iyat va sabot, o'zini-o'zi boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila bilish.

500. Odamning boshqa jonzotlardan farqi nimada?

Odamda xotira, tafakkur va tasavvur, ibodat qilishga ehtiyojning borligi, mantiq qudrati mavjudligi.

501. Millat nima?

Kishilarning tarixiy birligi.

502. Ruhiyat nima?

Ichki dunyosi.

503. Iymon nima?

Ishonch va e'tiqod, or-nomus va sharm-hayo, iqror va amal, vij-don va insof.

504. Ma'naviyat nima?

Jamiyat va millatning, ayrim kishilarning ichki ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati va idroki, inson va jamiyat madaniyatining negizi, jamiyat va millat ravnaqining bosh omili.

505. Ma'rifat nima?

Bilim va maorif, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, kishilarning bilim va madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya, ilm-u urfon.

506. Mafkura nima?

Ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, huquqiy va siyosiy, badiiy, axloqiy va diniy qarashlarning butun bir tizimi.

507. Milliy qadriyat nima?

Har bir millatning mohiyatini, uning mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi mezon.

508. Milliy g'oya deganda nimani tushunasiz?

Yosh avlodni vatanparvarlik va el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini yoshlar qalbiga singdirish, ulug' ajdodlarimizning boqiy merosiga o'zimizni munosib deb his qilishni, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga da'vat qiladigan g'oyani.

509. Madaniyat nima?

Inson moddiy va ma'naviy hayotining samarasi.

510. Tarbiya turiarini sanab bering?

Oilaviy tarbiya, jismoniy va harbiy tarbiya, shajaraviy tarbiya, diniy va axloqiy tarbiya.

511. Vatan tushunchasi nima?

Ona yurt, tug'ilib o'sgan joy, maskan.

512. Prezident I. Karimovning qaysi asarida bosh strategik maqsad – bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishda jamiyatning barcha sohalaridagi vazifalar ilmiy asosda, atroflicha yoritilgan?

O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.

513. Prezident I. Karimovning qaysi asari jamiyat hayotida mafkuraning o'rnini izohlashga bag'ishlangan?

Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin.

514. Prezident I. Karimovning taraqqiyotning o'zbek modelini izohlashga asosiy urg'u berilgan qaysi asarini bilasiz?

O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.

515. «O'zlikni bilish tarixni bilishdan boshlanadi». Ushbu qoida I. Karimovning qaysi asarida keltirilgan?

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

516. Prezident I. Karimovning «Milliy istiqloq g‘oyasi» fanini ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risidagi farmoyishi qachon e’lon qilingan?

2001-yil.

517. Prezident I. Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida ko‘rsatilgan mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan birini aniqlang?

Ma’naviy hayotni yuksaltirish.

518. Prezident I. Karimovning «O‘zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbollarning asosiy tamoyillari» asarida kadrlar uch toifaga bo‘lingan. Uchinchi toifaga kiritilgan kadrlarni aniqlang?

Faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan, xalq g‘am-tashvishidan begona kishilar.

519. Prezident I. Karimovning «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» nomli asari qanday muammoga bag‘ishlangan?

Islohotlarning birinchi bosqichi yakunlari va iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining asosiy vazifalariga.

520. Prezident I. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida milliy istiqloq g‘oyasi nchun asos bo‘ladigan qoidalar sifatida quyidagilardan qaysilari ko‘rsatilgan?

Umuminsoniy qadriyatlarga.

521. Prezident Islom Karimov Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to‘qqizinchi sessiyasidagi ma’ruzasida jamiyat a’zolarining eng muhim pirovard maqsadlari deb qanday vazifalarni ko‘rsatib o‘tgan edi?

Mustaqillikni saqlash, himoya qilish, mustahkamlash.

522. Mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari mustaqilligimizga tahdid soluvchi xavflardan biri ekanligini I. Karimov o‘zining qaysi asarida chuqur izohlab o‘tgan?

O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari.

523. Prezident I. Karimov o‘zining qaysi asarida «Orol dengizining qurib borishi xavfi... milliy kulfat bo‘lib qoldi», — deb aytgan edi?

«O‘zbekiston buyuk kelajak sari» asarida.

524. Prezident I. Karimov quyida keltirilgan asarlaridan qaysi birida «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» — degan fikrni ilgari surgan?

Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etishga xizmat qilsin.

525. Prezident I. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida soʻzlagan nutqida qanday xalqaro muammo tilga olinadi?

Afgʻoniston masalasi.

526. Prezident I. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq» asarida tilga olingan muammoni aniqlang?

Oʻzbekiston tarixining dolzarb muammolari.

527. Prezident I. Karimov oʻz asarlarida sud tizimini isloh etishdan koʻzlangan maqsad qaysi bir javobda toʻgʻri belgilangan?

Hokimiyatning toʻlaqonli tarmogʻi sifatida sudlarning faqat qonunga boʻysunishi.

528. Prezident Islom Karimovning Qurolli Kuchlarda xizmatni oʻtash muddati 18 oydan 12 oyga qisqartirish haqidagi taklifi qaysi sessiyalarning birida atroflicha bayon etilgan?

Ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining toʻqqizinchi sessiyasida.

529. Kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat koʻrsatishining asosiy tamoyillari Prezidentimizning qaysi asarida keng izohlab berilgan?

Barkamol avlod orzusi.

530. Prezident Islom Karimov milliy mafkurani shakllantirish jarayonida eng birinchi qaysi masalalarga eʼtibor qaratish lozimligini uqtirgan edi?

Mamlakatning bugungi hayoti, oʻtmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qaygʻuradigan, Vatan qismatini oʻz qismati deb biladigan, keng jamoatchilikning ilgʻor dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanishini.

531. Sohibqiron Amir Temurning «Kuch – adolatda» degan mashhur iborasi Prezidentimiz tomonidan qaysi fikr bilan kuchaytirildi?

Kuch bilim va tafakkurda.

532. Prezident I. Karimovning «Xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilishi lozim», – degan gʻoyasi yaxlit konseptsiya sifatida ishlab chiqilgan asarini koʻrsating?

Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi.

533. Prezident I. Karimov qaysi asarida mamlakatimizdagi diniy jamoalar va ularning soni toʻgʻrisida maʼlumotlar koʻrsatilgan?

«Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etishga xizmat

qilsin» asarida 18 ta diniy konfessiya mavjudligi ko'rsatilgan.

534. «Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi», — degan fikr Prezidentimizning qaysi asarida keltirilgan?

Sog'lom avlod tarbiyasi — barchamizning muqaddas insoniy burchimiz.

535. Prezident I. Karimov terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish to'g'risida taklif kiritgan anjumanni aniqlang?

Istanbul sammiti.

536. Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.

537. Prezidentimiz Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida uch buyuk qadriyat sifatida nimani e'tirof etadi?

Ma'naviyat, iqtisod, siyosat.

538. I. Karimov o'zining qaysi nutqida baxshi-shoirlarni ulug'lab «Baxshili el — yaxshili el» naqlini ishlatgan?

Alpomish dostonining 1000-yilligiga bag'ishlangan nutqida.

539. I. Karimov qaysi alloma haqida so'z yuritib, «Agar bu zotni avliyo desak, u — avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir», deb faxrlanib tilga olgan?

A. Navoiy.

540. Qaysi yilda «Qatag'on qurbonlarini yod etish to'g'risida»gi Prezident Farmoni e'lon qilindi?

2001-yil 1 may.

541. «Biz — deganda, avvalo, o'z o'rnini doimo hayotning qaynoq jabhalarida deb biladigan, har qanday vaziyatda ham xalq va jamiyat manfaatlarini himoya qilish yo'lida kasb mahorati va fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadigan kishilar», — deya e'tirof etgan kasb egalari kimlar?

Jurnalistlar.

542. Muammoli o'qitish qaysi uslubga kiradi?

Umumiy o'qitish uslubiga.

543. Nazariy bilim deganda nima tushuniladi?

O'quv fani mazmuniga kiruvchi tushunchalarni, qonunlar va ilmiy nazariyalarni tarkib toptirish tushuniladi.

544. Nima uchun yoshlar ongida loqaydlik, zararli ta'sirlarga tushib qolish holatlari yuz bermoqda?

Ayrim yoshlar qalbida mustahkam e'tiqod va ongida yuksak dunyoqarash yo'qligi, hayotga yengil qarayotganligi va qalbini g'oyaviy bo'shliq egallaganligi sababli.

545. Oliy ta'lim muassasasida professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarning qandaydir bir fan sohasiga birlashuvi nima deb ataladi?

Kafedra.

546. Oliy o'quv yurtida mutaxassisligi bir xil, ikkita ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lgan o'qituvchi bo'lsa, qaysi kafedralarni ochish mumkin?

Jismoniy tarbiya, chet tili, grafika va chizmachilik, rassomlik va musiqa.

547. Pedagogik texnologiya prinsiplari deganda nima tushuniladi?

Loyihalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talablar.

548. Pedagogning o'rgatuvchilik faoliyati vositalarini aniqlang.

Tasvir(chizma)li, audiovizualli, diaproektor, o'quv kinolari, o'quv teleko'rsatuvlari, modellar, maketlar, renajerlar.

549. Prezident I. Karimovning qaysi asarida «Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi hamda keyingi paytlarda Yaqin Sharq mamlakatlarida keskin kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlari haqida so'z yuritilgan?»

Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.

550. Prezident I. Karimovning qaysi asarida «Respublikada har bir sohada tub o'zgarishlarni amalga oshirish masalalari hamda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining huquqiy asoslari yaratilganligi...» haqida fikr yuritilgan?

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.

551. Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kitobida davlat va jamiyat qurilishida erkinlashtirishning nechta strategik yo'nalishlari ko'rsatib berilgan?

6 ta.

552. Prezidentimiz I. Karimov Oliy Majlisning 29. 08. 02-yil Ikkinchi chaqiriq 9-sessiyasida fuqarolik institutini rivojlantirish uchun qanday yo‘nalishlar, ayniqsa muhimligini ta’kidladilar?

Davlat va jamoat birlashmalari hamkorligining samarali uslublarini.

553. Prezidentimizning Oliy Majlis 29. 08. 02-yil Ikkinchi chaqiriq 9-sessiyasida so‘zlagan nutqida bayon etib berilgan jamiyatimizni yangilash va taraqqiyot etishidan iborat konseptsiya mazmuni ahamiyatiga ko‘ra qanday mohiyatga ega?

Strategik dastur mohiyatiga ega.

554. Professor-o‘qituvchilar tarkibiga kimlar kiradi?

Kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi va assistentlar.

555. Psixodiagnostika ishining mazmuni qaysi bandlarda to‘g‘ri ifoda etilgan?

O‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, mayli, iqtidori kabilarni aniqlash.

556. Rahbarning qaysi yoshdagi xodimlar bilan ishlashi oson?

Rahbarlik uslubiga bog‘liq.

557. Respublikadagi OO‘Yularidan qaysilari akademik-litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘qituvchi tayyorlashda tayanch OO‘Yu hisoblanadi?

NamPI, BuxOOESTI va TDPU.

558. Respublikamiz mustaqilligiga tahdid solayotgan diniy aqida-parastlik oqimlarini ko‘rsating?

Vahhobiylik, «Xizb-ut-tahrir».

559. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat mafkurasi nimaga asoslanadi?

Umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga.

560. Rivojlantiruvchi va psixologik korreksion ishlar deganda nimalar nazarda tutilgan?

Bolalar va o‘quvchilarning psixik taraqqiyotdagi, xulqi va muomilasidagi nuqson hamda kamchiliklarni asta-sekinlik bilan tuzatish.

561. Sizningcha, siyosiy qaramlikdan ham dahshatliroq qaramlik nima?

Fikr, tafakkur qaramligi.

562. 1-sinflarda o‘qish necha hafta davom etadi?

33 hafta.

563. Sogʻlom mafkurani shakllantirish manbai nimalardan iborat?

Bobolar oʻgiti, ota ibrati, ona mehridan, oiladagi sogʻlom muhitdan.

564. Sohibqironning bosh piri kim boʻlgan?

Sayyid Baraka.

565. Strategik boshqaruv nima?

Aniq maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat, xodimlar manfaatini uygʻunlashtirishga yoʻnaltirilgan tadbirlar rejasi, strategik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat, amalga oshirilishi uzoq kelajakka moʻljallangan rejalar majmuasi.

566. Sud hokimiyati va sudyalarning kimga boʻysunadilar?

Qonunga.

567. Talabalar bilimni baholashda sifatning asosiy koʻrsatkichi nimada?

Bilimda.

568. Tasavvuf falsafasi qoidalariga muvofiq inson barkamollik darajasiga koʻtarilishi uchun qaysi bosqichlarni bosib oʻtmogʻi zarur?

Shariat, tariqat, maʼrifat, haqiqat bosqichlari.

569. Taʼlim mazmunini belgilab beruvchi dastur uchun mezon nima hisoblanadi?

DTS talablarining bajarilishi.

570. Taʼlim muassasasining nizomi tarkibiga nimalar kirmaydi?

Taʼlim muassasasi rahbariyatining shaxsiy tarkibi.

571. Taʼlimning birinchi vazifasi — bu...?

Ilmiy bilimlar bilan qurollantirish.

572. Taʼlimning muvaffaqiyati nimalarga bogʻliq?

Taʼlim mazmuniga, oʻqituvchining mahoratiga, oʻquvchining qobiliyatiga.

573. Taʼlim-tarbiya jarayoni qanday koʻrinishlarga ega?

Suhbat, maʼruza, savol-javob, hikoya qilish.

574. Tayanch oʻquv rejasida 5—9-sinflar uchun necha soat maktab ixtiyoridagi soat tarzida ajratilgan?

2 soat.

575. Tayanch dasturi oʻqituvchiga dasturga kiritilmagan, ammo tarbiyaviy jihatdan muhim va oʻquvchilar idrok amaliyotiga mos boʻlgan yangi manbalardan foydalanish huquqini beradimi?

Beradi.

576. Tayanch o‘quv rejasiga ko‘ra «Vatan tuyg‘usi» fani qaysi sinflarda o‘qitiladi?

6, 7-sinflarda.

577. Tayanch o‘quv rejasiga ko‘ra «Chizmachilik» fani qaysi sinflarda o‘qitiladi?

8–9-sinflarda.

578. Tayanch o‘quv rejasida boshlang‘ich sinflar uchun necha soat maktab ixtiyoridagi soat tarzida ajratilgan?

2 soat.

579. Mavzu va reja tushunchalarini izohlang?

Mavzu tinglovchiga ma‘lum narsalarni, reja esa tinglovchiga aytiladigan yangi narsalarni anglatadi.

580. Til madaniyati deganda nimalar tushuniladi?

So‘z boyligi, sintaksisining taraqqiyoti va boyish darajasi, so‘z ma‘nolarining o‘tkirliigi, nutqiy ohangning rang-barangliigi.

581. Turkistonning qadimgi nomini bilasizmi?

Yassi.

582. Turli tazyiqlarga duchor bo‘lgan va qatl etilgan hur fikrli markaziy osiyolik allomalar kimlar?

Mansur Xalloy, Nasimiy, Boborahim Mashrab.

583. To‘g‘ri tuzilgan ish rejasi birinchi navbatda nimaga yordam beradi?

Har qanday xatoning oldini olishga.

584. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Umid» jamg‘armasini tuzish to‘g‘risidagi qarorining mohiyati nimadan iborat?

Iqtidorli yoshlarning chet elda ta‘lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida.

585. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarida ta‘kidlanishicha, nimalar odil jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soladi?

Jinoyatchilik va korrupsiya.

586. Ijtimoiy fikr va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi demokratik institutlar jumlasiga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

Ommaviy axborot vositalari.

587. Iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash tamoyili deganda nima tushuniladi?

Monopollashgan iqtisoddan erkin iqtisodga o‘tish tushuniladi.

588. Boshqarishning tashkiliy ma'muriy metodlari?

Har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilashga asoslanadi.

589. Boshqarishning iqtisodiy metodlari?

Iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi.

590. Boshqarish madaniyati nima bilan belgilanadi?

Korxonada ish tartibi va me'yori qay darajada ekanligi, ularning mukammalligi, rahbarning ma'naviy yetukligi, siyosiy madaniyati va malaka darajasi, tashkilotchilik qobiliyati, halolligi va mehnatsevarligi, bilim saviyasi, xodimlarga bo'lgan munosabati va intizomi bilan.

591. Quyidagi javoblarning qaysi birida malaka oshirishning faol shakllari aks etgan?

Qayta tayyorlash va malaka oshirish.

592. «Pedagogik texnologiya» so'z birikmasi nimani anglatadi?

O'quv predmeti bo'yicha metodik ishlanma.

593. Ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va uzatish qonunlari, uslub va yo'llari haqidagi fan?

Kibernetika.

594. «Algoritm» so'zi qaysi olim nomi bilan bog'liq?

Al-Xorazmiy.

595. Quyidagi keltirilgan fanlarning qaysi biri pedagogika fanlarining tarkibiga kirmaydi?

Irsiyat (genetika).

596. O'quv qo'llanmasi nima?

O'quvchi-talabalarga mo'ljallab yozilgan asar.

597. Metodik qo'llanma nima?

Professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlarga mo'ljallab yozilgan asar.

598. Dissertatsiya nima?

Ilmiy daraja olish maqsadida yoziladigan va ilm-fan ahllari orasida himoya qilish uchun taqdim etiladigan ilmiy-tadqiqot ishi.

599. Annotatsiya nima?

Kitob, dissertatsiya, avtoreferat, maqola va sharhning ahamiyati, mazmuni haqidagi qisqacha ma'lumot.

600. Metod nima?

Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

601. Ijod nima?

Badiiy, ilmiy asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish.

602. Metodika nima?

Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metod va usullari yig'indisi.

603. Ta'lim muassasasi va ota-onalar jamoasi o'rtasida faol ish olib borishning muhim shakli nima?

Ota-onalar yig'ilishi.

604. Pedagogik texnologiya nima?

Aniq maqsad asosida o'qitish va tarbiyalashning oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni ketma-ket tashkil qilishning tartibga solingan usullar metodlari.

605. Dastlabki takliflarning kutilgan natijaga mosligini aniqlash maqsadida, qandaydir bir jarayonni doimiy kuzatish... deyiladi?

Monitoring.

606. O'qitish vositalari deganda nima tushuniladi?

Axborot uzatish va o'zlashtirish hamda aqliy va jismoniy mehnat bo'yicha malaka va ko'nikmalarni egallash uchun o'qitish jarayonida qo'llanadigan o'quv jihozlari.

607. O'zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingan yilni aniqlang?

1997-yil 29 avgust Oliy Majlis IX sessiyasida.

608. Umumiy o'rta ta'limning DTS ijrosini qaysi tashkilotlar ta'minlaydi?

Joylardagi ta'limni boshqarish organlari.

609. Umumiy o'rta ta'limning qo'shimcha komponentini belgilashda nimalar hisobga olinmaydi?

Hududiy koordinatalar.

610. Umumiy o'rta ta'lim DTSning tayanch o'quv rejasi nimalarni ifodalaydi?

O'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum miqdorini belgilaydi.

611. Umumiy o'rta ta'limning DTSni tasdiqlash to'g'risidagi qarori kim tomonidan imzolangan?

Vazirlar Mahkamasining Raisi tomonidan.

612. Umumiy o'rta ta'limning majburiy komponentlarini nima belgilaydi?

DTS.

613. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari... belgilab beradi?

O'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani.

614. Umumiy o'rta ta'lim DTSning tarkibiy qismi bo'lgan tayanch o'quv rejasi qanday hujjat hisoblanadi?

Ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda moliyaviy ta'minotni belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjati.

615. Umumiy o'rta ta'lim qaysi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi?

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan.

616. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida haftalik darslar soati eng ko'pi bilan qancha?

37 soat.

617. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari qanday amalga oshiriladi?

Uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim majburiy qismi bo'lib, DTSga muvofiq, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

618. Umumiy o'rta ta'limning DTS qaysi yildan boshlab o'quv dasturlari bilan birgalikda joriy etila boshlangan?

1999-yildan boshlab.

619. Umumiy o'rta ta'limning DTS qaysi sinflar uchun ishlangan?

1–9-sinflar uchun.

620. Umumiy o'rta ta'limning DTSni tasdiqlash to'g'risidagi qarori qachon qabul qilingan?

1999-yil 16 avgust.

621. Umuminsoniy qadriyat nima?

Milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasi, barcha insonlarning manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil topgan ma'naviy boylik.

622. O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini kim belgilaydi?

Oliy Majlis.

623. O'zbekiston xavfsizligiga tahdid solayotgan mintaqaviy mojarolar?

Afg'onistondagi voqealar va boshqa qo'shni davlatlardagi mojarolar.

624. O'zbekiston demokratik islohotlarni amalga oshira borib, qanday jamiyat qurishga intilmoqda?

Fuqarolik jamiyati.

625. O‘zbekiston ramzlarini aniqlang?

Bayroq, gerb, madhiya.

626. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asos qilib olingan hujjatlar?

Inson huquqlari butun jahon deklaratsiyasi, xalqaro huquq qoidalari, BMT hujjatlari.

627. O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv shakli qanday?

Prezidentlik.

628. O‘zbekiston Respublikasida qaysi organ shaxsni biror jinoyatda aybdor deb hisoblashi mumkin?

Sud.

629. O‘zbekiston Respublikasida tuzilgan Milliy gvardiyaning asosiy vazifasi?

O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza etish.

630. O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasi (so‘m) qachon muomalaga kiritilgan?

1994-yil 1 iyulda.

631. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida taraqqiyotning qanday yo‘lini tanladi?

Ochiq demokratik va huquqiy davlat qurish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish.

632. O‘zbekistonda o‘z-o‘zini boshqarishning an’anaviy shakli qaysi?

Mahalla.

633. O‘zbekistonda shakllantirilayotgan milliy mafkura kimning manfaatlarini o‘zida ifoda etadi?

Davlatning.

634. O‘zbekistondagi demokratik taraqqiyotning pirovard maqsadi nima?

Fuqarolik jamiyatini barpo etish.

635. O‘zbekistonning strategik ahamiyatga ega resurslari nimalardan iborat?

Paxta, yoqilg‘i-energetika resurslari, uran va boshqa zaxiralardan iborat.

636. O‘zbekistonning xavfsizligiga qanday tahdidlar mavjud?

Mintaqaviy mojarolar, etnik va millatlararo ziddiyatlar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, korruptsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolar, beparvolik, loqaydlik, boqimandalik.

637. **O'qitishda hikoya metodining turiarini aniqlang.**

Hikoya – kirish, hikoya – bayon, hikoya – xulosa.

638. **O'quv tayanch rejasiga ko'ra «Amaliy mehnat» darslari qaysi sinflarda o'tiladi?**

5–8-sinflarda.

639. **O'quvchilarning qanday guruhi davlatning to'liq ta'minotida bo'ladi?**

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari.

640. **O'quvchining aqliy rivojlanishi nimaga bog'liq ravishda amalga oshadi?**

Bolaning imkoniyatlari va bilimni o'zlashtirish darajasiga.

641. **Fakultet dekanining vazifalari... dan iborat.**

Fakultetga bog'liq barcha ishlarni amalga oshirish.

642. **Fakultet tuzilmasining vazifasi nimalardan iborat?**

Oliy o'quv yurtining o'quv, ilmiy va ma'muriy tarmog'i hisoblanib, tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha talaba, aspirant va doktorantlarni tayyorlaydi hamda sohalar bo'yicha rahbar xodimlar va mutaxassislar yetishtirib beradi.

643. **Fan nima?**

Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar sistemasi.

644. **Fanatizm nima?**

Dindagi o'taketgan aqidaparastlik.

645. **Faoliyat izlanish asosining namoyon bo'lish darajasiga ko'ra nechta turga ajralishini aniqlang.**

Reproduktiv, muammoli-izlanish.

646. **Faoliyat turlarini mazmuniga ko'ra aniqlang?**

O'yin usuli, idrok etish va bilish, badiiy-estetik, sport-sog'lomlashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish.

647. **Faoliyatning namoyon bo'lish shakllarini aniqlang?**

Moddiy, ma'naviy kommunikativ.

648. **Xalq ta'limi vazirligi xalq ta'limi davlat boshqaruvi organi sifatida kinga bo'ysunadi?**

Vazirlar Mahkamasiga.

649. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat maqsadi nimadan iborat?
Shaxsning garmonik kamoloti va to'laqonli psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal sharoit yaratish.

650. Xalqaro siyosiy va mafkuraviy markazlar Markaziy Osiyoning etnik va ma'naviy jihatdan yaqin bo'lgan xalqlarini bir-biridan ajratish va o'zaro dushmanlarga aylantirish uchun qanday vositalardan foydalanmoqdalar?

Davlatlar orasidagi ayrim hududiy masalalar yuzasidan kam ahamiyatli kelishmovchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish, Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar va siyosiy arboblarning yetakchiligi haqidagi masalalarni soxta ravishda muhokama qilish, mamlakatlar ichki hayotidagi ayrim salbiy faktlar asosida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish, axloqsiz g'oyalarni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilish.

651. Hamdo'stlik davlatlari fuqarosi O'zbekistonda ta'lim olmoqchi bo'lsa, uning hujjatini qabul qilish qoidasi qanday amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalari to'g'risidagi nizom asosida.

652. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar qaysi me'yoriy hujjat bilan belgilangan?

Predmetlar bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida ko'rsatilgan.

653. Har bir shaxsning bilim olishida qanday huquqlar kafolatlanadi?

Tenglik.

654. Haftalik darslar soati 1-sinflarda ko'pi bilan qancha bo'ladi?

22 soat.

655. Xodimlarning o'z ishidan qoniqishini ko'proq nima ta'minlaydi?

Sog'lom psixologik iqlimning mavjudligi.

656. Hozirgi zamonda jaholatga qarshi kurashda qanday vositani ishga solib muvaffaqiyat qozonish mumkin?

Ma'rifatni.

657. Hozirgi kunda biz uchun eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad...

Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash

658. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy jarayonlarning keskinlashuv sabablari nimada?

Markaziy Osiyo davlatlarining o'z rivojlanish yo'lini belgilab olib borishlari ayrim jahon siyosiy kuchlariga yoqmaganligi, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy joylashuvining katta strategik ahamiyatga ega ekanligi, Markaziy Osiyo davlatlarining kerakli tabiiy xomashyolarga boy bo'lganligi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlarning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlar bilan etnik va yaqinliklari borligi.

659. Sivilizatsiya nima?

Kishilik jamiyati rivojlanish darajasining ma'lum bir bosqichi

660. Shaxs nima?

Ijtimoiy mavjudot.

661. Yangi pedagogik texnologiyaning sifat ko'rsatkichlarini aniqlang.

Zamonaviylik, ilmiylik, o'quv jarayonini maqbullashtirish, o'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati, o'quv jarayoni uchun zamonaviy moddiy-texnik bazaning mavjud bo'lishi, o'quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini obyektiv nazorat qilish.

4.4. Pedagog shaxsining kasbiy yo'nalishini baholash testlari

Quyidagi savollarga menga to'g'ri keladi deb o'ylasangiz «ha» (a), to'g'ri kelmaydi deb o'ylasangiz «yo'q» (b) deb javob bering.

1. Odamlardan chetda bir o'zim yashay olar edim.
2. O'zimga ishonganim uchun ko'pincha g'alaba qozonaman.
3. Mening fanimni bilgan odam odamlar hayotini yengillatishi mumkin.
4. Odamlar axloq qonunlariga rioya qilishlari kerak, ayniqsa hozir.
5. Har bir kitobni diqqat bilan o'qib, keyin kutubxonaga topshiraman.
6. Mening ish joyim — tinch xona va stol, stul.
7. Odamlarning aytishicha har bir ishni o'zgacha usul bilan bajaraman.
8. Mening ideallarim orasida olimlar bor.
9. Odamlar fikriga qo'pollik qila olmayman..
10. Kiyinishimga doim e'tibor beraman.
11. Ertalabdan hech kim bilan gaplashgim kelmaydigan holat bo'lib turadi.

12. Tartibsizlikni yomon ko‘raman.
13. Mening tanishlarim qarashlari mening kasbimga mos.
14. O‘z yurish-turishimni tahlil qilib turaman.
15. Uyda o‘zimni restoranda o‘tirgandek his qilaman.
16. Davralarda boshqalarning o‘yin, hazillariga yo‘l qo‘yaman.
17. Tez bir qarorga kelolmaydiganlarni yoqtirmayman.
18. Bo‘sh vaqtimda kasbimga mos kitob o‘qiyman.
19. Davralarda sho‘xlikni yomon ko‘raman.
20. Davrada yo‘q kishi haqida yomon gapirishim mumkin.
21. Mehmon chaqirishni yaxshi ko‘raman.
22. Jamoa fikriga qarshi chiqishim mumkin.
23. O‘z kasbini yaxshi bilgan kishilarni yoqtiraman (shaxsiy xususiyatlarini).
24. O‘zgalar muammosiga befarq bo‘lolmayman.
25. O‘z xatomni tan olaman.
26. Men uchun eng katta jazo yolg‘iz qolish.
27. Reja tuzish uchun ketgan vaqtdan afsuslanaman.
28. Maktabdanoq o‘z mutaxassisligim bo‘yicha bilim olganman.
29. Aldanganni yomonlayman.
30. Yordam so‘rasalar qarshi emasman.
31. Ayrimlar meni ko‘p gapiradi deb o‘ylasalar kerak.
32. Jamoatchilik ishini javobgarligi borligi uchun yoqtirmayman.
33. Mening hayotdagi qiziqishim bu — fan.
34. Mening oilamni hamma ziyoli deydi.
35. Sayohatga ketishdan oldin hamma narsani tayyorlayman.
36. Men hozirgi kun bilan yashayman.
37. O‘quvchilarga hikoya qilib berishdan ko‘ra iloji bo‘lsa sayohatga borardim.
38. O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarga bilim berish.
39. Odob-axloq haqidagi maqollarni o‘qishni yoqtiraman.
40. Ayrim vaqt savol beruvchilarni yoqtirmayman.
41. Davrada meni iliq kutib olishadi.
42. Menga javobgarligi bor, rahbar xo‘jalik ishi yoqadi.
43. Ta‘tilda malaka oshirish kursida o‘qishga majbur bo‘lsam xafa bo‘lmasdim.
44. Mening qiziquvchanligim ayrim odamlarga yoqmaydi.
45. Boshqalar muvaffaqiyatidan qizg‘angan payt ham bo‘lgan.

46. Menga qo‘pollik qilgan odamni tez unutaman.
47. Mening takliflarimga atrofdegilar qo‘shiladi.
48. Kelajakka vaqtincha borish mumkin bo‘lsa, o‘z kasbingga oid kitoblarni olib borardim.
49. O‘zgalar hayotiga aralashishni yoqtiraman.
50. Qo‘pol so‘zni tabassum bilan aytmaganman.
- Test javoblarini ishlab chiqish uchun quyidagilarni bilish kerak:
 – 5a, 10a, 15a, 20b, 25a, 30a, 35a, 40b, 45b, 50a – kasb motivi (bu to‘g‘ri bo‘lsa qolganlarini aniqla, bo‘lmasa test noto‘g‘ri ishlangan).
- Muloqotga moyillik – 1b, 6b, 11b, 16b, 21a, 26b, 31a.
 (kasbga moslik) – 36a, 41 a, 46a.
 Tartiblilik – 2a, 7a, 12a, 17a, 22b, 27b, 32b, 37a, 42a.
 (tashkilotchilik) – 47a,
 Faniga yo‘nalganlik – 3a, 8a, 13a, 18a, 23a, 28a, 33a.
 (ijodkor kasbga loyqlik) – 38a, 43a, 48a.
 Ziyolilik – 4a, 9a, 14a. 19a, 24a, 29b, 34a, 39a, 44a, 49a.
 (aql-idroklilik) har bir to‘g‘ri kelgan javobga 1 ball qo‘ying agar ballar 4–7 atrofida bo‘lsa normal holat hisoblanadi.

ODAMLARGA YOQISH UCHUN ESLATMA

1. Odamlarga yoqish uchun suhbatni salomlashishdan boshlang.
2. «Sen» so‘zini ishlatmang. Doimo, kim bo‘lishidan qat‘i nazar «siz»lab gaplashing.
3. Suhbat davomida suhbatdoshingizni ismini ayting. Sharqona qo‘shimchalar («oy», «bek», «jon», «xon»...)ni qo‘shsangiz yanada yaxshiroq.
4. So‘zlashganda o‘zingizning emas, suhbatdoshingizning qiziqishiga ko‘proq e‘tibor bering.
5. Har qanday so‘zni, gapni buyruq ohangida emas, iltimos ohangida ayting.
6. Suhbatdoshingizning ijtimoiy o‘rnini e‘tiborga olib gapiring.
7. So‘zlashganda suhbatdoshingizning mijoz (temperamentk)ni e‘tiborga olib gaplashing.
8. Suhbat davomida hissiyotga berilib, mimika, pantomimika ishlatib (me‘yorida) gaplashing.
9. Gaplashganda «joy», «o‘rin», «vaqt», «yosh» tushunchalarini e‘tiborga oling.

10. So‘zlashganda qisqa, aniq, ravshan gapirishga o‘rganing.
11. Gaplashganda suhbatdoshingizga qarab gapiring va tinglashni biling.
12. Suhbatdoshingizning gapini bo‘lmang. Birdaniga bir necha kishi bilan gaplashmang.
13. Suhbatni ijobiy hissiyot bilan boshlab, shu bilan tugating.
14. Muloyim, o‘rtacha ovozda ayrim so‘zlarga urg‘u berib gapirishni o‘rganing.
15. Xulosa qilib aytganda, sizga qanday gapirishlarini istasangiz siz odamlarga shunday gapiring. Odamlarga yoqishingizga omad yor bo‘lsin.

BIZ QANDAY OTA-ONALARMIZ?

Biz ko‘p hollarda o‘zimiz qanday ota-onalar ekanimiz haqida hech o‘ylab ko‘rmaymiz. O‘zimizni tarbiyachilik vazifamizni bajara olayapmizmi, yo‘qmi deb o‘ylab ko‘rganmizmi?

O‘zingizni bu sohada tekshirib ko‘ring. Har bir ijobiy javobga 2 ball va inkor javobga 0 ball, «gohida», «ayrim paytlarda» javobiga 1 ball beriladi.

1. Sport va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolaning garmonik rivojiga katta ta‘sir qilishiga ishonasizmi?

2. Siz bolangizni biror narsani qil deb buyruq bermasdan, undan shuni qilishni iltimos qila olasizmi?

3. Siz bolani biror yumushga yordam berishdan qutulish uchun quyidagi so‘zlardan foydalanasizmi: «Mening vaqtim yo‘q» yoki «To‘xtab tur, men ishimni bajarib olay».

4. Jurnallarda, televideniya va radioda beriladigan tarbiya mavzusidagi eshittirishlarni eshitib borasizmi? Shu mavzuga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni vaqti-vaqti bilan o‘qib turasizmi?

5. Sizning bolangiz gunoh ish qilib qo‘ydi. Siz bu o‘zingiz bergan tarbiyaning natijasi deb o‘ylab ko‘rasizmi?

6. Siz o‘zingizni turmush o‘rtog‘ingiz bilan barcha masalalarda hamfikrman deb o‘ylaysizmi?

7. Agar bolangiz-sizga o‘zining yordamini taklif qilsa, sizning ishingiz ushlanib qolsa ham yoki umuman to‘xtab qolsa ham, uning yordamini qabul qilar edingizmi?

8. Siz man qiluvchi yoki buyruq beruvchi so'zlarni faqat kerak bo'lgandagina ishlatasizmi?

9. Siz ketma-ketlikni pedagogik tarbiyaning asosiy prinsiplaridan biri deb o'ylaysizmi?

10. Bolani o'rab turuvchi muhit unga qattiq ta'sir qiladi deb hisoblaysiz?

Natijalar:

6 ball to'plagan bo'lsangiz, siz tarbiya to'g'risida juda oz ma'lumotga ega ekansiz. Sizga maslahatimiz bu sohadagi bilimlaringizni ko'paytirib, tezda o'z ustingizda ishlashga kirishing.

7 ball dan 14 ballgacha: Siz bu sohada katta xatolar qilasiz, lekin shunga qaramasdan o'zingizning bu sohadagi ishlaringizni bir sarhisob qilib ko'rsangiz yomon bo'lmaydi. Hozirgi yaqin kunlardagi dam olish kuningizni bolalaringizga bag'ishlab, o'z ishlaringizni unutishga e'tibor bering. Albatta ishoning, bolalar bu ishingiz uchun sizni taqdirlashadi.

15 ball dan yuqori ball siz o'z ota-onalik burchingizni to'liq bajarasiz. Shunga qaramay ayrim tomonlarga e'tibor berib, uni to'ldirsangiz yomon bo'lmasdi.

INSONIY FAZILATLAR HAQIDA DONISHMANDLAR

Riyozat egasi bo'l: ortiq darajada yeb-ichma, shunday qilsang, ega bo'lasan, yaxshiroq o'ylaysan.

Sukut saqla: o'zingga va boshqalarga foydasi tegmaydigan so'zlar so'zlama, ezmalik qilma.

Maqsad egasi bo'l: qiladigan ishingni avval yaxshi o'ylab, bir qarorga kel, keyin u ishni kamchiliksiz bajar.

Tejamkor bo'l: mol-u dunyongni hech foydasi bo'lmagan yerlarga sarf etma, pulni teja, ya'ni isrofdan saqlan.

Sa'y-g'ayrat egasi bo'l: vaqtningni bekorga o'tkazma, foydali ishlar bilan mashg'ul bo'l, sa'y-g'ayrat qil. Kerak bo'lmagan ishlardan qo'lingni tort.

Pokdomon bo'l: a'zoyi badaningni, kiyim-kechak, uy va boshqa narsalaringni sira ham iflos qilma, tozalikka diqqat ber.

Qalb huzuriga ega bo'l: mayda-chuyda, hech narsaga arzimaydigan narsalardan qayg'urib, salomatlikni buzma.

Iffatli bo‘l: o‘zing tugul boshqalarning tinchligini ham qo‘rqinch ostida qoldirma, doimo iffatli, nomusli bo‘l, ma‘nosiz yo‘llardan yurma.

Odobli bo‘l: tarbiyali va olim-fozillardan o‘rnak ol, tavozeli, muloyim so‘zli bo‘l, o‘zingni yuqori tutma, kamtarlik yaxshi xislat ekanligini esingdan chiqarma.

Olijanob bo‘l: olijanoblik bir quvvatdirki, bu quvvatga ega bo‘lgan odam boylikka va odamlarning maqtashlariga, iltifot, kamsitishlariga sira e‘tibor qilmaydi, turmushning o‘zgarib turishiga qayg‘urmaydi. Mol-dunyosi ko‘p bo‘lsa g‘ururlanib, mutakabbir bo‘lib ketmaydi, xalqning maqtashiga sevinmaydi. Har vaqt bir xilda bo‘lib, o‘zini daraja va himmatini saqlaydi.

Muloyimlik shiorini tut: achchiqlangan vaqtda o‘zingni tuta bil. Muloyimlik ulug‘ fazilatlarining biridir. Qahr-g‘azab vaqtida o‘zini bosib tinch tura olish odamni juda ko‘p xavf-xatarlardan, yomonliklardan saqlaydi. Muloyim, yumshoq ko‘ngilli kishilarni har kim sevadi.

Sabr-toqatli bo‘l: osoyishtalik qilgan odam janjal, g‘avg‘o vaqtlarda qichqirib yengillik va qiziqqonlik ko‘rsatmaydi, sukut va sabr saqlaydi. Qiziqqonlik salomatlikka, hatto umrga zarar yetkazadi. Qiziqqonlik, yengillik, qahr-g‘azab odamni uyatga qoldiradi. «G‘azab bilan sarg‘aygan yuz pushaymonlik bilan qizaradi», deb shunga aytadilar.

Chidamlilik: go‘zal sifatlarga oliy ishlarga erishish yo‘lida mashaq-qatga bardosh berishdir.

BOLAJONMISIZ?

Bir juft qora ko‘z...
Olislarga qadalgan nigoh...
Ertangi kunni o‘ylamoqda...
Chunki u ertaning farzandi
Bugunning kelajagi...

Bolalarni, aziz kichkintoylarni suymaydiganlar topilmaydi. Axir, har birimiz ham beg‘ubor, qaytib kelmas eng yashirin, quvnoq va zavqli yoshlik damlarni boshdan kechiramiz. Siz kichkintoylarni qay darajada xushlaysiz? Buni hozir aniqlab ko‘ramiz.

1. Ishdan chiqib bozorga tushdingiz, tezroq ul-bul ololmasangiz, ovqat kechga qolib ketyapti. Ammo nogahon bozorning gavjum bir

yerida chirqirab yig'lab, onasini qidirayotgan qizchaga ko'zingiz tushib qoldi. Ushbu vaziyatdagi sizning holingiz:

a) ko'rmaganga olib o'tib ketaman, axir uyga shoshilayapman, onalarga ham hayronman, bola ignamidiki, yo'qotib yurishsa;

b) ko'nglim bo'shlik qilib darhol uni ovutishga tushaman, keyin esa bozorkomga uchrashib bolakayning onasini qidirishga kirishaman;

d) unga yo'qolgan yerida jimgina turishini, hozir yaqinlari topilib qolishini aytib, yo'limga ravona bo'laman.

2. Bugun yakshanba, xayriyat, dam olishga ham qo'l tegadigan bo'ldi. Dugonangiz bilan kinoteatr oldida peshinda uchrashishni va'dalashib qo'ygansiz. Ammo yon qo'shningiz bir emas ikki jaji bolakaylarni uyingizga ko'tarib chiqdi va sizdan bugun ularga qarab turishingizni iltimos qilib, muhim ishi chiqib qolganligini aytdi. Siz:

a) ensam qotib, bugun sira vaqtim yo'qligini, mening ham juda muhim ishim borligini aytib, bolalarga boshqa enaga topishini taklif qilaman;

b) jon-jon deb ularni olib qolaman, dugonamga esa sim qoqib, uchrashuvni bekor qilaman, axir kichkintoylar bilan birga ham maroqli dam olish mumkin-ku!

d) yo'q deyishga botina olmay, noilojlikdan qarab turaman bolakaylarga.

3. Qancha farzandni ixtiyor etasiz?

a) to'rtta-beshta;

b) ikki-uchta;

d) hozirgi zamon sharoitida 1 ta ham yetadi.

4. Farzandlaringiz bilan o'ynashib, quvnashib ularni biron ko'ngil-ochar boqqa, hayvonot bog'i yoxud yana biror dam olish maskanlariga olib borib turasizmi?

a) ha, ishlarimdan qo'lim bo'shshasi bilan butun oilamiz bilan bolalarni aylantirgani olib borib turamiz;

b) bunga sira vaqt ajrata olmayman;

d) ahyon-ahyonda bo'lib turadi.

5. Ishdan yoxud o'qishdan qaytayotganingizda bir to'p bolalar ichida do'pposlanayotgan bir bolakayga ko'zingiz tushib qoldi. Bu holga qanday yondashasiz?

a) biror bezorlik qilgan bo'lsa, adabini berishayotgandir, deb o'tib ketaman;

b) darhol unga yordamga oshiqib, zo‘ravonlar ichidan ajratib olaman;

d) bolalardan nima uchun uni kaltaklashayotganlarini so‘rab, masalaga holisona yondashaman.

6. Uyingiz tagidagi biror mevali daraxtga tarmashayotgan bolakaylarga munosabatingiz?

a) men ham bir paytlar qo‘shnilarimiz bog‘idagi mevalarni tinch qo‘ymasdim, shoxlarni sindirishmasa bo‘lgani, ularga monelik bildirmayman;

b) ularning dastidan biror meva pishishgacha bormaydi, darhol daraxtdan tushishlarini buyuraman, agar gapim kor qilmasa, ustilaridan qaynagan suv quyib yuborishimni aytib qo‘rqitaman;

d) ularni har doim ham taltaytiravermayman, bir-ikki marotaba ruxsat berishim mumkin.

T/r	1	2	3	4	5	6
a	1	1	3	3	1	3
b	3	3	2	1	3	1
v	2	2	1	2	2	2

18–15: Bolajonlar siz uchun dunyoda hammadan aziz ekan. Rosayam bolajon ekansiz. Ular sizning jon-u dilingiz. Ular bilan bo‘lganingizda dilingiz yayraydi, quvonchingiz ichingizga sig‘maydi, ularni o‘ynatib zavqlanasiz. Farzandlaringizgada mehribon, g‘amxo‘r va ibratli ota yoki ona bo‘la olasiz. Bolajonlarning beg‘ubor, samimiy, sodda xislatlari sizni doimo o‘ziga tortib, iyitib kelgan, ular bilan bo‘lganda barcha tashvish, muammolaringizni unutib, g‘olib bo‘lasiz. Nihoyatda mehribonchiliklar qilasiz, barcha talab va istaklarini, erkaliklarini ko‘tara olasiz.

14–11: Farzand ko‘rish, avlod qoldirish qanchalik tabiiy bo‘lsa, bolajonlarga nisbatan munosabatingiz ham shunday. Ularni yaxshi ko‘rasiz, ammo biron ish-tashvish bilan yurgan kezlarda ulardan xoli bo‘lishni afzal ko‘rasiz. Kayfiyatingiz, vaqtingiz bo‘lganda ular bilan o‘ynashib, ularni biror narsa bilan qiziqtirishni eplay olasiz. Lekin baribir ularga har doim ham ehtiyoj sezmaydiz.

10–6: Bir eslab ko‘ring, siz ham bir vaqtlar bola bo‘lgansiz. Kattalarning e‘tiborini jalb qilish, ularning diqqat markazida turishni,

erkalanib, injiqlik, qaysarlik qilib aytganingizni qildirishni xushlardingiz. Ammo nega hozir bolakaylarning xarxashasi jig'ingizga tegadi, ular bilan vaqtingizni bo'lishishni istamaysiz. Bolajonlarga nisbatan bee'tiborsiz. Ularga nisbatan munosabatingiz ham sovuq ekan. «Mehr bersang mehr ko'rasan», deydi dono xalqimiz. Bundan o'zingizga kerakli xulosa chiqarib olavering.

YAQIN KISHIGA NISBATAN MUHABBAT

Amerikalik ruxshunoslarning ta'kidlashicha, biz begona odamlarga ko'ngil qo'ymas ekanmiz, balki yaxshigina sinovdan o'tgan odamlargina sevgimizdan bahramand bo'lar ekan. Har qalay, yon qo'shni bo'lib yashash yoki umumiy qiziqishlar doirasi romantik munosabatlarni uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Avvaliga bir-biriga nisbatan hech qanaqa qiziqish, intilish his etmagan odamlar keyin o'zaro yaqinlik, qandaydir iliq tuyg'ularni his qilishadi. Yana bir odamlarni yaqinlashtiruvchi omil, birgalikda kechirilgan tanglik holati, aynan mana shunday yaqinlik ko'pchilik ishidagi ishlarning mohiyatini anglab olishga imkon beradi, degan fikrga moyildir ruxshunoslar.

Oilaviy hayotda baxti chopmagan maltaliklarning mamlakatlarida yangi siyosiy partiya tuzilayotgani va ularning yetakchilari Maltadagi ajrashishlar haqidagi muammolarni qonunchilik asosida hal qilishga erishish xususida katta va'dalar berishayotganida behad shod bo'lib, bu xabarni zo'r quvonch bilan kutib olishdi. Bugungi kunda Maltada nikohni bekor qilish masalasi Malta fuqarosi uchun amalda imkoni yo'q narsa desa ham bo'laveradi. Buning uchun kamida uch yil davomida turli muassasalar ostonasiga bosh urib borish talab etiladi.

TURMUSH TARZINGIZNI BAHOLANG

1. Agar ertalab uyqudan erta uyg'onish siz uchun juda ham muhim bo'lsa, unda:

A. Budilnikni sozlab, har ehtimolga qarshi yotoqdan uzoqroqqa qo'yaman.

B. Ichki ovozimga tayanaman.

D. Yelkamni qisaman... Uyg'onсам yaxshi, uyg'onmasam shirin tush.

2. Har bir odam o'zicha dam oladi.

A. O'ртоqlarim bilan ko'rishaman.

B. Mening ko'p qiziq ishlarim bor, shuning uchun bu haqda gap bo'lishi mumkin emas.

D. Sershovqin shahardan qancha uzoqlashsam, shuncha yaxshi dam olaman.

3. Hafta yakunida qaysi faoliyatingizni ko'proq eslaysiz?

A. Oyoqlar horib ketguncha raqsga tushganimni.

B. Bir-ikki kilometr yayov yurganimni.

D. Yoqtirgan mashg'ulot zalida ter to'kib mashq qilganimni.

4. Do'stlaringiz bilan uyingizda bazm kechasini uyushtirishga qanday qaraysiz?

A. Ko'ngilxushlik qilishga zo'r imkoniyat.

B. Faqat bekorga yo'q qilgan vaqt yoki pul.

D. Nima bo'lishidan qat'i nazar bahra olishga harakat qilaman.

5. Fe'l-atvoringizning kuchli tomoni qayerda?

A. Nimani o'ylasam, albatta 100% ga bajaraman.

B. «Kerakli ishni bajar, nima bo'lsa bo'lar» degan g'oyaga amal qilaman.

D. Agar men bo'lsam...

6. Agar sizni «tortishuv»ga chaqirishsa...

A. Asabimni buzmasdan, o'zimni telbalarcha tutaman.

B. O'z gapimni aytaman va gapimda oxirigacha turaman.

D. Tomog'idan bo'g'aman, qolaversa, janjal sevimli mashg'ulotlarimdan biridir.

0–8 ballgacha. Ko'rinib turibdiki, turmush tarzingiz a'lo darajada. Bu juda zo'r. Har kuni televizor oldida ovqat yeyish siz uchun umuman yot holat. Mashqlar zali yoki basseyn sizga juda tanish joy. Do'stlaringiz ham sizni hurmat qilishadi. Bo'lmasam-chi! Chunki bunday turmush tarziga yetishish uchun ko'p mashaqqat talab qilinadi, bunga esa odatlanib qolgansiz!

19–30 ballgacha. Ko'p hollarda idealga juda yaqinsiz; ko'p harakat, ovqat rejimi, uyda va bo'sh vaqtingizda foydali ish bilan shug'ullanmoqchi bo'lasiz, lekin ayrim hollarda yalqovlik domiga tortadi...

Hammamiz ham tirik odammiz, hammamizning ham kamchiligi-miz bor, lekin zararli bo'lgan harakat yoki harakatsizlikni qilmaganingiz

ma'qul, chunki odat tusiga kirishi mumkin.

33–42 ballgacha. Eh-he, sizning hayot kechirishingiz boshqachaku? Turmush tarzingizda «sog'lom» so'zni uchratish qiyin. Afsus! Bu haqda yaxshilab bosh qotirishingiz kerak!

DO'STLARINGIZNI E'ZOZLAYSIZMI?

Do'stlaringizning ko'p yoki kam bo'lishi fe'l-atvoringizga bog'liq. Xo'sh, sizning do'stlaringiz nechta?

1. Do'stlaringiz yig'ilishib, bayram o'tkazmoqchi ekanligini xabar qilishdi. Siz:

A. Xursand bo'lib, bayramni mening uyimda o'tkazishni taklif qilaman.

B. Bayramga men ham bajonidil qo'shilishimni aytaman.

D. Ishlarim ko'pligini aytib, afsuski bayramga borolmayman, deyman.

2. Chin do'stlaringiz nechta?

A. Ikki va undan ortiq.

B. Bitta.

D. Do'stlarim bor-u, ammo chin do'stim yo'q.

3. Do'stlaringiz bilan qizg'in suhbat qurib o'tirgan edingiz. Ammo yangiliklar tugab, «gap qolmadi» Shunda siz:

A. Suhbatni davom ettirish uchun biror-bir qiziqarli voqeani aytib beraman.

B. Do'stlarimdan gap chiqishini poylab o'tiraveraman.

D. Gap tugaganidan keyin uyga ketaman-da!

4. Qanday davrada o'zingizni qulayroq his etasiz?

A. Do'stlarim davrasida.

B. Oila a'zolarim davrasida.

D. Yolg'iz o'zim qolganimda.

5. Deylik, ikki do'stingiz bahslashib qoldi. Bora-bora bu tortishuv kuchayib ketmoqda. Bunday vaziyatda siz qanday yo'l tutasiz?

A. Ularni tezda ajrataman.

B. Bahs avj olib ketsa ajrataman.

D. Birovlarning bahsiga qo'shiladigan odatim yo'q.

6. Do'stlaringizning uyiga tez-tez borib turasizmi?

A. Ha, deyarli har kuni.

B. Tez-tez bo'lmasa-da, harholda borib turaman.

D. Kamdan-kam paytlarda.

7. Do‘stlaringizdan biri moddiy qiyinchilikka tushib qolganini eshitib goldingiz. Siz:

A. Qo‘limdan kelgancha unga yordam beraman.

B. O‘zi yordam so‘rab kelishini kutaman.

D. Qarz so‘rab qolmasin, deb undan uzoqroq yuraman.

8. Qaysi bayramda do‘stlarni mehmonga chaqirish qulayroq deb hisoblaysiz?

A. Do‘stlarni mehmonga chaqirish uchun bayramning hojati yo‘q.

B. Yangi yil, tug‘ilgan kunimda.

D. Chaqirishim shart emas, sog‘insa o‘zi keladi.

9. Do‘stlaringiz bilan tez-tez yig‘ilishib turasizmi?

A. Ha, ko‘pincha men o‘zim ularni yig‘aman.

B. Bo‘sh vaqtim bo‘lganida.

D. Faqatgina ba‘zi paytlarda.

10. Chin do‘st siz uchun:

A. Meni ko‘rganida doimo xursand bo‘ladigan inson.

B. Qiyin damda yordamga keladigan odam.

D. Meni e‘zozlaydigan inson.

Javoblar quyidagicha baholanadi: «A» javobi uchun 3 ball, «B» javobi uchun 2 ball, «V» javobi uchun 1 ball. Necha ball yiqqaningizni hisoblab chiqing va natijalarni solishtiring.

10 dan 15 ballgacha. Afsuski, do‘stlaringizni e‘zozlamaysiz. Balki bunda ularning ham aybi bordir. Do‘stlaringiz bilan ularni sog‘inganingiz uchun emas, balki nomigagina uchrashasiz. Do‘stlar davrasidan ko‘ra yolg‘izlikni ko‘proq xush ko‘rsangiz kerak. Maslahatimiz, ular bilan munosabatingizni yaxshilashga harakat qiling.

16 dan 23 ballgacha. Do‘stlaringiz bilan munosabatlaringiz juda yaxshi. Uzoq vaqt ular bilan ko‘rishmasangiz, sog‘inib qolishingiz aniq. Davrada gapirishdan ko‘ra ko‘proq tinglashni yoqtirsangizda, suhbatdoshingizni hech qachon zeriktirib qo‘ymaysiz. Siz do‘stlaringizni e‘zozlaysiz, ular esa o‘z navbatida sizni.

24 dan 30 ballgacha. Siz «Do‘st bilan obod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham» shiori asosida yashaysiz. Do‘stlar davrasini dunyodagi hech narsaga almashtirmasangiz kerak. Hayotingizning eng baxtli kunlarini do‘stlaringizsiz tasavvur ham qilolmaysiz. Shuning uchun ham o‘zaro munosabatlaringiz a‘lo darajada.

YAXSHI DAM – MEHNATGA HAMDAM

Barcha sidqidildan mehnat qiluvchilarda bir fikr bor: «Inson yaxshigina mehnat qilgach, yaxshi dam olishi kerak. Axir u mehnatiga yarasha mukofot olishga haqli-ku». Ta'til bu shunday davrki, unda hamma narsaga qo'l urish mumkin. Lekin shunday narsalar ham mavjud ekaniki, inson ularni bajarishi shart emas ekan...

1-qoida. Ishlash.

Guvohi bo'lgan bo'lsangiz, ta'til olgan ayrim insonlar o'zi bilan dam olish joylariga hujjatlarni olib ketadilar. Uch kun o'tar-o'tmas esa hamkasblariga qo'ng'iroq qilib: «U yerda ishlar qanday o'zi?» kabi asabiy savolni beradilar. Natijada ularning dam olishi raqiblar bilan kurashish uchun «Tezroq uyga!» shiori ostida o'tadi. Bunday hol ro'y bermasligi uchun birinchi kundanoq matonat ko'rsatib, ish to'g'risida o'ylamaslikka urinib ko'ring: birinchidan yangi joy va uning go'zalliklari bilan yaqindan tanishib chiqing, ikkinchidan, faqat dam olishni ko'zlang.

2-qoida. Ozish.

Siz dam olish joyidagi oshxonalarning eng mazali taomlaridan voz kechib, faqat ko'kat yoki sabzavotlar iste'mol qilishni rejalashtirib qo'ydingiz?

Xato qilasiz: chunki bu bilan siz ko'zingizda ochlik aksini va butun dunyoga nisbatan unsiz qoniqmaslikka erishasiz. Agar chindan ham ozishni istasangiz, bu bilan shug'ullanishni boshqa vaqtga qoldiring.

Dam olish – bu huzurbaxsh lazzat. O'zingiz xohlagan, ko'nglingiz tusagan narsani iste'mol qiling. Shundagina ikki hafta mobaynida sizni yaxshi kayfiyat va ko'tarinki ruh tark etmaydi.

3-qoida. Yor tanlash.

Dam olish vaqtini hamroh axtarishga bag'ishlash – zerikarli mashg'ulot.

Yayrang, dam oling, o'zlaringizcha qoling. Hech kimga e'tibor bermaslikka urining.

4-qoida. Shifokorlar huzuriga qatnash.

O'zingiz o'ylab ko'ring: shunday ajoyib va toza havodan nafas olish imkoniyatiga ega bo'lib turgan davrda shifoxonama-shifoxona yurib dorilar hidini hidlash kerakmi? Daryo sohili bo'ylab yumshoq qum ustida rohat bilan qadam bosib, ultrabinafsha nurlarini qabul qilib, odamlar ko'z o'ngida go'zallashish o'rniga rentgenga yozilish adolat-

danmi? Shifokorlar huzuriga dam olish oldidan yoki undan so'ng borishingiz mumkin. Ishdan bo'sh vaqtingizda ham toza havoda ko'proq yurishni unutmang.

5-qoida. Ta'mirlash bilan shug'ullanish.

Azal-azaldan bir yoqimli narsani foydali ish bilan uyg'unlashtirishga odatlanib qolganmiz. Aynan shuning uchun dam olish vaqtimizda ham biror-bir foydali narsani qilib ulgurishga urinamiz.

Siz bu holatda nafaqat jismoniy charchoqni ortirasiz, balkim ruhan ham cho'kasiz. Bu esa o'zingizga ziyon.

6-qoida. Til o'rganish.

Dam olishga otlanayotib: «Bir yo'la u yerda ingliz tilini ham o'rganib olaman», – deyishadi. Shunday qilib kiyimlari orasiga ikki juft qalin kitob ham solinadi. Nima ham derdik. Siz u yerda aniq zerikib qolmaysiz, chunki dam olish, sayohat qilish o'rniga so'zlarni, fe'llarning tuslanishini yodlash bilan band bo'lasiz. Shunday qilib dengizning go'zalliklaridan bahramand bo'lish o'rniga siz har xil so'zlarni yodlab «Qanday dam olding?» savoliga «Voy, ikki haftada 500 ta so'z, xolos», deb javob qaytarasiz.

7-qoida. Yangi ish joy axtarish.

Hattoki hozirgi yoki oldingi ish joyingiz sizga ma'qul bo'lsa ham. Chunki yozda suhbatlardan o'tishdan tashqari boshqa muhimroq ishlar ham mavjud, ortiqcha zo'riqishdan charchagan organizmingiz isyon ko'tarib ish tashlash kunlarini e'lon qilishi mumkin. Bunday tashqi ko'rinishingiz esa sizni hech qachon ishonsa bo'ladigan mutaxassis qilib ko'rsatib bera olmaydi.

8-qoida. Tejamkor bo'lmoq.

Dam olishda sarflashga mo'ljallangan pulni oldindan ajratib qo'ying, bu pullarni sarflaganda achinmang. Shundagina siz bu pullarni sarflash o'rniga uyda o'tirganim yaxshi, degan yoxud qayiqda suzib orom olayotgan vaqtingiz: «Ey xudo, men pulga bir oy metroda yurishim mumkin edi-ku», degan bema'ni xayollarga bormaysiz.

9-qoida. Sizga yoqmaydiganlar bilan dam olish.

Agar dam olishga bir guruh bo'lib otlangan bo'lsangiz oldindan aniqlab oling: bu insonlar siz birga dam olishni istagan kishilarmi o'zi? Agar bunga rozi bo'lmayotgan bo'lsangiz, unda dam olishga yakka jo'nang.

10-qoida. Uydan chiqmaslik.

Ta'lim vaqtida shart-sharoitni mudom o'zartirib turish lozim. Axir notabiiy narsalar, g'ayrioddiy voqealar ko'proq yodimizda qoladi. Agar dengiz tomon yo'l olishga qurbingiz yetmasa, toqqa, o'rmonga, dala hovliga yo'l olishingiz mumkin. Kundalik ish kuningizni tubdan o'zgartiring, kundalik tashvishlardan voz keching, ikki hafta ta'tilni faqat o'zingizga bag'ishlang. Bu esa go'zalligingizni yanada oshirib, ruhingizni tetiklashtiradi, barcha charchoqlarni albatta unutasiz.

IJOZAT SO'RASH KERAKMI?

... Qabulxonadamiz. Bir-birimizdan oldinroq kirishni istaganlar qancha. Ammo «Navbat bilan kiring», deya tanbeh beruvchilar ham topiladi. Ichkariga kirib ketganlar esa ilojsiz yarim soatda zo'rg'a chiqishadi. Aslida shuncha kutishga arzirmidi ishim, deya o'ylab endi ortga qaytmoqchi bo'lib turuvdim, boshliqning o'zi ichkaridan chiqib qoldi. Meni ko'rdi-yu:

— Iya, siz ham navbatda turibsizmi, keling, kiravering, — dedi. Men atrofda gilardan xijolat bo'ldim va «Mayli, keyinroq kelarman», dedimda, xayrlashib chiqib ketdim. Chunki bu gal uning huzuriga xizmat yuzasidan emas, balki o'z ishim bilan borgan edim. Balki boshidanoq, xuddi xizmat yuzasidan kelganday tutib, kirib ketganimda shuncha turmasmidim, deya o'zimni o'zim so'kib qolaverdim. Keyinroq boshqa ish bilan boshqa yerda yana navbat kutdim. Bir nechtasi «Shaxsiy ish emas, xizmatchilik», deya navbatni ham pisand qilmasdan kirib chiqishaverdi. Oxiri «portladim». Menga qo'shilib qolgan kutib turganlar ham to'polon ko'tarishdi.

Oxir-oqibat ichkaridagi boshliq tashqaridagi «xizmat»dagilarni navbat bilan qabul qila boshladi. Shunda avvalgi navbat kutganim esimga tushdi. Benavbat kirish qanchalar hurmatsizlik ekanini tushundim.

Islom joriy qilgan odoblardan biri — hozirgi kunda ham yuksak madaniyat belgisi bo'lgan muhim xislat — islomga muvofiq salomlashish va izn so'rash odobidir.

«Ey mo'minlar! O'zingizning uyingiz bo'lmagan uylarga to ruxsat olmaguncha kirmanglar. Bu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyadki, o'zingizga nasihat — eslatma olursiz. Agarda u yerda hech kim topmasangiz, to u izn berilmaguncha u yerga kirmanglar. Bordi-yu sizlarga

qaytinglar deyilsa, darhol qaytinglar. Zero, bu qilgan ishingiz o'zingiz uchun pokroqdir!» (Nur surasi, 27-oyat).

Balki bu sura biz tilga olgan mavzuga unchalik yaqin emasdir. Ammo har narsaning ijozati bo'lgani durust. Ba'zan esa kattalar o'tirgan joylarga juda zamonaviy kiyinib olgan, o'zi ham «boyvachcha» ko'rinishdagi yoshlar kiradilar-da, o'tirganlarga salom berish tugul, ijozat so'ramasdan shartta ichkariga kirib ketadilar yoki ularning oldini bosib o'tadilar... To'g'ri, ular bu bilan o'zlarining qanchalar «zo'r»ligini ko'rsatadilar, kimningdir havasini keltirmoqchi bo'ladilar. Aslida havas o'rniga g'azab qo'zg'atganlarini bilmaydilar. Bu haqda gapirsangizlar esa «notatsiya o'qimang», deyishdan toyishmaydi. Bizningcha, har narsani islomga, shariatga, odob-axloq me'yorlariga muvofiq qilsa, hech kimning dili og'rimasdi.

MEHR VA MUHABBAT BERING!

1. Mish-mish tarqatishga bo'lgan moyillik.

O'z yori yoki biror-bir qarama-qarshi jins vakili oldida boshqa ayolni tanqidga olish yoki uni masxara qilish barcha ayollarga xos bo'lgan jihatdir. Bu ro'y berishi mumkin bo'lgan raqobatning oldini olish uchun qilinadigan harakatdir. Lekin erkak kishi ha deb o'zgalar sha'niga haqorat yog'diraveradigan ayolni ko'pam yoqtiravermaydi. Bunday ayol uning nazarida himoyasiz, rahmga muhtoj va yoqimsiz bir shaxsga aylanib qolishi mumkin.

2. Mayda gaplik.

Erkaklarga har bir gapingizda ularning xatosini ko'rsataversangiz yoki o'sha narsani yanada yaxshiroq amalga oshirishi mumkunligi to'g'risida eslataversangiz ular sizdan qattiq xafa bo'lishadi. Esingizda bo'lsa tanqid hech qachon hech kimga yoqmagan. O'zgalarda kamchilik ko'rguday bo'lsangiz o'sha xatosini unga yaxshi tomonlama tushuntirib berishga harakat qiling.

3. Ojizlik.

Agarda ayol kishi hech bir narsani mustaqil amalga oshiro olmay, zimmasidagi barcha muammoni erkak kishiga yuklasa, bu ularga umuman yoqmaydigan holatdir. Masalan, ayrim ayollar hattoki restoran-da o'tirgan vaqti o'zlariga erkak kishining maslahatisiz biror-bir taom tanlab olisholmaydi. Bunday ayollar har soniyada erkak kishiga murojaat etaverib ularning jig'ibiyroni chiqishiga sababchi bo'ladi.

4. Rashkchilik.

Erkak kishini o'zingizga qattiq bog'lab qo'ymoqchi bo'lsangiz, unga erkinlik hadya eting.

Agar unga ishonish mumkinligini his etsangiz, uni keraksiz shubhalardan xalos eting. Uni haqorat qila ko'rmang.

Agar u sizga xiyonat qilishini bilsangiz, uni tark eting.

5. Noshukrlik.

Ming bir xil urinish ila ayol kishini uchrashuvga chaqirib uni biror-bir restoranga olib borgan erkakka oddiy «rahmat» so'zini ayt olmagan ayol erkak kishining nafratiga sazovor bo'ladi. Eng yaxshisi unga ham biror-bir yoqimli narsa hadya qiling, masalan, ertasiga qo'ng'iroq qilib kechagi ajoyib o'tgan soniyalar uchun unga yana bir bor minnatdorchiligingizni bildiring.

6. O'tgan kunlar xotirasi.

Erkak kishining nafratiga sazovor bo'ladigan yana bir narsa: ayol kishi hadeb o'tgan ishqiy sarguzashtlarini esga olaverishidir.

Agar shunday qilsangiz, siz undan norozi ekanligingizni yoki o'sha olis-olislarda qolib ketgan muhabbatingiz undan ustunroq degan fikrga borishi mumkin. Shuningdek, ularning shaxsiy hayotida bo'lib o'tgan ishqiy sarguzashtlar to'g'risida gapirib berishini iltimos qilsangiz ham katta xatoga yo'l qo'yan bo'lasiz. Bu narsani ular yoqtirmaydilar.

7. Doimo norozi bo'lish.

Doimo biror-bir narsadan norozi bo'laveradigan ayolni hattoki eng kuchli irodali erkak ham seva olmaydi.

8. Ko'p gaplik.

Erkakni ayol kishiga aloqador mavzular bilan qiziqtirishga urinmang. Ularni kecha kim qanday libos kiygani, kim qanday kosmetik vositadan foydalanganligi yoki sataroshingiz sizga qanday maslahat berganligi umuman qiziq tirmaydi. U bilan qiziq suhbat qurmoqchi bo'lsangiz, uning qiziqishini uyg'ota oladigan mavzularni toping.

9. Mas'uliyatsizlik.

Erkak kishini uzoq vaqt kuttirib qo'ymang. Agar siz unga biron-bir joyga borishingiz uchun pardoz-andoz qilishingiz kerakligini aytgan bo'lsangiz, bu degani yana bir soat bemalol ko'zgu yonida o'tirishingiz mumkin degan ma'noni anglatmaydi.

ODAMLAR ORASIDA MUHABBAT

Sekingina bir mulohaza yuritsangiz: «Bu bilan nima demoqchi bo'ldi? Nega bunday qildi ekan?» va h.k. Bunaqada cheksiz o'ylab, hech qanday xulosaga kelmaslik ham mumkin. Sonlar bu narsaga aniqlik kiritishi mumkin ekan. Biz sizga munosabatlaringizga aniqlikni numerologiya yordamida kiritishni taklif qilamiz.

Shunday qilib boshladik. Masalan, kishi 1972-yil 15-aprelda tug'ilgan. Uni quyidagi tarzda yozib chiqamiz: 15 41972.

Endi yana to'rtta raqamni aniqlab olamiz. Birinchisini hisoblab topish uchun tug'ilgan kunning raqamlarini bir-biriga qo'shib chiqamiz:

$$1+5+4+1+9+7+2=29; \text{ birinchi son} - 29 (1).$$

Ikkinchi raqam birinchi raqam tashkil topgan raqamlarni o'zaro qo'shish orqali topiladi: $2+9=11$; ikkinchi son – 11 (2).

Uchinchi sonni topish uchun butun qatorning birinchi raqamini ikkiga ko'paytirib uni birinchi sondan ayirib tashlaymiz:

$$29-1 \times 2=29-2=27, \text{ uchinchi son} - 27 (3).$$

Va nihoyat to'rtinchi sonni topish uchun uchinchi sonni tashkil qilgan raqamlarni o'zaro qo'shamiz: $2+7=9$, to'rtinchi son – 9 (4).

Keyin olingan raqamlarni tug'ilgan kunning ostidan yozib chiqamiz:
15 41 9 7 229 11 27 9

Endi bir xil raqamlarni Pifagor kvadratiga yozib chiqamiz (noldan tashqari). Pifagor kvadrati ichiga ketma-ket raqam yozilgan to'qqizta katakdan iboratdir. Birinchi katakka 1, ikkinchisiga 2 va h.k (1-jadval). Hozirgi paytda bu kvadratni psixomatritsa deb aytishadi. Unga o'zimizning raqamlarimizni yozib chiqamiz. Keyin har ikki qatorda bir xil raqamlar nechtdan ekanligini aniqlab olamiz. Nol raqami hisoblanmasligini yodda tuting.

Ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda matritsa katta rol o'ynaydi. Hammasi ulardagi raqamlarga bog'liq. Agar raqam bo'lmasa yoki bitta bo'lsa – liniya (xarakter qirrasini) juda kuchsiz namoyon bo'lgan bo'ladi. Ikkita raqam – norma, uchta bo'lsa – juda yaxshi. Liniyada to'rtta raqam bo'lsa, xususiyat kuchli namoyon bo'lgan, lekin hali oxirigacha to'liq yetmagan, beshta raqam bo'lsa – maksimum bo'lib, bundan yaxshiroq natija bo'lmaydi. Olti va undan ziyod raqamlar bo'lsa xususiyat zo'riqqan va siz boshqalarning gapiga kiradigan kishi bo'lib qolgan bo'lasiz.

Hozir biz raqamlar miqdori kishining xarakteriga qanday ta'sir qilishini o'rgandik. Endi oila masalalariga o'tsak. Yoringizdan nimalarni kutishingiz mumkin? Bu haqda psixomatristsamizning uch qatori so'zlab beradi.

Matristsaning birinchi qatori nimani anglatadi? U kishining qanchalik darajada maqsadga intiluvchanligini o'z fikrlarini himoya qila olishini, o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'ya olishini ko'rsatadi. Agar unda raqamlar bo'lmasa, bu odam aniq jiddiy maqsadi yo'q, oqimga qarab ish tutadigan kishi bo'lib, uni o'z rejalaridan voz kechishga oson ko'ndirish mumkin. Agar raqam bitta bo'lsa, maqsadga intilish kuchsiz, u odamning maqsadlari ham uncha katta bo'lmaydi va ularni amalga oshirish uchun irodasi ham yetmaydi. Ikki yoki uchta raqam bo'lsa maqsadga intilish o'rtacha. Bu odam hayot davomida sekin-asta kuchayib boradi. U dastlab o'z imkoniyatlarini o'rganib chiqadi va keyingina o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ya boshlaydi. To'rt yoki beshta raqam – maqsadga intilish kuchli rivojlangan. Bunday odam o'z maqsadlariga ko'pchilik hollarda erishadi. Maqsadiga yetish uchun u hamma narsaga tayyor. Ular bu yo'lda me'yorni nazorat qilib turishlari lozim. Olti va undan ko'p raqamlar kishi oldiga birdaniga bir nechta yoki imkoniyatlaridan tashqari bo'lgan haddan katta maqsadni qo'yadi va o'z-o'zidan oldinga intila olmaydi, deyish mumkin.

Bizning misolimizda: birinchi qatorda 1111 4 77 yettita raqam turibdi. Bu odam oldiga yo birdaniga bir necha maqsadni yoki imkoniyatidan tashqari bo'lgan maqsadni qo'ygan. Hamma narsaga erishish istagida u hech narsaga erisha olmaydi.

Ikkinchi qator (biz uchun eng muhimi) oila boshlig'ining xarakteri, oilali bo'lish va yaqinlari orasida bo'lishga intilishni bildiradi. Raqamlar bo'lmasa bu kishi yaxshi oila boshlig'i bo'la olmaydi. Oila uning uchun so'nggi o'rinda turadi. Bunday kishilar odatda oila qurishga shoshilmaydilar (ularni ko'proq ish, obro', do'st va h.k.lar qiziqtiradi).

Bir yoki ikkita raqam – kishi oila qurish kerak deb hisoblaydi, lekin buning uchun unchalik qayg'urmaydi. Uchta raqam – bu odam oila qurish va qurmaslik orasida sarson, agar u oila qurishga qaror qilgan bo'lsa, uni tezlash kerak, bo'lmasa bu narsa orqaga surilib ketaveradi. To'rtta raqam – kishi oila qurishni istaydi va buni sekinlik bilan amalga oshiradi. Ular oilasini saqlashga intiladilar. Beshta raqam

– haqiqiy oila egasi. Bunday odamlar ideal oila qurishga intiladilar va turmush o'rtloqlariga ham juda keskin talablar qo'yadilar. Ular hayotini oilasiz tasavvur ham qila olmaydilar. Olti va ziyod raqam bo'lsa bu zo'riqish bo'lib, bu odamlar o'zlariga mos insonni uzoq izlaydilar. Natijada kech oila quradilar.

Bizning misolimizda ikkinchi qatorda 4 ta raqam bor, demak, bu kishi yaxshi oila boshlig'idir.

Uchinchi qator kishining turg'unligi, odatlari, mas'ulligi, qo'rqi-shi va o'zgarishlarni yoqtirmasligini ko'rsatadi. Agar raqam bo'lmasa yoki bitta bo'lsa, u odam atrofidagi barcha narsalar – ish joyi, kasbi va h.k.ni o'zgartirishni istaydi. Ikkita raqam kishi oson ko'tarilishi mumkin, biroq nimanidir o'zgartirish istagidan bemalol voz kechishi ham mumkin. Uchta raqam – kishi odatlarida turg'un turmaydi. Uning ko'plab odatlari bo'lishi mumkin, biroq u bu narsalardan hech qanday sababsiz voz kechishi va biroz vaqt o'tgandan keyin yana ularga qaytishi mumkin. To'rt va beshta raqamli kishilar ancha barqaror kishilardir. Ularning kamchilik tomoni – ular juda sekinlik bilan o'zgaradilar. Olti va ziyod raqamli kishilar yana turg'unlikni bildiradi. Kishining odatlari shunchalik ko'pki, ularning ta'siriga tushib qoladi va bu holatlar uning yashashiga xalaqit bera boshlaydi. Natijada kishi ular, aniqrog'i, o'zining barqarorligiga qarshi kurasha boshlaydi.

Bizning misolimizda uchinchi qatorda uchta raqam bor, demak, uning barqarorlik imkoniyatlari unchalik katta emas. Shunday qilib yodda tuting:

Birinchi qator – maqsadga intiluvchanlik.

Ikkinchi qator – oila boshlig'i sifatlari.

Uchinchi qator – barqarorlik.

Oilani qurish jarayonida ayol va erkak bir-biri har bir qator bo'yicha qanchalik mos kelishini e'tiborga oling. Bu narsa oilaning barqarorligiga katta ta'sir qiladi. Birinchi qator yuzasidan yo erkak, yo ayol maqsadga intiluvchanlik jihatidan ustunroq bo'lishi lozim. Bunda ular bir-birini to'ldirishi lozim. Ikkinchi qator kishining oilaga bog'liqligini bildiradi. Demak, bu qator xususiyatlari qanchalik kuchli aks etgan bo'lsa, oila shunchalik barqaror bo'ladi.

Qisqacha shunday deyish mumkin: agar erkak ham, ayol ham ikkinchi qatorda to'rttadan raqamga ega bo'lsa, ular oilasini saqlashga

intiladilar. Uchtadan kam bo'lsa, ular o'zlarini yaxshilab sinab ko'rishlari lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ikkinchi qator xususiyatlari kuchliroq namoyon bo'lgan taraf oilada ko'proq majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi lozim.

Kuchsiz tarafga majburiyatlarni tashlayverish befoyda va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yodingizda tuting, oilani kim unga ko'proq qiziqsa o'sha saqlab qolishi mumkin.

Uchinchi qatorning xususiyati barqarorlik bo'lib, bu qatorda raqam qanchalik ko'p bo'lsa, oila shunchalik barqaror bo'ladi. Bu qatorning raqamlari sonida eri va xotini orasidagi farq unchalik katta bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Chunki bir-biri bilan bir xil barqaror bo'lgan oila a'zolari bir-birini yaxshiroq tushunishadi. Bu narsalar numerologiya faniga kirish qismidir, xolos. Shuning uchun bu narsalar sizning oila qurishingizda asosiy qo'llanma bo'lmasligi lozim. Bu narsalar sizga faqat oilangizni yaxshiroq tushunib olishingizga yordam beradi.

1 lar	2 lar	3 lar
4 lar	5 lar	6 lar
7 lar	8 lar	9 lar
1	2	3

V BOB. PSIXOLOGIK TESTLAR VA TAVSIYALAR

5.1. Iqtidorli bolalarni aniqash, ishlash, rivojlantirish muammolari

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta istiqboliy yo‘nalishlardan biri – maktab o‘quvchilari orasidan iste‘odli, zukko bolalarni aniqlab, ularni alohida dasturlar asosida o‘qitish, xalq xo‘jaligi uchun malakali mutaxassislar yetishtirishdir.

Intellektual mulk deb atalgan bu boylik mamlakatimiz taraqqiyoti omili, ma‘naviy va moddiy boyligidir. Asosiy boylik egasi, ya‘ni intellektual mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan inson esa o‘z tafakkuri bilan ijod, buyuk ixtirolar qilishga qodir bo‘ladi, insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladi.

Shu sababli axloqan sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo‘lgan bolalarni maxsus o‘qitish va ularga ko‘proq umid bog‘lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo‘ladilar.

O‘zbek avlodini jahonga ko‘z-ko‘z qila oladigan kishilar – bu iste‘odli, qobiliyatli, zukko, o‘z ishining ko‘zini bilib bajaradigan qo‘li gul, o‘z sohasining mohir mutaxassislaridir.

Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o‘quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yo‘nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo‘naltirishimiz kerak. Afsuski, bu sifatlar bolada bo‘lmasa, uni orttirish oliy o‘quv yurtida ham, maktabda ham qiyin. Shuning uchun iste‘odlilarni tanlashda xatoga yo‘l qo‘yish shaxsni tahqirlash hisoblanadi. Aniqlashning bir necha yo‘llari bo‘lib, eng asosiysi psixologik testlar, topshiriqlar va suhbatdir.

Iqtidorli bolalar bilan ishlash va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish yuzasidan tavsiyalar

1. Maktab rahbari va maktab psixologining hamkorligini kuchaytirgan holda tuman xalq ta‘limi bo‘lim Tashxis markazi bilan bevosita ish olib borish.

2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun imkon berish va uning fikrini qo‘llab-quvvatlash.

3. Psixologik metodikalar orqali o'quvchilarni tanlash va ularni fanlarga yo'naltirish.

4. Zukko deb tan olingan o'quvchilarni fan o'qituvchilariga birlashtirish, fan olimpiadalari, turli xil munozaralarga jalb etish.

5. Iqtidorni aniqlovchi yangi psixologik metodikalar bilan boyitish.

6. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bilan hamkorlik qilish.

7. Iqtidorli o'quvchilarni turli xil «Umid», «Kamolot», «Sores» kabi jamg'armalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etishiga yordam berish.

8. Iqtidorli o'quvchilarni ixtisoslashgan sinflarga jalb qilish.

9. Iqtidorli o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda maktab psixologi, fan o'qituvchilari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish.

10. Ta'lim muassasalaridagi iqtidorli tarbiyalanuvchi va o'quvchi yoshlarning iqtidorini iste'dod darajasiga ko'tarishda amaliy yordam berish.

11. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning qobiliyati, iqtidori va layoqatini ilk yoshidan boshlab aniqlash va tasiylar berish.

12. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda turli to'garaklar tashkil etish.

13. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha chiqarilgan har bir me'yoriy hujjatlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

14. O'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqqan soha bo'yicha bilim olishlari yurtimiz kelajagi, ravnaqi uchun muhimligini anglash va o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar ongiga singdirish.

15. Ta'lim muassasasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda chuqurlashtirilgan bilim berish yo'nalishini belgilash.

16. Ixtisoslashgan ta'lim muassasasini tashkil etish uchun tashkiliy metodik bazani hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlarini tayyorlash.

17. Ixtisoslashgan maktabning nizomi ishlab chiqilib, tuman hokimiyatida tasdiqlanishi va ushbu hujjatlar asosida maktabning yo'nalishlari, o'quvchilarni qabul qilish tartibini imtihon materiallarini ishlab chiqish, qabul komissiyasini tuzish, rahbar tomonidan tasdiqlash.

Iste'dodli bola kim?

Iste'dod ko'p qirralidir. Yosh bolalardagi iste'dodning ko'rinishi — bu nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligidir. Bundan tashqari iste'dodli bolalar tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarga o'ta qiziquvchan bo'ladilar. Iste'dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lishini mutaxassislar e'tirof etganlar. Iste'dod asosan uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilim darajasining ustunligi, psixologik rivojlanish, fiziologik sifatlar.

Bilish jarayonlari:

Ular bir vaqtning o'zida juda ko'p ishlar bilan shug'ullanadilar, ular juda qiziquvchan bo'ladilar, kuchli xotiraga egadirlar va diqqatlarini bir joyga to'play oladilar.

Psixologik rivojlanish:

Haqiqat hissi yaxshi rivojlangan, qadriyatlarining shaxsiy tizimi, xayolning o'ta rivojlanganligi, hazil hissining mavjudligi, o'zlari uchun to'g'ri kelmaydigan vazifalarni yechishga harakat qilishi, ular qo'rquv holatini oshirib yuborishlari ham mumkin, ularda egotsentrizm kuchli bo'ladi.

Fiziologik sifatlar:

Iste'dodlilarda ikki xil stereotip mavjud: biri ozg'in, kichkina, nimjon bola yoki uning aksi. Iste'dodlilar juda kam uxlashadi.

Bilish jarayonidagi rivojlanishining o'zib ketishi:

1. Idrokning kengligi, iste'dodli bolalar atrofidagi voqealarga juda sezgir va juda qiziquvchanligidir. Ular uchun dunyo nimadan tarkib topganligini bilish juda qiziqdir. Ular bir necha jarayonni bir vaqtning o'zida kuzatishga juda qiziqishadi.

2. Ular ko'rinish va predmetlarning orasidagi aloqani kuzatish va nazorat qilishga egalar. Ular doimo o'zlarining xayollarida alternativani vujudga keltirishni sevadilar.

3. Juda yaxshi xotira va tilning yosh vaqtdanoq rivojlanishi bolaga olamni bilishda juda qo'l keladi.

4. Iste'dodli bolalar juda katta lug'at boyligiga egadirlar, lekin o'zlari uchun yangidan-yangi so'zlarni ixtiro qiladilar.

5. Qobiliyat bilan birga mantiqiy noto'g'rilik bilan masalalar yechimini topishi, idrokning yuqori darajasini saqlab qolishi, o'z ixtiyori bilan murakkab masalalarni ishlashni yoqtirishadi, ular tayyor javoblarni olishni yoqtirishmaydi.

6. Ba'zi iste'dodli bolalar matematik qobiliyatga egalar, ular hisoblashni yaxshi ko'rishadi, bunday bolalar chuqur mantiqqa ham egadirlar.

7. Iste'dodli bolalarning diqqatini to'plashi juda kuchli hisoblanadi va qat'iyatsizlik bilan masalalarni yechishga harakat qiladilar.

8. Iste'dodli bolalar masalalar bilan qiziqadilar, ular o'zlari tushunmagan masalalarni yechishga harakat qiladilar. Ular yordamga muhtoj, lekin qo'llashlarini yoqtirmaydilar.

Psixologik sezuvchanlik

1. Iste'dodlilarda haqiqatni himoya qilish hissi kuchli bo'ladi, o'zib ketayotgan axloqiy rivojlanish idrok va bilish jarayonining o'ta rivojlanganligiga yondashadi.

2. Ular adolatsizlikka qarshi chiqishadi. Ular o'zlariga va atrofdagilarga juda katta talab qo'yishadi.

3. Masalalarning yechimida ularga xayol juda qo'l keladi.

4. Ular juda katta hazil hissiga egadirlar, mos kelmaydigan tushunchalarni o'ylab topadilar, ularning hazil qilishdagi idroki tengqurlaridan ajralib turadi.

5. Ularga emotsional balans yetishmaydi, yoshlik vaqtida bunday bolalar juda sabrsizdirlar.

6. Ular ba'zida qo'rquv holatini ko'pirtirib ko'rsatadilar, ular imo-ishoralarga juda ahamiyat bilan qaraydilar.

7. Iste'dodlilarda egotsentrizm yaqqol ifodalangan bo'ladi.

8. Ularda o'zini idrok qilishda negativ sifatlar rivojlanadi, tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchilik vujudga keladi.

Fiziologik xarakteristika

1. Iste'dodli bolalar juda katta energetik kuchga ega, ular juda kam uxlashadi.

2. Ularning qo'l harakatlari bilish qobiliyatlaridan biroz orqada qoladi. Ularga amaliyot muhimroqdir. Intellektual va fiziologik rivojlanishdagi farqlar ularning mustaqilligini bo'g'ishi mumkin.

3. Iste'dodli bolalarning ko'rish qobiliyatlari (8 yoshgacha) o'zgaruvchandir, ularning bu qobiliyatlari pasayib ketishi mumkin.

Iste'dodli bolalar bilan ish olib borishda mutaxassislarning tavsiyalari

Iste'dodlilar bilan ishlashda Karne, Shvedal va Linnemayerlar (1982-y.) quyidagi mezonlarni ishlab chiqqanlar:

1. Har bir bola takrorlanmasdir. Ba'zilar she'r yozish, insholardan, ba'zilar matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o'quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baholash mezoni juda past bo'lishi mumkin. Shu orqali har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste'dodli bolalar bilan ishlash rejasini tuzish mumkin.

2. Iste'dodli bolalar o'zlariga nisbatan juda tanqidchandirlar. Ular o'z «men»ini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta'siri iste'dodli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Yuqori intellekt va rivojlanishning mos kelmasligi bolani ranjitishi mumkin.

3. Iste'dodli bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rni juda kattadir. Agar oila, maktab o'zaro aloqada bo'lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

4. Iste'dodli bolalar uchun turli xil o'quv rejasini tuzish. Iste'dodli bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olib o'quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Ko'pgina iste'dodli o'quvchilarning qiziqishlari ko'p qirralidir.

5. Iste'dodli bolalar oddiy bolalar bilan o'qigan taqdirda ham, iste'dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

6. Iste'dodli bolalarning dasturi har tomonlama mukammal bo'lishi zarur.

7. Iste'dodli bolalarni o'qitish uchun tuzilgan rejani shu sohadan xabardor bo'lgan rahbarning o'zi nazorat qilgan taqdiridagina samara berishi mumkin.

8. Iste'dodli bolalarni o'qitishning namunali rejasini ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilish kerak.

9. Ota-ona va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari muhimdir. Bu hamkorlik iste'dodli bolalarning iste'dodini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

10. Bolaning o'ziga nisbatan bahosini bilishimiz juda muhimdir. Bola o'zining oldiga qo'ygan qanday vazifalarni bajarilayotganligini ham bilish kerak, ota-ona bundan xursandmi?

Faqat reja mavjud bo'lsa, ota-ona ham, mutaxassis ham bola o'z oldiga qo'yayotgan misollarni yechayotganligini bilishi mumkin.

11. Namunali dastur yaxshi rejalashtirilgan, effektiv va doimiy faoliyatdagi sistemani ko'rsatish kerak va bunda ota-onaning o'rnini ham ta'kidlab o'tishimiz zarur.

12. Dasturning optimal jihatlarini ko'rishi kerak, bola bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlash kerak.

13. Dastur qat'iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirishi kerak. Yuqori bo'lishi juda katta ahamiyatga ega emas. Maqsadga intilish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishi muhimdir.

14. Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir.

15. Iste'dodli bolalar bilan ishlashda talantli tarbiyachi, o'qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Iste'dodli bolalarning muammolari

Leta Xollinguort intellektual jihatdan iste'dodlilarning moslashuvini o'rganib chiqib, bu muammoga o'zining katta hissasini qo'shdi. Ota-ona va pedagoglar iste'dodli bolalar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga o'z e'tiborlarini qaratishi lozim:

1. Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat iste'dodli bola uchun asosan maktab dasturi zerikarli va qiziq bo'lmagan holatda sodir bo'ladi. Iste'dodli bolalarning fe'lidagi o'zgarishlar ularning qobiliyatiga dastur moslanmasligi uchun sodir bo'ladi.

2. O'yin holatiga bo'lgan qiziqishlar. Iste'dodli bolalarga murakab o'yinlar juda yoqadi va ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o'yinlar zerikarli tuyuladi. Shu sababdan iste'dodli bola yakkalanib qoladi.

3. Konformlilik. Iste'dodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to'g'ri kelmasa, ma'nosizdek tuyuladi.

4. Falsafiy muammolarga o'ralashib qolish. Iste'dodli bolalar ko'pincha o'lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko'p boshlarini qotiradilar.

5. Fiziologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishning bir-biriga mos kelmasligi. Iste'dodli bolalar o'zlaridan katta bo'lgan bolalar bilan muloqot qilishni va o'ynashni yoqtirishadi. Shuning uchun ham ular sardor bo'lishga qiynalishadi, chunki ularda fiziologik o'sish kechroq bo'ladi.

Bu ro'yxat boshqa tadqiqotchi Uitmor (1980 y.) tomonidan to'ldirilgan

1. Mukammallikka intilish. Iste'dodli bolalar uchun ichki mukammallik ehtiyoji muhimdir. Ular yuqori bosqichga chiqmaganlaricha to'xtamaydilar. Bu ko'rinish juda erta namoyon bo'ladi.

2. Qoniqmaslik hissining mavjudligi. O'ziga bo'lgan bunday munosabat mukammallikka intilish hissi bilan o'zaro bog'liqdir. Ular o'zlarining yutuqlariga tanqidiy nazar bilan qarashadi, ko'pgina hollarda qoniqmaydilar, shuning uchun ham past o'zini baholash vujudga keladi.

3. Real bo'lmagan maqsadlar. Iste'dodli bolalar ko'p hollarda o'zlarining oldiga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Ularni bajarish imkoniyati bo'lmagach, ular xavotirga tusha boshlaydilar. Boshqa tomondan bu yuqori ko'rsatkichlarga intilishga undovchi kuchdir.

4. O'ta sezuvchanlik. Iste'dodli bolalar tashqi muhit ta'sirlarini yaxshi sezganlari uchun tashqaridan bo'ladigan tanqidga juda katta ahamiyat beradilar. Iste'dodli bolalarning ko'ngillari juda nozikdir, ular ko'pincha noverball holatlarni o'zlari uchun deb tushunadilar.

5. Kattalar e'tiborini tortishga intilish. Tabiat ato etgan dunyoqarashi va bilishga intilish jarayonida iste'dodli bolalar o'qituvchi, ota-ona va boshqa katta insonlarning e'tiboriga muhtoj bo'lib qoladilar. Bu boshqa bolalarning jahllari chiqishiga olib keladi.

6. Sabrsizlik. Iste'dodli bolalar o'zlaridan past bo'lgan intellektda turadigan bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'lishadi. Ular atrofida gilarining munosabatlarini va tanqidlarini inkor etadilar, ular bunga nafrat yoki sabrsizlik bilan javob berishadi.

Bolaning qobiliyat yo'nalishlari darajasini aniqlash usullari

	1-bosqich (1-4-sinf)
1.	Kuzatish jarayonida
2.	Suhbat jarayoni orqali qiziqishlarini o'rganish
3.	Ota-onasi, bolaning o'zi bilan suhbatlashish
4.	Diqqat xotirasini tekshirish, testlar

5.	Tadbirlar, (KVN, konsertlar, kechalar, bayramlar)
6.	Dars jarayonida
7.	Musobaqalarda
8.	Kichik fan olimpiadalari
9.	Ekskursiya uchrashuvlarida
2-bosqich (5–7-sinf)	
1.	Qiziqishi, shug‘ullanayotgan to‘garagi
2.	Testlar
3.	Fan olimpiadalari
4.	Tadbirlarda
5.	Musobaqalarda
3-bosqich (8–11-sinf)	
1.	Testlar
2.	Fan olimpiadalari
3.	Tadbirlarda
4.	Musobaqalarda

5.2. Iqtidorli bolalarni aniqlash testlari

Umumiy bilimdonlikni aniqlash testi

Sizga ikkita so‘z berilgan, shu ikki so‘z uchun umumiy bo‘lgan so‘zni toping.

Masalan, «Bug‘doy – arpa» bo‘lsa, umumiy so‘z «donli o‘simliklar» bo‘ladi.

1. Osiyo – Afrika –
2. Botanika – Zoologiya –
3. Feodalizm – kapitalizm –
4. Ertak – rivoyat –
5. Suyuqlik – gaz –
6. Yurak – arteriya –
7. Kopengagen – Managua –
8. Atom – molekula –
9. Yog‘lar – oqsillar –
10. Fan – san‘at –
11. Amper – volt –
12. Kanal – to‘g‘on –
13. Yig‘indi – ko‘paytma –
14. To‘fon – zilzila –
15. Klassika – reallik –

Javoblar kaliti 1. Qit‘a; 2. Biologiya; 3. Ijtimoiy tuzum;

4. Xalq og‘zaki ijodi; 5. Moddaning agregat holati; 6. Qon aylanish tizimi; 7. Poytaxt; 8. Moddaning kichik organlari; 9. Organik modda; 10. Madaniyat; 11. Elektr o‘lchov birligi; 12. Sun‘iy suv inshooti; 13. Matematik harakat; 14. Tabiiy ofat; 15. San‘at yo‘nalishi.

Javoblar izohi: har bir to‘g‘ri javob uchun – 1 ball.

0–5 – past;

6–10 – o‘rta;

11–15 – yuqori bilimdonlik darajasiga ega.

Matematik qobiliyatni aniqlash testi

Sizga bir qator sonlar berilgan. Ular qonuniyatlar orqali joylashgan. Sizning vazifangiz esa har qatorning keyingi sonini topishingiz lozim (10 daqiqa oralig‘ida). Har bir qator matematik amallar qo‘llanilgan holda tuzilgan. Masalan, 2, 4, 6, 8, 10, keyingisi 12, chunki har safar 2 ga ko‘paygan yoki 9, 7, 10, 8, 11, 9, 12. Bu yerda 2 ga ko‘payib 3 olinganligi uchun keyingi son 10 bo‘ladi.

Kalit

- | | | |
|----------------------------|------|-------|
| 1. 6, 9, 12, 15, 18, 21? | 1–24 | 6–24 |
| 2. 9, 1, 7, 1, 5, 1? | 2–3 | 7–18 |
| 3. 2, 3, 5, 6, 8, 9? | 3–1 | 18–64 |
| 4. 10, 12, 9, 11, 8, 10? | 4–7 | 9–37 |
| 5. 1, 3, 6, 8, 16, 18? | 5–36 | 10–49 |
| 6. 3, 4, 6, 9, 13, 18? | | |
| 7. 15, 13, 16, 12, 17, 11? | | |
| 8. 1, 2, 4, 8, 16, 32? | | |
| 9. 1, 2, 5, 10, 17, 26? | | |
| 10. 1, 9, 16, 25, 36? | | |

Shaxsning til o‘rganishga nisbatan qobiliyatini aniqlash

Quyidagi so‘zlardan foydalanib gaplarni shu tilga tarjima qiling. Sizga 10 daqiqa vaqt.

So‘zlar:

U – va

Ter – ota

Term – otamnikiga

Nafe – aka
Nate – uka
Nixa – bormoq, mehmon bo‘lmoq
Beg – sevmuq, yaxshi ko‘rmoq
Em – mening, meniki
Ru – men, de – sen
«x» – inkor ma’nosi.

Gaplar:

1. Sen otamnikiga bording.
2. Men seni sevaman.
3. Sen menikiga kelding.
4. Men otamnikiga bordim
5. Men otamni sevaman.
6. Otam ukamnikiga bordi.
7. Otam seni sevadi.
8. Men seni sevmayman
9. Otam menikiga kelmaydi.
10. Otam va men senikiga bordik.

To‘g‘ri javoblar:

1. De term nixa.
2. Ru de beg.
3. De yem nixa.
4. Ru term nixa.
5. Ru ter beg.
6. Ter natem nixa.
7. Ter de beg.
8. Ru de beg.
9. Ter yem nixax.
10. Ter u ru dem nixa.

Izoh: 10 daqiqa orasida qancha gap tarjima qilinsa, ball shuncha yuqori bo‘ladi. Maksimal ball – 10 ball.

VI BOB. MAKTAB AMALIY PSIXOLOGLARI VA O'QITUVCHILAR UCHUN TAVSIYALAR

6.1. Maktab psixologining o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari

Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar ta'lim-tarbiyasida bo'ladigan kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri o'qituvchining psixologiyasiga bog'liq. Lekin bunga ko'pgina kasbiy-psixologlar, hattoki maorif xodimlarining ko'pchiligi e'tibor bermaydi. Shu maqsadda ushbu tavsiya o'qituvchining kasbiy-psixologik xususiyatini diagnostika qilish va shu orqali korreksion ishlar olib borish ta'lim-tarbiya jarayoniga yordam beradi.

Pedagog faoliyatining quyidagi qirralarini o'rganish uchun tavsiya berishni lozim topdik:

- pedagogik, kasbiy faoliyatini baholash;
- pedagogning shaxsiy kasbiy yo'nalishini baholash;
- pedagogning empatik qobiliyatini aniqlash;
- pedagog shaxsini psixogeometrik test orqali aniqlash;
- pedagogning kommunikativligini aniqlash;
- pedagogik jamoada psixologik iqlimni aniqlash;
- pedagogning intellekt darajasini aniqlash.

Korreksiyalash maqsadida:

- diqqatni oshirish yo'llari;
- xotirani oshirish yo'llari;
- tafakkur-fikrlash faoliyatini oshirish yo'llari;
- uyatchanlik va jahldorlikni tuzatish;
- psixologik yordam kabi uslubiy tavsiyalarni ham taqdim etdik.

O'ylaymizki ushbu tavsiya ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

6.2. Pedagogning kasbiy faoliyatini baholash

Quyidagi savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob bering (o'quvchilar bilan o'tkaziladi):

1. O'qituvchim o'quvchilarininig yutug'ini oldindan biladi.
2. O'qituvchim bilan munosabatim yomon.
3. O'qituvchim to'g'ri so'z, haqqoniyligi bor.

4. O'qituvchim imtihon va yozma ishga tayyorlaydi.
5. O'qituvchimda odamlarga ishonch va e'tibor yo'q.
6. O'qituvchimning so'zi men uchun qonun.
7. O'qituvchim ishlarimni rejalashtirishga yordam beradi.
8. O'qituvchimdan xursandman.
9. O'qituvchim menga nisbatan qattiqqo'l emas.
10. O'qituvchim kerakli maslahat bera oladi.
11. O'qituvchimga ishonaman.
12. O'qituvchimning menga bergan bahosi men uchun qadrlı.
13. O'qituvchim shablon bilan ishlaydi.
14. O'qituvchim bilan ishlash men uchun juda yaxshi.
15. O'qituvchim menga kam diqqat qiladi.
16. O'qituvchim mening shaxsiy xususiyatimni e'tiborga olmaydi.
17. O'qituvchim mening kayfiyatimni his qilmaydi.
18. O'qituvchim mening fikrimga e'tibor beradi.
19. O'qituvchimning usul va uslubini to'g'ri deb bilaman.
20. O'qituvchimga o'z fikrimni aytmayman.
21. O'qituvchim oddiy, nojo'ya ish uchun ham jazolaydi. O'qituvchim mening bo'sh va kuchli tomonlarimni biladi.
22. O'qituvchimga o'xshashni xohlayman.
23. O'qituvchim bilan faqat ish yuzasidan munosabatdamiz.

Bu test orqali o'qituvchining gnostik, hissiy va o'zini tutishi kabi pedagogik faoliyat komponentlari (tarkibiy qism) aniqlanadi.

1. Gnostik – 1, 4, 7, 10, 19, 22 – «ha» uchun 1 ball (kasbiga munosiblik) 13, 16 «yo'q» uchun 1 ball
2. Hissiy – 8, 11, 14, 23 – «ha» uchun 1 ball (simpatiya) 2, 5, 17, 20 – «yo'q» uchun 1 ball
3. O'zini tutish – 3, 6, 12, 18 – «ha» uchun 1 ball (o'zaro munosabat) 9, 15, 21, 24 – «yo'q» uchun 1 ball

Javoblar tahlili:

1, 2, 3 – qismlar bo'yicha umumiy ballar:
20–24 – yuqori, 12 – 16 – o'rtacha, 16–20 – yaxshi, 12 dan past yomon.

Har biri bo'yicha:

7–8 – yuqori, 3–4 – o'rta, 5–6 – yaxshi, 0–3 – yomon.

Bundan tashqari har uchala komponent alohida tahlil qilinadi.

6.3. Pedagogning empatik qobiliyatini aniqlash testi

Empatik qobiliyat deganda o'qituvchining o'zini o'quvchi o'rniga qo'ya olish, uning hissiy qayg'urishiga sheriklik qila olish tushuniladi. Qozonlik psixolog I. M. Yusupov tomonidan tuzilgan test buni aniqlash uchun juda qulay. Test savollariga «hamisha», «doimo», «tez-tez», «ayrim vaqt», «hech qachon», «bilmayman» deb javob bering:

1. Menga mashhur odamlar hayoti haqidagi kitoblardan ko'ra sa-yohatlar haqida yozilganlari yoqadi.

2. Boshqa odamlarning muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini tahlil qilish yoqadi.

3. Katta bolalarga ota-ona g'amxo'rliги yoqmaydi.

4. Musiqa yo'nalishlari orasida menga zamonaviylari yoqadi.

5. Kasallarning injiqligiga chidash kerak deb hisoblayman.

6. Kasallarga hattoki so'z bilan yordam berish kerak.

7. Ikki kishi orasidagi kelishmovchilikka begona odam aralash-masligi kerak deb hisoblayman.

8. Keksalar doim birovdan xafa bo'lishadi.

9. Yoshligimda g'amgin voqealarga ko'z yosh to'kkanman.

10. Ota-onam urushi kayfiyatimni buzadi.

11. Men tanbehga befarqman.

12. Menga tabiat tasviridan ko'ra portretlar yoqadi.

13. Ota-onam haq bo'lmasalar ham doimo kechirganman.

14. Ot tez yurmasa uni urish kerak.

15. Odamlar hayoti haqidagi dramatik asar o'qisam, men o'z hayotimni shunday his qilaman.

16. Ota-onalar bolalariga to'g'ri munosabatda bo'ladi.

17. Janjallashayotganlarni ko'rsam aralashaman.

18. Ota-onamning yomon kayfiyatlariga parvo qilmayman.

19. Hayvonlarning fe'liga e'tibor beraman.

20. Kitob va kino bo'sh odamlarga ta'sir qiladi.

21. Begona odamlarning o'zini tutishi va so'zlashishini kuzatish yoqadi.

22. Yoshligimda ko'chada qolgan mushuk va itlarni uyga olib kel-ganman.

23. Hamma odamlar sababsiz jahldor.

24. Begona odamning hayoti qanday bo'lishini bilgim keladi.

25. Yoshligimda mening ketimdan yosh bolalar yugurib yurar edi.

26. Kasal hayvonlarga mening yordam bergim keladi
27. Odamlarning arzigiga quloq solsangiz yengil tortasiz.
28. Ko'chada biror voqea yuz bersa aralashmaslikka harakat qilaman.
29. Bolalarga mening g'oyam va o'yin tashkil etishlarim yoqadi.
30. Hayvonlarning xo'jayinini tushunishi haqidagi gaplar menga yoqmaydi.
31. Har qanday qiyin holatdan odam o'zi chiqishi kerak deb hisoblayman.
32. Bola yig'lasa bunga sabab bor.
33. Yoshlar qariyalarning har qanday iltimosini bajarishi kerak.
34. Ayrim sinfdoshlarimning xayolchanligini bilishni xohlayman.
35. Mening do'stlarim shaxsiy muammolarini aytsa, gapni boshqa mavzuga buraman.

36. Bezori, uysiz hayvonlarni ushlab va yo'qotish kerak.

Test ishlanmasi:

Javoblarga ballar quyidagicha:

«Hamisha» – 5

«Doimo» – 4

«Tez-tez» – 3

«Ayrim vaqtda» – 2

«Hech qachon» – 1

«Bilmayman» – 0

Agar siz 3, 9, 11, 13, 28, 36-savollarga «bilmayman», 11, 13, 15, 27-savollarga «hamisha» deb javob bergan bo'lsangiz siz testga to'g'ri javob bermagansiz, o'zingizni yuqori baholagansiz. Agar uchto'rtta javob yuqoridagiga mos kelsa javob yaxshi emas, agar beshta bo'lsa, testga umuman noto'g'ri javob berilgan.

Endi qolgan ballarni hisoblang.

Agar siz 82–90 ball to'plagan bo'lsangiz, juda yuqori darajada empatiya egasiz. Bu holat sizni kasal qilishi mumkin.

63–81 – yuqori darajadagi empatik qobiliyat egasiz.


37–62 – normal darajadagi empatik qobiliyat egasiz.

12–36 – past darajadagi empatik qobiliyat egasiz.

0–11 – juda past darajadagi empatik qobiliyat egasiz.

6.4. Geometrik shakllar asosida odam rasmini chizish

Quyida berilgan geometrik shakllardan foydalanib odam rasmini chizing. Har bir shaklni kichraytirish yoki kattalashtirish mumkin, ularni bir-biriga birlashtirish mumkin, lekin shakllar soni o'ntadan oshmasin; kam bo'lsa chizing, ko'p bo'lsa o'chiring.



Rasmni baholash uchun uchburchaklar sonini yuzlik, aylanalar sonini o'nlik, kvadratni esa birlik bilan hisoblang (masalan, uchburchak 6 ta, aylana 3 ta, kvadrat 1 ta bo'lsa, 631 bo'ladi).

1-tip – 901, 910, 820, 811, 820, 703, 712, 721, 730; 604, 613, 622, 631, 640 – «rahbar»

2-tip – 505, 514, 523, 532, 541, 550 – «tartibli bajaruvchi».

3-tip – 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460 – «intellektual».

4-tip – 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370 – «olim»

5-tip – 208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280 – «intuitsiyali»

6-tip – 109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046 – «ixtirochi, loyihachi, musavvir».

7-tip – 550, 451, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091 – «emotiv».

8-tip – 901, 802, 703, 604, 505, 406, 307, 208, 109 – «emotiv emas».

Tiplar xarakteristikasi

1-tip. «Rahbar» – o'z nomidan ma'lumki, rahbarlik, tashkilotchilikka qobiliyatli odamlar bo'lib, ijtimoiy axloq asosida o'zini tutuvchi, yaxshi ma'ruzachi, har qanday joyda tez moslashuvchi, yashil rangni yaxshi ko'radi.

901, 910, 802, 811, 820 – o'zgalarning o'ziga bo'ysunishini yaxshi ko'radi, 703, 712, 721, 730 – so'z bilan ta'sir etuvchi, 604, 613, 622, 631, 640 – o'qituvchi rahbar.

2-tip. «Bajaruvchi» – rahbarga o'xshash tomonlari ko'p, lekin bir qarorga kela olmasligi bilan farq qiladi, yuksak kasbiy, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kuchli, haqiqatparvar, tez-tez asab tizimi kasallanib turadi (zo'riqish natijasida).

3-tip. «Intellektual» – turli xil qobiliyat va talant egasi, bir necha kasblarni biladi, bir fan bilan cheklanmaydi, tartibsizli, ifloslikni yomon ko‘radi (shu masalada tez-tez janjallashib turadi), tez xafa bo‘ladi, ko‘ngli yumshoq.

415 – «shoir», 424 – «o‘ta ishchan».

4-tip. «Olim» – o‘z ismidan ma‘lumki ilmiy ishga layoqatli, izlanuvchan, intellekti kuchli, nazariy bilimi kuchli, o‘z ishining puxtasi.

316 – nazariy jihatdan har qanday teoriya ishlab chiqadigan, ko‘p ishlovchi.

325 – hayotni o‘rganuvchi olim, tibbiy xodim, biolog, bu tipga kino, sirk, teatr, rejissor va hokazolar kiradi.

5-tip. «Intuitsiyali» – asab tizimi yaxshi ishlaydigan, lekin charchaydigan, bir ishdan ikkinchi ishga tez o‘ta oladigan, yangilikka intiluvchan, o‘zgalarni himoya qiluvchi, texnik ijodkorlik bilan shug‘ullanuvchi, o‘zining axloq normasiga ega bo‘lib, o‘shanga bo‘ysunadi va kuchli nazorat qiladi, o‘z ozodligini hech narsaga almashmaydi. 235 – psixolog, 244 – filolog, 217 – tasviriy san‘at, 226 – yangilikka o‘ch.

6-tip. «Ixtirochi, loyihachi, musavvir» – bularda idrok, tasavvur (asosan fazoviy tasavvur) kuchli, texnik, badiiy, intellektual ijodkorlik bilan shug‘ullanuvchi. O‘z g‘oyalariga ega, hissiyotli, o‘z axloq normasiga ega. 119 – yaxshi ma‘ruzachi, 118 – konstruktor.

7-tip. «Empatik» – o‘zgalarning g‘ami va shodligiga sherik, yumshoq xarakterli, muloyim, o‘zgalarni o‘ylab o‘zini unutib qo‘yadigan shaxslar tipi.

8-tip. «Empatik emas» – empatik tipning teskarisi, egoistik xususiyatli, boshqalarni o‘ziga bo‘ysundiruvchisi, agar shunday qilolmasa o‘z muammosi bilan o‘zi ovora bo‘lib yakkalanib qoluvchilar tipi.

Bulardan tashqari rasmda ajralib turuvchi tasvirlar bo‘lsa:

Bo‘yin – tez xafa bo‘luvchi.

Quloq – tinglashni biluvchi.

Cho‘ntak – bolalarni o‘ylovchi

Shlapa – tashvishli.

Yuzda faqat og‘iz bo‘lsa – ko‘p gapiruvchi.

Yuz to‘liq (ko‘z, qosh, burun, og‘iz) – davraning guli.

Faqat burun – hidni sezuvchi, yaxshi ko‘ruvchi.

6.5. Xotirani baholash testi

Savollarga «ha» yoki «yo‘q» deb javob bering.

1. Beshta telefon raqamini eslay olasizmi?
2. Uchrashuvga borish esingizdan chiqib bormay qolganmisiz?
3. Uch kun oldin ertalabki nonushtaga nima yeganingizni eslay olasizmi?
4. Birinchi uchrashuv esingizdami?
5. Birinchi sevgingizni unutganmisiz?
6. Maktabga borgan birinchi kunni eslay olasizmi?
7. Bolalikda yodlagan she‘rni ayta olasizmi?
8. O‘n beshta kiygan kiyimingiz yodingizdami?
9. Qo‘ng‘iroq qilishdan oldin daftarga qarab olasizmi?
10. Birinchi uchrashuvga qanday kiyim bilan borganingizni eslay olasizmi?
11. Birinchi o‘rtog‘ingizning ismi esingizdami?
12. Ayrim hidlar sizga tanish joyni eslatadimi?
13. Maktabga borgan yo‘l esingizdami?
14. O‘rtoqlaringizni tug‘ilgan kunini yoddan bilasizmi?

Natija:

«Ha» javoblar uchun o‘zingizga «1» ball qo‘yib chiqing.

11 va undan yuqori – xotirangiz kuchli;

6 dan 10 gacha – xotirangiz yaxshi;

5 dan past – o‘rtacha, past.

6.6. Korreksion ishlar

Ranglar orqali odam psixologiyasiga ta‘sir o‘tkazish mumkin. Har bir rangning odamga ta‘siri bo‘lib, qaysi charchoqni chiqarsa, qaysi charchatadi, qaysi hissiyotni qo‘zg‘atuvchi va h.k. (jadvalga qarang). Umuman olganda ranglar ish unumdorligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘quvchilar doimiy bo‘ladigan joylar havorang, oq va yashil (ochiq) ranglar bilan, (sport zalini esa har xil ranglar bilan bo‘yash mumkin) lekin hech qachon har xil rang bo‘lmasligi kerak.

Bir xil rang tez ko‘nikish, charchash va tormozlanishga olib keladi. Har bir to‘g‘ri tanlangan rasm, albatta nafosat bilan ishlangan bo‘lsa, charchoqni chiqarish, hayajonni bosish, optimistik xislatlarni hosil qilishga yordam beradi. Agar uning teskarisi bo‘lsa-chi?

Maktabning oshxonasi, mehnat kabineti sport zali, o'qituvchilar xonasi va hokazolar o'z o'rniga, vazifasiga mos ravishda bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi (jadvalga qarang).

Rang	Ta'siri (o'rniga qarab)		
	Tepadan	Yon tomonidan	Pastdan
Qizil	Qo'zg'atuvchi, erotogen ta'sirga ega, jalb etuvchi	Qo'zg'atuvchi	Tabiiy qabul qilinmaydi, kuydiruvchi
Pushti	Yengillashtiruvchi, baxtiyorlik hissini keltiruvchi	Muloyimlik xususiyatini keltirib chiqaruvchi	Hidni sezishni oshiradi
Gulobi	Diqqatni to'playdi	Issiqlik, iliqlik kayfiyatini hosil qiladi	Issiqlik, iliqlik kayfiyatini hosil qiladi
Sariq	Yaxshi kayfiyatni, diqqatni qochiradi	Qo'zg'atuvchi, salbiy kayfiyat hosil qiluvchi Tinchlantiruvchi	Kekkayish, havoilylik kayfiyatini hosil qiladi
Yashil	Notabiiy qabul qilinadi		Tinchlantiruvchi, «sovutuvchi», uyquni keltiruvchi kayfiyat hosil qiladi
Havorange	Yengillik hosil qiladi	«Sovutuvchi» tinchlantiruvchi kayfiyat hosil qiladi	Sovutuvchi
Ko'k	Tinchlikni yo'qotuvchi, xavf tug'diruvchi	Chetlatuvchi, ajratuvchi, xavf hosil qiluvchi, bo'shliq hosil qiluvchi kayfiyat hosil qiladi	Chetlatuvchi, ajratuvchi, xavf hosil qiluvchi, bo'shliq hosil qiluvchi kayfiyat hosil qiladi
Jigar rang	Og'irlik, og'ir ta'sir etish kabi kayfiyat hosil qiladi	G'am keltiruvchi, g'amginlik hosil qiluvchi kayfiyat hosil qiladi	O'ziga ishonch hissini yaxshilaydi

Ranglar bilan psixologik davolashda rasm chizish, rasmlar tomosha qilish, maktab kiyimini (rangi) tanlash, oshxona, sportzal, mehnat ustaxonasi, zallar, kabinetlarni bo'yash kabi ishlar orqali erishish mumkin.

Uchta «men»

«Men» – bu yosh bola, «Men» – bu o'qituvchi, «Men» – bu katta yoshli inson, «Men» bu – demak, «Men» ko'p. Menda qaysi «Men»-dan ko'prog'u, qaysidan kamroq. Sizda shu savol juda ko'p tug'ilgan.

Shunday emasmi? Sinab ko‘ringchi, qaysidan qancha. Buning uchun quyidagi savol-hoлатlarni 0 dan 10 ballgacha baholab chiqing.

1. Ko‘pincha o‘zimni to‘xtatolmay qolaman.
2. Istagim menga xalaqit bersa, uni to‘xtatishim mumkin.
3. Ota-onalar katta kishilar sifatida bolalari hayotini tashkil etishlari kerak, deb hisoblayman.
4. Ayrim hoлатlarda o‘zimning rolimni oshirib yuboraman.
5. Meni aldash juda qiyin.
6. Tarbiyachi bo‘lish yaxshi deb o‘ylayman.
7. Hayotda bo‘ladigan voqealarni yaxshi tushunaman deb o‘ylayman.
8. Har kim o‘z burchini bajarishi kerak.
9. Ko‘pincha bo‘lishi shart bo‘lmaganda ham, istagimni bajaraman.
10. Bir qarorga kelishdan oldin oxirini o‘ylayman.
11. Yoshlar yashashni kattalardan o‘rganishi kerak deb o‘ylayman.
12. Men hamma odamlardek tez xafa bo‘laman.
13. Odamlardagi o‘zi bilmagan tomonlarni ham bilaman.
14. Bolalar ota-onalarining ko‘rsatmalariga amal qilishi kerak.
15. Men faol, izlanuvchan odamman.
16. Odamlarni baholashda haqqoniylikni yaxshi ko‘raman.
17. Mening qarashlarim (g‘oya) o‘zgarmas.
18. Bahsda past kelmaslik uchun bahslashaman.
19. Qoida foydali bo‘lsagina qoida bo‘la oladi.
20. Odamlar har qanday sharoitda qoidalarga rioya qilishlari shart.

Test ishlanmasi:

1. 4, 7, 10, 15, 16, 19 («Bola» BKO)
2. 5, 8, 11, 14, 17, 20 («Katta odam» OBK)
3. 6, 9, 12, 15, 18, 21 («Ota-ona» KBO)

Agar sizda BKO – ilmiy ish qilish uchun (Eynshteyn) sharoit bor, lekin bu xususiyat hamisha ham yaxshi emas. Ishga xalaqit bersa, o‘z hissiyotingizni nazoratga oling. Boladek tashvishsiz xursandlik hamisha ham qo‘l kelmaydi.

Agar sizda OBK bo‘lsa, hayotingiz murakkab bo‘ladi, to‘g‘ri so‘zli, keskinlik hamisha ham yoqmaydi. Siz o‘qituvchi bo‘la olmaysiz, o‘ylab ko‘ring, siz odamlar bilan ishlaysiz, mashinalar bilan emas.

Agar sizda KBO bo‘lsa, siz javobgarlik hissi bilan yashaysiz. Bu sizga hamisha qo‘l keladi. Ijodkorsiz, jamoaga qo‘shilib ketasiz, muloqotda yaxshisiz.

Sizning ijodiy psixologik yoshingiz

Quyidagi savollarning javoblardan bittasini tanlang:

1. Ishga kechikypsiz. Avtobus to'xtash joyiga yaqinlashdingiz. Avtobusingiz kelib qoldi.

- a) chopaman;
- b) tezroq yuraman;
- d) oldingidan tezroq yuraman;
- e) qanday bo'lsa shunday yuraman;
- f) boshqasi kelayapti deb qarayman va shunga qarab ish tutaman.

2. Modaga munosabatingiz?

- a) e'tibor beraman;
- b) o'zimga yoqqanini tanlayman;
- d) yaxshi ko'rmayman;
- e) yoqmaydi;
- f) kayfiyatimga bog'liq.

3. Bo'sh vaqtimni...

- a) tanishlarim bilan o'tkazaman;
- b) televizor ko'raman;
- d) badiiy adabiyot o'qiyman;
- e) krossvord yechaman;
- f) nima bo'lsa shu.

4. Ko'z oldingizda haqiqat bo'lmadi...

- a) haqiqatni ro'yobga chiqaraman;
- b) jabrlanuvchiga yordam beraman;
- d) qonuniy qilib haqiqatni ro'yobga chiqaraman;
- e) nima ham qilish mumkin;
- f) o'z fikrimni aytmayman.

5. Zamonaviy yoshlarning kuyidan...

- a) zavqlanaman;
- b) qoniqish hosil qilaman;
- d) uni seva olish kerak;
- e) shovqinni yomon ko'raman;
- f) kimgadir yoqar.

6. Do'stlar davrasidasiz, nima sizga muhim?

- a) o'z qobiliyatimni ochish;
- b) kimligimni bildirish;
- d) o'zimni to'g'ri tutaman;

- e) ajralib turmayman;
 - f) ularga xos tutaman.
7. Qaysi ish sizga ko'proq yoqadi?
- a) tasodifli, g'alati;
 - b) har xil (bir xil emas);
 - d) o'z tajriba va bilimimga loyiq;
 - e) qiyin bo'lmagan;
 - f) kayfiyatimga bog'liq.
8. Qanchalik ehtiyotkorsiz?
- a) o'ylamay ish boshlayman;
 - b) oldin boshlayman, keyin o'ylayman;
 - d) oxirini o'ylab ish ko'raman;
 - e) yutuq bo'ladigan ishni yaxshi ko'raman;
 - f) kayfiyatimga bog'liq.
9. Odamlarga ishonasizmi?
- a) ayrimlarga;
 - b) ko'plarga;
 - d) ko'plarga emas;
 - e) hech kimga;
 - f) kimgaligiga bog'liq.
10. Kayfiyatingiz?
- a) optimistman;
 - b) kamroq optimist;
 - d) kamroq pessimist;
 - e) pessimist;
 - f) sharoitga qarab.

Test kaliti

$$T=(2a+1b+3v+4g+2f)=$$

Hosil bo'lgan son sizning ijodiy psixologik yoshingiz.

Yoshingiz pasportga teng bo'lsa yaxshi, ko'p bo'lsa yomon. Agar psixologik yoshingiz kam bo'lsa, demak, sizda hali ijodiy ishga imkoniyat ko'p. Agar psixologik yoshingiz ko'p bo'lsa, xafa bo'lmang, uni yashartirish mumkin. Masalan: amriqoliklar bir haftaga o'rmonga keta turib bir kunlik ovqat olar va qolganini topishga intilar ekan. Shu bilan o'zini sinab ko'rar, ijodiy potensialini oshirar ekan. Odamlardagi ishonchsizlikni – alpinizmni yo'qotar ekan, chunki unda har bir ki-

shining yordami hayotga teng.

Agar psixologik yoshingiz juda kichik bo'lsa ham yomon ekan. Tezroq katta bo'ling va kattalardek o'ylab ish qiling, lekin unutmang-ki, katta bilan kattaning farqi bor.

Musiqa orqali shaxs psixologiyasiga ta'sir ko'rsatish

Ta'lim-tarbiya jarayonining kechishi ritmik shaklda bo'lib goh g'amgin, goh xursand, goh tekis, goh tartibsiz, gohida esa tinchlantiruvchi xususiyat kashf etadi. Shunday ekan ta'lim-tarbiya jarayoniga musiqani kiritish chalg'ituvchi, dam oluvchi, davolovchi, tinchlantiruvchi xislat kashf etadi. Musiqadan foydalanish ish unumdorligini, ijobiy hissiyot (kayfiyat)ni oshiradi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har bir mashhur musiqa asarlari ma'lum ritmik asosda, matematik logika asosida, past, yuqori, uzun, qisqa notalarda tuzilganki, u odam psixikasiga ta'sir ko'rsatib, uni ishdan chiqarishi, kasallantirishi yoki davolashi mumkin.

Ayrim musiqa asarlari odamni jonlantirib uzoq yurishga marsh chorlasa, ayrimlari charchoqni chiqarishga (maqom), ayrimlari esa jonlantiruvchi (estrada) xususiyatiga ega. Bu bilan musiqa hamisha ham bir xil ta'sir qiladi degan xulosa chiqarib bo'lmaydi, albatta.

Musiqaning ta'siri shaxs «kuchli» yoki «kuchsiz» ekanligiga, musiqa ohangi «past» yoki «yuqori»ligiga (detsibam) ham bog'liq. Shuning uchun musiqa tanlay bilish ham kerak.

Musiqa tinglash orqali ish unumdorligini oshirish qatnashuvchilarning yoshiga, qanday musiqani yoqtirishlariga va qanday ishni (darsni) bajarayotganligiga ham bog'liq. Musiqa tanlay bilish psixologdan katta mahorat talab qiladi. Shuning uchun musiqa asarini tanlayotganda maqsadga muvofiq ravishda tanlasa, ish unumdorligi yaxshi bo'ladi.

Hordiq chiqaruvchi, jonlantiruvchi, kayfiyatni ko'taruvchi, muskullarni jonlantiruvchi (raqs bilan) va hokazo. Sharq kuylarini tanlab psixologik ta'sir ko'rsatish xonasi yoki maktab radiouzelidan foydalanib ta'lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshirish, ruhiy yaxshi kayfiyat hosil qilish mumkin.

Darslar tugagach o'quvchilar kayfiyatini oshiruvchi musiqa bilan uyga jo'natish ota-onalar bilan bolalar munosabatini yaxshilash, o'quv bilim jarayonini yaxshilash olimlarimiz tomonidan tajribalar asosida isbotlanganligini yodimizdan chiqarmasligimiz kerak. Askarlarimiz

marsh bilan qo'shiq aytib charchamay ancha yo'l yuradi. «O'tkan kunlarda» Otabek «O'rtar» ashulasi orqali qayg'usini ozgina bo'lsada unutishga harakat qiladi va h.k.

6.7. O'qituvchilar psixik holatini neyrolingvistik dasturlash orqali boshqarish

O'qituvchilarning ishi mavsumiy bo'lib (sentabr – iyun), o'zgar-mas, bir xillikdan iboratdir. Boshlanishida unumdorlik kuchli, lekin asta-sekin o'quv yilining oxirigacha pasayib boradi. Tadbirkor, o'z psixologiyasini bilgan kishi hordiq chiqarish, ishlash, sevimli ish bilan shug'ullanishni reja bilan olib boradi. Shunday ishlardan biri sevimli mashg'ulot (xobbi)dir. Lekin sevimli mashg'ulot turlari yoki ko'p vaqt talab etadi. Shunday mashg'ulot va mashqlar borki, charchoqni chiqarib, kuch to'plabgina qolmay, kam vaqt talab etadi.

1-mashq.

1. O'zingizni yaxshi his qiladigan 4–5 faoliyat turini yozing.
2. Har bir faoliyat turi bo'yicha quyidagi savollarga javob bering:
 - a) bu faoliyat bir kishi bilan bajariladimi yoki ko'p kishi bilan;
 - b) qayerda, qanday sharoitda bajariladi, nima yordam bera- di-
yu, nima xalaqit beradi;
 - d) bu faoliyat tashqi yoki ichki diqqatni talab etadi;
 - e) bu faoliyatda ko'rish, eshitish yoki kinestik (his etish, halokat, nafas, yurak urishi va h.k.)dan qaysi biri ko'proq qo'llaniladi;
 - f) bu faoliyat qancha vaqt, mablag' va xarajatlarni talab etadi;
 - g) his qilish organlaridan qaysi biri hordiq oladi;
 - i) bu faoliyat bilan shug'ullanish uchun odamlar bilan qanday alo-
qadorlik zarur?

3. Savollarga javob berib qaysi faoliyat sizga ko'proq foydali ekanligini va qanday hordiq chiqarish va kuch to'planishini belgilab oling.

2-mashq.

1. O'zingizga qulay bir xil vaqtni (bir necha kun uchun) belgilab, 5–10 minut ajrating.

2. Stol yoki stulni ochiq deraza yoki eshik oldiga qo'yib yaxshilab joylashib olib, chuqur-chuqur nafas olib, muskullaringizni bo'shah-tiring.

3. Tashqi ta'sirni sezmaslik uchun ko'zingizni yumib, hamma hid va ovozlarni his qiling.

4. Fikr va xayolingizga nima kelsa, yaxshilab filtrlang va sezing.

5. O'zingizga hisobot bering yoki kundaligingizga yozing.

6. Shunday holatni bir necha kun bajarang.

3-mashq.

1. Bu mashqni bajarish uchun o'zingiz yoqtirgan biror kishini taklif eting.

2. Do'stingizdan iste'mol qiladigan, haroratli, hidli, ta'mli va h.k. narsalar tayyorlashni, lekin ko'rsatmaslikni iltimos qiling.

3. Ko'zingizni yumib sinab ko'ring, lekin so'zlamay faqat tovush ohangi bilan ayting.

4. Bu mashqni navbat bilan rollarni almashtirib bajarang.

4-mashq

1. Ko'zingizni yumib «ko'r» bo'lib do'stingiz bilan aylanishga chiqing.

2. «To'siq»larga duch keling va ularni sezishga harakat qiling (issiq, sovuq, hid va h.k.).

5-mashq.

1. Qulay holatda o'tirib chuqur-chuqur nafas oling va atrofni yaxshilab kuzating.

2. Fikringizni bir joyga to'plab o'tirgan joyingizdan boshqa joyga xayolan o'tishga harakat qiling va mashq joyi atrofida nimalar borligini his qiling.

3. O'sha joyda (yangi joyda) o'zingizni qanday his qilishingizni tekshiring.

6-mashq.

1. Uyning (xonangizning) qaysi joyi sizga (noqulay) bo'lsa, o'sha joyni toping.

2. O'sha joyda turib «u» bilan kurashing va yengishga harakat qiling.

3. Bu mashqni bir necha marta bajarib o'sha qilg'ingizni yo'qotishga harakat qiling.

7-mashq.

1. Sizni qiynayotgan fikrlarni anglang va shulardan birini tanlang.

2. Bu fikr xayolingizga ko'proq keladigan vaqt va joyni aniqlang.

3. Aniq vaqt va joydan tashqari vaqt va joyda uni o'ylang.

4. Sizni qiynayotgan fikrni, ko'proq uning yomonlik tomonlarini o'ylang.


5. Chuqur-chuqur nafas olib, kulgi bilan fikran miyangizga: «Qani boshladik, bugun biz yangicha ish qilamiz, o'ylaymanki sen menga yordam berasan», — deb boshlang.

6. Seans oxirida: «Sen yaxshi ishlading, rahmat», — deb o'zingizga ayting.

7. Shu mashqni do'stingiz bilan ham bajarishingiz mumkin.

6.8. Psixogeometrik test

Quyidagi berilgan geometrik shakllardan birini tanlang va uni sizning eng yaxshi ko'rgan shakl ekanligiga ishonch hosil qiling, qolganlaridan esa 1, 2, 3, 4, 5 darajalarini tanlang. Siz tanlagan shakl bo'yicha o'zingizning xarakter sifatlaringiz va o'zingizni tutishingiz kerakligini bilib oling.



Bu test birinchi marta amriqolik Syuzen Dilengir tomonidan ishlab chiqilgan va rus psixologlari A.A. Alekseeva, L.A. Gromovalar tomonidan qayta ishlab chiqilgan.

Testning aniqlik darajasi 85–90% ni tashkil etadi.

Ijobiy xislatlar	Salbiy xislatlar
Kvadrat	
Diqqat e'tiborli, tartibli, mehnat-sevar ijodkor, bir qarorli, chidamli, tejamkor, do'stlari kam, lekin doimiy ishni reja bilan bajaradi. Kiyinishi qoida bilan (oq, qora), fikrlash doirasi keng	Fantaziyasi kam, o'zini gapini o'tkazuvchi, qitmir, o'ta ehtiyotkor o'zini hammadan aqlli hisoblovchi, hissiyoti kam, «qog'ozboz» jahldor va h.k. Ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak
Uchburchak	
Maqsadga intiluvchan, harakatchan, o'ziga ishonch kuchli, mehnatkash ijodkor, rahbar bo'lsa g'amxo'r va ishning yaxshi bo'lishi uchun kurashuvchi, chidamli	O'zini sevuvchi, egoist, o'z manfaati uchun hech narsadan qaytmaydi, chidamsiz. Maqtab turib munosabat qilish kerak.

To'g'ri to'rtburchak	
O'zini izlovchi shaxs, hamma shakldagidek bo'lishga intiladi	O'zini izlovchi shaxs o'zini topishga yordam berish kerak
Aylana	
Garmonik (barkamollil) shaxs belgisi o'zaro munosabatning yaxshilanishi uchun kurashuvchi kommunikativlik kuchli empatiya kuchli yaxshi psixolog, axloq normasiga qat'iy rioya qiluvchi	Mehnatsevar emas, tartibsiz, g'iybatchi, yaxshi munosabatda bo'lsangiz ishni yaxshi olib boradi
Zigzak	
Boshqalarga o'xshamaydigan shaxs aylanadagidek xarakterga ega. Intuitsiya kuchli, ijodkor, ixtirochi ilmiy xodim. Tafakkuri, nafosati kuchli shaxs tahlilchi, har xil g'oyalar egasi	Tartibni yaxshi ko'rmaydi (ishda), o'z ishini yaxshi biladi va bajaradi. Hissiyoti o'ta kuchli (shuning natijasida urishqoq bo'lishi mumkin). Egoistligi bor. O'z holiga qo'ysangiz va taqdirlab tursangiz juda yaxshi ishlaydi

VII BOB. QIZIQARLI PSIXOLOGIK TESTLAR

7.1. «Norasolik kompleksi» testi

Komplekslarni birinchi bo'lib tavsiflagan va ta'riflaganlar — psixoanalizning «asoschi — otalar»idir. Bu nom bilan ular tushuntirish qiyin bo'lgan, impulsiv xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan hissiy tus olgan e'tiqod va hayotiy prinsiplarni ataganlar. Bu komplekslar normal hayotni qiyinlashtiradi, shaxs rivojlanishi imkoniyatini cheklaydi va xursandchilikni his qilishga xalaqit beradi. Norasolik kompleksi odamni boshqalardan o'zini past his qilishga majbur etadi, masalan, u har qanday raqobatli kurash, imtihonlardan, kasbiy konkurslardan, biznes va shu singarilardan voz kechish sababi bo'lishi mumkin. Bu kompleks o'z ustunliklari va qobiliyatlariga ishonmaslikdan kelib chiqadi. «Sinab ham ko'rmayman, baribir yutqazaman!» — bu kompleksga ega bo'lganlar o'zini shunday deb ishontiradilar.

Komplekslar, odatda, o'z tabiatiga ko'ra yoki tarbiya qattiqqo'l hakamlikka moyil odamlarda rivojlanadi. Ular o'zlariga shafqatsiz hukm chiqaradilar («bo'yi pakanaligi», «oyog'i yo'g'onligi» va h.k.lar uchun), shuningdek, boshqalarni ham doimo tanqid qiladilar. Psixologiya nuqtayi nazaridan u yoki bu o'z-o'ziga baho berish to'g'ridan to'g'ri sizning atrof-olamga nisbatan bahongizga bog'liqdir.

Bu olamni sevgan kishigina o'zini ham sevadi. Demak, biz doimo boshqalarni tanqid etsak, unda o'zimizga nisbatan ham kechirimsiz bo'lamiz. Kechirimsizlik odat tusiga kiradi, keyinchalik esa kompleksga aylanadi. Hech kimning har doim o'zidan ko'ngli to'lmaydi. Har kimni nimadir kemiradi. Har kimning o'z kompleksi bor. Biz ham nimagadir arzishiga ishonch hosil qilish uchun ham doim o'zimizni kim bilandir taqqoslaymiz.

Sizning ahvolingiz qanday? Buni bilish uchun test savollariga javob bering.

Ko'rsatma. Har bir tasdiqni o'qing, o'zingiz uchun eng to'g'ri keladigan javobni tanlang, tasdiq nomerini yozing va siz tanlagan javoblar varianti uchun belgilangan ochkoni yozib qo'ying (ochkolar miqdori javoblar variantining yonida yozib qo'yilgan).

1. Mening kamchiliklarim haddan tashqari ko'p: a) bu to'g'ri (0); b) bu mening fikrim emas (3); d) noto'g'ri (5).

2. Hayot ajoyib! a) bu haqiqatdan ham shunday (5); b) bu juda

umumlashtirilgan xulosa (3); d) hech ham unday emas (0).

3. Men o'zimni kerak emasdek his qilaman: a) tez-tez (0); b) vaqti-vaqti bilan (3); d) kamdan-kam (5).

4. Mening xatti-harakatlarim atrofdegilar uchun tushunarsiz: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

5. Menga, umidlarni oqlayapsiz, deb aytishadi: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

6. Menda juda ko'p afzalliklar mavjud: a) ha (5); b) hamma narsa sharoitga bog'liq (3); d) yo'q (0).

7. Men pessimistman: a) ha (0); b) alohida hollarda (3); d) yo'q (5).

8. Har bir fikrlaydigan odam singari o'z xulq-atvorimni tahlil qilaman: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

9. Odamlar meni tushunmaydi: a) tez-tez (0); b) kamdan-kam (3); d) unday bo'lmaydi (5)

10. O'zimni «o'z o'rnimda emasdek» his qilaman: a) kamdan-kam (5); b) hamma narsa sharoitga bog'liq (3); d) juda tez-tez (5).

11. Men optimistman a) ha (5); b) faqat alohida hollarda (3); d) yo'q (0).

12. To'g'ri kelgan narsaga xursand bo'laverish bu: a) tentaklik (0); b) qiyin daqiqalarni kechirishga yordamlashadi (3); d) bu o'rganish kerak bo'lgan narsa (5).

13. Men boshqalarnikidek qobiliyatlarga ega bo'lishni xohlardim: a) ha (0); b) vaqti-vaqti bilan (3); d) yo'q, men yanada yuqoriroq qobiliyatlarga egaman (5).

14. Hayot bu qayg'uli narsa: a) umuman ha (0); b) bu tasdiq juda umumiy (3); d) bu unday emas (5).

15. «Kulgi – bu sog'liq-salomatlik»: a) juda soddalashtirilgan tasdiq (0); bu to'g'rida qiyin sharoitlarda esga olish kerak (3); d) hech ham unday emas (5).

16. Odamlar meni yetarlicha baholamaydilar: a) afsus, bu shunday (0); b) bu narsaga katta e'tibor bermayman (3); d) hech ham unday emas (5).

17. Boshqalar to'g'risida haddan tashqari berahmlarcha fikr yuritaman: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

18. Qator omadsizliklardan keyin har doim muvaffaqiyat keladi: a) bu mo'jizaga ishonish ekanligini bilsamda, bunga ishonaman (5); b)

shunday ham bo'lishi mumkin, lekin buning ilmiy isboti yo'q (3); d) bunga men ishonmayman, chunki bu mo'jizaga ishonishdir (0).

19. Men o'zimni tajovuzkorona tutaman: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

20. Yakkalanib qolaman: a) juda kamdan-kam (5); b) ba'zida(3); d) haddan tashqari tez-tez (0).

21. Odamlar birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydilar: a) ko'pchiligi (0); b) ba'zilari (3); d) hech ham unday emas (5).

22. Odam o'zi juda xohlagan narsasiga erishishi mumkinligiga ishonmayman: a) chunki bunga erishgan odam borligini bilmayman (0); b) ba'zida bunga erishiladi (3); d) bu unday emas, men ishonaman (5).

23. Hayot mening oldimga qo'ygan talablar mening imkoniylarimdan yuqori bo'ladi: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

24. Har bir odam o'zining tashqi ko'rinishidan ko'ngli to'lmasa kerak: a) ha, deb o'ylayman (0); b) ba'zida bo'lsa kerak (3); d) men unday deb o'ylamayman (5).

25. Men nimadir qilayotgan yoki gapirayogan vaqtimda odamlar meni tushunmaydigan hollar bo'lib turadi: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) juda kamdan-kam (5).

26. Men odamlarni yaxshi ko'raman: a) ha (5); b) bu fikr juda umumiy (3); d) yo'q (0).

27. Men qobiliyatlarimga ishonmaydigan hollar ham bo'lib turadi: a) tez-tez (0); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (5).

28. Mening o'zimdanda ko'nglim to'q: a) tez-tez (5); b) ba'zida (3); d) kamdan-kam (0).

29. Boshqalarga nisbatan o'zimga ko'proq, tanqidiy munosabatda bo'lish kerak deb hisoblayman: a) ha (0); b) bilmayman (3); d) yo'q (5).

30. O'z hayotiy rejalarimni amalga oshirishimga kuchim yetishiga ishonaman a) ha (5); b) bu turlicha bo'ladi (3); d) yo'q (0).

Test natijalari

Diqqat: Agar siz quyidagi juftliklar: 3 va 19, 9 va 25, 10 va 23, 12 va 22 da bir xil miqdorda ochkolar (masalan, 0 va 0, 3 va 3, 5 va 5) olmagan bo'lsangiz, demak, siz to'plagan umumiy natijangizni tasodifiy, noto'g'ri deb hisoblash mumkin.

0—40 ochko. Afsuski, siz komplekslisiz. O‘zingiz to‘g‘ringizda salbiy kategoriyalar bilan fikr yuritasiz, o‘zingizning zaifliklaringizga, kamchilingizga, xatolaringizga «yopishib» qolganiz. Doimiy ravishda o‘zingiz bilan kurashasiz, bu esa ham sizning komplekslaringizni, ham sharoitdan o‘zini chuqurlashtiradi, odamlar bilan bo‘lgan munosabatlaringizni yanada murakkablashtiradi. O‘zingiz to‘g‘ringizda boshqacharoq o‘ylab ko‘ring: o‘zingizda mavjud bo‘lgan kuchli, iliq, yaxshi va xursandchilik holatlarga e‘tiboringizni qarating. Ko‘rasizki, juda tez kunda sizning o‘zingizga va atrof-olamga bo‘lgan munosabtingiz o‘zgaradi. Siz shu narsaga amin bo‘lasizki, odamlar sizga yaxshi munosabatda bo‘la boshlaydilar. Siz o‘zingiz ham, atrofingizdagi odamlar ham yaxshi, mehribon bo‘lganini his qilasis. Odamlarga ham, o‘zingizga ham tabassum qiling.

41—80 ochko. Sizda o‘z komplekslaringizni yaxshi uddalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Umuman bu komplekslar sizga yashashingiz uchun unchalik xalaqit bermaydi. Vaqti-vaqti bilan siz o‘zingizni, o‘z xatti-harakatingizni tahlil qilishdan qo‘rqasiz. Shuni esda tuting: boshni qumga tiqib yashirinish umuman samarasiz ish, u hech yaxshilikka olib kelmaydi, faqat qisqa vaqtga sharoitni yengillashtiradi, xolos. O‘zingizdan qochib ketolmaysiz, bardam bo‘ling. Har qanday muammolarni bartaraf etishga kuchingiz yetadi.

81—130 ochko. Har qanday normal odam singari siz ham komplekslardan xoli emassiz, lekin o‘z muammolaringizni mohirlik bilan bartaraf eta olasiz. O‘z xulq-atvoringizni va boshqalarning xatti-harakatlarini obyektiv baholaysiz. O‘z taqdiringizni o‘z qo‘lingizda ushlaysiz. Davralarda o‘zingizni yengil va erkin his qilasis, odamlar ham sizning davrangizda o‘zlarini xuddi shunday yengil his qiladilar. Maslahatimiz: shunday bo‘ling.

130—151 ochko. Siz o‘zingizda umuman kompleks yo‘q deb o‘ylaysiz, o‘zingizni aldamang, bunday bo‘lish umuman mumkin emas. Siz o‘ylab topgan dunyongiz va o‘zingizning obrazingiz haqiqatdan uzoq. O‘z-o‘zini aldash va o‘z-o‘ziga yuqori baho xavfsiz narsa emas. O‘zingizga yon tarafdin qarashga harakat qiling. Komplekslar shuning uchun ham berilganki, yo ularning uddasidan chiqish kerak, yoki ularni sevib qolish kerak. Sizning unday qilishga ham, bunday qilishga ham qurbingiz yetadi. Aks holda, o‘z-o‘zingizni yaxshi ko‘rish kompleksingiz manmanlikka, dimog‘dorlikka o‘sib o‘tadi, atrofingizdagi odamlarning

sizga nisbatan nafratini yuzaga keltiradi, sizning hayotingizni sezilarli darajada buzadi.

7.2. Balki noyob odamdirsiz?

1. Sevganingiz uchrashuvga kech qoldi yoki butunlay kelmadi.
 - a) qadrini oshirmoqchi deb o'ylayman;
 - b) tinchlikmikan deb o'ylayman;
 - d) «men ham keyingi safar bir boplayman», deb g'ijinib qo'yaman.
2. Uzoq yillardan buyon ko'rishmay ketgan tanishingiz sizga sim qoqdi.
 - a) biror yumushi chiqib qolgandir deb o'ylayman;
 - b) xursand bo'laman;
 - d) tinchlikmikan, o'zimdand xijolat bo'lib, hol-ahvol so'rayman.
3. Sizning fikringizni inkor qilishdi.
 - a) isbotlab beraman;
 - b) o'z fikrini isbotlab berishini so'rayman;
 - d) shunday qilamanki, gapirganiga pushaymon yeydi.
4. Siz shunday bir yumushni bajarsangiz, obro'yingizga putur yetdi-yu, ammo birovning ishi bitadi.
 - a) bajarmayman;
 - b) bajaraman, lekin o'ziga ham tushuntiraman;
 - d) agar unga juda zarur bo'lsa bajaraman.
5. Maktabdagi partadosh do'stingiz yoki kursdoshingizga u o'zi yozmasa ham xat yozasizmi?
 - a) ha, albatta;
 - b) yo'q, past ketmayman;
 - d) o'zi yozsa yozaman.
6. Aytaylik, siz sotuvchisiz. Xaridorning puli kamlik qildi. Unga yon bossangiz, siz foyda ham ko'rmaysiz, zarar ham.
 - a) berib yuboraman «aylantirish uchun»;
 - b) shu 5–10 so'mni deb o'tiribmizku, kelinoyi, — deyman;
 - d) bo'lib turadi, xijolatli hol, berib yuboraman.
7. Vaqtingiz juda unchalik bermalol emas, anchadan buyon ko'rmanyotgan sergaproq tanishingizni uchratib qoldingiz.
 - a) vaqtim tig'iz edi, deb uzr so'rayman;
 - b) u bilan birga o'tirib hol-ahvol so'rayman;
 - d) vaqtimni qizg'anaman-u, o'lganimning kunidan gaplashaman.

T/r	A	B	V
1.	1	2	0
2.	0	1	2
3.	1	2	0
4.	1	0	2
5.	2	0	1
6.	1	0	2
7.	1	2	0

Ballaringizni hisoblang va tekshiring. Marhamat, javoblaringiz natijasi:

9 ballgacha: Sizga aytсам, pul qo‘lning kiri, do‘stlaringiz qadriga yeting, ular g‘animat, umr o‘tkinchi. Siz yana o‘ta manmansiz. Sizga maslahatimiz guruh bilan «manman»likni aralashtirib yubormang. Kamtarlik va mag‘rurlik naqadar olijanob xislatdir.

10 balldan 13 ballgacha. Sizning ko‘nglingiz toza hech kimga yomonlik istamaysiz. Lekin yaxshilikni ham o‘ylab qilasiz. Siz ko‘proq «Hisobli do‘st ayrilmas», degan maqolga amal qilasiz. Do‘stlaringiz ham shunga yarasha. Siz atrofingizdagilarni kamdan-kam xafa qilasiz, o‘zingiz ham birovlardan kamdan-kam hollarda xafa bo‘lasiz, bu yashashning eng oson yo‘li.

14 balldan 16 ballgacha. Siz tabiat in‘om etgan noyob xislat sohib(a)i-siz. O‘zgarlar dardini o‘zirikiday qabul qila oladigan va bu yo‘lda o‘z manfaatlaridan voz kecha oladigan odamsiz. Qadringizga yetadigan, sizni hurmat qiladigan do‘stlaringiz oz bo‘lsada, ular sadoqatli, sizning yaxshiliklaringizni suiiste‘mol qiladiganlar ham yo‘q emas. Lekin ulardan xafa bo‘lish sizga yot xususiyat, to‘g‘rimi? Baliq bilmasa xoliq biladiku-a?! Kiroyi do‘sting bo‘lsa, shunday bo‘lsa...

7.3. O‘rtoq topish osonmi?

Ko‘pchilik insonlar o‘zlarining do‘st topishlari uchun qanday imkoniyatga ega ekanliklarini bilmaydilar. Albatta, do‘st topish uning haqiqiy do‘stligi yoki shunchaki o‘rtoq ekanligini ajratish mushkul ish. Quyidagi testda sizning do‘st, o‘rtoq topish imkoniyatlaringizni sinovchi testlar berilgan. Berilgan test savollaridan keyin qavs ichida ikkita raqam berilgan. Bu raqamni birinchisi «ha» deb berilgan javobga tegishli, ikkinchisi esa «yo‘q» javobiga tegishli. Masalan, birinchi savolga «yo‘q» deb javob bersangiz, demak, siz 10 ball olgan bo‘lasiz.

1.	Seni biror marta do'sting aldaganmi?	0	10
2.	Sen o'zingni odamlarni yaxshi biladigan deb hisoblaysanmi?	10	0
3.	Senga sayr qilish yoqadimi?	0	10
4.	Sen ko'pchilikni yoqtirasanmi?	10	0
5.	Sen mahallangdagilardan hammasini taniysanmi?	10	0
6.	Hayvonlar odamlarning yaxshi do'stimi?	0	10
7.	Qiyinchilikda, og'ir sharoitda do'sting ham tashlab ketadi deb ishonasanmi	0	10
8.	Do'stlikdan foyda yo'q	0	10
9.	Do'stdan ko'p narsani talab qilish kerak	10	0
10.	Qancha do'sting ko'p bo'lsa shuncha yaxshi	0	10

Agar yiqqan sonlaringiz 30 dan oshmasa, sizga do'st orttirish juda qiyinchilik bilan kechadi. Sababi, siz yaxshi do'st bo'la olmasligingizda emas, balki siz yaxshi do'st topishga ishonmasligingizda. Odamlarga ko'proq ishonung.

Yig'ilgan sonlar 31 dan 60 gacha bo'lsa, siz odamlarni bilasiz va ularning hurmatini qozona olasiz. Siz suyanishingiz mumkin bo'lgan do'stingiz bor va shu bilan birga o'zingiz ham ularni aldab qo'ymaysiz.

61 dan yuqori sonlar yig'indisi. Do'stlar siz uchun muammo emas. Do'stlaringiz juda ko'p, siz ularni tez o'zgartirasiz. Lekin siz ularni juda osonlik bilan yo'qotasiz. Farzand, haqiqiy do'stga erishishingiz qiyin.

7.4. Siz o'z bolangizga qanday munosabatdasiz

Har bir inson o'z bolalarining kelajagi haqida doim qayg'uradi. Bolalar bilan qanday munosabat o'rnatish, ularni qanday tarbiyalash haqida bosh qotiradi. Quyida sizning bolalaringiz bilan qanday munosabatga ega ekanligingizga baho beruvchi test berilgan. Unga javob berish orqali o'zingiz va bolalaringiz o'rtasidagi munosabatga tegishli bo'lgan ma'lumotlar olasiz.

1. Ertalab bolangizning kiyinishiga yordam berasizmi?
2. Siz uni yaxshi kiyintirishga intilasizmi?
3. Yo'lni kesib o'tayotganda siz uning qo'lini ushlab olasizmi?
4. «O'sib otangdek bo'lasan», deb ko'p aytasizmi?
5. Tengdoshlari orasida, ulardan yaxshi bo'lish kerakligini ishontirib aytasizmi?

6. Farzandingiz oldida o'qituvchilar, tarbiyachilari haqida yomon fikrlarni aytasizmi?

7. Bolalar o'rtasidagi janjal yoki kelishmovchiliklarga aralashasizmi?

8. U bilan bo'lgan muloqotda siz «bizning davrimizda bunday bo'lgan edi» kabi so'zlarni aytasizmi?

9. Siz undan kim bilan o'rtoq va nima bilan mashg'ulligini, har doim aytishini talab qilasizmi?

10. Boshqa ota-onalardan norozi bo'la turib siz bolangizga mehmonga bormasdan, ularni o'z uyiga taklif qilishni tavsiya qilasizmi?

Savollarga javoblar «ha», «yo'q», «gohida» tarzida bo'lsa, har bir «ha»ga 3 ball, «yo'q»ga 1 ball, «gohida»ga 2 ball beriladi.

10 dan 15 ballgacha – Sizga ma'lumki, bolani man qilishlar orqali yoki har doim yonini olish, pand-nasihatlar bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Siz bolangizning katta bo'layotganini to'g'ri tushunasiz, unga mustaqil bo'lishga yordam berasiz, sizga bo'lgan ishonchini yo'qotmasligini xohlaysiz.

16 dan 23 ballgacha – Siz qizingiz va o'g'lingizni hayotdagi o'z yo'lini mustaqil topishga yo'l qo'ymaysiz, ularni sizning fikringizga qarshilik qilishga ham yo'l qo'ymaysiz. Bu sizning fikringizcha og'ir dahmaza. O'qituvchilar bilan sizning fikringiz har doim mos tushavermaydi, shuning uchun ular bilan o'zaro muloqot qila olmaysiz. Sizning bolangiz ulg'ayayotganligiga, uni sizga bog'liqligi kamayayotganligiga ko'nika olmaysiz va bunga ishingingiz kelmaydi. Unga ozgina erkinlik bering, bu unga ham, sizga ham juda kerak.

24 balldan 30 ballgacha – Siz bolangizning o'qituvchilari bilan ham, uning o'rtoqlari bilan ham yaxshi munosabat o'rnata olmadingiz. Buning sababi sizning bolangizga juda ham qattiq yopishib olganingizdir. Siz faqat uning uchun yashayapsiz. Hayotingizning ma'nosi faqat farzandingiz baxtini yoritishda deb bilasiz. Bu bolani tarbiyalashning to'g'ri yo'li emas, chunki bolani to'g'ri tarbiyalash uchun oilada to'g'ri munosabatlar o'rnatilgan bo'lishi kerak. Siz o'z tarbiya metodingizdan tezda voz kechishingiz va bolaning erkin nafas olishi uchun imkoniyat yaratishingiz kerak. Tez orada buning natijasini ko'rasiz, bolangiz ancha boshqacha bo'lib qoladi, sizning esa bo'sh vaqtingiz ko'payadi.

7.5. Sizning bolalaringiz bilan munosabatingiz qanday?

1. Oilangizda bolalar bilan o'zaro tushunish bor deb hisoblaysizmi?
2. Bolalar siz bilan «qalb»dan gaplashadimi, «shaxsiy ishlar»i bo'yicha maslahatlashadimi?
3. Ular sizning ishingiz bilan qiziqadimi?
4. Siz bolalaringizning o'rtoqlarini bilasizmi?
5. Farzandlaringizning o'rtoqlari siznikida bo'lib turishadimi?
6. Bolalar siz bilan birga xo'jalik ishlarida ishtirok etadimi?
7. Siz ularni qanday o'qishini tekshirib turasizmi?
8. Sizning ular bilan birgalikda band bo'ladigan umumiy mashg'ulotingiz bormi?
9. Bolalar siz bilan bayramlarga tayyorgarlikda birgalikda ishtirok qiladilarmi?
10. Bolalar bayramlarida ular siz bilan birgalikda bo'lishni xohlaydilar yoki aksincha, kattalarni ishtirokisiz bo'lishini istaydilar yoki?
11. Siz bolalar bilan o'qilgan kitobni muhokama qilasizmi?
12. Televizordagi filmlarni-chi?
13. Siz ular bilan teatrlarda, muzeylarda, konsertlarda bo'lasizmi?
14. Bolalar bilan birga sayillarda bo'lasizmi?
15. Bolalaringiz bilan birgalikda ta'lingizni o'tkazishni xohlaysizmi yoki yo'qmi?

Tasdiqlovchi javobga «2» ball, agar «gohida», «ayrim paytlarda» javobi bo'lsa «1» ball. Agar javobi «yo'q» bo'lsa «0» ball.

Agar siz 20 va undan ortiq yiqqan bo'lsangiz sizning bolangiz bilan munosabatingiz muvaffaqiyatlidir. Agar 10 dan 20 ballgacha bo'lsa, u xilda qoniqarli. Lekin siz o'zingizning ishlaringizni har taraflama o'ylab ko'rishingiz kerak. Agar 10 dan kam bo'lsa siz darrov o'zingizning bolangiz bilan munosabatingizni yaxshi yo'lga solish tomonlari haqida o'ylab ko'ring.

7.6. Siz yaxshi rahbarmisiz?

Siz jamoaning sardori bo'la olasizmi, odamlarni boshqara olasizmi? Buning uchun qaysi sifatlarga ega bo'lish kerak? Boshqacha qilib aytganda, sizning boshqaruvchilik imkoniyatlaringiz qanday? Quyidagi savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob bering.

1. Turli ma'muriy va boshqaruv yo'llari orqali olgan barcha axborot xizmatchilaringizga berishga intilasizmi?
2. Har bir xizmatchiga uning mehnati natijalarini korxonaga yoki tarmoqning rejalariga muvofiq rag'batlantirganingizni tushuntirasizmi?
3. O'zingizga va qo'l ostingizdagilarga ishlarni rejalashtirish uchun vaqt qoldirasizmi?
4. Davr talablariga mos keluvchi mutaxassislarning malakasini oshirish rejangiz bormi?
5. Juda bo'lmaganda bir yillik o'z-o'zini takomillashtirish ish rejangiz bormi?
6. Maxsus adabiyotlarni muntazam ravishda o'qiyasizmi?
7. O'z mutaxassilingiz bo'yicha yetarli hajmda shaxsiy kutubxonangiz bormi?
8. O'z sog'lig'ingiz va ish qobiliyatingiz haqida qayg'urasizmi?
9. Murakkab, lekin qiziqarli ishni bajarishni yoqtirasizmi?
10. Qo'l ostingizdagilar bilan ularning ishini yaxshilash haqidagi suhbatlaringiz samara beradimi?
11. Ishga qabul qilinayotgan mutaxassisning qaysi sifatleri birinchi navbatda e'tiborga olinishi kerakligini bilasizmi?
12. Qo'l ostingizdagilarning muammolari, savol va imkoniyatlari bilan jon-dilingiz bilan shug'ullanasizmi?
13. Qo'l ostingizdagilar bilan ma'lum oraliq saqlaysizmi?
14. Hamkasblaringizga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lasizmi?
15. O'zingizga ishonasizmi?
16. O'zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni bilasizmi?
17. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilishga siz odatda ijodiy yondashasizmi?
18. Atrofingizdagi kishilar bilan hamkorlik qilishga intilasizmi?
19. Hamkasblaringiz bilan qisqa, aniq va muloyim so'zlasha olasizmi?
20. U yoki bu qarorni qabul qilishingizning sabablarini doimo tushuntirib bera olasizmi?
21. Qo'l ostingizdagilar sizga ishonadilarmi?
22. Biror ishni bajarish maqsadi, muddati, usullarini muhokama qilish uchun shu ishning barcha ishtirokchilarini jalb qilayasizmi?

23. Hamkasblaringizning tashabbusini rag‘batlantirasizmi, taklif va mulohazalar kiritishlarini so‘raysizmi?

24. O‘zingiz muloqotda bo‘ladigan barcha kishilarning ismini bilasizmi?

25. Belgilangan maqsadga erishishdan ijrochilarga erkinlik berasizmi?

26. Topshirig‘ingiz bajarilish jarayonini nazorat qilasizmi?

27. Qo‘l ostingizdagilarga faqat ular so‘ragandagina yordam berasizmi?

28. Har qaysi yaxshi bajarilgan ish uchun qo‘l ostingizdagilarga minnatdorchilik bildirasizmi?

29. Kishilardagi yaxshi sifatlarni payqashga intilasizmi?

30. Har bir xizmatchining imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullarini bilasizmi?

31. Qo‘l ostingizdagilarning qiziqish va intilishlarini bilasizmi?

32. O‘zganing gapini diqqat bilan tinglay olasizmi?

33. Biror xizmatchiga hamkasblari oldida minnatdorchilik bildira olasizmi?

34. Qo‘l ostingizdagilarni yakka holatda tanqid qilasizmi?

35. Yuqoridagi rahbarlarga axborot berganingizda jamoangizning yaxshi ishini ta’kidlaysizmi?

36. Qo‘l ostingizdagilarga ishonasizmi?

37. O‘z kasbingizda yangi yutuqlarni qo‘llashga intilasizmi?

38. Maxsus kurs va seminarlarda muntazam ravishda malakangizni oshirib turasizmi?

39. Xulq-atvoringizda va odamlar bilan munosabatda yetarlicha moslashuvchanmisiz?

40. Boshqarishning samaradorligini oshirish uchun rahbarlik uslubingizning o‘zgarishiga tayyormisiz?

Har bir «ha» javob – 1 ball, «yo‘q» – 0 ball. Savollar samarali rahbarlik usulining mezoni bo‘lganligi sababli 40 ta savolga «ha» jivobi – eng mukammal (ideal) variant hisoblanadi va yuqori boshqaruv imkoniyatini bildiradi. Agar savollarga chin yurakdan javob bergan bo‘lsangiz, bu idealga erishib bo‘lmaydi. Nechta va qaysi savollarga «yo‘q» deb javob berganingizni aniqlash juda muhim. Chunki ular zaif tomonlarini ko‘rsatadi. «Ha» va «yo‘q» javoblarining qanday munosabati eng optimal hisoblanadi. Bu siz o‘zingizga qanday talablar qo‘yishingizga

bog'liq. 33 tadan ortiqcha savol «ha» deb javob bergan bo'lsangiz, bu sizning yaxshi rahbarlik imkoniyatlaringizdan darak beradi.

7.7. O'z hayotingizning kapitanimisiz?

Quyidagi o'n besh fikrga «ha», «yo'q», «bilmayman» deb javob bering:

1. Hayotimda bo'ladigan hamma voqealarga javobgarlik bilan qarayman.

2. Agar ayrim odamlar menga bo'lgan munosabatini o'zgartirsa, shuncha muammo bo'lmasdi deb o'ylayman.

3. Muvaffaqiyatsizligim sababi haqida o'ylayman, tuzatishga harakat qilaman.

4. Mening fikrimcha baxtsiz bo'lib tug'ilganman.

5. Ichuvchilarning o'zi bunga sababchi deb hisoblayman.

6. Hayotimning shunday bo'lishiga menga ta'sir ko'rsatgan odamlar sababchi deb hisoblayman.

7. Shamollasam o'zim davolanaman, shifokorga murojaat qilmayman.

8. Ayollarning qo'polligi va tezligiga boshqa odamlar gunohkor deb hisoblayman.

9. Har qanday muammoni yechish mumkin, muammosi ko'p odamlarga hayronman.

10. Men odamlarga yordam beraman, chunki boshqalar menga yordam beradi.

11. Agar ko'ngilsiz voqea yuz bersa gunohkorni izlashni o'zimdan boshlayman.

12. Agar yo'limni qora mushuk kesib o'tsa, boshqa yo'ldan yuraman.

13. Har qanday sharoitda ham odam kuchli va mustaqil bo'lishi kerak deb hisoblayman.

14. O'zimning kamchiliklarimni bilaman, lekin odamlar meni tushunishlarini istayman.

15. Biror voqea yuz bersa tan olaman, tuzatishga qodir emasman. Javob ballari quyidagicha:

1, 3, 5, 7, 9, 11, 13-savollarning «ha» javobi uchun 10 ball.

2, 4, 6, 8, 10, 12, 14, 15 – savollarning «yo'q» javobi uchun ham 10 ball, «bilmayman» javoblari uchun esa 5 ball qo'yiladi.

Javoblarga to'plangan ballarning izohi:

100–150 gacha – Siz hayotingiz Kapitansiz, hamma ishda javobgarlikni sezasiz, qiyinchiliklarni yenga olasiz. Kelajak uchun kurashasiz.

55–99 gacha – Siz boshqaruvchi bo'lishingiz mumkin, lekin ishonchli kishiga topshirishingiz ham mumkin. Xatoni vaqtida tuzasiz, o'zingizga ishonch bilan yashaysiz. Odamlar bilan kelishib ketasiz.

0–49 gacha – Siz ko'pincha o'z hayotingizning Kapitani emassiz, yo'lovchisiz, o'z xatongizga hammani gunohkor hisoblaysiz, faqat o'zingizni emas.

7.8. «O'zingni angla» (Ikki kishi qayiqda)

Suv toshqini natijasida kimsasiz orolga quyidagilar kelib qoldi:

- qari olim; – yosh bola;
- hamshira; – arxeolog-talaba.

Ko'p o'ylamasdan javob beringchi: Shulardan qaysi ikki kishini birinchi bo'lib, qutqarar edingiz? Qayiqda faqat ikkita bo'sh o'rin bor.

Agar Siz...

1. Qari olim va bolani tanlasangiz siz pishiq, oddiy hissiyotli, hayotda mustaqil, o'z o'rningizni bilasiz. Ishda va hayotda o'ylab ish qilasiz, shuning uchun yaxshi yashaysiz.

2. Bola va hamshirani tanlasangiz sizning xarakteringiz juda murakkab bo'lib, ayrim vaqt bo'shanglik qilasiz, lekin irodangiz kuchli bo'lib, odamlarga va o'zingizga o'ta talabchansiz. O'z imkoniyat-ingizdan yaxshi foydalana olmasiz, qat'iyatlilik yetishmaydi.

3. Agar bola va talabani tanlasangiz siz qa'tiyatli odamsiz. O'zga-larga homiylik qilishni yaxshi ko'rasiz. O'z ishingizdan mamnunsiz. Do'stlik va davralarni yaxshi ko'rasiz. Yolg'onchilarni, aldoqchilarni yomon ko'rasiz.

4. Agar qari olim va hamshirani birinchi bo'lib qutqarsangiz, siz muloyim, artistlik qobiliyati bor odam bo'lib, himoyaga, maslahatga, qarindosh-urug'lar mehriga muhtoj odamsiz.

5. Qari olim va talabani tanlasangiz harakatchan, chaqqon xarakterli bo'lib, doim izlanuvchan, tashkilotchi bo'lganingiz uchun siz bilan yashash juda qiyin.

6. Talaba va hamshirani tanlagan bo'lsangiz sizda artistlik xususiyati bo'lib, talant sizda kuchli, lekin irodangiz bo'sh, injiq, yettinchi qavatda suzib yurasiz.

7.9. Ranglar tafsiloti

Odamlarning psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikricha odamlarning qaysi rangni sevishlariga qarab, ularning kim ekanligini, qanday xarakterga ega ekanligini aytib berish mumkin.

Yashil rang. Bu rangni sevuvchilar juda hissiyotli, didli, nozik tabiatli, yaxshi ko'ruvchi, erkinlikni sevuvchi, ish bobida vafodor va ishonchga loyiq kishilardir.

Qizil rang. Bu rangni sevuvchilar qiziqqon, harakatchan, tezda bir qarorga keluvchi, jahli tez, har bir ishga arazlab, mojaro chiqarishni yaxshi ko'ruvchi kishilardir.

Sariq rang. Bu rangni yoqtirgan odamlar tushungan, ravshan fikrli kishilardir. Ular xayolga beriluvchan, melanxolik, vafodor, hasadchi, afsonaga aylanish darajasida sevishga qodir, urishqoq bo'ladilar.

Ko'k rang. Bu rangni yoqtiruvchilar ichki olamdan ko'ra tashqi go'zallikni sevuvchilar bo'ladilar. Ular aqlli, xushfe'l, bir so'zli, ishqida vafodordirlar.

Binafsha rang. Bu rangni yoqtiruvchilar izzattalab, hammadan kuchli bo'lishni istovchi, mijozi doim o'zgarib turuvchi, hayoti doimo g'alayondan iborat bo'lgan odamlardir.

Oq rang. Bu rangni sevuvchilar pokiza, ma'sum kishilardir. Boshqalarga nisbatan muloyim, sovuqqon, hissiyoti esa kamroq bo'ladi.

Qora rang. Bu rang badbin va nizotalab kishilarning sevgan rangidir. Bunday kishilar kam kuladi, hamisha tund bo'lib yuradi, ishq bobida beqarordirlar.

7.10. Yozuv orqali shaxsning o'ziga xosligini aniqlash usuli

Tegishli adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lgan ushbu usulni qo'llashda o'quvchining har kunlik yozadigan daftaridan emas, balki o'rganiylayotgan o'quvchiga alohida vaqt (10–15 daqiqa) ajratib, shu vaqtdagi yozgan yozuvidangina foydalanish talab qilinadi. Usulni tatbiq etishda quyidagi yetti bo'limga va ular uchun ajratilgan shartli ballarga rioya qilish zarur.

Usulni qo'llash tartibi:

T/r	Shartli belgilar	Ball
Harf hajmi		
1.	Juda kichik	3
2.	Kichik	7
3.	O'rtacha	17
4.	Katta	20
Harfning qiyaligi		
1.	Chap tomonga butunlay qiya	2
2.	Chap tomonga biroz qiya	4
3.	O'ng tomonga butunlay qiya	6
4.	O'ng tomonga biroz qiya	14
5.	Tik yozuv	16
Harfning ko'rinishi		
1.	Yumaloq	9
2.	Ma'lum ko'rinishsiz	10
3.	Qiya	19
Dastxat yo'nalishi		
1.	Yozuv yuqoriga «o'rimalaydi»	16
2.	Yozuv to'g'ri	12
3.	Yozuv pastga «o'rimalaydi»	1
Yozuvda qo'l kuchining ishlatilishi		
1.	Yengil kuch bilan yozish	8
2.	O'rta kuch ishlatish	15
3.	Harflarni kuchli bosim bilan yozish	21
Harflarning bog'lanishi		
1.	Harflar bir-biri bilan bog'langan	11
2.	Harflar bog'lanmagan	18
3.	Harflar goh bog'langan, goh bog'lanmagan	15
Umumiy baho		
1.	Harflar tartibli joylashgan	13
2.	Ba'zi harflar aniq, ba'zilar noaniq yozilgan	9
3.	Harflar tartibsiz, yozuvi esa tushunarsiz	4

Natijalar ishlanmasi: agar o'quvchi 51–58 ball to'plagan bo'lsa, uning sog'ligi zaif, xarakteri esa melanxolik tipga yaqinroq.

59–63 ballgacha kam harakat, jur'atsiz, indamas, xarakterida esa flegmatik temperament elementlari ko'proq uchraydi.

64–75 ball yumshoq, ba'zan o'ta ishonuvchan, g'ururi va e'tiqodi kuchli.

76–87 ball nihoyatda ochiq ko'ngil, yaxshi ta'surotlarga boy, istarasi issiq, odamlar bilan muomalasi yaxshi, o'ziga xos hurmat e'tiborga ega.

88–98 ball aniq va puxta ish yurita oluvchi, kuchli va barqaror, tashabbuskor, muammolarni qat’iy va oqilona hal qila oluvchi.

99–109 ball egoistik xarakter ko‘proq uchraydi. Ba’zan betgachopar, ba’zan yengiltak. Odatda birovning fikrlari bilan hisoblashmaydi, tez ranjiydi, birovni tez xafa qilishi ham mumkin, hamma do‘stlari bilan bir xil muomalada bo‘lmaydi, maydagap, serjahl. Lekin bunday kishilar orasida juda iqtidorli va ijodiy ishga qobiliyati yuksak kishilar ko‘proq uchraydi.

110–120 ball bunday dastxat mas’uliyatsiz, qo‘pol, balandparvoz, o‘ta g‘ururli kishilarda uchraydi.

7.11. Tug‘ilgan sanaga mos xarakter xususiyatlari

Quyidagi sanalarda tug‘ilgan bo‘lsangiz:

1. Bu kuni tug‘ilganlarning xotirasi pastroq bo‘lib, ayrim voqealarni unutib qo‘yadi. Turmush qurishda doimo baxti yurishavermaydi. Agar turmush o‘rtog‘i mahkam turmasa uyi buzilib ketsa ham parvoyiga kelmaydi.

2. Bu kuni tug‘ilganlar ko‘ngliga yaqin odami bilan ruhan yaqinlashishga moyil bo‘ladi. Jisman yaqinlikni ko‘pam tan olavermaydilar. Sevgiga aql bilan yondashadilar. O‘ziga ruhan yaqinlar bilan turmush qurishni xohlaydilar.

3. Bu kun tug‘ilganlar o‘zlarining shiddatkorliklari bilan ajralib turadilar. Ko‘ngilxushlik jon-u dili, nafsini qondirmaguncha tinchimaydilar. Doimo o‘zlarini boshqalardan bir pog‘ona yuqori tutib yuradilar.

4. Bu kunda tug‘ilganlar boshqalar bilan munosabatda qiynalishadi, shuningdek, ular bilan ham oldi-berdi qilish qiyin. Intim munosabatda juda sust. Tushkunlikka beriluvchan, o‘ziga sodiq odamni qo‘llab turishga doimo muhtoj va qizg‘anchiq bo‘lishadi. Unaqalar bilan yashash uchun sabr-bardoshli bo‘lish kerak.

5. Shu kuni tug‘ilganlar pulni juda yaxshi ko‘rishadi. O‘zlariga bino qo‘ygan bo‘ladilar. O‘zlariga uncha qaramasalarda, pul topib boyish payida bo‘ladilar.

6. Oltinchi kuni tug‘ilganlar hissiyotli, xayolparast, o‘z e‘tiqodlariga sodiq bo‘ladilar. Intim munosabatlarga berilganroq, ko‘pincha bu narsani o‘z hissiyotlari bilan uyg‘unlashtirib yuboradilar.

7. Shu kuni tug‘ilganlar bilan ehtiyotkorroq bo‘lish zarur, chunki ularning fikri tez-tez o‘zgarib turadi, bir joyda turolmaydilar, doim yaxshi sherik axtarib yuradilar, shuning uchun ham ikki-uch bor yostiqdoshlarini almashtirishga ham to‘g‘ri keladi.

8. Sakkizinchi kun tug'ilganlar hissiyotli, o'z do'stalariga sodiq bo'ladilar. Lekin ularni ko'pincha eng ishonganlari ham «sotadi». Ularni tushunish va sevish murakkab bo'lib, agar ular sevsalar qattiq sevadilar.

9. Bu odamlar intim munosabatlariga juda o'ch, lekin xohishini bayon qilishga ojiz bo'ladilar. To'qqizinchida tug'ilganlar kamdan-kam seviz qoladilar, ammo sevsalar bir umrga vafodor bo'ladilar. Ular bir marta xato qiladilar. O'zlariga mos kishilar bilan tez kirishib ketadilar.

10. Bu kun juda yaxshi va baxtli kun. Shu kuni tug'ilganlar ham o'ziga o'xshagan qobiliyatli sherik izlaydilar. Ular bilan kelishish oson.

11. Bu kuni tug'ilganlarning ko'ngli ochiq va sadoqatli bo'ladilar. Sotqinlik va mag'lubiyatni ko'tara olmaydilar. Ular mustaqillikka intiladilar, lekin mustaqil yashashga qodir emaslar. Ularning hayoti doimo kurashdan iborat.

12. Ular bilan yashash oson, ko'ngli ochiq, o'zlariga o'xshaganlarni izlab yuradilar, yumshoq xarakterli, ularga qattiq gapirib ish bitkazib bo'lmaydi. Ularga muhabbat bilan yumshoq so'zlab muomala qilib ko'p narsaga erishish mumkin.

13. Ular hissiyotida qiyinchiliklar bor. Bunaqa odamlar ichki tomondan doimo birortasini qo'llashiga muhtoj. Ular bilan doim birga yashash juda qiyin.

14. Bu kun tug'ilganlarga sherik bo'lish uchun boy bo'lish kerak. Munosabati sovuq. Ularni seviz qolish ham mushkul, lekin o'ziga tortadigan ohanrabosi bor.

15. Oyning 15 ida tug'ilganlar xayolparast, sal narsaga lovillab yonadi, shunday tez «o'chadi». Yaxshi ta'minlangan puldor odamlar bilan tez chiqishib ketadi. Agar uni yostiqdoshi tushunsa oilasi mustahkam bo'ladi.

16. Bu kuni tug'ilganlar kimgadir qattiq bog'lanib qolish xususiyatiga ega. Lekin bir kishi bilan ko'proq bo'lish ham joniga tegadi. Turmushning turli tomonlarini totib ko'rishga ishqiboz. Ishqiy munosabatda ehtirosga ega, lekin ko'ngli bo'sh.

17. Hissiyoti kayfiyatiga qarab o'zgarib turadi. Agar sherigi unga pand bersa aloqani butunlay uzadi. Turmushi kamdan-kam buziladi. Jinsiy aloqaga juda ishqiboz, bu borada cheklashlarni yoqtirmaydi.

18. Juda ehtirosli bo'lsalarda o'zlaridagi moyillikni aytishga uyaladi. Buning uchun o'zlarini koyib yuradilar. Yumshoq muomalali, juda kam janjallashadi.

19. Bu kuni tug'ilganlar «o'zimizni to'g'ri» deydigan, cho'rtkesar, boshqalar uning uchun xizmat qilishni xohlaydigan fe'lga ega. Biror

masalani ko'pchilik bilan hal etishni yoqtirmaydi, yolg'iz o'zi hal qilishni yoqtiradi.

20. Bu kuni tug'ilganlar ruhlar dunyosi bilan yashaydi. Shuning uchun ham sevgan kishisi shunday bo'lishini xohlaydi.

21. Bu kuni tug'ilganlar ham ruhan, ham jismonan yaqinlikka moyil bo'ladi. Intim munosabatlarda «sherigi»ning ko'ngliga qarab harakat qiladi.

22. Bu kuni tug'ilganlarning hissiyotlari kuchli emas. Agar sevib qolsalar bir umr vafodor bo'ladilar. Qizg'anchiq, ko'ngli yarim kishilar. Arazchan, ularni doim qo'llab turish kerak.

23. Sherigiga o'z tazyiqni o'tkazishni yoqtiradigan, ehtirosli va unga bo'ysunuvchan sherik topmoqchi. Agar shunday sherik topsa, turmushi yaxshi bo'ladi.

24. Jismonan zaif, orzular dunyosida yashaydi. Ehtiros bilan sevadi, har xil ish bajarishni yaxshi ko'radi.

25. Shu kuni tug'ilganlar ko'proq moddiy tomondan ta'minlangan odamlar bilan birga bo'lishni yoqtiradilar. Intim munosabatda aytgani-ni qildiradiganlarni yoqtiradi.

26. Juda sezgir bo'ladilar, ruhan yaqinlikka muhtoj, jismoniy yaqinlikdan ikkilanadilar, sevgan kishilari uchun qurbon bo'lishga ham tayyor, ko'ngilchanligidan foydalanib turishadi, lekin qat'iyatli.

27. O'zgaruvchan, pulga yoki narsaga o'ch bo'lganligi uchun ham og'machi, o'ziga o'xshaganlarni yaxshi ko'radi, ko'p kishi bilan kelishib ketadi, aqlli, kuchli xarakterga ega.

28. Chin yurakdan sherigiga sadoqatli, kamtar ruhan yaqinlikka moyil, yumshoq, sherigi bilan kelishmasa voz kechishi oson. Ular bilan turmush qursa baxtli bo'ladilar.

29. Bu kuni tug'ilganlar o'ziga yoqqanlarni maqtashni xush ko'radi. Jinsiy moyillikka o'ch bo'lsada, o'z xohishini bayon qilishga ojiz. Uni ba'zida kimdir yo'naltirib turishi kerak. Bu kuni tug'ilganlar o'zgaruvchan bo'ladilar.

30. Ular o'z hukmini o'tkazishni yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun ularga yumshoq so'z, yon beruvchi sherik zarur bo'ladi. O'ziga yoqqan narsaning orqasidan quvib yuradi va unga erishmaguncha qo'ymaydi, intim aloqalarga kuchli ehtiros sohibi bo'lib, «sherigi» uning yo'liga qanday yurganini ham sezmay qoladi. O'ziga bo'ysunuvchilar bilan ko'proq aloqada bo'lishni yoqtiradilar.

31. Sadoqatli va ko'ngli toza, sevgiga sodiq bo'ladilar. Intim yaqinlikka oddiy jismoniy holat deb qaraydilar. Bu borada ko'ngli to'lmasa juda jahldor va injiq bo'lib qoladilar. Xarakterlari juda og'ir, bunaqa odamlarni ularning ko'ngliga qarab yashaydigan odamlargina baxtli qila oladilar.

VIII BOB. SHAXS, MUHABBAT VA TURMUSH

8.1. Muhabbat psixologiyasi

Sevgi... Visol... Oila...

Bu atamalar qatida qancha sir-u sinoat, qancha sevinch-u shodlik, qancha g'am-u anduh barqaror. Bu tuyg'ular har bir qalbdagi o'z shakli shamoyiliga ega.

Ular qanchalik eski bo'lmasin, har bir inson, har bir yurak bu tuyg'ularni qaytadan boshlaydi.

Dunyoda hech bir shoir, yozuvchi, faylasuf yo'q-ki o'z ijodiy faoliyatida odamzodning oddiy «oq-qoradan» iborat kunlarini kamalak ranglariga bo'yash qudratiga ega muhabbat haqida so'z aytmagan bo'lsin. Lekin shunisi ham borki muhabbat sohasida yagona ilmiy ta'rif qabul qilinmagan. Badiiy jihatdan chiroyli, fan nuqtayi nazaridan obyektiv ta'rif ko'proq qadimgi hind asarlarida berilgan. «Shaftoli shoxlari» kitobida yozilishicha: «Aql mayli hurmatni, qalb mayli do'stlikni, tana mayli xohishni tug'diradi».

O'zga zamonda va o'zga yurtida yashagan Volter fikricha «Sevgi-muhabbat bu — aql, tanaga bir vaqtning o'zida hujum qiladigan eng kuchli zavqli his-tuyg'ulardir». Bu borada buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning muhabbat haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. U muhabbatni kasallik sifatida talqin etadi va «davolash» choralari ham ko'rsatib o'tadi. Eng yaxshi davo bu — hissiyotni boshdan kechirayotgan ikki qalbni birlashtirishdir. Ammo ma'lum sabablarga ko'ra, ya'ni diniy, salomatlik, yosh, ijtimoiy kelib chiqishi va o'zga to'siqlarga ko'ra qalblarni birlashtirish imkoni bo'lmasa, Ibn Sino ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turlicha davo choralari tavsiya etgan. Ulug' hakimning muhabbat borasidagi ko'rsatmalarining ijobiy tomoni, avvalo ikki qalbni birlashtirish zarurligi haqidagi tavsiyasi bo'lsa, ikkinchi tomondan muhabbatni «davolash»da shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir.

Muhabbat hislari qaysi yoshda va qanday holda paydo bo'ladi? Insonda ilk sevgi hislari hali go'dak paytlaridayoq uyg'onishi mumkin. Ammo bu hali to'laqonli muhabbat emas, bolalik davridan sevgi hislarida psixologik komponent ustunlik qiladi. Yana shuni ham aytish kerakki, ba'zi bolalarda erta sezilib qoladigan jinsiy aloqaga moyillik ko'pincha uydagi noto'g'ri tarbiyadan, nosog'lom muhitdan, aniqrog'i, kattalarning

«beparda» munosabatlaridan kelib chiqadi. Xalqimiz «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan gapni bekorga aytmagan-da. Bolalar muhabbatning dastlabki ideallarini ona, yaxshi ko'rgan tarbiyachilari, nihoyatda yaqin bo'lgan ayol yoki erkak obrazlarida ko'radilar. Ya'ni muhabbat asosida oila qurgan kelinlarga sinchiklab razm solsangiz, albatta qaynona bilan o'xshash tomonlarini his qilasz.

Bu o'xshashlik tasodifiy emas, balki o'g'lining erta yoshligida shakllangan muhabbat obraziga onaning ba'zi elementlari kiritilishidir. Ayrim tekshirishlarga ko'ra qaynona kelinga qanchalik o'xshash bo'lsa, kelin-kuyov orasidagi nizolar ham shunchalik kam bo'lar, nikoh shunchalik turg'un bo'lar ekan. Maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalarda muhabbat hislari birmuncha farq qiladi. O'spirinlik yoshidagi qiz bolalarda psixologik komponent ustunlik qilsa, o'g'il bolalarda hissiyotning ikki obyektga bo'linishi kuzatiladi. Ya'ni ular muhabbat hislarini bitta qizga nisbatan boshdan kechirgan holda jinsiy intilishni katta yoshdagi ayollarga nisbatan his etadilar. Qizlarda bunday hol deyarli kuzatilmaydi. Bu faqat o'g'il bolalarga xosdir. 16–25 yosh bosqichida muhabbat obyektini topishga bo'lgan ehtiyoj keskin oshadi. Tanlash chegarasi pasayadi, tabiiy ehtiyoj kuchayadi. Sevish va sevilishga bo'lgan ehtiyoj intilish natijasida yoshlar oila qurishadi, ba'zilar esa ajralishga ham ulgurishadi.

25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari kamayib boradi. Qizlarda bo'lg'usi kuyovlarga nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi, tanlash mezonlari ko'payadi. Bunday psixologik o'zgarishlar yigitlarda ham kuzatiladi, ammo qizlardan farqli ravishda ularni oila qurish, uylanish imkoniyatlari kamayadi, bir qismida esa bunday imkoniyatlar oshadi ham, chunki bu yoshda ular yanada yuqoriroq sotsial mavqeni egallaydilar. Muhabbatning erkaklarda va ayollarda o'ziga xos jinsiy xususiyatlari barqaror. Binobarin, erkak kishilarda doimo jinsiy mayl ustunlik qiladi. Shu sababli ham ularning hissiyotida jinsiy intilish, jinsiy hayot nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Erkak kishilar muhabbat obyektini ko'proq ko'rish asosida idrok qiladilar. Ular uchun muhabbat obyektining tashqi ko'rinishi muhim. Albatta ayollar ham erkaklarning qaddi-qomati, did bilan kiyinishiga va boshqa xususiyatlariga ahamiyat beradi. Ammo shu bilan birga ayollarning erkaklardan farq qiluvchi tomonlaridan biri eshitish idrokining ustuvorligidir. Ular, ayniqsa, erkaklar tomonidan aytilgan ijobiy baholar, maqtovlarga nihoyatda sezgirdirlar. Yigitlar qizlarni baholashda ko'proq ularning

estetik jihatlariga tayansalar, qizlar esa yigitlarni baholashda ko'proq ularning aqliy, shaxsiy sifatlarini nazarda tutadilar. Bu jinsiy tafovutlar muhabbat tug'ilishida o'z aksini topadi.

Muhabbat turli shakllarda paydo bo'lishi mumkin. Ba'zilar bir ko'rishda sevib qoladilar (bunday muhabbatning aksariyati uzoqqa cho'zilmaydi), boshqa birovlarda esa sevgi-muhabbat uzoq muddat birga ishlash, o'qish mobaynida yuzaga keladi (bularning aksariyat qismi haqiqiy, bir umrga tatiydigan, oilaviy baxt keltiradigan muhabbat bo'ladi). Ba'zilar muhabbat oila qurgandan so'ng, birga yashash mobaynida yuzaga keladi. Bu ko'pincha sovchilar orqali yuzaga kelgan oilalarda kuzatiladi. Muhabbat hissiyotning bir formasi, xolos. U psixologik qonuniyatlarga qat'iy bo'ysunadi. Oilaviy turmush nuqtayi nazaridan, nikohning turg'unligiga bevosita ta'sir qiluvchi bir qonuniyat ustida batafsil to'xtalib o'tish lozim. U ham bo'lsa, muhabbat bosqichlari va muhabbat hislarining taraqqiyotidir. Ya'ni muhabbat hissi konkret bir shaxsda zaruriy ravishda uch bosqichni bosib o'tadi:

1. Boshlang'ich bosqich.
2. Alangalangan bosqich.
3. O'zaro hurmat bosqichi.

Birinchi bosqich haqiqiy, kuchli, to'laqonli, istiqboli porloq, uzoq umrli sof muhabbatning boshlanish bosqichi yoki shunchaki qiziqish, havasdan yuzaga kelgan, umri qisqa sevgining oqibati, mikrovarianti bo'lishi mumkin. Yoshlarimiz uchun eng havaslisi — muhabbat dinamikasini bilmalik, ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tishning noto'g'ri talqin etilishi va yanglish xulosa chiqarishlardir.

Birinchi bosqichning o'zini uchga bo'lish mumkin: yigit qizni (qiz-yigitni) ko'rganda qalbdan sevgi uchqunining paydo bo'lishi kuzatilishi; dunyoqarashlar birligi; oilaviy turmush haqidagi tasavvurlarning to'g'ri kelishini aniqlash.

Yuqoridagilardan dastlabki ikkisinin mavjudligi muhabbatning birinchi bosqichidan ikkinchisiga o'tishi uchun asos bo'ladi. Birinchi sevgi bosqichining muhabbatning alangalangan bosqichidan farqi — ikkinchi bosqichda altruizm xislatlari yuzaga keladi, ya'ni muhabbat obyektining manfaatlari o'z manfaatlaridan ustun bo'ladi, muhabbat hislarini boshdan kechirayotgan shaxs o'zini muhabbat obyektiga bag'ishlaydi.

Birinchi bosqichdan o'tgandagina uni haqiqiy muhabbat deb atash mumkin. Birinchi bosqich ko'p kishilarda kuzatiladi va ikkinchi bosqichga o'tmasdan kelib ketishi mumkin. Bu muhabbat emas, balki

shunchaki estetik didimizga birmuncha to'g'ri keladigan estetik va jinsiy ehtiyojlarimizni qondirish (jinsiy aloqada bo'lish shart emas) mumkin bo'lgan qarama-qarshi jins vakilining ma'lum vaqtdagi idroki natijasida yuzaga keladigan hissiyotlardir. Ikkinchi bosqichdan birinchi bosqichga qaytilmaydi. Undan faqat uchinchi bosqich (o'zaro hurmat)ga o'tish mumkin, xolos. Demak, faqat birinchi bosqichgina qaytish xarakteriga ega, ikkinchi bosqichdan boshlab hissiyot qaytmaslik xarakterini kasb etadi.

Qizlar hissiyotida psixologik komponent yigitlarga nisbatan ustun bo'lganligi sababli va oilaviy hayot bilan oilaviy baxtning ular hayotida muhim o'rin egallagani sababli altruizmning kuchliroq ifodalanishini nazarda tutib, ularda bu bosqich tezroq o'tilsa kerak, deb taxmin qilinadi.

Ko'p hollarda qizlar yigitlar tomonidan aldanib, bolali bo'lib qolishlari, yigitlar esa o'zga qizlar bilan ketib qolishlari mumkin. Bu kabi misollar qizlarda muhabbatning birinchi bosqichi nisbatan tez o'tishidan dalolat beradi. Qizlarda ikkinchi bosqich nisbatan davomliroq bo'ladi. Buni quyidagi bir necha misollar bilan tushuntirish mumkin:

– qizlarda psixologik komponentning fiziologik komponentga nisbatan ustunligi, jinsiy hayotning va u bilan bog'liq bo'lgan hissiyotning aksariyat holda ikkinchi bosqichda boshlanishi;

– yigitlar hissiyotida fiziologik komponent ustunlik qilganligi sababli psixologik to'yinish tezroq bo'ladi, chunki psixologik komponent miqdorining o'zi kam bo'ladi;

– jinsiy hayot va u bilan bog'liq bo'lgan hislar yigitlar uchun nikoh qurgandan so'ng katta yangilik emas, qizlar uchun esa sistemali jinsiy hayot natijasida ilgari ma'lum bo'lmagan organizm hislarining tushunilishi, bu hislarning sistemali ravishda boshdan kechirilishi oilaviy hayotning ahamiyatini yanada oshiradi, muhabbat obyektiga bo'lgan ijobiy hislarni, sevgi-muhabbat hislarini yanada rag'batlantiradi. Yuqoridagilar hisobiga qizlarda ikkinchi bosqichning «umri» uzayadi.

Uchinchi bosqich so'nggi bosqich bo'lib, uning davomliligi bir necha oydan bir necha o'n yillarga teng bo'lishi mumkin. Umuman, muhabbatning umri hissiyotning kuchi bilan emas, balki sevgi va sevilgan qayliqlar shaxsining teranligi, mazmunan boyligi, burch hislarining yetarli shakllanganligi, ichki madaniyati, ma'naviy qiyofasi, hayot haqidagi tasavvurlarining mazmuniga bog'liq.

Ma'lum vaqt ayriliqda yashaganda oilaviy hayotdagi mayda-chuyda narsalar ahamiyati keskin pasayib, ikki qalb orasidagi sevgi-muhabbat

hislarning yanada o'tkirlashishiga, kuchayishiga olib keladi. Ba'zan uning aksi bo'ladi: kundalik oilaviy hayotida er-xotinning o'zaro doimiy intensiv aloqada bo'lishlari bir-biridan ruhan «to'yib» qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, turli oilaviy mayda-chuyda narsalar hayotning ma'lum qismini ko'mib tashlab, uning aktivligini, kuchini susaytiradi. Shu sababli to'ygacha nihoyatda xushxulq, didli kiyinishga, o'ziga qarab yurishga, o'z xulq-atvorining faqat yaxshi tomonlarini ko'rsatishga harakat qilgan yigit va qiz nikohdan so'ng ma'lum muddat o'tgach keskin o'zgaradilar, o'zlariga qaramay qo'yadilar, o'zlarini tabiatan qanday bo'lsalar, shundog'icha (hatto bu kirdikor o'zlariga yaqin kishiga ozor bersada) ko'rsatadilar. Bunday holat ularning bir-biridan hissiy to'yinishini yanada tezlashtiradi va uchinchi bosqichning holatiga olib kelishi mumkin. Hayotda asrilmagan hech bir narsa uzoq yashamaydi. Shu jumladan qalbdagi muhabbat hislari ham yetarli ravishda e'zozni, ardoqni, qadriga yetishni talab qiladi. Ba'zilar o'z hayotlarida bir marta ham to'laqonli muhabbatni boshdan kechirmay o'tsalar, ba'zilar bir necha bor muhabbatni his etishlari, ya'ni bir necha kishini sevishlari mumkin. Muhabbat 17 yoshda ham, 77 yoshda ham qayta-qayta sodir bo'lishi mumkin. Muhabbatni boshdan kechirayotgan kishining yoshi qancha katta bo'lsa, u shu qadar bu hislarning qadriga yetadi.

Psixologlarning tekshirishlaricha, baynalmilal oilalar bir millatdan tashkil topgan oilalarga nisbatan turg'un bo'larkan. Ulardagi nikohdan qoniqish ham nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Ammo mening fikrimcha bu ko'rsatkichlar bevosita oilaning baynalmilalligidan kelib chiqmaydi. Bu oilalar turg'unligining asl sababi ular orasidagi kuchli muhabbat hislaridir. Agar bunday hislar bo'lmaganda, ular milliy to'siqlar (yaqin qarindoshlari, ota-onalarining qiyinlik bilan rozilik berishi)ni yengib o'ta olmagan va oila qurmagan bo'lar edilar. Shu bilan birga, yana bir narsani aytib o'tish lozim, ajralish arafasida turgan yoki ajralishga ham ulgurgan ko'pgina baynalmilal oilalarning oilaviy nizolari turli millat vakillaridan iborat bo'lganliklari uchun emas, balki konflikt bo'lgan vaqtda ularning nizolari sababini milliy tafovutdan qidirishlari va psixologik noto'g'ri talqin etishlaridandir. Xulosa qilib aytganda, muhabbat hislarining umrboqiyliigi milliy tafovutda emas, balki shaxs sifatlariga bog'liq.

Ular orasidagi munosabat asosini sevgi-muhabbat tashkil etgan bo'lsa, yosh tafovuti u darajada ahamiyatga ega emas. Bunda asosiy rolni munosabatlarni oziqlantirib turuvchi sabab-oqibatlar mazmuni belgilaydi. Masalan, yoshi 50 dan oshgan kishi o'zidan 20-yil yoshroq juvonne

yaxshi ko'rib qoladi. Ammo ayolni muhabbat emas, balki bu erkakning jamiyatda tutgan o'rni, obro'yi, turar joyi, madaniy saviyasi qiziqtirishi mumkin. Ba'zan shunday ayollar umrlarining oxirigacha «sevgan yor» rolini o'ynaydilar. Bunday muhabbat turining umri nihoyatda qisqa bo'ladi. Umuman, psixologlarning qayd etishlaricha, oilaning turg'unligi uchun, nikohning mustahkamligi uchun erkak kishining yoshi ayol kishiga nisbatan kattaroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yigitlar va qizlarning psixologik yetilishi, hayotiy yetilishi orasidagi tafovut bilan bog'liq. Chunki 17 yashar qiz uchun o'zining erkak tengdoshi ko'p hollarda bola sifatida idrok etiladi.

Oilaviy baxt birmuncha keng tushuncha bo'lib, uni hayotbaxsh hislar bilan sug'orib turuvchi buloq faqat er-xotin munosabatlari bilan cheklanmaydi. Bu bilan er-xotin orasidagi munosabatlarning ahamiyatini pasaytirmoqchi emasmiz. Eng asosiy rolni asosan ana shu munosabatlarda o'ynashini hech kim inkor eta olmaydi. Er-xotin munosabatlaridan, ular orasidagi muhabbat hislaridan tashqari shunday kuchli, hatto er-xotin muhabbatidan o'tadigan va umrboqiy bo'lgan hislar borki, bu — onalik, otalik hislaridir.

Er-xotin orasidagi muhabbat bo'lmasa ham, bu hislar tufayli oilaviy baxt sururini totish mumkin. O'zbek oilalarining 60 foizidan ortig'i sovcilar orqali yuzaga keladi. Hammasida ham muhabbat tug'ilavermaydi, ammo shulardan talaygina qismi o'zlarini oilada baxtli his etadilar.

Agar shu savolga beriladigan ilmiy psixologik javobni yoshlarimiz yetarli bilganlarida va undan samarali foydalanganida edi, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, hozir ajralayotgan oilalarning uchdan ikki qismini saqlab qolish (faqat rasmiy ravishda saqlab qolish emas, balki ularni baxtli qilish) mumkin bo'lar edi.

Muhabbatning dastlabki bosqichlarida sevilgan yorga faqat ijobiy ko'z bilan qaraladi. Alangalangan bosqichda bunday baholash nihoyatda kuchli ifodalanadi. O'zaro hurmat bosqichida ham ikki dil bundan samarali foydalanishlari zarur. Ammo ba'zi er-xotinlar (ko'pincha ayollarda uchraydi) muhabbatning uchinchi bosqichiga o'tganda o'zga er va xotinlarga havas bilan qaraydilar, o'z erlariga ularni namuna qilib ko'rsatadilar.

8.2. Raqamlar tilga ko'chganda. Uyingizning raqamini aytsangiz

Ayrim mutaxassislarning aytishiga qaraganda, inson o'z uyi raqami orqali kelajagini bilib olishi mumkin ekan...

– Siz istiqomat qilayotgan uy raqami nafaqat o‘zingiz haqingizda ma‘lumot beradi, balki o‘zingizni tutishingiz va qilayotgan ishlaringsizga ham ta‘sir ko‘rsatadi, – deydi fransuz numerologi Sandra Valieri.

Bo‘lmagan gap, cho‘pchak, dersiz? Hammasi ham siz o‘ylaganchalik emas... Keling, Valieri xonimni yana tinglab ko‘raylik.

– Shunday qilib, uyingiz raqami ostiga nima yashirinib yotganini bilish uchun barcha raqamlarni jamlash kerak. Deylik, siz, 67-sonli uyda istiqomat qilasiz. $6+7=13$, keyin $1+3=4$. Demak, 4 raqami nimani bildirishini qarab ko‘rish lozim. Quyiga nazar soling.

1 raqami. Bu sizning oldingizga qo‘ygan maqsadga erishishga qodir, irodali va qat‘iyatliligingizdan dalolat. Bunday raqamli uyda yashab, omad sari yetaklaydigan kuchga ega bo‘lasiz.

2 raqami. Quvonch, hayot, muhabbat va ma‘naviy yetuklikka limmo-lim uy... Ayniqsa, bunday uyga yosh oila ko‘chib kirsam, ular butun umr ajralmaydigan juftlikka aylanadi. Ammo atrofingizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga juda yengil, biror qarama-qarshiliksiz munosabatda bo‘ling. Yo‘qsa, turmush tarzini chigallashtirib, uydagi ruhiyat bilan ziddiyatga kirishib ketishingiz mumkin.

3 raqami. Bunday raqamli uyda yashovchilarda ko‘proq ijod, yaratuvchanlik, artistlik mahorati va ixtirochilikni rivojlantirishga moyillik kuchli.

4 raqami. Oila qurmoqchi yoki farzand ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, juda sizbop uy-da! Baxtli va sevimli bo‘lasiz!

5 raqami. Agar oilada yetakchi bo‘lsangiz va mas‘uliyat hissi juda baland bo‘lsa, bu uy aynan siz uchun. To‘g‘ri, kutilmagan voqealar va jadal o‘zgarishlar ham yetarli bo‘ladi. Biroq tabiatan avantyurachilar (haqqoniy kuch, sharoit va imkoniyatlarni hisobga olmasdan, tavakkaliga ish boshlovchi kishi) uchun eng asosiysi, bu uyda yashash emas, balki unga qaytish hisoblanadi.

6 raqami. Siz uyda o‘tirishni yaxshi ko‘radiganlar xilidansiz. Oilaviy xotirjamlikni yoqtirasiz, turmush o‘rtog‘ingizga va farzandlarga hurmatingiz, mehringiz juda baland. Bunday kishilar hamisha yordamga tayyor bo‘ladilar. Turli xayriya tadbirlarida ishtirok etishni yaxshi ko‘radilar...

Shunday raqamli uyda yashovchilar tabiatan yetakchi emaslar. Ko‘proq ikkinchi darajali rollarda o‘zlarini namoyon qiladilar. Biroq jamoa bilan ishlash ularning jon-u dili.

7 raqami. Agar tijorat bilan shug‘ullanishni istab qolgan bo‘lsangiz,

bunday raqamli uy sizga to'g'ri keladi. Uy o'zidan chiqarayotgan ijobiy quvvat bilan har bir ishni boshlashda sizga yordam beradi.

8 raqami. Pulli uy! Moliyaviy ishlarda omadingiz chopishiga yordam berishi tayin.

9 raqami. Diqqat! Bunday raqamli uy ham ijobiy, ham salbiy quvvat kesishgan joyda joylashgan. Agar kelajakka ishonuvchi va harakatchan bo'lsangiz, hammasi joyida. Mabodo melanxolik (doim g'amgin, dilgir odam) bo'lsangiz, bunday raqamli uy siz uchun emas. Bunday uy sal bo'shanglik va arzimas xatoni ham «kechirmaydi».

8.3. Qon guruhingizni bilasizmi?

Ko'pchilik insonlarning fe'l-atvori qon guruhiga bog'liq. Bizlar ko'pincha o'zimiz bilmagan holda qon guruhini surishtiramiz. So'ngra shunga qarab ma'lum tasavvurga ega bo'lamiz. Lekin bu usul Yaponiyada sal boshqacharoq ekan. Ya'ni kunchiqar yurt fuqarolari biror insonning xarakteri, xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlarni uning qon guruhiga qarab aniqlaydilar. Aniqroq aytadigan bo'lsak, yaponlar fikricha kishining qon guruhi uning shaxsiyati, psixologiyasi haqida barcha ma'lumotlarni beradi. Bu borada o'tkazilgan tekshiruv xulosalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, haqiqatan ham yapon tadqiqotchilari adashmaganligiga amin bo'lamiz. Shunga ko'ra quyidagi qon guruhlariga xos xususiyatlar keltirilgan jummalarni sizga havola etishni lozim topdik. O'qing, uni o'zingizda sinab ko'ring!

I guruh. Ushbu guruh sohiblari hamisha olg'a intiladi. Oldilariga qo'ygan maqsadga erishmaguncha qo'ymaydi. Nima ish qilish kerakligini oldindan belgilab olishi va o'z kuch-salohiyatiga astoydil ishonishi ularning yutug'i, albatta. Lekin juda ham rashkchi, ehtirolarga boy va sal qizg'anchiq hamda kasallikka oson yengilishi ehtiyotkor bo'lishni talab etadi.

II guruh. Osoyishta muhit, xotirjamlikni sevish, o'zlari ham juda vazmin ekanligi bilan bu toifa kishilari darrov ko'zga tashlanadi. Atrofdagilar bilan tez va oson chiqishib ketishi, ta'sirchan, sabr-toqatli ekanliklari ularning asosiy xarakterli jihatlaridir. Ammo qaysarlik ulardagi salbiy xarakter hisoblanadi.

III guruh. Ko'pincha ular juda ham xushchaqchaq, sho'x-sho'don yurishadi. Ammo bu vazminlik sizga begona degani emas. Odatda, atrofdagilar uni hurmat qilishadi, chunki bunday guruh sohibi bo'lganlar bilan birga qolganlarga zerikish hissi begona. Yana bir yutuqli tomoni

sharoitga tez moslashishi. Lekin ba'zan haddan tashqari erkinlik muammolar tug'dirishi mumkin. Hechqisi yo'q. Bo'ydoq bo'lsangiz kechirishadi.

IV guruh. Juda ham xotirjam va vazminlik doimiy quroli hisoblansa ajab emas. Do'st-u birodarlari uni hamma vaqt hurmat qilishadi va ardoqlashadi. Atrofidagi har bir hodisaga nisbatan haqqoniy munosabatda bo'lish, ba'zan qo'pol harakatlari tufayli kimnidir ranjitib qo'yishi hech gap emas. Odatda, ularning bir qarorga kelishi ancha qiyin.

8.4. Odamning biologik soati

Tungi soat 1. Aksariyat kishilarning uxlaganiga uch soatcha bo'ldi. Endi uyquning yengil bosqichi boshlangan va odam osongina uyg'oni-shi mumkin. Xuddi mana shu paytda bemorlarda og'riq sezgisi ayniqsa kuchayadi.

Tungi soat 2. Tanamizdagi deyarli barcha a'zolar (jigardan boshqa) me'yorida ishlaydi. Jigar mana shu osoyishtalik vaqtini organizm uchun zarur bo'lgan moddalarni samaraliroq hazm qilishga sarflaydi. U eng avvalo zaharli moddalar bilan olishadi. Agar bu vaqtda uxlamagan bo'lsangiz kofe, choy, spirtli ichimlik icha ko'rmang.

Tungi soat 3. Tanangiz dam olyapti, jismonan mutlaq zaiflashgansiz. Agar uyqu qochsa, bo'shshamang, aksincha, tugallanmagan biror ishingiz bo'lsa, butkul berilib shug'ullaning. Bu vaqtda qon bosimi pastlashgan, tomir urishi va nafas olish juda ham osoyishta bo'ladi.

Tungi soat 4. Bosim hali ham past. Miyaning qon bilan ta'minlanishi nihoyatda susayadi. A'zoyi badanda bo'shshish bo'lsada, salgina shovqindan uyg'onib ketamiz.

Erta tong, soat 5. Buyrak osuda ishlamoqda, hech narsa ajratib chiqarmaydi. Yengil uyqu va tush ko'rish, shuningdek, tush ko'rilman chuqur uyqu bosqichlari ham tugadi. Shu payt uyg'ongan odam darhol o'zini bardam va tetik his etadi.

Ertalab soat 6. Qon bosimi ko'tariladi, yurak tez ura boshlaydi. Venadagi qon oqimi tezlashadi.

Ertalab soat 7. Odam tanasining mikroob va zahariga nisbatan himoyaviy kuchi ortgan bo'ladi.

Ertalabki soat 8. Badan yaxshi dam oldi, jigar tanamizni turli zaharli moddalardan butunlay tozalaydi. Bu paytda spirtli ichimlik ichish mumkin emas, chunki u jigarga jabr bo'ladi.

Ertalabki soat 9. Ruhiiy faollik ortadi, og'riqqa nisbatan sezgirlik kamayadi. Yurak bor quvvati bilan ishlaydi.

Kunduzi soat 10. Faollik ortadi. Mana shunday g'ayrat tushlikkacha saqlanib turadi, har qanday ishni qoyilmaqom qilishga tayyormiz.

Soat 11. Yurak bizning ruhiy faolligimizga monand ravishda bir me'yorda ishlab turibdi, kuchli zo'riqish ham sezilmaydi.

Soat 12. Barcha kuchlarni maqsad sari safarbar etadigan vaqt keldi. Bu paytda to'yib ovqatlanish maqsadga muvofiq emas, yaxshisi bir soat keyinroq tushlik qilgan ma'qul.

Soat 13. Jigar dam olmoqda. Kunduzgi faollikning birinchi bosqichi tugadi, biroz horg'inlik seziladi.

Soat 14. 24 soatlik faoliyatning yana bir bor bo'shshishi, nafas rostlash holati kuzatiladi.

Soat 15. Umumiy ahvol yana yaxshilanadi. Sezgi a'zolari, ayniqsa hid va ta'm bilish qobiliyati nihoyatda kuchaygan.

Soat 16. Qondagi qand miqdori ortadi. Biroq bu biron-bir kasallik alomati emas. Dastlabki jonlanishdan keyin faollik asta so'na boshlaydi.

Soat 17. Ish unumdorligi hali ham yuqori. Sportchi bilan mashq qilishadi.

Soat 18. Jismoniy toliqish sezgisi chekinadi. Ko'proq harakat qilishga ishtiyoq uyg'onadi.

Soat 19. Qon bosimi ko'tariladi, asab torlari taranglashgan, arzimagang narsaga janjal ko'tarilishi hech gap emas. Allergiyasi bo'lgan kishilar uchun juda yomon vaqt.

Soat 20. Bu paytda odam o'zini og'ir sezadi, voqea-hodisalarga munosabatimiz nihoyatda kuchli, hozirjavobimiz. Haydovchilar o'zlarini juda yaxshi his etishadi, bu soatlarda avariya deyarli sodir bo'lmaydi.

Soat 21. Odamning ruhiy holati yaxshi. Bu vaqt artist va talabalarga tekstni yodda saqlab qolish uchun juda qulay. Kechki xotira kuchayadi. Kunduzi eslab qololmagan talaygina narsalarni xotirada mustahkamlab olish mumkin.

Soat 22. Qon tarkibida oq tanachalar miqdori nihoyatda ko'payib ketgan. Bu vaqtda har bir kub santimetrtdagi leykotsit miqdori 5–8 ming o'rniga 12 minggacha ko'payadi.

Soat 23. Tanamiz hujayralarini tiklash borasida ishlarini davom ettirib dam olishga hozirlik ko'rmoqda.

Soat 24. Sutkaning so'nggi soati. Agar soat 22 da uyquga yotilgan bo'lsa, ayni tush ko'radigan vaqt keldi. Nafaqat tanamiz, balki miyamiz

ham o'tgan kunga yakun yasaydi va jamiki keraksiz fikrlardan forig' bo'ladi. Kun tugadi.

8.5. Harflar nimadan darak beradi. Ism taqdirni belgilaydi

Quyidagi harflar xususiyatini o'qib chiqib, tanlagan yoringiz qanday fe'l-atvor egasi ekanligini, tabiatan muloyim yoki aksincha ekanligini bilib oling. Harflab o'qiymiz.

A – ismida ushbu harf mavjud insonlar mehnatkash bo'lishadi. Ular tun-u kun mehnat qilib, har doim ham o'z foydasi uchun ishlayvermaydilar.

B – tavakkalchilik harfi. Ismida ushbu harf mavjud inson hayotda doimo tavakkal qilishiga to'g'ri keladi: u yo pullarini, yo sog'lig'ini, yo hayotini o'rtaga qo'yadi.

V – orzularni ro'yobga chiqarish harfi. Lekin bu harf ismida mavjud bo'lgan insonlarning hamma orzulari ham amalga oshavermaydi, faqat oqilona, obdan rejalashtirilgan istaklarga ro'yobga chiqishi mumkin.

G-G' – ozodalikni xush ko'ruvchi insonlarning ismida ushbu harf mavjuddir.

D – chaqqonlik ramzi. Ismida ushbu harf mavjud insonlar doimo o'z haqqini birinchi bo'lib talab qiladilar.

E-Yo – hukmronlikka intiluvchan insonlar ismida uchraydi. Lekin shunisi qiziqki, ismida bu harf mavjud insonlar ko'p hollarda sodda, go'l bo'ladilar. Bunday insonlar gohida jiddiy vaziyatlarda biron-bir ahmoqona fikrni o'ylamasdan aytib yuborishlari ham mumkin.

J – go'zallikni sevuvchilar harfi. Ko'pincha ismida ushbu harf mavjud insonlar tashqi ko'rinishga haddan ziyod e'tibor berib yuboradilar.

Z – aybdorlik harfi. Boshqa harflarga qaraganda shu harf ismida mavjud bo'lgan kishilar mudom yo o'zlarini, yo atrofdagilarni biron-bir narsada ayblab yashaydilar.

I – sog'lom idrok. Bu insonlar hayotda hamma narsani yetti o'lchab bir kesib amalga oshiradilar. Barcha narsalarga haqqoniy qaraydilar.

Y – tashqi ko'rinishidan o'ziga ishonuvchan va kuchli bo'lsada, aslida unday emas. Bunday kishilar bo'lar-bo'lmasga vahima qiladigan kishilar toifasiga kiradilar.

Q-K – bu harf birvarakayiga sirlilik va mustaqillikni ifodalaydi. Bunday insonlar barcha muammolarni boshqalarga bildirib o'tirmay, o'z bilganicha hal etadilar.

L – shu harf mavjud bo'lgan insonlar uchun ma'naviyati yuqori

hayotdan ko'ra o'z jismining go'zalligi afzal.

M – yangi taassurotlar ramzi. Ismida bu harf bo'lgan insonlar sayohat qilishni, kinoga borishni xush ko'ruvchilar toifasidan bo'lishadi.

N – tanlash belgisi. Bu harfli insonlar taomlarni, aloqalarni saralab tanlashga moyil bo'ladilar.

O – chegaralanganlik ramzi. Bunday insonlar yoshliklarida singdirilgan qoidalar bo'yicha yashaydilar. Onasi yoki otasiga juda ham o'xshab ketuvchi kishilarga ko'ngil qo'yishga moyil bo'ladilar.

P – g'alaba qozonish belgisi. Ular xoh muammolarni, xoh biror-bir qalbni bo'lsin osonlikcha taslim qiladilar.

R – hayot yo'lidan to'g'ri, ya'ni chalg'imag borish, ko'zlagan maqsadi va aytgan so'ziga sadoqat ramzi.

S – porloqlik ramzi. Bunday odamlar uzoq vaqtgacha kishilar yodida bo'ladilar.

T – har xil narsalarga muhabbat. Bunday kishilar juda ham injiq bo'ladilar, hattoki ba'zida o'zlari nima istashini ham yaxshi bilmaydilar.

U – ayyorlik. Bu harf ismida mavjud bo'lgan insonlar o'zlari uchun kerakli narsani osonlikcha, ko'p mehnat sarf qilmay qo'lga kirita oladilar.

F – donolik va mustaqillik. Ismida ushbu harf mavjud bo'lgan insonlar kuchli boshliq bo'la oladilar.

X-H – mehribonlik ramzi. Bunday insonlar hech qachon hech kimni e'tiborsiz qoldirishmaydi.

TS – ezgulikka umid. Ular faqat birovlariga yaxshilik qilishga harakat qiladilar.

Ch – bu harf faqat o'ta dovyurak insonlar ismida uchraydi. Ular yaqin kishilarini juda mehr bilan himoya qiladilar.

Sh – sovuqqonlik ramzi. Bunday insonlar hech qachon vahimaga tushmaydilar.

E – eng xudbin insonlar ismida uchraydigan harf. Qisqasi, hayotdan o'z foydasiga hamma narsani ola biluvchi insondir.

Yu – xayolparastlikka moyil insonlar harfi. Bu insonlar hayotda bir kishinigina yaqindan sevib yashashlari mumkin.

Ya – agar biron-bir maqsadni o'zi tanlab olsa, ismida ushbu harf mavjud insonlar kelajakda o'qimishli bo'ladilar.

8.6. Harflar inson xarakteridan darak beradi

Olmoniya psixolog olimlarining aniqlashicha insonning ismi, sharifi va o'z ismidan hayotda qanday odam ekanligini aniqlash mumkin ekan.

- A** – kuch va matonat belgisi.
B – katta hissiyotlarga ega shaxs.
V – o‘zgaruvchan, turlanuvchan.
G(G‘) – sirlilik, maxfiylik.
D – odamlarni o‘ziga jalb qila oluvchi.
E(Yo) – safarbarlik holatdagi, doim bir nimaga shaylanib turmoq.
J – ishochsizlik holatdagi.
Z – moddiy qiyinchilik, shubha, gumon.
I(Y) – ta’sirlanuvchanlik, hassoslik.
K(Q) – katta ehtiyojga erishmoq uchun siqiluvchi.
L – mayda gap, ijodkor, ulkan kashfiyotchi.
M – mehnatsevar.
N – katta energiya egasi, jizzaki, nafsoniyati kuchli.
O – katta hissiyotli.
P – yolg‘izlik, kamtar, kamsuqum.
R – g‘ayratli, qizg‘anchiq.
S – asabiy, ruhiy siqiluvchi, xunob.
T – to‘xtovsiz izlanuvchan, yangi g‘oyalar tashviqotchisi.
U(O‘) – qo‘rqoq, ichki hissiyotli.
F – nozik ta‘b, muloyim.
X(H) – jinsiy muammoli.
Ch – sadoqatli, rostgo‘y.
Sh – o‘ta rashkchi, murosasizlik va kelishuvchilikka yo‘l qo‘ymaydigan.
E – psixologik, ruhiy qarashlar targ‘ibotchisi.
Yu – salga qizishib ketadigan, jizzaki odam.
Ya – olijanob, ijodkor shaxs.

Ha, shu usul bilan ham o‘z do‘stingiz yoxud tanlagan yoringizning xarakterini bilib olishingiz mumkin. Masalan: Ro‘ziyev Bahriddin Murtazoyevich (RBM) – g‘ayratli, energiyali, kuchli hissiyotli, mehnatsevar inson.

8.7. Maslahatlar, qiziqarli testlar, holatlar

Tajribali shifokorlarning aytishicha, odamning sog‘lig‘i uning ichki dunyosiga bog‘liq ekan! Ya‘ni qanday fe‘l-atvorga ega bo‘lsangiz, sog‘lig‘ingiz ham shunga yarasha bo‘ladi. Demak, sog‘lig‘ingizning qanday bo‘lishi o‘zingizning qo‘lingizdadir.

Qizg‘anchiq. Bunday insonlar, odatda, yurak kasalligidan shikoyat

qiladilar. Ba'zida bir dona non sotib olish uchun soatlab o'ylanadilar yoki turmush o'rtog'iga yangi buyum olib berish uchun bir kun siqiladi. Buning natijasida borib-borib yurak «ishdan chiqadi». Odam qancha ko'p qizg'ansa, tashvishlanish gormonlari ham shuncha ortib boraverarkan. Qizg'anish natijasida miyasi charchab, insultga chalinishi ham mumkin.

Qo'rqqoq. Bundaylarning o'pkasiga jabr. Qo'rqqoqlik natijasida organizm ko'p miqdorda adrenalin va noradreal ishlab chiqaradi. Keyin qarabsizki, o'pka ham «zaharlanadi»-qo'yadi. Ba'zida arterial bosim ham ko'tarilib ketishi mumkin.

G'ururli. Bundaylar oshqozon kasalligidan azob chekadilar. Ba'zilari ruhiy kasal ham bo'lib qolishlari mumkin. Ular hech kimdan yordam so'ramaydi. Axir g'urur bunga yo'l qo'ymaydi-da! Boz ustiga bunday odamlar bilan hech kimning yaqin munosabatlar o'rnatgisi kelmaydi.

Nafsi hakalak otganlar. Bu toifa kishilarni, odatda, oshqozon kasalligi qiynaydi. Bunday odamlarda immunitet juda past bo'ladi. Shifokorlarning aytishicha, nafsini tiya olmaydiganlar ko'pincha oshqozon yallig'lanishidan qiynaladilar.

Serjahl. Bunday odamlarda arzimmas narsaga ham janjal ko'tarishga moyillik juda kuchli. Janjal chiqarsa, huzur qilgandek bo'ladilar. Ammo aynan shunday insonlardan «mashhur» piyonistalar chiqar ekan. Ba'zilari oshqozon kasalligiga duchor bo'ladi.

Tushkun kayfiyat. Tushkunlikka tushgan inson birinchi navbatda nafas yo'lini «tinchitarkan». Ma'lumotlarga ko'ra astma kasalligiga ham, odatda, hayotidan xursand bo'lmagan insonlar duchor bo'lishi aniqlangan. Shifokorlarning aytishicha, o'g'rilar ko'pincha nevit va qo'l kasalligidan shikoyat qiladilar. Ba'zi kissavurlar jigar va o'pka kasalligidan noliydi. Doim xavf ostida yashaydigan jinoyatchilar oshqozon kasaliga chalinarikan.

Tabiat bilan uyg'unlashuv. Mashhur faylasuf Albert Shveytser uzoq yillar davomida Afrika o'rmonlarida yashagan. Ishonsangiz, shu davr ichida biror marta ham kasal bo'lmagan. Qanday qilib, degan savol sizni qiziqтира kerak?

— Hayotimni tabiatga bag'ishladim. Har bir o'rgangan yangiligim odamzod uchun bo'ldi. Kasal bo'lishga vaqt yo'q edi, — deb eslaydi faylasuf.

Qadamlar fe'lingizdan darak

Aytishlaricha, odamning yurishiga qarab ham uning fe'l-atvori qanaqaligini bilish mumkin ekan. Odamning qadam olishi uning yoshiga bog'liq emas. Balki jismoniy holatiga, temperamentiga ham bog'liq ekan.

Sokin va ishonchsiz qadam tashlaydigan odamlar – o'ziga e'tibor qarataishi xohlamaydigan, o'z fikr-u xayollari bilan band bo'lgan odamlardir.

Tovonini ichkariga qarab tashlaydigan odamlar – juda quvnoq, hamma narsadan xabardor bo'lib turishni xohlaydigan, kirishimli kishilar.

Poshnasini qarsillatib urib, shovqinli yuradiganlar – o'zini tuta olmaydiganlar, ba'zan beandishalik qiladigan kishilardir. Bu yurish o'z-o'ziga ishonchsizlikdan dalolatdir.

Bir maromda, vazmin qadam tashlaydiganlar – xotirjam, yengil-yelpi xayollarga berilmaydigan kishilar hisoblanadi.

Agar odam yurganda qo'llarini siltab yursa, bu uning serharakatligidan, intiluvchanligidan va sobitqadamligidan dalolatdir. Bundan tashqari yengil qadam tashlasa, bilaveringki bunday kishilar bekam-u ko'st, barkamol odamlar.

Og'ir qadamlar tashlab, yurganda qo'llarni qimirlatmasdan, osiltirib yuradiganlar – irodasiz va hayotdan zerikkan kishilardir.

Raqs tushayotgandek qadam tashlaydiganlar – jiddiy bo'lmagan va hamma vaqt va'da berib so'zining ustidan chiqmaydigan kishilar.

Mayda qadamlar bilan yuradigan kishilar o'ta rasmiyatchi kishilardir va ular kirishimli emas.

Xullas, ruhshunoslarning maslahatiga ko'ra hamrohingizning qadam olishiga e'tibor bersangiz, uning fe'l-atvori haqida ko'proq ma'lumot olishingiz mumkin ekan.

Sochning rangi – intilishingiz!

Siz sochingizni qaysi rangga bo'yamoqchisiz? Qanday rangni tanlashingiz nimaga intilishingizni aniqlab beradi...

Baqlajon rangi. Siz hammaga o'zingizning g'ayrioddiy shaxs ekanligingiz, ko'zga yaqinligingizni bildirmoqchi bo'lasiz. Siz o'zingizni yolg'iz, dilkash insonlari yo'qdek his etyapsiz.

Qora rang. O'zingizni himoyasiz sezyapsiz. Siz kim bilandir tani-shish, unga ishonishdan qo'rqasiz. Qalbingizda qo'rqinch bor. Lekin bilib qo'ying, qora rang bu – o'ziga qat'iy ishonch ramzi. Ayni paytda bu sizga yetmayotgan tuyg'u.

Kashtan rangi. Bu – muloyim, osoyishta, yoqimli va tabiiy rang. Agar shu rangni tanlagan bo‘lsangiz, demak, siz tinchlikni va sizga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishlarini xohlaysiz.

Qizil rang. Bu rangga sochini bo‘yashni lozim topganlar hamisha, hamma joyda o‘z bilganicha ish tutishni ma‘qul ko‘radi. Sizga kurashga chorlash va jang qilish yoqadi. Agar bu rangni tanlayotgan bo‘lsangiz, barchani jalb etishni xohlayapsiz.

Shokolad rang. Siz hammadan ajralib turishni istaysiz. Shokolad rang siz uchun qandaydir shirin, yoqimli tuyuladi. O‘z hayotingizni shirinroq, yanada baxtliroq qilishni istayapsiz. Siz yaxshi hordiq chiqarishingiz lozim! Xayolingizni biroz jamlab, dam oling.

Tilla rang. Siz maqtovlar, shirin so‘zlar kutyapsiz, o‘zingizni eng chiroyli deb his qilishni istaysiz... Nima uchun? Sababi oddiy, so‘nggi paytda siz ruhan tushkunlikka tushib, g‘amga botgansiz. Yana bir sababi esa buning aksi bo‘lishi ham mumkin: kimdadir go‘zal taassurot qoldirishni juda-juda xohlayapsiz.

Kechikishga qarshi choralar

Noaniqlik ko‘pgina odamlar tabiatiga xos kamchilikdir. Tabiatning bu xatosini o‘zgartirishga imkon bormi? Kimdir yo‘q desa ham, biz «ha» deymiz va sizdagi ushbu kamchilikni to‘g‘rilashga yordam bera-miz.

Agar kechikayotgan bo‘lsangiz...

- Kechqurundanoq ertangi kunga tayyorgarlik ko‘rib qo‘yishni odat qilib oling. Sumkangizni taxt qilib, oyoq buyumingizni tozalab, kerakli libosingizni dazmollab qo‘ying. Hattoki kechasi ertalabki nonushtani ham tayyorlab qo‘yish mumkin.

- Kechikayotgan bo‘lsangiz ogohlantirib qo‘yishni esdan chiqarmang, darhol qo‘ng‘iroq qilib, qachon bo‘lishingizni ma‘lum qiling. Chunki ishxonada sizni kutayotganlar ham bo‘lishi mumkin. O‘zingizga qo‘shib ularning ham vaqtini olmang.

Agar qo‘l ostingizdagilar kechikayotgan bo‘lishsa...

- Eng tez ta‘sir etuvchi usul – jarima yoki aksincha, doimo vaqtida yetib keluvchilar uchun rag‘bat.

- Agar qo‘l ostingizdagilarni ayni belgilangan vaqtga yetib kelishlari-ni talab qilib, o‘zingiz bunga amal qilmasangiz ishchilar shunday xulosaga kelishi mumkin: boshliq o‘zi kechikayaptimi, demak, bizlarga kechikishni Olloh o‘zi buyurib qo‘ygan.

Agar do'st va qarindoshlaringiz kechikayotgan bo'lishsa...

• Doimo uchrashuvni belgilab kechikib keladigan odati bor odam bilan uchrashuvga chiqayotgan bo'lsangiz, u bilan oldindan uni o'n besh daqiqadan ortiq kutmasligingizni kelishib oling. Agar o'sha vaqt ichida o'sha inson yetib kelmasa, ortingizga o'girilmay, bemalol ketavering. Bir necha bor sizni topa olmay qolgach u vaqtida yetib kelishni albatta odat qilib oladi.

• Biror-bir joyga otlangan vaqtingiz turmush o'rtog'ingiz uzoq vaqt g'imirlab yursa, ikki marta usiz ketib ko'ring! Shundagina u kelajakda bunday voqea qaytarilmasligiga harakat qiladi.

Agar siz domla (muallim, notiq) bo'lsangiz...

• Har bir kechikuvchini eshikning oldidan to'g'ri doska yoniga chaqirib oling. Ular sizning piching aralash savollaringizga javob topib bera olgan taqdirda ham bunday holatga ikkinchi tushmaslikka harakat qilishadi. Lekin buning oqibati siz kutganingizdek bo'lmasligi mumkin. Masalan, ular kechikib kelgan taqdirda darsingizga kirmay qo'ya qolishlari mumkin. Yaxshisi eng aniq va tartibli o'quvchilar uchun qandaydir yangiliklar, imkoniyatlar yaratsangiz, siz kutgandek foyda berishi mumkin.

Baxt yor bo'lsin

Oilangizda bo'lib o'tgan oxirgi janjalni esga olib ko'ring. Sabr-toqatingiz adog'iga yetishiga nima sabab bo'lgandi o'shanda? Poygakda betartib yotgan oyoq kiyimlarimi? Yoki rafiqangiz sizni yig'ishtirib qo'yilgan uyda issiq ovqat tayyorlab kutib olmaganidir? Oila baxtiga shunday mayda sabablar ham zomin bo'lishi mumkinligini ko'rib hayron qolasan kishi, asabiylashasan. Oilani ajralishga yetaklaydigan sabablarni o'rganib chiqqan ruhshunoslar shunday xulosaga keldilar: ma'lum bo'lishicha, ko'pgina oilalarning tarqalib ketishiga sabab bo'layotgan narsa – bu ularning baxtli oila nima asosiga qurilishini bilmasligida ekan...

Baxtli oila qurish uchun birgina muhabbatning o'zi yetarli.

Bu noto'g'ri fikr. Oila qurishga muhabbatimiz sabab, deb qaror qilgan bo'lsangiz qattiq adashasiz. Hammasidan ustuni boshqa narsadir. Muhimi – hayot haqida tushunchalaringiz bir xil bo'lishi, kelajakda erishmoqchi bo'lgan niyatlaringiz, orzularingiz bir-biriga mos tushishi kerak. Oila qurishdan avval yaxshilab o'ylab ko'ring: sizlarni muhabbatdan tashqari bog'lab turadigan yana biron-bir narsa mavjudmi o'zi?

Qarama-qarshi fe'l-atvorli kishilar baxtli nikoh quradilar.

Bu ham noto'g'ri, avval boshda uyatchan qiz o'zining jasur, olifta,

doimo hammaning diqqatida bo'ladigan sevgilisidan hayratlanishi mumkin. Lekin vaqt o'tishi bilan shinamgina uy sharoitini xush ko'ruvchi qizga kechgacha do'stlar davrasida bo'lishni sevadigan yigit bilan turmush qurish — haqiqiy azobga aylanishi mumkin.

His-tuyg'ular ko'rinib turibdiki, ishonchsiz poydevordir. Oilaviy munosabatlar qachonki oilada o'zaro ishonch, hurmat va bir-birini tushunish holatlari mavjud bo'lsa mustahkam bo'ladi.

Odamlar bir-biriga ko'nikib qoladilar.

Unday emas. Agar tanlagan yoringiz fe'l-atvoridagi qaysidir tomoni (masalan, xasislik) sizni ranjitsa, FHDYoda imzo chekayotib, siz bu bilan ajralish haqidagi shartnomaga imzo chekayapman deyavering. To'g'ri, boshida uning bu kamchiligi sevib qolganingiz uchun bilinmasligi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan uning bu «fazilati» yanada yorqinroq ko'rina boshlaydi. Chunki fe'l-atvorni tubdan o'zgartirib bo'lmaydi.

Pul muhim emas, asosiysi muhabbat.

Noto'g'ri. Kun ko'rish maqsadida doimo tashvish chekish — oilaviy munosabatlarga sovuqlik tushiradi. Bu og'ir muammoni eng katta muhabbat ham hal eta olmaydi, dosh bera olmaydi. Bir-biringiz uchun kerakli vaqt butunlay moliyaviy tomondan kelib chiqqan muammolarga qaratiladi. Bu muammolar bir-biringizga bo'lgan mehrni so'ndirishi mumkin.

Baxtli hayot kechirish uchun ayollar beshta qoidani bilishlari shart. Ularning ba'zilar erkaklarga ham taalluqlidir.

1. Bo'lar-bo'lmas mayda-chuydalarga ahamiyat bermang. Chunki ko'pincha noo'rin tanbeh orqali siz undan nimadandir qattiq xafa ekanligingizni namoyon qilayotgan bo'lasiz. Masalan, «Sen narsalaringni xona bo'ylab yoyib tashlayapsanmi, demak, mening mehnatimning qadriga yetmayapsan», axir ularni yig'ishtirish sizning zimmangizda-ku. Kech kelishi haqida ogohlantirmadimi, demak, sizning u haqda qayg'urishingiz mumkinligi uni umuman qiziqtirmaydi deb o'ylaysiz. Yaxshisi undan xafa ekanligingizning asosiy sabablarini bartaraf etishga harakat qiling: tartibsizlikka ko'pam ahamiyat beravermang yoki hamma narsani yig'ishtirib qo'yib, turmush o'rtog'ingizni kutishni bas qiling.

Aksincha, o'zingizga ko'ngilni ko'taradigan sovg'alar qiling: masalan, agar u qo'ng'iroq qilmasa do'konga borib o'zingizga biror narsa xarid qiling (dugonangiznikiga mehmonga yoki konsertga borishingiz mumkin va h.k.).

2. Sevgan yoringizga to'liq ishoning. Agar u do'stinikidan kelayot-

ganligini aytsa, demak, hammasi shunday bo'lgan. Bu uni bevafoqlikda ayblab rashk mojarosini yuzaga keltirishga sabab bo'la olmaydi. Uni ta'qib qilmang. Ko'pgina ayollar o'z turmush o'rtoqlarining «yurish»lari haqida bilishni xohlaydilar. Bu esa noo'rin janjallarga sabab bo'lishi mumkin. Shunday ekan, hayotni ortiqcha murakkablashtirishdan ne hojat?!

3. U ishlayotganda unga xalaqit bermang. Chunki mansab erkak kishi uchun muqaddas narsadir. Oxir-oqibat uning barcha harakatlari mansab pillapoyasidan yuqorilashga yoki maoshi oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Bularning barchasi esa siz uchun qilinadi, aziz ayollar.

4. Tanqid qilmang. Erkaklar o'zlarini juda ham yaxshi ko'radilar. Ularni ikki og'iz shirin so'z bilan maqtab qo'ysangiz, olam guliston. O'zingizning xarxashangiz bilan, har narsadan noliyverishingiz orqali uni bezdirib yuborasiz. U sizdan o'zini olib qochadigan bo'lib qoladi. Yoki ikkinchi safar sizga o'z dardini yormay qo'yadi. Yolg'on gapiradi.

5. Agar u sizga yetarlicha e'tibor qaratmayotgan bo'lsa undan xafa bo'lishning keragi yo'q. Ular sizni sevadi, sizga xiyonat qilmaydi, sizni deydi – shuning o'zi yetarli emasmi? Nahot biron-bir arzimasi matoh bu oliy tuyg'ulardan ustun bo'lsa?

Erkaklar bunday o'ylamaydilar. Lekin ayol baribir kichik bo'lsada sovg'a olishni xohlaydi. Bu uning uchun muhimdir. Lekin o'ylab ko'ringchi, balki aksinchadir?..

Barchangizga baxt yor bo'lsin!

Dam olishni bilasizmi?

Ko'pchilik mehnat ta'tilini yoz fasliga to'g'rilaydi. Gap ta'tilga qaysi paytda chiqish emas, balki uni qanday o'tkazish-da!

1. O'tgan yili mehnat ta'tilini qanday o'tkazdingiz?

a) uyda o'tiraverib zerikib ketdim (3 ball);

b) juda ko'p vaqt sayohatda bo'ldim (1 ball);

d) sog'lig'imni tiklashga urindim va ulgurdim ham (2 ball).

2. Ta'tildan qaytgach, birinchi ish kuningiz qanday kechdi?

a) bayramdek, ta'tilda rosa zerikkandim (1 ball);

b) oz-moz yoqimli, lekin kutilgandek (2 ball);

d) filmlardagi kabi dahshatli. Yana atrofimda yoqimsiz basharalar, yana asabiylashishlar (3 ball).

Z. Ta'tilingiz yana davom etishini xohlaringiz?

a) albatta (1 ball);

b) rahmat, shundoq ham jonimga tegdi (3 ball);

d) pulim tugadi, xohlamayman (2 ball).

4. Boshlig'ingiz sizni qanday kutib oldi?

a) «Qachon ta'tilga chiqasiz? Ie, ta'tilda bo'ldingizmi? Kechirasiz, sezmay qolibman!» (3 ball);

b) «Keldingmi? Kelgan bo'lsang yaxshi. O'zing bilib ishingni qila-
ver» (2 ball);

d) «Va nihoyat keldingizmi? Sizsiz hamma ishlar to'xtab qolgandi!»
(1 ball).

5. Siz keyingi ta'tilni qanday o'tkazishni rejalashtirdingiz?

a) shoshib qayoqqa ham borardim. Yana bir yilgacha bir gap bo'lar
(2 ball);

b) hozircha yo'q, ta'til vaqtidagi qarzarimni to'lab olsam ham katta
gap (3 ball);

d) albatta, mening 10-yilga mo'ljallangan rejalarim bor (1 ball).

Endi to'plagan ballaringizni hisoblab chiqing.

5 baldan 8 balgacha. Balli, siz aql bilan ish ko'rarkansiz. Demak, ishingiz ham unumli bo'ladi. Miriqib dam olgansiz, endi yangi kuch-g'ayrat bilan ishni boshlayvering.

9 baldan 12 balgacha. Sog'lig'ingiz yaxshilandi. Kayfiyatingiz a'lo. Ta'til sizga foyda berdi.

13 baldan 15 balgacha. Kayfiyatingiz tushkun. Ta'tilni to'g'ri reja-lashtirmagansiz. Nachora, shunaqasi ham bo'ladi. Eng asosiysi – xatoingizni takrorlamaslikka intiling.

Samoviy nozik quvvat

Dunyo tibbiyotining bobokaloni Ibn Sino og'ir kasalliklarning kelib chiqishidagi noma'lum sabab va omillarni aniqlash maqsadida ajoyib tajriba o'tkazgan. U bir xonadagi ikki qafasga bo'ri bilan qo'yni qamab qo'yib, nazorat qilgan. Yetarlicha ozuqa bilan ta'minlab turilganiga qaramay, bir necha kundan so'ng qo'y xastalanib, nobud bo'lgan. Bunday tajriba ichki a'zolar faoliyatini tubdan o'zgartira oladigan ko'zga ko'rinmas, latif quvvat borligini aniqlab berdi. Xuddi shunday va shunga o'xshash tajribalar inson oladigan barcha ozuqalardan tashqari, yana o'ta kuchli samoviy nozik energiyadan ham foydalanadi, degan nazariyaga asos bo'ldi...

Insonda o'zaro quvvat almashinuvi (oilaviy, jamoa munosabatlari-dagi quvvat tajovuzi va boshqa sabablar) natijasida tanadagi quvvat

muvozanatining buzilishi og'ir xastaliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Juda qadimdan Hindiston, Xitoy, Amerika va Yevropa tabobati inson tanasidagi samoviy energiyani qabul qiluvchi chakralar va tana atrofida ko'zga ko'rinmas qobiq-maydon – auraning buzilishi tufayli turli xastaliklarning kelib chiqishidan yaxshi xabardor bo'lgan. Buzilgan yoki teskari ishlayotgan chakralarni sozlash, tana atrofidagi aurani tiklash, uni tabiiy holatiga keltirish kasallikdan sog'ayish jarayonida birinchi eng muhim omil hisoblanadi. Sir emaski, hind yoglari, xitoylarda Dao va Tibet lamalari bu masalaning yechimini uzoq vaqt maxfiy saqlab kelishgan. Bugun esa bunday usullar ko'pchilikka ma'lum.

Bu yaratuvchi, bunyodkor nozik energiya inson dunyoviy tashvishlardan xoli bo'lgan paytda, toat-ibodat vaqtida, ziyolilarning o'ta berilib ijod qilayotganida, musavvir ijodxonasida, masjidida, Makkada, Qur'onda, tasbehdagi, ziyoratgohlarda muallaq turuvchi energiya oqimi shaklida namoyon bo'lar ekan.

Ba'zi davlatlarda bugungi kunda turli xastaliklardan forig' bo'lishning zamonaviy usullari mavjud. Mazkur usulni siz-u biz ham o'rgansak (!) bo'ladi. Bu qiyin emas, biror kishi maxsus seanslardan o'tkazilib, undagi quvvat tozaligi, meridian kanallari, chakralari, quvvat mudofaasi va boshqa ko'rsatkichlari namuna shakliga keltiriladi. Unga kosmik energiya bilan muomala qila olish qobiliyati o'rgatiladi. Shundan so'ng uning vositachi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Zarurat tug'ilganida o'rgangan usullaridan foydalanib, oila a'zolari yoki shunday xizmatga muhtoj shaxslarda paydo bo'lgan energetik muammolarni yechib beradi.

Kitobimiz sahifasida vositachi bajara oladigan barcha usullarni yoritish ko'p hajm talab qilishini hisobga olib, faqat bir usulini, ya'ni oddiy suvga kosmik nozik quvvat iydinib, undan foydalanish yo'llariga to'xtalib o'tsak.

Ichki a'zolarga o'ta zarur bo'lgan tabiiy nozik energiya artezian yoki buloq suviga maxsus yo'l bilan iydinilib foydalanilsa, bu muammoni yechish mumkin. Bunda artezian yoki buloq suvining kimyoviy tarkibi va xususiyati o'zgartirilmagan holda kuchli kosmik nozik quvvat iydiniladi. Natijada, bunday «suv» ulkan yaratuvchi, samoviy kuchga ega bo'ladi.

Iste'mol. Yuqoridagidek ijobiy, samoviy nozik energiya iydinilgan «suv» tanadagi suyuqlik miqdorini me'yoriga keltirishidan tashqari, qon orqali barcha to'qimalarga yetib boradi. Tanada yig'ilib qolgan salbiy

quvvatlarni siydik orqali organizmdan chiqarib yuboradi. Natijada charchoq, majolsizlik kamayib, «suv» insonga qo‘shimcha g‘ayrat, quvvat bag‘ishlaydi.

Cho‘milish oldidan. Cho‘milish oldidan vannaga to‘ldirilgan oddiy suvga biroz «suv» qo‘shilsa, undagi quvvat ko‘rsatkichi o‘zgaradi. Cho‘milish paytida u tana, ichki a‘zolarida yig‘ilib qolgan salbiy quvvatni o‘ziga tortib oladi, kishi yengillashib, salbiy quvvatdan xalos bo‘ladi.

Bemorlar ichsin. Odamlar uzoq vaqt davomida tanada va a‘zolaridagi tabiiy quvvat miqdoridan ko‘p sarflanishi oqibatida xastalanib qoladi. «Suv» bemor tanasidagi quvvatni muvozanatlashtirib, tezroq tuzalib ketishiga katta hissa qo‘shadi.

Bola nima uchun tez-tez kasal bo‘ladi? Chaqaloq tug‘ilgan paytda ikki asosiy kanal, ya‘ni oyoqdan miyaga, miyadan oyoqqa o‘tuvchi meridian ishlasa-da, chakralar hali takomillashmagan va ichki a‘zolarining tabiiy quvvat bilan ta‘minlanishi ancha sust bo‘ladi. Shu sababli yosh bolalar tez-tez kasallanib turadi. Bolalarni cho‘miltirishda quvvatlangan «suv»dan foydalanilsa, chakralar ochilishi, ichki a‘zolarining tabiiy nozik energiya bilan ta‘minlanishi me‘yoriga tushadi. Shu tariqa har xil noxushliklardan xoli bo‘lib, go‘dakning badani chiniqib boradi.

Kamquvvatlik (anemiya) xastaligiga chalingan insonlarning barchasida tabiiy quvvat oqimi yo‘llari berkilib qolgan bo‘lib, ichki a‘zolari tabiiy ravishda nozik energiyani yetarli miqdorda ololmaydi. Bunday hollarda samoviy ijobiy quvvat yidirilgan «suv»dan iste‘mol qilib turilsa, bo‘shashgan ichki a‘zolariga zarur bo‘lgan tabiiy energiya «suv» orqali yetib boradi va xastalikdan tuzalishda katta madad bo‘ladi.

Hasad, ig‘vo, manmanlik. Xonadonlarda har xil yig‘in va marosimlar o‘tkazilganida, insonlar bilib-bilmay o‘zidan so‘ng ba‘zan kuchli salbiy quvvat qoldirishi ma‘lum. Hasad, alamzadalik, ochko‘zlik, gerdayish, ig‘vo, manmanlik, nafrat, kechirimsizlik, murosasizlik, dangasalik va boshqa illatlarga chalingan insonlarda, ayniqsa, shunday. Nima qilish kerak? Yana o‘sha «suv» yordam beradi. Yig‘in va marosimdan so‘ng uyga «suv»dan biroz sepib yoki lattani ho‘llab artish maqsadga muvofiq.

Liboslar. Ayollarimiz chiroyli, ko‘rkam liboslar kiyishni yaxshi ko‘rishadi. Yuqorida aytilgan illatlarga moyil insonlardagi salbiy energiya esa ularning kiyimiga ham «ilashadi». Bunday libosni yuvishdan oldin kir yuvish mashinasidagi oddiy suvga bir miqdorda «suv»dan aralashtirib yuborilsa kifoya. Libosga yopishgan noxush quvvat suv quvvurida oqib ketishi aniq.

O'ta og'ir bemor yoki eng so'nggi manzil. Ba'zan kasallik o'tib ketganligi sababli bemorlarga mutaxassislarining yordam berishi qiyinlashadi. Bunday holda bemorning yoniga «suv» ochilmagan holda, biror idishda (masalan, shishada) 1–2 soat qo'yib qo'yilsa, tanadagi salbiy quvvatni o'ziga tortib oladi. Og'riq biroz yengillashadi. «Suv» foydalanib bo'lingach, to'kib tashlanishi shart.

Yana bir gap. Paymonasi yetib, hayotdan ko'z yumgan insonni so'nggi manzilga kuzatishdan oldin mayyitni yuvishda ishlatiladigan suvga bir miqdorda shu «suv»dan qo'shilsa, umri davomida tanada yig'ilib qolgan salbiy quvvat qoldiqlarining tanadan suv bilan chiqazib tashlanishida asosiy omil bo'ladi. Shu o'rinda, marhum ba'zi gunohlardan forig' bo'lsa ham ajab emas.

Tanqid siz uchunmi?

1. Dugonangizni kutib olayotib uning biroz semirganiga amin bo'ldingiz. Siz...

a) «Biroz to'lishibsanmi?» – deb aytasiz, xohlasa o'zi xulosa chiqarib oladi. (D)

b) «Nega o'zingga qaramay qo'yding, tezda parhezga o't», – deysiz. (A)

d) Hech nima aytmaysiz – birovni ranjitishning nima keragi bor? (I)

2. Qo'shningizning o'g'lini chekayotgan vaqtida ko'rib qoldingiz.

Munosabatingiz:

a) Yigitchani urishib, ayasiga aytib berish bilan qo'rqitasiz. (A)

b) Hech nima bo'lmagandek, xotirjam o'tib ketasiz. (I)

d) Chekishning xavfi yomonligini aytasiz. (D)

3. Eringiz go'sht xarid qilgani chiqib, do'kondagi eng yomon mahsulotni ko'tarib keldi. Siz:

a) Eringizning qilgan harakati uchun maqtab, go'shtsiz taom pishirasiz. (I)

b) Eringizga: pulni shamolga sovrishda uningdek noyob iste'dod sohibi yo'qligini aytib o'tasiz. (A)

d) Kulib qo'yasizda, go'sht xarid qilish uchun yanagi safar u bilan o'zingiz chiqishingizni aytasiz. (D)

4. Qarindoshingiz o'z qo'llari bilan o'stirgan gulni sizga maqtamoqda. Aslini oladigan bo'lsak gulning ko'rinishi – ancha so'lg'in. Siz...

a) Hurmat yuzasidan tabassum hadya etasiz. (I)

b) Do'kondagi gullar bundan ko'ra ancha ko'rkamroq ekanligini qistirib o'tasiz. (A)

d) Xona gullarini o'stirish bo'yicha unga bir-ikkita ajoyib maslahatlar berasiz. (D)

5. Ofitsiant qiz ikki marta sizning buyurtmangizni chalkashtirib yubordi. Siz...

a) E'tiroz bildirasiz. (D)

b) Hech nima demay, o'z buyurtmangizni olib kelguncha sabr qilib kutasiz. (I)

d) Uning ustidan boshlig'iga shikoyat qilasiz. (A)

Javoblaringizni yana bir ko'rib chiqingda qaysi harf ko'proq uchraganini aniqlab oling.

A. Sizning fikringizcha hammaga ma'qul tushavermaydigan suhbatlarni ham ochiqchasiga hech qanday xafagarchiliksiz olib borish lozim. Bunday taktika yurgizishdan siz uchun birgina foydali narsa — bu sizning ichki yig'ilib turgan e'tirozlaringizni to'kib sochishdir. Lekin bu narsaning salbiy tomoni atrofdegilar sizdan tez ranjishi va ko'ngli qolishidir. Ular siz bildiradigan e'tirozlarga munosib javob axtarib, aksincha, o'z xatolarini umuman to'g'rilamay qo'yishlari mumkin va uchinchidan, sizdan qandaydir ma'noda bog'liq bo'lgan insonlar sizning tanqidingsizni eshitmaslik uchun yo'l qo'ygan xatolarni bildirmaslikka harakat qiladilar va bu holat katta xavfni keltirib chiqarishi mumkin.

I. Haqiqat yaxshi, lekin baxt undanda yaxshiroq degan aqidaga bo'ysunuvchi insonsiz. Uydagi janjalni, kelishmovchilikni tashqariga chiqarishning nima keragi bor, chin sevgi ham ortiqcha bezovtalanishga hojat qoldirmaydi — bu sizning fikringizdir. Agar bu sizning baxtli bo'lishingizni ta'minlasa, marhamat, oxirigacha shu yo'ldan borishingiz mumkin. Mabodoki, o'zingizni «mas'uliyatsizligingiz» uchun doimo ko'yib yashayotgan bo'lsangiz, unda barcha qiyinchiliklarni yengib, unchalik xush yoqmaydigan narsalarni ham gapirishni, o'zgalarga ayta olishni o'rganing. Xohlasangiz sizning e'tirozingizni keltirgan narsalarni yaxshi so'zlar bilan ham tushuntirishingiz mumkin, hammasi sizga bog'liq.

D. Siz birovlariga tanqidiy ko'z bilan qarab o'tirmay, hammasini yaxshi so'zlar bilan tushuntira oladigan insonsiz. Agarda o'sha insonning sizga hech bir aloqasi bo'lmagan taqdirda ham uni xayolga, fikrlashga undaydigan ma'lumot bilan siylaysiz. Mabodo bu muammoning sizga ham aloqador joyi bo'lsa, siz bu xatoni o'zingizga gard yuqmaydigan tarzda to'g'rilashlari uchun imkon yaratasiz. Siz atrofdegilar bildirayotgan

tanqingiz uchun minnatdor bo'lishayotgan yagona, noyob insonsiz. Chunki har bir inson ko'ngil tubida yanada yaxshiroq bo'lishni albatta orzu qiladi. Siz esa o'z tanqingiz bilan bunga ko'maklashasiz.

Aldanib qolishingiz mumkinmi?

Noxush vaziyatlarda o'zingizni yo'qotib qo'ymaslik mahoratingizni tekshirib ko'ring.

Ustasi farang qaloblarga aldanib qolmasligingizga ishonchingiz komilmi? Muttahamlarga qarshilik qila olish qobiliyatingiz bormi? Buning uchun o'z tabiatingiz kuchini namoyish qila olishingiz va bu kabi og'ir vaziyatlarda boshingiz gangib qolmasligini ham ustalik bilan nazorat qila bilishingiz lozim.

1. Do'stlar davrasida latifa aytar ekansiz, hech kim kulmayapti. Siz nima qilgan bo'lar edingiz?

- a) latifani qaytadan aytib berasiz — 1 ball;
- b) uning nega kulgili ekanligini tushuntirib berasiz — 2 ball;
- d) qizarib ketasiz, uzr so'rab, sekingina davradan chiqasiz — 3 ball.

2. Ko'chada kimdir oyog'ingizni bosib oldi, ammo uzr so'ramadi. Nima qilgan bo'lar edingiz?

- a) orqasidan boplab so'kingancha baqirib qolasiz — 1 ball;
- b) orqasidan qarab, befarosatligiga qo'l siltab qolaverasiz — 2 ball;
- d) e'tibor ham bermay, yo'lingizda ketaverasiz — 3 ball.

3. Avtobusga o'tirdingiz va nogahon bugundan boshlab yo'lkira oshganligini, pulingiz esa yetmasligini bilib qoldingiz. Siz nima qilgan bo'lar edingiz?

a) nazoratchi yoki haydovchi bilan kelishib olishga urinasiz — 1 ball;

b) piyoda ketasiz — 2 ball;

d) yo'lovchilardan yetmaganiga biroz pul qo'shib yuborishlarini so'raysiz — 3 ball.

4. Hamkasbingiz boshliqlarga sizni «sotib yurganini» bilib qolsangiz, nima qilgan bo'lar edingiz?

a) sotqinga qarshi uni qoralovchi ma'lumotlarni to'plashga kirishasiz — 1 ball;

b) sotqinni o'z tomoningizga og'dirib olishga urinasiz — 2 ball;

d) boshliq oldiga bir shisha konyak ko'tarib kirasiz va uni avrab-aldab o'z tomoningizga og'dira boshlaysiz — 3 ball.

5. Sizning haydovchilik guvohnomangiz bormi?

- a) ha — 1 ball;
- b) yo‘q — 2 ball.

6. Siz o‘zingizning moddiy ahvolingizdan mamnunmisiz?

- a) ha — 1 ball;
- b) yo‘q — 2 ball;
- d) yo‘q, ammo uni yaxshilashni rejalashtirmoqdaman — 3 ball.

7. Siz vasiyatnoma tuzib qo‘yganmisiz?

- a) ha — 1 ball;
- b) yo‘q — 2 ball;
- d) vasiyat qiladigan narsaning o‘zi yo‘q — 3 ball.

Endi ballarni qo‘shing va natijalarni hisoblab ko‘ring.

5–10 ball. Siz to‘g‘ri ma‘noda o‘zini o‘ylaydigan kaltabin odamsiz, aytish mumkinki, umumiy «qo‘ylar podasi»ning munosib a‘zosisiz. Siz reklamalarda to‘g‘ri ma‘lumot berishyapti, deb o‘ylaysiz, vokzaldagi lo‘lilar chindan ham taqdirni bexato aytib berishlariga chippa-chin ishonasiz. Kaltabinligingiz tufayli bir necha bor qalloblar qurboni ham bo‘lgansiz, biroq xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishga qodir emassiz, shuning uchun ham boylik osmondan tushishini orzu qilishda davom etaverasiz. Munosib hayot kechirish uchun pul ishlab topishga urinib ham ko‘rmaysiz. Bir so‘z bilan aytganda, pul ishlab topishga qodir emassiz — sizning qullarga xos ruhiyatingiz jamoada parazitlarcha hayot kechirishga majbur qiladi, qandaydir arzimas choychaqa yoki nafaqa va yoki eng kam ish haqiga ham ko‘nikib yashab ketaverasiz.

11–15 ball. Bunchalar ishonchsiz, dovdur, mas‘uliyatsiz va qo‘rqoq odamni kunduzi chiroq yoqib ham topish qiyin. Siz yaqinlaringizga juda ko‘p aziyatlar yetkazgansiz. Ko‘pchilik sizni ko‘rgani ko‘zi yo‘q va uzoqdan ko‘rishi bilan ko‘chani boshqa betiga o‘tib ketishga urinadi. Yoqimsiz odam bilan uchrashish kimga ham yoqardi? Sizni yaxshilab jazolab, tarbiyalash kerak. Kim bilsin, balki vaqti kelib, sizning insoniy qiyofangizni qaytarish mumkin bo‘lib qolar.

16–20 ball. Siz o‘taketgan darajadagi chegaralangan odamsiz, spirtli ichimlik, osh-ovqat va televizorlardan boshqa hech narsa sizni qiziqitirmaydigan ko‘rinadi. Agar oilangiz mavjud bo‘lsa, bu juda g‘alati. Siz kabi xudbin, g‘azabnok va uzoqni ko‘rolmaydigan mavjudot bilan qismatini birga ko‘rishga ahd qilgan odam bor ekanki, demak, u nihoyatda — muqaddas inson ekan, siz esa doimiy ravishda yarim pallangizning har kungi jasorati uchun minnatdorchilik bildirib turishingiz darkor. Siz kabi

nochor odam bilan kechgan turmush, shubhasiz, mana shunga arziydi.

Ana endi nafasingizni bir rostlab oling-da, yuqorida yozilgan barcha qabihliklarni unuting — bu aybnomalar sizning sha'ningizga mutlaqo mos emas, sizdan uzr so'raymiz va bizni tushunarsiz, deb o'ylaymiz.

Haqiqiy «testlashtirish» mana endi boshlanadi. Uning asosini tez-tez, har turli ruhiy treninglar bilan ishlashda qo'llaydigan karaxtlik terapiyasi usuli tashkil etadi. Karaxtlik holati ko'pincha insonni o'zga odam irodasini bajarishga majbur etishda qo'llaniladi — rahbariyat buyrug'iga bo'ysunish, begona odamga pulini ikki qo'llab tutqazib yuborish, vijdotsizlarcha qilingan reklamaga ishonish... kabilar.

Fikringizni bir joyga jamlang va sha'ningizga aytilgan dahshatli so'zlarni o'qiganingizdan so'ng, unga nisbatan ko'nglingizda kechgan dastlabki taassurotingizni eslab ko'ring va aynan mana shu ta'sirchanlik sizning axloqiy turg'unligingizni belgilab beradi.

Demak, agar siz:

1. Kulib qo'ygan bo'lsangiz (kulgi jazavali emas, balki sog'lom bo'lishi darkor), tabriklaymiz, miyangiz uncha oddiy bo'lmagan va ehtimol, xavfli vaziyatga to'qnash kelib, kulgi ko'rinishidagi himoyaviy mexanizmi ishga solib yuboradi. Siz bundan xijolatga tushganingiz yo'q, negaki, o'z qadringizni bilasiz va o'zingizni yo'ldan urishlariga yo'l qo'ymaysiz. Haqiqiy xavf-xatarga duch kelib qolsangiz, siz raqibingizni osongina chalg'itib keta olasiz va uni jiddiy qabul qilmayotganingizni bildirib qo'ya qolasiz. Bu esa sizga vaqtdan yutish va muammoni tezgina hal qilishda to'g'ri qaror qabul qilishingizga imkon beradi.

2. Uyat hissini tuydingiz yoki yuragingiz bezillab qaysi savolga «noto'g'ri» javob qaytardim ekan, deya ich-etingizni yeya boshlaysiz. Afsuski, siz noxush vaziyatlarda o'zingizni yo'qotib qo'yasiz — sizning ta'sir ko'rsata olish qobiliyatingiz past. To'g'ri, ongingiz vaziyatni nazorat qilishga urinsa-da, sarosimaga tushib, gangib qolishingiz sizni butkul chulg'ab oladi va siz anglashilmagan holda o'zgalar stsenariysi bo'yicha harakat qilishga kirishib ketasiz.

Sizning izzat-nafsingiz toptalgan va siz birinchi duch kelgan odam noxush vaziyatdan chiqish yo'lini tavsiya etsa, laqqa tushib, ishonib ketaverasiz. Bunga ajablanishga ham hojat yo'q, o'sha «birinchi duch kelgan kishi» qoidaga ko'ra mana shu vaziyatni yaratgan fribgar, qallob bo'lib chiqishi hech gap emas.

3. Testni yangidan ko'rib chiqishga ishtiyoq uyg'ondi yoki javoblar variantining boshqa ko'rinishlarini o'qib chiqdingiz. Mana buni, aytish

joizki, eng «to'g'ri» ta'sirlanish desa bo'ladi. Ammo, afsuski, real hayotda uni hamisha ham qo'llab bo'lavermaydi — shunday ham bo'ladiki, tezkor va qat'iyatni mantiqiy tahlil qilish va undan chiqishning maqbul yo'lini izlab topish esa anchagina vaqtni talab etadi. Umuman olganda esa sizdan ko'ngil xotirjam bo'lsa bo'ladi: siz yetarli darajada o'ylab ish ko'radigan, vaziyatdan yaxshigina xabardor odamsiz va muttahamlarning sodda qarmog'iga osongina ilinib ketaveradigan anoyilardan emassiz. Sizni muvozanatdan chiqarish uchun qalloblar anchagina bosh qotirishlariga to'g'ri keladi.

4. Jahlingiz chiqdi (tahririyatga boplab shiddatli xat yozgingiz kelib qoldi). Ba'zan jahl otiga minish ham qo'l kelishi mumkin — hujumkorlik ko'rsatib, siz muttahamni hatto cho'chitib qo'yishingiz ham mumkin, u siz bilan pachakilashib o'tirish xavfli degan qarorga kelishi va ehtimol, oyog'ini qo'lga olib qochib qolishi ham mumkin. Ammo g'azablanish — ikki uchli tayoqning o'zginasi. Jahl chiqqanda aql ketadi, deganlaridek, bunaqa paytlarda odam o'zini nazorat qila olmay qoladi, diqqat bo'linadi, chalg'iydi va bu holatdan ham osongina foydalanib qolish mumkin. Shu bois siz asablaringizni yaxshilab chiniqtirib olishingiz darkor.

Hayot quvonchlarga to'lsin desangiz...

Hayotdan bahra olib yashash sog'liq uchun koni foydadir. Buning uchun esa inson optimist bo'lmog'i shart. Hayotga umid ila boqish, yaxshi niyatlar bilan yashash har xil dardlardan xalos etadi va bundan tashqari sizni omadsizlikdan asraydi. Lekin bunga erishish uchun nima qilmoq kerak?

1. Amalga oshirsa bo'ladigan maqsadlarni ko'zlang.

Oldingizga qo'ygan maqsadingiz hayotga yaqin, ya'ni real bo'lishi shart. Amalga oshishi mumkin bo'lmagan va o'ta kichik bo'lgan niyatlarni dilga tugish insonga birdek salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki birinchisi o'zimizga nisbatan ishonchni yo'qotishga sabab bo'lsa, ikkinchisi imkoniyatlarimiz darajasini ko'rsatib berishga qodir emas. Maqsadingiz ayni damda aniq bo'lishi lozim, aks holda u rejaligicha qolib ketadi.

2. O'zingizni o'zingiz nazorat qiling.

Hech kim va hech narsa sizni o'zingizchalik ko'ndira olmaydi. Orta nazar solmang, o'tmishda bo'lib o'tgan narsalar uchun ham pushaymon bo'lmang. Aksincha, doimo o'zingizga hammasini yangitdan boshlashingiz mumkinligini uqtirib boring. Har doim, o'zingizga ishonmasangiz ham, go'yo qo'lidan hamma ish keladigan kishidek tu-

ting o'zingizni. Siz o'z xatti-harakatingizni o'zgartirsangiz hayotga nisbatan tushunchangiz ham o'zgaradi, o'zingizga ishonchingiz mustahkamlanadi, hamma narsaning uddasidan chiqa olasiz.

3. Urinmang, bajaring.

Asosiysi shuki, bir qarorga keldingizmi, harakat qilmay – bajaring. «Harakat qilib ko'raman» yoki «urinib ko'raman» deb siz bu bilan o'zingizga ham, atrofdagilarga ham qiladigan barcha harakatingizga qaramasdan qo'lingizdan hech nima kelmasligi mumkinligini ko'rsatasiz.

Bu bilan siz oldindan o'zingizni omadsizlikka tayyorlab borasiz. Shuning uchun bu so'zni iloji boricha kamroq ishlatishga harakat qiling.

4. Yoshingizdagi tafovutni yenga oling.

«Yoshingga qarab ish tutsang bo'lmasmidi?» degan tanbehlarni biz umrimiz mobaynida ko'p bora eshitganmiz. «Sening yoshingda boshqa narsalar to'g'risida o'ylash lozim». Biz bu gaplar, tanbehtar asosida tarbiyalanib boramiz. Ko'pincha esa aynan shu sabab biz hayotni umum qabul qilingan o'lchamlar asosida qabul qilishga odatlanib qolamiz. Lekin, vaholanki hayotga nisbatan har birimizda o'zimizning mustaqil tushunchalarimiz mavjud. His-tuyg'u, sezish qobiliyatimiz bizga ish joyimizni, kasbimizni, oilaviy sharoitimizni o'zgartirishni maslahat bersa, demak, chindan ham shunday qilmoq kerak. Katta o'zgarishlardan qo'rqmang. Biron-bir maqsadga erishish uchun yoshning hech qanday ahamiyati yo'q.

5. Tavakkal qiling.

Biz tug'ilganimizdan beri tavakkal qilishga o'rganib boramiz. Tavakkalchilik – ota-onamiz bizni undan qanchalik asrashga urinmasin – baribir yo'qolib qolmaydi. Ishni almashtirayotganda, turmushga chiqayotganda, boshqa shaharga ko'chib o'tayotganda, biz albatta tavakkalchilikka yo'l qo'yamiz. Ko'pincha esa borimizni ham yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, tavakkalchilik qilishdan voz kechamiz. Shuning uchun nima tavakkal qilayotganimizni yaxshi anglashimiz zarur bo'ladi. Oldimizga qo'yilgan maqsad aniq, erishsa bo'ladigan bo'lmog'i kerak. Chunki ko'pincha tavakkal qilishdan qo'rqib siz o'zingiz sezmagan holda ancha past darajalarga ham rozi bo'lasiz...

6. Xatolardan qo'rqmang.

Biron-bir yutuqqa erishish uchun biz inqirozlarga ham tayyor bo'lishimiz lozim. Ketma-ket sodir bo'lgan omadsizliklardan keyin ham

xatolaringizni tushunib qaytadan urinib ko'rsangiz-haqiqiy yutuqqa erishasiz. Shuning uchun harakat qilishdan qo'rqmang. Hayotdan zavq olib yashash uchun, erishayotgan yutuqlaringizdan quvonch olish uchun xato qilishingiz mumkinligini to'g'ri anglab yashashingiz lozim.

Yurak sog'lom bo'lsin desangiz...

- ichmang, chekmang;
- uyqu uchun yetarli vaqt ajrating (ko'p emas);
- hech kim ranjitishiga yo'l qo'ymang;
- oddiy, tabiiy oziq-ovqat iste'mol qiling (me'yorida);
- ovqat yeyishda luqmani shoshilmay chaynang;
- jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullaning;
- o'zingizga yoqmaydigan odamlar bilan muloqotda bo'lmang (iloji boricha);
- choy, qahva, spirtli ichimliklarni kam iste'mol qiling;
- ko'proq piyoda yuring, chuqur nafas oling;
- qaynatilagan go'sht iste'mol qiling (haftasiga 2–3 marta);
- yong'oq, pista, oshqovoq iste'mol qiling;
- oziq-ovqatlarning 50% ini meva va sabzavotlar tashkil etsin;
- parhez taomlarni ko'proq iste'mol qilib, qon tarkibidagi xolesterinni kamaytiring;
- eng asosiysi, ruhiyatingizni boshqara biling va yuqoridagilarni bajarish uchun o'zingizning irodangizga ishoning.

8.8. Pedagogik qobiliyat va uni aniqlash testi

Har qanday sohada bo'lgani kabi pedagogika sohasida ham inson omili bosh vazifadir. Har bir kishining o'z o'rnida vijdonan va mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda ishlashga erishish ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyili sanaladi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik qobiliyatning bir necha turlari bo'lib:

1. Akademik qobiliyat – o'z faoliyatini chuqur bilish.
 2. Pertseptiv qobiliyat – o'quvchining ichki dunyosini bilish.
 3. Nutq qobiliyati – nutq, mimika orqali fikrni ifodalash.
 4. Tashkilotchilik qobiliyati – uyushtirish, jipslashtirish, ruhlantirishni tashkil etish.
 5. Kommunikativ qobiliyat – munosabat, muloqot, kirishimlilik.
 6. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va h.k.lardir.
- Pedagogik qobiliyat asosini pedagogik-psixologik holatlar tashkil etib,

unda o'qituvchining o'z kasbiy mahoratini ko'rsata olishi asosiy rol o'ynaydi. Biz ayrim pedagogik-psixologik vaziyatlardan chiqa olish orqali pedagogning qobiliyatini aniqlash testini keltirmoqchimiz.

Pedagogik qobiliyatni aniqlash testi

Har bir pedagogik-psixologik vaziyatlarda berilgan javoblardan birini tanlang.

1-holat. Dars boshlandi, hamma ishlayapti. Lekin bir o'quvchi kulib yubordi. Siz qaradingiz. U esa: "Qachon siz dars o'tsangiz kulгим keladi", – dedi. Siz esa:

- A. Zo'r-ku?
- B. Nimasi kulgili.
- D. Bemalol.
- G. Nima, ahmoqmisan?
- D. Hazilkashlarni yaxshi ko'raman.
- E. Kuldira olganimdan xursandman.

2-holat. Sinfda bir necha vaqt dars o'tganingizdan so'ng sizga o'quvchi: "Siz bizga biror-bir narsa o'rgatishingizga ko'zimiz yetmaypti", – dedi. Siz esa:

- A. Sening vazifang o'qish, o'qitish emas.
- B. Senga o'xshaganni albatta hech narsaga o'rgatib bo'lmaydi.
- D. Balki boshqa sinfga o'tarsan.
- G. O'zing xohlamayapsan.
- D. Nega shunday deb o'ylaysan?
- E. Bu haqda gaplashib olamiz, balki mendagi qaysidir xislat seni shunday xulosaga keltirgandir.

3-holat. Siz o'quvchiga topshiriq berdingiz, u esa sizga: "Men bu ishni bajarmayman", – dedi. Siz:

- A. Xohlasang ham, xohlamasang ham ishlashga majbursan.
- B. Bo'lmasa nega o'qishga kelding.
- D. O'zing uchun yomon.
- G. Nima bilan tugashini o'ylaysanmi?
- D. Nima uchunligini tushuntirib bera olasanmi?
- E. Kel, o'ylab ko'raylik, balki sen haqdirsan.

4-holat. Bir o‘quvchi sizga: “Men ham boshqa o‘quvchilardek “a’lo” o‘qishim mumkin. Shuncha urinsam ham bo‘lmayapti”, – dedi. Siz esa:

A. Agar rost aytsam bilmadim.

B. Albatta o‘qiy olasan.

D. Sening qobiliyating yaxshi, men senga ishonaman.

G. Nega o‘zingga ishonmaysan?

D. Kel, muammongni qanday hal qilish mumkinligi haqida gaplashib olaylik.

E. Birga qanday ishlashimizga bog‘liq.

5-holat. Darsga kirayotganda o‘quvchi sizga: “Juda charchabsiz, ko‘rinishingiz yomon”, – dedi. Siz nima deysiz?

A. Menga bunday deyishing madaniyatsizlik.

B. Ha, men juda charchadim.

D. Men haqimda qayg‘urma, o‘zingni o‘yla.

G. Yaxshi uxlolmadim, ishim juda ko‘p edi.

D. E’tiboring uchun rahmat.

6-holat. O‘quvchi sizga: “Men sizning faningizni yaxshiroq bilishim mumkin, chunki qo‘limdan hamma ish keladi”, – dedi. Sizning javobingiz?

A. O‘zingni yuqori baholaysan.

B. Shu qobiliyating bilan-a?!

D. Demak, o‘zingga ishonasan, bo‘lishi mumkin.

G. Ko‘p ham o‘zingga ishonma.

D. Senga ishonaman, chunki qobiliyating bor, mehnat qilsang bo‘ladi.

7-holat. O‘quvchi sizga: “Men yana daftarimni uyda qoldiribman”, – dedi. Sizning javobingiz?

A. Yanami?

B. Bunchalik javobgarsizsan.

D. O‘zingni qo‘lga olishing kerak.

G. Nega, nima uchun?

D. Biror sababi bor bo‘lsa kerak.

Ushbu holatlarga qanday javob berishingizga qarab o‘zingizning pedagogik qobiliyatingiz namoyon bo‘ladi. Savollarning A javobi 1 ball, B javobi 2 ball, V javobi 3 ball, G javobi 4 ball, D javobiga esa 5 ball

qo‘yib chiqing. Siz qaysini tanlagan edingiz, hisoblang. To‘plagan balingiz:

7–14 gacha bo‘lsa – Siz umuman pedagog bo‘la olmaysiz.

15–25 gacha bo‘lsa – Siz pedagog bo‘la olasiz, lekin ideal (mukammal) emas.

26–35 gacha bo‘lsa – Siz haqiqiy pedagogsiz, ideal pedagog bo‘lishga imkoniyat katta.

Intellektual psixologik topishmoq

O... ni ishlatib, D... ni to‘plab, I... dani mustahkamlab, eshitgan, o‘qiganini I... Qilib, X... ishga tushirib, T... tahlil etib, olingan natijani H... bilan aytib berish jarayoni bu I... dir. Ishlatilgan so‘zlarni quyidagi piramidaga qo‘yib chiqsangiz, darsni tashkil etishning “Oltin qoida”laridan biri (psixologik) kelib chiqadi.

Sizga omad yor bo‘lsin!

Intellektual psixologik topishmoqning javobi

Ongni ishlatib, **Diqqat**ni to‘plab, **Irodani** mustahkamlab, eshitgan, o‘qiganini **Idrok** qilib, **Xotirani** ishga tushirib, **Tafakkur** tahlil etib, olingan natijani **Hissiyot** bilan aytib berish jarayoni bu **Imtihondir**. Ishlatilgan so‘zlarni quyidagi piramidaga qo‘yib chiqsangiz, darsni tashkil etishning “Oltin qoida”laridan biri (psixologik qator) kelib chiqadi.

Dars o‘tishning “Oltin qoidasi” – psixologik qator



IX BOB. XALQ TA'LIMI TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT

9.1. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat to'g'risida Nizom

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Psixologik xizmat xalq ta'limi tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. Xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmat respublikadagi yaxlit psixologik xizmatning eng muhim jabhasi bo'lib gavdalanadi.

3. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxs (pedagog, o'quvchi, ota-ona, talaba) manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi.

4. Psixologik xizmat mutaxassislari o'z faoliyatlarini tibbiyot xodimlari, defektologik xizmat, muhofaza qilish tashkilotlari, muayyan komissiyalar balog'atga yetmagan o'smirlar inspeksiyasi, ota-onalar qo'mitasi, mahalla qo'mitasi, ishlab chiqarish jamoasi, jamoatchilik bilan aloqada amalga oshiradilar. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik, pozitsiyalarni o'zaro boyitish (to'ldirish) asosida ko'riladi.

5. Psixologik xizmat ko'rsatish faoliyati maktabni hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy-uslubiyat bo'yicha ta'minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (aqliy) jihatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, ta'lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhimi, mavjud kamchilik va buzilishlarning oldini olish (profilaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

6. Xalq ta'limi tizimidagi psixologlarning faoliyati psixologik konsultatsiya va muomalaning ijtimoiy-psixologik faol usullarga (metodlari), psixokorreksiya, psixodiagnostika, ijtimoiy, pedagogik bolalar psixologiyasi sohalari bo'yicha umum psixologik, tayyorgarlik olgan, psixologik ixtisosga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

7. Amaliy psixolog faoliyatida rahbarlik mutaxassisligi sohasi bo'yicha amalga oshirilish nazarda tutiladi.

Xalq ta'limi tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi shaxs kamoloti, to'laqonli psixologikaning har tomonlama garmonik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti maktabga-

cha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, maxsus o'quv yurti va oliy maktab talabalari, o'qituvchilar, ota-onalar bo'lib hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruhliy shaklda tadqiq qilish mumkin.

Psixologik xizmat mazmuni psixoprofilaktika, psixologik maorif, ma'rifat; psixodiagnostika; psixik rivojlantirish va psixokorreksiya hamda psixologik konsultatsiyalardan tashkil topadi.

Psixologik xizmat metodlari turli-tuman bo'lishi mumkin: a) ma'ruzalar turkumi va trening mashg'ulotlari o'tkazish (xalq ta'limi xodimlari, o'quvchilar va aholining psixologik madaniyatini o'stirish maqsadida); b) ilmiy-ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish; d) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar uyushtirish; e) psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test, savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar); f) psixologik konsultatsiya o'tkazish; g) psixologik konsiliumlar uyushtirish; i) ta'lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodramma, psixokorreksion treninglarni amalga oshirish; j) psixologik, obyektning psixologiya xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturi, o'quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar.

Psixologik maorif yoki ma'rifat o'quvchilar, xalq ta'limi xodimlari, aholining psixologik madaniy saviyasini ko'tarishga qaratilgan. Psixologik maorif yoki ma'rifat quyidagi faoliyat shakllarini amalga oshirishni ko'zda tutadi: 1) psixologik muammolar bo'yicha pedagogik kengashlarda, ilmiy kengashda ma'ruzalar bilan chiqish (bolalar bog'chalari, maktab, o'rta maxsus o'quv yurti, oliy o'quv yurtlarida); 2) Xalq ta'limi xodimlari (bolalar bog'chalari murabbiylari, maktab o'quvchilari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarini psixologiya fanlarining oxirgi yutuqlari bilan tanishtirish); 3) ota-onalar tarbiyachilar va psixologlar qatnashuvida psixologik trening o'tkazish (bog'cha, maktab); 4) psixoturkum ma'ruzalar va seminarlar tashkil qilish (oliy o'quv yurtlarida); 5) xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlari uchun ta'lim va tarbiyaning psixologik masalalari yuzasidan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish; 6) ota-onalar bilan ma'riliy suhbatlar uyushtirish; 7) talabalarning kasbiy faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda ularga psixologik ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqarish va boshqalar.

2. PSIXOPROFILAKTIK ISHLAR

Ushbu yo'nalishning asosiy vazifalari bo'lib 1) har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanish, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish; 2) shaxs kamoloti

va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik buzilish va nuqsonlarning o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

Psixoprofilaktik ishlarning mazmuni:

1. Shaxsning muayyan sharoitga moslashishida oila ishlarini olib borish.

2. Bolalarni birinchi bosqichli ta'limga qabul qilishda qatnashish, ularning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash, o'qituvchilar bilan hamkorlikda o'quvchilar bilan individual ishlash dasturini ishlab chiqish, yangi tipdagi maktablarga, xususan, kollej, litsey, gimnaziyalarga o'quvchilar qabul qilishda ishtirok etish.

3. O'quvchilarni ta'limning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tkazishning psixologik-pedagogik kompleks tadqiqotida bevosita qatnashish, shuningdek, litsey va kollejlarda bir sinfdan boshqa sinfga o'tkazishni psixologik jihatdan tekshirish.

4. Ta'lim va tarbiya, yashash sharoiti bilan bog'liq nevroitik holatlar, psixologik zo'riqishning oldini olish uchun bollar bilan ishlash.

5. Shaxsning qobiliyati, mayli, psixologik fazilatlarini, xususiyatlarining to'laqonli namoyon bo'lishi maqsadida aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash uchun psixologik konsilium tashkil qilish.

6. Yangi tipdagi maktablarda eng qulay psixologik muhit yuzaga keltirish uchun maxsus ish olib borish: pedagogik jamoada muomala shaklini takomillashtirish, oqillikni joriy qilish (kattalar), o'quvchilar bilan o'qituvchilar muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish: shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan o'qituvchilarga keng ko'lamda maslahatlar berish.

7. Pedagogik jamoa a'zolaridagi psixologik zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora-tadbirlarni tarkib toptirishga ko'maklashish.

8. Tarbiyaviy ish rejasini amalga oshirilgan va tayyorlangan tadbirlarni, pedagogik ta'sir o'tkazishni bolalar, o'quvchilar, talabalarning yosh va etnopsixologik xususiyatlari, ularni kamolotga yetkazish va vazilasiga monandligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

9. Maktabning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan ilmiy jihatdan asoslangan modelini o'qituvchilar hamkorligida yaratish. Umumta'lim va yangi tipdagi maktablarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini psixologik-pedagogik diagnostika qilishda qatnashish, unga o'zgartirishlar kiritish, oqibat natijada o'quvchilar garmonik taraqqiy etish muammosining maqsadga muvofiq hal qilinishiga xizmat qilish.

10. O'quv motivlari, shaxsning yo'nalishi, uning etnomadaniyat bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlariga yo'naltirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga tuzatishlar kiritish.

11. Shaxslararo, etnik, guruhlararo, millatlararo har xil ko'rinishdagi ziddiyatlarning oldini olish uchun psixologik tadbirlarni ishlab chiqish (diskussiya, bahs uyushtirish, xalqlar tarixi va madaniyatini oqilona o'rganish, bu sohadagi ijobiy tajribalarga alohida e'tibor berish) muhim ahamiyat kasb etadi.

12. Talabalar, xodimlar, muallimlar o'rtasida sodir bo'luvchi nizolarning psixologik ildizini o'rganish, shaxslararo munosabatlarning asl mohiyatini namoyon qilish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favqulodda vaziyatlarni yengillashtirish va tamoman bartaraf qilish yo'llari yuzasidan maslahatlar berish.

13. Yoshlar o'rtasidagi aysh-ishratlariga, giyohvandlikka, yengil turmush kechirishga, qing'ir yo'l bilan boyishga, chayqovchilik, qizlar orasida suyuqoyoqlikka ruju qiluvchi shaxslar bilan individual ishlashni yo'lga qo'yish.

14. Og'ir kasallikka uchragan xodimlar, talabalar ruhiyatini tetiklashtirish, abadiyat qonuniyati bilan ularni tanishtirish, pessimistik kayfiyatdan voz kechib, shukrona bilan yashashga o'rgatish yuzasidan tavsiyalar berish.

15. Xulqi, xatti-harakati buzilgan oliy maktab xodimlari, muallimlari, talabalari bilan yakka holda ish olib borish.

16. O'zlashtirmovchi talabalar ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash va ularga yordam berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq qilish hamda korreksion ishga muhtoj odamlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

17. O'z-o'zini boshqarish imkoniyatini oliy maktab jamoasi a'zolari o'rtasida aniqlash (bioritmika, emotsiya, motivatsiya, iroda, qiziqish, diqqat kabilarning shaxs tomonidan idora qilinishi nazarda tutiladi).

3. PSIXODIAGNOSTIK ISHLAR

Mazkur ishlar o'quvchilarni maktabda, kollejda va litseylarda o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarni, ta'lim va tarbiyadagi nuqsonlar sababini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki yakka holda (individual) o'tkaziladi. Bu asnoda psixolog quyidagi amaliy psixologik vazifalarni bajaradi:

1. Yosh davr taraqqiyoti mezonlariga muvofiqqligini aniqlash maqsa-

dida psixologik ballar, o'quvchilar maxsus maktab va bilim yurti tinglovchilarini, oliy o'quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi, ularning kamolot darajalarini belgilaydi.

O'quvchilarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatleri, his-tuyg'ulari, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi.

2. Psixolog o'quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko'rsatadi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, hunar bilim yurti tinglovchilari, yangi tipdagi maktab, oliy o'quv yurti talabalarida uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sabablarini diagnostika qiladi.

4. Bolalarning voyaga yetgan odamlar va tengqurlar (tengdoshlar) bilan muomalasini o'rganish uchun ularni tekshiradi. Ularning etnomadaniyati xususiyatini hisobga olgan holda psixofiziologik metodikalarni muayyan sharoitga moslashtiradi (adaptatsiyalashtiradi).

5. Boshqa soha mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan, differensial diagnostikani amalga oshiradi:

- nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi;
- sotsial xulq-atvor sabablari va shakllarini belgilaydi;
- giyohvandlik, toksikomanlik, alkogolizm, o'g'rilik, daydilikning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi va boshqalar.

6. Rahbar kadrlar, o'qituvchilarning kasbga yaroqliligini ilmiy asosda tekshirish va aniq tavsiyanomalar ishlab chiqish.

7. Oliy maktab xodimlari sinov (adaptatsiya) muddatini (yosh mutaxassis, stajer, o'qituvchi, aspirant va boshqalarni) o'rganish va amaliy ko'rsatmalar berish.

8. Ish yuritish, saylov, saralash, tanlov, qabul bo'yicha ilmiy psixologik bashorat (prognoz) qilish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavfdan ma'muriyatni ogoh etish. Attestatsiya, ijtimoiy talab va buyurtmalar yuzasidan ijtimoiy-psixologik axborotlar to'plash va ularni umumlashtirib, yakkahol tavsiyalar yaratish.

9. Chet el bilan aloqa qilish, kadrlar malakasini oshirish, ularning intellektual potensialini (imkoniyatlarini) aniqlash, fan va texnikani rivojlantirish imkoniyati oliy maktabning nufuzi to'g'risida materiallar

yig'ish, ularni psixologik tahlil qilish va maslahatlar berish.

10. O'quv qo'llanmalarining sifati, kitobxonlik muammosi, xodimlar, talabalarining davlat mulkiga munosabati haqida ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirish, ma'muriyatga, kasaba uyushmasiga axborot tayyorlash.

11. Yotoqxonalarda talabalarining talabi, ehtiyoji, qiziqishi, ijtimoiy qarashlari, pozitsiya, maslagi, turmushga munosabati to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ularning faoliyatini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

12. Oliy maktab xodimlari, talabalarining ekologik, iqtisodiy, siyosiy etnopsixologik bilimlari saviyasini tekshirish, mustaqillikni mustahkamlash imkoniyatini o'rganish, vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish.

13. An'anaviy ta'lim va tarbiya metodlari yutuq hamda kamchiliklarini tadqiqot qilish, innovatsion, faol uslublar samaradorligini sinab ko'rish, talabalarining ularga nisbatan munosabatlarini aniqlash va shularga asosan o'qitishni individuallashtirish, differensiyalash bo'yicha o'quv bo'limiga ko'rsatmalar tavsiya qilish.

14. Iqtidorli talabalar, yosh mutaxassislar, aspirantlarni tanlashda ishtirok qilish, ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqarish va shunga asoslanib ularga nafaqalar belgilash.

15. Xodimlar, talabalar ijodiy faoliyati mahsuldorligi, to'garaklar faolligini ko'tarishning tadbirlarini ishlab chiqish, ularning imkoniyatlarini tekshirish, kasb mahoratini egallash bo'yicha musobaqalar, bahslar tashkil qilish va ularning mahsuldorligi to'g'risida bashorat qilish.

16. Talabalar o'rtasida bo'sh vaqtni taqsimlash va undan omilkorlik bilan foydalanish muammosini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tekshirish va bo'sh vaqtni maqsadga muvofiq tashkil qilish yo'llari, ulardan etnopsixologik bilimlar, ma'naviy qadriyatlarni egallashda foydalanish imkoniyatlarini psixologik tahlil qilish.

17. Oliy maktab xodimlari, talabalarida davlat mablag'ini tejash tuyg'usini aniqlash, tejamkorlik, mol-mulkni asrash hissini o'rganish, ularda mehnatni qadrlash burchini shakllantirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, milliy g'urur, millatlararo munosabat madaniyatini tarkib toptirish.

18. Oliy o'quv yurti xodimlari, talabalarida ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan ilmiy-psixologik dastur yaratish hamda uning moddiy boylik ishlab chiqarishdagi ulushini tahlil qilish.

4. RIVOJLANTIRUVCHI VA KORREKTSION ISHLAR

Psixologik xizmatning mazkur yoʻnalishi psixologdan inson shaxsi va intellektualligini tarkib toptirish jarayoniga faol taʼsir oʻtkazishni taqozo qiladi. Xalq taʼlimi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida, mezonga asosanib tashkil qilishdan iborat boʻlib, yosh davr xususiyatlariga binoan (bolalar, oʻquvchilar, talabalar) psixikaning rivojlanishi shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etish, oʻquvchilar jamoasiga bolalar, oʻquvchilar va talabalar taʼlim-tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ular qobiliyati, maylining oʻsish darajasiga qarab oʻquvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda koʻrsatmalar berish. Psixologik xizmatning ushbu yoʻnalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa bu bolalar, oʻquvchilar, talabalar oʻsishda kechikish (orqada qolish), ularda xulqning buzilishi, taʼlimda oʻzlashtirishning yomonlashuvi kabilarni oʻrganish hisoblanadi.

1. Psixolog bolalar, oʻquvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yoʻnaltiradi, ijtimoiy oʻsish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik qonunlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

2. Amaliy psixolog bolalar, oʻquvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi, xulqi va muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tugatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashgʻulotlar, buzilishini kamaytirish mashqlarini oʻtkazadi, ijodiy (kreatid) qobiliyatlarini oʻstirish maqsadida treninglar olib boradi.

3. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion muammolarni qamrab oladi. Korreksion faoliyatining psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida oʻtkaziladi va butun masʼuliyat uning zimmasiga tushadi.

4. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus mashgʻuloti ayrim bolalar, oʻquvchilar va talabalar bilan alohida oʻtkazilishi rejalashtiriladi;

b) bolalarning boshqa bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, bolalar, oʻquvchilar, talabalar guruhlariga tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishga yoʻnaltirilgan boʻladi;

d) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

5. Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish keraki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyati xususiyatlari o'z aksini topsin: dasturni xalq, etnos, millat, elat tarixi, an'analari, rasm-rusumlari, udumi, odati, stereotipi kabilarni hisobga olgan holda tuzish maqsadga muvofiqdir.

6. Emotsional zo'riqishning oldini olish va uni kamaytirish niyatida maxsus kabinetlar jihozlash, xona jahon standartlariga javob berishi, boshqaruv pulti, yorqin vositalari, augatrening, sotsial trening, texnik vositalar, ilmiy uslubiy metodikalar bo'lishi lozim.

7. Korreksion ishlar ma'lum tartibda ilmiy tanlov asosida muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart. Bunda emotsional zo'riqishga uchragan shaxsning millati, yoshi, jinsi, individual, tipalogik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak.

Tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat, kasb xususiyatiga mos, mutunosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi: unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yo'qotish imkonini yaratadi.

5. PSIXOLOGNING KONSULTATIV ISHLARI

Ushbu yo'nalishda psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshiradi:

1. Bolalar, o'quvchilar, talabalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, ma'muriyat (direktor, rektor, mudir), o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq, yaqqol maslahatlar berish.

2. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, maslak, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda konsultatsiyalar uyushtirish.

3. Ma'muriyatga bolalar, o'quvchilar, talabalar (yotoqda, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha maslahat berish, ularni faollashtirish, ularga ta'sir o'tkazish to'g'risida rahbar kadrlarga amaliy ko'rsatmalar tayyorlash.

4. Shaxsning psixologik holati yuzasidan ekspert-konsultant sifatida psixolog qatnashishi, xalq sudlari masalasi bo'yicha bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik o'sishining xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish,

tashkilotlarning g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qaroriga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr bildirishi lozim.

5. Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, maromi, unda farzandlarning yosh, jins, individual-tropolik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar berish.

6. Xalq ta'limi tizimining barcha bo'g'inlari va bosqichlarida ma'ruza o'qish, ota-onalar yig'ilishida, metod birlashma majlisida, pedagogik kengashda, ilmiy kengashda ishtirok qilish orqali pedagoglar, muallimlar, ota-onalarning psixologik madaniyatini oshirishga harakat qilish, ularga individual, guruhiy maslahatlar berish.

7. Psixologning burchi ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o'quv dasturi, qo'llanmalarini yaratishda faol ishtirok qilish, bosh maqsad bo'lgan shaxsning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim olish ko'nikma va malakalari, mutaxassislik hislarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iborat sharaflı vazifani bajarish.

6. PSIXOLOGIK XIZMAT XODIMLARINING MAS'ULIYATI

Mazkur xizmat xodimi quyidagilar oldida javobgardir:

1. Xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatadigan psixolog qo'ygan diagnostik to'g'riligiga, qo'llanilgan diagnostik va korreksion metodlarning omilkorligi, tavsiyaning ilmiy jihatdan asoslanganligiga javobgardir.

2. Psixolog tadqiqot va kuzatish ishlarining qaydnomasi, xizmat hujjatlarining saqlanishiga javobgar shaxs hisoblanib, ularni muayyan qoidaga binoan ma'lum tartibda rasmiylashtirishi va asrashi shart.

7. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI

Amaliyotchi psixologning faoliyati uning vazifalari majmuasi to'plami bilan boshqarilib turilishi lozim.

9.2. Darsning psixologik tahlili

Darsning psixologik tahlili haqida so'z yuritishdan oldin uning pedagogik tahlilini ko'rib chiqamiz.

Darsning pedagogik tahlilida o'qituvchining faoliyati, qobiliyatining

o'sishi, shaxsning rivojlanishi haqida so'z bormaydi. Darsning psixologik tahlilida esa o'quvchining faoliyatini tahlil qilish bilan bir qatorda asosiy qilib o'qituvchining faoliyati olinadi.

Darsning psixologik tahlili quyidagi savollarga javob berishi bilan bir qatorda uning natijasini aniqlaydi:

1. **Tashkiliy.** O'quvchilarning darsga psixologik tayyorgarligi maqsad va vazifasining aniqligi:

– o'qituvchining darsga psixologik tayyorgarligi o'quvchilarga qo'yilgan maqsad va vazifani boshqarish usul va uslubini bilish;

– sinfda psixologik iqlim va uni yaratish uchun o'qituvchining ishi.

2. **Rivojlantiruvchi.** O'quvchi faoliyatining xarakteristikasi (ijodkorlik, mustaqillik, shaxsning rivojlanishi uchun bajariladigan ishi va h.k.):

– o'quvchi faoliyatining xarakteristikasi;

– o'quvchi shaxsning rivojlanishi uchun o'qituvchining ishi (o'quvchi psixologiyasining qaysi tomonlarini rivojlantiryapti va h.k.);

– o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'qituvchi psixologik aloqaning natijasi (qayta aloqa);

– o'qituvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun o'qituvchining bajargan ishi;

– ta'limning umumiy va xususiy maqsadi, vazifalari va sabablarining bajarilish.

3. **Nazorat va baholash.**

– o'qituvchilar ishini (faoliyatini nazorat qilish va baholash xarakteristikasi);

– ayrim o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, baholash va qayta ko'rib chiqish xarakteristikasi;

– o'qituvchining faoliyatini baholash.

4. **Xulosa va yakun. Maslahat berish.**

Darsning psixologik tahlili bir butun bo'lib, tarkibiy qismlar (1, 2, 3) shartli ravishlardir:

– xulosa va yakun shu darsning ta'lim va tarbiya jarayonining bir bo'lagi sifatida nimalarga erishganligini aniqlaydi;

– darsda o'qituvchi faoliyati tahlili o'quvchilarning hayotga tayyorlash uchun nima ishlar bajarilganligi haqidadir;

– ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi usulining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tomoni tahlili;

– o'qituvchi psixologiyasini baholash;

– darsda o'quvchilarni shaxsiy va psixologik rivojlantirish tahlili;

– sinfdagi psixologik iqlimni baholash.

Darsning psixologik tahliliga qo‘yilgan zamonaviy (ayrimlari munozaralarga muntazir) talablar:

– o‘qituvchi bilim beruvchi, tarbiyalovchi emas: o‘quvchilarning bilim olish va tarbiyalash jarayoni boshqaruvchisidir.

– o‘quvchilar faoliyatini faqat o‘qituvchi nazorat qilishi va baholashi noto‘g‘ridir: ko‘proq o‘zaro nazorat va baholashga o‘tish kerak;

– o‘quvchiga talab ko‘p bo‘lsin va hurmat ham shunga yarasha bo‘lsin;

– darsning tashkil etishning asosini hissiyot va yana hissiyot tashkil etsin;

– o‘quvchi xato qilishga haqqi bor, lekin uni jazolamaslik kerak, uning xatosini o‘zi va butun jamoa tuzatishi va o‘rgatishi kerak;

– bahs va baho uchun o‘qimaslik kerak;

– o‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab mehnatni ilmiy tashkil etishga (MITE)ga o‘rgatish.

9.3. Mijozni aniqlash so‘rov varaqasi

Berilgan to‘rt fikrdan birini tanlab jadvalga o‘sha harfga (+), qolganlariga (–) qo‘yiladi. Hamma (10 ta) fikrlardan o‘zingizga taalluqlisini belgilaganingizdan so‘ng qaysi qatorda ko‘p (+) bo‘lsa, o‘sha sizning temperamentingiz hisoblanadi.

Savollar varaqasini o‘qishdan oldin o‘zingizga javoblar varaqasini chizib oling.

Savollar	Javoblar			
	1	2	3	4
T/r				
1	A	B	V	G
2	V	A	G	B
3	B	G	A	V
4	V	G	B	A
5	A	V	B	G
6	V	B	A	G
7	B	G	V	A
8	G	B	V	A
9	A	G	B	V
10	A	V	B	G
Jami (+)				

SAVOLLAR VARAQASI

1. A — kayfiyatim tez-tez o'zgarib turadi, xursandchilik tez xafachilikka aylanishi mumkin, achchig'imni chiqarish oson.

B — doimo xushchaqchaqman va shu kayfiyatim odamlarga o'tib turadi.

D — doim kayfiyatim bir xil, achchig'imni chiqarish qiyin.

E — doim kayfiyatim yomon, meni kuldirish qiyin.

2. A — chaqqon va harakatchanman.

B — sekin va past ovozda gapirish yoqadi.

D — tez va shoshilib fikrimni bildirishni xohlayman.

E — sekin va baland ovozda kam harakat bilan gapiraman.

3. A — agar ishim yurishmasa ham boshlagan yo'limdan qaytmayman va boshqa yo'lni izlamayman.

B — ishim yurishmasa tashlayman va boshqa yo'lni izlayman.

D — ishim yurishmasa xafa bo'laman va tashlab yuboraman.

E — ishim yurishmasa u yodimdan chiqadi va davom ettiraman.

4. A — tez charchayman.

B — ko'p va oxirigacha yetkazib ishlayman.

D — yutuq bo'ladigan ishni yaxshi ko'raman.

E — har qanday ishni bajaraman, ko'pincha aktivlik qilaman.

5. A — tanbehni yoqtirmayman, bahslashaman.

B — tanbehni jim tinglayman, lekin yana xato qilaman.

D — tanbehni diqqat bilan tinglab tuzataman.

E — tanbehni eshitib xafa bo'laman, lekin bahslashmayman.

6. A — ishlashdan oldin reja tuzib, keyin ishni boshlayman.

B — agar ishda qiyinchilik bo'lsa tezda moslashaman (shu ishga).

D — ishga tez kirishaman, lekin keyin qiyin bo'lsa tuzataman.

E — ishni boshlashdan oldin o'ylayman, yoqmasa ishlamayman.

7. A — bir qarorga kelishdan oldin o'ylayman, hayajonlanaman.

B — bir qarorga kelishdan oldin o'ylayman.

D — bir qarorga kelishim qiyin.

E — bir qarorga tezda kelaman.

8. A — muloqotda muloyim, taktikali, hozirjavobman.

B — muloqotda boshlovchi, chaqqonlikni yaxshi ko'raman.

D — muloqotni ko'p yaxshi ko'rmayman, bir o'zim bo'lsam yaxshi.

E — yolg'izlikni yomon ko'raman, muloqot uchun doimo kishi izlayman.

9. A — xafachilikdan qattiq ranjiyman, lekin tezda unutamani.

B – xafachilikdan qattiq ranjiyman, tez unuta olmayman, boshqalarga bildirishni yomon ko‘raman.

D – xafachilikni tez unuta olaman.

E – xafachilikni optimistik ravishda qabul qilaman, tez unutaman.

10. A – hazilni, hazil qilishni yaxshi ko‘raman.

B – hazilni yaxshi ko‘raman, faqat eng yaqin kishim bilan.

D – bo‘lar-bo‘lmas hazil qilaman, lekin odamlar buni tushunmaydi.

E – hazilni unchalik yoqtirmayman, hazil qilishni ham.

1 – Xolerik, 2 – Sangvinik, 3 – Flegmatik, 4 – Melanxolik.

1. Xolerik. Kuchli, muvozanatsiz, epchil, jangovor, jo‘shqin, oson va tez ta’sirlanuvchan tip. Affekt holatlar ko‘proq kuzatiladi, muvozanatsizlik tez-tez namoyon bo‘ladi. U biror ishni ishtiyoq bilan boshlaydi, katta tashabbus ko‘rsatadi, biroq asab kuchi ish jarayonida tez tugab qoladi. Faoliyati birdan pasayadi, g‘ayrati va ilhomi yo‘qolishi mumkin. Kayfiyati tez-tez o‘zgarib turadi, qo‘zg‘alish, tormozlanishga nisbatan kuchli.

2. Sangvinik. Kuchli, muvozanatli, epchil taassurotlarni tez-tez o‘zgartiruvchan, jo‘shqin, tashabbuskor, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayoni kuchli.

3. Flegmatik. Kuchli, muvozanatli, sust hissiyotligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish yoki kayfiyatini buzish qiyin. Chidamlilik, matonatlilik sifatlariga ega, lekin ba‘zan loqayd, kamfarosatli. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi. Har qanday sharoitda o‘zini tuta biladi (tormozlay oladi).

4. Melanxolik. Kuchsiz, yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirliги ortiq, arazchan, tortinchoq, ko‘ngli ochiq, qiyinchiliklardan qo‘rqadi. Har narsadan hadiksirab o‘tiradi. Yaxshi insoniy fazilatlariga ega. Ruhii tempi sust, diqqati tez chalg‘iydi va bir fikrli emas.

O‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasida psixologik iqlim yaratiladi qachonki o‘qituvchi:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonida hamisha o‘quvchilarda ishonch hissini uyg‘otsa.

2. O‘quvchilarda ta’lim (o‘qishning) maqsad va vazifasini bilishni shakllantirsa.

3. Doimo o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ichki motiv borligini his qilsa.

4. O‘quvchi biror muammoni yechishda qiynalganda murojaat qilishi mumkin bo‘lgan manbaga aylansa.

5. O‘quvchilarning murojaat manbayiga aylansa.

6. O'quvchi (o'quvchilar)dagi hissiy kayfiyatni sezish va uni qabul qilish qobiliyatini o'zida o'stirsa.
7. O'zaro hamkorlikni tushunib unda aktiv qatnashsa.
8. O'z hissiyotini ochiq-oydin namoyish etsa.
9. Har bir o'quvchining ichki dunyosini bilish va unga hamdard bo'lishga intilsa.
10. O'z-o'zini yaxshi bilsa va baholay olsa.

9.4. O'quvchilarning turli sohadagi (yoki ayrim sohadagi) kasblarga nisbatan qiziqishlar darajasini aniqlash testi

Ekspirimentning borishi: O'quvchilarning qaysi kasblarga ko'proq qiziqishlarini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan jadvalga murojaat qilinadi. Dastavval doskaga yoki maxsus plakatga quyidagi jadval namunasi chizib qo'yiladi. O'quvchi esa xuddi shunday jadvalni (ya'ni jami 25 katakchadan iborat bo'lgan jadvalni) alohida varaqqa chizishi va har bir katakda ko'rsatilgan ikki kasbdan birini tanlab yozishi kerak (jadvalga qarang). Demak, o'quvchi barcha kasblarni o'qib chiqqandan so'ng, har bir katakda faqat bitta kasbni qoldirib ko'chiradi.

	a	b	v	g	d
5	Sotuvchi O'qituvchi	Mashina tuzatuvchi Radio tuzatuvchi	Bog'bon Paxtakor ishlovchi	Chizmalar bilan ish- lovchi. Harf teruvchi	Me'mor Shoir
4	Zavod ishchisi Avtomashina tuzatuvchi	Vetvrach Chorvador	Loyihachi Radio- operator	Arxitektor Rassom	Qonun- shunos Tarbiyachi
3	Geolog Tuproqshunos	Iqtisodchi Rejalash- tiruvchi	Aktyor Yozuvchi	Tarbiyachi Oshpaz	Aloqa simla- rini tuzatuvchi Texnika bilan ishlovchi
2	Harf yig'uvchi Teleoperator	Rassom Musiqachi	Pedagog Brigadir	Shofyor Elektr Biolog uskunalari bilan ishlovchi	Agronom
1	Oynalarni jihozlovchi Kiyimlarni jihozlovchi	Muallim Jarroh Elektrik	Muhandis Asalarichi Payvandchi	O'rmonchi ishlovchi	Telegrafda Harflar teruvchi

Keyingi topshiriq shundan iboratki, bunda o'quvchi a, b, d, e, f kataklarida joylashgan kasblar haqida yana ham chuqurroq mulohaza yuritib, bu kasblarning qaysi biri (ya'ni gorizontal yo'nalish bo'yicha beshita kasb ichidan) uning uchun ko'p va kam ahamiyatligiga va mazkur kasblarga nisbatan qiziqishlar darajasiga qarab besh ballik tizim asosida har bir katakda tegishli ballarni qo'yishi lozim. Demak, beshita katakda bir-birini takrorlamaydigan besh xil ball bo'lishi shart. Ya'ni o'z hayoti uchun eng ishtiyoqli va ma'qul deb hisoblagan kasb yozilgan katakka eng yuqori 5 ball, shunchaki qiziqarlisiga – 4 ball, o'rtacha qiymatga ega bo'lgan kasbga 3 ball yoki 2 ball va mazkur kasblar ichida (gorizontal holatda joylashgan beshala katakdagi kasblar nomi) eng kam qiziqqan yoki mutlaqo qiziqmaydigan katakka esa faqat 1 ball qo'yiladi. Xuddi shunday vertikal bo'yicha holatda joylashtirilgan kasblarni (1, 2, 3, 4, 5 harflar orqali ko'rsatilgan) bir-biriga nisbatan taqqoslab tegishli ballar qo'yiladi. Yana bir marotaba eslatib o'tamiz, jadvaldagi kasblarga ball qo'yish jarayonida o'quvchi oldin eniga gorizontal joylashtirilgan beshala kasbni bir-biriga taqqoslab, o'zining nisbatan qiziqishini ifodalagan holda besh xil (ya'ni «5», «4», «3», «2», «1») ballni qo'yishi lozim. So'ngra esa xuddi shunday ballar jadvaldagi kasblarning bo'yiga vertikal taqqoslab qo'yib boriladi. Natijada esa har bir katakda ikkitadan ball bo'lishi shart. Shundagina olingan ma'lumotlarni metodika maqsadiga mos ravishda to'g'ri va aniq tahlil qilish mumkin.

Olingan ma'lumotlarni psixologik tahlil qilish (buni faqat o'qituvchining o'zi bajaradi). O'quvchilarga tavsiya etilgan va kasb nomlari qayd etilgan jadval asosan quyidagi 5 tipga oid kasblarni o'z ichiga olgan. Binobarin, barcha kasb tiplari quyidagi birin-ketinlikda joylashtirilgan.

Kasblarni bunday joylashtirish o'quvchilardan olingan ma'lumotlar ustida ishlash va ularda qaysi kasb turiga ko'proq qiziqish va yo'nalish mavjudligini aniqlash uchun maxsus ko'rsatma (kalit) sifatida xizmat qiladi. Chunonchi, ushbu ko'rsatmaga asosan o'quvchini ifodalovchi umumiy ballarni tahlil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

(Yuqoridagi jadvalning kaliti)

5	I	Tex	Tab	Bs	Bo	Shartli belgilar
4	Tex	Tab	Bs	Bo	I	«Inson-inson»
3	Tab	Bs	Bo	I	Tex	«Inson-texnika»
2	Bs	Bo	I	Tex	Tab	«Inson-tabiati»
1	Bo	I	Tex	Tab	Bs	«Inson-belgilar tizimi»
	A	B	D	E	F	«Inson-badiiy obrazlar»

- 1) «Inson-inson»ga oid ballar jamlanadi: a) 5, b) 1, d) 2, e) 3
- 2) «Inson-texnika» a) 4, b) 5, d) 1, e) 2, f) 3.
- 3) «Inson-tabiat» a) 3, b) 4, d) 5, e) 1, f) 2.
- 4) «Inson-beligar tizimi» a) 2, b) 3, d) 4, e) 5, f) 1.
- 5) «Inson-badiiy obrazlar» a) 1, b) 2, d) 3, e) 4, f) 5.

Shunday qilib, barcha kasblar turlari bo'yicha yig'ilgan ballarni bir-biri bilan taqqoslash natijasida o'quvchining u yoki bu kasbga bo'lgan qiziqishi va yo'nalishlari darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, olingan natijalarning nechog'liq rostligiga (to'g'riligiga) ishonish va o'quvchilarning kasb tanlashga munosabatini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun boshqa qo'shimcha usullardan (suhbat, savol-javob, testlar, erkin mavzudagi yozma ishlar va hokazolardan) ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Differensial-diagnostik so'rov va uni qo'llash usuli

O'quvchilarning hunar ta'limiga munosabati ularning shu tanlagan kasblari faoliyatining har xil turlariga nisbatan bo'lgan oldindan shakllangan moyilliklari va qiziqishlariga mos kelishiga juda kuchli bog'liq bo'ladi.

Proforientatsiya masalalari bilan uzoq yillar shug'ullangan yetakchi psixolog olim E.A. Klimov kasblarning asosiy tipini farqlaydi:

- odam-tabiat (qishloq xo'jaligi, biologiya, zoologiya, geologiya va sh.k.);
- odam-texnika (mashinasozlik);
- odam-odam (maishiy xizmat sohasi, savdo, maorif va boshqalar);
- odam-belgilar sistemasi (operatorlik tipidagi kasblar, transportchilik va boshqalar);
- odam-badiiy obraz (artistlik, tasviriy san'at va boshqalar);
- o'quvchi faoliyatining qaysi kasb yo'nalishi turini aniqlash uchun

E.A. Klimos Differensial-diagnostik so'rov (DDS)ni ishlab chiqqan. Ushbu metodika maktablarda, maktablararo o'quv ishlab chiqarish kombinatlarida keng qo'llanilgan. Bundan ayniqsa guruhlarga o'quvchilarni tanlab olishda, ya'ni mehnat ta'limining boshlanish bosqichlarida (qachonki kasbni o'zgartirish mumkin bo'lgan davrlarda) qo'llash yanada maqsadga muvofiq bo'lgan uslubiyatdir. Bu uslubiyat qulay, ixcham va uni bajarish, natijalarni qayta ishlash o'quvchilardan va tadqiqotchidan katta qiyinchilik va ko'p vaqt talab qilmaydi. O'quvchilar so'rov varaqasida keltirilgan takliflardan birini tanlashi kerak. Tasdiqlar quyidagilardan iborat.

«Men ma'qul ko'raman» Differensial-dagnostik so'roq

Agar sizga taklif etilgan ikki imkoniyatdan faqat birinigina tanlashingizga (ularning har ikkalasining yoqish yoki yoqmasligidan qat'i nazar) to'g'ri kelgudek bo'lsa, siz qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'ladingiz?

1. a) Hayvonlarga qarash ularni boqish.
b) Mashina, priborlarga xizmat qilish (ularni kuzatib turish, qayd qilish).
2. a) Bemor kishilarga yordam berish, parvarish qilish.
b) Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish.
3. a) Kitob bezaklari, plakatlari, badiiy otkritkalar, gramplastinkalar sifatini kuzatib borish.
b) O'simliklarning holatini, o'sishini kuzatish.
4. a) Materiallarni (yog'och, gazlama, metall, plastmasa va h.k.) qayta ishlash.
b) Mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish (reklama qilish, sotish).
5. a) Imiy-ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish.
b) Badiiy kitoblarni (pyesa, konsertlarni) muhokama qilish.
6. a) Biron-bir zotli kichik hayvonni boqish, parvarish qilish.
b) O'rtoqlaringiz (yoki o'zingizdan kichik bolalar)ning biron-bir faoliyati, mehnat, o'qish, sportni bajarish bilan shug'ullanish.
7. a) Rasm, tasvirlardan nusxalar ko'chirish (yoki musiqa asboblari-ni sozlash, tuzatish).
b) Biron-bir yuk tashuvchi (ko'taruvchi vositalarni) kran, traktor, teplovoz va boshqalarni boshqarish.
8. a) Odamlarga (ma'lumot berish, hayotdan saboqlar) kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish.
b) Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarni qidirib topish va tuzatish.
9. a) Buyumlar, narsalar (qiyin texnika)ni, uy-joyini ta'mirlash, tuzatish.
b) Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarni qidirib topish va tuzatish.
10. a) Hayvonlarni davolash.
b) Hisob-kitob ishlarini bajarish.
11. a) O'simliklarning yangi navlarini yaratish.
b) Sanoat mahsulotlari (mashinalar, kiyimlar, uy, oziq-ovqat mahsulotlari va sh.k.)ning yangi turlarini loyihalashtirish, tuzish.
12. a) Odamlar o'rtasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish).
b) Chizmalar, sxemalar, jadvallarni o'rganish (tekshirish, aniqlash, tartibga keltirish).
13. a) Badiiy havaskorlik to'garaklari ishlarini o'rganish, kuzatish.

- b) Mikroblar hayotini o'rganish, kuzatish.
14. a) Meditsina priborlari, apparatlarini ishlatish, ularga xizmat qilish.
b) Odamlarga yaralanganda, shikastlanganda, kuyganda va sh.k. meditsina yordami ko'rsatish.
15. a) Kuzatilayotgan hodisalar, voqealar, o'lchanilayotgan obyektlar va boshqalar haqida aniq hisobotlar yozib borish.
b) Voqealar (kuzatilayotgan yoki ular haqida o'qigan)ni badiiy ifodalash.
16. a) Kasalxonada laboratoriya analizlarini qilish.
b) Bemorlarni qabul qilish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni davolashga yo'llash.
17. a) Xona devorlarini, detallar sirtini bo'yash va bezash.
b) Binolarni montaj qilish yoki mashina priborlarini yig'ish.
18. a) Tengdoshlaringiz yoki kichik yoshdagi bolalarning (teatr, muzeylarga) madaniy sayohatlarini, ekskursiyalarini va sh. k. tashkil etish.
b) Sahnada o'ynash, konsertlarda ishtirok etish.
19. a) Chizmalar bo'yicha (detallarni, buyumlar, mashina qismlari)-ni tayyorlash, binolar qurish.
b) Chizmachilik bilan shug'ullanish, chizmalar, kartalardan nusxalar ko'chirish.
20. a) O'simliklar kasalliklari va bog', o'rmon zararkunandalariga qarshi kurashish.
b) Klavishli mashinalarda (yozuv mashinasi, teletayp va boshqalar) ishlash.
- Sinaluvchilarga (o'quvchilarga) quyidagicha javob varaqasi tarqatiladi va ular u yoki bu savolning tegishli javobi, harfi to'g'risiga «+» belgisini qo'yib javob berishlari lozim.

DDS javoblari uchun blanka

O'quvchining familiyasi, ismi _____
Maktab _____ sinf _____
Tadqiqot o'tkazish vaqt _____

T/r	a	b	T/r	a	b	T/r	a	b	T/r	a	b
1			6			11			16		
2			7			12			17		
3			8			13			18		
4			9			14			19		
5			10			15			20		

DDSdan olingan natijalar o'quvchi javoblarini klassifikatsiya qilish imkonini beruvchi quyidagi kalit yordamida qayta ishlab chiqiladi.

Savollar shunday guruhlanganlarki, ularga berilgan javoblar faoliyatining turli sohalarini aniqlash imkonini beradi. «Odam – tabiat» kasblari (shartli ravishda – O-Tt) birinchi ustunda berilgan, ikkinchi ustunda – «Odam – texnika» (O-Ta), uchinchi ustunda – «Odam-odam» (O-O), to'rtinchi ustunda «Odam–belgili sistema» (O-Bs), beshinchi ustunda «Odam–badiiy obraz» (O-B.o) keltirilgan. U yoki bu ustunda ijobiy (ya'ni kalitga mos kelgan) javoblarning ko'p bo'lishi o'quvchining shu kasbga moyilligini bildiradi.

Differensial-diagnostik so'roq natijalarini qayta ishlash kaliti

O-Tt	O-Ta	O-O	O-Bs	O-Bo
1a	1b	2a	2b	3a
3b	4a	4b	5a	5b
6a	7b	6b	9b	7a
10a	9a	8a	10b	8b
11a	11b	12a	12b	13a
13b	14a	14b	15a	15b
16a	17b	16b	18a	17a
20a	19b	19a	20b	18b

9.5. O'z qiziqishingizni aniqlang

Ko'rsatma: quyida taklif etilgan anketa savollarining birortasini ham qoldirmay barchasiga quyidagi tartibda javob bering: agar sizga savolda berilgan mashg'ulot bilan shug'ullanish juda yoqsa unda javoblar uchun berilgan varaqadagi anketaning shu savoli nomeri keltirilgan raqam ostidagi katakchaga ikkita plus «+» belgisini qo'ying. Agar shunchaki yoqsa bitta plus, savolda aytilgan mashg'ulotga befarq bo'lsangiz yoki biron nima deyishga qiynalsangiz – nol «0». Agar u mashg'ulot sizga yoqmasa bitta minus «-» belgisini qo'ying.

Har bir ustun bo'yicha (vertikal bo'yicha) pluslar yig'indisini hisoblab chiqib, siz o'z qiziqishingiz ifodalangan sohani bilib olishingiz mumkin (bunda qaysi ustun bo'yicha eng ko'p pluslarning bo'lishi shu sohaga qiziqishning kuchli ekanligini ko'rsatadi).

Bunda: 1 – fizika, 2 – matematika, 3 – elektroradio texnika, 4 – texnika, 5 – ximiya, 6 – biologiya va qishloq xo'jaligi, 7 – meditsina, 8 – geografiya va geologiya, 9 – tarix, 10 – fizologiya, jurnalistika, 11 – san'at, 12 – pedagogika, 13 – maishiy xizmat sohasidagi mehnat, 14 –

harbiy ish, 15 – sport.

Qiziqishlarning turg'unlik vazifasini anketaning ko'ndalang (gorizontal) ustunlaridagi pluslar soni bilan aniqlang. Agar ularning soni son bilan 1–2 ustunlar bo'yicha eng ko'p bo'lsa, unda sizda faoliyatning, bilimlarning u yoki bu sohasi bilan tanishib chiqish xohishi mavjud, agar 3–4 ustunlarda bo'lsa unda sizda qiziqqan predmetingiz bo'yicha yana chuqurroq o'rganishga, bilishga intilish bor, agar 5–6 ustunlar bo'yicha pluslar miqdori eng ko'p bo'lsa, demak, siz bu soha bo'yicha faol amaliy ishlarga (mashg'ulotlarga) kirishgansiz, bu sizning qiziqishlaringiz moyillikka aylanganligidan dalolat beradi.

Qiziqishlar anketasi

Siz yoqtirasizmi? Sizga yoqadimi?

1. «Qiziqarli fizika», «Fiziklar kulishganda» kabi qiziqarli kitoblarni o'qish.
2. «Qiziqarli matematika», «Matematik dam olish» kabi kitoblarni o'qish.
3. Radiotexnika sohasidagi yutuqlar haqida yozilgan ilmiy-ommabop jurnallar bilan tanishib chiqish.
4. «Yosh texnik», «Texnika va yoshlar» kabi texnikaga oid jurnallarni o'qish.
5. Ximiyadagi kashfiyotlar, buyuk (mashhur) ximiklar hayoti va faoliyati haqida o'qish.
6. O'simliklar va hayvonlar hayoti haqida o'qish.
7. Odamlar kasalliklarga qarshi qanday kurasha olishni o'rganganliklari haqida, vrachlar (hakimlar) haqida meditsina sohasidagi yutuqlar haqida o'qish.
8. Kitoblarda yozilishi, hikoya qilish va geografik xaritalar bo'yicha turli maslahatlar bilan tanishib chiqish.
9. Tarixiy shaxslar, hodisalar haqida kitoblar o'qish.
10. Jahon adabiyoti klassiklari she'rlarini o'qish.
11. San'atning rivojlanishi tarixi bilan qiziqish, opera, simfonik, jaz musiqalarini tinglash.
12. Maktab hayoti haqida (tarbiyachi, o'qituvchi, yetakchilar haqida) kitoblar o'qish.
13. Pazandalik san'ati, kiyimlarning modellarini yaratish, mebellarni tuzish (konstruksiyalash)ga qiziqish.
14. Urushlar va janglar haqida kitoblar o'qish.
15. Sportga oid gazeta-jurnallarni o'qish, sport va mashhur sportchilar haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlarga qiziqish.

16. Fizikadagi kashfiyotlar, mashhur fiziklar hayoti va faoliyati haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlarga qiziqish.

17. Matematikadagi kashfiyotlar, mashhur matematiklar hayoti, faoliyati haqidagi adabiyotlarni o'qish.

18. Elektr va radio priborlarining (asboblarning) tuzilishini aniqlash.

19. Texnika ko'rgazmalariga borish yoki texnika yangiliklariga oid ko'rsatuvlarni tomosha qilish (tinglash).

20. Tabiatdagi kimyoviy hodisalarni topish (aniqlash, kuzatish), kimyo bo'yicha tajribalar o'tkazish, kimyoviy reaksiyalarning borishini kuzatish.

21. Botanika, zoologiya, biologiyani o'rganish.

22. Odam organizmining tuzilish xususiyatlari va vazifalari (funktsiyalari) bilan tanishish.

23. Foydali qazilma konlarining yangilarini qidirish haqida bilish.

24. Respublikamizda va chet ellarda ro'y berayotgan siyosiy voqealarni muhokama qilish.

25. Badiiy-tanqidiy maqolalarni o'qish.

26. Kinofilmlar, teatr asarlari, badiiy ko'rgazmalarni muhokama qilish.

27. Bolalar va o'smirlar tarbiyasiga oid masalalarni muhokama qilish, o'z do'stlaringiz, sinfdoshlaringiz, kichik yoshdagi bolalardan biron-bir kishiga o'z xulqini tuzatish borasida qanday yordam berish mumkinligini bilish.

28. Uyda, maktabda, sinfda qulaylik yaratish haqida o'ylash (qayg'urish), o'z xonangizni tartibga keltirish.

29. Harbiy texnika bilan tanishish.

30. Sport musobaqalari va bellashuvlariga borish.

31. Fizika bo'yicha tajribalar o'tkazish.

32. Matematik masalalarni (vazifalarni) yechish.

33. Radioapparatlar sxemalarini o'rganish.

34. Texnik chizmalar va sxemalarni o'qish (o'rganish).

35. Kimyoviy aralashmalar tayyorlash, reaktivlarni o'lchash.

36. Bog'da, tomorqada ishlash, o'simliklar, hayvonlarga qarash, ularni parvarish qilish, boqish.

37. Turli xastaliklarning (kasalliklarning) yuzaga kelish sabablarini o'rganish.

38. Minerallar kolleksiyasini yig'ish.

39. Xalqlar va davlatlarning yuzaga kelish tarixini o'rganish.

40. Chet tilini (tillarini) o'rganish.

41. Sahnada o'ynash (rol o'ynash), qo'shiq aytish, tomosha ko'rsatish.

42. Kichkintoylarga kitob o‘qib berish, ularga nimanidir qilishga yordam berish, ularga ertaklar aytib berish.

43. Kiyimlarni tikish, to‘qish, yamash, ovqat tayyorlash, uydagi maishiy priborlar (jihazlar) va qurilmalar, mebel va shu kabilarni tuzatish, takomillashtirish va tayyorlash.

44. Harbiylashtirilgan yurishlarda, poxodlarda (zarnitsalarda) ishtirok etish.

45. Sport o‘yinlarini o‘ynash.

46. Fizika to‘garaklarida shug‘ullanish.

47. Matematika to‘garaklarida shug‘ullanish.

48. Elektr asboblarni tuzatish va elektr simlarini ulash.

49. Tuli xil mexanizmlarni tuzatish va yig‘ish.

50. Ximiya to‘garaklarida shug‘ullanish (ximiya bo‘yicha fakultativlarni o‘rganish).

51. Biologiya to‘garaklarida shug‘ullanish, ximiya bo‘yicha fakultativlarni o‘rganish).

52. Meditsina hamshirasi va shifokor ishlari bilan tanishish.

53. Geologik va geografik xaritalar tuzish.

54. Tarix muzeylariga borish, madaniy tayyorgarliklar bilan tanishish, arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etish.

55. O‘z fikringiz, kuzatishlaringizni yozma bayon etish, kundalik yuritish (kundalik daftar tutish).

56. Drama to‘garagida shug‘ullanish.

57. Agar o‘rtoqlaringiz o‘quv vazifalarini bajarishda qiynalishayotgan bo‘lsalar, ularga o‘quv vazifalarini qanday bajarish lozimligini tushuntirib berish.

58. Odamlarga turli xizmatlarni ko‘rsatish (oyoq kiyimlarni tuzatib berish, suratini olib berish, sochini chiroyli tarashga, turmaklashga yordam berish va sh.k.)

59. Harbiy o‘yinlarda va mashqlarda (yurishlarda) ishtirok etish.

60. Sport musobaqalarida ishtirok etish.

61. Fizikadan olimpiadalarda ishtirok etish.

62. Matematikadan ko‘riklarda, olimpiadalarda ishtirok etish.

63. Radio apparatlarini yig‘ish va tuzatish.

64. Samolyotlar, uchuvchi apparatlar, kemalar yoki shunga o‘xshash narsalarning modellarini yasash.

65. Kimyodan olimpiadalarda ishtirok etish.

66. Biologiyadan olimpiadalarda ishtirok etish.

67. Bemorlarga qarash.
68. Biron-bir geografik joyning topografik tasvirini olishda kattalarga yordam berish yoki uni o'zingiz qilishingiz.
69. Tarix bo'yicha ma'ruza qilish, tarix (yoki arxeologiya) to'garagida shug'ullanish.
70. Adabiyot yoki matematika to'garagiga qatnashish.
71. Musiqa asbobida o'ynash, rasm chizish, yog'ochdan kesib narsalar tayyorlash.
72. Guruh (otryad) yetakchisi ishini bajarish.
73. Oila budgetini iqtisod qilishni o'ylash (rejalashtirish).
74. O'yingohlarda, sayr-sayohatlarda (poxodlarda) tashkilotchilik (komandir) qilish.
75. Sport seksiyasida shug'ullanish.
76. Yangi fizik kashfiyotlar haqida ma'ruzalar qilish, fizika bo'yicha «Quvnoqlar va zukkolar» konkursini (QZK) tashkil qilish.
77. Matematikadan konkurslar tashkil qilish.
78. Radio to'garaklarida shug'ullanish.
79. Texnika ko'rgazmalarini, texnik ijodkorlik ko'riklarini tashkil qilishda ishtirok etish va qatnashish.
80. «Ximiya atrofimizda» kabi kechalarni tashkil qilishda kattalarga yordam berish, ularda ishtirok etish.
81. Biologiyadan tajriba ishlarini o'tkazish.
82. Hamshiralalar (sanitarlar) to'garagida ishtirok etish.
83. Geografik yoki geologik ekspeditsiyalarda ishtirok etish.
84. Yashab turgan joyini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan sayohatlarni tashkil qilishda qatnashish va ularda ishtirok etish.
85. Adabiy kechalarning ssenariysini yozish, adabiy yubileylar, bayramlarni tashkil qilish.
86. Badiiy havaskorlik olimpiadalari konkurslarida ishtirok etish.
87. Bolalar uchun o'yinlar va bayramlar tashkil qilish.
88. Sayohatlar vaqtida ovqat tayyorlash yoki barcha sayohatchilar (sayohatda ishtirok etayotganlar) uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarga ega bo'lgan dam olish joylarini jihozlash, suratga olish, suratlarni chiqarish.
89. Harbiy ishni o'rganish.
90. Kichik yoshdagi bolalarni seksiyalarda, sport jamoalarida shug'ullantirish.

Javoblar varaqasi

Sinaluvchining ismi, sharifi _____

Jinsi _____ Yoshi _____ maktab _____ sinf _____

(tadqiqot shartiga ko'ra qo'shimcha ma'lumot)

Tadqiqot o'tgan vaqt _____ Tadqiqotchi _____

1-jadval

QIZIQISHLAR XARITASI

T/r Qatorlar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	XIII	XIV	XV	+ soni
I	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
II	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	
III	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	
IV	46	47	48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	
V	61	62	63	64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	
VI	76	77	78	79	80	81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	
+ soni																

9.6. Sen kimsan? Intellektni aniqlash testi

Quyida keltirilgan savollarni diqqat bilan o'qib chiq va ularga javobingni ber, javobni berishda uzoq o'ylab o'tirma, xayolingga kelgan birinchi javobni ber. Iloji boricha tezroq ishlashga harakat qil.

1. O'qituvchi soat 8 da budilnikni (soatni) soat 9 ga qo'yib, uyquga yotdi. U necha soat uxlaydi?

2. Zafarjonning 10 ta qo'yi bor edi. To'qqiztadan boshqa hammasi o'lib qoldi. Nechta qo'y qoldi?

3. Sen Toshkentga qo'nib o'tadigan Pekin–Moskva reysi bo'yicha uchadigan samolyot uchuvchisidan. Reys haftada bir marta bo'ladi. Uchuvchining yoshi nechada?

4. Tungi qorovul kunduzi o'lib qoldi. Unga nafaqa to'lanadimi?

5. Erkak kishi o'z bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?

6. Avstraliyada ham 9-may bormi?

7. Oylar 30–31 kunlar bilan tugaydi. Qaysi oyda 28 bor?

8. Sen notanish xonaga kirib qolding. U yerda benzin va gaz bilan

yonadigan chiroqlar bor ekan. Sen birinchi bo'lib nimani yoqishing kerak?

9. Arxeologlar «eramizdan avvalgi 25-yili» chiqqan tangani topib olishdi. Shunaqasi ham mumkinmi?

10. Ota va o'g'il avtohalokatga uchrashdi. Otasi shu joyning o'zidayoq halok bo'ldi, o'g'lini esa kasalxonaga yuborishdi. Operatsiya vaqtida xirurg bolani ko'rib: «Voy xudoyim-ey, bu mening o'g'lim-ku?!» – deb yubordi. Shunday ham bo'lishi mumkinmi?

11. 6 ta sham yonib turgan edi, 4 tasini o'chirib qo'yishdi. Nechta sham qoldi?

12. Ikki kiloli griya (tosh) bir kilogramm va yarimta g'ishtga ega. Bitta g'ishtning og'irligi qancha?

13. Qo'llarda o'nta barmoq bor. O'nta qo'lda nechta barmoq bo'ladi?

14. Birdan 100 gacha bo'lgan qatorda nechta to'qqiz bor?

15. Yog'ochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni necha marta arralash kerak?

16. Andijondan Toshkentga va Toshkentdan Andijonga qarab bir vaqtda ikki poyezd yo'lga tushdi. Andijondan Toshkentga kelayotgan poyezdning tezligi ikkinchisidikidan uch marta katta. Uchrashgan vaqtda ularning har biri Toshkentdan qancha masofada uzoqlikda bo'lgan?

17. Ko'p qavatli binoning 16-qavatida bir liliput (pakana) odam yashaydi. U har kuni ertalab ishga ketayotib liftga pastga tushib so'ng ishga ketadi. Kechki payt ishdan qaytganda esa 10-qavatgacha liftdan ko'tarilib, u yog'iga piyoda ketadi. U nimaga shunday qiladi.

18. Vrach «hakam» bemorga 30 minut oralig'i bilan uchta ukol belgilaydi. Bemor ularning hammasini qancha vaqt ichida olib bo'ladi?

19. Bir kishi: «Bu mening bolam, lekin o'g'lim emas!» – deb ayanch bilan yig'lab o'tiribdi. Shunaqasi ham bo'lishi mumkinmi?

Savollarga javob berishda har bir to'g'ri javob uchun «-», noto'g'ri javob uchun «+» belgisi qo'yiladi. Faqat «-» belgisi javobgina hisoblab chiqiladi va shunga sinaluvchining xarakteristikasi belgilanadi, aniqlanadi.

Sinaluvchidan 4, 5, 6, 9, 10, 19-savollarga berilgan javoblarga izoh berish talab qilinadi. Izohlar asosli bo'lsagina tavakkal, tasodifiy javoblar bo'lmasa, ular to'g'ri deb hisoblanadi.

Javoblar:

1.1 soat.2.9.3. Sinaluvchining yoshi, 4. Yo'q (chunki o'lgan odamga nafaqa to'lanmaydi). 5. Yo'q. (chunki u kishining o'zi o'lib ketgan, o'lgan odam nafaqat xotini singlisiga, balki mutlaqo o'ylana olmaydi).

6. Ha (bu kun hamma joyda kalendarda bor). 7. Hammasidan. 8. Gugurtni. 9. Yo‘q (u vaqtlarda tanga (tiyin) bo‘lmagan. 10. Ha (bu uning onasi). 11.6. 12. Ikki kilogramm. 13.50. 14.11. 15.11. 16. Bir xil masofada. 17. Bo‘yi yetmaydi. 18. Bir soatda. 19. Ha (bu uning qizi).

Minuslar (noto‘g‘ri javob) bo‘yicha xarakteristikalar 0–2 geniy, 2–4 intellektual (zehni o‘tkir, aqlli), 5–7 mulohazali, 9–10 o‘rtacha, 11–12 aql uchqunlari ko‘rinib turuvchi odam, 13–15, oddiy ahmoq, 16–18 alohida maxsus joylarda saqlanishi mumkin bo‘lgan ahmoq.

9.7. Xarakterning ish xususiyatlari

Quyida berilgan xususiyatlardan oltitasiga (sizda eng ko‘p bo‘lgan) (+) qo‘ying.

1. Mustaqillik.
2. Ishga ijodiy yondashuvchanlik.
3. Tashabbuskorlik.
4. Aqlan qobiliyatlilik.
5. Tajribalilik va bilimlilik.
6. Tirishqoqlik.
7. Saranjomlik.
8. Diqqat-e‘tiborlilik.
9. Ijro etuvchanlik.
10. Intizomlilik.
11. Qat‘iyatlilik.
12. Vijdonlilik.
13. Mehnatsevarlik.
14. Epchillik.
15. Sabr-toqatlilik.
16. Ishchanlik.
17. Mas‘uliyatlilik.
18. Tashkilotchilik.

Natija

1–4 gacha ko‘p (+) bo‘lsa, «**Ijodkorsiz**».

5–13 gacha ko‘p (+) bo‘lsa, «**Bajaruvchisiz**».

14–18 gacha ko‘p (+) bo‘lsa, «**Tashkilotchisiz**».

9.8. Kasb tanlash motivlari

Quyida savollarga «+» yoki «-» belgisi orqali o'z munosabatingizni bildiring.

1. Kasbga, uning talabiga qiziqaman.
2. Shu kasbga oid bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish uchun tanlaganman.
3. Ijtimoiy o'rni uchun.
4. Oilaviy an'ana uchun tanlaganman.
5. Ota-onamga qaram bo'lmaslik uchun.
6. Shu kasbga oid fanlarni yaxshi bilganim uchun.
7. Odamlarni boshqarish borligi uchun.
8. Individual ishni yaxshi ko'rganim uchun.
9. Ijodkorligi borligi uchun.
10. Qobiliyatimga to'g'ri kelgani uchun.
11. Yaxshi oylik maoshi borligi uchun.
12. O'z hayotimni qiziqarli qilish uchun.
13. Mustaqillikka o'rgatadi deb hisoblaganligim uchun.
14. Ishbilarmonligi borligi uchun.
15. Oilamga yordam berish uchun.
16. Iqtisodiy bilim olish uchun.
17. Diplom (oliy ma'lumot) olish uchun.
18. Uzoq o'qimaslik uchun.
19. Yaxshi joyda ishlash uchun.
20. Yaxshi maosh olish uchun.
21. E'tiborli, zamonaviy bo'lganligi uchun.
22. Odamlarga yordamim tegishi uchun.
23. Ish va moddiy sharoiti yaxshiligi uchun.
24. Tashqi ko'rinishi yaxshiligi uchun.

Test natijasi

A	B	D
3, 4, 7, 17, 18, 19, 21, 24	5, 8, 11, 14, 15, 16, 20, 23	1, 2, 6, 10, 12, 13, 22
Ijtimoiy o'rni	Moddiy ta'minlanishi	Ijodkorlik

9.9. Sovg'a olish sizga yoqadimi?

Hadya oladigan odamning didini yaxshi bilsangiz, sovg'a olish ham

qiyin kechmaydi. Ruhshunoslarning kuzatishicha, kishining olgan sovg'asiga qarab uning didi va fe'l-atvorini aniqlash mumkin ekan. Bu fikr to'g'riligini tekshirmoqchi bo'lsangiz, quyidagi test savollariga javob bering. Ballarni hisoblab, javoblarni o'qing va o'zingiz haqingizdagi fikringiz bilan taqqoslang...

1. Sovg'aga alohida bir ma'no berishga harakat qilasizmi?

Ha – 5 ball.

Hamma vaqt emas – 4 ball.

Yo'q – 3 ball.

2. Sovg'a tanlashdan oldin uzoq mulohaza yuritasizmi?

Ha – 5 ball.

Ba'zan – 4 ball.

Yo'q – 3 ball.

3. Hadya berishdan oldin kelishib olishni ma'qul ko'rasizmi?

Ha – 5 ball.

Ba'zan – 4 ball.

Har doim desa ham bo'ladi – 3 ball.

4. Sovg'a, avvalo, qimmat bo'lmasligi kerak, deb hisoblaysizmi?

Ha – 3 ball.

Ba'zan – 4 ball.

Yo'q – 5 ball.

5. Bir nechta maydasidan ko'ra bitta bo'lsa ham yaxshiroq sovg'a olish kerak, degan fikrga qo'shilasizmi?

Ha – 5 ball.

Ba'zan – 4 ball.

Yo'q – 3 ball.

6. Tortiq qilgan sovg'angiz hamma vaqt sizni eslatib turishini xohlaysizmi?

Ha – 3 ball.

Ba'zan – 4 ball.

Yo'q – 5 ball.

7. Sovg'a olishda uning sifati va narxi asosiy deb hisoblaysizmi?

Ha – 3 ball.

Ba'zi hollarda – 4 ball.

Yo'q – 5 ball.

8. Sovg'alar qarzdor qilib qo'yadi, degan fikrga qo'shilasizmi?

Ha – 3 ball.

Yo'q – 5 ball.

Sharoitga qarab – 4 ball.

9. Olgan sovg‘angizning bir kun kelib o‘zingizga ham foydasi tegib qolishi haqida o‘ylaysizmi?

Ha – 3 ball.

Ba‘zan – 4 ball.

Yo‘q – 5 ball.

10. Kichkina sovg‘alar do‘stlikni mustahkamlaydi, kattalari esa qarzdor qilib qo‘yadi, degan fikrga qo‘shilasizmi?

Ha – 3 ball.

E‘tibor bermayman – 4 ball.

Yo‘q – 5 ball.

Javoblar:

30–36 balgacha. Siz urf-odatlarni qadrlaydigan odamsiz. Hayotingizda hamma narsa o‘zgaras, barqaror bo‘lishi kerak, deb hisoblaysiz. Do‘stlaringiz, qarindoshlaringiz va hamkasblaringiz ham bemalol sizga suyanishlari mumkin.

37–43 balgacha. Siz har bir ishda boshqalardan yaxshi bo‘lishga harakat qilasiz. Zaif tomonlaringizni ko‘rishlarini xohlamaysiz, shuning uchun odamlar sizni «kirishimli emas» deb hisoblashadi. Lekin bu noto‘g‘ri taassurot.

44 va undan yuqori ball. Sizning orzuvingiz – do‘stlar va yaqinlaringizning ko‘nglidagi niyatlarini topishga harakat qilish. Sizning yordamingiz beminnat, yaxshiligingiz uchun minnatdorchilik kutmay-siz.

9. 10. Yosh bo‘lgingiz kelsa!

Yoshlik baxsh etuvchi manba suv ekanligini allaqachon fahmlab olgan bo‘lsangiz kerak. Suv ham insonni yoshartirib yuborishi mumkinmi deb hayratlanayotgan bo‘lishingiz tabiiy.

Biz bugun sizga haqiqatda yoshartirish xususiyatiga ega vannalarni tavsiya etmoqchimiz. Bunday vannalarni qabul qilgach, siz o‘zingizni qayta dunyoga kelgandek his etasiz.

Misrcha vanna

Barchaga ma‘lumki, o‘z go‘zalligini, yoshligini uzoq vaqt saqlab qolishni istagan Kleopatra sutli vannalar qabul qilgan. Natijasi esa: u aqldan ozdiruvchi darajada go‘zalga aylanadi. Kleopatradan qayerimiz kam? Buning uchun vannani sutga to‘ldirish shart emas, bu holda

go'zalligingiz qimmatga tushishi mumkin. Yaxshisi suv to'la vannaga yarim stakan quruq sut kukunini aralashtiring. Sut kukuni o'rniga makkajo'xori kraxmalidan (200 e) ham foydalansa shunday samaraga erishiladi. Bu vannadan so'ng teringiz silliq, mayin bo'ladi.

Shotlandcha vanna

Shotlandiyaliklar ham go'zal bo'lishning o'ziga xos usulini yaratganlar: 40°C issiq suvli vannada 10 daqiqa o'tirib (bunda suv ko'krakka-cha bo'lishi lozim, ya'ni tananing yurak joylashgan qismi suvga botmasligi darkor), so'ngra sovuq suvli dush qabul qilinadi. Bunday jarayon moddalar almashinuvini faollashtirib, organizmdagi ortiqcha narsalarning chiqarilishini tezlashtiradi. Bu vannadan so'ng kuch-g'ayratga to'lasiz. Agar vannada yotishga vaqtigingiz bo'lmasa, kontrast dush qabul qilsa ham bo'ladi: ya'ni 10 soniya sovuq suv, 1 daqiqa issiq suvni almashtirgan holda dush qabul qilinadi. Esingizda bo'lsin, yurak xastaligiga chalingan insonlarga issiq suvli vanna taqiqlanadi.

Inglizcha vanna

Inglizlar, shotlandiyaliklardan farqli o'laroq boshqa yo'lni tanlaganlar. Ular issiq suvli emas, aksincha, sovuq suvli (suv darajasi 20°S) vannalarni xush ko'rishadi. Bunday vanna asablarni mustahkamlab, terini tortadi, demak ajinlar paydo bo'lishining ham oldi olinadi. Sovuq suvli vannalar 3–5 daqiqadan ziyod vaqt qabul qilinmaydi, aks holda betob bo'lib qolish mumkin.

Farangcha vanna

Faranglarning eng sevimli vannalari 36–37 darajali iliq suvli vannalardir. Suv harorati tana haroratiga yaqin bo'lganligi uchun bu vanna barcha uchun mosdir. Bu vannaga dengiz tuzi qo'shiladi. Ikki stakan pivo yaxshilab ko'pirtirilib vannaga qo'shib yuborilsa teri muloyim va qizg'ish tus oladi.

Gollivudcha vanna

Amerikaliklar ham yoshlikni uzaytirishning o'ziga xos original usulini o'ylab topishgan. Gollivudning ayrim manbalarida tuxumli vannalar qayd etilgan. 1 dona tuxum, yarim stakan shampunni yaxshilab aralashtiring, ko'pirligach vannaga qo'shib yuboring. Vannada 15–20 daqiqa yotsangiz teringiz tortiladi, egiluvchan va mayin bo'ladi.

O‘zimizning usulimiz!

Vannada ikki osh qoshiq asalni eritib yuboringda, 20 daqiqa bu suvda orom oling. Bu vanna charchagan terini jonlantirib, ajinlarni yozadi.

To‘g‘ri, cho‘milish – har tomonlama foydali va yoqimli mashg‘ulotdir. Lekin yodingizda bo‘lsin: har kuni sovunlab yuvinaverish, ayniqsa, sovuq ob-havoda foyda keltirmaydi. Birinchidan: sovun terining himoya qatlamini yemirib, uning qarish jarayonini tezlashtirsa, ikkinchidan, yog‘li qatlamdan judo bo‘lgan teri mikroblarga yo‘liquvchan va tashqi omillarga ta‘sirchan bo‘lib qoladi. Agar uzoq vaqt yosh va sog‘lom bo‘lishni istasangiz, sovun bilan kamroq yuvinishingizga to‘g‘ri keladi.

9. 11. Immunitetingiz sozmi?

Organizmi bakteriyalardan, viruslardan, zamburug‘lardan himoya qilib turadigan, shuningdek, teri, biriktiruvchi to‘qima, jigar va boshqa a‘zolar uchun javob beradigan immunitetingizning ahvoli qanday? Quyidagi sinov savollarga javob bersangiz, buni darrov bilib olasiz.

1. Sizga ob-havo o‘zgarishlari ta‘sir qiladimi?

Ha, juda – 2 ball; ba‘zan – 4 ball; juda kam – 1; hech qachon – 0.

2. Allergenlarga muhtalomsiz?

Ha – 8; ilgari shunaqa bo‘lgan – 2; yo‘q – 0.

3. Ertalablari uyqudan lanj bo‘lib turasizmi?

Ha, deyarli har kuni – 9; ko‘pincha – 5; kamdan-kam – 2; yo‘q – 0.

4. Sizga magnit bo‘ronlari ta‘sir qiladimi?

Ha, ko‘pincha – 8; ba‘zan – 4; kamdan-kam – 1; yo‘q – 1.

5. Tez-tez shamollab turasizmi?

Ha – 9; kamdan-kam – 4; yo‘q – 0.

6. Kechqurunga borib holingiz qurib qoladimi?

Ha, doimo – 8; ko‘pincha – 6; kamdan-kam – 2; yo‘q – 0.

7. Ba‘zan qiynalib, uzoq yo‘talasizmi?

Ha – 7; ba‘zan – 4; kamdan-kam – 1; yo‘q – 0.

8. Arzimagan narsalardan kayfiyatingiz buziladimi?

Ha, ko‘pincha – 9; ba‘zan – 5; kamdan-kam – 1; yo‘q – 0.

9. Sizni ishtaha yo‘qligi qiynaydimi?

Ha, ko‘pincha – 8; ba‘zan – 3; kamdan-kam – 1; yo‘q – 0.

10. Teringiz quruqmi, po‘st tashlaydimi?

Ha – 10; ba‘zan – 5; yo‘q – 0.

11. Jarohatingiz qiyin bitadimi?

Ha, ko‘pincha – 9; ba‘zan – 5; kamdan-kam – 1; yo‘q – 0.

12. Bo'g'implaringiz og'riydimi?

Ha, ko'pincha — 9; ba'zan — 5; kamdan-kam — 2; yo'q — 0.

13. Milklaringiz yallig'lanadimi?

Ha, ko'pincha — 8; ahyon-ahyonda — 4; ba'zan — 1; yo'q — 0.

14. Salga terlaysizmi?

Ha, doimo — 8; kamdan-kam — 4; ba'zan — 1; yo'q — 0.

Hosil bo'lgan ballarni qo'shing va natijani baholang.

Agar ballar 0 dan 38 gacha bo'lsa, Sizni tabriklash mumkin. Immun tizimingiz juda soz, hozircha pand bermayapti. Soppa-sog' bo'lsangiz ham baribir salomatligingiz haqida qayg'uring.

Agar 39 dan 78 gacha ball olgan bo'lsangiz, bu immun tizimingizning e'tibortalabligidan dalolat beradi, lekin uncha qiynalмай ishlab turgan bo'ladi. Yanada sog'lom hayot kechiring, vitaminlarni ko'proq iste'mol qiling, chiniqish va to'g'ri ovqatlanish kerakligini unutmang.

Mabodo 79 dan 119 gacha olsangiz, bu endi organizmda immun tizimining juda chatoqligidan dalolat beradi. Ancha sog'lom hayot kechirganingizda va foydali, quvvatli yaxshi ovqatlarni yeb turganingizda shu ahvolga tushmas edingiz. Iloji bo'lsa, ichkilik ichmang va kamroq cheking, chekishni tashlasangiz yana ham yaxshi bo'ladi. Ertalab uyqudan turgandan keyin dushda suvni goh sovuq, goh issiq qilib cho'milib turing. Qaynab turgan suvga limon po'chog'ini solib, har kuni uch mahal bug'ini nafasingizga oling. Shunda sun'iy preparatlarga muhtoj bo'lmay, immunitetingiz soz bo'lib yurasiz.

9.12. Barmoqlar yordamida tetiklik

Ushbu mashqlar ikki qo'l bilan bir vaqtning o'zida bajariladi. Bir hafta shug'ullansangiz, dadillashasiz.

1. Ilhom olasiz: jimjiloq, bosh barmoq va nomsiz barmoqlar uchi bir-biriga tekkiziladi, ko'rsatkich va o'rta barmoq to'g'ri tutiladi.

2. Tetiklashasiz: o'rta, nomsiz va jimjiloq birlashtiriladi. Katta barmoq o'rta barmoqqa yon tomondan qo'shiladi.

3. Osoyishtalik baxsh etadi: bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bir-biriga tekkizdiriladi, qolgan ikkita barmoq bukiladi.


4. Qon aylanishini yaxshilaydi: bosh barmoqlarni bir-biriga ilintiramiz. Shu holatda chap qo'lni o'ng qo'l ustiga qo'yamiz.

5. Kayfiyatni ko'taradi: chap qo'lning kaftini bukib, bosh barmoqni o'z hoida qoldirib, o'ng qo'l ustiga qo'yamiz.

6. Diqqatni jamlash: ko'rsatkich va nomsiz barmoq uchlari birlashtiriladi. O'rtadagilari yuqoriga ko'tariladi.

YALANGOYOQ BO'LING!

Rivoyatlarga qaraganda, qattiq bosh og'rig'i dardiga muhtalo bo'lgan bir kishi o'zini qo'yarga joy topolmay jon achchig'ida yalangoyoq bo'lib yer tepinibdi. Shunda nogahon barmoqlarini bir chaqirtoshga urib olibdi. Og'riq bosilgach, qarasa bosh og'rig'i ham to'xtaganmish...



Ehtimol, tibbiyotda tovonoterapiya yoki akupressura (tovonning biologik faol nuqtalariga bosim o'tkazib davolash) usuli dastavval o'shanda paydo bo'lgandir? Tovondagi ma'lum nuqtalar inson tanasining muhim a'zolari bilan bevosita uzviy bog'liq ekan. Yalangoyoq yurganda tovon nuqtalariga yerdagi toshlar qadalib, uqalanadi va ma'lum a'zolarimizga shifobaxsh ta'sir o'tkazadi. Afsuski, ko'pchilik yalangoyoq yurishni esdan chiqarib qo'ygan. Oyoqyalang yurish butun tana a'zolarini chiniqtiradi. Biz hatto hovlida ham oyog'imizdan shippakni tashlamaymiz.

Noziklashib, yupqalashib qolgan tovonimiz sal namlikka tekkanida badanimiz uvishib, junjikib ketamiz, shamollab qolmadimmikan, deb qo'rqamiz. O'zimizni salgina noxush sezsak, tabiatning o'zi yaratib qo'ygan bu bebaho in'om-imkoniyatlardan foydalanish o'rniga darrov shifokorga chopamiz va ular yozib bergan turli-tuman dorilarni kappalab yutamiz, emlatamiz.

Tarovatli bahor oyida tabiat qo'yniga chiqing, yalangoyoq bo'lib yuring! Bu sinalgan usul.

X BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI DIAGNOSTIKASI

10.1. Rasm bola qalbining ko'zgidir

Biz, kattalar, ko'nglimizni o'rtayotgan g'am, tashvishlar, qo'rquv yoki dardimiz to'g'risida gapirib dilimizdagini bo'shatamiz. Kichkin-toylar esa qo'liga qalam olib o'z his-tuyg'ularini «chizib» beradilar. Chunki bu ular uchun eng oson va qulay yo'ldir. Uch-to'rt yoki yetti yoshli bolalarning rasm chizishi voyaga yetgan o'smirning shaxsiy kundalik daftar tutishidek o'zini namoyon qilish usulidir.

Keling, shunday ekan farzandimiz chizayotgan rasmlarga ruhshunos nazari bilan qarashni o'rganaylik. Mabodo quyida keltirilgan rasmlarni bundan avval qizchangiz yoki o'g'ilchangiz albomida uchratgan bo'lsangiz, demak, biroz o'ylanishga fursat kelibdi. Lekin xulosa chiqarishga shoshilmang. Agar qaysidir bir detal farzandingiz chizayotgan rasmda bot-bot takrorlanaversa, shundagina bezovta bo'lishga asos bo'ladi. Bunday vaziyatda albatta ruhshunos dargohiga boring. Balkim kichkintoyingiz rostdan ham yordamga muhtojdir!

Qanday tushunish mumkin?

Bunday rasmlarni faqatgina o'zidan ko'ngli to'q va o'ziga ishongan bolalar chizishi mumkin. (Ba'zida bunday bolalar haddan ziyod o'ziga ishonib ketadilar.)

Qanday qilib yordam bersa bo'ladi?

O'ziga berayotgan yuksak bahosi boshqalarni hurmat qilish hissi bilan uyg'unlashib namoyon bo'lishini kuzatib boring. Lekin bu narsani bolaning nafsoniyatiga tegmay amalga oshiring. Chunki osmondan yerga tushish har doim ham yoqimli bo'lavermaydi.

• «Meni faqat dadajonim yaxshi ko'radilar»

Ota o'z o'g'lini sayrga olib chiqmoqda. Ota-o'g'il konkida uchmoqdalar (rasmda tasvirlangan).

Qanday tushunmoq kerak?

Bola deyarli barcha vaqtini dadasi bilan o'tkazadi. Ular ikkalasi yaxshi kelishadilarku-ya, biroq ona bu yerda ikkinchi darajaga o'tib qolmoqda.

Qanday yordam bersa bo'ladi?

Ko'pincha yakshanba kunlari ro'zg'or yumushlari bilan band bo'ladigan ayol kichkintoyi xalaqit bermasligi uchun uni dadasi bilan sayr qilib kelishga yuboradi. Keling, yaxshisi hech qachon ado bo'lmaydigan

va keyinga surib qo'ysa ham bo'ladigan yumushlarni chetga yig'ishtirib qo'yingda, uchovlon sayrga otlaning!

• **Mening orzuim amalga oshadi**

• **Velosiped va bolakayning rasmi chizilib, ustidan bo'yab tashlangan**
Qanday tushunmoq kerak?

Farzandingiz o'z orzusi haqida aytishga istihola qilyapti yoki o'z orzusi ushalmasligiga amin.

Qanday yordam ko'rsatsa bo'ladi?

Uning orzulari to'g'risida suhbatlashib ko'ring. Nima uchun unga u yoki bu narsani olib berolmasligingizni aniq tushuntiring, uning qaysi orzusini ro'yobga chiqarishingizga kuchingiz yetishini o'ylab ko'ring.

• **«Men bu dunyoda hech kimga kerak emasman»**

• **Ozg'in, nozik gavdaning ortiqcha detallarsiz tasviri**

Qanday tushunish kerak?

Bolakay tushkunlikka tushib o'zini yolg'iz sezmoqda.

Qanday yordam bersa bo'ladi?

Unga ko'proq vaqt ajrating. Balki ish bilan ko'milib ketib u bilan gaplashib olishga, birga sayr qilishga yoki shunchaki uni bag'ringizga bosishga vaqt ajrata olmayotgandirsiz? Mansab ketidan quvishni to'xtatishning ayni vaqti hozir, ozroq kichkintoyingiz bilan dam olsangiz yaxshi bo'lardi.

• **«Oyim ishlaydi, dadam esa dam oladi»**

• **Ayol idish-tovoqlarni yuvmoqda, erkak kishi esa televizor tomosha qilayapti**

Rasmda bolakay tasviri yo'q.

Qanday tushunmoq kerak?

Bolakay, dadasi har doim dam olishiga, onasining esa oshxona ishlaridan bo'shamasligiga ko'nikib ketgan. Ota-onasining o'z farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqti yo'q.

Qanday yordam ko'rsatsa bo'ladi?

Vaqtı-vaqtı bilan turmush o'rtog'ingiz bilan o'rin almashib turing. Hayotda boshqacha ham bo'lishi mumkinligini farzandingiz o'z ko'zi bilan ko'rsin.

Shuni yodingizdan chiqarmangki, hech bir uy-ro'zg'or yumushi bo'langiz tarbiyasidan ustun bo'lolmaydi.

• **«Men juda ham uyatchan va nimjonman»**

• **Oppoq qog'oz burchagiga kichik jussa rasmi chizilgan**

Qanday tushunish mumkin?

Bolakay o'ziga tanish davrada ham o'zini noqulay sezadi, boshqalar bilan muomala qilishga ancha qiynaladi.

Qanday yordam berish mumkin?

Tarbiyachisi yoki o'qituvchisi bilan suhbatlashing. Farzandingiz o'zini qanday tutishi haqida surishtirib ko'ring. Farzandingiz uyatchanligi ustidan kulmang. Doimo uni maqtab, qo'llab-quvvatlab turing.

• «Men o'zimni idrok qila olmayman»

• Xursand bolakay qog'ozga sig'may qolgan vagon ichida tasvirlangan

Qanday tushunish mumkin?

Bolakay o'ziga ishongani bilan uning intizomi va his-tuyg'ularini jilovlay olish borasida muammolar mavjud.

Qanday yordam ko'rsatsa bo'ladi?

Farzandingiz biror-bir yumushni yoki rasmlarini bajarayotgan vaqti chalg'ib ketmasligini kuzatib boring. Agar uni tartib-intizomga o'rgatish qiyinchilik tug'dirayotgan bo'lsa, ruhshunosga murojaat eting.

Ana shunaqa, aziz ota-onalar, farzandlaringizning har bir xatti-harakatini kuzatib, to'g'ri xulosa chiqarishga, ularni tushunishga harakat qiling.

10.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari diagnostikasi

1. Idrok qilishni diagnostikalash metodlari

1. Rasmda nima yetishmaydi? (1-rasm)

Bu metodikada rasm ko'rsatilib nima yetishmasligi so'raladi va sekundlar bilan vaqt aniqlanadi. Vaqtga qarab esa ball aniqlanadi.


10 ball – 25 soniyada 7 ta buyum aytilsa
8–9 ball – 26–30 soniyada 7 ta buyum aytilsa

6–7 ball – 31–35 soniyada 7 ta buyum aytilsa

4–5 ball – 36–40 soniyada 7 ta buyum aytilsa

2–3 ball – 41–45 soniyada 7 ta buyum aytilsa

1-rasm.



0–1 ball – 45 soniyada 7 ta buyum aytilsa

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

4–7 ball – o‘rta

2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

2. Bu yerda nima tasvirlangan? (2-rasm)

Bu metodikada bolaga yaxshilab tushuncha beriladi va ketma-ketlik bilan (a, b, v, e) ko‘rsatiladi. Demak «a»ni ko‘rsatgandayoq bilsa to‘liq ko‘rsatiladi va vaqt belgilanadi. Agar bilmasa «b» ko‘rsatiladi va h.k.

Natija quyidagicha aniqlanadi «a» 10 soniyagacha, b (a+b), d(a+b+d) va h.k.

10 ball «a» dan 10 soniyagacha


7–9 ball «b» dan 11–20 soniyagacha

4–6 ball «d» dan 21–30 soniyagacha

2–3 ball «e» dan 30–40 soniyagacha

0–1 ball bilmasa

Rivojlanish darajasi



2-rasm.

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

3. Rasmda qanday buyumlar yashiringan? (3-rasm)

Rasmni (1, 2, 3) ketma-ketlik bilan ko'rsatilib qanday buyumlar yashiringani so'raladi va natija aniqlanadi. Metodikani o'tkazishda rasmlar ketma-ketlik bilan, bittasini yechgandan so'ng keyingisiga o'tish lozim.

Natijani baholash.

10 ball – 20 soniyada 14 ta buyumni topsa

8–9 ball – 21–30 soniyada 14 ta buyumni topsa

6–7 ball – 31–40 soniyada 14 ta buyumni topsa

4–5 ball – 41–50 soniyada 14 ta buyumni topsa

2–3 ball – 51–60 soniyada 14 ta buyumni topsa

0–1 ball – 61 soniyadan ko'proq vaqtda 14 ta buyumni topsa

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

4–7 ball – o'rta


2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

Diqqatni diagnostikalash metodlari

1. Izlab top va o'chir (4–5-rasmlar).

Bu metodikada bolaga rasmni ko'rsatib quyidagi topshiriq beriladi:
«Biz sen bilan o'yin o'ynaymiz. Men senga biror buyumning aytaman



3-rasm.

va «boshladik» deyman. Sen uni topib o‘chira boshlaysan, «to‘xtadik» deyishim bilan to‘xtaysan. Men boshqa buyumni aytaman va yana «boshladik» deyman. Sen yana topib o‘chira boshlaysan, «to‘xtadik» deyishim bilan to‘xtaysan».

Bunda 2, 5 minut davomida 5 marta (har 30 soniyada) «boshladik», «to‘xtadik» deyiladi va 2 ta buyum aytiladi (masalan, eniga yulduzcha, bo‘yiga uy)

Natijani aniqlash quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$S = \frac{0.5N - 2,8n}{T}$$

Bunda S – o‘rganilayotgan diqqatning unumdorlik va barqarorlik darajasi.

N – o‘yin – o‘rganish davomida bolaning rasmdagi ko‘rsatgan buyumlar soni (hammasi)

T – sarflangan ish vaqti

n – xato (ya’ni aytilgan narsaning qolganlari, bola belgilamay ketganlari soni)

Natija

10 ball – S=1, 25 ball

8–9 ball – S=1, 00 balldan 1, 25 ballgacha

6–7 ball – S=0, 75 balldan 1, 00 ballgacha

4–5 ball – S=0, 50 balldan 0, 75 ballgacha

2–3 ball – S=0, 24 balldan 0, 50 ballgacha

0–1 ball – S=0, 00 balldan 0, 24 ballgacha

Diqqatning barqarorligi (rasmga qarang)

10 ball – hamma nuqta 1-egri chiziq hududida

8–9 ball – hamma nuqta 2-egri chiziq hududida

6–7 ball – hamma nuqta 3-egri chiziq hududida

4–5 ball – hamma nuqta 4-egri chiziq hududida

2–3 ball – hamma nuqta 5-egri chiziq hududida

0–1 ball – hamma nuqta 1-egri chiziq hududida

Rivojlanish darajasi


10 ball – juda yuqori rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

8–9 ball – yuqori rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega


4–7 ball – o‘rta rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

2–3 ball – past rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

0–1 ball – juda past rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega



4-rasm.



5-rasm.

2. «Belgilarni qo‘yib chiq» (6-rasm).


Bunda rasm tepasidagi shakllarga belgilar qo‘yib ko‘rsatilgan. «Sen shundan foydalanib qaysi shaklga qaysi belgi qo‘yilgan bo‘lsa sen ham shu belgini qo‘yib chiq», deyilib 2 daqiqa vaqt ajratiladi va natija quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = \frac{0,5 \cdot N - 2,8n}{120}$$

Bunda S – diqqatning ko‘chishi va taqsimlanishi. N – belgilangan vaqt davomida bajarilgan ish (belgi to‘g‘ri qo‘yilgan shakllar soni), n – xato.

Natijani aniqlash

10 ball – S=1,00 dan ko‘p



1-jadval.

0-3 ball - juda past

8-9 ball - $S=0,75$ ball-dan 1,00 ballgacha

6-7 ball - $S=0,50$ ball-dan 0,75 ballgacha

4-5 ball - $S=0,25$ ball-dan 0,50 ballgacha

0-3 ball - $S=0,00$ ball-dan 0,25 ballgacha

Rivojlanish darajasi

10 ball - juda yuqori 8-

9 ball - yuqori

6-7 ball - o'rta 4-5 ball - past

3. «Eslab qol va nuqtalarni qo'yib chiq» (7-rasm).

Bu metodikada diqqatning hajmi o'lanadi. Buning uchun qog'oz 8 bo'lakka bo'linib, kvadrat chiziladi va nuqtalar qo'yiladi, qirqib olinib ketma-ketlik bilan qo'yiladi (nuqtalar soniga qarab 2 tadan boshlab 9 tagacha (9 pastda)).

Bajarish tartibi. Bolaga 8 ta bo'sh kvadratlar berilib, unga 1-2 soniya davomida 1-kvadrat ko'rsatiladi va u bo'sh kvadratga nuqta qo'yadi, o'yin shunday 15 soniya davom etadi. Xatosiz bajarilgan kartochkalar olinib nuqtalar sanab chiqiladi.


Natijani baholash

10 ball - belgilangan vaqtda bola 6 va undan ortiq to'g'ri nuqta qo'ysa

8-9 ball - belgilangan vaqtda bola 4-5 to'g'ri nuqta qo'ysa

6-7 ball - belgilangan vaqtda bola 3-4 to'g'ri nuqta qo'ysa

4-5 ball - belgilangan vaqtda bola 2-3 to'g'ri nuqta qo'ysa



6-rasm.

0–3 ball – belgilangan vaqtda
bola 0–1 to‘g‘ri nuqta qo‘ysa

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

6–7 ball – o‘rta

4–5 ball – past

0–3 ball – juda past

Tasavvurni diagnostikalash

1. «Hikoya o‘ylab top».

Bolaga 1 daqiqa davomida biror kishi, narsa yoki hikoya, ertak aytib berishga tayyorlanish va 2 daqiqa aytish topshiriladi.

Natijani baholash

Bolaning tasavvuri quyidagicha baholanadi:

1. Hikoya tuzish tezligi.
2. Hikoyaning qiziqarliligi.
3. Obrazlarning har xilligi.
4. Hissiyot, mimika, pantomimikaning ishlatilishi.
5. Qism, bo‘lak, so‘zlarning ishlatilishi.

Yuqorida berilgan 5 ta shart 0 dan 2 balgacha baholanadi. Hikoya tuzishga ketgan vaqt (0 dan 1 daqiqagacha) 0–2 ball bilan baholanadi.

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

4–7 ball – o‘rta


2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

2. «Biror narsa chizib ber».

Bolaga qog‘oz, flomaster berib bir narsa chizib berish topshiriladi. Iloji boricha biror-bir antiqa narsa bo‘lsa yaxshi bo‘lardi deyiladi.

Natijani aniqlashda originallik, detallariga, fantaziyaga, tasavvurning boyligiga, nafosatligiga, vaqtiga e‘tibor beriladi. Natija oldingidek 10 ball bilan baholanadi.



7-rasm.

3. «Biror o‘yin o‘ylab top».

Bolaga 5 daqiqa davomida o‘yin o‘ylab topib aytib berish topshirildi va u quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. O‘yinning nomi.
 2. Qanday mazmunga egaligi.
 3. Nechta bola qatnashadi.
 4. Har bir kishining roli.
 5. O‘yin qanday o‘ynaladi.
 6. O‘yin qoidalari.
 7. O‘yin natijasi.
 8. Qanday baholanadi (jamoa, har bir kishi va h.k.).
- Natija 10 ball bilan baholanadi.


Xotirani diagnostikalash metodlari

1. «Rasmni eslab qol» (8–9-rasmlar).


Bu metodika xotiraning qisqa muddatli ko‘rish xotirasi turini aniqlab beradi. Bunda quyidagicha topshiriq beriladi: «Beshta shaklning rasmda qaysilari borligini ko‘rsat. Ikkinchisida sen ko‘rmaganlaring ham bor». Keyin bolaga 30 soniya davomida 1-rasm ko‘rsatiladi va olib qo‘yiladi. Bola 1, 5 daqiqagacha topib ko‘rsatishi kerak.

Natijani baholash

- 10 ball – 45 soniyada 9 ta shaklni aniq ko‘rsatsa.
8–9 ball – 45–55 soniyada 7–8 ta shaklni aniq ko‘rsatsa.
6–7 ball – 55–65 soniyada 5–6 ta shaklni aniq ko‘rsatsa.
4–5 ball – 65–75 soniyada 3–4 ta shaklni aniq ko‘rsatsa.
2–3 ball – 75–85 soniyada 1–2 ta shaklni aniq ko‘rsatsa.
0–1 ball – 90 soniyada birorta ham shaklni ko‘rsata olmasa.



8-rasm.



9-rasm.

2. «Soʻzlarni yodla».

Bu metodika asosida xotiraning bilish jarayonidagi rolini aniqlash mumkin. Bolaga 12 ta soʻz (daraxt, qoʻgʻirchoq, qoshiq, gul, telefon, stakan, piyola, qush, palto, lampochka, rasm, odam) aytiladi. Bola eslaganini aytib beradi. Bu oʻyin olti marta takrorlanadi va yodlab aytib berilgan sonlar sanaladi.

Natijani baholash

10 ball – 6 va undan kam urinishda 12 soʻzni yodlab aytsa

8–9 ball – 6 va undan kam urinishda 11–10 soʻzni yodlab aytsa

6–7 ball – 6 va undan kam urinishda 8–9 soʻzni yodlab aytsa

4–5 ball – 6 va undan kam urinishda 6–7 soʻzni yodlab aytsa

2–3 ball – 6 va undan kam urinishda 4–5 soʻzni yodlab aytsa

0–1 ball – 6 va undan kam urinishda 3 soʻzni yodlab aytsa

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori

8–9 ball – yuqori

4–7 ball – oʻrta

2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

Tafakkurni baholash metodikasi.

Obrazli-mantiqiy tafakkurni aniqlash

1. «Chalkashlik» (10-rasm).

Bu metodikada bolaga chalkashliklari bor rasm koʻrsatilib, shu chalkashliklarni tuzatish topshiriladi va natijani aniqlash uchun (3 daqiqa) berilgan vaqtdan bola qanday foydalanib toʻgʻri aytganligi hisobga olinadi.

Natijani baholash

10 ball –3 daqiqada barcha 7 ta chalkashlikni aytsa

8–9 ball –3 daqiqada barcha 7 ta chalkashlikni aytsa, lekin 1–3 taga izoh berilmasa

6–7 ball –3 daqiqada barcha 7 ta chalkashlikni aytsa, lekin 3–4 taga izoh berilmasa

4–5 ball –3 daqiqada barcha 7 ta chalkashlikni aytsa, lekin 5–7 taga izoh berilmasa

2–3 ball –3 daqiqada barcha 7 tadan 1–4 ta topdi, izohlashga vaqt qolmadi

0–1 ball – 3 daqiqada barcha 7 tadan 4 tadan ko‘p topdi, izohlashga vaqt qolmadi

2. «Bu yerda nima ortiq» (11-rasm).

Bu metodika obrazli mantiqiy tafakkur bilan aqliy tahlil qila bilish, umumlashtirishni ham aniqlaydi. 3 daqiqa ichida berilgan 4 ta buyumdan bitta ortiqchasini aniqlash topshiriladi.

Natijani baholash

10 ball – 1 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

8–9 ball – 1–1, 5 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

6–7 ball – 1, 5–2 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

4–5 ball – 2–2, 5 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

2–3 ball – 2, 5–3 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

0–1 ball – 3 daqiqada topshiriqni bajara olmasa.

Rivojlanish darajasi

10 ball – juda yuqori 8–9 ball – yuqori

4–7 ball – o‘rta 2–3 ball – past

0–1 ball – juda past

3. «Kimga nima yetishmaydi». (12-rasm)

Bu metodikani o‘tkazishda bolaga rasmni ko‘rsatmay nima qilish kerakligini tushuntiriladi va rasm ko‘rsatiladi.

Natija esa quyidagicha baholanadi:

10 ball – 30 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa


8–9 ball – 31–49 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

6–7 ball – 50–69 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

4–5 ball – 70–89 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

2–3 ball – 90–109 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

0–1 ball – 110 soniya va undan ko‘p soniya vaqt sarflab aytib bersa




10-rasm


Ko'rgazmali-harakatli tafakkurni aniqlash

1. «Konturni chiz» (13–14-rasmlar).

Bu metodikada bolaga qalam berib rasmdagi konturni (namuna) chizilmagan rasmini chizish topshiriladi (rasm).



11-rasm.



12-rasm.

Natijani baholash

10 ball – 90 soniyada topshiriqni to'g'ri va aniq bajarsa (burchak va to'g'ri chiziq aniq)


8–9 ball – 90–105 soniyada ayrimlarida xatolik bor (1–2 ta)

6–7 ball – 105–120 soniyada ayrimlarida xatolik bor (3–4 ta)


4–5 ball – 120–135 soniyada ayrimlarida xatolik bor (7–8 ta)

2–3 ball – 135–150 soniyada ayrimlarida xatolik bor (11–20 ta)

0–1 ball – 150 soniyadan ko'p xatolik ko'p bo'lsa (1–2 ta to'g'ri)



13-rasm.




14-rasm.


Nutqni aniqlash uchun qo'yidagi rasmlar orqali suhbat uyushtiriladi
(15–18-rasmlar)



15-rasm.



16-rasm.



17-rasm.



18-rasm.

XI BOB. SHAXS VA JAMOA PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH BO'YICHA TAVSIYALAR

11.1. Shaxs kartasi

1. Mazkur anketa to'ldirilgan kun _____
2. O'quvchining familiyasi va ismi _____
3. Yoshi _____ 4. Sinf _____
4. Sog'lig'i _____ (5)
5. Jismoniy chiniqishi va unga munosabat _____ (6)
6. Oilaviy sharoiti _____ (7)
7. Sinf jamoasi va tengdoshlari orasida tutgan o'ri _____ (8)
9. Qobiliyatining namoyon bo'lishi:
 - 9.1. Sportga oid qobiliyatlar _____
 - 9.2. Musiqaga oid qobiliyatlar _____
 - 9.3. Aktyorlik san'atiga oid qobiliyatlar _____
 - 9.4. Badiiy qobiliyatlar _____
 - 9.5. Texnikaga oid qobiliyatlar _____
 - 9.6. Matematikaga oid qobiliyatlar _____
 - 9.7. Adabiyotshunoslikka oid qobiliyatlar _____
 - 9.8. Ilmiy va intellektual qobiliyatlar _____
 - 9.9. Pedagogik qobiliyatlar _____
 - 9.10. Tashkilotchilik qobiliyatlari _____

10. Xarakterining umumiy sifatlari

- 10.1. G'oyaviy dunyoqarash _____ (10.1.)
- 10.2. Vatanparvarlik _____ (10.2.)
- 10.3. Qat'iylik _____ (10.3.)
- 10.4. Sofdillik _____ (10.4.)
- 10.5. Tashabbuskorlik _____ (10.5.)
- 10.6. Faollik _____ (10.6.)
- 10.7. Tashkilotchilik _____ (10.7.)
- 10.8. Jamoatchilik _____ (10.8.)
- 10.9. Hayotga ishonch bilan qaray olish _____ (10.9.)
- 10.10. Itifotlilik _____ (10.10.)

11. Shaxs yo'nalishi

- 11.1. Umumiy yo'nalishi: Darajasi _____
- 11.2. Kengligi _____
- 11.3. Barqarorligi _____
- 11.4. Mehnat va o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga munosabati _____
12. Psixologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari
 - 12.1. Emotsional qo'zg'alish va uning faoliyatiga ta'siri _____
 - 12.2. Diqqatlilik _____

12.3. Xotira samaradorligi _____

12.4. Tafakkur sifati _____

12.5. Ijodiy xayol _____

13. Shaxs tuzilishining biologik asosi

13.1. Temperament: Kuchi _____

13.2. Harakatchanligi _____

13.3. Muvozanatlashganligi _____

“Shaxs kartasi”ni to‘ldirish uchun ko‘rsatmalar bayoni: qaydnomadagi birinchidan to‘rtinchi savolgacha tushuntirish va baho talab qilinmaydi.

5. Sog‘lig‘ini baholash.

5 – a‘lo darajada; 4 – sog‘lig‘i asosan bezovta qilmaydi; 3 – ba‘zan tez o‘tadigan kasalliklarga chalilib turadi; 2 – ishlash va o‘qish qobiliyatiga ayrim asoratli kasalliklar ta‘sir qiladi; 1 – asoratli kasalliklari ko‘p va ular ishlash qobiliyatiga katta salbiy ta‘sir qiladi.

6. Jismoniy chiniqish va unga munosabati.

Quyidagicha baholanadi; 5 – sport bilan muntazam shug‘ullanadi; 4 – sport bilan shug‘ullanadi; 3 – sport bilan ba‘zan shug‘ullanadi; 2 – sport bilan juda kam shug‘ullanadi; 1 – sport bilan mutlaqo shug‘ullanmaydi.

7. Oilaviy sharoiti.

5 – har tomonlama barkamol; 4 – barkamol, hamisha ham qoniqtirmaydi; 3 – mavhum, aniq aytish qiyin (yaxshi ham bo‘lmaydi, yomon ham); 2 – tarbiyaviy iqlim o‘rtacha, ko‘ngilsiz holat uchrab turadi; 1 – salbiy vaziyatlar juda ko‘p uchrab turadi va bola tarbiyasiga salbiy ta‘sir qiladi.

8. Sinf jamoasi yoki tengdoshlari orasida tutgan o‘rni.

5 – sinfda eng yaxshi obro‘ga ega. Hamma tengdoshlari uni hurmat qiladi. Sinfda ijobiy lider hisoblanadi; 4 – tengdoshlari orasida yaxshi obro‘ga ega; 3 – jamoada o‘rtacha mavqega ega; 2 – ba‘zi tengdoshlari bilan hamisha janjallashib yuradi; 1 – ko‘pchilik tengdoshlari bilan til topisha olmaydi.

9. Shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli egallashi, shuningdek, uni ijobiy ravishda amalga oshirishning shartlari hisoblangan xususiyatlariga qobiliyat deyiladi. Kishi qobiliyatlari ikki asosiy turga: maxsus qobiliyatlar va umumiy qobiliyatlarga bo‘linadi. Kasbiy faoliyatning faqat ayrim turlariga (masalan, musiqa, matematika, sport va boshqalar) namoyon bo‘ladigan qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlar

deb aytadilar. Intellektual qobiliyatlar (ziyraklilik va topqirlik diqqatning taqsimlanishi, biror mavzuni tez esda qoldirish, aqlning o'tkirligi va boshqalar) umumiy qobiliyatlarga misol bo'ladi.

O'quvchida mazkur sifatlarning bor-yo'qligi va qay darajada namoyon bo'lishiga qarab ko'rsatilgan har bir yo'nalishga (9.1; 9.2; 9.3 va hokazo) quyidagicha baho berish mumkin;

5 – mazkur sohaga oid qobiliyatlarning yaqqol namoyon bo'lishi; 4 – qobiliyatlarning qisman bo'lsada ifodalanishi bilan boshqalardan ajralib turishi; 3 – mazkur sohaga oid qobiliyatning yo'qligi, 2 – malakalarning yetarli emasligi; 1 – mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyatsizlik va qiziqishlarining yo'qligi.

10. Xarakterning umumiy sifatlari.

Xarakter shaxsning hayoti jarayonida tarkib topgan intellektual, emotsional va irodaviy xususiyatlari yo'nalishining yig'indisidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, xarakter – bu shaxsning aniq hayot sharoitlari ta'sirida vujudga kelgan muayyan xulq tarzidir. Kishining xarakterida, odatda, avvalo shaxs xulqining hamma tomonlarida iz qoldiradigan ba'zi bir xilma-xil tartibda birga qo'shilib keladigan umumiy xislatlar ajralib qat'iyiligi va kuchi bunday xislatlar qatoriga tegishlidir. Masalan, xarakterning juda kuchli bo'lishi bilan birgalikda uning bir tomonlama va tor ekanligi yoki yetarlicha barqaror bo'lmagan to'liqligini ham uchratish mumkin.

O'quvchi faoliyatida namoyon bo'luvchi (shaxs kartasida ko'rsatilgan) 10 ta xarakter sifatida quyidagicha baho qo'yish talab qilinadi:

5 – mazkur sifat to'liq va barqaror namoyon bo'ladi; 4 – mazkur sifat tez-tez namoyon bo'lib turadi; 3 – mazkur sifat ba'zida namoyon bo'ladi; 2 – mazkur sifati o'quvchi xulq-atvorida ifodalanishi noma'lum; 1 – mazkur sifat hali shakllanmagan va xulqida ifodalanmagan.

11. O'quvchining shaxs sifatidagi yo'nalishi.

Shaxsning yo'nalish-ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ishtiyoqi, ideallari yo'nalishining mazmunini tashkil etadi. Xuddi mana shular kishining borliqqa, ijtimoiy hamda boshqa kishilarga, shaxs sifatida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari xususiyatini belgilaydi. Shaxs yo'nalishini belgilashda, avvalo, o'quvchining o'z hayotida qanday maqsadlarga erishishni eng yuqori va muhim deb hisoblashi, qiziqishlar ko'lami kasb tanlashga ongli munosabati haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lish talab qilinadi.

Baholash tartibi quyidagicha:

11.1. Umumiy yo'nalish darajasini baholash bo'yicha:

5 – e'tiqodi, qiziqishlari va ishtiyoqlarining yuksakligi hamda ularning jamiyat istiqbolini ifodalovchi axloqiy mezonlar bilan to'la mos tushishi; 4 – yuqori e'tiqodga ega bo'lish bilan birga ayrim qiziqishlarning axloqiy mezonlarga to'liq to'g'ri kelmasligi; 3 – qiziqishlarida ijobiy va salbiy sifatlarning tez-tez namoyon bo'lib turishi; 2 – beqaror qiziqishlar; 1 – axloqiy mezonlarga zid yo'nalishning yaqqol ifodalanishi.

11.2. Yo'nalish kengligi bo'yicha: 5 – kasbiy, adabiy, badiiy, musiqaviy; 4 – sport, texnika va boshqa shu kabilarga nisbatan qiziqishlarning ifodalanishi; 3 – ma'lum kasbga oid qiziqishlar va malakalarning ifodalanishi; 2 – faqat bir yo'nalishdagina qiziqishlarning namoyon bo'lishi; 1 – beqaror qiziqishlar.

11.3. Yo'nalish barqarorligi bo'yicha: 5 – yoshlikdayoq shakllangan qiziqishlar va yo'nalishlarning hali o'zgarmagan; 4 – yo'nalish hayotda bir marotabadan ortiq o'zgartirilmagan; 3 – yo'nalish ba'zan o'zgarib turadi; 2 – yo'nalish bir necha marotaba o'zgaradi; 1 – yo'nalish hamisha beqaror.

11.4. Mehnatga va o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga munosabat. 5 – mehnatsevar, irodali, o'z maqsadi yo'lida qat'iy, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga hamisha intiladi. O'z-o'ziga talabchan. Hamisha har bir ishga ijodiy va mustaqil yondasha oladi; 4 – mehnatsevar. Faqat aytilgan va ko'rsatib berilgan ishlarni astoydil bajaradi, ayrim hollardagina ishga ijodiy va mustaqil yondashishga intiladi; 3 – o'zi uchun oson va qiziqarli bo'lgan paytdagina o'quv va mehnat topshiriqlarini bajarishga harakat qiladi, mustaqil ishlay olmaydi; 2 – ishga va o'z-o'ziga loqayd; 1 – o'quv va mehnat topshiriqlarini rivojlantirishga sovuqqonlik bilan qaraydi.

12. Psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari.

12.1. Emotsional qo'zg'alish va uning faoliyatga ta'siri: 5 – har qanday emotsional harakatlarda va affektiv holatlarda psixik ijobiy harakat yo'nalishi qisman buziladi, bu esa faoliyatga ham ta'sir etadi; 3 – ijobiy va salbiy emotsional harakatlar tez-tez namoyon bo'lib turadi; 2 – psixik harakatlardagi emotsional buzilishlarni bartaraf etish uchun alohida kuch sarflash talab qilinadi; 1 – ifodalangan emotsional harakatning buzilishini to'xtatib bo'lmaydi. Bu esa faoliyatga ko'pincha salbiy ta'sir ko'rsatadi.

12.2. Diqqatlilik: 5 – bir vaqtning o'zida turli narsalarga diqqatini to'g'ri va samarali taqsimlay oladi. Ixtiyoriy diqqat ko'p hollarda bar-

qaror; 4 – diqqatni osonlik bilan tiklay oladi. Har qanday vaziyatda diqqatni boshqara oladi; 3 – diqqatni taqsimlash va yig‘ishda qiynaladi; 2 – bir vaqtning o‘zida faqat bitta narsagagina diqqat qarata oladi. Diqqatni to‘g‘ri va unumli taqsimlay olmaydi; 1 – diqqatni bir nuqtaga to‘play olmaydi.

12.3. Xotira samaradorligi; 5 – esda saqlab qolish va esga tushirish jarayoni narsa va hodisalarni uzoq muddatda esda saqlay oladi, mantiqiy xotirasi ancha ustun; 4 – har bir hodisani mexanik ravishda esda saqlaydi. Mexanik ravishda uzoq muddatda saqlay oladi; 3 – qisqa muddatda yaxshi esda saqlaydi, lekin tez unutadi, ixtiyorsiz xotira ustun; 2 – xotira tiplar jarayonlarida ayrim kamchiliklar mavjud; 1 – xotirasi nihoyatda zaif, ba‘zan parishonxotir.

12.4. Tafakkur sifati: 5 – konkret amaliy, konkret obrazli, mavhum tafakkurlar kuchli, narsa, hodisa va tushunchalarni osonlik bilan tahlil qila oladi, mazmunli hukm va xulosalar chiqara oladi; 4 – tafakkurning ayrim turlari yaxshi rivojlangan; 3 – narsa va hodisalar to‘g‘risida fikrlash va xulosalash jarayonida ma‘lum kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi; 1 – tafakkuri sezgilari va idrok darajasida, ya‘ni narsa va hodisalarni bevosita aks ettiradi, xolos. Fikrlash jarayoni nihoyatda bo‘sh.

12.5. Ijodiy xayol: 5 – xayolini boshqara oladi. Tafakkur orqali yangi-yangi obrazlarni o‘ylab topadi, mavhum narsalardan aniq narsalarni keltirib chiqara oladi. Faol va tasavvur xayol kuchli; 4 – mustaqil ravishda yangi obrazlar yarata oladi; 3 – faol va passiv xayol turlari tez-tez almashinib turadi; 2 – xayoldagi salbiy illatlarni boshqara olmaydi; 1 – real hayot va real imkoniyatlarga to‘g‘ri kelmaydigan xayollarga juda ko‘p beriladi.

13. Shaxs tuzilishining biologik asosi.

13.1. Asab jarayonlari xususiyatlarining kuchiga, ya‘ni asab tizimini kuchli qo‘zg‘ovchilariga me‘yoridan ortiq tormozlanishga uchramasdan, uzoq vaqt bardosh bera olish qobiliyati kiradi. Ushbu holat yorqin va hamisha namoyon bo‘lib turadigan kishilarga eng yuqori ball 5 yoki 4 ball qo‘yiladi. Asab faoliyati qo‘zg‘alishining o‘rtacha darajasida 3 ball nisbatan past darajada bo‘lishga esa 2 yoki 1 ball qo‘yilishi mumkin.

13.2. Asab jarayonlarining ikkinchi xususiyati – ularning harakatchanligi, ya‘ni asab tizimining, hayot sharoitlarining talabiga ko‘ra qo‘zg‘alish jarayoni bilan aksincha, tormozlanishni qo‘zg‘alish bilan tez almashtira olishdir. Bunda insonning epchilligi, ishbilarmonligi, har qanday vaziyatda sharoit talabiga tez moslasha olishi ko‘zda tutiladi.

Jarayonni baholashda ham eng yuqorisi 5–4 ball va quyisi 2–1 ball hisoblanadi.

13.3. Asab jarayonlarining uchinchi xususiyati qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining muvozanatliligi (barqarorligi yoki o‘zgarmasligi)dir. Bunda qo‘zg‘alish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham teng kuchga ega bo‘ladi. Narsa va buyumlar, voqea va tormozlanish namoyon bo‘ladi. Eng yuqori baho 5 ball, eng quyi baho 2 yoki 1 ball hisoblanadi.

11.2. Sinf jamoasini psixologik o‘rganish

Sinf jamoasini psixologik jihatdan o‘rganish dasturi

Sinf jamoasiga psixologik tavsifnoma yozishda quyidagi rejadani foydalanish tavsiya etiladi:

1. Sinf jamoasi to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar va uni shakllantirish tarixi (o‘quvchilar soni, ulardan o‘g‘il va qiz bolalar, yoshi, ikkinchi yilga qolganlar soni, boshqa jamoalar bilan munosabati, sinf rahbarlarining almashinishi va h.k.).

2. Sinf jamoasining rahbariyati va faollari: sinfningsh tashkiliy o‘zagi uning faollari: sinf boshi va uning ishlari, sinf faollari tavsifnomasi (ularning g‘oyaviy saviyasi, tashabbuskorligi, mustaqilligi va qat‘iyatliligi, o‘ziga va boshqalarga talabchanligi, o‘rtoqlar o‘rtasida obro‘ va u nimalarga asoslangan, tashkilotchilik qobiliyati, ayrim o‘rtoqlariga g‘amxo‘rliqi, jamoatchilik fikriga munosabati).

Jamoada norasmiy “yetakchilar”ning mavjudligi, ularning sinfga ta’sir ko‘rsatish xususiyati, uning sabablari, sinf faollarining “yetakchi”larga munosabati; “ezilgan”larning mavjudligi, o‘rtoqlarning ularga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan yo‘llari.

Jamoa ichida o‘zaro munosabatlar, jipslik darajasi, guruhlarga bo‘linish mavjudligi yoki yo‘qligi, ularning ichki negizi va sinf ishlaridan manfaatdorlik darajasi, o‘zaro talabchanlik, mehribonlik, do‘stona g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam va hurmat-ehtiroam ko‘rsatish:

Jamoada tanqid va o‘z-o‘ziga tanqid:

O‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos yosh psixologik xususiyatlari. Jamoaning ayrim a‘zolari o‘rtasidagi o‘rtoqlik va do‘stlikning namoyon bo‘lishi uning ichki negizi, jamoadagi ayrim a‘zolarining hissiy jihatdan “yaxshiligi” va “yomonligi”.

Sinf rahbarlarining shaxsi (ma'lumot darajasi, umumiy madaniyati, tashkilotchilik qobiliyatlari, o'quvchilar ruhiyatini, qiziqishlarini bilish, o'quvchilar o'rtasida obro'si).

3. Jamoa faoliyatining mazmuni va xususiyati: o'quv faoliyati (o'zlashtirish va intizomga tavsifnoma) ayrim o'quvchilarning o'zlashtirishi ustidan nazorat o'rnatilganligi, ularga sinf rahbarining, sinf faollarining talablari va o'quv faoliyati jarayoni (uyga berilgan topshiriqlarning bajarilishi), o'quv ishlaridagi salbiy jihatlar (shpargalkalar, aytib berishlar, ko'chirib yozish va h.k.).

Jamoaning o'quv mashg'ulotlaridan tashqari hayoti, zamonaviy siyosiy voqealar, musiqa, san'at, adabiyot, sport, kolleksiyalar to'plash va h.k.larga qiziqishning namoyon bo'lish shakllari (kitobxonlar konferensiyasi, teatr, kinoga borish, ko'rilgan narsalarni muhokama qilish, munozaralar o'tkazish va h.k.), sinf jamoasining umummaktab hayotida ishtirok etishi.

Ijtimoiy foydali mehnat va uning jamoaning sinfdan tashqari hayotida tutgan o'rni, mehnat turlari va ularning bajarilish xarakteri, ongli intizomning namoyon bo'lishi.

4. Umumiy xulosalar: Jamoaning rivojlanish darajasi. Ijobiy psixologik muhitning mavjudligi. Umumiy hissiy vaziyat. Jamoa hayotini tashkil etishdagi, o'zaro munosabatlardagi asosiy kamchiliklari.

Sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatni o'rganishda "sotsiometriya" test metodining ishlatilishi tavsiya etiladi.

Sotsiometiriyani o'tkazishdan avval 3 ta savol bilan murojaat qilinadi. Savollar 3 yo'nalishda tanlab olinadi. Intellektual, emotsional va tashkilotchilik xususiyatlarini qamrab olgan savollar tanlanadi.

Masalan:

1. Kim bilan imtihonga tayyorlanishni xohlar edingiz?

2. Turistik sayohatga boradigan bo'lib qolinsa, chodirda kim bilan yashashni xohlar edingiz?

3. Sizga kecha o'tkazish topshirig'i berilsa, kimning sizga hamroh bo'lishini xohlar edingiz?

O'quvchilarga dastavval kimni tanlagan bo'lsa o'sha o'quvchining familiyasini yozish topshiriladi. U bilan bo'lish imkoni bo'lmay qolsa, yana kimni tanlashini yozish so'raladi. Shu tartibda har bir savolga 3 ta o'quvchining familiyasi ko'rsatiladi. Javoblarni tahlil qilishda sotsiometrik matritsa tuziladi (1-jadval). Bunda guruhdagi sheriklararo

munosabatlar aks ettiriladi. Sheriklik o‘zaro tanlashlar bilan belgilanadi va matritsada doira ichiga olinadi.

Quyida keltirilgan sotsiometrik matritsani (1-jadval) to‘ldirish uchun dastavval guruhning tadqiqotda ishtirok etgan a‘zolarining ro‘yxati alfavit bo‘yicha yozib olinadi. Tadqiqotda necha kishi ishtirok etgan bo‘lsa jadvalda familiyalardan so‘ng shuncha ustun qoldiriladi va ularga ham tartib bo‘yicha raqamlar qo‘yib chiqiladi.

Shundan so‘ng sotsiometrik kartochka bo‘yicha sinaluvchi kimlarni tanlagan bo‘lsa, kartochkalar bo‘yicha shu kartochka egasining familiyasi yozilgan qatorga u tanlagan guruh a‘zosining ro‘yxatdagi tartib raqami aks ettirilgan ustun ostiga “+” belgisi qo‘yib chiqiladi. Hamma sotsiometrik kartochkalardagi tanlashlar matritsada belgilab bo‘linganidan so‘ng har bir ustun bo‘yicha “+”lar yig‘indisi hisoblab chiqilib, jadvalning pastki qismidagi “tanlanishlar soni” deb ko‘rsatilgan qatorga yozib qo‘yiladi.

O‘zaro tanlanishlar sinaluvchilar bir-birlarini o‘zaro tanlashlari bilan belgilanadi. Matritsada o‘zaro tanlanishlarni ko‘rsatuvchi “+” belgilari doira ichiga olib qo‘yiladi. Ustunlar bo‘yicha doira ichiga olingan miqdori matritsadagi (eng pastki qatoridagi) “O‘zaro tanlanishlar soni” – deb yozilgan qatorga yoziladi.

“Tanlanishlar soni” qatorida nollarning bo‘lishi o‘rganilgan guruhda psixologik iqlimning sog‘lom emasligidan darak beradi, chunki bu hol guruhning shu a‘zosi guruhda yakkalanib qolganligini bildiradi.

T/r	Familiyasi, ismi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1.	Adambayeva Zamira															
2.																
3.																
4.																
5.																
6.																
7.																
8.																
9.																
10.																
11.																
12.																
13.																
14.																
15.																

Guruhdagi shaxslararo munosabatlar xususiyatini yanada yaqinroq aks ettirish uchun sotsiogramma tuziladi (1-shakl). Buning uchun kattaroq hajmdagi qog'ozga tekis va ko'ndalang chiziqlar chizib olinadi, unda ko'ndalang chiziqlar soni 1-matritsadagi "Tanlanishlar soni" qatorida qayd etilgan eng katta sondan bitta ortiqcha bo'lishi kerak. Bizning misolimizda eng katta son 6 (1 jadval), shuning uchun sotsiogramma tuzishda 7 ta ko'ndalang chiziq chiziladi. (1 ta ortiqcha chiziqning chizilishi bironta ham tanlanish olmagan guruh a'zolari uchun, chunki ularning tanlanish soni 0 deb ko'rsatiladi).

11.3. Darsni psixologik jihatdan tahlil qilish

Darsni psixologik jihatdan tahlil qilishda quyidagi namunaviy sxemadan foydalanish tavsiya etiladi.

I. Darsni aniq maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda uning tuzilishiga psixologik baho berish.

1. Darsning mavzusi, maqsad va vazifasi.

2. Darsning tuzilishi va uning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi (ta'lim jarayonining mohiyati, darsning bog'lanishi, maqsadi, tiplari va tushuntiruvchi materialning nisbati).

II. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish.


1. O'quv materialining sifati qanday (tasvirlovchi yoki tushuntiruvchi, ko'rgazmali. Aniqlik, mavhumlik, umumiylik darajasi).

2. O'quvchi faoliyatining qanday tomonlarini faollashtirish o'quv axborotining idrok etishni talab qiladi (obrazli yoki og'zaki, mantiqiy,

Sotsiogramma (1-shakl)

Ilova: Δ – o'g'il bolalar;
 \circ – qiz bolalar;
 uchburchak va aylana ichidagi raqamlar guruhning shu a'zosi guruh ro'yxatida nechanchi o'rinda turishini bildiradi;

— bir tomonlama tanlash; — o'zaro tanlanishlar.



xotirani, xayoliy tafakkurni, xayolni) u qanday his-tuyg'ularni uyg'otadi.

3. Mazkur material o'quvchilar bilish faoliyatining yosh psixologik xususiyatlariga, ularning hayoti, tajribasiga va bilimlari qay darajada mos keladi?

4. O'qituvchi qanday qilib murakkab o'quv materialini mazkur yoshdagi o'quvchilarning idrok etish uchun qulay, tushunarli va qiziqarli qila oladi (bayon qilishning ravshanligi va oddiyligi, yorqin misollar, o'xshatmalar, qiyoslashning mavjudligi, ko'rgazmali vositalardan foydalanish, hayot bilan bog'lash)?

III. Darsda o'quvchilar bilish faoliyatining namoyon bo'lishi va uni boshqarish

1. Diqqatni tashkil etish yo'llari.

1. Darsdagi diqqatning turlari va ularning o'quvchilarda namoyon bo'lishi. O'quvchilar diqqatini bir ishdan ikkinchi ishga ko'chirish usullari.

2. O'qituvchi taklif etgan qanday faoliyatda o'quvchilar diqqatining bo'linishi (taqsimlanishi) talab qilinadi va ular qanday qilib uddasidan chiqadilar?

2. Idrokni tashkil etish.

Nimalar o'quvchining obykti hisoblanadi (o'qituvchining nutqi, darslik, matn, ko'rgazmali vositalar)? Idrok etish materiallarining sifati.

3. Xotirani faollashtirish va rivojlantirish.

Darsning turli bosqichlarida o'quvchilar xotirasiga murojaat qilish va u qanday maqsadda amalga oshiriladi? Darsda xotiraning qanday maqsadda amalga oshirilishi. Darsda xotiraning qanday turlari namoyon bo'ladi (ko'rgazmali, obrazli, og'zaki-mantiq, hissiy, harakat, mexanik turlari)?

O'qituvchi materialni yaxshi eslab qolish uchun qanday usullardan foydalandi (eslab qolish, maqsadni qo'yish, materialga mantiqiy ishlov berish, takrorlash va h.k.)?

O'quvchilarda xotiraning qanday turi namoyon bo'ladi (eslab qolish, qayta tushuntirish, esda saqlash, unutish)?

4. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytirish.

O'qituvchi o'quvchilarda qanday ilmiy tushunchani shakllantiradi? Bunda ko'rgazmali vositalardan qanday foydalanadi? U tushunchalar o'rtasida qanday aloqalar o'rnatadi va qanday fikr-mulohazalarni ishlab chiqadi? Qanday yo'l bilan (induktiv, deduktiv) o'quvchilarni ma'lum

tushunchalar va fikrlarni o'zlashtirishga olib keldi? O'qituvchi o'quvchilarda mazkur tushunchalarni o'zlashtirish ehtiyojini vujudga keltirdimi? O'quvchilar darsda qanday o'zlashtirish darajalarini ko'rsatdilar va tushunchalarni belgilashda yo'l qo'ygan kamchiliklari nimadan iborat? O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini qanday faollashtiradi? Dars qanday muammoli tuzilishi bilan yaratiladi? O'quvchilar javoblarni ishlashda fahmlilik ko'rsatdilarimi? Muammoning yechimini topish uchun qanday aniq fikrlash harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar?

Zarur bilim va malakalarining mavjudligi, o'quvchilar mulohazalarining mantiqiyligi, ularning harakatlari nimalardan iborat?

5. Darsda o'quvchilarning xotira, tasavvurlari, ijodiy xayoli faollashdimi?

6. O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish o'qituvchi tomonidan qanday amalga oshiriladi?

IV. O'quvchilarda qayta aloqaning tashkil etilishi

1. O'qituvchi darsning qaysi bosqichlarida (so'rash, yangi materialni o'tish, mustahkamlashda) o'quvchilarga qanday maqsadlar bilan murojaat qiladi?

2. Teskari aloqa faqat nazorat qiluvchi emas, ta'lim beruvchilik xususiyatga ham egami?

3. O'quvchilar olgan baholariga qanday munosabatda bo'ladilar?

4. O'quvchilar javoblarining tabiati o'qituvchining bundan keyingi xatti-harakatiga ta'sir qiladimi?

V. Darsda o'qituvchi shaxsi

1. O'qituvchi shaxsining tashqi qiyofasi, nutqi, o'zini tutishi, muoamalada bo'lish tabiati. Bolalarning unga munosabati. Darsning xususiy muhiti.

2. O'qituvchi qo'yadigan talablarning o'quvchilarga ta'siri.

VI. Darsning natijalari.

Darsning maqsadiga erishildimi? Bu holda qanday psixologik ko'rsatkichga qarab xulosa chiqarish mumkin? Dars o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarining rivojlanishi uchun nima berdi?

11.4. O'quvchilarda psixik jarayonlarni o'rganish

1. Sezgilarning rivojlanishida mashqlarning roli.

Ko'rsatma: O'quvchilarga oq qog'oz betiga uzunligi 18 sm lik 3 ta gorizontaal chiziq chizish taklif etiladi. So'ng uchala chiziq ko'z bilan chamalab teng ikkiga bo'linadi. Hosil bo'lgan bo'laklarni lineyka yordamida o'lchab teng yoki teng emasligi aniqlanadi. Ulardagi og'ish sm bilan hisoblab chiqiladi.

O'lchov farqlari jamlanadi, o'nga taqsimlanadi.

Ko'z bilan o'lchash (qobiliyati past o'quvchi ajratiladi. 5 kun davomida chizikli ko'z bilan chamalab berish mashqi 10 marta takrorlanadi hamda mashg'ulot qaytadan o'tkaziladi).

O'tkazilgan tajriba	Topshiriq	Natija	Og'ish farqi (millimetr)	Izoh
1-tajriba				
2-tajriba				

2. Diqqatning ko'lamini aniqlash.

Ko'rsatma: O'quvchilarga a) bir-biriga bog'lanmagan harflar;

b) bir-biriga bog'lanmagan raqamlar;

d) turli rangdagi turli shakllar;

e) bir-biriga bog'langan so'zlar

10 sekund ko'rsatiladi. Kartochka yashirilgandan so'ng o'quvchi kartochkalarda nimalarni ko'rganligini yozib boradi. Natija quyidagicha tahlil etiladi:

Tekshiriluvchining ismi, familiyasi _____

Yoshi _____

T/r	Topshiriq	Javob	Natijada to'g'ri baj. ish. soni.	Izoh
1	<i>Bir-biriga bog'lanmagan so'zlar</i>			
1	RPT			
2	MGRZ			

3	PKTSCHN			
4	NPSRTSN			
2.	<i>Bir-biriga bog'lanmagan raqamlar</i>			
1)	2 5 4			
2)	0 3 7 9			
3)	4 7 5 1 6			
4)	9 4 2 7 8 3			
5)	2 8 4 9 7 5 3			
3.	<i>Turli rangli turli shakllar</i>			
1)				
2)				
3)				
4)				
5)				
4.	<i>Bir-biriga bog'langan so'zlar</i>			
1)	Avtobus			
2)	Avtomobil			
3)	Avtotrelor			
4)	Maktab			

3. Idrok.

Idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Maqsad: Bilish faoliyatida idrokning roli.

Material: mayda predmetlar to'plami (rezina, bo'r, paxta va h.k.)

Ko'rsatma: Sinaluvchi o'quvchi auditoriya tomonga qarab tura-di, ko'zlarini yumadi, kaftni pastga qarab uzatadi va boshini qara-ma-qarshi tomonga uzatilgan qo'li ko'rinmaydigan qilib buriladi.

Birinchi bosqichda eksperiment o'tkazuvchi qo'lidagi predmetni sinaluvchi kishidan bo'lak hamma ko'radigan tarzda namoyish qiladi. Shundan keyin u predmetni sinaluvchi kishi uzatgan qo'lining orqa tomoniga qo'yadi hamda undan predmet to'g'risida nima bilsa, hammasini aytish so'raladi. Predmet sekin, ehtiyotkorlik bilan olinadi, so'ng keyingi predmet qo'lining orqa tomoniga ketma-ket qo'yiladi.

Ikkinchi bosqichda predmet qo'lining kaftiga qo'yiladi. Sinaluvchi qo'li va barmoqlari bilan predmetni ushlamasligi kerak, shu holda predmet nima ekanligini aytib berishi lozim.

Uchinchi bosqichda sinaluvchiga o'z kaftida turgan predmetni ushlab ko'rish topshiriladi. Sinaluvchi mazkur predmet bilan ish boshlanishi-dan oldin bayonnoma yozuvi, birinchi va ikkinchi bosqichlarda

sinaluvchi bergan ma'lumotlar o'qib beriladi.

Tajriba quyidagicha sxemada to'ldiriladi:

Tekshiruvchining ismi, familiyasi _____

Yoshi _____

<i>Predmet raqami</i>	<i>Predmet nomi</i>	<i>Sinaluvchining tasavvurlari</i>		
		<i>1-bosqich</i>	<i>2-bosqich</i>	<i>3-bosqich</i>
1.				
2.				
3.				
4.				

4. Xotira.

Maqsad: Matnni strukturaga solishning esda qoldirishga ta'siri.

Material: Esda qoldirish uchun matnlar.

Bo'ri katta itga juda o'xshaydi. Bo'ri yunglari uzun-uzun va qattiq bo'ladi. Ko'zlari g'ilayga o'xshash, ikki tomonga qarab turadi. Dumi pastga osilib yotadi.

Bo'rilar o'rmonlarda, jarliklarda yashaydilar. Goho cho'llarda ham uchraydi. Kuzda butun bir oila bo'lib yashaydilar, qish kunlari ular ko'pincha to'da-to'da bo'lib yuradilar. Bo'ri yirik uy hayvonlariga hujum qiladi. U mayda jonivorlarni va hatto hasharotlarni ham yeb qorin to'yg'izadi. Yozda bo'ri o'ziga ko'p ovqat topadi, qishda u ba'zi qishloqlarga kelib uy hayvonlarini bo'g'izlab ketadi. Bo'rilarga qarshi ovchilar guruhi kurash olib boradi. Ular bo'rilarni qidirib ovlaydilar. Tutish uchun xandaqlar qazib, qopqonlar qo'yadilar. Qopqonga ilingan va tutilgan bo'rilar o'ldiriladi.

Tulki (gruppalashtirilmagan tekst)

Tulkining bo'yi kichikroq kuchukdek keladi. U o'rmonda, qiradirlarda yashaydi. Tulki mayda hayvonlarni tutib yeydi. Tulki bolalari aprel oylarida tug'iladi. Tulkining tumshug'i uzun bo'ladi. Tulki dushmanlari kelayotganini sezib, o'z bolalarini to'plab boshqa joyga ketadi. Tulkining dumi uzun, mayin bo'ladi. Tulki ko'pincha boshqa yovvoyi hayvonlar tashlab ketgan bo'sh inlarda yashaydi, ba'zan uy parrandalariga hujum qiladi. Tulkining yangi tug'ilgan bolalari bir oygacha inidan chiqmaydi. Tulkining mo'ynasi qalin, yumshoq va mayin bo'ladi. Ba'zan tulki tosh uyumlari orasida yoki butalar ichidagi

chuqurlarda yashaydi. Tulki nok, olxo'ri yeyishni xush ko'radi. Tulki bolalariga ovqatni ularning onasi olib keladi.

Ko'rsatma: O'quvchilarga birinchi hikoya o'qib beriladi. Hikoyani tinglayotganda ular hech narsani yozmasliklari kerak. Birinchi hikoya o'qib bo'lingach, sinaluvchilar eslarida qolgan hamma narsani yozib chiqadilar.

So'ngra ikkinchi hikoyani ham tinglaydilar, xuddi shuningdek uni ham eslarida qolganicha yozib chiqadilar.

T/r	O'quvchilar f.i.sh.	1-hikoya		2-hikoya	
		Yozilgan gap miqdori	Yozilgan so'z miqdori	Yozilgan gaplar miqdori	Yozilgan so'zlar miqdori

Amaliyotchi psixolog xulosasi _____

5. Tafakkur.

Maqsad: Umumiyashtirish jarayonining xarakteristikasi.

Ko'rsatma: Har bir qatordagi so'zlarni o'qib, "ortiqcha" so'zni o'chirib tashlash va qolgan so'zlarni nima birlashtirishini aytib berish kerak.

1. Kuchuk, sigir, qo'y, los, mushuk.

Kuchuk, sigir, qo'y, los, ot.

Javob: birinchi qatordagi "ortiqcha" so'z – los, qolgan so'zlar uy hayvonlarining nomidir, ikkinchi qatorda esa «ortiqcha» so'z – kuchuk, qolgan so'zlar tuyoqli hayvonlarning nomidir.

2. Futbol, xokkey, qo'l to'pi, basketbol, badminton.

Javob: Birinchi qatorda "ortiqcha" so'z – basketbol, chunki shundan boshqa o'yinlarda darvozabon bo'ladi.

O'quvchi familiyasi, ismi, sharifi _____

Yoshi _____

1-topshiriq uchun berilgan javoblar			2-topshiriq uchun berilgan javoblar		
1-qatordagi "ortiqcha" so'z	2-qatordagi "ortiqcha" so'z	izoh	1-qatordagi "ortiqcha" so'z	2-qatordagi "ortiqcha" so'z	izoh

6. Xayol.

Maqsad: Ijodiy xayolning xususiyatlari. So'z orqali ifodalangan ijodiy xayolning ba'zi bir xususiyatlarini aniqlash.

Ko'rsatma: O'quvchilar hikoyaning boshlanish qismini tinglaydilar. So'ng tugallanmagan hikoyani davom ettirish so'raladi, bunga 10 minut vaqt beriladi.

“Qosh qoraydi. Yomg'ir zerikarli darajada maydalanib yog'a boshladi: avtobus bekatida bir soyabon ostida ikki qiz turishardi. Ular allanimalar haqida sekin-sekin pichirlashib gaplashardi. Shu payt birdan...».

Xulosa: Hikoya tugallanmaganligi, obrazlarning yorqinligi, originalligi, sujetning odatdan tashqari yo'nalishda qurilishi, yakunining kutilmagan holda qiziqarli bo'lishi baholanadi.

11.4. O'quvchi shaxsi va jamoaga tavsifnoma yozish sxemasi

O'quvchi shaxsini tahlil qilishning asosiy jihatlari quyidagi reja asosida berilishi mumkin. Bu rejadan tavsifnomaga material to'plashda va yozishda foydalanish tavsiya etiladi.

I. Umumiy ma'lumotlar.

O'quvchining familiyasi, ismi, tug'ilgan yili, o'qiydigan sinfi, umumiy jismoniy rivojlanishi, sog'lig'i.

II. Oiladagi o'zaro munosabatlari.

Oiladagi hayot va turmush shart-sharoitlari.

III. Jamoa bilan o'zaro munosabatlar va maktabga munosabat.

IV. Jamoadagi ahvoli (hamma uni yaxshi ko'radimi, obro'-e'tiborga sazovormi, bu nima bilan belgilanadi).

V. Qobiliyatining namoyon bo'lishi.

VI. Xarakterining umumiy sifatleri.

VII. Shaxs yoʻnalishi.

VIII. Psixik jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlari.

IX. Shaxs tuzilishining biologik asosi.

X. Oʻqish.

1. Oʻzlashtirish (asosiy baholari, turli fanlardan bir xilda oʻzlashtiradimi?) bilim darajasi.

2. Bilim doirasi, koʻp oʻqishi.

XI. Intizomlilik.

1. Xulq-atvoriga umumiy tavsifnoma (oʻzini osoyishta, bosiq tutadi yoki ortiqcha harakatchan, tinib-tinchimas).

Sinf jamoasiga yoziladigan psixologik tavsifnoma sxemasi

1. Jamoa sifatida maktabga xarakteristika, tarbiya, intizom, davomatning darajasi, maktabning jamoatchilik bilan aloqasi, maktabning sinf jamoasiga taʼsiri.

2. Sinf jamoasining strukturasi, sinf faollari, yetakchisi, jamoatchi oʻquvchilar.

3. Sinf jamoasining oʻquv faoliyatini tashkil qilishga umumiy xarakteristika.

4. Sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlarga qatnashishi.

5. Sinfda intizom darajasi. Oʻquvchilarning xulqi normalari.

6. Ijtimoiy maqsadlari, oʻquvchilarning ehtiyojlari jamoaning birdamligi jamoa fikrlari mazmuni.

7. Jamoa ijtimoiy psixologik hodisalar. Anʼanalar, umumiy kayfiyatlar oʻquvchilar kimga va nimaga taqlid qiladilar.

8. Jamoada musobaqa ruhi. Jamoa taʼsiri, ishontirish faktlarini analiz qilish, ular sotsial psixologik hodisa sifatida jamoa hayotiga salbiy taʼsirlari. Yolgʻon gaplar, vahimalar, koʻra bilmaslik.

9. Jamoa aʼzolari sifatida ayrim oʻquvchilarga xarakteristika berish, sinfdagi oʻquvchilarning tutgan oʻrni, sotsial rollarini analiz qilish va ayrim oʻquvchilarning jamoada koʻrsatgan taʼsiri.

10. Sinf jamoasining yosh psixologik xususiyatlari.

11. Jamoada shaxslararo munosabatlar psixologiyasi.

12. Sinf jamoasiga sotsial muhit, ota-onalar va jamoatchilikning taʼsiri.

13. Oʻrgangan materiallaringizni umumlatirishingizga koʻra qaysi xususiyatlarni jamoaning oʻziga xos xususiyati deb bilasiz?

14. Oʻquvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, xarakterining

jamoachilik xislatlarini singdirish uchun amaliyotchi talaba qanday ishlar olib borishi kerak?

15. Sinf jamoasi bilan ishlashni yaxshilash uchun amaliyotchi talabaga taklif va mulohazalar (o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar, tashkilot manzili).

4.5. Darsning psixologik tahlili sxemasi

1. Darsning mavzusi, maqsad va vazifalari

2. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish

3. Darsda o'quvchilar bilish faoliyatini bilish va uni boshqarish

4. O'quvchilar bilan qayta aloqani tashkil etish

5. Darsda o'qituvchi shaxsi

6. Darsning natijalari

ILOVA. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYAGA OID IZOHLI LUG‘AT

PSIXOLOGIYA – odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg‘u-hissiyot va boshqa psixik hodisalar orqali aks ettirish jarayonini o‘rganadigan fan.

PSIXOLOGIYANING PREDMETI

1. **FAOLLIK** – tirik materiyaning umumiy xususiyati bo‘lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Psixik faollik bu o‘zaro ta’sir ta’sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko‘rsatish bilan xarakterlanadi.

2. **HARAKAT AKTSEPTORI** – markaziy nerv sistemasining bo‘ladigan harakatlar natijasini belgilab beruvchi neyrodinamik modelidir. Bu model harakatlarning asosiy xarakteristikasini o‘z ichiga olib, harakatlarni boshqarishda ishtirok etadi (P.K. ANOXIN).

3. **ANALIZATOR** – murakkab neyrofiziologik tizim bo‘lib, odamga ta’sir etuvchi qo‘zg‘alishlarni idrok etish va uni tahlil qilishni ta’minlaydi. Analizator retseptor, nerv yo‘llari, miya bilan bog‘lanadigan qismi va miyaning maxsus spetsifik bo‘limlarini o‘z ichiga oladi (I.P. Pavlod).

4. **ANIMIZM** – ibtidoiy jamoa davrida hukm surgan va tabiiy obyektlarni “ruh” kuchiga ega deb e’tirof etadigan oqim.

5. **ASSOTSIATSIYA** – psixik hodisalarning o‘zaro bog‘lanishi bo‘lib, ma’lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik, o‘xshashlik, qarama-qarshilik va boshqa assotsiatsiyalar).

6. **ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA** – XVII–XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiya fani yo‘nalishi bo‘lib, ko‘proq Angliyada tarqalgan. Bu yo‘nalishning asosiy tushuntirish yo‘llari tariqasida assotsiatsiyadan foydalaniladi.

7. **AFFERENT NERV** – nerv impulslarini sezgi a’zolaridan markaziy nerv tizimiga eltuvchi nerv tolasi (sezuvchan nerv).

8. **AFFERENTATSIYA** – periferik nerv uchlaridagi nerv qo‘zg‘alishlarini bosh miya qobig‘idagi markaziy neyronlarga yetkazib berish.

9. **SHARTSIZ REFLEKS** – psixikaning I.M. Sechenov va I.P. Pavlov tomonidan kashf etilgan reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi bo‘lib, har qanday ta’sirga instinktiv javob berishdan iborat tutma refleksdir (javob berish).

10. **BIXEVIORIZM** – XX asr boshlarida AQSHda maydonga kelgan psixologiyaning mexanik yo‘nalishi bo‘lib, psixologiyani o‘rganish predmeti qilib faqat odamning xulq-atvori olingan. Ular faqat odamning

tashqi ta'sirlar natijasida paydo bo'lgan xatti-harakatlari, xulq-atvorini o'rganish mumkin deb hisoblaydilar. Bunda ongning roli inkor qilinadi. Bu yo'nalishlarning asoschilari D. Uotson, E. Torndayk.

11. **BYURTSBURG MAKTABI** – XX asr boshlaridagi nemis psixologlari birlashmasi bo'lib (K. Byuler, N. Ax, O. Kyulpe va boshqalar), ular birinchi bo'lib maxsus eksperimental tadqiqotning predmeti qilib tafakkurni o'rgandilar.

12. **GESHTALTPSIXOLOGIYA** – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo'lib, XX asrning 30-yillarida Germaniyada paydo bo'lgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligi prinsipidan foydalanadilar (“Geshtaltlar”). Asoschilari: M. Vertxeymer, D. Kyoler, N. Koffka.

13. **GIPPOKAMP** – bosh miya qobig'ining quyi qismida joylashgan chiziq bo'lib, orientatsiya reaksiyasi va o'rganishning fiziologik mexanizmlarida ishtirok etadi.

14. **DINAMIK STEREOTIP** – hayot jarayonida paydo bo'lgan shartli reflektor bog'lanishlarning nisbatan barqaror sistemasidir.

15. **DUALIZM** – borliq ham moddiy, ham ruhiy bo'lgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy ta'limot bo'lib, psixofizik paralellizm konseptiyasining asosidir.

16. **INTROSPEKTIV PSIXOLOGIYA** – introspeksiyaning – tadqiqot asosiy metodi deb hisoblovchi psixologik yo'nalishlar majmuidir.

17. **INTROSPEKTIV METOD** – bu kishining o'z-o'zini kuzatishga asoslangan psixologiya metodidir.

18. **LABILLIK** – nerv hujayralarining tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish holatiga va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish qobiliyatidir.

19. **QAYTARMA ALOQA** – barcha murakkab tizimlardan boshqarish va harakatlarni tartibga solib turishning muhim prinsipi bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, boshqaruvchi axborot organlariga harakat natijalari to'g'risida xabar kelganda bajaruvchi organlarga buyruq berish shakllanadi.

20. **ORIENTATSIYA REFLEKSI** – shartsiz refleksning bir turi bo'lib, har har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'sirga birinchi bo'lib javob berish reaksiyasidir.

21. **PSIXIKA** – yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)ning obyektiv borliqni aks ettirish va shuning asosida shakllangan psixik obrazlar orqali maqsadga muvofiq subyektning faoliyati va uning xatti-harakatlarini boshqarishdan iboratdir.

22. **PARAPSIXOLOGIYA** – tadqiqot sohalaridan biri bo‘lib, sezgi a‘zolari ishtirokisiz idrok qilish formalarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchisiz ta‘sir etish turlarini o‘rganishga qaratilgandir. Parapsixologiya muammosi bahsga molik sohadir.

23. **BILISH** – psixik aks ettirish jarayoni bo‘lib, bilimlarni egallash va uni o‘zlashtirishni ta‘minlaydi.

24. **RETIKULYAR FORMATSIYA** – bosh miyaning chuqur qismidagi nerv hujayralari bo‘lib, ular o‘z tuzilishiga ko‘ra qalin to‘rni eslatadigan o‘simtalarga ega. Qo‘zg‘aluvchilar ta‘siri ostida turli retseptorlardan bosh miyaga signallar olib boradigan sezuvchi nervlarning o‘simtalari retikulyar formatsiyaga tutashgan bo‘lib, mavjud signallar uni ham qo‘zg‘aydi. Bosh miyadagi qo‘zg‘alish esa retikulyar formatsiya faoliyati asosida yo kuchaytiriladi, yo susaytiriladi. Demak, retikulyar formatsiyaning har bir hujayrasi sezgi a‘zolaridan kun davomida signallarni qabul qilib olib, bosh miya va orqa miya faoliyatiga umumiy holda ta‘sir etib turadi. Bu esa kishiniig tetikligi, hayajonlanishi va diqqatining faolligi bilan bog‘liqdir.

25. **REFLEKSIYA** – kishi bilimlarining o‘z-o‘ziga, o‘zining ichki olamiga, psixik sifatleri va psixik holatlariga qaratilishidir.

26. **STIMUL** – retseptorlarda qo‘zg‘alishni vujudga keltiradigan tashqi-ichki ta‘siridir.

27. **AKS ETTIRISH NAZARIYASI** – psixik hodisalarga borliqni aks ettirishning formalaridan biri deb qaraydigan nazariya.

28. **FREYDIZM (PSIXOANALIZ)** – XX asrda maydonga kelgan psixologik yo‘nalish bo‘lib, iison xulqini asosiy harakatlantiruvchi ongsiz, instinktiv mayldir deb hisoblab, ongning yetakchilik rolini kamsitadigan nazariya. Bu nazariyaning asoschisi avstriyalik psixiatr Z. Freyd.

29. **FUNKTSIONAL SISTEMA** – hayotdagi neyrodinamik yangi tizim bo‘lib, yuksak psixik funksiyalarning va kishi qobiliyatining moddiy asosidan iborat (P.K. Anoxin tomonidan ishlab chiqilgan).

30. **FUNKTSIONAL PSIXOLOGIYA** – psixika va shaxsga ayrim psixik funksiyalarning yig‘indisidir, deb qarovchi psixologiya fanining yo‘nalishi.

31. **ELEKTROENTSEFALOGRAMMA (EEG)** – maxsus elektroensefalograf asbobi yordamida bioelektrik faolligini tekshirish usulining mahsuloti.

32. **EFFEKTOR** – reflektor yoyning (mushak va tomirlardagi) ish bajaruvchi qismi bo‘lib, qabul qiluvchi retseptordan farq qiladi.

33. **EFFERENT NERV** – nerv impulslarini markaziy nerv tizimidan ish bajaruvchi a’zolarga eltuvchi tola.

34. **ETNOPSIXOLOGIYA** – psixologiya fanlari sohasidan biri bo’lib, odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy xarakterni, milliy o’zligini anglash, etnik stereotip singari funksiyalarning shakllanish qonuniyatlarini o’rganadi.

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING VAZIFALARI VA METODLARI

1. **ANKETA** – oldindan tayyorlangan savollar asosida javob olish uchun tayyorlangan varaqa.

2. **AUTOGEN MASHQ** – o’z-o’zini ishontirish va o’z-o’zini idora-qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

3. **SUHBAT** – psixologiya metodlaridan biri bo’lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma’lumot olishdan iborat.

4. **BIOGRAFIK METOD** – kishini uning tarjimai holi bilan bog’liq bo’lgan hujjatlar orqali o’rganish usuli.

5. **VALIDLIK** – psixologik tadqiqotda olingan natijalarning obyektiv tashqi mezonlarga mos kelishi.

6. **YOSH PSIXOLOGIYASI** – psixologiya fani tarmoqlaridan bo’lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini o’rganadi.

7. **GENETIK METOD** – psixik holatlarning paydo bo’lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o’rganish usullari.

8. **DETERMINIZM** – tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan psixik hodisalarning ro’y berishi obyektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi deb qarash.

9. **PSIXIK TARAQQIYOT DIAGNOSTIKASI** – psixik taraqqiyot darajasi va yakka psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida odamni har tomonlama tekshirib ko’rish usuli.

10. **ONG VA FAOLIYAT BIRLIGI** – psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o’zaro uzviy bog’liqligini e’tirof etuvchi qoida.

11. **TABIY EKSPERIMENT** – tekshiriluvchini o’ziga bildirmagan holda uni o’yin, o’qish va mehnat faoliyatida o’rganishdan iborat psixologik tajriba.

12. **MUHANDISLIK PSIXOLOGIYASI** – bu psixologiya fani sohasi bo’lib, kishi mehnatining psixologik xususiyatlarini faoliyat jarayonida texnika vositalari bilan munosabatda bo’lishida o’rganadi. Shu bilan birga bu soha mashina va uskunalar loyahasini yaratishda inson omillarini hisobga olish talablarini ishlab chiqadi.

13. **INTROSPEKTSIYA** – kishining o‘z-o‘zini kuzatishi.

14. **INTERVYUIROVANIYE (INTERVYU, AXBOROT OLISH)** – bu ijtimoiy psixologiya metodi bo‘lib, qo‘yilgan savollarga berilgan javob tariqasidagi axborotlarni to‘plash usulidir.

15. **SUN‘IY AQL** – birona odam yoki bir guruh kishilar bajara oladigan murakkab aqliy funksiyalarni bajaradigan sun‘iy yaratilgan qurilma.

16. **KORRELYATSIYA** – voqelikdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi yoki eksperimentdan olingan ma‘lumotlar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar me‘yori.

17. **LABORATORIYA EKSPERIMENTI** – psixologiya metodlaridan bo‘lib, tekshiruvchiga ta‘sir etadigan barcha omillar qat‘iy nazorat qilgan holda sun‘iy sharoitda olib boriladi.

18. **SHAXSIY MUNOSABAT** – psixologiya qoidalaridan bo‘lib, odamga shaxs tariqasida, uning voqelikni aks ettiruvchi va barcha psixik hodisalarni belgilab beruvchi sistema ekanligini tushungan holda yaqindan yondashish.

19. **PSIXOLOGIYA METODLARI** – psixik hodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o‘rganishning asosiy yo‘l-yo‘riq va usullari.

20. **KUZATISH** – psixologiya metodlaridan bo‘lib, kishining xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan turli hodisalarni hisobga olish va subyektiv psixik hodisalar to‘g‘risida fikr olishdan iboratdir.

21. **O‘RGATUVCHI YOKI SHAKLLANTIRUVCHI EKSPERIMENT** – psixologiya metodi bo‘lib, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

22. **PATOPSIXOLOGIYA** – psixologiya tarmoqlaridan bo‘lib, turli kasalliklar natijasida psixik taraqqiyotning izdan chiqishini o‘rganadi.

23. **PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA** – psixologiya tarmoqlaridan bo‘lib, ta‘lim va tarbiya qonuniyatlarini o‘rganadi.

24. **SOTSIOMETRIYA** – J. Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, o‘zaro munosabatlar tuzilishi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

25. **O‘Z-O‘ZINI KUZATISH** – bunda subyektning o‘z psixik holatlari bilan o‘z xatti-harakatlarini o‘rganishdan iborat metod.

26. **SISTEMALI YONDAŞHISH (PSIXOLOGIYADA)** – psixikani oddiy elementlar yig‘indisiga kiritib bo‘lmaydigan murakkab birlik deb qarashni talab etuvchi prinsip.

27. **“ODAM-MASHINA” TIZIMI** – odam – operator va mashina-

dan iborat sistema bo'lib, buning vositasida odamning mehnat faoliyati amalga oshiriladi.

28. **TEST** – standartlashtirilgan psixologik sinov bo'lib, buning natijasida u yoki bu xildagi psixik jarayonni baholashga yoki shaxsni bir butunligicha o'rganishga qaratilgan usul.

29. **EKSPERIMENT** – psixologiyaning asosiy metodlaridan bo'lib, o'zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqil holatlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlarga tayanadi.

HAYVONOT OLAMIDA PSIXIKANING TARAQQIYOTI VA INSON ONGINING PAYDO BO'LISHI

1. **ANTROPOMORFIZM** – insonga xos xislat va xususiyatlarni tabiatdagi hodisalarga ko'chirish (bog'lash). Jumladan, hayvonlarda odam qobiliyati va sifatleri bor deb hisoblash.

2. **ONGSIZLIK** – kishi ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

3. **ZOOPSIXOLOGIYA** – psixologiya tarmoqlaridan bo'lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o'rganadigan soha.

4. **INSTINKT** – xulq-atvor yoki xatti-harakatlarning oldindan genetik shartlangan usullari.

5. **AQLIY-INTELLEKTUAL XATTI-HARAKATLAR** – xatti-harakat turlaridan biri tariqasida hayvon psixik taraqqiyotining cho'qqisi hisoblanadi va eng avvalo hayvonlarning ayrim ko'rgazmali harakatli vazifalarni bajara olishlarida yaqqol ifodalanadi.

6. **MALAKA** – mashq qilish jarayonida ish-harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

7. **ONG OSTI HOLATLARI** – aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi bo'lib, kishining xatti-harakatlari va uning ongi mazmunga ta'sir etishga qobildir.

8. **QO'ZG'ALUVCHANLIK** – bu barcha tirik materiyaga xos xususiyat bo'lib, tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarni o'zgartirib yuborish qobiliyatiga ega.

9. **ONG** – odamlarning ijtimoiy-tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lib, obyektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori usuli.

10. **TROPIZMLAR** – muhim biologik qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'simliklar harakati yo'nalishining o'zgarishi.

11. **SEZGIRLIK** – ayrim tirik organizmlarning qo'zg'ovchilar ta'sirini qabul qilish qobiliyati bo'lib, sezgirlik ifodalovchilarga nisbatan bevosita biologik ahamiyatga ega bo'lgan signallik vazifasini bajaradi.

SHAXS

1. ASSOTSIATSIYA (IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA) – muloqotda shaxslararo munosabatlar mazmunini – guruh a’zolari o’rtasida birgalikdagi faoliyatning yo’qligi yoki buning guruh a’zolari o’rtasidagi o’zaro munosabatlarga ta’sir etishini belgilab beruvchi guruh.

2. AUTSAYDER – ijtimoiy psixologiya iborasi bo’lib, psixologik qovushuvchanlik munosabati bilan rad etilgan guruh a’zosi.

3. PSIXOLOGIK TO’SIQ, G’OV – ma’lum faoliyat yoki ish-harakatlarni amalga oshirishga, jumladan, bironta odam yoki kishilar guruhi bilan munosabatda bo’lishga to’sqinlik qiladigan motiv.

4. GURUH – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo’lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa. Guruhlar real va shartli bo’lishi mumkin.

5. DIFFUZ GURUH – birgalikdagi faoliyat mazmuni bilan belgilanmaydigan shaxslararo munosabatlarga kiruvchi guruh.

6. INDIVID – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

7. INDIVIDUALLIK – o’z shaxsiy xususiyatlariga ega bo’lgan shaxs.

8. QIZIQISH – shaxsning bilish faoliyati bilan bog’liq ijobiy emotsiyalarga boy yo’nalishlaridan biri.

9. JAMOA – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

10. KONFORMLIK – individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo’shilib, uning ta’siriga ichki tomondan qo’shilmay o’z fikrida qolish, guruhga ong ravishda moslashibgina qolish.

11. KORPORATSIYA – faoliyat maqsadlari o’z ichida saqlanib qolgan, “faqat o’zi uchungina ishlaydigan” guruh.

12. LIDER – guruhning rahbarligini o’tovchi a’zosi.

13. SHAXS – shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat subyekti tariqasidagi odam individi.

14. SHAXSIY MA’NO – shaxsning obyektiv borliqdagi hodisalarga subyektiv munosabati.

15. KICHIK GURUH – a’zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug’ullanuvchi va bevosita shaxsiy munosabatlarda bo’luvchi kishilar guruhi.

16. MOTIV – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog’liq faoliyatga undovchi istak.

17. MOTIVATSIYA – odamni faol faoliyatga undovchi motivlar majmui.

18. SHAXSLARARO MUNOSABATLAR – muloqot jarayonidagi o’zaro ta’sir etish natijasida ro’y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisa.

19. DUNYOQARASH – kishining tevarak-atrofdagi olamga va unda o‘zining tutgan o‘rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim.

20. YO‘NALISH (TUTILGAN YO‘L, MAQSAD) – shaxsning xatti-harakat va faoliyatini aniq sharoitlardan qat’i nazar ma’lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar majmui bo‘lib, asosiy yetakchi bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, e’tiqod, ideal, dunyoqarashlar bilan karakterlanadi.

21. EHTIYOJ – odam va hayvon faolligining asosiy manbai; aniq sharoitlar bilan bog‘liq zaruriyatning ichki holati.

22. REFERENT GURUH – shaxsning har tomonlama ishongan, o‘zini yaqin tutgan guruhi; “etalon guruh”, bu guruh haqiqiy bo‘lishi va shu bilan birga amaliy bo‘lishi ham mumkin.

23. IJTIMOYILASHTIRISH – individning ijtimoiy tajribalarni egallashi va buning natijasida u tajribalarni takror ishlab chiqarishda qo‘llashi jarayoni. Ijtimoiylashtirishning asosiy, yetakchi komponenti – tarbiyadir.

24. SOTSIOMETRIYA – ijtimoiy-psixologik metod bo‘lib, J. Moreno tomonidan tavsiya etilgan. Bu metod guruh a‘zolarining bir-birini o‘zaro tanlashi orqali shaxslararo munosabatlar holatini aniqlashga yordam beradi.

25. O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH – shaxsning o‘z holatini tartibga solish, uni boshqarib borishi.

26. O‘Z-O‘ZIGA BAHO BERISH – shaxsning o‘z-o‘ziga baho berishi.

27. STATUS – shaxsning shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o‘rni. Bunday shaxslararo munosabatlarda kishining guruhda tutgan o‘rni, uning hyuqi, vazifalari va imtiyozli tomonlari belgilab beriladi.

28. TOLERANTLIK – bironta yoqimsiz omilga e’tibor bermaslik yoki kam e’tibor berish.

29. INTILISH DARAJASI – odamning o‘zini qobiliyatli deb hisoblaydigan darajadagi maqsadga erishishga intilishi (bu ehtimol odamning o‘ziga xos imkoniyatlariga yoki o‘zini qiziqtirgan, muqaddas maqsadlari bo‘lishi mumkin). Bu esa kishining faoliyat va xatti-harakatlariga ta’sir etadi.

30. SHARTLI GURUH – odamlarning ayrim belgilari (yoshi, kasbi va h.k.)ga qarab birlashuvi.

31. USTANOVKA – kishining tevpak-atrofdagi odamlarga yoki obyektarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lish, ularni ma’lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorligini anglamagan holati.

32. **FRUSTRATSIYA** – aldanish, xafagarchilik, rejalarning izdan chiqishi – kishining maqsadga erishishi yo‘lida uchraydigan obyektiv ravishda yengib bo‘lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo‘ladigan psixologik holati.

33. **EMPATIYA** – boshqa kishilarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

34. **ORIENTATSIYA** – shaxsning ijtimoiy-siyosiy va jamiyatning axloq normalariga munosabati tizimi.

35. **JAMOANING NEGIZI (YADROSI)** – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a‘zolari guruhi.

FAOLIYAT

1. **AVTOMATLASHTIRISH (PSIXOLOGIYAda)** – mashq qilish orqali turli malakalarni shakllantirish jarayoni.

2. **AVTOMATIZM** – ixtiyorsiz yoki anglamagan holda oshiriladigan amallar.

3. **YETAKCHI FAOLIYAT** – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bunda ma‘lum davr ichida shaxsning sifat jixatidan o‘zgarishi shakllanadi. Masalan, bog‘cha yoshi davridagi o‘yin faoliyati.

4. **ISH-HARAKAT (AMALLAR)** – faoliyatning nisbatan tugallangan elementi bo‘lib, anglangan ma‘lum maqsadga erishishga qaratilgan (tashqi yoki ichki aqlih) amallar.

5. **FAOLIYAT** – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan, ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishiga, uni qayta qurishga yo‘naltirilgan faolligi.

6. **O‘YIN** – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyat.

7. **INTERIORIZATSIYA** – tashqari predmetli harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanishi jarayoni.

8. **MALAKALARNING INTERFERENTSIYASI** – avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik boshqa yangi malakalarning hosil bo‘lish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.

9. **MASHQLARNING EGRI GRAFIGI** – malakalar hosil bo‘lishi jarayonini grafik usulda tasvirlaydigan egri chiziqlar.

10. **ODATLAR** – bajarilishi kishining ehtiyojiga aylanib qolgan xatti-harakatlar yoki xulq-atvor.

11. **MEHNAT** – odamning ma’lum maqsadga, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma’naviy boylklarni yaratishga yo’naltirilgan faollik.

12. **KO’NIKMA** – kishining ma’lum ishni bajarish qobiliyati. Mahoratning asosini tashkil qiladi.

13. **O’QIB-O’RGANISH** – shaxsning bilim va faollik usullarini egallash hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni. O’qish – har qanday faollikning zaruriy qismlaridan bo’lib, subyektning o’zgartirish jarayoni hamdir.

NUTQ VA MULOQOT

1. **AFAZIYA** – bosh miya qobig‘ining ayrim qismlari zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

2. **ICHKI NUTQ** – nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan gapiriladigan alohida turi bo’lib, grammatik tuzilish va mazmun atroflicha torligi bilan xarakterlanadi. Ichki nutq tafakkurning asosiy qurolidir.

3. **DIALOGIK NUTQ** – nutq turlaridan bo’lib, bunda gapiruvchilarning barchasi bab-barabar teng faollik ko’rsatadi.

4. **BELGI** – sezgi a’zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsa va hodisalar yoki ma’lum muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarning vakili – belgisi vazifasini o’tovchi predmet yoki hodisadir.

5. **BELGI TIZIMI** – umumiy qoidalari bilan o’zaro bog‘liq va amalda qo’llaniladigan belgilarni birlashtiruvchi belgilar to’plami.

6. **KOMMUNIKATSIYA (PSIXOLOGIIYADA)** – til va boshqa belgilar vositasida axborot bilan almashish.

7. **MONOLOGIK NUTQ** – fikr bayon qilish, bir kishining bitta murakkab fikr bilan birlashtirilgan nutqi.

8. **MULOQOT** – ikki yoki undan ko’proq odamlarning o’zaro bir-biriga ta’sir etishi bo’lib, undan farqli o’laroq yana kishilar o’rtasida axborot almashish, o’zaro ta’sirning yagona yo’lini ishlab chiqish, boshqa birovlarini idrok qilish va tushunib baholash xarakteriga ega.

9. **NUTQ** – odamlarning til vositasida muloqotda bo’lish jarayoni.

10. **TRENING** – guruhdagi muloqotning silliq, madaniy, obro’li bo’lishini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan psixologik ishlarning faol metodi (guruh-guruh bo’lib munozara-bahslar, rolik o’yinlar va boshqalarni o’tkazish).

11. **EGOTSENTRIK NUTQ** – nutq faoliyati bo’lib, bog‘cha bolasi-ning o’yini bilan birga olib boriladigan va bolaning o’z-o’ziga qaratilgan nutqi.

12. **TIL (PSIXOLOGIYAda)** – soʻz belgilari tizimi boʻlib, psixik faoliyatini (hammadan avval aqliy faoliyatini) ifodalovchi, shu bilan birga nutqda foydalaniladigan aloqa vositasi.

DIQQAT

1. **DIQQAT** – bir vaqtning oʻzida ongning maʼlum bir obyektдан ikkinchi obyektga yoʻnaltirilishi va toʻplanishi boʻlib, ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi.

2. **DOMINANTA** – bosh miya qobigʻida vaqtincha hukmron qoʻzgʻalish oʻchogʻi boʻlib, bu hukmron markaz uchun qoʻzgʻalishlarni oʻziga toʻplab, boshqa nerv markazlarining ishini tormozlab turishi xarakterlidir. A.A. Uxtomyokiyning fikricha, hukmron dominanta diqqatning fiziologik asosidir.

3. **INDUKTSIYA (NEYROFIZIOLOGIYA)** – markaziy nerv sistemasining biron markazida qoʻzgʻalish paydo boʻlsa, u boshqa markazlarda tormozlanishning kelib chiqishiga, tormozlanish esa qoʻzgʻalishning kelib chiqishiga sababchi boʻlishdan iborat qonuniyat. Nerv sistemasining birorta joyida sodir boʻlgan jarayonning ikkinchi xildagi jarayonni keltirib chiqarishga, bir vaqtdagi induksiya, nerv sistemasidagi, maʼlum jarayon taʼsiri toʻxtashi bilan oq yuzaga keladigan jarayonga ketma-ketlik induksiyasi deyiladi. Tormozlanishning qoʻzgʻalishni keltirib chiqarishiga ijobiy induksiya va qoʻzgʻalishning tormozlanishni keltirib chiqarishiga salbiy induksiya deyiladi.

4. DIQQATNING SIFATLARI:

- a) diqqatning biron obyektga toʻplanish darajasi;
- b) diqqatning hajmi – bir vaqtning oʻzida diqqatning qancha obyektни oʻz ichiga qamrab olishi;
- d) diqqatning koʻchishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyektдан ikkinchi obyektga koʻchirish;
- e) diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtning oʻzida bir qancha obyektga qaratilish imkoniyati;
- f) diqqatning barqarorligi – diqqatning maʼlum obyektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilishi.

SEZGILAR

1. **ADAPTATSIYA** – tashqi sharoitlarga moslashish boʻlib, buning oʻzi analizatorlarning oʻzidagi oʻzgarishlarni sezish bilan bogʻliq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishidagi ijtimoiy-psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.

2. **AKKOMODATSIYA** – koʻzning turli masofadagi predmetlarni

aniq ko'rishga moslashuvi bo'lib, bu ko'z gavharining o'zgarishi hisobiga paydo bo'ladi.

3. **BINOKULYAR KO'RISH** – bitta obyektning o'zini har ikkala ko'z bilan bab-barobar ko'rish (predmetning teranligi, uzoqligi va hajmini idrok qilishni ta'minlaydi).

4. **VEBER-FEXNER QONUNI** – qo'zg'ovchi kuchning o'zgarishi bilan hosil bo'lgan muayyan sezgi kuchining o'zgarishi o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofizik qonuniyat.

5. **VESTIBULYAR APPARAT** – fazodagi harakatlarning holati va bunday harakatlar yo'nalishining o'zgarishini kuzatib, baholab turishga yopdam beradigan analizator.

6. **INTERORETSEPTORLAR**– ichki a'zolarga joylashgan retseptorlar.

7. **KINESTETIK SEZGILAR** – kishining o'z gavasidagi proprio-retseptiv qo'zg'alishlar natijasida ro'y bergan harakatlarni sezishi.

8. **INTERORETSEPTIV SEZGILAR** – tananing ichki a'zolari holatidan darak beruvchi sezgilar.

9. **MUSHAK TUYG'ULARI** – tashqi muhitning vaqtinchalik fazo-viy xususiyatlarini bilib olish asbobi (I.M. Sechenov).

10. **HID BILISH SEZGISI** – hidlarni sezish qobiliyati.

11. **TAXMINIY REAKSIYA** – a'zolarining yangi vaziyatlarga javob berishidan iborat murakkab reaksiya.

12. **SEZGILAR** – psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat bo'lib, voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

13. **PRORIORETSEPTIV SEZGILAR** – tananing turli qismlaridagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar.

14. **KETMA-KET OBRAZ** – avvalgi qo'zg'ovchilar ta'sirida paydo bo'lgan obraz izlarining qisqa muddatga saqlanib qolishi.

15. **SEZGI CHEGARASI (MUTLAQ CHEGARA)** – minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar-bilinmas ta'sirini sezishga – sezgining quyi chegarasi, qo'zg'ovchi eng yuqori kuchga ega bo'lgan ta'sirini sezishga – sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.

16. **FARQ QILISH CHEGARASI** – qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar-bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasida qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

17. **RETSEPTORLAR** – nervlarning tashqi yoki ichki qo'zg'ovchilardan hosil bo'lgan qo'zg'alishni qabul qilib oluvchi chekka uchlari.

18. **SENSOR SEZGILAR** – sezgi a'zolariga taalluqli sezgilar bo'lib, sensorika – sezgi va idrokni umumlashtiruvchi tushunchadir.

19. SENSIBILIZATSIYA – ichki omillar ta’siri natijasida analizator sezgirligining ortib ketishi.

20. SINESTEZIYA – turli xildagi sezgilarning o‘zaro ta’siri natijasida qo‘shilib ketishi (jumladan, eshitish va qo‘rquv sezgilari va h.k.).

21. SEZGI A’ZOLARINING O’ZIGA XOS QUVVATI – sezgi a’zolarining maxsus quvvati haqidagi qonun bo‘lib, bu qonunga binoan sezgi a’zolari tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta’sirini aks ettirmay, balki sezgi a’zolarining o‘ziga xos quvvatini qo‘zgatuvchi tashqi turtkini oladi, xolos. (M. Muller).

22. SEZGIRLIK – a’zolarining o‘ziga ta’sir etib turgan qo‘zg‘atuvchilarning salgina yoki unchalik farq qilinmaydigan ta’sirini ajrata olish qobiliyati.

23. EKSTERORETSEPTIV SEZGILAR – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xarakteristikasi haqida darak (signal) beruvchi sezgilar.

IDROK

1. APPERTSEPTSIYA – shaxs idrok qilishning avvalgi bilim va tajribalarga hamda uning umumiy qiziqish-havaslariga bog‘liqligi.

2. AUDIOVIZUAL IDROK – bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham qo‘rqib idrok qilish.

3. IDROK – sezgi a’zolariga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning bevosita yaxlitligicha aks ettirilishi jarayoni.

4. TANLOVCHANLIK (IDROKDA) – idrokning sifati bo‘lib, buni shaxsning yo‘nalishi yoki uning tajribasi belgilab beradi.

5. ILLYUZIYA – barqaror xarakterga ega bo‘lgan borliq haqiqatni noto‘g‘pi idrok qilish.

6. IDROKNING KONSTANTLIGI – idrok sharoiti o‘zgarsada, idrok qilishdan hosil bo‘lgan predmet obrazlari (ularning shakli, rangi, hajmi)ning nisbatan o‘zgarmasligi turg‘unligi holati.

7. KUZATUVCHANLIK – shaxs xususiyatlaridan bo‘lib, bu kishining idrok qilish jarayonida narsalarning kamdan-kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

8. TUYUSH – idrok turlaridan biri bo‘lib, bu taktik va muskul-harakat sezgilaridan iborat.

9. PERTSEPTIV HARAKATLAR – idrok jarayonining asosiy tuzilish birligi bo‘lib, bu idrok obyektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

10. PERTSEPTIV TIZIM – idrokning muayyan aktini ta’minlovchi analizatorlar yig‘indisi.

11. **IDROKNING PREDMETLIGI** – tashqi olamdan olingan ma'lumotlar, axborotlarni ichki olam obyektiga kiritish xususiyati.

12. **IDROKNING BUTUNLIGI** – idrok xususiyatlaridan bo'lib, bu sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan obyektlarni ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo'shib idrok qilishdan iborat.

XOTIRA

1. **AMNEZIYA** – xotiraning yo'qligi.

2. **ESGA TUSHIRISH** – xotira jarayonlaridan biri bo'lib, buning natijasida oldin esda olib qolingani bilimlarni faollashtirish yuzaga keladi.

3. **UNUTISH** – oldin esda olib qolingani ma'lumotlarni keyinchalik qayta esga tushira olish imkoniyatining yo'qligi jarayoni.

4. **ESDA OLIB QOLISH** – yangi qabul qilingan axborotlarni oldin egallagan, bilim va tajribalari bilan bog'langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

5. **MNEMONIKA** – esda olib qolishni osonlashtiruvchi usullar yig'indisi.

6. **XOTIRA** – psixik aks ettirish jarayonlaridan iborat bo'lib, bu avvalgi bilim va tajribalarni mustahkamlash, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat jarayon.

7. **MEXANIK XOTIRA** – materialni ma'nosiga tushunmagan holda takrorlashdan iborat xotira.

8. **OPERATIV XOTIRA** – xotira turlaridan biri bo'lib, bu ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi.

9. **MANTIQUIY XOTIRA** – xotira turlaridan bo'lib, bu materialni ma'no tomonidan o'zapo bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.

10. **IXTIYORSIZ XOTIRA** – oldinga hech qanday maqsad qo'ymagan holda ustanovkasiz esda olib qolish.

11. **IXTIYORIY XOTIRA** – oldinga muayyan maqsad qo'ygan holda ustanovkali esda olib qolishdan iborat xotira.

12. **UZOQ MUDDATLI XOTIRA** – xotira turlaridan bo'lib, bu bilimlarni, shu bilan birga ko'nikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni ta'minlaydi hamda g'oyat ko'p hajmdagi axborotlarni esda tutish bilan xarakterlanadi.

13. **QISQA MUDDATLI XOTIRA** – xotira turlaridan bo'lib, qisqa muddatga esda qoldirish va shu bilan birga uzoq muddatli xotirada saqlanib qolgan ma'lumotlarni tezlik bilan eslab va qayta ishlashni ta'minlaydigan xotira turi.

14. **TASAVVUR** – oldin idrok qilishdan hosil bo‘lgan obraz.

15. **PROAKTIV TORMOZLANISH** – avvalgi faoliyatni, qayta-qayta ko‘p takrorlash ta’siri natijasida keyingi materialni esga tushirishning yomonlashuvi.

16. **REMINISTSENZIYA** – avval unutilgan deb hisoblangan materialning keyinchalik esga tushishdan iborat xotira jarayoni, ya’ni vaqtinchalik unutish holati.

17. **TANIB Olish** – oldin esda qoldirilgan predmetlarni qayta idrok qilish orqali obraz tariqasida esga tushirishdan iborat xotira jarayoni.

18. **EYDETIZM** – oldin idrok qilingan obrazlarni barcha belgi va xususiyatlari bilan birgalikda uzoq vaqtgacha yorqin esda saqlab tura olishdan iborat obraz ko‘rish xotirasi.

XAYOL

1. **AGGLYUTINATSIYA** – mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga “yopishtirib” qo‘shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat faoliyati.

2. **AKTSENTIRLASH (TA’KIDLASH)** – predmetlarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

3. **XAYOL** – mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan bo‘lib, buning o‘zi ixtiyorsiz va ixtiyoriy, reproduktiv va ijodiy xayol turlariga ajratiladi.

4. **OLDINDAN AKS ETTIRISH** – psixik aks ettirish usullaridan biri bo‘lib, ma’lum jarayonning o‘sib rivojlanib borishini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini yaratadi. Oldindan aks ettirish mexanizmi P.K. Anoxin tomonidan kashf etilgan.

5. **IJODIYOT** – biror inson yoki kishilar jamoasining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim yangi boyliklarni yaratishdan iborat faoliyati.

6. **IJODIY XAYOL** – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi obrazlarini yaratishga qaratilgan xayol turlaridan bo‘lib, bu ijodiyotning asosini tashkil qiladi.

TAFAKKUR

1. **ABSTRAKTSIYA (MAVHUMIYLIK)** – narsalapning o‘ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni predmetlarning muhim bo‘lmagan belgi va xususiyatlaridan ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

2. **ANALIZ (TAHLIL)** – murakkab obyektни turli tarkibiy qismlarga ajratish yoki xarakteristika berishdan iborat fikrlash operatsiyasi.

Z. **GIPOTEZA (TAXMIN)** – ma’lum masalani yechishning taxmini, uning loyihasi.

4. **DEDUKTSIYA** – umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat tafakkur jarayoni.

5. **MASALA** – ma’lum sharoitda berilgan topshiriq, maqsad.

6. **AQL** – kishining umumiy bilish qobiliyati bo‘lib, uning bilim va tajribalarni egallashga va uni amalda qo‘llashga tayyorligi, shu bilan bir qatorda kishi muammoli vaziyatlarda aql-farosat bilan o‘zini tuta olishi.

7. **INDUKTSIYA** – tafakkur jarayonida yakka hukmlardan umumiy hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy xulosa chiqarish.

8. **INSAYT** – ayrim muammolarni hal qilish zarurligini shu zahotiyog‘ anglab yetish.

9. **YAQQOL-HARAKATLI TAFAKKUR** – tafakkur turlaridan bo‘lib, bu predmetlar bilan ishlash jarayonida ularni bevosita idrok qilishda ifodalanadi.

10. **TAFAKKUR** – psixik aks ettirishning ancha umumiy va bevosita usuli bo‘lib, bu narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va munosabatlarni bilib olishida ifodalanadi.

11. **KO‘RGAZMALI – OBRAZLI TAFAKKUR** – tafakkur turlaridan bo‘lib bu tasavvur qilinayotgan narsa va hodisalar haqida fikrlashni xarakterlab beradi.

12. **UMUMIYLASHTIRISH** – voqelikdagi narsa va hodisalarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

13. **BAVOSITALIK** – borliqdagi narsa va hodisalarni yordamchi vositalarini qo‘llash orqali bilish usuli.

14. **TUSHUNCHA** – voqelikdagi narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so‘z yoki so‘zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkur usuli.

15. **MUAMMOLI VAZIYAT** – intellektual faoliyat bilan bog‘liq masalalarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan vaziyat.

16. **AQL-FAROSAT** – voqelikni nazariy tomondan o‘zlashtirishning yuksak formasi bo‘lib, kishining fikrlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

17. **SERIATSIYA** – materialni ma’lum belgilari bo‘yicha ketma-ketlik, izchillik bilan jonlashtirishdan iborat mantiqiy usul.

18. **SO‘Z – MANTIQIY TAFAKKUR** – tafakkur turlaridan bo‘lib, bu mantiqiy operatsiyalar, amallar yordamida tushunchalar orqali ifodalanadi.

19. SINTEZ – tafakkurning yagova analitik-sintetik jarayonida yakka-dan umumiyga qarab fikr yuritish operatsiyasi.

20. TAQQOSLASH – narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

21. HUKM – tafakkur formalaridan bo‘lib, bu narsa va hodisalar o‘rtasida o‘zaro biron-bir bog‘lanishlarning bor yoki yo‘qligi, narsa va hodisalarning aynan mavjudligini tasdiqlash yoki inkor qilishda ifodalanadi.

22. XULOSA CHIQRISH – tafakkur formalaridan bo‘lib, bunda birqancha hukmlar asosida ma‘lum xulosa chiqariladi. Xulosa chiqarish induktivlik, deduktiv va analogik usullarga ajratiladi.

23. EVRISTIKA – samarali, mahsuldor, ijodiy tafakkurni o‘rganuvchi fan.

TUYG‘U-HISSIYOT

1. ASTENIK (KUCHSIZ) TUYG‘ULAP (EMOTSIYA) – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

2. EFFEKT – kuchli, jo‘shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro‘y beradigan psixologik holat.

3. AMBINALENTLIK – kishining bir vaqtning o‘zida bir-biriga qapama-qarshi bo‘lgan emotsiya va tuyg‘ularni (jumladan, quvonch musibat, kulgi va qayg‘u-hasrat) kechinishidan iborat psixik holati.

4. APATIYA – kishining og‘ir kechinmalar yoki kasalliklardan toliqishi natijasida kelib chiqadigan hamda uning tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarq qarashlarda ifodalanadigan psixik holat.

5. RUHLANISH – psixik holatlardan bo‘lib, bunga kishining stenik (kuchlk) emotsiyalari bilan ijodiy tafakkuri kiritiladi.

6. DEPRESSIYA – tushkunlik kayfiyati bo‘lib, bu kishida intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat.

7. IRONIYA – kishiga nisbatan mutlaqo ijobiy, hatto ma‘qullovchi xarakterga ega bo‘lgan istehzo aralash nozik munosabati.

8. LIMBIK TIZIM – bosh miyaning ayrim emotsional jarayonlar bilan funksional bog‘liq qismlarining umumiyliigi.

9. BILISHGA QIZIQISH – aqliy-intellektual hislardan iborat bo‘lib, bu kishining tevarak-atrofdagi olamni bilish ehtiyoji tariqasida namoyon bo‘ladi.

10. STENIK (KUCHLI) HISLAR (EMOTSIYALAR) – shaxsning faolligini oshiruvchi kechinmalar.

11. EHTIROS – kishida irodaviy yo‘nalishlari bilan xarakterlanadigan emotsiyalarning namoyon bo‘lishi.

12. STRESS (TANGLIK HOLATI) – kuchli qo‘zg‘ovchilar ta‘sirida yuzaga keladigan jiddiylik holati.

13. KAYFIYAT – birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

14. HISSIYOT – kishining o‘z yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik natijasida uning tevarak-atrofdagi olamga bo‘lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayoni.

15. EMPATIYA – boshqa kishilarning emotsional holatlariga hamdardlik qilish, jarayoni va boshqalarning qayg‘u-hasratini tushuna bilish qobiliyati.

16. EMOTSIYA – odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo‘zg‘ovchilar ta‘siriga javob reaksiyasi.

IRODA

1. MOTIVLAR KURASHI – qaror qabul qilish bilan bog‘liq irodaviy harakatlar bosqichi.

2. IRODAVIY ZO‘R BERISH – irodaviy harakatlarning subyektiv komponenti bo‘lib hisoblangan kuchli kechinmalarni kechinish.

3. IRODA – psixik aks ettirish jarayonlaridan bo‘lib, bu tashqi yoki ichki to‘siqlarni yengish bilan bog‘liq harakatlarni tanlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

4. IMPULSIV HARAKATLAR – ixtiyorsiz bajariladigan va ong bilan yetarli darajada nazorat qilinmaydigan ish-harakatlar.

5. QAROR QABUL QILISH – masalani hal qilish, yechish variantlaridan, usullaridan birini tanlash.

6. IRODA KUCHI – maqsadga erishishda irodaviy zo‘r berishning zaruriy darajasi (qat‘iylik, uddaburonlik va h.k.).

TEMPERAMENT VA XARAKTER

1. ABULIYA – eng oddiy, osongina masalalar bo‘yicha ham ma‘lum qarorga kelish qobiliyati yo‘qligida namoyon bo‘ladigan o‘ta irodasizlik.

2. INTROVERTLIK – bu ibora shaxsning tipini aniqlash uchun G. Ayzsnk tomonidan kiritilgan bo‘lib, introvertlik kishida dilkashlikning yo‘qligida, o‘zi bilan o‘zigina bo‘lib qolishida, boshqa kishilarga mutlaqo qoniqmasligida va o‘z ustida chuqurroq o‘ylab ko‘rishga moyillik yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

3. MELANXOLIK – temperament tiplaridan bo‘lib, bu tip yengil ta‘sirilanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur tashlanib yurishga moyilligi bilan xarakterlanadi.

4. **SENZITIVLIK** – turli ta’sirlarga nisbatan hissiyotning tez va kuchli qo’zg’alishi bilan xarakterlanadigan tip.

5. **SANGVINIK** – temperament tiplaridan bo’lib, bu tip chaqqon, harakatchan, talablari tez-tez o’zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish xislatlari bilan xarakterlanadi.

6. **OLIY NERV FAOLIYATI TIPI (ONG TIPI)** – oliy nerv faoliyati xususiyatlarining barqaror yig’indisi (kuchi, vazminligi, harakatchanligi va boshqalar) bo’lib, bu asosan nerv sistemasi xususiyatlarining yig’indisi bilan aniqlanadi.

7. **TEMPERAMENT** – shaxsning yakka psixologik xususiyatlari majmui bo’lib, bu kishi faoliyati va xulq-atvorining dinamik va emotsional tomoshalari bilan xarakterlanadi.

8. **FLEGMATIK** – temperament tiplaridan bo’lib, bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko’rinishlari kuchli emasligida namoyon bo’ladi.

9. **XARAKTER** – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi bo’lib, bu shaxsning mehnatga, narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga, atrof-muhitga va o’z-o’ziga bo’lgan munosabatlarida ifodalanadigan uning muayyan sharoitlaridagi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror, yakka psixik xususiyatlari yig’indisi.

10. **XOLERIK** – temperament tipi bo’lib, bu emotsiyalarning jo’shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o’zgarib qolishi hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanlik bilan ifodalanadi.

11. **EKSTRAVERTLIK** – ayrim kishilarning xarakterini belgilab beruvchi xususiyat bo’lib, bu kishining nihoyatda xushchaqchaqligi, ochiq ko’ngilligi va boshqa kishilarga zavq bilan qarashlarida, ularga qiziqishlarida namoyon bo’ladi.

QOBILIYATLAR

1. **GENIALLIK** – shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyot bilan o’zini namoyon qilish hodisasi.

2. **DIFFERENTIAL PSIXOLOGIYA** – psixologiya fanining bir qismi bo’lib, kishilar o’rtasidagi yakka psixologik farqlarni o’rganadi.

3. **ZEHN, LAYOQAT** – nerv sistemasining ba’zi genetik determinlashgan anatom – fiziologik xususiyati bo’lib, bu kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka tug’ma tabiiy zamini.

4. **KOMMUNIKATIV QOBILIYATLAR** – shaxs qobiliyatlaridan bo’lib, bu kishining boshqa odamlar bilan bo’ladigan muloqotini yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyati psixologik qovushuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyati.

5. **UMUMIY ISTE'DOD** – kishining qobiliyatlari birligi bo‘lib, bu shaxsning aqliy-intellektual imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatning o‘ziga xosligi darajasini belgilab berishda shartlanadi.

6. **OLIGOFRENIYA** – aqli zaiflik, psixik funksiyalarning taraqqiyotni ortda qoldirishi.

7. **QOBILIYATLAR** – shaxsning ma‘lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan yakka psixologik xususiyatlari.

8. **TALANT** – shaxsning ma‘lum faoliyati ifodalanadigan qobiliyatlarning yuqori darajasi.

9. **FRENOLOGIYA** – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o‘sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya bo‘lib, bu nazariya avstriyalik vrach F. Gall tomonidan tavsiya etilgan.

YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

1. **AVTONOM NUTQ** (bolaning antonom nutqi) – ko‘p ma‘no va noaniq so‘zlari bilan xarakterlanadi, ichki nutq bo‘lib, bunda turli predmetlarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bog‘liqligi tufayli so‘zlarning ma‘nosi ham vaziyatga qarab o‘zgaradi. Bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o‘tish davri hisoblanadi. Avtonom nutqi teng yoshli bolalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

2. **AVTORITARIZM** (lot. to‘la hokimiyat, buyurish) – buyruq asosidagi talablarga ko‘r-ko‘rona, o‘ylamasdan bo‘ysunish. Uni avtoritet (lot. kuch, obro‘) so‘zi bilan almashtirmaslik kerak, negaki ushbu so‘z shaxsdagi ko‘pchilik tomonidan tan olingan fazilat, qadr-qiyamat ma‘nosini anglatadi.

3. **ADEKVATLIK** (lot. tenglashtirilgan) – teng, o‘xshash, muvofiq, munosib kelmoq.

4. **AKALKULIYA** – bosh miya yarim sharlari qobig‘ining shikastlanishi natijasida arifmetik masalalarni yechish qobiliyatining buzilishi yoki umuman yo‘qolishi.

5. **AKSELERATSIYA** (lot. tezlashtirmoq) – organizm rivojlanishining jadallashishi, erta jinsiy yetilish.

6. **ALTRUIZM** (lot. boshqa) – o‘z manfaatlaridan boshqalarga xolisona g‘amxo‘rlik qilish, yopdam ko‘rsatish, yaxshilik qilishni ustun qo‘yish (qarama-qarshi so‘z – egoizm).

7. **AMBINALENTLIK** (lot. ikkala kuchga ega) – bir kishining o‘zida bir obyektga nisbatan paydo bo‘ladigan irodaviy emotsional holati (masalan, rashkda sevgi va nafrat bir vaqtda kechirilishi).

8. AMORF (grekcha – shaklning rad etilishi) – shaklsiz, buzilib ketishga monand.

9. ANALIZATOR (grekcha – qismlarga bo‘lish, qismlash) – ta’sirlarni analiz va sintez qiluvchi nerv mexanizmlarining tuzilishi.

10. APROBATSIIYA QILISH (lot. ma’qullash, qabul qilish) – ma’qullash, tasdiqlash.

11. ASSOTSIATSIYA (lot. birlashtiraman, bog‘layman, qo‘shaman) psixologiyada – psixika hodisalarining bog‘lanishi tufayli ongimizda paydo bo‘ladigan muayyan tasavvurlar: o‘xshashlik yoki qapama-qarshi belgilarga ko‘ra boshqa tasavvurlarni hosil qilish.

12. ASSOTSIATIV EKSPERIMENT (PSIXOLOGIYA) – ahamiyatli va neytral turtkichni o‘rtaga tashlangan holda kishining psixik holati tajribalarning hosil qilingan assotsiatsiyalarni aniqlashga qaratilgan tajriba metodi.

13. AQLIY HARAKATLARNI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISH (P.YA. GALPERIN) – insonda yangi harakat obraz va tushunchalarniyu paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali murakkab o‘zgarishlar haqidagi ta’limot. U bir necha bosqichlardan iborat motivatsiyaning shakllanishi, harakatning asoslarini taxminan tuzish orqali ifoda qilish, harakatning moddiy shaklda tarkib topishi, ijtimoiylashgan kuchli tashqi nutq harakatning tashqi va ichki nutqda shakllanishi, nihoyat, oxirgi natija – interiorizatsiya – aqliy faoliyat.

14. AQLIY RIVOJLANISH KOEFFITSIENTI (ingl. – intellektualquotion – IQ) – aqliy yosh (AYo) va xronologik asl yosh (XAYo) orasidagi $(AYo)/(XAYo) * 100 = IQ$

Intellektning biror-bir yosh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali aqliy rivojlanishni aniqlash mumkin.

15. AQLIY XATTI-HARAKAT – tashqi muhit va tashqi nutqqa suyanmagan holdagi idrokning ichki rejalarda bajariladigan xatti-harakatlar.

1b. AFFEKT (Lot. – ruhiy his-hayajon) – irodaviy nazoratni yo‘qotgan holda tez va kuchli paydo bo‘lib, shiddat bilan o‘tadigan qisqa muddatli emotsional holat.

17. AHAMIYATLILIK – biror-bir obyektida qoldirish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning ehtiyoji. U barqaror va vaziyatli bo‘ladi.

18. BAVOSITA (vositali ravishda) – hodisalarning biror narsa vositasida bir-birovi bilan aloqada bo‘lishi.

19. BELGI – faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan hamda barcha his-tuyg‘ular orqali qabul qilinadigan hodisa. Belgilar so‘zli va so‘zsiz bo‘ladi. XX asrning 30-yillarida belgilar haqidagi fan – semiotika paydo bo‘ldi.

20. **BIOGENETIK QONUN** (hayot – kelib chiqmoq) – bolaning psixik taraqqiyotini, aqliy qobiliyatlarni faqat nasliy xususiyatlar bilan belgilab, ong taraqqiyotini belgilab boruvchi boshqa omillarni, ijtimoiy muhit hamda ta’lim-tarbiyaning roli inkor qilinuvchi nazariya. Uni F. Muller va Gekkellar kashf etishdi.

21. **BIXEVORIZM** (ing. xulq) – Amerika psixologiyasida yo’nalish bo’lib, unda barcha psixik holatlar ongni inkor qilgan holda tashqi turtkich ta’siriga bog’liq bo’ladi deb ta’kidlaganlar.

22. **VEBRAL** – (lot. so’j) – so’zli, so’zdan iborat bo’ladi.

23. **GALLYUTSINATSIYA** (lot. alahlash, valdirash, bosinqirash) – mavjud bo’lmagan narsalarning xayolan idrok etilishi. Miya faoliyatining buzilishi oqibatida sezgi organlarining (eshitish, ko’rish, hid bilish) gallutsinatsiyalari mavjud.

24. **GENEZIS** (grekcha – tug’ilmoq, vujudga kelmoq, rivojlanish) – biror-bir hodisa, predmet rivojlanish jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

25. **GENERALIZATSIYA** (lot. umumiy, bosh) – shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi. Generalizatsiya hodisasida bir-biriga nimasidir bilan o’xshash qo’zg’ovchilar bir xil javob hosil qiladilar.

26. **GERONTOPSIXOLOGIYA** (grekcha – qariya, ilm, fan) – organizmning qarishi bilan bog’liq bo’lgan jarayon va hodisalarni hamda qarilikning psixologik tomonlarini o’rganadigan fan.

27. **GEPERTIREOZ** – qalqonsimon bezlarning kuchaytirilgan funksiyasi.

28. **GIPOFIZ** (grekcha – o’simta) – pastki miya o’simtasi. U ichki sekretsiya bezi bo’lib hayvon va odamning bosh miya umurtqasida joylashgan. Gipofiz gormonlari organizmning ish faoliyatda muhim rol o’ynaydi. Gipofiz funksiyasining buzilishi organizmning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etadi, bunda gormonlarning ortib ketishi yoki kamayib ketishi kuzatiladi. Gipofiz buzilishida bolalarning bo’yi o’smaydi, moddalar almashinuvi buziladi, jinsiy bezlarning rivojlanishi buzilishi natijasida semirib ketish hollari kuzatiladi, bola psixikasida intellektning buzilishi, xotiraning yomonlashishi yuz beradi.

29. **“GESHTALTPSIXOLOGIYA”** (nem. shakl, struktura, yaxlitlik) – XX asming boshlarida Germaniya, so’ngra AQSHda vujudga kelgan psixologiyaning bir yo’nalishi. Unga asosan, psixikaning boshlang’ich va asosiy hodisalari butun, yaxlit mavjudlik «geshtalt»lar hisoblanadi.

30. **GLOVAL** (lot. yer sharq) – umumiy, borliqni qamrab oluvchi, barchaga taalluqli.

31. GNOSTIK (grekcha – bilmoq) FAOLIYAT – butun borliqni bilishga yo‘naltirilgan faoliyat.

32. GORMONLAR (grekcha – uyg‘otmoq, undamoq) – ichki sekretsiya bezlari faoliyatini ta‘minlab turuvchi faol biologik ashyolar.

33. GRADIENT (lot. qadam tashlab boruvchi) – yagona uzunlikka o‘tish natijasida biror-bir fizik kattalikning moziydagi ko‘payishi yoki kamayishi.

34. GUMORAL (lot. namlik) – organizmning o‘zidagi suyuqliklar bilan bog‘liqligi, masalan; qon, limfalar.

35. DIPERSONALIZATSİYALASH (lot. bo‘lmoq, shaxs, yo‘q qilmoq) shaxsning bo‘linishi, unda shaxsiy “men” hissining yo‘q bo‘lishi.

36. DIQQAT – inson psixik faoliyatining ahamiyatga ega bo‘lgan biror-bir buyum va hodisaga yo‘naltirilishi va unda to‘xtashi.

37. DETERMINIZM (lot. aniqlamoq) – barcha hodisalarning vujudga kelishi va mavjud bo‘lishidagi umumiy qonuniyatlar bog‘liqligi haqidagi ta‘limot.

38. DETSEREBRATSIYA (lot. olib tashlamoq, miya) – bu shunday metodki, unda bosh miyaning o‘zakka oid qismining kesilishi natijasida oraliq miya va markaziy nerv sistemasining yuqori qismlari pastki qismlaridan ajralib turadi. Detserebratsiya qilingan hayvonlar muvozanatni ta‘minlab turuvchi reflekslarni yo‘qotadilar. Detserebratsiyadan so‘ng egiluvchi byg‘inlar qisqaradi va natijada detserebratsion regidlik vujudga keladi.

39. DIDAKTIKA (grek. o‘rganuvchi) – pedagogika fanidagi ta‘limning qonun va metodlarini o‘rganuvchi bo‘lim.

40. DINAMIK (lot. harakatchan) STEREOTIP (lot. qat‘iy) shartli reflekslarning deyarli qat‘iy sistemasi. Dinamik stereotip kishining muayyan malaka va odatlarni tarkib topishini ta‘minlaydi.

41. DETSENTRATSIYA (lot. qo‘shimcha, rad qilish, bir yerga yig‘ish) – genetik epistomologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. U egotsentrizimni rad qilib, yangi obraz, tushuncha va fikrlarni boshqa kishilar fikriga qo‘shilgan holda yangitdan kashf qilishni anglatadi.

42. YOSH – individning ma‘lum, aniq vaqtda belgilangan psixik tapaqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichlarda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o‘zgarishlari kuzatiladi.

43. YOSH DAVRI INQIROZLARI (grekcha – burilish payti) – bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o‘tishdagi to‘qnashuvli vaziyat.

44. ZEHN – shaxs maxsus qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun asos bo‘ladigan anatomik-fiziologik imkoniyat.

45. IDENTIK (aynan o'xshashlik), (qadimiy lot. o'xshash, bir xil) — ikkita buyum yoki hodisani bir-biriga o'xshashligi.

46. IERARXIYA (grekcha — hokimiyat, bo'ysundirish) elementlarni ketma-ket holda bir-biriga teng ravishda bo'ysundirish sistemasi (masalan, motivlar ierarxiyasi).

47. IMPLIKATSIYA (lot. mahkam bog'lamoq) — “agar”, “unda”, “bunda” kabi bog'lovchilar yordamida ikkita murakkab gap, fikrni bir-biriga mantiqan bog'lash operatsiyasi.

48. IMPULSIVLIK (lot. turtki, moyim) — psixologiyada tashqi, tasodifiy turtki ta'sirida harakat qilmoq.

49. INDUKTSIYA (lot. keltirib chiqaruvchi, undovchi) — asosiy nerv jarayonlari bo'lgan tormozlanish va qo'zg'alish o'rtasidagi qonuniyat. U shundan iboratki, birining paydo bo'lishi ikkinchisi qarama-qarshi bo'lganining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

50. INITSIATSIYA (lot. sirli yuz berish) — yosh yigitni katta kishilar qatoriga qo'shish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar.

51. INTEGRAL (lot. butun, taxlangan) — uzviy bog'liqlik, butunlik, birlik.

52. INTERIORIZATSIYA (ichkiga aylanish) — ichki psixik faoliyatning tashqi amaliyot faoliyatidan kelib chiqishi.

53. INTROVERSIYA — shaxsning o'z fikrlari, sezgisi, kechinmalari, ya'ni o'z-o'ziga tayanishi.

54. INTUITSIYA — (lot. diqqat bilan qaramoq) — shaxsning muayyan sohadagi hayotiy yoki ilmiy tajribalarga asoslangan intellektual (aqliy) sezgirligi.

55. INFANTILIZM (lot. bolalarga xos) — ba'zi katta yoshdagi odamlarning funksional va psixik rivojlanishida bolalarga xos xislatlarning saqlanib qolishidan iborat bo'lgan psixofiziologik nuqson.

56. IRRADIATSIYA (lot. nur sochmoq) — tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining tarqalishi.

57. IRSIYAT — organizm xususiyatlarining ota-onada tarkib topib, mustahkamlanib, keyingi avlodga o'tish jarayoni.

58. INDIVIDUALLIK — har bir insonni boshqa insondan farqlab turuvchi xususiyatlar yig'indisi, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

59. ICHKI NUTQ — nutq faoliyatining bir turi bo'lib, unda nutq ichdan, ovoz chiqarmasdan ifodalanadi.

60. IRODA — insonning biror-bir harakatlarni bajarishga qaratilgan maqsad sari ongli intilishi.

61. IDROK — sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va

hodisalarning ongimizda butun, yaxlit holda aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayon.

62. **YO'NALTIRILGAN FAOLIYAT** – subyektning ma'lum vaziyatda faol yo'l topib keta oldishiga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisi.

63. **KINESTETIK SEZGILAR** (grekcha – harakat, sezgi) – gavdaning fazodagi holatini, ayrim organlarning harakatlarini aks ettiruvchi sezgi turlari.

64. **KOGNITSIYA** – tashqi muhit, o'zi va o'zining xulq-atvoriga taallyqli fikr, turli bilimlar.

65. **KOLLIZIYA** (lot. to'qnashuv) – qapama-qarshi qiziqish, intilish, fikrlar to'qnashuvi.

66. **KOMMUNIKATSIYA** (lot. axborot) – muloqot, axborot berish, aloqa qilish.

67. **KONFABULYATSIYA** (lot. vaysayman) – yorqin obrazli xarakterga ega bo'lgan yolg'on fantastik fikmi bildirish.

68. **KONFORMLIK** (lot. mos keluvchi) – psixologiya va sotsiologiyada ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, shaxsni gypuh bilan ham ichki, ham tashqi tomondan rozi bo'lishi. Ikkinchidan, tashqi tarafdin to'la rozilik bo'lsa ham, ichki tomondagi qarashlar qapama-qarshiligi.

69. **KONTSEPTSIYA** (lot. idrok etmoq) – qarashlar sistemasi, farazlar yig'indisi.

70. **KONFLIKT** (lot. to'qnashuv) – qarama-qarshi yo'nalishdagi fikrlar, kishilar va guruhlar orasidagi kuchli salbiy hissiy kechinmalarni keltirib chiqaruvchi to'qnashuv.

71. **KORRELYATSIYA** (qadimiy lot. o'zaro munosabat) – predmet, voqea xulq-atvorlarning o'zaro munosabati, o'zaro yopdam, o'zaro aloqa, o'zaro bog'liqligi.

72. **KASB-HUNAR KONSULTATSIYASI** – jamiyat ehtiyoji va yoshlarning qiziqish va iste'dodlariga qarab turli kasblar haqida ilmiy tashkil etilgan ma'lumotlarni berish.

73. **KASB-HUNARGA YO'NALISH BERISH** – yoshlarning ishga joylashishda xohishi, qiziqishi, shakllangan qobiliyati, layoqatiga qarab psixologik, pedagogik va tibbiy tadbirlarni o'tkazish.

74. **LOKAL** (lot. joh) – mahalliy.

75. **LOKOMOTSIYA** (lot. joy harakati) – inson va hayvonlarning erkin harakat qilishlarini ta'minlovchi harakatlar yig'indisi.

76. **MASHQ** – o'zlashtirish maqsadida qayta va qayta bajariladigan harakatlar.

77. **MANIPULYATSIYA** – qo'l yoki ikkala qo'lning ma'lum bir va-

zifani bajarish maqsadidagi harakati.

78. MANTIQ – a) to'g'ri fikrlashning qonunlari va shakllari haqidagi fan.

b) tafakkurga xos ichki qonuniyatlar, ketma-ketliklar.

79. MIELIN (grekcha – suyak, miya) – nervning yumshoq, asosiy qismi bo'lib, u yog'li suyuqlik ko'rinishiga ega.

80. MNEMONIKA (grek. eslab qolish san'ati) – sun'iy asotsiatsiyalari vujudga keltirish natijasida esda qondirilishni yengillashtirishni ta'minlonchi usullar yig'indisi.

81. MODELASHTIRISH – bilim obyektlarini modellar asosida yaratish va analiz qilish.

82. MORFEMA (grekcha – forma) – grammatik atama bo'lib, u so'zning eng kichik qismini ifodalaydi.

83. MORFOLOGIYA (grek. forma, fan) – INSON MORFOLOGIYASI (keng ma'noda) – inson tanasi tuzilishining rivojlanishi va faoliyatini o'rganuvchi fan.

84. MOTIV (lot. harakatlantiraman) – odamning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan uni muayyan xatti-harakatga undaydigan bosh sabab.

85. MUAMMOLI VAZIYAT – kishining ma'lum psixologik holatini xarakterlaydi, kishining ozida yangi faoliyat maqsadlari paydo bo'lganda, uni tafakkurni ishga solishga, chora-tadbirlarni topishga undaydi.

86. MALAKA – ongli faoliyatning ko'p takrorlanish yoki ko'p mashq qilish natijasida avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi, tez, tejimli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajariladigan harakat.

87. NEGATIVIZM (bolalar psixologiyasida lot. inkor qilaman) – atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qarshilik ko'rsatishi: ikki xil negativizm mavjud: passiv (qaysarlik) – taklif etilayotgan faoliyat bola tomonidan bajarilmasligi, aktiv shaxsiy negativizm bolaning qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan faoliyatni bajarishi.

88. NUTQ – kishilarni til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan jarayoni.

89. ONTOGENEZ (grekcha – mohiyatdan kelib chiqish) – shaxsning ona qornidagi embrional davridan boshlab to umrini oxirigacha yoki hayoti tugaguncha bo'lgan jismoniy psixik rivojlanishi. Psixologiya va pedagogikada maxsus ta'lim va tarbiya sharoitida bolaning funksional va psixik rivojlanishi.

90. ONG – obyektiv voqelikni aks ettirishning yuksak, faqat insonga xos bo'lgan turi. U shaxsning mehnat faoliyatida doimiy ravishda boshqalar bilan muloqotda bo'lishi jarayonida shakllanadi.

91. **PATOGEN** (grekcha – kasallik, kelib chiqarmoq) – kasallik keltirib chiqaruvchi.

92. **PERSONIFIKATSIYA** (lot. shaxs, yaratmoq) – jonlantirish. Jonsiz predmet va tushunchalarni inson obrazida tasavvur etish.

93. **POZITIV** (lot. ijobiy) – ijobiy, qarama-qarshi ma’nodagi soʻz, negativ.

94. **PREDMETLILIK** (idrokda) – obyektivlashtirish holati boʻlib, unda tashqi olamdan olinadigan ma’lumotlar qayta yana shu borliq bilan solishtiriladi va natijada idrokning real predmetlarni qabul qilishini ta’minlaydi.

95. **PROFESSIOGRAMMA** – muayyan kasbdagi faoliyat uchun zarur boʻlgan psixologik funksiyalar yigʻindisi. U asosida shaxsning qanday kasbga layoqatliligi, qiziqishi belgilanadi.

96. **PSIXIKA** – (grekcha-ruhiyat) – yuksak darajada tashkil topgan tirik materiya – miyaning obyektiv olamni alohida yoʻsinda aks ettirish qobiliyatiga ega boʻlgan alohida xususiyati.

97. **PSIXOANALIZ** (grekcha – ruh, yechmoq, hal qilmoq) – nerv va psixikaning ba’zi kasalliklarni davolashga qaratilgan metodi boʻlib, freydzizmning nazariy asosidir. Ushbu metod Z. Freyd tomonidan yaratilgan.

98. **PUBERTAT** (lot. jinsiy yetuklik) **DAVR** – jinsiy yetuklik davri boʻlib, unda jinsiy organlar va jinsiy bezlarning toʻla shakllanishi kuzatiladi. Ushbu davrda oʻsmirlarda qator tana va psixik oʻzgarishlar sodir boʻladi.

99. **REAKTSIYA** (lot. qarama-qarshi, harakat) – psixologiya va fiziologiyada ichki va tashqi muhitning turli taʼsirlariga organizmning javob harakati.

100. **REDUKTSIYA** (lot. oʻz holiga qaytarish) – organlarning oddiy-lashish tomonga boʻlgan rivojlanishi.

101. **REFERENT** yoki **ETALON GURUH** – bu shunday guruhki, unda kishi oʻzining dunyoqarashi, intilishlarini shakllantiradi, shu guruhning bergan bahosini qadrlaydi, fikrlari bilan hisoblashadi.

102. **REFLEKS** (lot. aks ettirish) – organizmning tashqi yoki ichki qoʻzgʻovchilarga nerv sistemasi orqali qonuniy ravishda qaytaradigan javob reaksiyasi. Shartli na shartsiz reflekslar mavjud. Shartli refleks organizmni ish faoliyati jarayonida qoʻzgʻovchilarga nisbatan paydo boʻladigan javob reaksiyasi. Shartsiz refleks tugʻma javob reaksiyasidir.

103. **REFLEKTSIYA** – oʻz-oʻzini kuzatish turi boʻlib, unda shaxsiy psixik holat analiz qilinadi.

104. **REGIDLIK** (lot. qotib qolgan) (**PSIXOLOGIIYADA**) – xulq-

atvorning turlaridan biri bo'lib, unda xulq-atvorning ma'lum bir holatlari qayta va qayta takrorlanadi.

105. RIVOJLANISHNING YAQIN ZONASI – murakkab vazifani hal etishda bolaning mustaqilligi (aktual rivojlanishi darajasi) hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidati farqini bildiradi. Bu tushuncha L.S. Vigotskiy tomonidan keltirigan bo'lib, unda asosan rivojlanishning yaqin zonasini yaratish orqali bolaning psixik rivojlanishi ortadi.

106. SEMANTIK (grekcha – tasvirlovchi) – ma'noli, so'zning ma'nosiga qaratilgan, ma'noga ega bo'lgan.

107. SENZITIV (o'rta lot. hissiy) YOSH DAVRI – ta'lim-tarbiya jarayoni orqali psixikaning samaradorligini ta'minlovchi optimal imkoniyat davri.

108. SENSORIKA (lot. his-tuyg'u) hissiy idrok elementlarining yig'indisi (his qilish, idrok qilish, tasavvur etish).

109. SENSOR YAKKALANISH – informatsiyaning yetishmasligi tufayli organizmning jiddiy funksional buzilishi.

110. SEZGI – sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon.

111. SIMBIOZ (grekcha – birga yashamoq) – ikki organizmning bir-biriga foyda keltirgan holda birga yashashi.

112. SINKRETIZM (grekcha – birlashtirmoq) – biror-bir narsaning boshlang'ich holatini xarakterlovchi birlik, bo'linmaganlik.

113. SKEPSIS (grekcha – shubha) – ishonmaslik, shubhalanmoq.

114. SOMATIK (grekcha – tana) – tananing funksiyalari bilan bog'liq bo'lgan holatlar.

115. SOTSIOMETRIK STATUS – sotsiometrik metod yordamida shaxsning guruhda tutgan o'rni. Bunda shaxsni tanlagan kishilar soni ahamiyatlidir.

116. SPONTANLI (lot. o'z-o'zidan) – o'z-o'zidan yuzaga keladigan.

117. STIMUL (lot. quvlashmchoq) – biror-bir harakatga undamoq, turtki.

118. SOTSIALIZATSİYALASH (lot. jamoaviy) – tarixiy jarayon bo'lib, u faoliyat va muloqotda individning ijtimoiy tajribani faol o'zlashtirishi natijasidir. Tarbiya sotsializatsiyaning aniqlovchisi va yo'naltiruvchisidir.

119. SITUATSIYA (vaziyat) (fran. holat yig'indisi) – subyektni faol undovchi tashqi sharoit sistemasi.

120. TEST – (ing. sinash, tekshirish) – shaxsning aqliy taraqqiyoti qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda

qo'llaniladigan standartlashtirilgan masalalar.

121. **TARBIYA** — shaxsning hayotga, mehnatga tayyorgarligini maqsadga yo'naltirilgan, tarixiy, ijtimoiy tajribaga suyanan holda shakllantiruvchi faoliyat.

122. **TA'LIM** — sistemalashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi. Ta'limning asosiy yo'li turli o'quv yurtlari sistemasida o'qishdir.

123. **TA'LIMGA BERILUVCHANLIK** — ta'lim jarayonida beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar, shaxs tomonidan o'zlashtirilishining individual ko'rsatkichlari.

124. **TAFAKKUR** — shaxsning obyektiv voqealikkdagi narsa va hodisalarni ularning muhim xususiyatlarini bog'lanish hamda munosabatlarni bevosita umumlashtirilgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyat. Tafakkur voqelikni sezgi, idrok va tasavvurlarga qaraganda chuqurroq, kengroq, to'liq bilishga imkon beradi.

125. **TUSHUNCHA** — predmet va hodisalarning xususiyatlarini umumiy holatda aks ettirish bilan bog'liq bo'lgan tafakkur hosili.

126. **TASAVVUR** — sezgi organlariga qachonlardir ta'sir etgan predmetlar va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi.

127. **TRANZITIVLIK** (lot. o'tish) — kattaliklarni solishtirishga xos bo'lgan mantiqiy xususiyat. Bunda agar birinchi kattalik ikkinchisi bilan solishtirilsa, ikkinchisini uchinchisi bilan, birinchisini esa uchinchisi bilan tengligini keltirib chiqarish mumkin. Masalan, $A=V$ va $V=S$, unda $A=S$ bo'ladi.

128. **UDDALASH** — muayyan faoliyat turining myvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi ongli va avtomatlashtirilgan harakatlar tuzilishi.

129. **FATAL** (lot. taqdir, qochib bo'lmaydigan) — taqdiridan qochib bo'lmaydigan, oldini olib bo'lmaydigan hodisa.

130. **FILOGENEZ** (grekcha — qabila, urug', hosil bo'lish) — muayyan tirik organizm turining yerda hayot paydo bo'lgandan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni. Psixologiyada inson psixikasining o'zgarishlari, uning inson evolutsiyasi va madaniyati bilan bog'liqligi tushuniladi. Individual taraqqiyot — ontogenez va tarixiy filogenez — tirik tabiatning ajralmas tomonlaridir.

131. **FREYDIZM** — zamonaviy psixologiyaning oqimlaridan biri. Unda inson psixikasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ongsiz mayl (jinsiy mayl) deb hisoblanadi. Bu oqim avstriyalik psixolog va psixiatr Zigmund Freyd nomi bilan atalgan.

132. **XOTIRA** — inson tajribasida bo'lgan narsalarni esda qoldirish,

mustahkamlash hamda tushunishdan iborat bo'lgan psixik jarayon.

133. SHAXSNING TALAB DARAJASI – shaxs uchun zarur bo'lgan og'ir yoki yengil obyektlar orasidan u uchun zarurini belgilovchi shaxs xarakteristikasi. Shaxsning talab darajasi o'tmishdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni hisobga olgan holda aniqlanadi.

134. EGOSENTRIZM (lot. men, markaz) – individualizm va egoizmning eng tuban turi.

135. EMANSIPATSIYA (lot– o'g'ilning ota hokimligidan qutulishi) – ta'sirdan, hokimlikdan, eskilikdan qutulish, huquqlarni tenglashtirish (masalan, ayollar emansipatsiyasi).

136. EMOTSIYA (lot. hayajonlantiraman, iztiroblayman) – his-hayajon, tuyg'uning bir turi bo'lib, u yoqimli va yoqimsiz kechinmalardan iborat.

137. EMPIRIK (lot. tajriba) – tajribadan kelib chiquvchi.

138. ENDOKRIN (lot. ichki, chiqaraman) BEZLAR – qon hamda limfalarga gormonlar ishlab chiqaruvchi ichki sekretsia bezlari.

139. EROTIK (seksual, shahvoniy) (grekcha – sevgili) HOLAT – jinsiy ehtiyoj bilan bog'liq bo'lgan holat.

140. ETIKA (grekcha – urf-odat) – axloqiylik, ma'naviylik haqidagi ta'limot.

141. EKSTREMAL “(lot. oxirgi) – oxirgi, o'ziga xos, iloji bo'lmagan holat.

142. EKSTIRPATSIYA (lot. ildizi bilan olib tashlash) – biror-bir organ yoki uning bir qismini olib tashlash.

143. “EDIP KOMPLEKSI” (Freyd ta'limoti) – o'g'ilning onaga, qizning otaga bo'lgan ongsiz jinsiy qiziqishi. Bu holat biror-bir jazoni olishdan qo'rqish tufayli yuzaga keladi. Bu tushunchani Freyd Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasidan olgan.

144. EKSTERIORIZATSIYA (tashqiga aylanish) – ichki psixik faoliyatning tashqi, predmetli faoliyatga, jonli mushohadaga aylanishi.

145. EKSTROVERSIYA – shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi. Ekstraversiya – qiziqishlarning subyektdan tashqaridagi obyektlarga ko'chishi demakdir.

146. EHTIYOJ – organizmning hayotni ta'minlovchi zarur bo'lgan aks ettirishdan iborat bo'lgan faoliyat motivi, qondirilmagan muhtojlikni sezish.

147. E'TIQOD – maslakni amalga oshirish, shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, xatti-harakati.

148. EKSTERNALLIK – INTERNALLIK (lot. tashqi va ichki)

individning muayyan lokus (joh)ga nisbatan joylashishi. Insonni o'z faoliyatini mas'uliyati tashqi kuchlar (eksternallik) yoki o'zining shaxsiy qobiliyati va urinishlariga (internallik) qo'shib qo'yish.

149. **EPISTEMOLOGIYA** (grekcha – bilim, ta'limot) – J.Piaje (Genetik psixologiyaning Jeneva maktabi) tomonidan ishlab chiqilgan tafakkurni tadqiqot qilish yo'nalishi. Uning asosiy maqsadi ontogenez va filogenez ma'lumotlarini sintez qiluvchi olamni bilishning nazariyasini yaratishdan iborat. Olamni bilishni rivojlantirishning ijtimoiy omillarini pesh qilish tufayli ushbu faraz to'la rivoj topmadi.

150. **EMPATIYA** (ing. hamdardlik, o'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish) – insonning boshqalar his-hayajoni, g'am-tashvishi, qiyinchiliklariga emotsional javob bera olish qobiliyati.

151. **O'YIN** – inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan taraqqiyotining bolalik davriga xos bo'lgan maxsus turi.

152. **O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH** – shaxsning o'z ijtimoiy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati.

153. **O'RGANISH, BILISH** – orttirilgan individual tajriba jarayoni va natijasi.

154. **O'Z-O'ZINI TUTA BILISH** – shaxsning muayyan sharoitlardagi ortiqcha fikrlari, his-tuyg'ylari, xatti-harakatlarini ongli ravishda tiyib turish, o'z fikri, hissiyoti va harakatlarini maqsadga yo'naltira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

155. **O'Z-O'ZINI TARBIYALASH** – shaxsning o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy axloq nuqtayi nazaridan tahlil qilish qobiliyati orqali o'zida ijobiy xarakter xislatlarini tarkib toptirishga qaratilgan ijobiy faoliyat.

156. **QIZIQISH** (ahamiyatga ega bo'lmoq) – kishining bilish ehtiyojlarini emotsional namoyon bo'lishi bilan bog'liq motiv.

157. **XAYOL** – mavjud tasavvurlarimizga asoslanib, avval idrok qilinmagan, turmush tajribamizda uchramagan narsa va hodisalarning obrazlarini yaratishdan iborat bo'lgan ongli faoliyat. Xayol – inson ijodiy faoliyatining asosidir.

158. **HARAKAT** – maqsadga munofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi, ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – T., 1997-yil 29-avgust.
2. XTVning «Uzluksiz metodik xizmatni tashkil etish to'g'risida»gi 2002-yil 109-sonli buyrug'i va uning ilovalari.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T., 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T., 1997.
5. Подласый В.Л. Педагогика.–М.: «Владос», 2004.
6. Yo'ldoshev J.G'. Ilg'or pedagogik texnologiya. T.: «Fan», 2004.
7. Sayidahmedov N.S. Ilg'or pedagogik texnologiya.
8. Yo'ldoshev U.A. Ilg'or pedagogik texnologiya amalda. Navoiy, 2003.
9. Yo'ldoshev U.A. Interaktiv dars usullari. Navoiy, 2004.
10. Yo'ldoshev J.G'. , Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiya asoslari.–T., 2004.
11. Barotov Sh.B. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. – T., 1999.
12. Umumiy psixologiya. A.D. Petrovskiy tahriri ostida – T., 1986.
13. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Ped. ins-tlarning talabalari uchun o'quv qo'llanma. A.I. Sherbakov tahr. ostida. – T.: "O'qituvchi", 1991. 312-b.
14. Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika vositalardan foydalanish. Tuzuvchi N.A. Sog'inov.– T., 2001. 40-b.
15. Shoumarov G'.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. – T., 1999. 120-b.
16. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – T.: O'qituvchi, 1994. 312-b.
17. G'oziyev E.G'. , To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: Universitet, 1997.

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Pedagogika tarixi va nazariyasi	4
1.1. Ta'limning didaktik tamoyillari va qoidalari	4
1.2. Motiv – bilish jarayonining harakatlantiruvchi kuchi	13
1.3. Pedagogik mahorat ta'lim jarayonining bosh mezoni	21
1.4. Pedagogik tajriba psixolog nigohida	23
1.5. Tarbiya san'ati va texnologiyasi	27
1.6. O'z-o'ziga ta'lim va tarbiya	30
II bob. Uzlüksiz metodik xizmat hujjatlari, nizomlar	18
2.1. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti to'g'risida Nizom	33
2.2. Tuman (shahar) Metodika kabineti huzuridagi Metodika kengashi to'g'risida Nizom	37
2.3. Tuman (shahar) fan Metodika uyushmalari to'g'risida Nizom	39
2.4. Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodika kengashi to'g'risida Nizom	43
2.5. Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan Metodika birlashmalari to'g'risida Nizom	46
2.6. Tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi qoshidagi Metodika kabineti kutubxonasi to'g'risida Nizom	48
2.7. Tuman (shahar) Metodika kabineti qoshidagi Tayanch maktablari to'g'risida Nizom	52
2.8. Sirtqi olimpiada maktabi to'g'risida Nizom	53
2.9. Olimpiada xazira maktabi to'g'risida Nizom	55
2.10. Uzlüksiz metodik xizmat bo'yicha namunaviy ish rejalar	58
III bob. Ta'lim metodikasi va ilg'or pedagogik texnologiya	76
3.1. Ilg'or pedagogik texnologiya	76
3.2. Interaktiv dars ishlanmasiga qo'yilgan talablar	78
3.3. Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari	80
3.4. Axborot texnologiyasida pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari	83
3.5. Ilg'or pedagogik texnologiya talablari	84
3.6. O'qitish metodikasi. Ilg'or pedagogik texnologiya	85
3.7. Interaktiv dars usullari	89
3.8. Interfaol usullar asosidagi dars ishlanmalari	95
IV bob. Pedagogika diagnostikasi va didaktikasi	123
4.1. Shaxslarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash testi	123
4.2. Pedagog xodimlar uchun tezkor savol-javoblar	127
4.3. Pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha testlar	136
4.4. Pedagog shaxsining kasbiy yo'nalishini baholash testlari	201

V bob. Psixologik testlar va tavsiyalar	222
5.1. Iqtidorli bolalarni aniqlash, ishlash, rivojlantirish muammolari	222
5.2. Iqtidorli bolalarni aniqlash testlari	229
VI bob. Maktab amaliy psixologlari va o'qituvchilar uchun tavsiyalar	232
6.1. Maktab psixologining o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari	232
6.2. Pedagogning kasbiy faoliyatini baholash	232
6.3. Pedagogning empatik qobiliyatini aniqlash testi	234
6.4. Geometrik shakllar asosida odam rasmini chizish	236
6.5. Xotirani baholash testi	238
6.6. Korreksion ishlar	238
6.7. O'qituvchilar psixik holatini neyrolingvistik dasturlash orqali boshqarish	244
6.8. Psixogeometrik test	246
VII bob. Qiziqarli psixologik testlar	248
7.1. «Norasolik kompleksi» testi	248
7.2. Balki noyob odamdirlar?	252
7.3. O'rtoq topish osonmi?	253
7.4. Siz o'z bolangizga qanday munosabatdasiz	254
7.5. Sizning bolalaringiz bilan munosabatingiz qanday?	256
7.6. Siz yaxshi rahbarimisiz?	256
7.7. O'z hayotingizning kapitanimisiz?	259
7.8. «O'zingni angla» (Ikki kishi qayiqda)	260
7.9. Ranglar tafsiloti	261
7.10. Yozuv orqali shaxsning o'ziga xosligini aniqlash usuli	261
7.11. Tug'ilgan sanaga mos xarakter xususiyatlari	263
VIII bob. Shaxs, muhabbat va turmush	266
8.1. Muhabbat psixologiyasi	266
8.2. Raqamlar tilga ko'chganda. Uyingizning raqamini aytsangiz	271
8.3. Qon guruhingizni bilasizmi?	273
8.4. Odamning biologik soati	274
8.5. Harflar nimadan darak beradi. Ism taqdirni belgilaydi	276
8.6. Harflar inson xarakteridan darak beradi	277
8.7. Maslahatlar, qiziqarli testlar, holatlar	278
8.8. Pedagogik qobiliyat va uni aniqlash testi	295
IX bob. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat	299
9.1. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat to'g'risida Nizom	299
9.2. Darsning psixologik tahlili	307

9.3. Mijozni aniqlash so‘rov varaqasi	309
9.4. O‘quvchilarning turli sohadagi (yoki ayrim sohadagi) kasblarga nisbatan qiziqishlar darajasini aniqlash testi	312
9.5. O‘z qiziqishingizni aniqlang	317
9.6. Sen kimsan? Intellektni aniqlash testi	322
9.7. Xarakterning ish xususiyatlari	324
9.8. Kasb tanlash motivlari	325
9.9. Sovg‘a olish sizga yoqadimi?	325
9. 10. Yosh bo‘lgingiz kelsa!	327
9. 11. Immunitetingiz sozmi?	329
9. 12. Barmoqlar yordamida tetiklik	330

X bob. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixologiyasi diagnostikasi	332
10.1. Rasm bola qalbining ko‘zgidir	332
10.2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayonlari diagnostikasi	334

XI bob. Shaxs va jamoa psixologiyasini o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar	347
11.1. Shaxs kartasi	347
11.2. Sinf jamoasini psixologik o‘rganish	352
11.3. Darsni psixologik jihatdan tahlil qilish	355
11.4. O‘quvchilarda psixik jarayonlarni o‘rganish	358
11.5. Darsning psixologik tahlil sxemasi	364

Ilova. Pedagogik psixologiyaga oid izohli lug‘at	365
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	396

IBRAGIMOV X.I. YO‘LDOSHEV U.A. BOBOMIRZAYEV X.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

O‘quv qo‘llanma

Muharrir Ibrohim Karimov
Sahifalovchi O. Rahmonov
Musahhah H. Zokirova

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100083, Toshkent, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.
Tel: 136-55-79; faks: 139-88-61

Bosishga ruxsat etildi 01.07.2009-y. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i 26,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 25,0. Adadi 2000 nusxa.
Buyurtma № 11.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.